5. Matyakubov Nurbek Mustaqillik yillarida O'zbekistonda uy-joy siyosati (Normativ-huquqiy hujjatlar asosida) Zien Journal of Social Sciences and Humanities 2021. 141-143 betlar

6. Radjabova Munisa. "State Of Housing Policy In Uzbekistan" New York, International Conference on Advance Research in Humanities, Applied Sciences and Education 2022.107-112 betlar

7. <https://1ppa.ru/uz/opportunities/federalnaya-celevaya-programma-po-uluchsheniyyu-zhilishchnyyh-uslovii/>

YONG‘IN XAVFSIZLIGI TARIXI (TARG‘IBOT MARKAZI MUZEYI MISOLIDA)

Boltayev Bobir Baxtiyorovich,

Buxoro davlat universiteti, Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası katta o‘qituvchisi

Annotasiya: Ushbu maqolada yong‘in xavfsizligi xizmati sohasining shakllanishi va uning rivojlanish bosqichlari xronologik ketma-ketlik asosida yoritib berishga harakat qilingan. Bundan tashqari ushbu soha vakillarining mashaqatli va sharaflı kasbi haqidagi ma‘lumotlar va manbalar O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda Vaziyatlar Vazirligi Buxoro viloyati Yong‘in xavfsizligi boshqarmasi targ‘ibot markazi muzeyida mavjudligi bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Dekret, brandmeysterlar, komanda, nizom, yong‘indan saqlash, zilzila, muzey, ekspozitsiya, general-mayor, aviasozlar.

ИСТОРИЯ ПОЖАРНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ (НА ПРИМЕРЕ МУЗЕЯ АГИТЦЕНТРА)

Болтаев Бобир Бахтиёрович,

Бухарский государственный университет,

Старший преподаватель кафедры Археологии и истории Бухары

Аннотация: В данной статье предпринята попытка объяснить формирование сферы службы пожарной безопасности и этапы ее развития исходя из хронологической последовательности. Кроме того, информация и ресурсы о непростой и почетной профессии представителей этой сферы доступны в музее пропагандистского центра управления пожарной безопасности МЧС Республики Узбекистан Бухарской области.

Ключевые слова: Указ, брендмастера, командование, устав, противопожарная защита, землетрясение, музей, экспозиция, генерал-майор, авиационные инженеры.

THE HISTORY OF FIRE SAFETY (ON THE EXAMPLE OF THE MUSEUM OF THE PROPAGANDA CENTER)

Boltaev Bobir Bakhtiyorovich,

Bukhara State University, Senior Lecturer of the Department of Archeology and History of Bukhara

Annotation: This article attempts to explain the formation of the fire safety service and the stages of its development based on the chronological sequence. In addition, information and resources about the difficult and honorable profession of representatives of this sphere are available in the museum of the fire safety propaganda center of the Ministry of Emergency Situations of the Republic of Uzbekistan in the Bukhara region

Keywords: Decree, brand master, command, charter, fire protection, earthquake, museum, exposition, major general, aviation engineers.

Kirish: Islom dini o‘rta Osiyoga kirib kelgunga qadar odamlar Zardushtiylik diniga, ya‘ni uning asosi bo‘lmish olovga sig‘inganliklari tarixdan ma‘lum. Qadimda O‘rta osiyoda yashagan xalqlar uchun olov bemisl kuch-qudratga ega bo‘lgan va barcha marosimlar uning atrofida o‘tkazilib kelingan. O‘rta Osiyoda Islom dini joriy etila boshlangan davrlarda boshlab esa bu jarayon keskin o‘zgaradi. Olovda hech qanday ilohiy qudrat yo‘qligini bilgan kishilik jamiyati a‘zolari unga sig‘inishdan to‘xtab, faqatgina ro‘zg‘or ishlarida foydalana boshlaydilar. Afsuski, vaqti kelib odamzod olovdan yovuz maqsadlarga ham foydalana boshlaydi. Olov yovuz niyatli kishilarning himoya vositasigina emas, hujum qilish, o‘ldirish vositasiga ham aylana ulguradi. XII asr oxirlari XIII asr boshlarida dunyoni zabt etish maqsadlarida ulkan qo‘shin tuzib barcha mamlakatlar, xalqlar qatori O‘rta Osiyoga bostirib kirgan Chingizxon shaharlaru qishloqlar, qal‘alarga hujum paytida olovli paykonlardan keng foydalangan, bosib olingan joylarga o‘t qo‘ydirib, aholisini qilichdan o‘tkazishga buyruq bergan. Uning ko‘p sonli tish-tirnog‘igacha qurollangan qo‘shini 1220 yilning bahorida Buxoro shahri ustiga yurish qilib, uni 12 kecha-yu kunduz qamal qilgan, yondirib, kulini ko‘kka sovurgan shahar mudofachilarini esa ayovsiz qilichdan o‘tkazgan. Ko‘hna Samarqand shahrini egallash uchun olib borilgan janglarda ham olov Chingizxon va uning yovuz qo‘shinlari uchun katta kuch vositasi bo‘lib xizmat kilgan. Bunday bosqinchilik yurishlari haqida o‘z davrida muarrixlar tarixiy ma‘lumotlar qoldirganlar[1]. Haqiqatdan ham insoniyat asta-

sekinlik bilan o'zining g'arazli maqsadlarida olovdan tez-tez foydalana boshlagan. Qaysi bir harbiy to'qnashuvni biz misol qilmaylik, barchasi insoniyat qo'li bilan yaratilgan shahar-qishloqlarning talofot ko'rishiga, vayrona bo'lishiga olib kelganligini alohida ta'kidlab o'tmoqchimiz. Shunday hollarda yong'inni jilovlay oladigan va uni bartaraf etadigan soha vakillariga ehtiyojning paydo bo'lishi natijasida yong'in xavfsizligini oldini olish va uni bartaraf etish xizmatining vujudga kelish tarixini yoritish bizning nazarimizda hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ushbu mavzuni keng qamrovli yoritish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qaror va Farmonlari, Matlyubov B.A. O'zbekistonda jamoat tartibi va xavfsizlikni ta'minlash tarixi (Ichki ishlar organlari misolida): Monografiya / - T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2021. – 648 b., Buxoro viloyati favqulotda vaziyatlar boshqarmasi yong'in xavfsizligi bo'limi muzeyida mavjud bo'lgan eksponatlar kitobi. Kazakov T. Kasbim faxrim. – Buxoro: "Buxoro" nashriyoti, 2018. – 222 b, kabi manbalar o'rganib tahlil qilindi va xulosalandi.

Tarixdan bizga ma'lumki, Turkistonda, uning ma'muriy markazi Toshkentda ham o't o'chirish jamoa (komanda)larining vujudga kelishi o'lkada sodir bo'lib turgan yong'inlar tufayli bo'lib, bu masalaga Chorizmning Turkistondagi ma'murlari jiddiy qarashga majbur bo'lganlar. Shunga ko'ra, Turkiston general-gubernatorligi ruxsati bilan 1897 yilda Toshkentda ruslardan iborat ilk ko'ngilli "Ozod o't o'chirish jamiyati" tashkil etilgan. Uning Nizomi 81 banddan iborat bo'lib, Toshkent shahar Dumasida bir necha marta ko'rib chiqilib, 1897 yil 15 mayda qabul qilingan. Maxsus o't o'chiruvchilar jamoalari tashkil etilishining o'ziga xos sabablaridan yana biri o'lkada paxta sanoatini kuchaytirish, zavodlar, ularni mablag' bilan ta'minlovchi banklarni tashkil etishga e'tibor kuchayganligi, bundan Chor hukumati manfaatdorligining oshganligidir. Chorizm davrida Turkistonda, jumladan Toshkent shahrida faoliyat olib borgan o't o'chiruvchilar "brandmeysterlar" deb atalib, ular ixtiyoriga suv to'ldirilgan bochkali ot-aravalar berib qo'yilgan. Modomiki, dunyo bo'yicha yong'in xavfsizligini ta'minlash hayotiy bosh masalalardan biriga aylanib borayotgan bir davrda, ya'ni XIX asrning oxirlari XX asr boshlarida Turkistondagina emas, chor rossiyasining o'zida ham yong'inga qarshi kurash ishiga sovuqqonlik ko'rsatilib kelingan. Albatta, yong'inga qarshi kurash, sodir bo'lgan yong'ini bartaraf etishning ilk texnika vositalari, ularga mas'ul kishilardan iborat jamoalar tarixi haqida uzoq fikr yuritish mumkin. Asosiy maqsadimiz esa respublikamiz yong'in xavfsizligi xizmatining olis o'tmishi va bugunini yoritish bo'lganligi bois ham tarixning ayrim sahifalariga yana bir karra to'xtalib o'tish e'tiborga molikdir deb o'ylaymiz. Ko'pgina soha xodimlari yong'in xavfsizligi xizmatining tashkil etilishi tarixi asosan 1918 yilda Rossiya Xalq komissarlari Soveti tomonidan qabul qilingan Yong'inga qarshi kurashda davlat choralari tashkil etish to'g'risida"gi Dekret bilan bog'liq, deyishadi. O'sha hujjat e'lon qilingach, yong'indan saqlash bo'limi va mazkur bo'lim kengashi tashkil etilib, uning zimmasiga yong'indan saqlash bo'limi va mazkur bo'lim kengashi tashkil etilib, uning zimmasiga yong'indan saqlash ishlarini olib borish va umumiy rahbarlik qilish vazifasi yuklatilgan edi. Respublika Davlat arxivida saqlanayotgan va yong'in xavfsizligi xizmati tarixiga oid ba'zi manbalarda 1917 yilda Toshkentda uncha katta bo'lmagan ikkitagina o't o'chirish jamoa (komanda)si bo'lganligi, ulardan biri shaharning eski shahar qismida, ikkinchi jamoa esa shaharning yangi qismida, ya'ni Gogol ko'chasida joylashganligi, uning a'zolari soni 40 nafardan iboratligi qayd qilib o'tilgan [2]. 1921 yilda esa Turkiston Respublikasi xalq komissarlari Sovetining "O't o'chiruvchilar komandalari shaxsiy tarkibini qizil Armiyaorti oziq-ovqatlar bilan ta'minlashga o'tkazish to'g'risida" qarori qabul qilingan, xuddi shu yili Toshkentda o't o'chiruvchi texnikalarni tayyorlash kurslari tashkil etila boshlagan. Respublikaning ko'pgina shaharlari va qishloqlarida ozod o't o'chiruvchilar jamoalari tashkil etilib, o'lkada yong'indan saqlashni mustahkamlash maqsadlarida birmuncha imtiyozlar berilgan. Xuddi o'sha yili Turkiston Respublikasi Ichki ishlar Xalq komissarligida yong'indan saqlash bo'limi kommunal bo'limiga aylantirilgan edi. Bu bo'lim zimmasiga aholi uy-joylar ahvolini yaxshilash bilan birga yong'inni oldini olish, agarda u sodir bo'lsa, uni bartaraf etish vazifasi ham yuklatilgan edi. 1921 yil 19 martda bo'lib o'tgan yig'ilishda yong'in xavfsizligi xizmati faoliyati qoniqarsiz deb topilib, jiddiy tanqid ostiga olindi. Buning asosiy sababi qilib esa texnika vositalarining yetishmasligi hamda xodimlar malakasining juda pastligi ko'rsatib o'tildi. Yuqoridagi tanqidlardan xulosa qilish maqsadida:

1922 yil Toshkent shahar Sovetining qaroriga ko'ra Toshkentning Xadra maydoniga yaqin, sobiq Toshtram binosida 12 kishidan iborat bo'lgan o't o'chiruvchilar deposi tashkil etildi. Respublika sanoatiga ayni paytda zamonaviy o't o'chirish texnikalari, maxsus avtomashinalar kerak bo'lib qolgan edi. XX asrning 20-yillar oxirlari, 30-yillarning boshlarida Farg'ona, Marg'ilon va Buxoro shaharlarida dastlabki ipak mato ishlab chiqaruvchi fabrikalar ishlay

boshlagani, Andijonda neft qazib chiqarila boshlanganligi sanoatning bunday tarmoqlarini ot-aravali suv bochkasi bilan yong'inlardan muhofaza etish jismonan mumkin bo'lmay qolganligini ko'rsatdi. 1931 yilda ot-aravali o't o'chirish vositalari o'rni texnika egallay boshladi. O'sha yili respublikaga Avstriya, Germaniya firmalari tomonidan ishlab chiqilgan dastakli o't o'chirish avtomashinalari Rossiya orqali olib kelina boshlandi. 1932 yil o'rtalarida o't o'chiruvchilar komandasiga ilk marta GAZ-AA rusumli bitta o't o'chirish avtomashinasi olib kelindi, bunday mashina yil oxiriga kelib ikkitaga yetdi. 1933 yilning 1 yanvarida Toshkent shahar Yong'indan saqlash bo'limi boshlig'i D.I.Kuzovkin tomonidan qismlarda kecha-yu kunduzi navbatchiliklar to'g'risida va harbiy bo'linmalardagi kabi o't o'chiruvchilarga harbiy nishon berilishi haqida buyruq chiqariladi [3]. 1934 yilning oktyabrida 3 ta yong'in stansiyasi qurilishi to'g'risida qaror qabul qilinadi. 1936 yilga kelib O'zbekistonda 1924 yilga nisbatan ikki marta ko'p 20 ta o't o'chirish jamoa (komanda)si bor edi. Komanda o'sha yillarda Toshkent shahar ijroiya qo'mitasi qaramog'ida bo'lib, 1936 yilda Respublika Ichki ishlar xalq komissarligi (NKVD) tasarrufiga o'tkazildi. 1938 yil 6 mayda SSSR Xalq Komissarlari Soveti qabul qilgan maxsus qarorda boshqa respublikalar qatori O'zbekistonda yong'in nazorati va yong'indan saqlashni kuchaytirish, yong'indan saqlashni qayta tashkil etish, shaharlardagi korxonalarda ishchi-xizmatchilardan iborat ko'ngilli o't o'chirish drujinalarini vujudga keltirish belgilab berilgan edi. Ikkinchi jahon urushi yillarida Toshkentda qayta tashkil etilgan va harbiylashtirilgan o't o'chirish bo'linmalari soni 12 taga yetkazildi, ularning 6 tasi Aviasozlar, Toshkent to'qimachilik kombinati, Toshkent qishloq xo'jaligi mashinasozligi, Kabel ishlab chiqarish korxonalarida edi. Ular turli yo'nalishdagi 30 ta yong'in o'chirish avtomobili bilan taminlangan edi. 1942 yilning 13 avgustidagi SSSR XKS qaroriga ko'ra davlat yong'in nazoratining vakolatlari yanada kengaytirilgan [4].

Xalq xo'jaligining barcha tarmoqlaridagi yong'in xavfsizligi uchun javobgarlik 1944 yilgacha V.B.Nikolayev, 1944-47 yillarda esa G.A.Antonov rahbarligidagi Yong'indan saqlash bo'limiga yuklatilgan va bu bo'lim harbiy qonun-qoidalarga muvofiq ish yuritib kelgan. Xizmat tizimidagi yangilanishlar dastlab D.M.Matveyev 1948-52 yillarda, so'ng S.T.Shabanov 1952-56 yillarda rahbarlik qilgan davrlarda ko'zga tashlana boshladi. Ular boshlagan texnika ta'minoti xizmat binolarini qurish ishlarini 1956-57 yillarda yong'indan saqlash bo'limiga rahbarlik qilgan N.R.Hamidov, 1957-68 yillarda V.Ye.Paradalar davom ettirishdi. 1957 yilga kelib qismga ZIS-150 shassisidagi bitta PMZ-17 avtoullovi berilgan. Yangi yong'in o'chirish avtomashinasi keltirilishi munosabati bilan komandada shaxsiy tarkib soni 74 kishi qilib belgilangan. 1957 yil ushbu qismga ichki xizmat kapitani A.Bekbulatov, 1958 yil esa ichki xizmat mayori H. Rahmonovlar rahbarlik qilishgan. Ushbu kasb egalarining mashaqqatli, sharaflil mehnatini yuqori baholab hukumat 1957 yilda "Yong'indagi jasorati uchun" medalini ta'sis etgan. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozim-ki, o'tgan asrning 60-yillarida mamlakat xalq xo'jaligini yong'inlardan muhofaza qilish va yong'in xavfsizligini ta'minlashga oid bir qancha me'yoriy hujjatlar, Qarorlar va ko'rsatmalar qabul qilinganligi davlat tomonidan yong'in nazorati va yong'indan saqlash tizimiga naqadar katta vazifalar, mas'uliyat yuklatila borilganligidan dalolatdir. Masalan, 1964 yilning 3 yanvarida O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining "Yong'in xavfsizligi qoida talablarini buzganligi uchun jarimaga tortish to'g'risida". 1967 yil 12 mayda "Mehnatkashlar deputatlari Soveti ijroiya komiteti qoshida shtatsiz yong'in inspektorlari guruhlar haqidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi, 1968 yil 6 mayda "Respublika ko'ngilli yong'in o'chiruvchilar jamiyatlariga rahbarlik qilishni yaxshilash bo'yicha choralar to'g'risida"gi qarorlari o'sha davr uchun muhim yangiliklar sirasiga kiradi [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot ishida tarixiylik va ilmiylik hamda xronologik va qiyosiy tahlil usullaridan keng foydalanilgan.

1960-80-yillardagi tabiiy ofatlar oqibatlarini bartaraf etishda Respublika yong'in xavfsizligi xizmati vakillarining o'rni nihoyatda ahamiyatli bo'lganligiga tarixning o'zi guvohdir. Masalan, 1966 yilda Toshkentda va 1980 yilda Toshkent viloyati Nazarbek qo'rg'onida sodir bo'lgan zilzila oqibatlarini bartaraf etishda, tabiiy ofatdan zarar ko'rganlar va jabrlangan kishilarga yordam ko'rsatishda, ularni qutqarish, olov iskanjasidan olib chiqib birinchi tibbiy yordam ko'rsatish paytida yong'in o'chiruvchilar juda katta matonat va jasorat ko'rsatishganligi alohida tahsinga sazovordir. Zilzila natijasida vayronaga aylangan uylar ostidan odamlarni qutqarish, ular hayoti uchun kurashish hammaning ham qo'lidan kelavermaydi. O'sha davrda zilzila oqibatida bir kecha kunduzda sodir bo'lgan yong'inlar soni 250 tagacha yetganligini bugungi avlod yaxshi bilmaydi. O'sha yong'inlarni tezkorlik bilan o'chirish va odamlar, ularning mulklarini qutqarib qolish uchun naqadar ko'p kuch va iroda kerak bo'lganligini faqat mazkur soha kishilari faoliyatini yaxshi bilgan yoki undan xabardor bo'lgan kishilargina tushuna oladilar. Toshkentdagi kuchli

zilzila oqibatlarida yuz bergan yong'inlar va ularda jabr ko'rgan kishilarni qutqarib qolish, zilzila oqibatlarini bartaraf etishdagi jasoratlari uchun respublikamizning 120 nafar yong'in o'chiruvchisi "Yong'indagi jasorati uchun" medali bilan taqdirlangan. 1973 yilning 1 yanvariga kelib ana shu medalgaga O'zbekistondan taqdirlangan yong'in o'chiruvchilar soni 178 nafarga yetganligi so'zimizning yorqin isbotidir. Yuqorida misol qilib keltirilgan taqdirlarda mard, jasur, vatanparvar yong'in xavfsizligi xodimlarini tarbiyalashda O'zbekistonda yong'in xavfsizligi xizmatini takomillashtirishda, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash ishlarining samarali yo'lga qo'yilishida munosib hissa qo'shgan rahbar xodimlarning roli ham juda katta deb hisoblaymiz. Shulardan biri Bahodir Ergashevich Qosimovdir [6]. U sobiq Ittifoq IIV Yong'indan saqlash Oliy texnik maktabining Toshkent fakultetiga rahbarlik qilgan 1984-1991 yillarda mazkur fakultet hamda Toshkent yong'in-texnik bilim yurti bazasida Respublika IIV Yong'indan so'ng saqlash Oliy texnik maktabiga asos solgan rahbarlardan hisoblanadi.

U 1988 yilda yong'in xavfsizligi xizmatining qator muammolari mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqlab, O'zbekistonda birinchilardan bo'lib, soha yo'nalishidagi yirik masalalarni ilmiy jihatdan tahlil etib bergan va Respublikada ilmiy va amaliy salohiyatga ega mutaxassislar tayyorlash bilan bog'liq qator muammolarni ko'tarib chiqqan olimdir. Yuridik fanlari doktori, professor B.Qosimovga 1994 yilda general-mayor unvoni bilan taqdirlangan. Bahodir Ergashevich Qosimov 1984 yildan 1998 yilning iyul oyigacha turli rahbarlik vazifalarida xizmat qilib, respublikada yetuk mutaxassislar avlodini tarbiyalash va voyaga yetkazishga muhim hissa qo'shdi. Undagi rahbarlik iste'dodi, mamlakatimiz xalq xo'jaligini yong'inlardan muhofaza etishdagi chuqur bilim va salohiyat ayniqsa, 1998 yildan 2002 yilga qadar Respublika Favqulodda vaziyatlar vaziri bo'lib ishlagan davrlarda yanada ko'proq namoyon bo'ldi. Endilikda iste'fodagi general-mayor Bahodir Ergashevich Qosimov yoshlar murabbiysidir [7].

Tahlil va natijalar. Sobiq Oktyabr, hozirgi Shayxantohur tumani Toshkentning eski shahar qismida birinchilardan tashkil topgan hududi bo'lib, undagi barcha davlat xo'jalik va idoralari, tashkilotlari hamda aholi xonadonlarini yong'inlardan mudofaa etish vazifasi 5-Mustaqil o't o'chirish qismi (bu vaqtga kelib 5-IHO'O'Q shunday nomlana boshlagan) zimmasiga yuklatilgan. Qism eski shaharning bozor hududida, Sag'bon ko'chasidagi eski binoda faoliyat olib borgan. Ichki xizmat mayori Anatoliy Maksimovich Sluskiy 1992 yilgacha rahbarlik qilgan. 1991-95 yillarda ichki xizmat mayori Azim Abutovich Akbarov, 1995-2001 yillarda ichki xizmat podpolkovnigi Anvar Saydullayev, 2006-2008 yillarda podpolkovnik Ma'ruf Mahmudovich Adilov, 2009 yildan esa podpolkovnik Shavkat Nigmatovich Ibragimov rahbarlik qilishdi. Mustaqillik yillariga kelib Shayxantohur tumani IIB Yong'in xavfsizligi bo'limi shaxsiy tarkibi yangi yong'in o'chirish avtomashinalari bilan to'la ta'minlandi. Xizmat binosi ta'mirdan chiqarilib, shaxsiy tarkib malakali yosh xodimlar bilan mustahkamlandi [8]. 2001 yil 25 iyunda Respublika Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida yong'in xavfsizligi tizimini takomillashtirish tadbirlari to'g'risida"gi qarori chiqib ko'p tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Mustaqillik yillarida yong'in xavfsizligi soha vakillari har tomonlama hukumatning qo'llab quvvatlashi bois, rivoj topdi va takomillashib bordi. Istiqloq sharofati bilan yangidan yangi zamonaviy bino va inshootlar ishlab chiqarish tarmoqlari, tashkilotlar va muassasalar qad rostladi. Endilikda Respublikada yong'in xavfsizligi xodimlarini tayyorlash va ularning malakasini oshirish maqsadida oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari zamonaviy talablar asosida qayta jihozlandi. Fuqarolarning osoyishda turmush kechirishini ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi Yong'in Xavfsizligi Boshqarmasi xodimlari yetarlicha shart-sharoitlar hamda tajribaga ega bo'lishdi. Bundan tashqari 2019 yilda Yong'in xavfsizligi boshqarmasining Favqulodda Vaziyatlar Vazirligi boshqarmasi tarkibiga o'tkazilgandan so'ng Buxoro viloyati Yong'in xavfsizligi boshqarmasi huzuridagi muzey targ'ibot markazi tarkibida ham ijobiy o'zgarishlar boshlab yuborildi. Ya'ni, muzey eksponatlari, zallar qayta shakllantirildi. Ushbu tarkibiy o'zgarishlarda muzeyning eksponatlari zallarga tig'iz joylashtirilib, favqulodda holatlar boshqarmasi xodimlarining faoliyatini aks ettiruvchi yangi uchta zal ekspozitsiyasi faoliyat boshladi.

Xulosa va takliflar. Ushbu o'zgarishlar mutaxassis kadrlar va ularni tayyorlaydigan ta'lim muassasalariga ham ta'luqli bo'lib, Muzey fondlaridagi adabiyotlarda qayd etilishicha, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Yong'in xavfsizligi oliy texnika maktabi kelajagi ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yildagi qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tasarrufiga o'tkazilib, ushbu vazirlik uchun mutaxassislar yetishtirib beruvchi muassasaga aylantirilgan [9]. Ushbu o'zgarishlar ham muzey eksponatlarida o'z ifodasini topganligini ko'rishimiz mumkin. 2020-yil 1-yanvardan boshlab Favqulodda Vaziyatlar Vazirligi tizimiga o'tkazilgan Yong'in xavfsizligi bosh boshqarmasi va

Yong'in xavfsizligi institutining shahodatlangan xodimlari, ichki ishlar organlari xodimlari uchun ko'zda tutilgan maxsus unvonlar bo'yicha amaldagi ish haqi miqdori saqlangan holda yagona harbiy xizmatchi maqomiga, professional yong'in bo'linmalarining ishchi-xizmatchilari esa - O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi qutqaruvchisi maqomiga ega bo'ladilar [11]. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tizimdagi bunday ijobiy o'zgarishlar soha vakillarining o'z faoliyatidagi mardonovor jasorati, qahramonligi aks etirilgan har qanday ekspozitsiya yoki foto lavhalar o'sib unib kelayotgan yosh avlodni shu vatanga muhabbat ota - onaga hurmat ruhida tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Kazakov T. Kasbim faxrim. – Buxoro: “Buxoro” nashriyoti, 2018. – 189 b.
2. O'zbekiston Milliy Arxivi (O'zMA) 59-fond, 1-ro'yxat, 89-yig'ma jildi, 292-293 varaqlar.
3. O'zbekiston Milliy Arxivi (O'zMA) 59-fond, 1-ro'yxat, 89-yig'ma jildi, 302-305 varaqlar.
4. Yong'in xavfsizligi: xizmat yillarida. – T.: O'zbekiston Respublikasi Yong'in xavfsizligi bosh boshqarmasi, 2011. – B. 115.
5. To'xtayev S. Buxoro viloyati IIB mayori YOXB katta muhandisi. Hayratonlik otaxon. // Yong'in xavfsizligi (Pojarnaya bezopastnost). Ixtisoslashtirilgan amaliy-ilmiy, texnikaviy jurnal. 2010. № 7 (59) – B. 46. – B. 43.
6. Buxoro yong'in xavfsizligi: o'tmish va bugun. – T.: “Buxoro” nashriyoti, 2007. – B. 56.
7. Kazakov T. Kasbim faxrim. – Buxoro: “Buxoro” nashriyoti, 2018. – 163 b.
8. Buxoro viloyat IIB Yong'in xavfsizligi boshqarmasi, targ'ibot va tashviqot markazi “Yong'in xavfsizligi bo'yicha videofilmlar, ko'rgazmalarni ro'yxatga olish daftari”. – Buxoro -2006. – 2 sahifa.
9. Matlyubov B.A. O'zbekistonda jamoat tartibi va xavfsizlikni ta'minlash tarixi (Ichki ishlar organlari misolida): Monografiya / - T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2021. – B. 87.
10. <https://lex.uz/ru/docs/-4320295>
11. <https://daryo.uz/2019/01/11/ozbekiston-davlat-yongin-xavfsizligi-xizmati-favqulodda-vaziyatlar-vazirligi-tasarrufiga-otkaziladi/>
12. Boltayev B. O'ZBEKISTONDAMUZEY ISLOLOTIYO'LIDA//SYeNTRNAUCHNBYX PUBLIKASIY (buxdu. uz). – 2021. – T. 6. – №. 6.
13. Bakhtiyorovich B. B. Excerpts from the life of the bukharian artist //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 12. – S. 160-165.
14. Boltayev B. “Jasorat” muzeyi: tarix va talqin Ta'lim va innovasion tadqiqotlar. № 5//, 2022 may, Buxoro. B 40-46
15. Buxoro viloyati yong'in xavfsizligi tarixi muzeyining tavsifi. Research on social and humanitarian sciences. Pheladelf (USA) Volume: 01. Issue:01/Jan-2023.-P.96-101.
16. Excerpts from the life of the bukharian artist. Middle European Scientific Bulletin, volume 12 May 2021. -P.160-165.
17. Buxoro davlat universiteti muzey laboratoriyasining tashkil topishi va rivojlanish tendensiyasi. International journal of philosophical studies and social sciences. Vol 2, Issue 3 2022. <http://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss>. -P.69-73.
18. Yangi O'zbekistonda zamonaviy muzeylarning vujudga kelishi: tarixiy va innovasion yondashuvlar. Markaziy osiyo sivilizatsiya tizimida o'zbekiston tarixi va madaniyati xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Qarshi, 14 may 2022 yil- B.331-333.

**PHILOSOPHICAL-EDUCATIONAL NOTIONS AT THE LITERATURE OF
CENTRAL ASIA IN 19-20 CENTURIES
(ON THE EXAMPLE OF MAHMUDHOJA BEHBUDIY)**

Khamdamova Sitora Safarovna

*Doctor of Philosophy (PhD), Senior teacher Academy of The Ministry of Internal Affairs of
the Republic of Uzbekistan*

Abstract: The article dwells on the philosophical and educational ideas of thinkers of Central Asia (on the example of Mahmudhoji Behbudiy), who worked at the end of the 19th century at the beginning of the 20th century and the philosophical, educational, moral significance of their valuable works on the cultural development of the young generation. He laid the foundation for the scientific study of modern society and state education in art and journalistic publications of Uzbekistan.

Keywords: philosophical and educational ideas, social activities, thinkers, education, national revival, national ideology, civilized culture, modern enlighteners.

**ФИЛОСОФСКИЕ И ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИЕ ИДЕИ В ЛИТЕРАТУРЕ
ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В XIX-XX ВЕКАХ
(НА ПРИМЕРЕ МАХМУДХОДЖА БЕХБУДИ)**

Хамдамова Ситора Сафаровна

*доктор философии (PhD) по философским наукам
старший преподаватель Академия МВД РУ*

Аннотация: Статья останавливается на формировании философско-просветительских идей мыслителей (на примере Махмудходжа Бехбуди) Центральной Азии, творившие в конце XIX в начале XX века и философской, просветительской, нравственной значимости их ценных произведений на культурное развитие молодого поколения. Он положил основу научного изучения современного общества и государственного образования в художественных и публицистических изданиях Узбекистана.

Ключевые слова: философские и образовательные идеи, общественная деятельность, мыслители, воспитание, национальное возрождение, национальная идеология, цивилизованная культура, современные просветители.

**19-20 ASRLARDA O'RTA OSIYO ADABIYOTIDAGI FALSAFIY-TA'LIMIY
TUSHUNCHALAR (MAHMUDHOJA BEHBUDIY MISOLIDA)**

Hamdamova Sitora Safarovna

*Falsafa fanlari doktori (PhD) Katta o'qituvchi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi
O'zbekiston Respublikasi ishlari*

Annotatsiya: Maqolada 20-asr boshlarida 19-asr oxirida ijod qilgan O'rta Osiyo mutafakkirlarining falsafiy-ma'rifiy g'oyalari (Mahmudhoji Behbudiy misolida) va uning falsafiy, tarbiyaviy, axloqiy ahamiyati haqida to'xtalib o'tilgan. ularning yosh avlod madaniyatini yuksaltirish borasidagi qimmatli asarlari. U O'zbekiston badiiy va publitsistik nashrlarida zamonaviy jamiyat va davlat ta'limini ilmiy tadqiq etishga asos solgan.

Kalit so'zlar: falsafiy-ma'rifiy g'oyalar, ijtimoiy faoliyat, mutafakkirlar, maorif, milliy tiklanish, milliy mafkura, sivilizatsiyalashgan madaniyat, zamonaviy ma'rifatparvarlar.

Introduction. The personality of M. Behbudiy in the light of the National Independence of the Republic of Uzbekistan deserves special attention. The son of a mufti and himself later becoming a famous mufti in Samarkand, he played a huge role both in the formation and development of enlightenment, and in updating the upbringing and education system. Behbudiy dreamed of enlightening the widest sections of the population, sought to acquaint them with the elementary foundations of modern education, pedagogy and science, instill in the Uzbeks, Tajiks, Kyrgyz a new way of life, seeing one of the main reasons for the backwardness of the Emirate of Bukhara from the rest of the world in the lack of education, ignorance of people. If earlier in the culture of the peoples of Central Asia ignorance was mainly spoken of in a poetic, allegorical, non-addressed form, then starting from Ahmad Donish, in the work of the Jadids, in particular in the work of M. Behbudiy, ignorance began to be condemned in connection with the activities, behavior of specific

persons (Bukhara officials, religious figures, etc.)

Literature review. At the first stage of the enlightenment movement, some Jadids, for example, A. Fitrat, were indeed Turkophiles to a certain extent (admirers of everything Turkic, Turkophiles), because they were greatly influenced by the Turkish way of life and thinking, which was closer to European, more developed, dynamic thinking. Thus, they expressed their rejection, dissatisfaction, indignation at what was happening in Bukhara.

In their educational ideas, the Central Asian Jadids proceeded not so much from purely theoretical reflections and philosophical reflections, but from a direct collision with European cultural traditions, from their life experience, which they acquired during their travels in the countries of the Muslim East, Russia and Europe. For most of them, the journey was a kind of "school for testing life's difficulties, a school for learning about the world." According to the tradition in Central Asia, since the time of Nosir Khusrav (XI century), the author of the famous "Safarnoma" ("Journey"), wanderings were considered as a way to achieve the Truth, and a person who visited distant countries enjoyed special respect and honor. Enlighteners of Central Asia, following the tradition, sought to give people a new idea of life, to instill a new way of thinking and understanding of the world through the literary genre of travel, combining scientific, publicistic and artistic at the same time in their works. It can be said that the literary work of the Jadids is interesting precisely in the genre of travel, in which the social, socio-political, ethical and aesthetic ideals of the Jadids found a vivid expression. Suffice it to recall "Memoirs of the journey of

M. Behbudiy, works with the same name "Journey" by Mirzo Siroj, Chulpan, Abdullo Avlony, Fitrat, Mukimiy, "Book of Travels" ("Navdir ul-vaqoe") by

A. Donish, which appeared as a result of his three trips to Petersburg.

Traveling has never been easy. Even at the end of the century before last, a person had to walk, ride a mule or a camel, and only in the civilized part of the East and West - by train. All this, of course, required a huge expenditure of physical and spiritual energy from a person. But the Jadids went for it in the name of knowledge and spiritual perfection. They often repeated the words of Sheikh Saadi: "You have to travel a lot and see so that the raw becomes ripe." [6, 215]

Discussion. The personality of M. Behbudiy is of particular importance from the point of view of the national independence of the Republic of Uzbekistan. The mufti's son later became a well-known mufti of Samarkand. He played a big role in the formation and development of education, as well as in updating the education system. Behbudiy dreamed of enlightening the general population, tried to introduce them to modern education, pedagogy and the basics of science, to introduce the Uzbeks, Tajiks, and Kyrgyz to a new way of life. One of the main reasons for the backwardness of the Emirate of Bukhara from the rest of the world, he considered the ignorance and ignorance of the people. If earlier ignorance in the culture of the peoples of Central Asia was mainly spoken of in a poetic, ironic and general form, then, starting with Ahmed Donish, in the works of his contemporaries, including M. Behbudiy, ignorance, ignorance - the activities and behavior of individuals (Bukhara officials, religious figures, etc.), began to be criticized in connection with the movement.

As mentioned above, in addition to being the editor of the Oyina magazine, M. Behbudiy explained and promoted progressive ideas in his articles, and not only wrote effectively (again, in a simple and understandable language for ordinary people), but also always gave materials relating to Europe and civilized culture. In one of his articles, he writes: "I say with great regret that if we take a sober look at the current situation of the peoples of Turkestan and Iran, we will see that those who are lagging behind the culture and science of this world, where these two peoples came into contact, are nothing more than a misunderstanding of the needs of the times. In addition, indifference to other cultures is a consequence of the inability to use the results of the science of other peoples. Basharti said that if Turkestan wants to achieve its former power, then it should turn to the science and knowledge of other peoples. [4, 10]

Behbudiy puts forward the idea of the incomparable role of the intelligentsia in raising the people to the level of the nation. This was a phenomenal event for the socio-political conditions of Turkestan at that time. Moreover, it manifested itself as a philosophy of raising the quality of the nation to a new level. In particular, his view of the "necessity of science, education, books and newspapers" in the development of a nation, as a criterion for the formation of a nation through disputes between social strata and political forces in society, lives on as an urgent task even for the present.

He thought about it based on his life experience. At the age of twenty-five, Behbudiy made a pilgrimage to Mecca, visited Turkey, Egypt, Syria and other Muslim cities. Admiring the strength

and power of Islamic culture, especially architecture and art, he also admires the civilizational influence of Europeans in the Middle East. As researchers of the life path and historical outlook of Behbudiy D. Alimova and D. Rashidova note, "Behbudiy enthusiastically writes about universities and higher educational institutions in Beirut, where German, French and English are taught, where French and English teachers teach. They have chemical laboratories, medical "Dar-ul-Funun" - operating rooms. It is no coincidence that later he founded a new style school, where teaching was based on European and Russian methods and principles of education. It is impossible not to admire his courage that a school more than a mosque should be opened in Turkestan." [1, 32-34]

As we mentioned above, Mahmudhoja Behbudiy is a person who has made a significant contribution to the field of science and education of the country among modern enlighteners. It will not be a mistake to say that his rare works have not lost their importance and relevance today.

Mahmudhoja Behbudiy was not only a modernist of Turkestan at the beginning of the 20th century, but also a person who expressed in his work and worldview the ideology of the national independence of the Uzbek people. Probably not, he wrote. Mahmudkhoja Ismailbek Gasprinsky highly valued Behbudiy as his teacher [2, 9], his thinking and devotion to the cause of the nation. and the student of each methodical school, Savtiya, and the editor of each journal are indirect students of the deceased. ... There is no such breed among the Muslims of Russia [3, 182-183], his words are proof of this opinion.

The importance of newspapers and magazines in the work of Behbudiy is incomparable. Indeed, in difficult times, he did not stop publishing articles for the press, wrote articles expressing his thoughts and views on the social situation in the country, political situations and spiritual and educational trends, and in all his articles, along with the perfection of humanism, social justice is the main thing.

In 1913, on the initiative of Mahmudhoji Behbudiy, the newspaper "Samarkand" and the magazine "Oyina" were published. But after the 45th issue, the newspaper stops due to financial constraints. "Oyina" became the first magazine published in the Uzbek language and became popular among the people. The magazine published 68 issues in 2 years from 1914, and also ceased operations on June 15, 1915. [5, 45]

In addition, judging by the contents of the Oyna magazine, one can see that Behbudiy clearly distinguished between scientific and technical and general cultural knowledge, moral and aesthetic values. He calls not to abandon enlightened Islamic values, not to deviate from them, to study in depth one's own religion, culture and writing, i.e. Arabic spelling.

Despite the fact that the Oyina magazine did not operate for long, in this magazine for the educational and spiritual growth of the people, as well as the activities of Behbudiy, social and educational events are held in foreign countries where he travels, there are many articles about Rifian phenomena. The articles published in this magazine show how fruitful Behbudiy's work is, and he is not only a writer, but also a journalist. In Mahmudhoji Behbudiy's articles, the main issue is the idea of a person who studies knowledge, education, law and foreign languages and becomes a scientist.

In the work of M. Behbudiy, we can meet the first example in Uzbek culture of the tragic genre of dramatic art, free from romantic and legendary connotations. M. Beybudi's tragedy "Padarkush" is essentially a social tragedy. All human problems - family misfortune, alienation from the homeland and the liver, loss of hope for a happy life, lack of a clear goal and profession in life, etc. - In the play "Padarkush" this is connected with the ignorance and ignorance of a person. The fact is that M. Behbudiy does not look at tragic situations and events, as in the art of world tragedy, as the fate of the sky, salty forehead, bitter fate, eternal historical necessity, but connects this with human ignorance. Ignorance is the main culprit in the oppression and suffering of people. The strict law of the nature or fate of the father is not dictated from the outset, but is a product of the ignorance and lack of education of this person.

So, the tragedy in the play "Padarkush" is determined, first of all, by the socio-historical nature of the period in which M. Behbudiy lived. The heroes of the tragedy reflect their ignorant ignorance of the world and human life in their actions. Diligence, diligence, honesty, courage and other high moral qualities inherent in a person are alien to them. Ignorance, ignorance and hardened traditionalism form the basis of their daily behavior. Thus, the tragic collision of M. Behbudiy is based on the ignorance and ignorance of the slave.

Conclusion. Analyzing all the dramatic works of the Jadids, it is difficult to find in them an ideal hero who embodies the best qualities of a person in the imagination of the people and who can be an object of imitation for the younger generation. The heroes of Jadid dramas are either a

poppy, or a swindler, or a usurer, or a prostitute, a fool, an oppressed, unhappy family and everyday life, etc. What does all this mean? All this indicates that in the conditions of the Emirate of Bukhara and the Kokhan Khanate, human life (if we take a dramatic work for real life, its reflection in a mirror) was destroyed. Life is not perceived by the heroes of the plays as a divine gift, which should be appreciated, enjoyed by its beauty and grace. Such a life is very difficult, even disgusting for the heroes of modern dramas, and therefore they refuse to live or are perceived as superfluous people. The only way out of life's troubles is to achieve enlightenment, which the ancients have always called for. As can be seen from the above analysis, the philosophical, educational and political ideas put forward by Mahmudhoja Behbudiy in his artistic and journalistic work at the beginning of the 20th century were of exceptional importance in the national awakening and self-consciousness not only of the Turkestans. region, but also the peoples of Central Asia. These ideas manifested themselves as conceptual strategies in eliminating the complications of the old feudal society of the peoples of Central Asia, in the development of a new national statehood. In addition, the philosophical and political ideas of national statehood put forward by Behbudiy undoubtedly serve as the cornerstone of our national ideology, which is currently being formed.

References:

1. Alimova D., Rashidova D. Mahmudhoja Behbudiy and his historical revivals. Tashkent, "Spirituality", 1998
2. Kasimov B. Maslakdosh.-T.: Shark, 1994
3. Mahmudhoja Behbudiy. Government and rulers.// Selected works. Edition 2 corrected and enlarged.-T.: Spirituality
4. Oyna 1913. – № 7; 1914. – № 31, 1915. – №60.
5. Said Ziya. Materials on the history of Uzbek chronometry. Selected works. –T., 1974
6. Saadi. Gulistan. M. "Nauka", 1959

QORAQALPOG'ISTON DAVLAT ARBOBI QALLIBEK KAMALOV

Koshanov Baxitbay Abdikerimovich-Qoraqalpoq davlat universiteti tarix fanlari doktori, professor.

Ibragimov Baxadir Zinaddinovich-Qoraqalpoq davlat universiteti assistenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada 1950-1980 yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasida qator rahbar lavozimlarda faoliyat yuritgan, "yurt otasi" Qallibek Kamalov haqida so'z etiladi. Uning rahbarligi ostida Qoraqalpog'istonda amalga oshirilgan islohotlar bayon etiladi. Tarixiy voqealarning davlat arboblari xotiralarida taxlil qilishi masalalari bayon etiladi. Bu davr rahbarlari Pirjan Seitov, Mateke Jumanazarov, Naurыз Japaqovlarning obrazlarini Nuriddin Muhiddinov, Qallibek Kamalov, Aynazar Kunnazarov, Otarbay Seitov, Sultan Qaniyazov, Musiren Kinbaev, Kuo'anyshbay Uteniyazov va boshqalar xotiralarida yoritilgan va xolis baho berib xulosalar chiqaradi. Muallif ushbu davr davlat arboblarning xotiralarini tarixiy manba sifatida ilmiy muomalaga kiritish ahamiyati haqida bayon qiladi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, Qoraqalpog'iston, davlat arboblari, xotiralar, tarixiy voqealar, tarixiy manbalar, "Yel xizmetinde", SSSR, KPSS.

**ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ДЕЯТЕЛЬ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН
КАЛИБЕК КАМОЛОВ**

Кошанов Бахытбай Абдикеримович -доктор исторических наук, профессор

Каракалпакский государственный университет

Ибрагимов Бахадир Зинаддинович-ассистент

Каракалпакский Государственный Университет

Аннотация. В данной статье рассказывается об «отце страны» Каллибеке Камалове, который занимал ряд руководящих должностей в Республике Каракалпакстан в 1950-1980 гг., описываются реформы, проведенные в Каракалпакстане под его руководством. освещены вопросы анализа исторических событий в воспоминаниях государственных деятелей. Ему удалось выделить образы лидеров этого периода Пиржана Сеитова, Матеке Джуманазарова, Наурыза Жапакова, Нуриддина Мухиддинова, Каллибека Камалова, Айназара Кунназарова, Отарбая Сеитова, Султана Каниязова, Мусирена Кинбаева, Куоанышбая Утениязова и других, и давать беспристрастные оценки. Автор описывает важность введения в научный оборот воспоминаний государственных деятелей этого периода в качестве исторического источника.

Ключевые слова: Узбекистан, Каракалпакстан, государственные деятели, воспоминания, исторические события, исторические источники, «Ел хизметинде», СССР, КПСС.

**STATESMAN OF THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN KALLIBEK
KAMOLOV**

Kochanov Bakhytbai Abdikerimovich Doctor of Historical Sciences, Professor of Karakalpak State University

Ibrahimov Bahodir Zinaddinovich-Assistant of

Karakalpak State University

Annotation. This article talks about the «father of the country» Kallibek Kamalov, who held several leadership positions in the Republic of Karakalpakstan in 1950-1980. The reforms implemented in Karakalpakstan under his leadership are described the issues of analysis of historical events in the memories of statesmen are described. He was able to highlight the images of the leaders of this period, Pirzhan Seitov, Mateke Jumanazarov, Naurыз Japakov, Nuriddin Muhiddinov, Kallibek Kamalov, Aynazar Kunnazarov, Otarbay Seitov, Sultan Kaniyazov, Musiren Kinbaev, Kuo'anyshbay Uteniyazov, and others, and make impartial assessments. The author describes the importance of introducing the memories of the statesmen of this period into scientific circulation as a historical source.

Key words: Uzbekistan, Karakalpakstan, statesmen, memories, historical events, historical sources, «El xizmetinde», USSR, CPSU.

Qallibek Kamalov 1950-1980-yillari davlat ishlarida faoliyat ko'rsatdi. 1947 yildan O'zLKSM Qoraqalpog'iston viloyati kotibi, 1949 yildan birinchi kotibi bo'lib mehnat faoliyatini yoshlar tashkilotlarida boshladi. 1951-1952 yillari Qallibek Kamalov Qoraqalpog'iston Ministrlar Soveti raisining ijtimoiy-iqtisodiy masalalari bo'yicha o'rinbosori, 1952-1953 yillari Nukus shahri

ijroiya qo'mitasi raisi, 1953-1956 yillari kommunal xo'jaligi ministri, 1956-1958 yillari avtomobil transporti va tosh yo'llar ministri, 1958-1959 yillari Kuybyshev tuman partiya qo'mitasi birinchi kotibi bo'lib ishladi. 1959-1963 yillari Qoraqalpog'iston Ministrlari Soveti raisi bo'lib ishladi. 1963-1984 yillari viloyat partiya qo'mitasi birinchi kotibi bo'lib ishladi. 1986 yili Rumyniyada sobiq SSSR konsuli lavozimida ishlayotganida hibsga oldi. 1991 yili Qoraqalpog'istonning mohir, taniqli davlat va jamoat arbobi Qallibek Kamalovning pok nomi tiklandi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Qoraqalpog' buyuk siymosining hayoti va faoliyatini o'rganishda turli uslubiy tamoyillardan, xususan, fanlararo yondashuvdan foydalaniladi. Bu davr davlat arboblarning xotiralarini tarixiy manba sifatida ilmiy muomalaga kiritish katta ahamiyatga ega.

Muammoni shakllantirish.

O'zbekiston Qahramoni, Qoraqalpog'iston va O'zbekiston xalq shoiri Ibrauyim Yusupov Qallibek Kamalov nomiga yozilgan xatida «Hurmatli Qallibek og'a! Siz o'zingiz haqida, ya'ni o'z o'miringiz, davringiz haqida kitob yozishingiz kerak. Bunday voqealarga to'la boy o'mir topila bermaydi. Yoningizga bir kuchli jurnalist oling va yozing. Qoraqalpog'istonni jahon sahnasiga chiqarib tonitganda bosh rejisser, albatta, o'zingiz. Shuning uchun, bu kitob qiziqli bo'ladi» deb yozgan edi.

1995 yili 13 aprelda Qallibek Kamalovning xotiralarini jurnalist Abdibay Qarlibaev tomonidan adabiy lashtirilib nashiriyotga taqdim etildi. Xotiralariga taniqli olim adabiyotshunos Kamal Mambetov, faylasuf olimlar Jumanazar Bazarbaev, Tajen Izimbetov, huquqshunos olim Sagyndyk Nietullaevlar fikr-muloxaza berdilar. 10 ming nusqada chop etilgan davlat arboblarning xotiralarini «Yel xizmetinde» deb nom oldi.

Qallibek Kamalovning «Yel xizmetinde» xotiralarini kirish qismidan boshqa «O'zbek xalqi bilan mangu birga», «Qoraqalpog'ning uch ustuni», «Dehqon yerni tuydursa, yer xalqni tuydirar», «Qatorda nori bo'lsa, yuki yulda kolmas», «Qoraqalpog' ayol-qizlari», «Qurilish rivojlanmasdan, el rivojlanmas», «Sanoatdagi burilishlar», «Diplomatik ishda», «Kengashli El azmas», «Bilim – aql chirog'i», «Universitetni ochishga bog'liq muommalar», «Ilmiy elga nur», «Den sog'lik terang boylik», «Badiiy sanaat elning kurki», «Til va adabiyot, tarix haqida fikrlar», «Biz mehmondos xalq», «Elimiz yoshlariga tilek-nosihatlarim» boblaridan iborat.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi xalq xo'jaligini qayta tiklash og'ir bo'lgan, xalqimiz ulkadagi buyuk qurilishlarda, temir yul, boz yerlarni o'zlashtirishga katta umid bog'ishlaganin akalarimiz va opalarimizning xotiralarida o'qiydiz. Bu davr rahbarlari Pirjan Seitov, Mateke Jumanazarov, Nauryz Japaqovlarning obrazlarini Nuriddin Muxiddinov, Qallibek Kamalov, Aynazar Kunnazarov, Otarbay Seitov, Sultan Qaniyazov, Musiren Kinbaev, Quo'anyshbay Uteniyazov va boshqalar xotiralarida yoritadi [1].

Ikkinchi jahon urushi yillaridan keyingi 1960-1970-yillar tarixini bayon etishda Qallibek Kamalovning xotiralarini bebaho manba hisoblanadi.

Qallibek Kamalov xotiralarida janubiy tumanlardagi Amudaryoning deygish olish tarixi bayon etilgan. Turtkul va Beruniy so'v bilan taminlaydigan magistral Paxtaarna kanali juda yomon ahvolda edi. Normadagi sekundiga 15-20 kub metr urniga 6-7 kub metr so'v oqdi. Qallibek Kamalov Qoraqalpog'iston yoshlar tashkiloti kotibi bo'lib ishlagan yillari, jumladan 1946-yili oktabrda Turtkul va Beruniy tumanlaridan 6 ming yoshlar Paxtaarna kanali tarmog'ida 11,5 km qozish ishlarini bajardi. Bu kanal tarmog'iga Qallibek Kamalovning tasdiqlaganiday faqat 1956-yili temir-beton inshooti qurildi.

Qallibek Kamalov 1950-yili Shumanay katta paxtachilik tumani tashkil etilganini va bunda ishtirok etgan mehnat fidoyilari ismlarini aytib utadi. Shuningdek, 1948-yili bahorda Qirg'iz qiz massivida 950 gektar yer o'zlashtirilib, 700 gektariga chigit ekildi. Qoraqalpog'istonda 1950-yili sug'orish inshootlari bor yerlar maydoni 204090 gektar, paxta 78 ming gektar bo'ldi [2].

Q.Kamalov 1960-yili kolxozlarni yiriklantirish kampaniyasini ta'qiq ostiga oladi. Respublikamizdagi 410 kolxoz 200 kolxoz bo'lib yiriklandi, o'larning har bittasi o'rta hisobda 883 gektar yer maydoniga ega bo'ldi. Masalan «Kegeyli» kolxozi yer maydoni bir tuman maydonini egalladi. Bu esa kolxoz rahbariga qo'chimsha vazifalarni yukladi.

Bu yillari yakka xo'jaliklarga bog'monchilik uchun berilgan 2622 gektar yer olib qo'yildi. Kolxozlarga fuqaro xalqdan 1083 yirik qora mol, 4146 qo'y echki, 1800 yilqi qaytib olindi. Bu choralar Qallibek Kamalovning fikricha xalqqa qaratilgan sovetlar hokimiyati zulmi ifodasi edi. 1947-yili pul islohoti o'tkazildi, kartochkalar tartibi bekor etildi, lekin bu choralar ham dehqonlarga tegishli bo'lmadi.

Sovetlar tuzumi yillari yirik g'alaba sifatida Qallibek Kamalov Qoraqalpog'istonda 1950-yildan chig'ir o'rniga nasos qurilmalari ishga tushganligini aytib o'tadi. Bunga 5,6 million so'm mablag' ajratildi.

Shuningdek, Amudaryo qo'yi tomoni va Turkmaniston Respublikasida paxtachilikni rivojlantirish maqsadida markaz 1950-yili Bosh Turkman kanali qurilishi haqida qaror qabul qildi.

Bu kanal Taxiotosh shahridan boshlanib, Qoraqalpog'iston, shimoliy Turkmanston, Sariqomish va Uzboy orqali Kaspiy dengiziga borishi kerak edi. Lekin, bu kanal qurilishi «mablag' ko'p talab etadi va iqtisodiy foydasi yuq» deb topilib, 1953-yili markaz tomonidan birotola toqtatildi. Amudaryo yuqori tomonida 1400 km Qoraqum kanali qurilishi boshlandi. Oqibatida Orol dengizi fojiasiga olib keldi.

Qallibek Kamalovning Orol fojiasi to'g'risidagi fikr-mulohazalari diqqatga sazovar. Birinchidan, Orol dengizi qurishiga markazning paxta monopoliyasi sabab bo'ldi. Ikkinchidan, sholi ekinlari ko'paydi, daromad keltirdi, lekin so'v isrofgarchiligi kelib chiqdi. Shunga qaramasdan 1960-yillarni «turg'unlik» deb hisoblashga Qallibek Kamalov qarshi chiqadi.

Haqiqatda Qoraqalpog'iston xalq xo'jaligida 50-yillarda sobiq SSSRning paxta mustaqilligiga erishish rejasi ustun bo'ldi. Markaz paxta mahsulotini 1950-yildagi 139 ming tonnadan 1955-yili 207 ming tonnaga yetkizishni talab qildi. Lekin Qoraqalpog'iston uch yil (1951-1955-yy.) davomida paxta rejasini bajara olmadi.

Shuningdek Qallibek Kamalov 1950-yillar o'rtasidagi markazning «jo'xori - eng hosildor don o'simligi, o'ni barcha hududlarga kengdan tarqatish kerak» shiorini maqullamaydi. Sobiq KPSS Markaziy Qo'mitasi bosh kotibi N.S.Xrushevning ko'rsatmosiga muvofiq bu o'simlik respublikamizning shimoliy tumanlariga ham ekila boshladi, masalan, Qorauzakda- 432 gektar, Xo'jaylida- 465 gektar, Qo'ng'irotda- 365 gektar, Chimboyda- 171 gektar, Qipchoqda – 77 gektar, Muynaqda- 65 gektarga jo'xori ekildi.

Qallibek Kamalov 1950-yillar o'rtasidagi Xruşevning ot, echki, eshaklarga qarshi siyosati, cho'chqa boqishga etibor qaratgani natijasida respublika mol charvochiligida xatoliklarga yo'l qo'yilganini aytib o'tadi. Masalan, 1955-yili kolxozlarda 159,2 ming yirik qora mol, 358,2 ming qo'y, 1,9 ming cho'chqa bor edi. Al, 26907 yakka xo'jaliklarda yirik qora mol, 8775 xo'jaliklarda umuman mol bo'lmadi. Respublika bo'yicha yilqilar va echkiler yo'q bo'lib ketdi.

1956-yili har bir kolxozchi faqat 15 sotyx yerga, 1 sigir va 5-6 qo'yga ega bo'lgan. Bunday siyosat dehqonlarning manfaatiga javob bermaganini Qallibek Kamalov o'z xotiralarida aytib o'tadi.

Qallibek Kamalov markazning yer o'zlashtirish va so'g'orish ishlariga baho beradi. 1960-yillari Orol dengizi so'vining pasayib ketishiga etibor bermay, markaz Amudaryo bo'yida katta sholi maydonini tashkil etdi. Qoraqalpog'istonda faqat 1962-1965-yillari sholi uchun 7,5 ming gektar yangi yer ochildi, 8 maxsus sovxoz va 1 kolxoz tashkil etildi. Sholi topshirish 1961-yilgi 3,5 ming tonnadan 1965-yili 27,9 ming tonnaga ko'paydi.

1966-1970-yillari sholi mahsuloti 27 ming tonnadan 57 ming tonnaga ko'paydilar, al paxta 24 foizga ortib, markaz 934,7 ming tonna Qoraqalpog'iston paxtasini oldi. Bu yillari Amudaryoning yuqori va o'rta oqimi tomonlarida paxta uchun so'vdan foydalanish ko'paydi, Qoraqalpog'istonda so'v kam bo'ldi. Qallibek Kamalov Qoraqalpog'iston hukumati Amudaryo so'v resursini tengdan foydalanish bo'yicha Nukusda maxsus boshqarma tashkil etish muommasini markazga bir necha bora taklif etganini yozadi. Lekin ushbu masalani markaz yechib bermadi. Sibir so'vlarini Markaziy Osiyoga olib kelish rejasi ishlab chiqildi, lekin natijasi bo'lmadi.

Qoraqalpog'istonda og'ir so'v ozligi yillari ham paxta va sholi uchun Yangi yerlar ochish davom etdi. 1970-1980-yillari Ellikqala, Janbasqala, Qyırqyız, Ayazqala massivlarini o'zlashtirish tarixiy jarayoni Qallibek Kamalov xotiralarida ifodalangan. Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligida 140 nafardan 88 nafar xo'jalik paxtachilik, 17 nafar sholi, 25 nafar charvochilik va 10 nafar xo'jalik bog'bonchilikga iqtisoslashtirildi. Paxta bosh o'rinni egallagan edi. Markaz talabi bo'yicha paxta mahsulotini 450 ming tonnaga yetkizish rejalashtirildi. Qallibek Kamalov Ellikqalaning eng daslabki namunali paxtakorlari Iskender Allambergenov, Narbay Rozyimbetov, Saodat Qurbanova, Achil Rozumov, Suxban Jumaniyazovlar fidoyi xizmatiga yuqori baho beradi. 1977-yili Ellikqala tumani tashkil etildi. 1970-yillar oxirida paxtachilik uchun 18 ming gektar yangidan yer ochildi. Agar Ellikqalada davlatga topshirilgan paxta 1976-yili 36 ming tonna bo'lsa, 1980-yili 53 ming tonna bo'ldi. Oxirgi besh yilda markaz 230 ming tonna Ellikkala paxtasini oldi.

1970-yillari shimoliy tumanlarda ham sholi va paxta uchun Yangi yerlar o'zlashtirildi. Q.Kamalov xotiralarida Qum'yıqqın, Quo'anıshjarma, Bozatao' va Shaqaman massivlari tarixi yaxshi yoritilgan.

Umuman, 1971-1975-yillari –337,5 ming tonna, 1976-1980- yillari –370 ming tonna, 1981-1984- yillari –405,8 ming tonna Qoraqalpog'iston paxtasini oldi.

1970-yillar o'rtalarida Qoraqalpog'istonning sholi sovxozlarida 300 yuqori ma'lumotli, 700 o'rta injener-texnik xodimlar ishladi. Bu yillari Qoraqalpog'iston rahbari Qallibek Kamalov taklifi bilan sholi tajribasiga muhandis Krasnodar o'lkasidan olimlar A.I.Maystrenko, Ye.P.Aleshin va I.M. Chaun, bir qancha Kuban' kombaynchilari respublikaga sholiga yerdamga kelib o'z tajribalari bilan bo'lishdi. Sholikorlar 1979-yili 260 ming tonna sholi berdi, bu butun ittifoqning 14 foizi, O'zbekstanning esa 66 foizi edi. 1975-1980-yillari davlat 1 million 142 ming tonna qoraqalpoq

sholisin oldi. Qoraqalpog‘istonda Bekniyaz Ubbiniyazov, Aleksey Kan, Oteniyaz Turymbetov, Turdymurat Orymbetov, Raygul Jumamuratova, Quo‘anyshbay Tileo‘muratov kabi sholikorlar faoliyatini Qallibek Kamalov o‘z xotiralarida yaxshi baho beradi.

Qallibek Kamalov xotiralarida «Bilim aql chirog‘i», «Universitetni ochishga bog‘liq muommalar» «Ilmli elg nur yog‘ar» boblarida ta‘lim va ma‘naviyat masalalariga keng to‘qtab o‘tadi.

Respublika xalqining ma‘naviy madaniyatining usishida umumiy ta‘lim beradigan maktablar katta o‘rin egallaydi. 1960-yillarning oxirida 1970-yillarning boshida har yili 50-55 nomdagi darslik, 40 nomdagi o‘qish qo‘llanmasi chiqarila borilgan. Shuningdek o‘z ona tilida o‘qish uchun o‘zimizda boshlab chiqqandan boshqa Toshkentdan, Olma-Otadan, Rossiyadan, Ashxoboddan o‘qish qurollari Qallibek Kamalov buyurtmasiga muvofiq rejali turda olinib turilgan.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillari yetti yillik bilim berish qabul qilindi. Maktablarda politexnikalik bilim berishni amalga oshirish bo‘yicha ishlar qurildi. 1966-yilning o‘zida qo‘l Qoraqalpog‘iston maktablarida 77 ustoxona va 300 ga yaqin tajriba bo‘limlari bo‘ldi.

Tahlil va natijalar. Qallibek Kamalov shunday deb yozadi: «har bir davlatning, har bir respublikaning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning ta‘minlanishi uchun birinchi navbatda shu davlatning intellektual kuchlarini ochirish zarurligini tajriba ko‘rsatib turibdi. Demak, shunday odamlar, mutaxassislar o‘z aromizdan o‘tib chiqmaguncha bizda rivojlangan davlatlar darajasiga qarab qadam tashlash qiyin ekanligi ma‘lum. Bilim rivojlanmasdan bilimli mutaxassis malaka egalari ko‘paymay oldinga intilish mumkin emas».

Shuning uchun ham universitet ochilib xalq xo‘jaligiga kerakli kadrlarni tayyorlashga o‘tishning birdan-bir to‘g‘ri yo‘li ekani ko‘rinib turibdi. 1966-67 yillardan boshlab Qoraqalpog‘istonda institut bazasida universitet tashkillashtirish ishi Qallibek Kamalov tashabbusi bilan boshlandi. Natijada 1974-yili 26-fevralda «1976-1977 o‘qish yilidan boshlab Nukusda pedagogik institut bazasida universitet ochilsin» degan qaror qabul qilindi. Shuningdek SoyuzNEXI ning Chimbaydagi zonalik stansiyasi 1968-yili dehqonchilik ilm o‘rgatish instituti bo‘lib qayta tuzildi.

Qallibek Kamalov xotirasining «Ilmli elga nur yog‘ar» qismida ilmiy mahkamalar bilan yuqori o‘qish o‘rinlarining Qoraqalpog‘iston iqtisodiy va madaniy rivojlanishida ahamiyatli o‘rinni egallagani takidlanadi. Biroq, ular ham xalq xo‘jaligining boshqa sohalariga kabi totalitarizm ta‘sirida qoldi, va bir qancha yoqimsiz xodisalar bo‘ldi.

1966-yili adabiyot fan badiiy asar tayyorlashdagi eng yaxshi bosmalar uchun respublikaning Berdaq nomidagi mukofoti belgilandi. A.Dabylov, T.Kayypbergenov, S.Xujaniyazovlar shu mukofotning birinchi sovrindori bo‘ldi.

Xulosa. Shu yillarda respublikada Leningrad madaniyat kunlari, Ukraina adabiyoti badiiy asarining 10 kunligi (1977), Turkmaniston respublikasining (1977), Xorazm viloyatining (1978), Qirg‘iziston (1969), madaniyati kunlari bo‘lib o‘tdi. O‘z navbatida Qoraqalpog‘iston madaniyati kunlari Moskva, Ukraina, Turkmaniston, Qozog‘iston, Tatariston, Bashqurtiston, Dog‘iston va boshqa da o‘rinlarida bo‘ldi. 1950-yildan keyin respublikalik kitobxona ochildi. 1966-yil «Qirg‘iz» ansambli tuzulib, uning tarkibida 40 qiz bo‘ldi. Radio va televidenie ishi paydo bo‘ldi. 1970-yili Nukus shahrida O‘zkinokhronika studiyasining Qoraqalpog‘iston filiali ochildi. So‘nggi yillari u Qoraqalpog‘iston kinostudiyasi bo‘lib tashkillashtirildi. Shunday qilib, Qallibek Kamalov davrida Qoraqalpog‘istonning madaniyat sohasida katta o‘zgarishlar bo‘ldi.

Adabiyotlar:

1. Мухитдинов Н. Годы, проведенные в Кремле. Ташкент, 1994;
2. Кунаев Д. О моем времени. Алма-Ата, 1992;
3. Утениязов К. Ойларыма озек омирим. Ташкент, 2000;
4. Кунназаров А. Жети асырым. Нокис, 2000;
5. Нажим Даукараев. Еске тусириулер. Нокис, 1997;
6. Пахратдинов А. Сойленбеген тарийх. Нокис, 1996;
7. Жапаков Н. Еске тусириулер, илимий мийнетлери. Нокис, 1990; 8. Халмуратов О. Баркулла халык пенен. Нокис, 1973;
9. Каниязов С. Алтын жагыс. Нокис, 2004; Айымбетов К. Откен кунлерден елеслер. Нокис, 1978;
10. Камалов С.К., Айтмуратов Е., Рзаев К., Сейтов Х., Курбанов Б., Камалова А., Уталиев А. III. Рашидов хаккында хакыйкатлык. Нокис, 1992.
11. Камалов К. Ел хызметинде. (еске тусириулер). Нокис: Каракалпакстан баспасы, 1995.

**AFG'ONISTON O'ZBEKLARIDA O'ZBEK TILINING HOLATI VA HUDUDIIY-DEALEKTIK TAFOVVUTLAR: TARIXIY YONDOSHUV
(XX ASR – XXI ASR BOSHLARI)**

*Norqo 'chqarov Xushvaqt Eshnazarovich,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Afg'oniston o'zbekalarining milliy urf-odat, an'analari bilan birga milliy o'zbek tilini saqlab qolish yo'lidagi say-harakatlari, o'zbek tilining mamlakat hududidagi dialektik (lahjaviy) tafovutlari hamda o'zbek adabiy tili bilan o'rtadagi farqli jihatlar atroflicha tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Afg'oniston, o'zbek tili, dialekt (lahja), Afg'on Turkistoni, adabiy til, "Chig'atoy tili", Afg'oniston o'zbeklari.

**СТАТУС УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА И РЕГИОНАЛЬНО-ДИАЛЕКТИЧЕСКИЕ РАЗЛИЧИЯ СРЕДИ УЗБЕКОВ АФГАНИСТАНА: ИСТОРИЧЕСКИЙ ПОДХОД
(XX ВЕК - НАЧАЛО XXI ВЕК)**

*Норкучкаров Хушвакт Эшназарович,
Базовый докторант Бухарского государственного университета,*

Абстракт. В данной статье усилия афганских узбеков по сохранению национального узбекского языка наряду со своими национальными обычаями и традициями, диалектические (диалектные) различия узбекского языка на территории страны, узбекского литературного языка, различия между ними подробно анализируются.

Ключевые слова: Афганистан, узбекский язык, диалект (диалект), Афганский Туркестан, литературный язык, «чигатайский язык», узбеки Афганистана.

THE STATUS OF THE UZBEKI LANGUAGE AND REGIONAL-DIALECTIC DIFFERENCES AMONG THE UZBEKS OF AFGHANISTAN: A HISTORICAL APPROACH (XX CENTURY - EARLY XXI CENTURY)

*Norkuchkarov Khushvakt Eshnazarovich,
Basic doctoral student of Bukhara State University.*

Abstract. In this article, the efforts of Afghan Uzbeks to preserve the national Uzbek language along with their national customs and traditions, the dialectical (dialectal) differences of the Uzbek language in the territory of the country, and the Uzbek literary language. the differences between them are analyzed in detail.

Key words: Afghanistan, Uzbek language, dialect (dialect), Afghan Turkestan, literary language, «Chigatai language», Uzbeks of Afghanistan.

Kirish (Introduction). Ma'lumki, xorijdagi o'zbeklar bir-birlariga yaqin turish uchun azaliy an'ana bo'lib qolgan mahalla bo'lib yashashga intilganlar. Bunday hayot tarzi milliy urf-odatlarini birga bajarish hamda milliylik xususiyatlarini saqlab qolish imkonini beradi. O'zbek jamoalari zich yashagan ko'cha va mahallalarga milliy qadriyatlar asosidagi o'zbekcha nomlar beriladi. Milliy mansublikning asosiy sharti esa o'z ona tilini yo'qotmaslikdir. Shu sababli o'zbeklar o'zbek tilini saqlab qolish orqali milliy qiyofalarini yo'qotmaslik choralari ko'rdilar [1, B.148-149]. Aynan shu jihat bugun biz tadqiq etayotgan Afg'onistonda yashovchi o'zbeklarga ham xosdir.

Metodlar (Methods). Afg'onistondagi o'zbeklarning til xususiyatlari bir qancha olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo'lib, maqolada ushbu tadqiqotchilarning fikrlarini o'zaro solishtirish orqali qiyosiy tahlil qilgan holda o'rganilgan. Shuningdek, maqolada qiyosiy tahlil metodidan tashqari, tarixiylik, izchillik, xolislik kabi ko'plab metodlardan ham foydalangan holda mavzu mohiyatini ochishga harakat qilingan.

Natijalar va munozara (Results and Discussion). Tadqiqotchi N.Nazarov: "Shimoliy Afg'oniston ikki mintaqasi – Turkiston va Qatag'on mintaqalaridan iborat. Turkiston mintaqasiga – Faryob, Juzjon, Saripul, Balx va Samangon viloyatlari; Qatag'on mintaqasiga – Bag'lon, Qunduz, Tahor va Badahshon viloyatlari kiradi. O'zbeklar bugungi Afg'oniston shimolida Maymanadan Badahshongacha bo'lgan hudud hamda Salang dovonining berigi tarafida joylashgandir." [2, B.7] – deya ta'kidlaydi.

Afg'on o'zbeklarining tillaridagi farqlar haqida esa: "Saripul o'zbeklari tili Andxo'y va

Shibirg'on o'zbeklaridan farq qilib, Saripul va Maymana guruhi o'zbeklari tili o'zaro yaqin. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Afg'oniston o'zbeklarini tadqiq etishda Turkiston va Qatag'on hududiy bo'linmalariga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir. Qatag'on mintaqasida yashovchi o'zbeklarda "j"lashga moyillik kuchli bo'lsa, Turkiston mintaqasi o'zbeklari tillarida "e"lashga moyillik kuchli. Lekin har ikki mintaqada ham aralash holatlar ko'zga tashlanadi. Saripul o'zbeklaridan Sangchorak, Go'sfandi va Suzmaqal'a ulusvollarida yashovchi o'zbeklarda "j"lash holatlari seziladi. Andxo'y va Shibirg'on o'zbeklarining aksariyati muqim aholi bo'lib, ular qadimdan istiqomat qilib kelayotganligi ushbu hududning ijtimoiy madaniy rivoji mintaqada o'zbek millati vakillarining mavqeini belgilovchi omil sifatida muhimdir. Shu bilan birgalikda bu yerdagi o'zbeklarning ayrim qismi o'n to'qqizinchi asrda Buxoro, Qo'qon va Xorazm xonliklari hududidan kelib joylashganlar. Oqsoqollar bilan suhbatda ular bobolarining bundan 150 yillar burun Movarounnahrda kelganliklarini tasdiqlaydilar. Andxo'y o'zbeklarining tili va talaffuzi adabiy tilimizga o'xshash. Ular "da", "va", "ga"ni o'z o'rinlarida ishlatadilar. Masalan: uyda edim; shaharga ketaman, desalar Saripullik o'zbeklar uyga edim, shaharga edim, deyishadi. Saripulliklar "da"ni deyarli ishlatmaydilar. Shibirg'on va Andxo'y o'zbeklari tasdiq ishorasi sifatida "ova"ni qo'llashsa, Saripul va Maymana o'zbeklari "he"ni qo'llashadilar. Masalan: Uyga keldingmi? – deb so'ralganda Saripulliklar "he" deyishadi, Andxo'y va Shibirg'onda esa "ova" deyishadi." [2, B.38-39] – deya farqli jihatlarini aytib o'tadi.

XX asrning 70-yillarida ko'plab manbalarni chuqur tahlil etgan holda o'rgangan tadqiqotchi N.Abdullayev Afg'onistondagi o'zbek tilining dialektik (lahjaviy) xilma-xilligi va murakkabliklari, shunindek, fonetik va morfologik xususiyatlarini ancha mufassal ifodalaydi. Tadqiqotchiga ko'ra, o'zbek tilining dialektik tarkibi ancha murakkab xususiyatga ega bo'lib, ba'zi lahjalarda o'g'uz elementlari ustunlik qiladi, boshqalarida qipchoq, bir qator lahjalarda tojik tilining kuchli ta'siri mavjud. Afg'onistonning shimoliy va shimoli-g'arbiy qismida tarqalgan o'zbek lahjalarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular o'zbek tilining boshqa barcha lahjalarida yo'qolgan lingvistik xususiyatlarini saqlab qolgan. Bu aftidan afg'on o'zbeklari orasida zamonaviy o'zbek adabiy tilining shakllanmagani bilan izohlanadi. Ularda klassik o'zbek adabiy tili saqlanib qolgan. Muhim jihati, ushbu hududdagi o'zbek lahjalari tahlili XV-XVI asrlarda "chig'atoy tili" deb nomlangan tilning shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qilgan dialekt (lahja) o'zagini ochib berishi mumkin. Tadqiqotchi N.Abdullayev tojikistonlik folklorshunos olim S.Asadullayevning fikrlariga tayanib, Afg'onistonning shimoliy va shimoli-sharqidagi Qunduz va Tahir viloyatlarida bo'lib, hududdagi tojik va o'zbek tillaridagi maqol va matallarni yig'ib materiallar to'pladi. Ushbu ma'lumotlarga qaraganda, ko'rsatilgan hududdagi afg'on o'zbeklarining tili mamlakatning shimoli-g'arbiy hududlaridagi o'zbek lahjalaridan biroz farqlanadi. 1974-1976-yillarida Balx, Juzjon va Faryob viloyati hududlarida Afg'onistonning shimoli-g'arbiy qismidagi o'zbeklarning til xususiyatlari haqida ma'lumotlar to'planib, tahlillar olib borilgan. Bunda asosiy e'tibor Andxo'y, Shibirg'on, Maymana, Saripul va Axcha shahar lahjalariga qaratilgan. E'tiborlisi bu shaharlarda o'zbeklardan tashqari dariy tilida gaplashuvchi forsibonlar, pushtunlar, turkmanlar, shuningdek kam sonli arablar ham yashaydi. Ammo ushbu shaharlar aholisi asosan o'zbek tilida gaplashishadi. N.Abdullayev Afg'onistonning o'zbek lahjalari Ye.D.Polivanov, B.J.Jo'rayev va A.Shermatovlarning o'rganishlari asosida Qarshi va Shahrisabz shaharlaridagi o'zbek lahjalariga ko'p jihatdan o'xshashligini ta'kidlaydi. Olim ko'plab mutaxassislarning ma'lumotlarini tahlil etib, Afg'onistonning shimoli-g'arbiy qismidagi o'zbek lahjalarining fonetik va morfologik xususiyatlariga e'tibor qaratadi. Jumladan, Ye.D.Polivanov ushbu hududdagi o'zbek lahjalari singormanizmsiz forslashgan lahjalaridir deb hisoblasa, G'ozli Olim Yunusovning fikriga ko'ra, Afg'onistonning shimoli-g'arbiy qismidagi o'zbek lahjalari "Turk-barlos" o'zbek lahjasiga yaqin deb hisoblaydi. Yana bir jihati, Shibirg'on shahri o'zbek tilining vokalizm tizimidagi unilari bugungi adabiy tilning asosini tashkil etgan Toshkent-Farg'ona tipidagi o'zbek lahjalarining tegishli fonemalaridan unchalik farq qilmaydi. Ammo, so'zlar va affiks tarkibidagi unilarning joylashishi sohasida zamonaviy adabiy til bilan nomuvofiqliklar mavjud [3, B.62-70].

Berlin Humboldt universiteti professori Ingeborg Baldauf XX asrning 70-90 – yillari va XXI asr boshlarida bevosita Afg'onistonda bo'lib, bu yerdagi o'zbeklarning ijtimoiy turmush tarzi, urf-odati va an'analari, milliy tili va hududiy joylashuvini o'rgangan matonatli olim hisoblanadi. Uning afg'on olimlari o'rtasidagi obro'si shunchalik balandki, Afg'onistonda pushtu, dariy va boshqa tillar bilan bir qatorda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganda uni amalga joriy qilish ishchi komissiyasiga professor I.Baldauf rahbarlik qilgan. Olimaning to'plagan fonografik ma'lumotlari o'zbek olimlari (Nemis tilidan G'.Xo'jayev va A.Ahmedov tarjimasi, QarDU) tomonidan ham tarjima qilinib, e'lon qilindi. Professor Ingeborg Baldauf o'z tadqiqotlarida XX

asrning so'nggi choragi va XXI asr boshlarida mamlakatda harbiy-siyosiy, ijtimoiy jarayonlar ta'sirida Afg'oniston o'zbeklari tilida yuz bergan o'zgarishlar haqida ancha mufassal ma'lumotlar beriladi. Jumladan, tadqiqotchi o'zi duch kelgan o'tgan asrning 70-yillaridagi o'zbek tilining holati 18 yillik tanaffusdan keyingi (1996-yil) tashrifida uchratgan tildan ko'p jihatdan farq qilganini ta'kidlaydi. Unga ko'ra bu davrga kelib, afg'on o'zbeklarining tili ancha forslashgan, o'zga tillarning ta'siridan tashqari hatto, o'zbek tilining o'z ichida dialektik (lahjaviy) aralashuvi ham yuz berganligiga o'zi duch kelgan holatlardan misollar keltiradi. 1970-yillari oxirigacha olim Afg'oniston o'zbeklarining tili asosan o'zbeklar zich yashaydigan hududlarda og'zaki suhbat va oila tili sifatida qo'llanilib, o'zga tillar ta'siridan holi bo'lganligini va ancha, ayniqsa tashqi dunyodan uzoq vaqt cheklangan o'zbek ayollari milliy tilini ancha sof holda saqlanganini aytib o'tadi. 90-yillar ikkinchi yarmida esa o'zbek tilida gapiruvchilar tilida forscha so'zlar ko'payib, o'zbek tili eroniyashganini bu holatni birinchidan, o'zbeklarning ijtimoiy-siyosiy hayotda faollashib, ular orasida davlat idoralarida faoliyat yurituvchilarning ko'paygani bilan izohlasa, ikkinchidan, shu davrdagi harbiy urushlar, ichki mojarolar, ijtimoiy muammolar va qurg'oqchilik tufayli Afg'onistondagi boshqa millatlar kabi oddiy o'zbek oilalari ham ichki migratsiyaga uchrashi natijasida barcha millat vakillari o'rtasida ma'lum miqdorda aralashuv hodisasi yuz bergani bilan ahamiyatlidir. Bu esa tillar va lahjalarning ham ma'lum ma'noda o'zaro ta'sirlashuviga olib keldi. Yashash manzillariga qaytganlar o'zlarining muhojirlik tajribalari bilan lisoniy ta'sirni ham olib qaytganlar. Bunda olimaning suhbat jarayonida duch kelgan, ikki marta kodlash hodisasi ya'ni ikki turli sheva va tillardagi ma'no va vazifa jihatdan o'xshash unurning birgalikda ishlatilishidir. Bu holatlar Shimoliy Afg'onistonning tillar xaritasini keskin o'zgartirib yuborganini ta'kidlaydi. Olima tadqiqot jarayonida duch kelgan, bu davrda oddiy o'zbek ayolining turkman ayolining turkman tilidagi gaplarini bemalol tushinishi va suhbatlashishi hodisasi ayollar ham ijtimoiy munosabatlar jarayoniga tortilgani, turkman ayollaridan gilam to'qishni o'rganish jarayonida tilini ham o'zlashtirganligini ko'rsatadi. Yana bir holatda yoshi ulug' o'zbek ayoli bilan boshidan o'tkazgan muhojirlik qiyinchiliklari haqida suhbatlashganda, ayol o'z hikoyasini to'liqligicha shimoliy Afg'onistonning barcha hududlarida mavjud "y"-lovchi talaffuzga mos ideoma bilan boshlab, keyinchalik hikoya his-hayajonga to'lib borishi bilan u ham o'zi mansub bo'lgan "j"-lovchi shevasiga tushib qolganidan hayratga tushganini aytib o'tadi[4, B.66-79].

Muhojirlik tarixi masalasi bo'yicha yetuk olim Shodmon Hayitov ham Afg'onistondagi o'zbeklarning milliy tili haqida o'z tahlillarini bildirib o'tadi. Xususan, Xorijdagi o'zbeklar bilan o'zbekistonlik o'zbeklar tili, urf-odati, xalq og'zaki ijodidagi matal, maqol, qo'shiq, laparlarida o'ziga xos farqlar bor. O'zbekistonda o'tgan tarixiy davrda hozirgi zamon o'zbek adabiy tili vujudga keldi va yangi so'zlar bilan boyidi. Muhojir o'zbeklarda esa 1917-yillargacha mavjud bo'lgan o'zbek tili lahjalari saqlanib qoldi. Ular o'zlari yashab turgan mamlakat xalqlari tilidagi ayrim so'z va atamalarni qanday bo'lsa shunday holatda o'zbek tilida qo'llashadi yoki sof tarjimasini qabul qilishgan.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 1920-1930 yillarda muhojirlikka ketgan o'zbeklar klassik o'zbek adabiy tilida Alisher Navoiy va Bobur ijod qilgan tildagi so'z va atamalarni ko'proq ishlatadilar. Ular orasida o'zbek tilining Farg'ona lahjalari kengroq tarqalgan.

O'zbek diasporasi ko'proq yashaydigan Afg'onistonda fors-tojik tilining ta'siri kuchli. Afg'onistonda yashovchi o'zbeklar ko'pgina forsiycha so'zlarni to'g'ridan-to'g'ri o'zbek tiliga tarjima qilib olganlar. Bu tilshunoslikda nusxa ko'chirish bo'lsa kerak. Fors-tojik tilidagi dandonikon, pushtiboni, rahbarona, xarobkori, ozodixoh va sulhxoh kabi so'zlarning aynan ko'chirmalari tish sindiruvchi, orqadoshlik, yo'llovchilik, buzmakorlik, erkinliksevar, sulh tilovchi bo'lib, Afg'oniston o'zbeklari orasida ko'p ishlatiladi. Bizda bu so'zlar: qaqshatqich, buzg'unchilik, erksevar, tinchliksevar tarzida ifodalanadi.

Afg'oniston o'zbeklarining tillariga fors-tojik tilidan tashqari arabcha so'zlar ham anchagina kirib qolganki, so'zlashuv jarayonida ushbu atamalar ko'plab ishlatiladi. Afg'onistondan Toshkentga kelib ta'lim olgan o'zbeklarning farzandlari ma'lumoticha, u yerdagi o'zbeklar tilida hozirga qadar proza, poeziya, kulminatsion nuqta, ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi, bitishuv, birikuv kabi terminlar ishlatilmaydi[5, B.19-20].

O'tkan davr mobaynida O'zbekistonda tilning asosini tashkil etuvchi tovush, so'z hamda grammatik sathlari ma'lum me'yorga tobe qilingan va o'sha tilning namoyondalari uchun umumiy bo'lgan til o'zbek adabiy tili vujudga keldi. Adabiy til taraqqiyoti uchun matbuot, nashriyot, radio, televideniya, bilim yurtlari va maktablar asosiy rol o'ynaydi. Afg'oniston hududidagi o'zbeklar tili turli ijtimoiy-siyosiy sabablarga ko'ra so'zlashuv tili darajasida qolib ketdi.

Afg'onistonlik jonkuyar tilshunos Nurulloh Oltoy Afg'onistonda o'zbek adabiy tilini

shakllantirish muammolariga to'xtalib, "O'zbekistonda mavjud o'zbek adabiy tilini to'g'ridan-to'g'ri afg'on o'zbeklari uchun adabiy til sifatida qabul qilish mumkinmi?" - degan mavhum savolga javob berishga harakat qiladi. Uning fikriga ko'ra, Afg'oniston o'zbek adabiy tilini shakllantirishning ikki yo'li bor:

Afg'oniston o'zbek lahja va shevalarini o'rganib, ular asosida o'zbek adabiy tilini vujudga keltirish;

To'g'ridan-to'g'ri O'zbekiston o'zbek adabiy tilini qabul qilish.

Mavjud sharoitda, Afg'oniston diyorida o'zbek xalqining ijtimoiy-siyosiy o'rnini nazarda tutgan holda birinchi yo'lning amalga oshishi mumkin emasligi oydek ravshan. Shunday ekan, ikkinchi yo'lning ilmiy, amaliy va mantiqiy jihatlarini o'rganishga to'g'ri keladi.

Shu o'rinda tilshunos yana bir jihatga e'tibor qaratadi. XX asr boshlarigacha bo'lgan davr ichida ikki hududdagi o'zbeklar tilida ko'zga ko'rinarli farqlar mavjud bo'lmagan. Bu davoning isboti sifatida Boburning Navoiy haqida yozganlarini eslash kifoya. Bobur Andijon shahri aholisi va ularning tili haqida ma'lumot berib, Andijon ahli tilining navoiy asarlari tiliga juda yaqin ekanligini qayd qiladi: "Eli turkdur, shahar va bozorisida turkiy bilmas kishi yo'qtur. Elining lafzi qalam bila rosttur. Aning uchunkim, Mir Alisher Navoiyning musannafoti bovujudikim Hiriya nash'u navo topibtur, bu til biladur". Boburning bu fikri ma'lum tarixiy asosga ega. Chuki ikki madaniy markaz: sharqiy qarluq-chigil-yag'mo hamda g'arbiy o'g'uz-qipchoq lahja birliklari negizida shakllangan eski turkiy til asosida rivojlanib, XII-XIV asrlarda to'la shakllangan o'zbek adabiy tili juda katta hududda – Movarounnahr va Xurosonda keng qo'llangan. Bu adabiy tilning lug'at tarkibi, fonetik va morfologik qurilish me'yorlari tarkib topgan edi. Mana shu adabiy til va uning ma'lum shevalarida so'zlashgan xalq, ya'ni o'zbeklar XIV-XV asrlarda Farg'ona vodiysida, Toshkent vohasi, Samarqand viloyati va hozirgi Afg'onistonning turli viloyatlarida yashaganlar. Demak, Navoiy asarlari ham xuddi ana shu tilda – o'zbek tilida yozilgan. Boburning fikriga qaraganda, Hirot o'zbeklari bilan Farg'ona o'zbeklari tili orasida deyarli hech qanday farq bo'lmagan. Demak, barcha farqlar Kobul va Moskvada olib borilgan siyosatlar natijasida o'rta kelgan.

Tilshunos Nurulloh Oltoyning xulosasiga qaraganda, Afg'onistondagi barcha o'zbeklar uchun tushinarli bo'lgan adabiy tilni vujudga keltirishda O'zbekiston o'zbek adabiy tiliga suyanishga majbur ekanliklarini ta'kidlaydi. Faqat bu tilning o'zida ham hali ko'plab nuqsonlar mavjudligini misollar bilan isbot keltirgan va o'zbek tilshunos olimlari ushbu kamchiliklarga e'tibor qaratishlari kerakligini hamda tilni Afg'oniston o'zbeklari uchun adabiy til sifatida qabul qilishda ehtiyotkor va diqqatli bo'lish kerakligini aytib o'tadi[6, B.22-28].

Afg'on o'zbeklari tili bilan O'zbekiston adabiy tilidagi farqli jihatlar yana shundan iboratki, Afg'onistondagi yozma o'zbek tilida arab alifbosi asosidagi yozuvdan foydalaniladi. Aslida Amudaryoning o'ng sohilidagi xalq ham ming yildan ortiq vaqt davomida, Sovet ittifoqining g'oyaviy-siyosiy ta'siri o'zbek xalqining ijtimoiy va ma'naviy-madaniy hayotigacha kirib borgunga qadar ya'ni XX asrning 20-yillari oxirigacha (1929-yilgacha) ushbu alifbo qo'llanilgan. Bugun bizda ushbu alifboga nisbatan "eski o'zbek yozuvi" deyilishiga sabab ham mana shu omil hisoblanadi. Shuningdek, ilm-fan, texnika va boshqa sohalarga Yevropa tillaridan ba'zi atamalar rus tili orqali ruscha talaffuz bilan qabul qilingan bo'lsa, afg'on o'zbeklari tiliga esa ingliz tili orqali kirib kelgan. Yana bir farq so'zlashuvda esa dariy tilidagi so'zlarning juda ko'p qo'llanilishida bo'lib, ular bu holatni birinchidan, mamlakatning shimoliy mintaqalaridagi turfa xil millatlar o'rtasidagi o'zaro muloqot tili dariy til ekanligi bilan izohlansa, ikkinchidan, ijtimoiy-madaniy hayotning muhim tarmoqlari: ta'lim, gazeta, jurnallar, televideniya va radio, turli madaniy tadbirlar ham asosan dariy tilida olib borilishida deb hisoblash mumkin[7].

Bugungi kunda O'zbekistonning bir qancha oliy ta'lim muassasalarida (asosan magistratura bosqichida) afg'onistonlik o'zbek talabalar asosan o'zbek filologiyasi va texnika yo'nalishida tahsil olishmoqda. Hatto ba'zilar doktorlik dissertatsiyalarini himoya qildi (Termiz davlat universiteti, o'qituvchi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD). Ular Afg'onistonlik o'zbeklar tili va O'zbekistondagi o'zbek adabiy tili o'rtasidagi ijtimoiy-etnografik leksikasida[8]gi hamda Shimoliy Afg'oniston hududidagi ta'lim muassasalarida o'rgatilayotgan o'zbek tili darsliklarida keltirilgan o'zbek tilining grammatikasiga oid qoidalar[9]ning ba'zi farqli jihatlarida haqida turkum tadqiqot ishlari va maqolalar e'lon qilishmoqdalar.

Xulosa. (Conclusion). Aytish mumkinki, O'zbekistondan tashqarida yashovchi eng ko'p o'zbeklar Afg'oniston hududida yashaydi. Hozirgi Afg'oniston yerlariga o'zbeklarning ajdodlari hisoblangan turkiy tilli urug'larning kelib joylashishi ancha olis tarixga ega. Hududdagi o'zbeklar tilida ham turli lahja va shevalar mavjud. Shuningdek, hududdagi etnik turfa xillik va boshqa

ijtimoiy-siyosiy omillar tufayli o'zbek tiliga boshqa tillar ayniqsa, dariy tilining ta'siri ancha yuqori bo'lganini ko'ramiz. Milliy o'zlikni saqlashning muhim sharti bo'lgan milliy tilni sof holda asrash va barcha millatdoshlar uchun hamda ijtimoiy-madaniy jarayonlarda qo'llanuvchi yagona adabiy tilga ehtiyojni talab etadi. Bu holatni biz Afg'oniston o'zbeklari tilida ham kuzatamiz. Bugun afg'on o'zbeklari jamoatchiligi va til mutaxassislari Afg'onistonda faoliyat yurituvchi ommaviy axborot vositalari: televideniya, radio, gazeta va jurnallardagi eshittirish va nashrlar, ta'lim muassasalarida o'zbek tilidagi darslik yaratish uchun adabiy til zarurati mavjudligini ta'kidlamodalar.

Foydalanilgan adabiyotlar (References)

- Bu haqda qarang: Hayitov Sh.A. O'zbek muhojirligi tarixi (1917-1991 yy.). – Toshkent, “ABU MATBUOT KONSALT”. – 2008. – 208 b.
- Bu haqda qarang: Nazarov N. Afg'oniston o'zbeklari. – Toshkent, 2011. – 127 b.
- Bu haqda qarang: Абдуллаев Н. Об узбекских говорах Афганистана. Журнал «Советская Тюркология». – Баку, 1979, № 6. – С. 62-70.
- Bu haqda qarang: Ingeborg Baldauf (Berlin, Humboldt universiteti). Shimoliy Afg'oniston o'zbeklarining tili, joylashuvi va o'xshashligi. (Nemis tilidan G'.Xo'jayev va A.Ahmedov tarjimasi) // QarDU xabarlari, №6 (23) 2015, B. – 66-79.
- Bu haqda qarang: Hayitov Sh.A., Badriddinov S. Vatan deya vatansiz qolganlar qismati. – Buxoro, “Buxoro” nashriyoti, 2005. – 159 b.
- Bu haqda qarang: Nurulloh Oltoy. Afg'onistonda o'zbek adabiy tili muammolari. // “Guluston” jurnali, 2014. № 5, B. 22-28.
- Dala yozuvlari. Muallifning afg'onistonlik o'zbeklar bilan shaxsiy suhbat. Fayz Muhammad (tadbirkor), Muhammad Humayun Nadim (TerDU, f.f.PhD., o'qituvchi), Muhammad Nasir Husayni (Afg'oniston fuqarolarini o'qitish ta'lim markazi, talaba), Termiz shahri, 2022-yil.
- Bu haqda qarang: Muhammad Humayun Nadim. Shimoliy Afg'oniston o'zbeklari to'y marosimi etnografizmlarining tizimiy va leksikografik xususiyatlari. Avtoreferat, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). – Termiz, 2022. – 49 b; Aminiy Aziz Ahmad. Shimoliy Afg'oniston o'zbeklari nutqidagi g'allachilikka oid so'zlarning “O'zbek tilining izohli lug'ati”da berilishi. // Международный научный журнал «Молодой ученый», 2020. № 37 (327), С. 175-177.
- Bu haqda qarang: Omidullah Bayani. Study of uzbek language's part of speech in Afghanistan (Afg'onistonda o'zbek tili so'z turkumlarining o'rganilishi). // Eurasian journal of academic research. Innovative Academy Research Support Center. Volume 1 | ISSUE 01| ISSN 2181-2020, April 2021: P. 200-205; Tuyg'un Sayed Hussamuddin. Afg'onistonda o'zbek tili fonetikasining o'qitilishi. // Academic Research in Educational Sciences. Volume 2 | ISSUE 4 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723. P.1450-1458.

XORAZM VOHASI AHOLISING TURMUSH TARZIDAGI QADIMIY DINIY E'TIQODLAR IZLARI

*Ochilov Iskandar,
Guliston davlat universiteti "Tarix" yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'rta Osiyo xalqlari hayotida xususan Xorazm vohasidagi qadimiy diniy e'tiqodlar haqida ma'lumot berilgan. Zardushtiylik Xorazmda paydo bo'lganligini isbotlovchi tarixchilar fikrlari keltirib o'tilgan. Zardushtiylik dini marosim va urf odatlar xalqimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan. Bugungi kungacha ham Zardushtiylik ba'zi marosimlari saqlanib qolganligidan ko'rishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: ahuramazda, an'ana, marosim, Avesto, Zardushtiylik, meros.

TRACES OF ANCIENT RELIGIOUS BELIEFS IN THE LIFE STYLE OF THE INHABITANTS OF THE KHORAZM OASIS

*Achilov Iskandar,
student of Gulistan State University, majoring in «History».*

Annotation: This article provides information about the ancient religious beliefs in the life of the peoples of Central Asia, especially in the Khorezm oasis. The opinions of historians proving that Zoroastrianism appeared in Khorezm are cited. We can see from the fact that some Zoroastrian rituals have survived to this day.

Key words: Ahuramazda, tradition, ritual, Avesta, Zoroastrianism, heritage.

СЛЕДЫ ДРЕВНИХ РЕЛИГИОЗНЫХ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ В ОБРАЗЕ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЙ ХОРАЗМСКОГО ОАЗИСА

*Ачилов Искандар,
является студентом Гулистанского государственного университета по
специальности «История».*

Аннотация: В данной статье приводятся сведения о древних религиозных верованиях в жизни среднеазиатских народов, особенно в Хорезмском оазисе. Приводятся мнения историков, доказывающих, что зороастризм возник в Хорезме. Зороастрийская религия, обряды и обычаи оставили неизгладимый след в истории нашего народа мы можем видеть из того, что некоторые зороастрийские обряды сохранились до наших дней.

Ключевые слова: Ахурамазда, традиция, церемония, Авеста, зороастризм, наследие

Kirish (Introduction) Xorazm vohasiga islom dini kirib kelganidan keyin arxaik marosim va urf-odatlar butkul yo'qolib ketmagan. Ular islomiy an'analar va rasm-rusumlarga moslashib, o'zaro uyg'unlikda yangicha marosimiy- dunyoqarash simbiozini tashkil etgan va to bugungi kunga qadar qorishgan ko'rinishda saqlanib kelmoqda. Islomiy va islomgacha bo'lgan diniy e'tiqodlar komponentlari sinkretlashuvini o'zida mujassam qilgan mahalliy marosimiy amaliyotining aynan o'ziga xos xususiyati, o'zbek xalqi an'anaviy turmush tarzi va dunyoqarashining tarixiy asoslari hamda o'ziga xosligini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.[1] Har bir xalq o'z o'tmish tarixi davomida o'zining milliy qadriyatlariga, urf-odatlariga, an'analariga ega bo'lib, uni rivojlantirib boradi. Davrlar o'tishi bilan xalqning bu an'anaviy udumlari biroz o'zgarishi mumkin, lekin asos, ildizini yo'qotmaydi.

Asrlardan asrlarga o'tib kelayotgan qanchadan-qancha urf-odatlarimiz shu bugungi kunda ham ajdodlarimizdan qolgan an'ana sifatida davom etib kelmoqda. Biroq, har bir davrning o'z xususiyati, yangiligi bo'lganidek, ma'lum davrlarga qarab urf-odatlarimizda, udumlarimizda avvalgilardan farqlanuvchi yangiliklar paydo bo'lganligini moddiy madaniyat yodgorliklarida kuzatish mumkin. Albatta bu o'zgarishlar, yangiliklar o'z davrining ijtimoiy sharoitidan kelib chiqqan holda yuzaga keladi. Odatda an'analar qaytariluvchi, takrorlanuvchi, ajdodlardan avlodlarga meros bo'lib o'tuvchi urf-odatlar, udumlardan tashkil topadi. [2]

- Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review) Taniqli arxeolog olim R. X. Sulaymonovning maqolasi aynan mana shunday tadqiqotlar sirasiga kiradi [3]. I. Jabborov va G. Dresvyanskaya hamkorligida yozilgan monografiyada ham O'rta Osiyoning qadimiy diniy e'tiqodlar, kulstlari genezisiga oid qimmatli ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, I. Jabborov va G. Dresvyanskaya jahon dinlari tarixini tadqiq qilish asnosida ilk diniy tasavvurlar va

qadimiy diniy e'tiqodlarning paydo bo'lish tarixi hamda tasnifini tahlil qilishga harakat qilganlar Zardushtiylik falsafasida bosh xudo Axura-Mazda yerni yaratganda, dastlab yerda odamzod uchun Aryanam Vaychahni yaratadi. Aryanam Vaychah chorvaga boy, yaylovlari keng, bepoyon dashtlar o'lkasi bo'lgani bois, uning aholisi chorvachilik bilan shug'ullangan. Zardushtiylik rivoyatlari asosida qurilgan tasavvurlarga ko'ra, jahon fanida zardushtiylikning kelib chiqish tarixiy ildizlari chorvador jamoalar diniy tasavvurlari bilan bog'lanadi. Biroq, o'tgan asrning 70-yillaridan boshlab bu tasavvurlarga tubdan o'zgartirishlar kiritildi.

Dunyodagi mavjud barcha dinlarda bo'lgani kabi zardushtiylik dinida ham olamni yaratilishi, dunyoning tuzilishi haqida o'ziga xos qarashlar mavjud. Zardushtiylik ta'limotiga asosan borliq yorug'lik va zulmat, hayot va o'lim, adolat va adolatsizlik kabi qarama-qarshiliklardan tashkil topgan. Bu qarama-qarshiliklar tabiat va jamiyatda turlicha ko'rinishda namoyon bo'ladi. Tabiatda ular hayot va o'lim, issiqlik va sovuqlik, yorug'lik va zulmat kuchlarini ifoda etadi. Ijtimoiy hayotda ular adolat va adolatsizlik, qonunga itoatkorlik va qonunlarga bo'ysunmaslik singari ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Qarama-qarshiliklar voqea va hodisalarning manbaidir. Yaxshilik va yomonlik, issiqlik va sovuqlik kabi kuchlar o'rtasida to'xtovsiz kurash boradi. Bu kurash xudolar darajasida ham mavjud. Donishmand xudo Ahuramazda – ezgulik va yaxshilik timsoli. Ahuramazdani Avestoda yigirma sifatga ega iloh deb ta'riflanadi. Ahuramazda borliqni yaratuvchi va hamma narsani biladigan oliy xudodir. U o'zini yaxshi ishi va yaxshi so'zlari bilan namoyon qiladi. Ahuramazda odamlarga yomonlik qilmaydi, ularni faqat ezgu ishlarga da'vat etadi. Zardushtning talqinida Ahuramazda oliy ibtido bo'lib, uning turmushi odamlarnikidan farq qiladi. Uni hech kim yaratmagan, oilasi yo'q, dunyodagi barcha voqea-hodisalardan xabardor, ular Ahuramazdaning xohishi bilan sodir bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology) S.P.Tolstov rahbarligida 1953 yilda Xorazmning Ko'zaliqir, 1953-1958 yillarda Qal'aliqir yodgorliklarida, 1951-1957 yillarda Qo'yqirilganqal'a yodgorligida olib borgan tadqiqotlari o'sha davr uchun dolzarb bo'lgan, zardushtiylik dini tarixini o'rganishga juda katta boy moddiy materiallarni berdi. Ushbu materiallar orasida diqqatga sazovori hosildorlik va suv xudosi Anaxita obrazi aks ettirilgan haykalchalardir. O'rta Osiyoda Amudaryo etaklariga jon bag'ishlovchi eng muhim omil bu Amudaryo bo'lib, Xorazmda zardushtiylik ma'budalaridan Ardivisura Anaxita diniy e'tiqodda mashhur ma'budalar sirasiga kirgan. Ardivisura Anaxita hosildorlik, suv, tug'ilish ma'budasi bo'lib, Xorazm hududlarida suv xavfi mavjud bo'lganligi uchun eng oliy ma'buda sifatida ehtirom qilingan. [4]

Masalaning boshqa jihati shundaki, Anaxita obrazi Xorazm diniy e'tiqodida asosiy o'rinni egallasada, O'rta Osiyoning boshqa mintaqalari jumladan, Qadimgi Baqtriya va So'g'diyona uchun Xorazmdagidek xarakterli emas. Chunki, bronza davrida Qadimgi Baqtriyada Ahuramazda olov, quyosh timsolida Jarqo'ton va Dashli ibodatxonalarida yorqin ifodalansa, So'g'diyonada esa olov-quyosh bilan birgalikda Mitra diniy e'tiqodda muhim o'rin egallaydi. Mitra ma'budasini ko'proq madh etilganligini arxeologik materiallarda kuzatamiz. Shuningdek, Eron, Toxariston va Turonning boshqa hududlari aholisi e'tiqodida Ahuramazda timsoli ko'proq o'rin egallaydi. [5]



Ma'lumki, Ahmoniylar davlatining paydo bo'lishida zardushtiylik diniy e'tiqodi muhim o'rin tutib, ahamoniy hukmdorlar Zardushtning payg'ambarlik rutbasini o'zlashtirib, o'zlarini Ahuramazda in'om etgan hokimiyat egalari sifatida namoyon etadilar hamda ularning hukmronligi davrida O'rta Osiyoda oliy xudo Ahuramazda diniy e'tiqodi amal qilgan. Lekin zardushtiylik diniy e'tiqod shakli barcha davrda bir xilda bo'lmaganligini hisobga olib, uni yaxlit bir davr sifatida emas, balki turli bosqichlar asosida o'rganish O'rta Osiyo xalqlari diniy e'tiqodida zardushtiylikning tutgan o'rni masalasidagi ilmiy haqiqatni ochib berishda katta yordam beradi.

Zardushtiylik ibodatxonasi. Birinchi davr – zardushtiylik diniy e'tiqodining ilk bosqichi, ya'ni bronza davridan ilk temir davrigacha bo'lgan davr. Bu davrda otashparastlik diniy e'tiqodining eng nufuzli e'tiqod ob'ekti sifatida olovga topinish, uni ilohiylashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Ikkinchi davr – otashparastlik diniy e'tiqodi Zaratushtra islohotlari tufayli rasmiy din sifatida shakllanib, uni endi ilmiy adabiyotlarda zardushtiylik dini sifatida o'rganila boshlaydi. Bu

mil.av.gi IX asrdan mil.av.gi VI asrlargacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda garchi oliy xudo Ahuramazda bo'lsada, qadimgi ilohlar pantionida Xorazmda Anaxita, Qadimgi Baqtriya va Marg'iyona hududlarida Ahuramazda, So'g'diyona hududlarida Mitra obrazi e'tiqodda asosiy o'rin egallaydi.[6]

Uchinchi davr – O'rta Osiyoda ahmoniyalar hukmronligining o'rnatilishi va O'rta Osiyo aholisi e'tiqodida Ahuramazdaning asosiy bosh o'ringa chiqishi.

To'rtinchi davr – ahmoniylardan keyingi davrda ellin madaniyatining O'rta Osiyoda zardushtiylik diniy e'tiqodiga ta'siri va assimiliatsiyasi.

Beshinchi davr – islom dini kirib kelgunga qadar bo'lgan davr. Bunda zardushtiylik diniy e'tiqodiga budavviylik va boshqa dinlarning o'zaro ta'siri asosida o'ziga xos rivojlanish masalasi. Taklif etilgan ushbu bosqichlar O'rta Osiyoda zardushtiylik dinining paydo bo'lishi masalasida birmuncha ob'ektiv xulosa chiqarishga imkon beradi.

- Tahlil va natijalar (Analysis and results Bugungi kunda Xorazm vohasida zardushtiylik dinining paydo bo'lishi va rivojlanishi masalasi olimlar tomonidan keng ko'lamda o'rganilib, ilmiy muomilaga yetarli darajada kiritildi. Endigi vazifamiz esa, Qadimgi So'g'diyona, Farg'ona madaniyatlari misolida zardushtiylik dinining tarixini o'rganish hamda O'rta Osiyoda zardushtiylik dinining boshqa dinlardan farqli o'laroq o'ziga xos tuzilishini va rivojlanish bosqichlarini ochib berishdir. Zamonlar o'tishi bilan otashparastlikda quyosh, yer va suvga bo'lgan e'tiqod tizimida mukammallashish jarayonlari yuz bera boshlaydi. O'rta Osiyoning janubiy viloyatlarida, qachonkim o'troq aholining hayotida takroriy sug'orma dehqonchilik xo'jaliklari tarkib topgan mintaqalarda, ya'ni Marg'iyona, Baqtriya, Parfiyona, Oriyona, Drangiyona, Sug'diyona kabi qadimgi dehqonchilik markazlarida ilk bor nish ura boshlaydi. Uning dalili sifatida, Zarafshon vodiysining so'nggi eneolit yoki ilk bronza davriga tegishli noyob yodgorligi Sarazm misolida, Anov-Nomozgoh madaniyatining eneolit va ilk bronza davri yodgorliklari – Oltin-tepa va Geoksur vohasi yodgorliklarida o'rganilgan otashparastlik majmualari misolida ko'rish mumkin.

O'rta Osiyodan topib o'rganilgan ibodatxonalarda olib borilgan keng qamrovli arxeologik izlanishlar shuni ko'rsatadiki, diniy ramzlar, e'tiqodlar kichik va sodda ko'rinishdan, yirik, mahobatli ibodatxonalar miqyosiga ko'tariladi. Yakka xudolilik e'tiqodiga o'tishi bilan insonning axloqiy normalari birinchi o'ringa ko'tariladi, ya'ni diqqat e'tibor ko'proq insonga, uning axloqiga qaratiladi. [7]

O'zbekistondagi dafn va xotira bilan bog'liq an'anaviy urf-odatlar islomgacha bo'lgan tasavvurlar bilan bog'lanib ketadi. Qadimgi ajdodlar ham vafot etganlarni turli xilda dafn etganlar. Arxeologik kashfiyotlarga qaraganda, qadimga Xorazm, Sug'diyona va Baqtriya'dagi o'troq aholi, dashtli sak, massaget va boshqa qabilalar murdalarni oziq-ovqat, zarur qurol va buyumlar bilan har xil usulda dafn etishgan, ba'zan kuydirganlar, jasad suyaklarini maxsus idishlarga solib sag'analarga joylashtirganlar. [8] Dafn etishning ossuariya marosimi, ya'ni murdani tozalash uchun chiqarib qo'yib, keyin suyaklardan suyaxona-ossuariyalarga ko'mish ko'proq tarqalgan. Xorazm hududida dafn etish marosimlarida zardushtiylik hukmronligidan darak beruvchi turli dafn yodgorliklari: ossuar qabristonlari, xonadon ossuar omborlari, murda etini parranda va yovvoyi hayvonlarga yedirish joylari, dafn etish ibodatxonalari topilgan. Shuning uchun bo'lsa kerak, bunday qabristonlar katta maydonlarni egallamagan. Shuningdek, bunday qabristonlar istiqomat joylariga yaqin bo'lgan va bu ularni toza tutish maqsadida qilingan. Buning madaniyatga ta'sir shundaki, u o'tmish avlodlarimizning pok ruhlarini yoshlar qalbida munosib saqlashi, avlodlar tizimida doimiylikni ta'minlaydi.[9]

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations) Yilning muayyan kunlarida qabristonlarga chiroq, yog'li chalpax bilan bo'g'irsoq pishirib, is chiqarib, marhumlarni tavof etish qadimiy odatlar qatoriga kiradi. Ota-onalar bilan yoshlar qabristonlarga borib o'z avlodlarini muntazam ravishda ziyorat etib turishgan va bu doimiy odat tusiga aylangan. Shu tariqa marhum ruhini shod aylash, uning ma'rakalariga faol qatnashish o'zbek xalqi hayotidan mustahkam o'rin olgan. Inson o'zining og'ir kunlarida madad istab qavmu qarindosh va do'stu birodarlarining yordamiga muhtoj bo'lib kelgan. Ma'lumki, o'zbeklar imkoniyati boricha bir-biriga yaqin joyda uy-joy qurishni, qavmu qarindoshlar yonma-yon joylashishni odat qilib kelganlar.

Shuning uchun ham hozirgacha uzoq o'tmishdan qolgan qavmu qarindosh (patronimiya)lar guruhlarini ko'p joyda saqlanib kelmoqda. Bunday holat, ayniqsa, oilaviy-maishiy tadbirlarni, urf-odat va marosimlarni o'tkazishda katta rol o'ynaydi. Xususan, dafn marosimini o'tkazish ko'p odamlarning ishtiroki bilan mahallachilik va qavmu qarindoshlik an'analarga tayanadi. [12] Dafn marosimi asosan o'zining qadimiy ko'rinishlarini saqlab qolsa-da, u islom dini qoidalariga amal qilingan holda o'tkaziladi. Asli bunday urf-odatlar nihoyatda murakkablashgan turli udum va

irimlardan iborat bo'lib, uning ildizi ibtidoiy animistik tasavvurlarga borib taqaladi. Hozirgacha amal qilinadigan marhumning uchi, yettisi, yigirmasi, qirqi, ba'zi yerlarda yuzi, yili bilan bog'liq va boshqa ko'pdan-ko'p rasm-rusumlar, ayniqsa, har xil xudoyilar eng ibtidoiy diniy tasavvurlarni o'zida mujassamlashtirgan.

Keyingi vaqtlarda aholi o'rtasida yangicha dafn etish marosimi joriy etildi. Bunga ko'ra, fuqarolik mitingi (yig'ilishi)ni o'tkazish, mehnat jamoasi, jamotchilik vakillari va do'stu birodarlarning ta'ziya nutqi, marhumning xotirasini abadiylashtirish, qabr toshi o'rnatish kabilar odat tusiga kirib bormoqda.

- Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References)

1. Кароматов Х. Ўзбекистонда мозий эътиқодлар тарихи. – Тошкент, Жаҳон итқисодиёти ва дипломатия университети. 2008. – С. 27.

2. Василев Л.С. История религий востока. – С. 14.

3. Suleimanov R. On Relicts of ancient Culture and Ideology in Islam in Central Asia // Oriente Moderno. - 2007. - №6.-P. 163-175.

4. Джаббаров И., Дресвянская Г. Духи, святые, боги Средней Азии: очерки по истории религии. - Т., 1993.

5. Жаббаров И., Жаббаров С. Жаҳон динлари тарихи. - Т.: Ўзбекистон, 2002. - Б. 33-70.

6. Аскарлов А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. Ташкент, 1977.; Зардуштийликнинг илк ватанидаги ибодатхона. Санъат тарихи // – Ташкент, 2001.; Древнебактрийский храм огня в южном Узбекистане. «Градостроительство и архитектура. Культура Среднего Востока – развитие связи и взаимодействия». (совм. Ширинов Т.) – Ташкент, 1989.

7. Исхоқов М. Исаков А. Саразм. (К вопросу становления раннеземледельческой культуры Зеравшанской долины). – Душанбе, 1991. 8. Эсонов М. Хоразм ҳудудида Зардуштийлик динининг пайдо бўлиши ҳақида баъзи бир мулоҳазалар. Тезисы

9. Аширов А. А. Ўзбек халқи анъанавий турмуш тарзида қадимий диний эътиқодлар (Фарғона водийси материаллари асосида). Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Тошкент. 2008.



XX ASRNING 70-80 YILLARIDA O'ZBEKISTONNING ANGOLA VA MOZAMBIK BILAN MUNOSABATLARI XUSUSIDA...

Orziyev Mahmud Zayniyevich,
Buxoro davlat universiteti "Jahon tarixi" kafedrası, dosenti, t.f.f.d. (PhD)

Bobokulov Oxunjon Akmat o'g'li
Buxoro Davlat Pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: XX asrning ikkinchi yarmida Afrika davlatlarining milliy mustaqillikni qo'lga kiritish jarayonlari sodir bo'lib, mustamlaka asoratlardan xalos bo'lish borasidagi sa'y-harakatlar boshlangan. Ayniqsa, Tropik Afrika mintaqasidagi Angola va Mozambik davlatlari 1975 yilda milliy mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng, metropoliyalarga iqtisodiy qaramlikdan qutilish uchun sobiq SSSR bilan yaqinlashish yo'lidan borganlar. Sobiq SSSR ushbu davlatlarda harbiy, siyosiy, texnikaviy kabi sohalarida yordam bergan. SSSR tarkibidagi O'zbekiston ham bu aloqalarda chetda turmagan. O'zbekiston asosan qishloq xo'jaligi va shu sohaga oid texnikalarni yetkazib berish, tropik mintaqa sharoitida paxta yetishtirish, undan mo'l hosil olish, sobiq SSSR tartiblari asosida xo'jaliklar tashkil qilish, paxta yetishtirishning ilmiy asoslarini yaratishda, qishloq xo'jalik texnikalarini boshqarish, ularning mahalliy aholiga yetkazib berish, Angola va Mozambik xalqlarini sovetcha tartiblar asosida jamiyat qurishga va yashashga o'rgata boshlaganlar. O'zbekiston sanoat korxonalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar Afrikaning turli davlatlariga yetkazib berilgan. Asosan qishloq xo'jaligi texnikalaridan iborat mahsulotlarning Afrika davlatlarida ko'rgazmalari uyushtirib turilgan. Shuningdek, Mozambikda o'tkazilgan ko'rgazmaga ayniqsa mahalliy aholi ko'p tashrif buyurganligi tarixiy adabiyotlarda keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Mustaqillik, iqtisodiy aloqa, qishloq xo'jaligi, o'zaro munosabatlar, paxta ekish, mo'l hosil, socialistik jamiyat, xo'jalik yuritish, ko'rgazma, eksport, mutaxassis, mehnatkash

OTNOSITELNO OTNOSHENIY UZBEKISTANA S ANGOLOY I MOZAMBIKOM V 70-80-X GODAX XX VEKA...

Orziyev Mahmud Zayniyevich,
Buxarskiy gosudarstvennyy universitet, kafedra «Vsemirnaya istoriya», dosent, k.i.n. (Kandidat nauk)

Babakulov - syn Oxundjona Akmata
Prepodavatel kafedry obuchestvennykh nauk Buxarskogo gosudarstvennogo pedagogicheskogo instituta

Annotatsiya: Vo vtoroy polovine XX veka proisxodili processy obreteniya natsionalnoy nezavisimosti afrikanskimi stranami, nachalis usiliya po izbavleniyu ot kolonialnykh oslojneniy. Osobenno strany Angoly i Mozambika v tropicheskoy afrikanskom regione posle obreteniya natsionalnoy nezavisimosti v 1975 g. poshli po puti sblijeniya s byvshim SSSR, chtoby izbavitsya ot ekonomicheskoy zavisimosti ot metropoliy. Byvshiy SSSR pomogal etim stranam v voyennoy, politicheskoy i texnicheskoy oblasti. Uzbekistan, vkhodivshiy v sostav SSSR, ne ostalsya v storone ot etix otnosheniy. Uzbekistan v osnovnom zanimayetsya selskim xozyaystvom i postavkoy oborudovaniya, svyazannogo s etoy sferoy, vyrauyvaniyem xlopka v usloviyax tropicheskogo regiona, polucheniym ot nego obilnykh urojayev, organizatsiyey fermerskix xozyaystv po metodikam byvshego SSSR, sozdaniyem nauchnoy bazy vyrauyvaniya xlopka. , upravlyaya selxoztexnikoy, dostavlyaya yeye mestnomu naseleniyu, Angola i Oni stali uchit mozambiksev stroit obuyestvo i jit po sovetkim pravilam. Produksiya, proizvedennaya na promyshlennyykh predpriyatiyax Uzbekistana, postavlyalas v razlichnyye strany Afriki. Vystavki produktsii selkoxozyaystvennoy texniki organizuyutsya v stranax Afriki. V istoricheskoy literature takje upominayetsya, chto vystavka, proxodivshaya v Mozambike, posetila bolshoye kolichestvo mestnykh jiteley.

Klyuchevyye slova: Nezavisimost, xozyaystvennaya svyaz, selskoye xozyaystvo, vzaimodeystviye, xlopkovodstvo, bogatyy urojay, socialisticheskoye obuyestvo, xozyaystvo, vystavka, eksport, specialist, rabotyaga.

REGARDING UZBEKISTAN'S RELATIONS WITH ANGOLA AND MOZAMBIQUE IN THE 70-80S OF THE 20TH CENTURY...

Orziyev Mahmud Zayniyevich,
Bukhara State University, Department of «World History», associate professor, Ph.D. (PhD)

Babakulov is the son of Okhunjon Akhmat
Teacher of the Department of Social Sciences of Bukhara State Pedagogical Institute

Abstract: In the second half of the 20th century, the processes of gaining national independence of African countries took place, and efforts to get rid of colonial complications began. Especially, the countries of Angola and Mozambique in the tropical African region, after gaining national

independence in 1975, followed the path of rapprochement with the former USSR in order to get rid of economic dependence on metropolises. The former USSR helped these countries in military, political, and technical fields. Uzbekistan, a part of the USSR, was not left out of these relations. Uzbekistan is mainly involved in agriculture and the supply of equipment related to this field, growing cotton in the conditions of the tropical region, obtaining abundant harvests from it, organizing farms based on the procedures of the former USSR, creating the scientific basis of cotton cultivation, managing agricultural equipment, delivering it to the local population, Angola and They began to teach the Mozambican people to build a society and live on the basis of Soviet rules. Products produced in Uzbekistan's industrial enterprises were delivered to various African countries. Exhibitions of agricultural machinery products are organized in African countries. It is also mentioned in the historical literature that the exhibition held in Mozambique was attended by a large number of local residents.

Keywords: Independence, economic communication, agriculture, interaction, cotton planting, bountiful harvest, socialist society, economy, exhibition, export, expert, hard worker

Kirish. Ikkinchi jahon urushidan so'ng, urushning ko'p mashaqqatlarini o'z yelkasiga olgan va fashizm ustidan qozonilgan g'alabagda hal qiluvchi rol o'ynagan sobiq SSSRning xalqaro maydonda ta'siri oshib, mustamlaka tartiblarida yashayotgan Afrika xalqlari orasida socialistik va ozodlik g'oyalarining yoyilishining kuchayishiga sabab bo'lgandi. Ingliz, fransuz va boshqa Yevropa mamlakatlari mustamlakalari bo'lgan Afrika xalqlari va mamlakatlarda avj olgan milliy ozodlik harakatlarini sobiq SSSR hamisha qo'llab-quvvatlab turgan. SSSR ta'sirining oshishi va Afrika mamlakatlarida SSSR namunasidagi socialistik jamiyatlar qurish g'oyasi tez tarqala boshlagan. Bu hol XX asrning 50-70 yillarida ayniqsa ko'zga tashlangan. "1950-1970 yillarda Sovet ittifoqining tashqi siyosati globallashib borib, ushbu siyosatning bir qismi rivojlanayotgan va endigina mustaqillikni qo'lga kiritgan G'arbiy Afrika davlatlari (Gana, Mali, Kongo, Gvineya)ga ham mustamlakachilik asoratidan qutilish, sovet namunasi asosidagi jamiyatlar qurish g'oyalarining tarqalishida namoyon bo'lgan[11, 273]"-ligi bilan bog'liq ma'lumotlar tarixiy adabiyotlarda keltirib o'tilgan.

Adabiyotlar sharhi. O'rganilayotgan mavzuga oid tarixiy adabiyotlar asosan sobiq SSSR davrida chop etilgan bo'lib, ularda kommunistik mafkura ustun bo'lganligi sababli tanqidiy nuqtai-nazardan o'rganishga e'tibor qaratdik. Ayniqsa, M.A. Axunova, A.M. Kasimov, O.A. Toshpulatov S.A. Frolova kabilarning asar va maqolalarida, Shuningdek, o'sha davr ommaviy axborot vositalarida O'zbekistonning Angola va Mozambik davlatlariga ko'rsatgan moddiy-texnik yordami, ushbu davlatlar bilan munosabatlarining turli jabhalari yoritilgan.

Natijalar va Munozara. Sobiq SSSR tashqi siyosatining Afrika va ayniqsa tropik mintaqadagi davlatlarga qaratilishi bu hududlarda paxta, kofe kabi turli sanoatbop mahsulotlar, boy qazilma boyliklar sabab bo'lgan deb aytish mumkin. Ammo, tarixiy manba va adabiyotlardagi ma'lumotlar tahlili SSSR ushbu davlatlarga xalq xo'jaligini tiklash, zamonaviy zavod va fabrikalar qurish borasida katta amaliy ishlarni bajarganligi va unda O'zbekistonning ham roli, ahamiyati katta bo'lganligini ko'rsatadi. Bu esa jamiyat qurilishi, davlat apparatining tuzilishida namoyon bo'lgan. 1979 yilgi ma'lumotlarga qaraganda, Afrikaning 30% hududi va aholisining 25% ni qamrab olgan mamlakatlar socialistik jamiyat qurishni e'lon qilgan bo'lib, ular orasida Angolola va Mozambik hududi va aholisi bo'yicha muhim ahamiyat kasb etgan[4, 494]. SSSRning XX asr 70-yillaridan boshlab Afrika janubidagi asosiy ittifoqchilari sobiq Portugaliya koloniyalari bo'lgan Angola va Mozambik davlatlari bo'lib, biz ushbu davlatlar bilan sobiq SSSR tarkibida bo'lgan O'zbekiston SSRning o'zaro 70-yillar oxiri – 80-yillar boshlarida paxtachilik sohasidagi munosabatlariga imkon qadar to'xtalib o'tishni lozim topdik.

Angola va Mozambik (har ikkalasi 1975 yil mustaqillikni qo'lga kiritgan) davlatlari tropik Afrikada joylashgan bo'lib, milliy mustaqillikdan so'ng jamiyat taraqqiyotining socialistik yo'nalishini tanlagan. Shu vaqtdan boshlab, ularning SSSR va u orqali O'zbekiston bilan iqtisodiy aloqalari rivojlanib borgan. 70 yillarning ikkinchi yarmiga qadar ham O'zbekistonning Samarqand, Toshkent, Chirchiq, Qo'qon shaharlaridagi zavodlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari Gvineya, Mali, Jazoir va boshqa Afrika davlatlariga eksport qilingan. Shuningdek, Toshkent tekstil korxonasi mahsulotlari ayniqsa Jazoirda xaridorgir bo'lgan. 70-yillar ikkinchi yarmidan boshlab esa, ularning Angola va Mozambik hududlariga kirib borganligini ko'rish mumkin. Shu vaqtdan boshlab, yuzlab o'zbekistonlik ishchilar Angola va Mozambikda yangi socialistik jamiyat tartiblari qurish yo'lida ishlay boshlaganlar[1, 22-23]. Ya'ni kolxoz va sovxozlar qurish, paxta yetishtirish tajribalarini o'rtoqlashganlar.

Tarixiy adabiyotlarda birgina Mozambikda sovetcha tartiblar asosida xo'jalik yuritish va paxta yetishtirish bo'yicha O'zbekiston SSR yordami beqiyos bo'lgan. 1977-1981 yillarda Mozambikning Nampula o'lkasida uchta SSSR tipidagi sovxoz tashkil etish, shuningdek, paxtachilik ilmiy-tadqiqod markazi tashkil etishga ko'maklashganlar[9, 12]. Bu Mozambik hududida paxtachilikning rivojlanishi va iqtisodiy ko'rsatgichlarni oshishiga xizmat qilgan. Mozambik davlati agrar davlat bo'lib, sanoatning yetarli darajada rivojlanmaganligi, qishloq xo'jaligiga aholining katta qismi band bo'lganligi kabi qator omillar sanoatning dastlab qishloq xo'jalik bilan bog'liq tarmoqlarini rivojlantirishni talab etgan. 70-yillarning oxiridan boshlab, Mozambik Xalq Respublikasiga O'zbekistonning Toshkent, Samarqand, Chirchiq, Andijon, Qo'qon va boshqa shaharlarida tayyorlangan paxta terish mashinalari, paxta tozalash uskunalari, ekskavatorlar, traktorlar, ularning ehtiyot qismlari, tirkamalar, kinoapparaturalar, kabellar, payvandlash transformatorlari, kultivatorlari, kompressorlar, filtrlar va boshqa mahsulotlarni

eksport qilinganligi tarixiy adabiyotlarda keltirib o'tilganligini ko'rish mumkin[9, 13]. Yuqoridagi fikr-mulohazalardan qisman bo'lsada Mozambik iqtisodiyoti sanoatlasha boshlagan degan xulosalarga kelish mumkin.

Mozambik davlatining Nampula o'lkasida o'zbekistonlik mutaxassislar 1982 yilda uchta yirik paxta yetishtirishga ixtisoslashgan xo'jalik tuzishga yordam berganlar. Ushbu xo'jaliklarda paxta yetishtirish bilan bog'liq bo'lgan barcha texnikalar ham O'zbekistonda ishlab chiqarilgan. Paxtaga ishlov berishda O'zbekiston tajribasi qo'llanilishi natijasida Nampula o'lkasi xo'jaliklari paxtadan yuqori hosil ola boshlaganlar. Xo'jaliklar tuzilganining dastlabki yild ayoq paxtadan 30 s/ga hosil ola boshlaganlar[7]. Bu kabi hosil Mozambikning mustamlaka davrida olinmaganligi adabiyotlarda keltirib o'tilgan. O'zbekistonliklarning Nampula o'lkasi dehqonlari bilan turli aloqalari mustahkamlanib borganligi bilan bog'liq ma'lumotlar tarixiy adabiyotlarda saqlanib qolgan. Jumladan, 1983 yilda O'zbekistonda Mozambik kunlari o'tkazilgan. Bu ikki tomonlama hamkorlikning rivojlanayotganligining va o'zbekistonliklarning Mozambikka qiziqishi ortayotganligini ko'rsatuvchi omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, 1984 yilda O'zbekiston mehnatkashlari Mozambik Nampula o'lkasi paxtakor-dehqonlariga ish vaqtida kiyiladigan maxsus kiyimlar sovg'a qilganlar. Mozambik hukumati nomidan uni Gaspar Zimba (1982 yil Mozambikning qirg'oqbo'yi port shahri Maputu hokimi) qabul qilib olgan[8,16]. O'zbekistonliklarning beg'araz yordamlar Mozambik xalqida SSSR davlatiga bo'lgan umid va uning yosh, mustaqil Respublikani har tomonlama qo'llab-quvvatlashiga ishonch uyg'otgan. O'zbekistonlik mehnatkashlar Mozambikning Maputu shahridagi yarmarkaga o'z mahsulotlari bilan 1982 yildan boshlab qatnasha boshlagan. 1982 yilgi yarmarka namoyishlari doirasida O'zbekistonda ishlab chiqariladigan paxta terish mashinalari, traktorlar, tirkamalar, ko'sak chuvish mashinalari, seyalka va boshqalar namoyish etilgan. Mozambikda ushbu ko'rgazmani ko'rish uchun ikki mlndan ko'proq odam tashrif buyurgan[5,85]. Bu ko'rgazmaning mozambikliklarda katta taassurot uyg'otganligidan dalolat beradi. Mozambik davlati bilan O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlar 80-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab qisqarib, sobiq SSSRning tarqalib ketishi bilan deyarli uzilib qolgan.

Tropik Afrika mintaqasidagi Angola davlati qishloq xo'jaligida paxta yetishtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqillikka erishgandan so'ng ushbu davlat ham paxtachilikni rivojlantirish borasidagi izlanishlari ortidan sobiq SSSR va u orqali O'zbekiston bilan uzviy aloqalarni boshlagan. 1984 yilgi ma'lumotlarga qaraganda, Angolada yetishtiriladigan paxtaning 80% tashselmash zavodida tayyorlangan paxta terish mashinalari yordamida yig'ishtirib olina boshlangan. Shuningdek, O'zbekistonda ishlab chiqarilgan seyalka, kultivator, tirkamalar, shuningdek, T-28x4M va MTZ-80-x kabi Toshkent traktor zavodi ishlab chiqaradigan mashinalarni xo'jalik hayotda keng qo'llagan[8,12-13]. Yangi MTZ-80x traktorlarini Angolaga yetkazib berish 1979 yil iyun oyida boshlangan[2]. Ushbu fakt va raqamlardan ko'rinib turibdiki, 70-yillarning ikkinchi yarmidan boshlangan hamkorlik 80-yillarning birinchi yarmida paxtani sanoat darajasida yetishtirish, uni ekish, ishlov berish, terib olish ishlarini texnika zimmasiga yuklana boshlangan. 80-yillarda chop etilgan ilmiy jurnallarda bu xususda to'xtalib o'tilgan bo'lib, O'zbekistonning Tashselmash zavodida ishlab chiqarilgan paxta terish mashinalari angolalik dehqonlarda ijobiy ta'surot uyg'otgan va o'zlariga beg'araz yetkazib berilgan paxta terio' mashinalari uchun Tashselmash zavodi ishchilariga o'z minnatdorchiliklarini bildirib maktub yo'llaganliklariga oid ma'lumotlar saqlanib qolganligini ko'rish mumkin[9,13].

O'zbekiston mehnatkashlari Angola va Mozambikda davlatga qarashli qishloq xo'jaliklarini tashkil etishdagi asosiy vazifani bajarganlar. Ushbu vazifani bajarishda O'zbekiston SSR meliorasiya va suv xo'jaligi bosh pudratchi vazifasini o'tagan. Birgina Angolada bosh pudratchiga dastlabki davrda 500 ga yer maydonga ega bo'lgan davlat xo'jaliklarini tuzish, ularda bug'doy va paxta yetishtirishni yo'lga qo'yish vazifasi yuklangan. Belgilangan vazifalarni muddatida bajarish maqsadida O'zbekistondan Angolaga turli texnikalar, mutaxassislar keltirilgan. Angolaga birinchilardan borgan qishloq xo'jaligi mutaxassislari sifatida injener-gidrotexnik I.G. Fayradyan, texnik-quruvchi N.G. Murodov, injener-mexanik M.A. Baklan, avtomexanik S.Raxmatullayev, traktorchi Sh.G. Qurbonov, texnik-mexanik Sh.R. Toxirov, injener-gidrotexnik O.Do'smatov, traktorlar ta'miri bo'yicha slessar F.I. Chilyakovlarning ism-familiyasini keltirib o'tish mumkin[8]. Ushbu mutaxassislar yordamida 1978 yil Luanda shahri yaqinida sovetcha tartiblar asosida ishlaydigan xo'jalik tuzilib, sinovdan o'tkazilgan. Xo'jalikda paxtaning bir necha sortlarini ekilgan bo'lib, iqlimiy xususiyatlarga e'tibor qaratilganligi sababidan Toshkent-1 sorti ko'proq ekilgan. Yil oxirida paxtaning har gektaridan 42 s/ga hosil olingan. Solishtirish natijasiga ko'ra Angola paxtakorlari paxtadan eng yuqori hosilni 1973 yilda 7,3 s/ga olganliklari qayd etilgan[10,22]. Bu sovetcha tartiblarga ishonch, jamoaviy ishlash afzalligi kabilarni ko'rsatuvchi omil bo'lib xizmat qilgan. 1978 yilda tuzilgan xo'jaliklar o'zini oqlagandan so'ng, o'zbekistonlik mutaxassislar va ishchilar ishtirokida Angolaning Luanda, shimoliy va janubiy Kvanze, Malanj kabi o'lkalarida pxtachilikni rivojlantirish mumkin bo'lgan yerlar va ularni sug'orish masalalariga oid kompleks ishlar amalga oshirila boshlangan. 1980 yilgi ma'lumotlarga qaraganda, Angolada paxta ekiladigan yerlarning ko'payib borganligi sababli, paxtani xom-ashyo emas, hech bo'lmaganda yarim fabrikat mahsulot sifatida sotish harakati boshlangan. Shu yili O'zbekiston SSR tomonidan ko'rsatilgan yordam bilan Angoladagi to'rtta paxta tozalash zavodini qayta tiklanib ishga tushirilgan[9,14]. O'zbekistonliklarning sa'y-harakatlari bilan Angola mehnatkashlari paxta sanoatini yo'lga qo'ya boshlaganlar deb xulosa qilish mumkin. Bunday xulosa chiqarishga asoslar yetarli bo'lib, ayrim o'zbekistonliklar Angolaga borib mahalliy aholi bilan birgalikda dalalarda mehnat qilganlar. Jumladan, Angolaning Malanj o'lkasidagi Kakuzo deb

nomlanuvchi davlat xo'jaligida har kuni ikki ming angolalik paxta teruvchilar bilan birgalikda qirqqa yaqin o'zbekistonliklar ham ishga chiqqanlar[3]. Bu yuqorida keltirib o'tgan fikr-mulohazalarimizni asoslashga xizmat qiladi. Bunday xulosaga kelishimizning yana bir sababi, 1980 yil may oyida Angola MPLA (Ishchi partiyasi) yetakchisi va Prezident Eduardu dush Santush Angolaning Ikola va Benga munisipalitetlaridagi davlat xo'jaligidagi yig'ilishda "Paxta Angola iqtisodiyotining muhim tarmog'i ekanligini, Ikola va Benga aholisini sosialistik lagerdagi do'stlarning mehnat tajribalari va bilimlarini o'rganish zarurligi[6]"-bilan bog'liq fikr-mulohazalarni keltirib o'tganligi bilan ham bog'liq deb hisoblaymiz.

1983 yil Angola poytaxti Luandada o'tkazilgan qishloq xo'jaligi texnikalari ko'rgazmasida O'zbekiston tomoni MTZ-80x traktori, XNP-1,8 paxta terish mashinasini, 2-PTS-4-793 tirkamasini, SCHX-4A-1 seyalkasini, UPX-1,5 ko'sak chuvish mashinsi va boshqalarni namoyish qilgan[9,15]. Bu ko'rgazma mahalliy aholi va dehqonlarda katta ta'surot qoldirgan. Angola tomoni sobiq SSSRdan ushbu texnikalarni arzonlashtirilgan holda sotib ola boshlagan. Sobiq SSSR sanoat mahsulotlari va texnika vositalarini arzon sotish orqali g'arb davlatlaridagi raqobatchilarni siqib chiqarishni mo'ljallagan. Shu sababli Afrikaning turli mamlakatlarida ko'rgazmalar, texnika vositalari namoyishlari o'tkazilib turilgan. Jumladan, 1984 yilgi ma'lumotlarga qaraganda, O'zbekistonning 230 ta yirik sanoat korxonasi mahsulotlari Afrikaning turli davlatlarga eksport qilingan. Eng yirik eksport mahsulotlari qabul qiladigan davlatlar sifatida Gvineya, Marokash, Sudan, Tunis, Angola, Mozambik davlatlari sanab o'tilgan. Shuningdek, dunyoning 66 davlatiga O'zbekiston mahsulotlari eksport qilingan bo'lsa, ular orasida Afrika davlatlari soni o'n beshtani tashkil qilgan[5,85]. O'zbekiston mahsulotlari Afrika davlatlarida iqtisodiy hayotni ko'tarishga, aholini farovon yashashini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, O'zbekiston Afrika mamlakatlari, xususan Angola va Mozambik davlatlari bilan sobiq SSSR ta'siri doirasida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga kirishgan bo'lib, o'zbekistonliklar asosan qishloq xo'jaligi texnikalarini yetkazib berishda, ushbu davlatlarda sovet tartibidagi xo'jaliklarni shakllantirish, paxta yetishtirishni yo'lga qo'yish va undan mo'l hosil olishda qatnashganlar. Angola va Mozambik xalqlari bilan yelkama-yelka turib mehnat qilgan o'zbekistonliklar Afrika xalqlarining mustamlaka asoratlaridan qutilib, yangi hayot qurishda jonbozlik o'kratsanlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Axunova M.A. Rabochiy klass Uzbekistana-stroitel kommunizima. // O'zbekistonda ijtimoiy fanlar (Общественные науки в Узбекистане). 1984. №60. - S. 15-23.

Vecherniy Tashkent. 1979. №, 27 iyunya.

Izvestiya 1983 g., 5 avgusta.

Istoriya vneshney politiki SSSR 1945-1980 / red. A. A. Gromыko, B. N. Ponomarev. – Moskva : Nauka, 1981. – Tom 2. – 590 s

Касымов А.М. Sovetskiy Uzbekistan na mejdunarodnoy arene. // O'zbekistonda ijtimoiy fanlar (Общественные науки в Узбекистане). 1984. №60. – S. 82-88.

Pravda Vostoka 1980 g., 2 noyabrya.

Sovetskiy Uzbekistan 1982. № 9. – S. 7.

Tashkentskaya pravda gazeta 1978 god, 9 dekabrya

Toshpulatov O.A. Vklad rabochego klassa Uzbekistana v razvitiye ekonomicheskix svyazey SSSR s Angoloy i Mozambikom. // O'zbekistonda ijtimoiy fanlar (Общественные науки в Узбекистане). 1984. № 9. – S. 12-16.

Frolova S.A. Angola: net dorogi obratno. – T.: Uzbekistan, 1980. – 56 s.

Iandolo A. Soviet Policy in West Africa, 1957-64 Thesis submitted for the degree of Doctor of Philosophy, International Relations Department of Politics and International Relations, St Antony's College, University of Oxford Word count: Trinity Term 2011. - 306 r.

BUXORO AMIRLIGI TASARRUFIDAGI BOZORLAR VA SAVDO MARKAZLARI FAOLIYATIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

*Qudratov Shuhrat.Yodgorovich,
Buxoro davlat universiteti, Arxeologiya va Buxoro
tarixi kafedrasida katta o'qituvchisi, t.f.f.d.(PhD)*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro amirligidagi savdo markazlari va bozorlari faoliyati, ularni tashkil etishda savdogarlarning xizmatlari katta ekanligi, poytaxt bozorlaridan tashqari tuman bozorlarining ayrimlari juda mashhur bo'lib, bu XX asr boshidagi sayohatchilar tomonidan qayd etib o'tilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar batafsil yoritib o'tilgan. Shu bilan birga amirlik ichki savdosida uyushtiriladigan savdo yarmakalari muhim bo'lib har yili Navro'z bayrami kunlarida Buxoro amirining shahar tashqarisidagi Sherbudun saroyi yonidagi xalq sayli paytida yirik savdogarlar tomonidan tashkil etilgan vaqtinchalik dokonlarda mahsulotlar sotilganligi to'g'risida atroflicha ma'lumotlar berib otilgan.

Kalit so'zlar. Savdo markazlari, savdogar, savdo rastasi, do'kon, qorako'l, qo'lyozma, guzar, import, mol ayirboshlash, yarmarka.

SOME DISCOURSES ON THE MARKETS OF THE EMIRATE OF BUKHARA AND THE ACTIVITIES OF THE TRADE CENTERS

*Kudratov Shukhrat Yodgorovich,
Senior lecturer of the Chair of Archeology and history, of Bukhara, (PhD), Bukhara state
university*

Annotation. This article details the activities of shopping centers and markets in the emirate of Bukhara, the fact that the services of merchants are great in their organization, some of the district's markets are very popular; in addition to the capital's markets, which were noted by travelers of the beginning of the 20th century. At the same time the detailed information on the trade fairs organized in the domestic trade of the emirate were important, and every year on the days of the Feast of Navruz, products were sold with detailed information on the grounds that during the people's promenades next to the Sherbudun palace of the Emir of Bukhara outside the city were sold in temporary roadside stalls organized by large merchants.

Keywords. Shopping centers, merchants, trading stalls, shops, karakul skin, manuscripts, guzar, imports, exchange of goods, fairs.

НЕКОТОРЫЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ О РЫНКАХ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА И ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТОРГОВЫХ ЦЕНТРОВ

*Кудратов Шухрат Ядгарович,
Старший преподаватель кафедры Археология и история Бухары (PhD), Бухарский
государственный университет*

Аннотация. В данной статье подробно рассказывается о деятельности торговых центров и рынков в Бухарском эмирате, о том, что услуги торговцев великолепны в их организации, некоторые рынки района пользуются большой популярностью, в дополнение к столичным рынкам, которые были отмечены путешественниками начала XX века. В то же время подробная информация о важном значении ярмарок, организованные во внутренней торговле эмирата, и каждый год в дни праздника Навруз во время народных гуляний продавались товары рядом с дворцом бухарского эмира Шербудун за городом во временных лавках, организованных крупными торговцами.

Ключевые слова: Торговые центры, торговли, торговые палатки, магазины, казармы, рукописи, гузар, импорт, обмен товарами, ярмарки.

Kirish. Buxoro o'zining savdo markazlari va turli mamlakatlar savdogarlarning uchrashuv joyi bo'lgan bozorlari bilan mashhur bo'lgan. Bozorlar va savdo rastalari mahsulotlar turlariga ko'ra, Labihovuzdan qadimiy shaharning markaziy maydoni Registongacha cho'zilgan edi. Buxoro bozorlari o'zining mahobati bilan mashhur bo'lib, bu XX asr boshlarida sayohatchilar tomonidan qayd etib o'tilgan.

Buxoro bozorlari va savdo markazlari faoliyatini tashkil etishda savdogarlarning xizmati katta bo'lgan. Shaharning har bir dahasida savdogarlar yashaydigan guzarlar mavjud bo'lgan. Ular ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra, katta savdogarlar va do'konchilar kabi tabaqalarga ajratilib, shaharning markazida do'konlari bo'lganlari "timchi" deb atalgan. Mayda do'konlarning egalari pastroq tabaqadagi savdogarlar bo'lib, ulardan ham pastroqda har xil mahsulotlarning oldi sotdisi bilan shug'ullanadigan kichik savdogarlar faoliyat ko'rsatgan[1].

Savdogarlar nafaqat shaharlarda, balki qishloq va mavzelerde ham aholining katta qismini tashkil etgan. Dehkanchilik bilan shug'ullanadigan mahalliy aholi vakillari o'zlari yetishtirgan mahsulotlarini qishloq va shahar bozorlarida hunarmandchilik buyumlariga ayirboshlaganlar yoki sotganlar. Natijada mahalliy dehqonlarining ayrimlari qishloq xo'jaligi mahsulotlarining nafaqat yetishtiruvchisi, balki

ularga qayta ishlov beruvchi hamda chakana savdoni amalga oshiruvchi sotuvchisiga aylangan [2]. Buxoro shahrida dehqonchilik mahsulotlarini sotishga ixtisoslashtirilgan "Paxta, ipak, bug'doy, arpa, jo'xori, tariq, kepak, xo'l va quruq mevalar, qovun va tarvuz, turli sabzavotlar bozorlari" ham mavjud bo'lgan. XX asr oxirida Buxoro shahrida 50 taga yaqin yopiq bozorlar bo'lib, 3ta don bozori, 1ta baliq, 1ta un, 1ta tuz, 3 ta ko'mir, 1ta metal buyumlar sotiladigan bozor, 2 ta poliz mahsulotlari, 3ta meva bozori, 6ta sut va sut mahsulotlari bozori, 2 ta yog' bozori va boshqalar faoliyat ko'rsatgan [3].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Buxoro amirligi tasarrufidagi bozorlar va savdo markazlari to'g'risidagi ma'lumotlar tarixchi, sayyoh, etnograf olimlar O.Suxareva, Yu.Skayler, X.Vamberi, A.Semyonov asarlarida batafsil yoritib berilgan. Buxoro bozorlarida nafaqat milliy mahsulotlar, balki dunyoning turli qismlaridan keltirilgan mahsulotlar ham mavjud bo'lgan. Ingliz mollari shaharga Afg'oniston orqali keltirilgani uchun Qobuli nomi bilan mashhur bo'lgan. Buxoro savdo markazlarida Rossiya mahsulotlari xaridorgir bo'lgan. Rossiyadan keltirilgan shakar Buxoroda arzon bo'lib, Toshkentga import qilingan[4].

Bozorlar har kuni gavjum bo'lib, Buxoroning tijorat poytaxti (metropolis) ekanligini namoyish etib turgan[5].

Shahar ko'chalarida tabiblar do'konlari, shuningdek, 60 ta chinni, 150 ta cho'furushlik, 50 ta holvafurushlik, 60 ta misgarlik, 26 ta kitobfurushlik[6]do'konlari mavjud bo'lgan. Buxoro shahri darvozalari yaqinida ham bozorlar mavjud bo'lgan. Xususan, Samarqand darvozasi yaqinidagi gavjum bozori asosan non va go'sht mahsulotlari, sanoat usulida to'qilgan matolar va bo'yoqlar hamda hunarmandchilik buyumlari bilan ulgurji savdo qilingan[7].

Rus, ingliz, hind, afg'on va eron mollarining ulkan ombori bo'lgan Buxoro bozorlari Toshkent bozoridan 5 marotaba katta bo'lib, ularda nafaqat mahalliy mollarning, balki chet ellardan, xususan, qo'shni Shark mamlakatlaridan keltirilgan mollarning ham narxleri arzon bo'lgan. Sharqshunos olim A.A.Semyonov mahalliy bozor rastalarining boyligi hamda rang barangligi Sharq va G'arbda ishlab chiqarilgan mollarni sotib olish imkoniyatining kengligi haqida: "Buxoro bozorida II[vesariyadan keltirilgan quyultirilgan sut, Germaniyadan konsentrat holda keltirilgan Libix quruq sho'rvasi, Shanxayning zanjabil murabbosi, Birma poytaxti Rangundan olib kelingan xushbo'y shamlar, Malta orolidan, Hindistondan keltirilgan zardo'zlik ro'mollarini, hind rupiylarini, Meksikaning kumush dollari, Turkiyaning oltin lirasi, ingliz funt sterlingini bemalol xarid qilsa bo'lardi"[8], deb yozadi.

Buxoro bozorlarining yana bir turi ot bozori. Bu davrda eng yaxshi transport turi ot bo'lganligi sababli amirlikda yilqichilik bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar talaygina bo'lgan. Qishloqda yashovchi aholi tomonidan qoramol bilan bir paytda ot ham boqilgan bo'lib, ehtiyojdan tashqari bozorga sotish uchun olib chiqilgan. Ot sotiladigan bozor o'sha davrlarda 2 ta bo'lgan. Biri Registon yaqinida bo'lib, haftaning shanba, dushanba va seshanba kunlari bo'lgan. Ikkinchi ot bozori chorshanba kuni Bahouddin bozori yaqinida tashkil etilgan. Buxoroda otlarning narxi yuqori bo'lib, 10 tildan 15 tillagacha xarid qilingan. Asl zotli otlar sotish uchun bozorga olib chiqilmagan. Ular dallol (vositachi) lar orqali savdogarlar hovlisidan tanlab olingan. Bunday mumtoz otlar narxi 100-150 tillaga yetgan[9].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot ishi tarixiylik tamoyili xronologik va qiyosiy tahlil usullariga tayanadi.

Tahlil va natijalar. Shaharda savdogarlar yashaydigan mahallalar ham kichik bozorlarga aylangan. Masalan, Arabon mahallasida yashagan yirik savdogar Salim Oxun o'z hovlisida qorako'l teri sotish bilan shug'ullangan. Amirlikda nafaqat savdogarlar balki chorvadorlar ham qorako'l teri savdosi bilan shug'ullanishgan. Jumladan, Choriqulboy, Murodboy kabi yirik chorvadorlar har yili Buxoro bozorlarida 20-30 ming donadan qorako'l teri sotishgan. Shuningdek, Haqqulboy, Po'latboy kabi badavlat chorvadorlarning har biri yiliga 15 ming donagacha, Yusufboy ismli boshqa bir shaxs esa 8-9 ming dona qorako'l terini shahar bozorlariga yetkazib bergan[10].

Buxoro amirligidagi yirik bozorlardan biri kitob bozori bo'lib, XIX asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran qadimiy qo'lyozma asarlar savdosiga bo'lgan talab kuchli bo'lgan. XIX asrning 80-90 yillarida Buxoroda O'rta Osiyodagi eng yirik boy va muhim kitob bozori bo'lgan. Bu yerda musulmon adabiyotlari, kitob, qo'lyozma manbalar arab, fors va turkiy tillarda bo'lib, ular orasida qimmatbaho va noyob kitoblar katta miqdorni tashkil qilgan. Samarqand, Qo'qon, Qarshi, Shahrisabz, Toshkent kabi shaxarlardagi kitob bozorlari Buxoronikiday boy bo'lmay, kitob bozorlari va do'konlaridan hamda kitobfurushlar qo'lidan xohlagan kitobni topish mumkin bo'lgan[11] deb ma'lumot bergan. Kitob bozori Abdullaxon timida joylashgan 25-30 kishi savdo qilgan. Kitob va qo'lyozma manbalar mahalliy, rus va boshqa mamlakatlardan qog'ozlarida turli ranglarda yozilgan. Kitob bilan savdo qiluvchi tadbirkorlarning har birida 20-30 tadan qo'lyozma kitoblar mavjud bo'lgan[12]. Kitobfurushlar qo'lyozmalarni masjid imomlari, madrasa mudarrisleri va badavlat kishilarga sotganlar. Jumladan, G'uzor begi yangi qurilgan madrasa kutubxonasi uchun Buxoro kitob bozoridan umumiy qiymati 75.000 tilla tangadan iborat turli mazmundagi kitoblarni sotib olgan[13].

XIX asr oxirlarida Buxoroda qul bozori ham mavjud edi. Bozorda haftaning seshanba-payshanba kunlari qul va cho'rilar sotilardi[14]. Qul bozorlari o'rta asrlardagidek gavjum bo'lmay, bozorda sotish uchun keltirilgan qullar 6-7 nafardan, cho'rilar 10-15 nafardan oshmagan[15]. Sotib olingan qullar erkinligidan butunlay mahrum bo'lib, ularning o'ndan bir qismigina qarindoshlari tomonidan berilgan pul evaziga ozod bo'lgan. Qul va cho'rilar meros qilib qoldirilishi, mahr uchun berilishi va sovg'a qilinishi mumkin bo'lgan. Qullarning mehnatidan asosan dala ishlarida, cho'rilar mehnatidan esa uy yumushlarida foydalanilgan[16].

Poytaxt bozorlaridan tashqari tuman bozorlarining ayrimlari, jumladan G'ijduvon bozori juda mashhur bo'lib, bu bozorga qozoq chorvadorlari o'n minglab bosh qo'y, qo'zi keltirib sotishgan [17]. Poytaxtga yaqin tumanlardagi Bahouddin, Hazrati Mir Kulol, Quyuq Mozop, Azizobod, Vang'ozi, Bo'ston, Kumushkent, Xargo'sh, G'ijduvon, Vardonze, Saripul, Galaosiyo, Hayrobod, Romitan, Jondor, Vobkent va Pirmast bozorlarining amirlikning asosan ichki, qisman tashqi savdosida o'z o'rni bo'lgan.

Buxoro atrofidagi bozorlar savdogarlar va xaridorlar manfaatlaridan kelib chiqib, belgilangan hafta kunlariga qarab ishlagan. Masalan, dushanba kuni G'ijduvon, Vardonze, Hazrati Mir Kulol, Galoosiyo bozorlari xizmat ko'rsatgan bo'lsa, seshanba kuni Yangi Buxoro bozori, chorshanba kuni Mozori Bahouddin, Hayrobod bozorlari, payshanba kuni Kumushkent, Bo'ston, Qum Mozor, yakshanbada esa Romitan, Vobkent bozorlari faoliyat ko'rsatgan[18].

Vamberining yozishicha, poytaxtdan unchalik uzoklikda bo'lmagan Afshona qishlog'ida har haftada, Varaxshada esa yilida 15 marta savdo yarmarkalari o'tkazilgan. Varaxshadagi yarmarka odatda mart oyining o'rtalarida boshlanib, 20 kun davom etgan[19].

Shuningdek, amirlik ichki savdosida uyushtiriladigan savdo yarmarkalari muhim o'rin tutgan. Har yili Navro'z bayrami kunlarida Buxoro amirining shahar tashqarisidagi Shirbudun saroyi yonidagi xalq sayli paytida yirik savdogarlar tomonidan tashkil etilgan vaqtinchalik do'konlarda mahsulotlar sotilgan[20].

Ancha qadimiy tarixga ega bo'lgan Vobkent bozorida ham savdo-sotiq nihoyatda qizg'in kechgan. Joylardagi bozorlarning har xil kunlarda faoliyat yuritishi savdo ahli - tadbirkorlar uchun ayni muddao edi. Vaholanki ularning ko'pchiligi hafta davomida bir necha bozorlarda savdo qilishga harakat qilishgan.

Buxoro bozorlarida yillik mol ayirboshlashning qiymati esa XIX asrning 80-90 yillarining boshlarida taxminan 40 million so'mga yetgan bo'lsa, ishlab chikarish va savdo sotiqning o'sishi 1910-1912 yillarga kelib Buxoro shahar bozorlaridagi savdo aylanmasi qiymati 91 million so'mga yetgan[21].

Buxoro shahri XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yirik savdo markazlaridan biri bo'lib, poytaxt va uning atrofidagi tuman bozorlari ancha gavjum edi. Hukumat tomonidan belgilab qo'yilgan tartiblar asosida tashkil etilgan bozorlarlar va savdo markazlari tartibli bo'lib, savdo-sotiq ishlarini amalga oshirish uchun yetarlicha tartiblar o'rnatilgan edi.

Buxoro shahri va uning atrofidagi savdo markazlari hamda bozorlar hunarmand, dehqon, chorvador va yirik savdogarlar mahsulotlarini sotishlari uchun qulay manzil bo'lishi bilan birga aholining moddiy talabini ham qondira olgan.

Xulosa va takliflar. Xullas, Buxoro amirligidagi savdo markazlari hamda bozorlarda hunarmandlar tomonidan tayyorlangan barcha buyumlar, dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari, mahalliy hamda xorijlik savdogarlar mahsulotlari aholi ehtiyojlarini inobatga olgan holda sotuvga olib chiqilganligi sababli doimo xaridorgir edi. Nafaqat poytaxt va uning atroflarida, balki barcha beklklarda savdo markazlari faoliyati yaxshigina yo'lga qo'yilgan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Сухарева О.А. Бухара XIX- нач. XX вв. Москва, 1966. - С.236.
2. Тижоратимиз ва мактаб// “Турон” газетаси. № 48. 1912 йил 30 декабрь.
3. Лунин Б.В. История Узбекистана в источниках. Узбекистан в сообщениях путешественников и ученых (20-80 годы XIX века). Ташкент: Фан, 1990. -С.71.
4. Южин Скайлер. Туркистон: Россия Туркистони, Қўкон, Бухоро ва Ғулжага саёҳат кайдлари. - Б.303.
5. Южин Скайлер. Туркистон: Россия Туркистони, Қўкон, Бухоро ва Ғулжага саёҳат кайдлари. - Б.296.
6. Вамбери Х. Путешествие в Средней Азии. Москва, 1967. - С.145.
7. Сухарева О.А. Бухара XIX- нач. XX вв.-С.47-48.
8. Қосимов Ф.Х. Халқаро муносабатлар тизимида Бухоро давлатининг ўрни (1900-1924 йиллар).// Бухоро давлат университети ахборотномаси, 2004, № 2. -Б. 56.
9. Йилки билан қорамол боқиш хусусида. // Туркистон вилоятининг газети, 1886 йил 4 октябрь. №64.
- 10.Сухарева О.А. Бухара XIX - начало XX вв. - С.243.
- 11.Вяткин В.Л. Бухарский книжный рынок. // Туркестанские ведомости. – 1897. № 64.
- 12.Вяткин В.Л. Бухарский книжный рынок.
- 13.О.Валидев. О собрания рукописей в Бухарском ханстве. Санкт-Петербург, 1916. - С.3.
- 14.Южин Скайлер. Туркистон: Россия Туркистони, Қўкон, Бухоро ва Ғулжага саёҳат кайдлари. Таржима ва изоҳлар муаллифи З.А.Саидбобоев. Тошкент: “O'zbekiston”, 2019. - Б. 291.
- 15.Соловьев М.М. Ученая экспедиция в Бухару в 1841-1842 гг. Москва-Ленинград, 1936. - С. 77.
- 16.Бернс А. Путешествие в Бухару в 1831-1832 и 1833 гг. Часть II. Москва, 1849. - С. 21-22.
- 17.Небольсин П. Торговые связи среднеазиатские владений между собой и караванны между ним сообщение. Очерки торговли России со странами Средней Азии. Санкт-Петербург, 1856. - С.2.
- 18.Вамбери Х. Путешествие по Средней Азии. Москва, 1967.-С.230.
- 19.Вамбери Х. Путешествие по Средней Азии. Москва, 1967.-С.231.
- 20.Айний С. Асарлар саккиз томлик .VII том. “Эсдаликлар” IV қисм. Тожики тилидан Абдулла Ҳакимов таржимаси. Тошкент: Бадиий адабиёт нашриёти, 1966. – Б. 201.
- 21.Губаревич-Радобильский В.Ф. Экономический очерк Бухары и Туниса. Опыт сравнительного исследования двух систем протектората. Санкт-Петербург, 1905.-С.125.

O'ZBEKISTON VA TOJIKISTON O'RTASIDAGI IQTISODIY SOHADAGI HAMKORLIK ALOQALARINING RIVOJLANISHI

*Usmonov Baxtiyor Botirovich,
Guliston Davlat Universiteti tayanch doktoranti*

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada O'zbekiston va Tojikiston Respublikalarining mustaqillik yillaridagi iqtisodiy sohadagi hamkorlik tarmoqlarining rivojlanishi, amalga oshirilgan islohotlar, yutuqlar, kelajakdagi rejalar va diplomatik aloqalarining ayrim jihatlarini muhokama etiladi,

Kalit so'zlar: O'zbekiston, Tojikiston, iqtisodiyot, daromad, muzokara, sanoat, madaniyat, metod.

РАЗВИТИЕ ОТНОШЕНИЙ СОТРУДНИЧЕСТВА МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И ТАДЖИКИСТАНОМ В ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ОБЛАСТИ

*Усманов Бахтиёр Ботирович,
докторант Гулистанского государственного университета.*

Аннотация: В данной научной статье рассматривается развитие сетей экономического сотрудничества Республики Узбекистана Таджикистана за годы независимости, осуществленные реформы, достижения, планы на будущее и некоторые аспекты дипломатических отношений.

Ключевые слова: Узбекистан, Таджикистан, экономика, доход, торговля, промышленность, культура, метод.

DEVELOPMENT OF COOPERATIVE RELATIONS BETWEEN UZBEKISTAN AND TAJIKISTAN IN THE ECONOMIC FIELD

*Usmanov Bakhtiyor Botirovich,
doctoral student of Gulistan State University*

Abstract: This scientific article discusses the development of economic cooperation networks of the Republics of Uzbekistan and Tajikistan during the years of independence, implemented reforms, achievements, future plans and some aspects of diplomatic relations.

Key words: Uzbekistan, Tajikistan, economy, income, negotiation, industry, culture, method.

KIRISH. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab ikki mamlakat yangi bosqichdagi iqtisodiy hamkorlikni yo'lga qo'yishga intila boshladi. O'zaro manfaatdorlik asosida yo'lga qo'yilishi nazarda tutilgan hamkorlik qator hukumat qarorlari bilan mustahkamlanib bordi. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 4-yanvardagi "Savdo-iqtisodiy hamkorlik masalalari bo'yicha O'zbekiston — Tojikiston qo'shma komissiyasining o'zbekistonga oid qismini tuzish to'g'risida"gi 1-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi bilan Tojikiston Respublikasi o'rtasida strategik sherikchilikni yanada kengaytirish va mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3923-sonli qarori shular jumlasidandir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI. Tojikiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 17-18 avgust kunlari O'zbekiston Respublikasiga qilgan birinchi Davlat tashrifi O'zbekiston va Tojikiston xalqlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tarixida prinsipial yangi sahifani ochdi, birodar xalqlar o'rtasidagi ko'pyoqlama hamkorlikni rivojlantirish hamda do'stlik, strategik sherikchilik, hamjihatlik va yaxshi qo'shnichilikni yanada mustahkamlash uchun kuchli turtki bo'ldi.

Ochiq, do'stona va konstruktiv muhitda bo'lib o'tgan oliy darajadagi samarali muzokaralar, parlament, hukumat, ishbilarmon doiralar va jamoatchilik vakillari bilan o'tkazilgan uchrashuvlar ikki mamlakat xalqlarining uzoq muddatli va tub manfaatlariga javob beradigan, O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni har tomonlama rivojlantirishga bo'lgan mustahkam intilishlarini yana bir bor tasdiqladi.

Siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsion, transport-kommunikatsiya, harbiy-texnik, suv-energetik, madaniy-gumanitar va boshqa sohalarida hamkorlikni har tomonlama rivojlantirish masalalari muhokama etildi va ular bo'yicha qo'shma qarorlar qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev hamda Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Raxmonning do'stlik va yaxshi qo'shnichilikni mustahkamlash to'g'risidagi Qo'shma bayonoti imzolandi.

Ikki davlat Rahbarlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi bilan Tojikiston Respublikasi o'rtasida Strategik sherikchilik to'g'risidagi shartnomaning imzolanishi tarixiy voqea bo'ldi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Ikki mamlakatning iqtisodiy aloqalarida avtomobil va temir

yo'llarning ahamiyati juda yuqoridir.



1-rasm. O'zbekiston-Tojikiston o'tkazish punktlari

Ta'kidlash joizki, ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik 2016-yildan so'ng yangi darajaga chiqdi. Bugungi kunga qadar o'zaro hamkorlikka doir turli uchrashuvlar, muzokaralar doimiy olib borilmoqda.

So'nggi 5 yil davomida O'zbekiston – Tojikiston munosabatlarida chuqur o'zgarishlar yuz berdi. Ikki tomonlama aloqalar siyosiy, savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy, ijtimoiy-madaniy sohalarida izchil rivojlanib bormoqda. Toshkent va Dushanbe o'rtasida aviaqatnov tiklandi, savdo-iqtisodiy hamkorlik

bo'yicha hukumatlararo komissiyaning majlislari o'tkazildi, davlatlararo chegaralarni delimitatsiya qilish bo'yicha uchrashuvlar bo'lib o'tdi.

Savdo-iqtisodiy munosabatlarni yaxshilash maqsadida 2017 yil aprel oyida Dushanbeda ilk marta O'zbekiston milliy mahsulotlari ko'rgazmasi o'tkazildi. Unda 160 dan ortiq kompaniya va 400 dan ziyod tadbirkor 1,5 mingdan ko'proq turdagi mahsulotni, jumladan, elektrotexnika, farmasevtika, attorlik, charm-poyabzal, kimyo, oziq-ovqat, to'qimachilik sanoati va boshqa tarmoqlardagi ilg'or yangiliklarni, qishloq xo'jaligi texnikasi, yengil va yuk avtomobillari, avtobuslar, qurilish materiallari, liftlar, maishiy texnika, mebel jihozlari va boshqa mahsulotlarni namoyish qildi.

«4 kun davom etgan ko'rgazma va ikki mamlakat tadbirkorlari ishtirokidagi biznes-forum yakunida 20 ga yaqin hujjat imzolandi. Ko'rgazma dushanbeliklarda jo'shqin hissiyotlar uyg'otdi, u ko'pchilik uchun «haqiqiy syurpriz» bo'ldi, deb yozdi Tojikiston matbuoti. Odamlar o'zbek mahsulotlarining sifatidan hayratga tushdi, qo'shnilarining mustaqillik yillarida qo'lga kiritgan yutuqlaridan xursand bo'ldi».

Javob tarzidagi ko'rgazma Toshkentda 2017 yil oktyabr oyida bo'lib o'tdi. Unda Tojikistonning neft-gaz, qurilish, transport, foydali qazilmalar, agrosanoat, farmakologiya, yengil sanoat, qayta ishlash sohaları, sog'liqni saqlash, ta'lim, fan-texnika, turizm kabi tarmoqlarida faoliyat ko'rsatayotgan 150 dan ziyod kompaniyasi vakillari, tadbirkorlar qatnashdi.

Ushbu ko'rgazma va biznes-forumlarning o'tkazilishi tojikistonlik sheriklar bilan mahalliy mahsulotlarni xorijiy bozorlarga birgalikda yetkazish bo'yicha hamkorlikni rivojlantirishga keng yo'l ochdi. Bugungi kungacha Toshkent va Dushanbe shaharlarida tashkil etilgan ko'rgazmalar doirasida umumiy qiymati 100 million dollardan ortiq bo'lgan savdo shartnomalari imzolandi.

Bu mamlakatlarimiz o'rtasidagi o'zaro tovar aylanmasi hajmini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ikki davlat rahbarlari tomonidan mamlakatlarimiz o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni yangi bosqichga ko'tarish yuzasidan ko'rilayotgan muayyan chora-tadbirlar natijasida bu ko'rsatkich izchil o'smoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, 2017 yilda mamlakatlarimiz o'rtasidagi tovar aylanmasi 236,8 million dollarni tashkil etgan, bu 2016 yilgi ko'rsatkichdan 20,2 foiz ko'pdir.

O'zbekistondan Tojikistonga asosan transport xizmatlari, mineral o'g'itlar va oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berilmoqda. Yurtimizda tojikistonlik ishbilarmonlar bilan hamkorlikda tashkil etilgan 24 korxona, Tojikistonda esa mamlakatimiz tadbirkorlari bilan birgalikda tuzilgan 9 korxona faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Tojikistonga davlat tashrifi doirasida Dushanbeda «O'zbekistonda ishlab chiqarilgan» brendi ostida milliy mahsulotlar ko'rgazmasi o'tkazildi. Ikki davlat rahbarlari va delegatsiya a'zolari ko'rgazmada namoyishga qo'yilgan mahsulotlar bilan tanishdi. Ko'rgazmada avtomobilsozlik, qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat, farmasevtika, kimyo, neft-gaz, metallurgiya, elektrotexnika, yengil sanoat mahsulotlari, shuningdek, qurilish ashyolari hamda hunarmandlik namunalari keng namoyish etilmoqda.

Davlatimiz rahbari Tojikiston Prezidentini yurtimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bilan yaqindan tanishtirish barobarida, o'zaro hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlash lozimligini ta'kidladi.

O'z navbatida, Tojikiston Prezidenti mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatiga yuqori baho berdi, turlari ko'pligini ta'kidladi. Qo'shma korxonalar tashkil etish taklifini bildirdi.

TAHLIL VA NATIJALAR. 2022 yilning 1 iyun kuni Markaziy Osiyo Xalqaro instituti va Tojikiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik tadqiqotlar markazi hamkorligida «Markaziy Osiyoning barqaror rivojlanishini ta'minlashda O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi strategik sheriklikning ahamiyati» mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi. Mazkur konferensiyada ikki davlat yetakchi tahlil markazlari, jumladan Markaziy Osiyo Xalqaro instituti, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi, «Taraqqiyot strategiyasi» markazi, Tojikiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik tadqiqotlar markazi ekspertlari, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va Tojikiston Respublikasi Milliy Fanlar

akademiyasi, shuningdek fuqarolik jamiyati institutlari vakillari, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari hamda mustaqil ekspertlari ishtirok etdi.

Shu bilan birga, O'zbekistonlik ma'ruzachilar, xususan, «Taraqqiyot strategiyasi» markazi ijrochi direktori Eldor Tulyakov tomonidan Harakatlar strategiyasi doirasida, jumladan, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosatni amalga oshirish sohasida Markaziy Osiyoda ahil qo'shniçilik munosabatlari ta'minlanganligi, shuningdek, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish yo'nalishida nazarda tutilgan maqsad va vazifalar bo'yicha ham ma'lumot berib o'tildi.

E.Tulyakov Markaziy Osiyo mintaqasining barqaror rivojlanishida O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi savdo va iqtisodiy aloqalarning ahamiyatiga to'xtalar ekan, jumladan shunday dedi: «Ayniqsa, so'nggi yillarda O'zbekiston-Tojikiston munosabatlarida tub o'zgarishlar ro'y berdi. O'zbekistonda islohotlar boshlanishi bilan siyosiy, savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy, madaniy-gumanitar sohalarda ikki tomonlama aloqalar faollashdi. Oliy darajadagi ishonçli muloqot ikki qardosh xalq o'rtasidagi munosabatlarni strategik darajaga olib chiqish uchun mustahkam zamin yaratdi. Xususan, o'tgan vaqt davomida uch marotaba oliy darajadagi tashriflar amalga oshirildi, "Strategik sheriklik to'g'risida" bitim imzolandi. Natijada, O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar jadal sur'atlarda rivojlanib, ularning dinamikasi izchil o'sishda davom etmoqda. Jumladan, 2017-2021 yillar oralig'ida ikki davlat o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi qariyb 3 barobarga oshib, 237,9 million dollardan 604,5 million AQSh dollariga yetdi» [10].

Davlat statistika ma'lumotlariga ko'ra 2022-yilda O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi tashqi savdo aylanmasi 501.9 mln. AQSH dollarini, shundan eksport 404.6 mln. AQSH dollarini, import esa 97.3 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Shundan eksportning tarkibini:

Xizmatlar – 115,3 mln.

Kimyoviy mahsulotlar – 70,4 mln.

Oziq-ovqat mahsulotlari – 57,4 mln.

Import tarkibini:

Energiya va neft mahsulotlari – 11,4 mln.

Qora metallar – 10,2 mln.

Rangli metallar – 3,2 mln. AQSh dollar tashkil etdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR. O'zbekiston bilan Tojikiston o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlik ikki mamlakat xalqlarining uzoq muddatli manfaatlariga javob beradigan, Markaziy Osiyo mintaqasida tinçlik, barqarorlik, xavfsizlik va izchil rivojlanishni ta'minlashda asosiy omil bo'ladigan darajaga ko'tarilmoqda.

Uchrashuvda Tojikiston tomoni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining BMT Bosh Assambleyasining «Markaziy Osiyoda tinçlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta'minlash bo'yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash» va «Ma'rifat va diniy bag'rikenglik» rezolyusiyalarini, shuningdek, Yoshlar huquqlari to'g'risida BMT konvensiyasini ishlab chiqish bo'yicha tashabbuslari qo'llab-quvvatlanishini bildirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Zamonaviy dunyoda O'zbekiston tashqi siyosatining kun tartibi», 27 avgust 2020 y., <https://uza.uz/uz/posts/zamonaviy-dunyoda-zbekiston-tash-i-siyosatining-kun-tartibi-27-08-2020>

«Sentralnaya Aziya – prioritet vneshney politiki Uzbekistana», 15 iyul 2020 y., <https://www.uzdaily.uz/ru/post/53513>

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. «O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi», https://stat.uz/images/uploads/docs/tashqi_savdo_uz_22012021.pdf

Dilovar Najmiddinovich Rashidov, Sharofat Amonovna Kadirova, & Ziyoda Abduvositovna Karimova (2022). MEHNAT BOZORIDA TENG SHARTLARDA RAQOBATLASHA OLMAYDIGANLAR, AYNIQSA NOGIRONLARNI ZAXIRALANGAN ISH O'RINLARIGA ISHGA JOYLASHTIRISH MUAMMOLARI. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 2), 281-285.

Qodirov A. «Yangilanayotgan O'zbekiston tashqi siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlari», 29 iyul 2020 y., <http://www.isrs.uz/uz/maqolalar/klucevye-prioritety-vnesnej-politiki-obnovlennogo-uzbekistana>

«Sentralnaya Aziya – prioritet vneshney politiki Uzbekistana», 15 iyul 2020 y., <https://www.uzdaily.uz/ru/post/53513>

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. «O'zbekistonning ko'magi bilan Qirg'izistonda 200 o'rinli yuqumli kasalliklar shifoxonasi qurib bitkazildi», 23 dekabr 2020 y., <http://ssv.uz/uz/news/zbekistonning-kmagi-bilan-irizistonda-200-rinli-juumli-kasalliklar-shifohonasi-urib-bitkazildi>

Mustafaev B. «O'zbekistonning mintaqaviy siyosati Markaziy Osiyoda barqaror va izchil rivojlanishining muhim garovi»,

29 dekabr 2020 y., <http://ismi.uz/uz/smti-ekspertlari-sharhlari/uzbekistonning-mintakavij-siesati-markazij-osieda-barkaror-va-izcil-rivozlanishining-muim-garovi>

УСИЛЕНИЕ ХЛОПКОВОЙ МОНОПОЛИИ В СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ И ЕГО СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПОСЛЕДСТВИЯ

Назаров Отабек Музрабович,
исследователь Термезского государственного университета

Аннотация. В статье анализированы сведения о политической и социальной компании «хлопковое дело», проведенный в Узбекской ССР в 80-е годы XX века. С помощью научных трудов и литературы исследовано положение сельского хозяйства, продовольствия, промышленности Сурхандарьинской области, усиление хлопковых монополий и его социально-экономические последствия в период «перестройки» в советском союзе.

Ключевые слова: хлопок-сырец, хлопковая монополия, социально-экономический кризис, взяточничество, кадры, суд, уголовная ответственность, лишение свободы, оправдание.

SURXONDARYO VILOYATIDA PAXTA YAKKA HOKIMLIGINING KUCHAYISHI VA UNING IJTIMOY-IQTISODIY OQIBATLARI

Nazarov Otabek Muzrobovich,
Termiz davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada XX asrning 80-yillarida O'zbekiston SSRda, ro'y bergan siyosiy-ijtimoiy kompaniya-“paxta ishi” haqidagi ma'lumotlar tahlil qilingan. Butun sobiq Sovet ittifoqidagi “qayta qurish” davrida Surxondaryo viloyatidagi qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat, sanoat tarmoqlarining ahvoli, paxta yakka hokimligining kuchayishi va uning ijtimoiy-iqtisodiy asoratlari tadqiq etilgan ilmiy ishlar va adabiyotlar yordamida tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: paxta xomashyosi, paxta yakkahokimligi, ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz, pora, kadrlar, sud, jinoiy javobgarlik, qamoq, ozodlikdan mahrum etish, oqlanish.

STRENGTHENING OF THE COTTON MONOPOLY IN THE SURKHANDARYA REGION AND ITS SOCIO-ECONOMIC CONSEQUENCES

Nazarov Otabek Muzrobovich,
Researcher of Termiz State University

the three tailors of Tooley Street (eng)- o'zini butun xalq vakillari deb da'vo qiladigan kichik guruh (o'z tarjima). Ushbu frazeologik birlikning kelib chiqishi Britaniya bosh vaziri Jorj Kanningga borib taqaladi va uning so'zlariga ko'ra, parlamentga shikoyat arizasini taqdim etgan shaxslar «Biz, Angliya xalqi» vakilimiz deya so'zlashadi va u ularga ushbu ibora bilan ta'rif beradi.

the City of One Hundred Hills (eng)- yuzta tepalikdagi shahar degan ma'noni bildiruvchi ushbu

ibora Amerika Qo'shma shtatlarida joylashgan Atalanta shahriga berilgan ta'rifdir. Bilamizki AQSHning janubiy shtatlaridagi shahrlar shimoldagilardan ancha boyroq bo'lib, Atalanta shahri bepayonligi va yuqori infrastrukturaga egaligi uchun shimolning janubi, yuzta tepalikda joylashgan bepayon shahar deya ta'riflanadi;

“fifth column” (“beshinchi kolonna”, dushmanning yashirin sheriklari, ayg'oqchilar va sabotajchilar). Ushbu frazeologik birlik ispancha kvinta kolonnasining tarjimai bo'lib Ispaniya fuqarolar urushi davrida isyonchi general Emilio Mola bilan bog'liq. Mola Madridning qulashini bashorat qilgan edi, chunki shaharga yaqinlashib kelayotgan isyonchi qo'shinlarning to'rtta kolonnasi bilan birga yana bir yashirin xayrixohlar kolonnasi qo'shilgan. 1936 yil oktyabr oyida The New York Times gazetasida chop etilgan maqolada Uilyam Karni o'sha yashirin isyonchi tarafdorlarini «beshinchi ustun» deb ta'riflagan va ushbu ibora ingliz tiliga kirib kelgan. Ernest Xeminguey uni 1938 yil kitobining sarlavhasida qo'llaganidan keyin ibora keng tarqalgan. Ikkinchi Jahon urushi davrida xorijiy davlatlardagi natsist tarafdorlariga nisbatan qo'llanilgan.

An'ana va urf-odatlar milliy-madaniy xususiyatlarga ta'sir o'tkazuvchi beshinchi faktor bo'lib, ikkala madaniyatda ham millatlarning urf odatlari va an'alarini ifodalovchi son komponentli frazeologik birliklarga misollar juda ko'p. Qadimgi ingliz an'alariga ko'ra, odamlar novvoylardan o'n ikkita non olishganda o'n uchinchi non novvoy tomonidan tekinga qo'shib berilgan va “a baker's dozen” iborasi shunday paydo bo'lgan. Biror kishi vafot etganidan keyin uchinchi kuni o'zbeklar xotirlash marosimini o'tkazishadi: uchini o'tkazish; uchni o'qitish (Qur'on tilovat qilinadi) va dafn va xotirlash marosimidagi uchinchi kun ma'nosini belgilab, vaqtning muqaddas chegarasini ko'rsatadi.

Shuningdek kimdir vafot etsa o'limidan yetti kundan keyin marosim o'tkazish va yettisini o'tkazmoq, yettisini o'qitmoq kabi iboralar bilan ta'riflanadi va bu yetti sonining biror bir siklning tugashini va tugallanganlik ma'nosini o'zida qamrashini ko'rsatadi.

Xulosa sifatida quyidagilarni e'tirof etish mumkin:

ko'plab xalqlarning dunyoqarashida sonlar muqaddas qadriyatlarga ega va ularning kelib chiqishi insoniyat tarixining dastlabki bosqichlariga borib taqaladi;

ingliz va o'zbek tillaridagi son komponentli frazeologik birliklarning milliy va ma'daniy o'ziga xosliklari quyidagi faktorlar ta'sirida paydo bo'ladi: 1) son yoki raqamlarning ramziy ma'nolari ta'siri; 2) diniy faktorlar ta'siri; 3) mifologiya va rivoyatlar; 4) tarixiy faktlar va voqealar; 5) an'ana va urf-odatlar;

sonlar ramziy ma'nolarning son komponentli frazeologik birliklarda aks etishi ingliz va o'zbek tillari uchun umumiy bo'lib, ular ushbu frazeologik birliklarining izomorfik xususiyati hisoblanishi mumkin;

ingliz va o'zbek madaniyatlarining dini, mifologiyasi, tarixiy bosqichlari, an'ana va urf-odatlari har xil bo'lganligi sababli, ushbu faktorlar ta'sirida paydo bolgan son komponentli frazeologik birliklar faqat bir tilda mavjudligini ta'minlaydi;

son komponentli frazeologik birliklarning madaniy semantikasini doim ham ularning ramziy ma'nolari bilan tushuntirib berish imkonsiz va bu muayyan madaniyat vakillariga xos bo'lgan an'analari, yashash tarzi, tarixiy hayot yo'li, diniy qarashlari, afsona va rivoyatlar va irm-sirimlarning ushbu madaniyatlarga ta'siri bilan bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ashurova D.U., Galieva M.R. Cultural Linguistics. – Tashkent, VneshInvestProm, 2019. – 208 p.
2. Вайсребер Л. Родной язык и формирование духа. – Москва, 1993. – 232 с.
3. Воробьев В. В. Лингвокультурология (теория и методы) – М.: Академия, 2008. – 331 с.
4. Гак В.Г. Сопоставительная лексикология: на материале французского и русского языков. М., 1977; 2-е изд. 2010
5. Галиева М.Р. Вербализация концептосферы Word/Сўз/Слово в английской, узбекской и русской языковых картинах мира. – Ташкент, Дисс. канд.филол. наук, 2010. – 178 с.
6. Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию [Текст]: Пер. с нем. / В. Гумбольдт; Общ. ред. Г. В. Рамишвили; Послесл. А. В. Гулыги и В. А. Звегинцева. - М.: ОАО ИГ «Прогресс», 2000. – 400 с.
7. Колшанский Г. В. Объективная картина мира в познании и языке. – М.: Наука, 1990. – 108 с.
8. Красных В. В. «Свой» среди «чужих»; миф или реальность? – М.: Гнозис. 2003. – 375 с.
9. Маслова В.А Лингвокультурология: М.:Изд.центр академия,2007. - 208 с.
10. Пименова М. В. Душа и дух: особенности концептуализации. – Кемерово: 2004. – 385 с.
11. Попова З. Д., Стернин И. А. Когнитивная лингвистика. – М.: Восток Запад, 2007. – 314 с.
12. Телия В. Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты / В. Н. Телия. М. : Школа «Языки русской культуры», 1996
13. Тер-Минасова С.Г. - Война и мир языков и культур Слово изд. 2008
14. Юсупов Ў.Қ. Маъно, тушунча, концепт ва лингвокултура атамалари хусусида// Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида. Илмий-амалий конференция материаллари тўплами. Т.: 2011 6.57

O'TKIR HOSHIMOVNING "IKKI ESHIK ORASI" ROMANIDA O'QITUVCHI OBRAZIGA CHIZGILAR VA DAVR TALQINI

Soberova Mohira- Jizzax Davlat Pedagogika Universitetining "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada o'zbek adabiyotining zabardast vakili, xalqimizning sevimli yozuvchisi O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asaridagi o'qituvchi obrazining badiiy talqini, jamiyatda ustozlarning ijtimoiy ahvoli, o'rni va ma'naviy ko'rinishi, insonlar taqdiri va inson umrining murakkabligi zo'r mahorat bilan tasvirlangani, tinchlikka rahna solgan urushning qoralangani haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: "Ikki eshik orasi", Oqsoqol, Husan дума, Qora amma, Samadov, Robiya, Kimsan, ma'naviy qiyofa, bilim, jamiyat, xalq, maktab, ma'rifat, ziyoli, oliyjanoblik, mas'uliyat, riyozat, kamtarinlik.

DRAWINGS AND INTERPRETATION OF THE ERA ON THE IMAGE OF THE TEACHER IN THE NOVEL "BETWEEN TWO DOORS « BY THE ACUTE HOSHIMOV

Soberova Mohira-teacher of the Department of Uzbek language and literature of Jizzakh State Pedagogical University

Annotation: The article is about the best representative of uzbek literature, of our people a tutorial on the work "Between Two Doors" by the favorite writer O'tkir Hashimov artistic interpretation of his image, the social status of teachers in the society, life and spirituality. It is said that the appearance, the fate of people and the complexity of human life are described with great skill, and the war that broke the peace was condemned.

Keywords: "Between two doors" Elder, Husan Duma, Kara Amma, Samadov, Rabiya, Kimsan, spiritual image, knowledge, society, people, school, enlightenment, intellectual.

РИСУНКИ И ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЭПОХИ НА ОБРАЗЕ УЧИТЕЛЯ В РОМАНЕ АКТЕРА ХОШИМОВА "МЕЖДУ ДВУМЯ ДВЕРЯМИ"

Соберова Мохира - преподаватель кафедры узбекского языка и литературы Джизакского государственного педагогического университета

Аннотация: Статья о лучшем представителе узбекской литературы, о самоучителе нашего народа по произведению "Между двумя дверями" любимого писателя О'Ткира Хашимова, художественной интерпретации его образа, социальном статусе учителя в обществе, быте и духовности. Говорят, что внешний вид, судьбы людей и сложность человеческой жизни описаны с большим мастерством, а война, нарушившая мир, была осуждена.

Ключевые слова: «Между двух дверей», Оксокол, Хусан Дума, Кара Амма, Самадов, Рабия, Кимсан, духовный образ, знание, общество, народ, школа, просвещение, интеллектуальное благородство, ответственность, математика, смирение.

Kirish. Taniqli adib ijodining salmoqli qismini ona, oddiy odamlar, urush hamda ijtimoiy hayot mavzusi tashkil etadi. Shunday mavzularni ko'tarib chiqqan asarlaridan biri bu "Ikki eshik orasi" asari va unda xalqning ziyoli vakili bo'lgan o'qituvchi obrazidir. Uning asarlari samimiyligi, xalq hayotini to'laligicha tasvirlashi, unda xalqning tanti, mard vakillari bor sifatleri bo'yicha tasvirlanadi.

O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asarida yozuvchi salkam qirq yillik davrni o'z ichiga olgan, bir qancha murakkab va chigal taqdirler orqali o'zbek xalqining urush davrida boshdan kechirgan mashaqqatli hayoti, achchiq qismati, murakkab kechmishlari haqida yuksak mahorat bilan qalam tebratgan.

Bu asarda Oqsoqol, Husan дума, Qora amma, Shomurod, Robiya, Kimsan obrazlariga alohida to'xtalib, ularning harakteridagi kuzatilgan mardlik, matonat, insonparvarlik va sabr-bardoshlilik fazilatleri orqali millatning ruhiy takomilini ochishga muvaffaq bo'lgan.

"Ikki eshik orasi" romanida insonlar taqdiri va inson umrining murakkabligi zo'r mahorat bilan tasvirlangani, tinchlikka rahna solgan urushning qoralangani, uning g'ayriinsoniy mohiyatiga urg'u berilgani katta ahamiyatga molikdir. Vayronkor urush voqealarining har bir ota-ona qalbini jarohatlagani, nafaqat ota-ona, balki oddiy odamlarning ko'ngillariga ham ozor yetkazgani juda ishonarli tarzda ochib berilgan. Asarda tasvirlangan hayot manzaralari, insonlararo munosabatlar shuningdek, yozuvchining o'ziga xos badiiy uslubi juda tabiiy hamda samimiyligi bilan ajralib turadi. Yetti qism, qirq yetti bobdan tarkib topgan roman kompozitsion qurilishi jihatidan ham o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Undagi voqea-hodisalar bayonida qatnashgan to'qqizta personaj hikoyalarini adib bir-biriga mahorat bilan bog'lagan.

Garchi ijtimoiy hayotdagi yetishmovchiliklar, xalqimiz boshidan kechirayotgan fojiaaviy kunlar, urushning bitmas jarohati insonlar qalbini yaralab, ma'lum ma'noda ma'naviyat chetga surilib, zulm oshgan davrda o'qituvchi obrazini asarga olib kirish ham katta bir iste'doddan darak desak mubolag'a

bo'lmis. Adib qalamga olgan obrazlari oddiy odamlarning fazilatlarini, mardligi, matonati, vatanparvarligi va sabr-bardoshi haqida so'zlaydi.

Asarda 30-yillardan 70-yillargacha ro'y bergan voqealarni bir boshdan tasvirlamasdan, qahramonlarning hayotidagi eng muhim, dramatik lavhalarni ko'rsatishga harakat qilingan. Asarni zavq-u shavq bilan o'qib borarkansiz, undan qo'llangan murakkab joylashuvga duch kelasiz. Murakkab joyi shundaki, asarning bir bobi 30-yillar haqida hikoya qilsa, boshqa bobi 50-yillar, yana bir bobi 70-yillarga ko'chib o'quvchini izlanishga, o'ylanishga majbur qiladi. To'qqiz xil fe'l-atvorli asar qahramonlari, o'z hayotining turli nuqtalaridan turib sozlay boshlaydi. Ularning hikoya qilish usuli ham, tili ham bir-biriga umuman o'xshamaydi. Hikoya qiluvchilarning yoshining ham farqi bor.

O'quvchi – Muzaffarning hikoya qilish ohangi, tasvirlash ifodasi go'dak –

Muzaffarnikidan, talaba– Muzaffarniki o'quvchi – Muzaffarnikidan, qizaloq

Robiya hikoyasi ona – Robiyanikidan keskin farq qiladi. Bu hikoyalar mazmunan bir-biri bilan mahkam bog'langan bo'lib, bir-birini to'ldiradi. Shu tariqa ular romanning bir butun tugal, original va jozibador syujetini hosil qiladi.

Asarda asosiy obrazlarga emas, balki Rashid, Abzi, Bashor opa, Oysara, Samadov singari epizodik obrazlar ham kitobxon yodida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Asarda sun'iylik yo'q, aksincha ishonitirish san'ati kuchli.

Asarning ikkinchi qism, uchinchi bobi, Robiya tilidan qilingan hikoya - "Dadamni yo'qotib qo'ydim" deb nomlangan. Unda kasal onasiga qarab maktabga bora olmagan Robiyaning hikoyasi berilgan. Kasal yotgan onasiga qarab o'tirgan kichik qizaloq tilidan qilingan hikoyada yashash manzilini "allaqanday madrasaning kungurador peshtoqi ko'rinish turishi ..., peshtoqdagi sherlar tasviri, kiyikni quvlab ketayotgan sherlar...." jummalari bilan Samarqandda ekanligiga ishora qilib o'tadi. Garchi ranglari sarg'ayib, ikki chakagi ich-ichidan kirib ketsa-da, kasal bo'lsa ham, onasini go'zal ayol ekanligini etirof etib, "ko'zlari qop-qora, chiroyli, kipliklari uzun-uzun" ("Ikki eshik orasi.") ekanligini bolalarga xos tilda ta'rifiyladi.

Otasi ishdan kelishini kutib charchaydigan Robiya otasi o'qituvchi ekanligini, o'zi tengi qizlar dadasining maktabiga borishini, lekin kasal yotgan onasiga ko'z-quloq bo'lib o'tirishini, shu sababli maktabga bora olmayotganini o'kinchi bilan xotirlaydi. Otasi ziyoli inson bo'lganligi tufayli ishdan kelib, avval onasiga qarashi, so'ngra patnisning orqasiga harflarni yozib qizini o'qitishini yozuvchi juda ta'sirli ifodalab bergan.

Turmushning og'ir kunlari, rafiqasining betoblighi, xonadonidagi iqtisodiy yetishmovchiligi, noilojlik tufayli tajang bo'lib qolgan ota qizini savodli bo'lishini xohlaydi va o'qishga undaydi. Qizini to'qqiz yoshga yetsa-da, savodi to'liq emasligi, u tengi qizlar uchinchi sinfga borishini iztirob bilan ta'kidlaydi. Mahorat bilan tasvirlangan voqealar rivoji endi Robiyaning onasining vafoti, yashab turgan joyini tashlab Toshkentga ketishi, bolalarcha harxasha bilan non so'rashi, lekin otasi ilojisiz holda sabr qilishini ifodalagan tasvirlarga o'tadi. Mana shu o'rinda e'tiboringizni quyidagi parchaga qaratmoqchimiz: "Dadam tekis qilib dazmollangan oppoq ityoqa ko'ylak kiyib, chuchvaranusxa bo'yinbog' bog'lab yuradigan odam edi. Po'rim ko'ylak kiyadi-yu, noni yo'q....". Shu jumla orqali Robiyaning qorni ochligi, bir burda bo'lsada non topib bera olmayotgan dadasiga nisbatan biroz gina, bir oz araz, biroz o'tinchi ifodalab berilgan.

Muallif badiiy qahramonning portretini tasvirlar ekan, ziyoli inson shunday qiyin davrda ham ust-boshini tartibli saqlaganiga ishora qilib o'tadi. Tabiatidagi noilojlikdan qiynalgan damlardagi tajang qiyofasi, ayoli vafotidagi xo'rsinib-xo'rsinib yig'lashi, qiziga bir burda non topib bera olmay iztirob chekish holati, ba'zan muloyimlik, beozorlikni ko'rsatish orqali kitobxon qiziqishini orttiradi. Chunki muallim, ziyoli insonlar jamiyatdagi odamlar uchun namuna timsoli bo'lishgan. Badiiy adabiyotda, turli asarlarda o'qituvchi, ziyoli-ustoz obrazi muayyan vazifani bajaradi. Ularning maqsadi, maslagi, tajribasi, sof vijdoni adiblar tomonidan teran yoritilgan. O'sha davrning og'ir kunlarini, ochlikdan shishib o'lgan ayol tasviri, "oltin-kumush kul bo'lgan, arpa-bug'doy pul bo'lgan" yillar bayon qilingan satrlarni o'qib turib, zahmatkash o'zbek xalqining boshidan ne-ne qora kunlar o'tganligini o'quvchi qalban his qiladi. Yozuvchi asar voqealarini tasvirlar ekan, aynan, asardagi Samadov obrazidagi alohida to'xtalib o'tsak. Samadov asli samarqandlik o'qituvchi bo'lib, turmush o'rtog'ining vafotidan so'ng qizi Robiya bilan Toshkentning No'g'ay qishlog'iga ko'chib kelib, qishloqdagi bolalarga dars bera boshlaydi. Mana shu o'rinda yozuvchining topilmasi bo'lmish o'qituvchi obrazi romanning to'ldiruvchi qismi bo'lib, bu personaj xalqning ma'naviy vakili sifatida gavalangan.

Ezgu maqsad yo'lida zahmat, riyozat chekkan ziyolilar har doim jamiyat taraqqiyotiga munosib holda hissa qo'shganlar. Samadov ham No'g'ay qishlog'dagi Husan dumaning uyiga kelib yashay boshlagan kundanoq, maqsadi qishloq bolalarining savodini chiqarish, yosh avlodni tarbiyalash, ularning bilim olishlari uchun harakat qila boshlaydi. Yozuvchi Samadov obrazini yoritib ekan, yana ustozlar, muallimlar tabiatidagi kamtarinlik, kezi kelganda haqiqatparvarlik sifatlarini ko'rsatib o'tishga harakat qilgan.

Buni Robiya hikoyasida ko'rishimiz mumkin. "Kuzda-pochtaxona yonida allaqanday eski binoga joylashgan maktabga qatnay boshladik. Men- birinchi sinfga, Kimsan akam to'rtinchi sinfga.... Bolalar ichida eng kattasi menman. Bir marta o'qituvchi opa dadamdan iltimos qilganini eshitib qoldim: "O'rtoq Samadov Robiyaxonning savodi allaqachon chiqqan ekan, bemalol uchinchi o'qiyversan bo'ladi", degan edi. Dadam siltab tashladi: "Hamma qatori qonuniy o'qisin!". Shunday qilib kap-katta qiz ukam

tengi bolalar bilan dadam allaqachon o'rgatgan "Alifbe"ni, hisobni qaytadan o'rganishga qatnadim".

Mana shu o'rinda asar qahramoni, o'z farzandini boshqalardan ustun qo'yamaslik maqsadida o'zaro tenglik, adolatlilik, kamtarinlik xislatlarni shakllantirishga harakat qilgan. Asarda muallimning oliyjanob, fidoyi fe'l-atvori boshqa qahramonlar e'tirofidan ham ayonlashib boradi. Davrning qiyinchiligiga qaramasdan, qishloqdagi bolalarga sidqidildan tahsil berib, ularning savodini chiqarishga asdoydil harakat qiladi. Keyinchalik, qishloq ahli unga uy qurub berishmoqchi bo'lganida, o'zini o'ylamasdan qishloq bolalari uchun kattaroq maktab qurish taklifini beradi.

Keling yana asarga murojaat qilsak:" - Agar Husan akani qisib qo'ymagan bo'lsak, hasharchilarni maktab qurishga salsakmikin.... Bizga-ku uy topilar, maktab kerak"[3]. Ikki e.o.58-bet. Bundayin mardonavor so'zlarni ilgama chin dildan oshno qalblar aytishi mumkin. Biroz andisha, biroz istihola bilan aytilgan bu so'zlar chapani, tanti Husan duma tomonidan, "Nega qisilarkanman! Ma'lim to'g'ri aytyaptilar. Eng avval maktab kerak" deb tasdiqlanadi va qishloq ahli tomonidan "katta maktab" qurilishi boshlanib ketadi.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltirib o'tishni lozim deb topdik : "Ustoz, murabbiy, o'qituvchi deya ta'rif etilgan insonlarning mehnati igna bilan quduq qazishga qiyoslanishi bejiz emas. Ular mashaqqatli va sharaflilik kasbi orqali jamiyatning kelajagi va ishonchi bo'lgan yosh avlodga ta'lim berib, tarbiyalaydi. Bu esa katta bilim va sabr talab etadi, ularning mehnati esa bir necha o'n yillab o'tgach o'z mevasini bera boshlaydi." [1]

Muallim o'zgalalar manfaati uchun jonini fido etib, kamtarona turmush kechirsa-da, uning oliyjanoblighi ishonch, beminnaat yaxshiligi adolat hikmatidan voqif qiladi. Hattoki halovatidan voz kechib, kechalari xonadon ahliga "O'tgan kunlar"ni o'qib berib, ularni ham bu asar bilan yaqindan tanishtirishga harakat qiladi. Asarni jon qulog'i bilan tinglagan Husan Duma, Qora amma o'sha davrda "anqoning urug'i" hisoblangan moychirog'ni ham ayamagani" ni keltirib o'tadi. Haqli savol tug'iladi: Xush nima uchun qishning uzun kechlari bunday serharakat, biroz tajang Husan dumadek inson "ma'limdan" kitobni o'qib berishni qayta-qayta so'raydi, sabr bilan tinglaydi. Bunga sabablarni turlicha keltirish mumkin.

Birinchi sabab g'oyat ayanchli holat - u savodsiz (bunga o'zi ham hijolat holda iqrar bo'ladi), ikkinchi sabab kitob Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar"i, uchinchi sabab sifatida "ma'lim" Samadov asarning mohiyatini yetkazib o'qib berishi deb aytishimiz mumkin. Mana shunday kunlarda o'sha davrdagi g'alamis odamlarning qabihona rejalari, razil niyatlari, noo'rin chaquvlari tufayli Samadovni nohaq qamashdi. Unga arzimagan sabablar bilan nohaq ayblovlar qo'yiladi. "Aybi shumishki, darsni programma bo'yicha o'tmaganmish, hisob ilmini Xorazmiy yaratgan deb maqtaganmish, bolalarga Bobur podshoning she'rlarini o'qitganmish. Rayondan beruxsat maktab qurganmish....."

Asarning bosh qahramonlaridan biri Oqsoqolning tilidan aytilgan bu gaplar kishini chuqur iztirobga solishi bilan birgalikda hayron qoldiradi. Chunki har bir millat o'z tarixini o'rganishi, avlodlarining ma'naviy merosidan bahramand bo'lishi va buni millat farzandlariga o'rgatib borishining nimasi yomon degan haqli savolga javob topolmaysan. Hattoki, bir vaqtlar Robiyani bir yo'la uchinchi sinfga boraversa bo'ladi degan o'qituvchi ayol "Otang xalq dushmani ekan. Sen sovet maktabida o'qishni xohlamaganing uchun ataylab o'qishga kechikib kirsang!" deydi. Mana shu mudhish munosabatlar Robiyaning qalbini jarohatlasada, dardini hech kimga sezdirmaydi. To'satdan tushgan g'am yosh bolani bir kunda katta odamga aylantirib qo'yishiga ko'nadi. Naqadar ayanchli ko'nish....

Garchi "Ma'limni aybi yo'q. Haq joyida qaror topmaguncha qo'ymayman. Meni kim deb yuribdi Xo'jaqulovlar!" deb himoyaga bel bog'lagan Oqsoqoldek obro'li rais ham, Husan Duma ham ayblovlari oldida chorasiz qoladilar. Keyinchalik esa "xalq dushmani"ni qishloqqa olib kelgan deb Oqsoqol ham raislikdan olib tashlanadi.

Bu satrlarni o'qib, chuqur iztirobga tushasiz. Sho'ro davlati nafaqat XX asrning 30-50-yillarida, balki topgan ilk kezlardan milliy respublikalarda, jumladan, O'zbekistonda mustamlakachilik harakatini olib borib, "millatchi", "vatan xoini", "aksilinqilobchi" degan ayblovlar bilan minglab vatandoshlarimizni qatag'on qurboniga aylantirdi. Aynan Samadovga o'xshagan vatanparvar, erkparvar o'g'lonlar "xalq dushmani"ga chiqarildi. Hattoki yaqin odamlari, oila a'zolari, xizmatdoshlari ham borsa kelmas joylarga surgun qilinadilar. Mahoratli yozuvchi Samadov obrazi orqali xalqning ziyoli vakili-o'qituvchilarni jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadigan oliyjanob, fidoyi, sof vijdonli, zahmatkash insonlar qiyofasini yoritib beradi. Muallim dunyoqarashi, kasbiga bo'lgan sadoqati, mas'uliyati masalasi muallifning hayotiy kuzatishlari, shaxsiy tajribasi asnosida rivojlantirilgan. Va bu o'rinda yozuvchining asar to'g'risidagi quyidagi fikrlariga quloq salsak: "Men bu kitobdagi ko'p odamlarni o'z ko'zim bilan ko'rganman. Ba'zilar nima gapirganini emas, nima o'ylaganini yozishga majbur bo'ldim. Xullas bu savdolar ko'p yillar davomida ko'p kishilarning boshidan kechgan..."[3]

"Badiiy obraz-ijodkor shuuri, estetik ideali, dunyoqarashi, maqsadi va g'oyasi orqali sintezlashgan voqelikning, inson ruhiyatining muhim qirralarini muayyan narsa, tuyg'u va kechinmalar timsolida alohida betakrorlikda umumlashtirilgan, estetik qimmatga molik in'ikosidan iborat"[3].

Insoniyat ilm-u ma'rifat yog'dusida sharaflilik matlabiga noil bo'ladi. Bu xayrli xizmat ustoz zimmasiga buyuk mas'uliyatni yuklaydi. Yillar mobaynida ta'lim, tarbiya o'rgatgan insonning halol, mashaqqatli mehnatini qadrlagan ilm-u tolib uni umri davomida unutmaydi.

"Dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktab bolsa, kasblarning ichida eng sharaflisi oqituvchilik va

murabbiylikdir"[4]. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning ushbu so'zlari jamiyatdagi barcha ustoz murabbiylar uchun berilgan haqqoniy baho desak adashmaymiz. Hayotga mazmun bag'ishlash, umrini faqat xayrli ishlarga sarflash, yurt farzandlariga beminnat bilim berish, ularni ma'naviy jihatdan komillik sari yetaklash, mana shu sharaflı kasb egalarigagina nasib etgan. Bu hayrli xizmat ustoz zimmasiga buyuk mas'uliyatni yuklaydi.

Shu sababli turli davrlarda, turli ijodkorlar o'z asarlarida muallim, ustoz obrazlari vositasida odamzotga ma'rifat xidoyatini ulashuvchi shaxslarni sharaflaydilar.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, mahoratli yozuvchi "ikki eshik orasida" asaridagi Samadov obrazi orqali buyuk kasb egalarining xokisor, kamtarin, fidoyi vatanparvar hislatlarini ochib berishga harakat qilgan va bunga xaqli ravishda erishgan deb bemaolol ayta olamiz. Ustoz – misli yonib turgan sham. O'zgalarga ilm o'rgatish, ma'rifat ziyosini tarqatish, nihoyatda savobli amaldır. Bunday mas'uliyatli vazifaga mutasaddi bo'lgan insonlarning darajasi ham buyukdir. Darhaqiqat, kishida ilm o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi. Albatta, buning uchun ustoz zarurdir. Ilm va uni talab qilishning fazilati naqadar ulug' bo'lsa, ilm o'rgatish, ya'ni ustozlik qilishining fazilati undan buyukdir. Dunyoda ming-minglab kasblar borki, ularning orasidagi buyuk kasblardan biri o'qituvchilikdir. Qur'oni Karim oyatlarida va Hadisi shariflarda ilmiga amal qiluvchi olimlar, ustozlarni hurmat, qilish, e'zozlash haqida juda ko'p ko'rsatmalar berilgan. Zero, hozirgi kunda ham sharaflı kasb egalarining qadri baland, ular har doim e'tibor va e'tirofdadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev: "Maktab ta'limini rivijlantirmasak, yoshlarimiz sharoit bor joylarga ketadi". O'zbekiston. 21:39 28.01.2022.
2. O'.Hoshimov "Ikki eshik orasi". Asr oshgan asarlar. Toshkent-2016.
3. B.Sarimsoqov. "Badiiylik asoslari va mezonlari".-Toshkent, 2004. 22-bet
4. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asari Toshkent. "Ma'naviyat" 2008. 82-bet.
5. Muslim. uz.

ABDULLA QODIRIYNING BA'ZI KICHIK ASARLARIDA JANR MUAMMOSI

*Yo'ldiriyev Qahhor Vahobovich,
filologiya fanlari doktori, Farg'on davlat universiteti dotsenti*

Annotatsiya. Maqolada Abdulla Qodiriyning kichik asarlaridagi pamphlet janriga xos xususiyat haqida so'z yuritildi. Bunda muallfi qator ilmiy-nazariy manbalarga tayngan holda A. Qodiriyning ba'zi asarlarini pamphlet deb atash kerakligini ta'kidlaydi. Ilgari surilayotgan g'oyani esa yozuvchining aniq asari asosida ilmiy isbotlangan.

Kalit so'z va iboralar: janr, pamphlet, kinoya, sarkazm, kichik asar, badiiy-publitsistika.

**ПРОБЛЕМЫ ЖАНРА В НЕКОТОРЫХ МАЛЕНЬКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ
АБДУЛЛА КАДИРЫ**

Юлчиев Каххор Ваҳобович, доцент Ферганского государственного университета, доктор филологических наук.

Аннотация: В статье говорится об особенностях памфлетного жанра в небольших произведениях Абдуллы Кадири. При этом автор, опираясь на ряд научно-теоретических источников, подчеркивает, что некоторые произведения А. Кадири следует называть памфлетами. Выдвигаемая идея научно доказано на примере конкретного анализа произведения писателя.

Ключевые слова и выражения: жанр, памфлет, ирония, сарказм, маленький произведения, художественная публицистика.

THE PROBLEM OF GENRE IN SOME SMALL WORKS OF ABDULLA QADIRI

*Yulchiyev Qahhor Vahobovich,
doctor sciens filology, dotsent Ferghana state university*

Abstract. The article talks about the characteristics of the pamphlet genre in Abdulla Qadiri's small works. In this, the author, relying on a number of scientific and theoretical sources, emphasizes that some works of A. Qadiri should be called pamphlets. The earlier idea was scientifically proven based on the specific work of the writer.

Key words and phrases: genre, pamphlet, irony, sarcasm, small work, literary journalism.

Kirish. Ma'lumki. Abdulla Qodiriy adabiyotimiz uchun tub o'zgarishlar davri bo'lgan zamonda yashagan. Bu esa uning asarlarida ham o'z ifodasini topgan. Xususan, adib birinchi o'zbek romanini yaratib, o'zbek romanchilik maktabiga asos soldi. Bundan tashqari, satirik asarlarning yangi shaklini yaratib, ular mazmun-mohiyatini boyitgan. Xususan, Abdulla Qodiriyning "Tanlangan asarlar" to'plami "Diyor bakir" (kichik asarlar) bo'limidagi turkum asarlarning ba'zilarida "hikoya", "kichkina feleto'n", "hangama" deya turli janrlar ko'rsatilgan[6]. Ba'zi kichik asarlar janri belgilanmagan. Mazkur asarlarning aksariyati badiiy-publitsistikaga oid bo'lib, ular janrini aniq ko'rsatishga ehtiyoj mavjud. Bu esa adabiyotshunoslik oldiga adib asarlari janrini o'rganishni vazifasini qo'yadi.

Ta'kidlangidek, Abdulla Qodiriyning kichik asarlarining aksariyati matbuot nashrlarida e'lon qilingan bo'lib, ular hajman kichik, ammo ko'tarilgan muammosi, badiiy ifodasi bilan badiiy-publitsistik xarakteri bo'rtib turadi. Yozuvchi kichik asarlarda jamiyatdagi qator o'zgarishlarga munosabat bildiradi, siyosiy hayotga baho beradi, rahbarlik faoliyati yoki diniy soha vakillarini keskin tanqid qiladi. Bu esa ularning yozuvchi o'zi ta'kidlaganidek, "feleto'n", "hangama" janrlariga mansub deya belgilashga imkon beradi. Lekin Abdulla Qodiriyning faol ijtimoiy hayoti va qator badiiy-publitsistik asarlari mazmuniga diqqat ilinsa, kichik asarlarning ba'zilarida fosh etuvchi, o'zi va o'zu mansub xalq idealiga zid kelgan faoliyatlarni keskin rad etish, fosh etishi, adib davlat va jamiyatning ma'lum qatlamini tanqid etganini, diniy guruh kishilarining ijtimoiy-siyosiy faoliyati ustidan kulganini kuzatish mumkin. Bu esa ularni pamfletga ayqinligini ham tekshirish zaruratini keltirib chiqaradi.

II. Adabiyotlar tahlili va metodolifiya.

Aslida o'zbek adabiyotida muallif idealiga zid bo'lgan voqelikka munosabat bildirish mumtoz adabiyot numunalarida ko'p uchraydi. Masalan, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarini keltirish mumkin. [5] Lekin unda davlat va jamiyat shakllantirish hamda boshqarish haqidagi fikr-mulohazalar ko'proq didaktik usuldan beriladi. Bunday holat barchcha yetuk ijodkorlar ijodida uchraydi. Chunki "San'atkor hayotdagi yaramas illatlarni, nuqsonlarni zaharxanda va engil kulgu bilan tasvirlasa – satira va yumor; hayot manzarasini mavjud realliklarga, aniq, fakt va hujjatlarga asoslanib ulug'lasa — ocherk, tanqid qilsa — feleton kabi xillar va janrlar orqali in'ikos ettiradi" [3,19].

Shundan kelib chiqib aytish kerakki, yozuvchi real hayotdagi qator illat, nuqsonlarni, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni o'zining ijtimoiy-falsafiy, badiiy-estetik idealidan o'tkazadi. Muvofiq kelmaganini inkor etadi. Ustidan kuladi. Ana shu yerda pamfletlilik yoki asarning pamflet janrga xosligi ko'zga tashlanadi. Pamflet "...o'tkir satirik xarakterdagi asar bo'lib, siyosiy tuzum, ijtimoiy qatlam, davlat va u yoki bu partiya, guruh kabilar qilmishlarini butunlay, keskin mazax qiladigan"[3,257]. Shu ma'noda

Abdulla Qodiriyning kichik asarlari orasida mazkur talabga javob beradigan jihatlar borligini kuzatish mumkin.

Pamfletda “butun boshli siyosiy, falsafiy yoki estetik tizimga qarshi turadigan darajadagi umumlashmalar...” [1,16] va “Pamfletli g‘azab insoniy qadriyatlarning tahqirlaydigan, ma’naviyatsizlikni targ‘ib qiluvchi milliy jamiyatga yot bo‘lgan xorijiy obrazlarga qarshi yo‘naltirilgan bo‘ladi” [1,16]

Boshqa bir olim esa pamflet bo‘yicha tadqiqotlarida pamfletning janr hosil qiluvchi belgilarini ajratadi. “Bunda pamfletning munozarali, bahstlab an‘analariga urg‘u berilgan, ikki variantda ifoda etilgan. Muallif ma’lum fikrlar tizimini rad etadi, ya’ni opponetning fikrlariga tayanib, uni rad etadi, yoxud suhbatdoshi bilan muloqotda, munozaradi o‘zining nuqtai nazarini keltiradi” [4,24].

O‘zbek olimlari ham pamflet haqida yoki Abdulla Qodiriy asarlari janri haqida fikrlarini bildirishgan. Xususan, “Adabiyotshunoslik lug‘ati” da quyidagilar yozgan: “pamflet (fr.pamfeulleti – uchar varaqa) – publitsistik janr, aniq bir shaxs yoki ijtimoiy tuzilma (tuzum, partiya, harakat, guruh vab.)ni keskin fosh etish maqsadidaga qaratilgan kichik hajmli asar. Pamfletning uslubiy xususiyatlari shu maqsadga xos ta’kidlar, murojaatlar va kuchli emotsionallik asosida yuzaga keluvchi ritorik intonatsiyalar, patetik ruh, aforistik xarakterda ifodalangan hukm-xulosalar, o‘tkir sarkazm darajasiga etadigan etadigan yakson qiluvchi kinoyaviylik. Bular pamfletning oshkor tendensioz ruhda bo‘lishini, o‘quvchiga bevosita ta’sir qilishini ta’minlaydi” [212].

Pamflet haqida jurnalistikaga oid tadqiqotlarda ham salmoqlik fikrlar mavjud. Xususan, “Pamflet (inglizcha pamphlet) – qo‘ldagi bir varaqa, degan ma’noni anglatadi. Pamflet feletonga yaqin bo‘lgan publitsistik janr bo‘lib, u biror siyosiy tuzum, ijtimoiy voqelik, u yoki bu to‘da hamda guruhlar faoliyatini, xatti-harakatlarini fosh qiluvchi najviy-tanqidiy asardir. U boshqa hajviy janrlardan badiiy to‘qim aning ozligi, aniq, tarixiy hujjatlarga asoslanishi bilan farq qiladi.

Pamfletda jamiyatdagi turli shaxslar xarakteridagi nuqsonlar achchiq kinoya, o‘tkir sarkazm vositalari bilan fosh etiladi. Pamflet ibora sifatida 14-asrda paydo bo‘lgan. U she’riy, nasriy yoki dramatik shaklda bo‘lishi mumkin.

Pamfletning ilk namunalari antik davrda yaratilgan. O‘zbek adabiyotida A. Qodiriy, S.Ayniy, G‘. G‘ulom, A.Qahhor va boshqalarning pamfletlari bizga ma’lum. Jumladan, A. Qodiriyning «Sanam parast tentaklar», G‘.G‘ulomning «Sharaf qo‘yozmasi», A.Qahhorning «Baron fon Ring» pamfletlari bu janrning eng yorqin ko‘rinishlaridir.

Ko‘pincha, pamflet bizning siyosiy qarashlarimizga begona bo‘lgan qarashlarga qarshi yoziladi. Unda bu qarashlar ustidan kulish, uning mashhur arboblari tanqid ostiga olish yotadi. [8,104-105]

Bundan tashqari, Oybekning ham ikkita pamfleti mavjud bo‘lib, ularda ijtimoiy-siyosiy qarashlari muallif qarashlariga zid bo‘lgani uchun sarkazm yordamida ularga nisbatan o‘z munosabatlarini bildiradi.[9, 309-316] Demak, pamfletning jamiyatdagi illatlar keskin fosh etishi, tanqid qilishi, xalq yoki muallif idealiga zid har qanday ijtimoiy-siyosiy, diniy faoliyatni rad eitishi mumkinligi yetak jihat sifatida olinishi mumkin.

NATIJA VA TAHLILLAR. Aslida o‘zbek mumtoz adabiyotida barcha zamonlarda u yoki bu tarzda jamiyatdagi qarashlarni tanqid etish, rad etish holatlari uchray turadi. Masalan, Abdulla Qodiriy asarlarida jamiyatdagi ijtimoiy harakat, siyosiy guruh, diniy qatlam faoliyatini keskin tanqid qilingan, rad etilgan qarashlar uchratish mumkin. Masalan, “Ko‘mak” uyushmasiga ionalar” nomi ostida berilgan asar janri ko‘rsatilmagan[6, 611]. Asar nasr yo‘li bilan, sarkazm usulida bitilgan bo‘lib, unda xorijda ta’lim olayotgan yoshlariga moddiy yordam masalasi qattiq tanqid qilinadi: “Keyingi kunlarda “Ko‘mak” uyushmasiga berilgan ionalarning hissasi juda ham ko‘payib ketdi. Tushkan ionalarni uyushmaning bitta kassasi eplay olmay olmag‘anliqdan ikkinchi kassa ochmoqqa majbur bo‘lindi. Keyingi oyda iona bergan saxiylarning ro‘yxati munda ydir:

Valihoji - besh millard so‘zga arziydig‘an duo.

G‘ulomshayx boybachcha – “O‘qushg‘a ketkan yigitlar mullo bo‘lsunlar” degan yaxshi tilak (baho qo‘yish komissiyasining so‘ziga qarag‘anda bu iona ham 5 millardg‘a arzir ekan).

Azimboybachcha ko‘mirchi – sakkiz put toshko‘mir.

“Tujjor” shirkati – ikki sopol tovoq bilan bitta hurmacha.

“Qamar” shirkati – chorak qadoq olma choy.

Poyafzalbozoridag‘ido‘kondorlar o‘zaro – bir poy bachkana etik.

Chit bozorining do‘kondorlaridan bir gazu uch chorak gazlama.

Atto og‘a-inilardan – ikki quti upa.

Qassobliqdan – besh dona o‘pka.

Qandolatchilardan – us istakan pistashka bilan bir qadoq pashmak va boshqalar.

Ushbulardan Berlin o‘qug‘uchilarimizg‘a yuborildi:

Berlin talabalarimiz ortuqcha muxtoj bo‘lg‘anliqlaridan birinchi galda to‘rt put toshko‘mir, ikkita sopol tovoq, bir posilka duo yuborildi.

Muxbir: Dumbul.

“Mushtum”: Oltun olma, duo ol – duo oltun emasmi?”

Mazkur asar kompozitsiya qurilishi, muallif nutqidagi achchiq kulgi, ijtimoiy-siyosiy masalaga fojeaviy tus berilishi bilan shu bobda tahlilga tortgan. Shularni inobatga olib uni ham pamflet deyish mumkin.

Jahon adabiyotida aynan shunga yaqin asarni yozuvchi Mark Tven ijodida ushradi. Uning “Himoyachi farishtaga maktub” nomi bilan e’lom qilingan asar ham maktub usulida yozilgan bo’lib, unda ham xallqa yaxshilikka qilyapman, deya xalqni talayotgan capital egasining ma’naviy qiyofasi ochib berilgan. Qizig’i, foyda olish maqsadida vijdonini sotgan kishining har qanday g’irromlik, firibgarlik, ikki yuzlamachilikdan qaytmasligi tasvirlangan. Masalan, “yanvar kunigacha, so’rovingiz bo’yicha quyidagilarni xabar qilaman:

1. Kunlar sovuchi natijasida ko’mir narxinining tonnasi 15 sentga oshirish – qanoatlantirildi.
2. Ishsizlikni oshirish va shu yo’l bilan ish haqqini 10 % ga kamaytirish – qanoatlantirildi.
3. Sizga raqobat qiladigan firmalar savdo qiladigan mayin ko’mirning narxini tushurush – qanoatlantirildi” [10, 276].

Mark Tvenning ushbu asari ham pamphlet deyiladi va jant talabiga to’la mos keladi. Uni Abdulla Qodiriyning asariga tasvir ifodasi, kesatqli va mazmuni bilan juda o’xshaydi. Demak, A.Qodiriyning yuqoridagi asarini ham pamphlet deyish mumkin.

Bundan tashqari, Abdulla Qodiriyning “Toshkand boylari” [6, 628-630], “Tarjumai hol: Eshonlarimiz” [6, 638-643], “Toshkanda xabarlar” [6, 632] kabi kichik hajmli asarlari ham ijtimoiy-siyosiy vaziyatni fosh etishi, achchiq tili bilan bemalol pamphlet qatoriga qo’shish mumkin. Demak, pamphlet atamasi bizga nisbatan keyinroq, aniqrog’i XX asrning ikkinchi yarmida kirib kelgan bo’lsa-da, aslida unga xos xususiyat adabiyotimizda mavjud bo’lgan. Jumladan, XX asr boshlaridagi badiiy-publitsistik asarlarda faol ishlatilgan, degan xulosaga kelish mumkin.

O’zbek badiiy-publitsistikasida pamphlet u qadar keng ommalashmagan. Shuning uchun bo’lsa kerak, pamphletga xos xususiyatga ega asarlar bizda hangoma yoki fel’eton nomi bilan atalgan. Lekin yigirmanchi asr ikkinchi yarmidan boshlab, oz bo’lsa-da pamphletlar kirib keldi. To’g’ri dastlab ingliz, rus, fransuz pamphletlari tarjima qilinishi ta’sirida shunday asarlar yaratilgan bo’lsa, keyinchalik bevosita pamphlet nomi ostida asarlar yaratila boshlandi.

Abdulla Qodiriyning “Siyosat maydonlarida” [6, 602-603], “Huquq” [6, 599-600], “Luzonda ko’ngil ozishlar va isiriq solishlar” [6, 591-592], “Tilak” [6, 588-591], “Ijmolli sayosiy” [6, 561-563], “Saylovmi, bosqinmi” [6, 528-530], “Suzuk ota” xo’jalar jumhuriyati” [6, 675-676] kabi asarlarida pamphletlik borligini kuzatish mumkin.

Masalan, «Siyosat maydonlarida» nomli asarida Evropasiyosatchilarining xiyaluy nayranglariga kulgili tarzda munosabat bildiriladi: «Sarlavhani o’qug’ach, Puanqaraning lo’ttisidan, Kerzo’ning Turkiyaga qilayotgan oliftaligidan etishamiz, deb ko’nglingiz aynar. Voqi’an bu to’g’rida aynab hazmi qiyin bo’lgan Yevrupo yirtqichlarining kurakda turmag’an siyosatlarini “voq” etib qusub yuborishg’a ham haqlidirsiz. To’g’risi ham bu it emganlarning tutqab siyosatlarini har qanday sharq bolasi osonlik bilan hazm qila olmaydur” [602-603].

Mazkur asarda Yevropa siyosatchilarining Turkiya va turk xalqiga qilgan nayranglari, bosqinlari keskin qoralanadi, tanqidqilinadi. Unda pamphletning siyosatni qoralash, bunda turli hissiy munosabatlardan foydalanish kabixususiyatlar aniq ko’zga tashlanadi. Shunga asosan ushbu asarni pamphlet deyish mumkin bo’ladi. Chunki muallif dunyo darajasida turib fikr yuritadi. Voqelikka shaxsiy munosabatini ko’rsatadi.

IV. Xulosa.

Abdulla Qodiriyning badiiy-publitsistikasi, xususan, pamphlet janrida asar yozishdagi o’ziga xos jihati ko’zga tashlanadi. Mazkur asar Mark Tvenning bi pamphletiga mazmunan yaqin keladi. Ammo o’ziga xos jihatlari ham mavjud. Bu esa yozuvchimizning jahon darajasidagi asarlar bilan bellashadigan pamphlet yaratganini isbotlaydi.

Murakkab janrning o’zak xususiyati bo’lgan ijtimoiy-siyosiy voqelikni tanqid qilish va unga munosib baho bera olishning uddasidan chiqqan. Bunda asar tiliga piching, kesatq va turli hissiy-eskpressiv so’zlarni kiritilganini, eng muhimi, sof ijtimoiy hayotga tezkorlik bilan javob berish kabilarni keltirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

Lyubeznaya E.V. Avtorskie janri v xudojestvennoy publitsistike i proze Tatyani Tolstoy. Avtoref. Diss. ... kand. filolog. nauk. – Tambov, 2006. – 26 s.

Poetika: slov, aktual. terminov i ponyatiy / [gl. nauch. red. N.D. Tamarchenko]. — M.: Izdatelstvo Kulaginoy; Intrada, 2008. — 358 s.

Slovar literaturovedcheskix terminov. Avtor.sost.: L.I. Timofeev i S.V. Turaev. — Moskva: Posvещenie, 1974. — 509 s.

Tepliyashina A. N. Tvorcheskaya priroda komicheskogo (janrovaya paradigma sovremennoy jurnalistiki). Avtoref. diss. ... dok. filol. nauk. — Sankt-Peterburg. 2007. — 38 s.

Yusuf Xos Hojib. Qutadg’u bilig. — Toshkent: Yulduzcha, 1990. — 356 b.

Qodiriy, Abdulla. Tanlangan asarlar. — Toshkent: Sharq, 2014. — 880 b.

Quronov D. Mamajonov Z., Sheralieva M., Adabiyotshunoslik lug’ati. — Toshkent: Akademnashr, 2010. — 400 b.

Qozoqboyev T. Jurnalistika asoslari. — Toshkent: Musiq, 2008. 128 b.

Ойбек. МАТ. 19 томлик, 12 том. — Тошкент: Фан, 1978. — 440 б.

UZBEK LEGENDS: STUDY AND TRANSLATION OF FOREIGN RESEARCHERS

Yusupova Hilola U.,

PhD, Associated professor, Bukhara Engineering Technological Institute,

Abstract. This article studies the English translations of Uzbek legends made European and local translators and researchers. It gives a vivid description of national identity, expression of national color in their English version and problems of translation in them. The article gives information about English translations of Uzbek folklore, their chronicle and authors of works.

Methods. Investigation of translation problems found their reflection in the article by using comparative, comparative-analytical and analytical methods.

Results. The primary source of restatements are the results of exploration by German Turkologists. Importance of the restatement consists of oral prose sources similar as tales, stories, legends, and folk dramatizations as "lof" (a taradiddle). It's worth noting that the leadership in this area belongs to German translators who have accumulated rich experience. After all, this movement, which began in the alternate half of the 19th century, took stable forms at the morning of the 20th century, and the number of restatements into German increased slightly.

Conclusion. As we know, translation is a bridge between two languages. This process helps researchers to establish the significance of language, to distinguish difference between mentalities and to know well the language itself. Therefore, in the article we tried to connect the two nations' investigations in the field of Uzbek folklore translations.

Key words: folklore, translation, volunteer, tale, legend, riddle.

УЗБЕКСКИЕ ЛЕГЕНДЫ: ИЗУЧЕНИЕ И ПЕРЕВОД ЗАРУБЕЖНЫХ ИССЛЕДОВАТЕЛЕЙ

Юсупова Х.У., к.ф.н., доцент

Бухарский инженерно-технологический институт

Annotatsiya. В данной статье исследуются английские переводы узбекских легенд, сделанные европейскими и местными переводчиками и исследователями. Дается яркое описание национального самосознания, выражения национального колорита в их англоязычной версии и проблемы перевода в них. В статье приведены сведения об английских переводах узбекского фольклора, их летописи и авторах произведений.

Методы. Исследование проблем перевода нашло свое отражение в статье с использованием сопоставительного, сравнительно-аналитического и аналитического методов.

Полученные результаты. Основным источником переформулировок являются результаты исследований немецких тюркологов. Значение пересказа составляют устные прозаические источники, похожие на сказки, рассказы, легенды, и народные инсценировки типа «лоф». Стоит отметить, что лидерство в этой области принадлежит немецким переводчикам, накопившим богатый опыт. Ведь это движение, начавшееся в другой половине XIX века, приняло устойчивые формы к утру XX века, а число переформулировок на немецкий несколько увеличилось.

Ключевые слова: фольклор, перевод, волонтер, сказка, легенда, загадка.

O'ZBEK AFSONALARI: XORIJIY TADQIQOTCHILARNING IZLANISH VA TARJIMALARI

Yusupova H.O., f.f.n., dotsent

Buxoro muhandislik texnologiya instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yevropa va mahalliy tarjimon va tadqiqotchilar tomonidan o'zbek afsonalarining ingliz tiliga tarjimalari ko'rib chiqiladi. Milliy o'zlikni anglash, milliy koloritning inglizcha variantida ifodalanishi va ulardagi tarjima muammosining yorqin tavsifi berilgan. Maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodining ingliz tiliga tarjimalari, ularning yilnomalari va asarlar mualliflari haqida ma'lumotlar berilgan.

Metodlar. Tarjima muammolarini o'rganish qiyosiy, qiyosiy-tahliliy va analitik usullardan foydalangan holda maqolada aks ettirilgan.

Natijalar. Islohotlarning asosiy manbai nemis turkologlarining tadqiqotlari natijalaridir. Qayta hikoya qilishning ma'nosi "lof" tipidagi ertak, hikoya, rivoyat va xalq dramatizatsiyasiga o'xshash og'zaki nasriy manbalardan tashkil topgan. Aytish joizki, bu borada yetakchilik boy tajriba to'plagan nemis tarjimonlariga tegishli. Axir, 19-asrning ikkinchi yarmida boshlangan bu harakat 20-asrning tongiga kelib barqaror shakllarni oldi va nemis tiliga kiritilgan islohotlar soni biroz oshdi.

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodi, tarjima, ko'ngilli, ertak, afsona, topishmoq.

Introduction. The Uzbek people have a rich historical heritage. Today it is not a secret for any of us that foreign countries are interested in samples of his oral art, reflecting his history. Such works expressing the mentality of our people include legends and narratives. Translations of legends and tales,

which are among the leading genres of folklore, can be found on many websites. This heritage reflects the ideology and spirit of our people. It shows the peculiarities of the national mentality of our people. A number of foreign scholars who were interested in these features devoted their efforts to conveying samples of Uzbek folklore to their students. We managed to identify about forty sources related to the implementation of translations of Uzbek folklore samples in the West.

Materials and methods. Most of them were published in England, America and Germany¹. The primary source of translations are the results of research by German turkologists. Much of the translation consists of examples of oral prose such as fairy tales, anecdotes, legends, and folk dramas such as “lof” (a lie). It is worth noting that the leadership in this area belongs to German translators who have accumulated rich experience. After all, this movement, which began in the second half of the 19th century, took stable forms at the beginning of the 20th century, and the number of translations into German increased slightly.

Herman Vambéry, A. Strong, Chadviglar, S. Baura, Hassan Paksoy, K. Reichl, Jacob Taube and Ilza Sirtautas made a great contribution to the translation and study of Uzbek folklore into European languages by Western Turkic scholars. Among these scientists, Karl Reichl stands out for his ability to translate Uzbek folklore into two languages - English and German, and bring it to the attention of students in Western countries. ²

The work done can be called an important step towards development. The theme of the East aroused great interest among the mature English poets Marlowe, Shakespeare, Byron and the German writer Goethe, and they used various oriental themes as the subject of their works.

The theme of the East has been one of the topics that has attracted the attention of European peoples since ancient times. The work done in this regard can be called an important step towards progress in the exchange of cultural information. Because since ancient times, the interest of the West in the East can be assessed by literary and scientific works created on this earth. The theme of the Orient was of great interest to English poets such as Marlowe, Shakespeare, Byron and the German writer Goethe, and they used various Oriental themes as the theme of their works.

In the literature of European countries, John Dryden continued the theme of the East with the drama *Avrangzeb*. Meanwhile, the tales of the *Thousand and One Nights* were translated into French, English and other languages, and the theme of the East began to find its place in world literature³.

Among the examples of Uzbek folklore, another genre that has attracted the attention of foreign scholars are legends and stories.

Results and discussion. The process of translating samples of Uzbek folklore into English somewhat revived at the beginning of the 21st century. One of the main factors in this is the activity of American volunteers to get acquainted with the way of life of the Uzbek people. Indeed, in order to teach Uzbek children the English language and satisfy their aspirations, volunteers from the United States, in fulfilling their duties, studied the spiritual and everyday life of the people and collected enough information. The result of this volunteer service was the book *Treasury of Uzbek Legends and Traditions*, published by Marilyn Petersen in 2000. According to the author, Uzbek children, who know their traditions and customs, are very fond of reading fairy tales, riddles and poems in English. Therefore, in his book, M. Petersen intended to bring information from Uzbek fairy tales, legends, parables, proverbs and riddles, up to songs and lapars sung during holidays and rituals, cooked food and put on clothes.

The first chapter of the work is called «Legends of Uzbekistan». The legends are connected with the creation of the ancient cities of Uzbekistan, such as Samarkand, Khiva, Andijan, Karshi, and, first of all, they have a toponymic essence that explains their names. For example: “How Samarkand got its name” - The legend “How Samarkand got its name” plays an important role in conveying to the reader why the city of Samarkand was named that way and the meaning of its name.

A long time ago, in a region of Central Asia, there was a great and wicked king who lived in a beautiful castle. One day his wife gave birth to a beautiful daughter and they named her Kand, which means sugar in the Uzbek language.

About the same time, there was a baby boy born to a very poor family. They named him Samar, because he was handsome and strong. As he grew up, he became very famous for his bravery, and he competed in all the athletic events.

One day the princess met the young man in the garden of the castle. They were so attracted to each other that they agreed to meet everyday in the garden. As they got to know each other their love grew stronger and stronger. One day Kand’s father learned of their secret meetings and he became very angry. He didn’t like Samar because he was very poor, and beneath his daughter.

When Kand told her father that she wanted to wed Samar, the king decided to kill him. When the broken-hearted Kand learned of his death, she threw herself from the top of the castle. All of the people of the city were sorrowful, and they renamed their city Samarkand after the two lovers. ¹

According to legend, the city of Samarkand arose from the union of the names of two lovers. The translation informs the English reader that there is a similarity in the spiritual and cultural life of peoples, that the end and the point can be the same. It is no secret that the relationship of the king to his citizen and of the rich to the poor occupies a large place in the history of peoples within the framework of the problems of stratification. These aspects find their vivid expression in translation, and we testify that

the history of the peoples of the world is close to this aspect, and under the influence of such situations, samples of oral creativity are created.

Folk advice is expressed in such legends as «The Sheep and the Shrew», «The Snake and the Swallow». For example, the translation of the legend “Sheep and Kashkirs” deserves attention:

Kalit so'zlar: Musiqiy faoliyat, qo'shiq, aktyorlar, xonanda, ta'lim- tarbiya, maktabgacha ta'lim, musiqa, bolalar, uslub.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ У ДОШКОЛЬНИКОВ, МЕТОДОЛОГО-ДИДАКТИЧЕСКОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ

*Абдувалиева Хайринисо Абдурасул кизи,
докторант Гулистанского государственного университета*

Аннотация. Обучение музыке детей старшего возраста до школы - явление, требующее особого методического и дидактического процесса. В данной научной статье анализируются некоторые педагогические условия, психологические аспекты и методика развития музыкальной культуры детей этого возраста.

Ключевые слова: Музыкальная деятельность, песня, артисты, певец, воспитание, дошкольное образование, музыка, дети, стиль.

PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF MUSICAL CULTURE IN PRE-SCHOOL CHILDREN, METHODOLOGICAL-DIDACTIC SUPPLY

*Abduvaliyeva Xayriniso Abdurasul kizi,
Ph.D. student of Gulistan State University*

Abstract. Teaching music to older children before school is a phenomenon that requires a special methodological and didactic process. This scientific article analyzes some pedagogical conditions, psychological aspects and methodology of developing musical culture for children of this age.

Key words: Musical activity, song, actors, singer, education, preschool education, music, children, style.

KIRISH. Bolalarning vaqtlarini to'g'ri taqsimlash, ularga kerakli bilimlarni berishda, maktabgacha ta'lim muassasasida pedagogik vazifalarni to'g'ri qo'yish muhim. Musiqaviylik-alohida va o'ziga xos xususiyat bo'lib, u musiqaga nisbatan emotsional javob hissining paydo bo'lishi, unda o'ziga xos ifoda etilgan mazmunni ko'ra olishdir. Musiqaga qabul qilinadigan (tinglash orqali) obyekt yoki o'quv fani sifatida ham qarash mumkin. Shuningdek, unga boshqa tomondan, ya'ni kundalik, ijtimoiy hayotimizning ajralmas (xuddi uyqu va ovqat kabi) bir bo'lagi sifatida yondoshish ham mumkin. Musiqa insonga bevosita va kuchli emotsional ta'sir etuvchi vositadir. Insonning hissiy kechinmalari bilan bog'liq voqea va hodisalar aksariyat hollarda musiqa bilan xamoxang tarzda kechadi.

ADABIYOTLAR SHARHI. Demak, maktabgacha yosh davridanoq, bolalarga musiqaning inson hissiyotlarini ifodaviy vositalarini his qilishlariga imkon berish va shunga o'rgatib borish muhimdir. Biroq ushbu vazifani hal etish uchun bir haftada ikki marotaba olib boriladigan musiqa mashg'ulotlarining o'zi aslo kifoya qilmaydi. Shuning uchun ham yuqoridagi maqsad va vazifalarni amalga oshirish ishi musiqa rahbaridan ko'ra ko'proq tarbiyachining zimmasiga tushadi. Aynan tarbiyachi, musiqani turli shakl va ko'rinishda, guruhning kundalik hayotiga olib kiradi. Guruhga musiqani qanday shakllarda olib kirish mumkin? Bu ijrochilikning eng oddiy, sodda va har bir insonga xos bo'lgan shakli. Azal-azaldan kuylash insonning hayoti davomida, uning qaysi ijtimoiy qatlamdan kelib chiqishidan qat'iy nazar, unga hamroh bo'lib kelgan. Ona allasi, erkalamalar, biror ish yoki yumushni bajarish davomidagi mehnat qo'shiqlari, turli marosim, bayram va sayllarga oid qo'shiqlar shular jumdasidandir. Qo'shiq insonning psixoemotsional muvozanatga keltiruvchi bir vosita ekanligini ona allasini tinglab, tinchlanuvchi va osuda uyquga ketuvchi go'dakni kuzata turib to'liq ishonch bilan aytishimiz mumkin. Bu borada sharq va g'arb dunyosining mashxur allomalari bir qator izlanishlar olib borganlar. Ular yoshlarga ta'lim-tarbiya beribgina qolmay, o'z ishlariga izdoshlarni yetishtirish uchun tashkil qilgan askanlarida, musiqa insonning ruhiga ta'sir etuvchi vosita ekanligini ta'kidlaganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL. Musiqa yordamida inson ruhini go'zal, olijanob yoki aksincha tuyg'ularga sozlash (xuddi cholg'u asbobi kabi) mumkin. Musiqiy madaniyat xalq ma'naviy dunyosining ajralmas qismi bo'lib, uning ma'naviy ehtiyojini barcha davrlarda qondirgan va har doim hamdard bo'lgan, beminnat xizmat qilgan. Zero, bugungi mustaqillik davrimizda ham o'zining ma'naviy burchini muqaddas bilib, xalqimizga xizmat qilmoqda. Shuning uchun ham

musiqa madaniyatimiz bugungi kunning ulkan ijod maydoniga aylandi. Shu boisdan musiqiy tarbiyani oila, maktabgacha ta'lim muassasalari hamda boshlangich sinfdan boshlab bolalarning mustaqil musiqiy faoliyatlarini hisobga olgan holda tizimli tarzda olib borish maqsadga muvofiqdir. Mustaqil musiqiy faoliyat, bolalarning o'zlaricha xirgoyi qilishda, o'zlaricha mustaqil musiqa tinglashlarida, o'zlaricha cholg'u asboblarning biror turi bilan shug'ullanishida aktyorlar, xonandalar, qiziqchilar qiliqlari, ovozlariga taqlid qilishlarida ko'rinadi. Ular o'zlaricha turli o'zlariga yoqqan qo'shiqlarni xirgoyi qilib kuylaydilar, o'sha ashula ijrosining ohangiga, ovoziga va qiliqlariga o'xshatib harakat qilishga. intiladilar. O'zlaricha radio, televizor yoki pleyerlarda turli musiqalarni tinglaydilar. Ba'zi bolalar cholg'u asboblari chalishga, agar cholg'u asboblari bo'lmay qolsa, shu cholg'u asbobini chalib ko'rsatishga intiladilar. O'zlari yoqtirgan aktyor yoki qiziqchilar so'zlari taxlidan harakatlar bajaradi va hakoza. Shunday holatlar mustaqil musiqiy faoliyat ko'rinishlari hisoblanadi.

Mustaqil musiqiy faoliyatning bolalar qiziqishlaridan paydo bo'lishiga e'tiborni qaratishimiz lozim. Demak maktabgacha katta yoshdagi bolalar musiqiy faoliyatning u yoki bu turiga qiziqar ekanlarki, shu ko'rgan va eshitgan musiqiy jarayonini xotiralarida saqlab qolayaptilar. Biz pedagoglar bolalar mustaqil musiqiy faoliyatini qanday baholamog'imiz lozim [1].

Albatta mustaqil musiqiy faoliyatga ijobiy baho bermok lozim. Zero bu faoliyat bolalarni imkon qadar mustaqil bo'lishga o'rgatadi. Tasavvur qiling biror ishni o'zi fikrlab, bajara olmaydigan, kachon tepasida turib buyruq berib tursangiz biror ish qiladi aks holda o'zicha bir ish qilolmaydigan shaxslarning voyaga yetishganidan na ota-ona va na jamiyat manfaatdor. Jamiyatga o'zlaricha tashabbus ko'rsatuvchi yangiliklar yaratuvchi iftixorlar, kashfiyotlar kiluvchi sog'lom, harakatchan fuqarolar kerak. Shunday ekan mustaqil musiqiy faoliyat pedagogdan kuzatuvchanlikni, sezgirlikni talab qkiladi. Zero pedagoglar mustaqil musiqiy faoliyatini ijobiy baholashi bunday faoliyat ko'rsatayotgan bolalarga to'g'ri munosabatda bo'lishib ularni turli yullar bilan rag'batlantirib boshqalarga namuna qilib ko'rsatishi bolaning bunday foliyat turi bilan shug'ullanishdan manfaatdor ekanliklarini anglatishi kelajakda ulardan buyuk ijodkorlar va san'atning ko'zga ko'ringan namoyondalari chiqishi mumkinligiga ishontira olishi lozimdir. Darhaqiqat, bola qanchalar musiqiy tushunchani mustaqil fikrlab, amalda bajarishga harakat qilsa, musiqiy qobiliyatining rivojlanishi ham shunchalar muvaffaqiyatli bo'ladi.

Bola va uning qobiliyatlarining o'sishi katta kishi tomonidan uyushtiriladigan faoliyatda: Qo'shiq, ritmika, musiqa tinglash va musiqa asboblari chalishda sodir buladi. Bolalar o'zlarining musiqa eshitish tajribalari asosida o'z tasavvurlarini qo'shiq, o'yin, raqs ijodida namoyon qilishga va musiqa savodining oddiy elementlarini egallashga qodirdir. Shu bilan birga faoliyatining har bir turi umuman musiqa qobiliyatlarining o'sishiga, maxsus qobiliyatlarning shakllanishiga, masalan: ashula aytish, ashulachilik ovozi va kuy qobiliyatining tarkib topishiga yordam beradi.

Bularning barchasi turli tashkiliy shakllarda: mashg'ulotlarda, o'qishdan tashqari ishlarda (bolalar bog'chasi turmushida musiqa) va mustaqil faoliyatlarida bo'lib o'tadi [2].

Musiqiy madaniyat

1.Qo'shiq kuylash faoliyatida musiqiy dunyoqarash, musiqiy did shakllanadi. Bu faoliyat turida bolalar musiqiy bilimlarga asoslangan holda qo'shiq kuylaydilar. Buning uchun ular musiqiy asarga taaluqli bo'lgan ma'lumotlarni o'zlashtiradilar. Shu jarayonda ularda musiqiy dunyoqarash va musiqiy did shakllanadi.

Musiqa savodi faoliyatida musiqiy tafakkur, tasavvur va musiqiy dunyoqarash shakllanadi. Bu faoliyat turida bolalar musiqaning yaratilish tarixi, musiqaning ifoda vositalari - ritm, metr, registr, o'lchov, lad, temp, nota yuli va yozuvi, tovushlar uzunligi va balandligi, musiqa ijodkorlari, ijrochilari haqida bilimga ega bo'lish bilan birga, ularning musiqiy tafakkurlari shakllana boradi. Bu o'z navbatida bolalarni musiqa olamiga olib kiradi va musiqiy dunyoqarashlarini shakllantiradi.

Musiqa tinglash faoliyatida musiqiy idrok, musiqiy dunyoqarash shakllanadi. Bu faoliyatda bolalar musiqa tinglab, uni bevosita idrok eta boshlaydilar. Bu esa ularning musiqiy tafakkurlarini shakllantiradi, shuningdek, ularda musiqiy dunyoqarash ham shakllanib boradi. Tinglangan musiqiy asar haqida mulohaza yurita boshlaydilar.

2.Musiqa ostida ritmik harakat bajarish faoliyatida musiqiy dunyoqarash, musiqiy did, musiqiy tafakkur, musiqiy idrok, musiqiy ritm hissi va musiqiy xotira shakllanadi. Bu faoliyat turida bolalarda deyarli barcha musiqiy psixologik xususiyatlar shakllanadi. Chunki bu faoliyatda ular o'zlari bevosita musiqiy asarga jo'r buladilar. Avval ular musiqiy asarni tinglab ko'radilar (musiqiy idrok), bu esa musiqaning ritmik ko'rinishini eslab kolishni (musiqiy xotira), kaysi asbobda jo'r bo'lsa yaxshiroq jaranglashini (musiqiy did) tanlashni taqozo etadi. Tarbiyalanuvchi bu faoliyatda mustaqil fikrlashni (musiqiy tafakkur), natijada uning musiqiy dunyoqarashi shakllanib boradi [5].

3.Bolalar cholg'u asboblari jo'r bo'lish faoliyatida musiqiy dunyoqarash, musiqiy did, musiqiy tafakkur, musiqiy idrok, musiqiy ritm hissi va musiqiy xotira shakllanadi. Ayni vaqtda shuni aytish joizki, musiqaning qanday faoliyat turi bo'lmasin, u shaxsning barcha psixologik jihatlarini shakllanishiga yordam beradi. Jumladan, musiqiy his – tuyg'ular, musiqiy dunyoqarash, musiqiy idrok, musiqiy tafakkur, musiqiy tasavvur va musiqiy qobiliyatni shakllantiradi.

4.Musiqiy faoliyat turlari. Tinglash, kuylash, musiqiy ritmik harakatlarni bajarish, cholg'u asboblari bilan tanishtirish va ularga jo'r bo'lish, musiqiy didaktik o'yinlardan foydalanish. Mashg'ulotning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari va ularning davlat ta'lim standartlari va kompetensiyalar bilan bog'liqligini ko'rish mumkin [7].

NATIJALAR

Bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirib borayotgan bolada endi tabiatdagi turli musiqa tovushlariga nisbatan hissiy sezgirlik ko'nikmalari paydo bo'la boshlaydi. Musiqiy va hissiy qobiliyatlar, ular asosida esa musiqiy faoliyatni o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan musiqiy qobiliyatlar shakllana boradi.

Estetik ta'lim nazariyasida hissiy sezgirlikning rivojlanishi bolalarda estetik namoyon bo'lish, hissiyotlar, his-tuyg'ular, qiziqishlar, ehtiyojlar, estetik did, estetik fikrlarni shakllantirish bilan bog'liq. Hissiy reaksiya musiqiy asarning shaxsiy munosabati va bola uchun ahamiyatliligi ko'rsatkichi bo'lib, bu odamning musiqiy ta'sirga bo'lgan hissiy-baho munosabatini ko'rsatadi. Bu tashqi ko'rinishlarning keng doirasida ifodalanadi va estetik hissiyotlarni, munosabatlarni, ehtiyojlarni rivojlantirishning boshlang'ich nuqtasi bo'lib xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning hissiy rivojlanishi ta'lim va tarbiya jarayonining, uning turli tomonlarining samaradorligini ta'minlashning muhim shartlaridan biridir. Voyaga yetgan odamga xos bo'lgan yuqori axloqiy, estetik va intellektual tuyg'ular tug'ilishdan bolaga berilmaydi, ular bolalik davrida vujudga keladi va rivojlanib boradi, rivojlanib borayotgan taraqqiyot yo'lidan boradi, hayot mazmuni va tarbiyasining ijtimoiy sharoitlari ta'siri ostida tobora boy tarkibga va murakkab shakllarga ega bo'ladi. Bolalik davrida hissiyotlarning xususiyatlari (ularning kuchi, davomiyligi, barqarorligi) bola faoliyatining umumiy tabiati va uning motivlarining o'zgarishi, shuningdek, bolaning tashqi dunyo bilan munosabatlarning murakkablashishi tufayli o'zgaradi [9].

Har qanday mashg'ulot uning qay darajada tashkil etilganligi bilan baholanadi. Musiqa rahbarining mashg'ulotga nisbatan yondoshuvi bunda juda katta ahamiyat kasb etadi. Xo'sh, agar musiqa rahbariga: «Siz mashg'ulotni qanday tashkil etasiz» deya savol berishsa, u qanday javob bergar bo'lardi. Ehtimol, ushbu savolga javob berar ekan, tajribali musiqa rahbari ham har kimning o'z sirlari, o'zlarining mualliflik texnikasi bo'lishi kerakligini aytadi. Bu shubhasizdir. Ammo musiqani o'rgatishning barcha usullarini avvalo «ijod» so'zida birlashtirish kerak.

Musiqa rahbarining ijodiy qarashlari bolalar bilan olib boriladigan musiqa mashg'ulotlarining yangicha qarashlarva estetik rivojlanish dasturiga aylanishiga yordam berishi mumkin. Musiqa rahbarining ijodiy qobiliyatibolani darslarning musiqiy materiali haqida o'ylashga va cholg'u asboblardan foydalangan holda noan'anaviymashg'ulotlar o'tkazishga, mumtoz cholg'ular bilan tanishishga, musiqiy notalarni chizishga va o'rganishga, bolalar bilan musiqiy kompozitsiyalar yaratishga imkon beradi [10].

XULOSA VA MUNOZARA

Har qanday yangig'oyalar, musiqiy estetik materiallarni taqdim etishning yangi shakllari musiqa mashg'ulotining sifatini oshiradi va bolalarning ijodiy rivojlanishiga turtki bo'ladi. Shuningdek, mashg'ulot jarayonlarida kompyutertexnologiyalaridan ham unumli foydalanish o'rindir. Tadbirlarni yaratish va loyihalashtirish uchun yangi vositalarni va hatto ularni o'tkazish turlarini taklif qilish kerak. Har qanday musiqa rahbari o'z faoliyati davomidainnovatsion multimedia vositalaridan foydalanishi zamon talabiga hamohang bo'ladi. Eng muhimi esa bu vositalar yordamida tashkil etilgan mashg'ulot bolalarning yodida qoladi va o'zgacharoq bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

Ishmuxamedov R.J., M.Yuldashev Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.- T.: «Nihol» nashriyoti, 2013, 2016.-279b.

Norenkov I.P., Zimin A.M. Ta'limda innovatsion texnologiyalar: Darslik.-M.: Ad. MSTU im. N. Bauman, 2012.-336s.

Sergeev I.S. Pedagogik faoliyat asoslari: Darslik. 2019

Liviev A.X. O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik. –T.: Mehnat, 2001.

Sharipova G. Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa o'qitish metodikasi. «Cho'lpon» T.: 2007.

Tursunova X.Qo'shiqlar sehri. – T.:Muharrir,2012.

Mirzahmedov U. «Keling, birga kuylaymiz». – T.:Tafakkur qanoti, 2017.

Mirzahmedov U. «Etti nota qatori ». – T.:, Ilm-ziyo zakovat, 2019.

Mirzahmedov U. «O'ynaymiz va quvnaymiz ». – T Adabiyot uchqunlari 2018.

Dilovar Najmiddinovich Rashidov, Sharofat Amonovna Kadirova, & Ziyoda Abduvositovna Karimova (2022). MEHNAT BOZORIDA TENG SHARTLARDA RAQOBATLASHA OLMAYDIGANLAR, AYNIQSA NOGIRONLARNI ZAXIRALANGAN ISH O'RINLARIGA ISHGA JOYLASHTIRISH MUAMMOLARI. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 2), 281-285.

Rejаметова N. «O'zbek xalq cholg'u asboblari chalishni o'rgatish metodikasi» T. 2015

Dilorom Omonullaeva, «Alifbo qo'shiqlari», «O'qituvchi», Toshkent 2000.

THE USE OF MODERN TEACHING METHODS IN THE PROCESS OF SELF-STUDY

Atamuradova Dilshoda Ravshankulovna,
teacher, Tashkent State Pedagogical University,
<https://orcid.org/0000-0002-8213-5413>

Annotation. In this state, a brief recommendation is given for strengthening theoretical knowledge by the «Project» method during self study of the topic «Open (-open) action and hyperspace functor». The purpose of applying the subject to the «project» method is to teach students to think for themselves, to fully express their thoughts and opinions.

Keywords: independent work, "projects" method, open action, mappings, functor

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ В ПРОЦЕССЕ САМООБУЧЕНИЯ

Атамурадова Дилишода Равшанкуловна,
преподаватель, Ташкентский государственный педагогический университет

Аннотация. В данной статье дана краткая рекомендация по укреплению теоретических знаний методом «Проект» при самостоятельном изучении темы «Открытое (-открытое) действие и функтор гиперпространства». Цель применения темы к методу «проект» - научить учащихся самостоятельно мыслить, полно излагать свои мысли и мнения.

Ключевые слова: самостоятельной работа, метод "проектов", открытое действие, отображения, функтор

MUSTAQIL TA'LIM JARAYONIDA O'QITISHNING ZAMONAVIY USULLARIDAN FOYDALANISH

Atamuradova Dilshoda Ravshankulovna,
o'qituvchi, Tashkent Davlat Pedagogika Universiteti,

Annotatsiya. Ushbu maqolada "Open (-open) action and functor of hyperspace" mavzuni mustaqil ўrganishda "Loyiha" metodi orqali nazariy bilimlarini mustahkamlash uchun qisqacha tavsif berildi. Mavzuni "loyiha" metodiga qo'llashdan maqsad o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, o'z fikr va mulohazalarini to'liq ifodalashga o'rgatishdir.

Kalit so'zlar: Mustaqil ish, "loyiha" metodi, ochiq harakat, akslantirish, funkto

Today, modern teaching methods are widely used in the process of self-study in all higher educational institutions. The use of modern methods leads to high efficiency in the process of self learning. When choosing teaching methods, it is advisable to proceed from the didactic task of each lesson.

While maintaining the traditional form of the lesson, enriching it with techniques that activate the activities of various students will lead to an increase in the level of students' mastery. To do this, the lesson process should be organized rationally, the teacher should increase the interest of students and encourage their activity in the learning process, divide the learning material into small parts, conduct brainstorming, work in small groups, discussion, problem situation. as text, projects, role-playing games and encourage students to independently complete practical exercises.

A brief recommendation is given for strengthening theoretical knowledge by the «Project» method during self study of the topic «Open (-open) action and hyperspace functor».

The «Project» method is an individual or group work of students to collect information, conduct research, and implement work on a specific topic within a given period of time. In this method, students participate in the processes of planning, decision-making, implementation, verification and conclusion, and evaluation of results. Project development can be individual or group, but each project is an agreed result of the joint activity of the study group. In this process, the student's task is to develop a new product or find a solution to another problem within a given time. From the students' point of view, the task should be challenging, and it should be a task that requires students to apply what they already know to other situations.

The project should serve learning, put theoretical knowledge into practice, and create the possibility of self planning, organization and implementation by learners. The purpose of applying the subject to the «project» method is to teach students to think for themselves, to fully express their thoughts and opinions.

Let (G, X, α) be a topological transformations group. For a space X and a group G we put $\exp(G, X) = \{\Phi \in \text{Homeo}(\exp X) : \text{there exists } g \in G \text{ such that } \Phi|_X = g\}$. (1)

Remark 2. For a correct understanding of the definition (1), note that X on formula $\Phi|_X$ must be understood as $X \cong \{\{x\} : x \in X\}$.

Clearly, for the space X , a set $\exp(G, X)$ is a group with respect to the operation of composition of homeomorphisms, and $\exp \alpha_e = \text{id}_{\exp X} \equiv \text{id}_{\exp X}$ is the neutral element of the group $\exp(G, X)$. [1:12]

Lemma 2. For every $F \in \exp X$ and an arbitrary $g \in G$ we have $F \in \langle U_1, \dots, U_n \rangle \Leftrightarrow (\exp g)(F) \in \langle g(U_1), \dots, g(U_n) \rangle$. (2)

Proof follows from the equality $(\exp g)(F) = g(F)$, which holds for every $F \in \exp X$.

Since every $\Phi \in \exp(G, X)$ is a homeomorphism, then the statement of the Lemma 2 can be reformulated for each $\Phi \in \exp(G, X)$. Take arbitrary open set $\langle U_1, \dots, U_n \rangle \subset \exp X$. Then for every $\Phi \in \exp(G, X)$ and $F \in \exp X$ we have

$$\Phi(F) \in \langle g(U_1), \dots, g(U_n) \rangle \Leftrightarrow F \in \langle U_1, \dots, U_n \rangle, \quad (3)$$

where $g = \Phi|_X$. It is clear that the equivalence of (3) generalizes (2).

For a family $\{\gamma\}$ of open coverings of the hyperspace $\exp X$ we define a set

$$O_\gamma = \{\Phi \in \exp(G, X) : \forall F \in \exp X, \exists W \in \gamma, \Phi(F) \in W \Leftrightarrow F \in W\}.$$

We put $N(E) = N_{\exp(G, X)}(\text{id}_{\exp X}) = \{O_\gamma : \gamma - \text{open cover of hyperspace } \exp X\}$.

We need the following statement, the proof of which consists of direct verification.

Lemma 3. The family $N(E)$ is form a system of neighborhoods of the neutral element $E = \text{id}_{\exp X}$ on $\exp(G, X)$. [2: 35]

Let $N(\Phi) = \{O_\gamma : \Phi \in O_\gamma, \Phi \in N(E)\}$, where

$$O_\gamma \Phi = \{\Psi \in \exp(G, X) : \forall F \in \exp X, \exists W \in \gamma, \Psi(F) \in W \Leftrightarrow \Phi(F) \in W\}.$$

Thus, $\exp(G, X)$ getting topological group. Therefore, for α we can define an action $\exp(\alpha) : \exp(G, X) \times \exp X \rightarrow \exp X$ according to the rule.

$(\exp \alpha)(\Phi, F) = \Phi(F)$, $(\Phi, F) \in \exp(G, X) \times \exp X$. In particular, for pairs of the form $(\exp g, F) \in \exp(G, X) \times \exp X$, where $g \in G \subset \text{Homeo}(X)$, we have

$$(\exp \alpha)(\exp g, F) = (\exp g)(F) = g(F), \quad F \in \exp X. \quad (4)$$

From (3) the following important equality follows

$$\Phi(\langle U_1, \dots, U_n \rangle) = \{\Phi(F) : F \in \langle U_1, \dots, U_n \rangle\} = \langle g(U_1), \dots, g(U_n) \rangle \quad (5)$$

for open sets $\langle U_1, \dots, U_n \rangle \subset \exp X$, elements $\Phi \in \exp(G, X)$, and closed sets $F \in \exp X$ and $g = \Phi|_X$.

Let now O_γ be an open neighbourhood of the neutral element E . Then from (4) and (5) follows that

$$(\exp \alpha)(O_\gamma, \langle U_1, \dots, U_n \rangle) = \bigcup_{\Phi \in O_\gamma} \langle \Phi|_X(U_1), \dots, \Phi|_X(U_n) \rangle. \quad (6)$$

Thus, we have proved the following statement, the proof of which is extracted from (6).

Proposition 1. For arbitrary open action $\alpha: G \times X \rightarrow X$ the map $\exp \alpha: \exp(G, X) \times \exp X \rightarrow \exp X$ is open.

Now we prove the openness of the action $\exp \alpha$ under additional conditions.

Proposition 2. For arbitrary open action $\alpha: G \times X \rightarrow X$ and every positive integer n the action $\exp \alpha: \exp(G, X) \times \exp_n X \rightarrow \exp_n X$

(7)

is open.

Proof. Clearly, $|\Phi(F)| = |F| = n$, for every $F \in \exp_n X$ and for all $\Phi \in \exp(G, X)$. Therefore, the map (7) is defined correctly.

On other side, for every $F \in \exp_n X$ and arbitrary $O_\gamma \in \mathcal{N}(E)$ we have

$$O_\gamma F = \{\Phi(F) : \Phi \in O_\gamma\} = (\exp_n X) \cap \left(\bigcup_{F \in W \in \gamma} W \right).$$

But then $F \in \text{int}_{\exp_n X}(O_\gamma F)$. Proposition 2 is proved.

Openness of an action $\alpha: G \times X \rightarrow X$ at Proposition 2 is important.

Example 1. Consider a space (D, τ_D) , in which all single-point sets are closed, and there are n points we say that $d_1, \dots, d_n \in D$, for which the set $\{d_i\}$ is not open, $i = 1, \dots, n$. Consider a group $G_{\{d_1, \dots, d_n\}} = \{g \in \text{Homeo}(D) : g(d_i) = d_j, i, j = 1, \dots, n\}$

with the operation of composition of mappings. Let $\mathcal{A} = \{\gamma\}$ be a family of open coverings of D .

In the set $G_{\{d_1, \dots, d_n\}}$ a topology is introduced using neighborhood systems:

$$O_\gamma(g) = \{h \in G_{\{d_1, \dots, d_n\}} : \forall x \in D, \exists U \in \gamma, g(x) \in U \wedge h(x) \in U\}, \quad g \in G_{\{d_1, \dots, d_n\}}.$$

Thus, $G_{\{d_1, \dots, d_n\}}$ is a topological group. Note that an action $\alpha: G_{\{d_1, \dots, d_n\}} \times D \rightarrow D$ is not open.

Indeed, for an arbitrary open neighborhood O of the neutral element $e = \text{id}_D$ and points $d_i \in D$ a set $Od_i = \{g(d_i) : g \in O\} = \{d_j\}$

is closed, but is not open. Then $\text{int}(Od_i) = \emptyset$ and $d_i \notin \text{int}(Od_i)$, $i, j = 1, \dots, n$.

Now we show that the action $\exp \alpha: \exp(G_{\{d_1, \dots, d_n\}}, D) \times \exp_n D \rightarrow \exp_n D$ also is not open.

Actually, for each neighborhoods O of the neutral element $\text{id}_{\exp D}$ a set

$$O\{d_1, \dots, d_n\} = \{\Phi(\{d_1, \dots, d_n\}) : \Phi \in O\} = \{\{d_1, \dots, d_n\}\}$$

is closed in $\exp D$, but is not open in it. Then $\{d_1, \dots, d_n\} \notin \text{int}(O\{d_1, \dots, d_n\}) = \emptyset$.

For case (weakly) d -open action has the following strengthened variant of Proposition 2.

Proposition 3. For each d -open action $\alpha: G \times X \rightarrow X$ and every positive integer n the action $\exp \alpha: \exp(G, X) \times \exp_n X \rightarrow \exp_n X$ is d -open.

Proof. From the Lemma 1 follows that $[W \cap (\exp_n X)]_{\exp X} = [W \cap (\exp X)]_{\exp X}$ for every open set W in $\exp X$. Hence,

$$\text{int}_{\exp_n X}([W \cap (\exp_n X)]_{\exp X}) = W \cap (\exp_n X).$$

Therefore, for each $F \in \exp_n X$ and arbitrary $O_\gamma \in \mathcal{N}(E)$ we get

$$F \in \text{int}_{\exp_n X}([O_\gamma F]_{\exp X}).$$

Proposition 3 is proved.

Proposition 4. For any weakly d -open action $\alpha: G \times X \rightarrow X$ and each positive integer n the action $\exp \alpha: \exp(G, X) \times \exp_n X \rightarrow \exp_n X$ is weakly d -open.

Proof the proof consists of a small modification of the proof of Proposition 3.

For the action $\exp \alpha : \exp(G, X) \times \exp_n X \rightarrow \exp_n X$ and the set $F \in \exp_n X$ we define a map $(\exp \alpha)_F : \exp(G, X) \rightarrow \exp_n X$ in a standard way, i.e.

$$(\exp \alpha)_F(\Phi) = \Phi(F), \quad \Phi \in \exp(G, X).$$

Proposition 5.

For any n -openness (d -openness) of continuous action (7) is equivalent to openness (d -openness) of the map $(\exp \alpha)_F, F \in \exp_n X$.

Proof. Let the action $\exp \alpha$ be open, $\mu \in \exp X$, a set O is open in $\exp(G, X)$. For any $\Phi \in O$ we have $O\Phi^{-1}\Phi(F) = OF$ and $O\Phi^{-1} \in N(E)$. Thus $\Phi(F) \in \text{int}(O\Phi^{-1}\Phi(F)) = \text{int}(OF)$ and consequently, $(\exp \alpha)_F(O) \subset \text{int}((\exp \alpha)_F(O))$.

If the map $(\exp \alpha)_F$ is open, then $(\exp \alpha)_F(O) = \text{int}((\exp \alpha)_F(O))$ holds for arbitrary $O \in N(E)$. Therefore $\mu \in \text{int}(OF)$.

The d -openness case is established by the same way.

Proposition 6. The action $\exp \alpha$ on $\exp_n X$ is d -open if and only if for any $O \in N(E)$ and $F \in \exp X$ there exists neighbourhood V of F in $\exp_n X$ such that $V \subset \{\Phi W : \Phi \in O\}$ for arbitrary nonempty open in $\exp_n X$ subset $W \subset V$.

Proof. Clearly, the action is d -open at F , if for each $O \in N(E)$ there exists neighbourhood V of the set F in $\exp_n X$ such that for every nonempty open set on $\exp_n X$ subsets $W \subset V$ exists $\Phi \in O$, for which $F \in \Phi W$ (see. [7: 56], remark 4).

Proposition 1 and Lemma 3 [7: 67] imply necessity.

Proposition 7. For an open (a d -open) map $f : X \rightarrow Y$ the map $\exp f : \exp X \rightarrow \exp Y$ also open (d -open).

Proof. It is enough to show that

$$(\exp f)(\langle U_1, \dots, U_k \rangle) \subset \text{int}((\exp f)(\langle U_1, \dots, U_k \rangle)).$$

But, this follows from the fact that the functor $\exp$ preserve the openness of maps [9: 107].

REFERENCES

1. W. Y. Hsiang, Cohomological theory of topological transformation groups. (Mir, Moscow, 1979).
2. G. E. Bredon, Introduction to compact transformation groups. (Academic Press. New York – London, 1972).
3. A. Pelczynski, Linear extensions, linear averagings, and their applications to linear topological classification of spaces of continuous functions. (Mir, Moscow, 1972).
4. R. Haydon, "On a problem of pelczynski: Milutin spaces, dugundji spaces and $ae(0\text{--dim})$," *Studia Math.*, 52 (1974).
5. Атамурадова.Д, Мадраимова А. Топологик фазо базаси. //Илм Сарчашмалари, 2021 йил, № 9, 22-24 б.
6. V. V. Uspenskii, "Topological groups and dugundji compacta," *Matematicheskii. Sornik.* 180 (1989).
7. K. L. Kozlov and V. A. Chatyrko, "Topological groups of transformations and dugunji bicompsacts," *Matematicheskii. Sornik.* 201, 1 (2010).
8. K. L. Kozlov and V. A. Chatyrko, "The maximal g-compactifications of g-spaces with special actions," in *Proc. 9-th Prague Topological Symposium, Topol. Atlas, North Bay, ON, Praga, Vol. – (2002) pp. 15–21.*
9. A. A. Zaitov and D. I. Jumayev, "Hyperspace of the π -complete spaces and maps." *Eurasian Math. J.* 12, 104–110 (2021), <https://doi.org/10.32523/2077-9879-2021-12-2-104-110>.
10. A. A. Zaitov, "The functor of order-preserving functionals of finite degree." *Journal of Mathematical Sciences* 133, 1602–1603 (2006), <https://doi.org/10.1007/s10958-006-0071-4>.
11. R. B. Beshimov, D. N. Georgiou, and N. K. Mamadaliyev, "On τ -bounded spaces and hyperspaces." *Filomat* 36, 187–193 (2022), <https://doi.org/10.2298/FIL2201187B>.
12. S. M. Perovich, S. I. Bauk, and M. D. Jovanovic, "Concerning an analytical solution of some families of nonlinear functional equations," in *AIP Conference Proceedings*, edited by AIP Publishing (2007) pp. 412–415, doi: <http://dx.doi.org/10.1063/1.2790165>.
13. Атамурадова.Д, Хайдарова И. М. Рекомендации по самостоятельному изучению темы «аксиомы отделимости топологических пространств» №61(90) 2021г
14. Д.Р.Атамурадова. Рекомендации по самостоятельному изучению темы «Топологические пространства. Открытые и замкнутые множества». //Научный вестник Ташкентского государственного педагогического университета. 2020, №62, стр. 271-274.

**OLIV TA'LIM TALABALARINING INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR
VA INTERFAOL METODLAR FOYDALANIB MULOQOT KO'NIKLARINI
OSHIRISHNING NAZARIY MASALALARI**

Atamuratova Munira Maxamadiyevna
Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Termiz filiali o'qituvchisi

Annotatsiya: Bugungi tezkor zamonda umumta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li – dars mashg'ulotlarni interfaol metodlar yordamida tashkil etish, deb qaralmoqda. Xo'sh, interfaol metodlarning o'zi nima? Ular qanday didaktik imkoniyatlarga ega? Ona tili ta'limi jarayonida interfaol metodlarning o'rinli, maqsadga muvofiq qo'llanilishi qanday samaralarni kafolatlaydi? Ushbu maqolada ana shu savollarga javob berishga harakat qilamiz.

Kalit so'zlar: interfaol, modul tizimi, innovatsion texnologiya, interfaollik, lingvodidaktika, lingvopedagogika.

**ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНЫХ
НАВЫКОВ СТУДЕНТОВ ВУЗА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИННОВАЦИОННЫХ
ТЕХНОЛОГИЙ И ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ**

Мунира Атамуратова Махамадиевна
Преподаватель Термезского филиала Ташкентской медицинской академии

Аннотация: В современном быстро меняющемся мире наиболее оптимальным способом повышения эффективности общего образования является организация уроков с использованием интерактивных методов. Итак, что такое интерактивные методы? Какие дидактические возможности у них есть? Какие результаты может гарантировать правильное и целенаправленное использование интерактивных методов в процессе обучения родному языку? На эти вопросы мы постараемся ответить в этой статье.

Ключевые слова: интерактив, модульная система, инновационная технология, интерактивность, лингводидактика, лингвopedagogika.

**THEORETICAL ISSUES OF IMPROVING THE COMMUNICATION SKILLS
OF HIGHER EDUCATION STUDENTS USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES AND
INTERACTIVE METHODS**

Munira Atamuratova Makhmadiyevna
Teacher of the Termiz branch of the Tashkent Medical Academy

Abstract: In today's fast-paced world, the most optimal way to increase the effectiveness of general education is to organize lessons using interactive methods. So, what exactly are interactive methods? What didactic possibilities do they have? What results can be guaranteed by the appropriate and purposeful use of interactive methods in the process of mother tongue education? We will try to answer these questions in this article.

Key words: interactive, module system, innovative technology, interactivity, language didactics, language pedagogy.

Kirish. Yuqoridagi savollarga javob topishda dastlabki eng to'g'ri qadam tayanch tushuncha – «interfaol» atamasining lug'aviy ma'nosi bilan tanishishdir. «Interfaol» tushunchasi ingliz tilidagi «interact» (rus tilida «interaktiv») so'zidan olingan bo'lib, lug'aviy nuqtai nazardan «inter» – o'zaro, ikki taraf, «act» – harakat qilmoq, ish ko'rmoq kabi ma'nolarni anglatadi.

Interfaol ta'lim – ishtirokchilarining bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarini o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim.

Interfaollik – ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarini o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklari.

Interfaol metod va topshiriqlarning ta'lim va tarbiya jarayonidagi o'рни va imkoniyatlari: Interfaol metod – ta'lim jarayonida talabalarning hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali talabalarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

Interfaol mashg'ulot samaradorligi sabablari: Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan o'qituvchilari dars mashg'ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq

foydalanmoqdalar.

Mantiqiy nuqtai nazardan interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy sub'ektlarning suhbat (dialog), o'zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatni olib borishlarini ifodalaydi. Ona tili ta'limi mazmunini, o'qitish shakllarining optimal darajada tashkil etishni, barkamol shaxsni shakllantirish nazariyasini turli yangi g'oyalar bilan boyitishni puxta bilishi lozim. Hozirgi vaqtda Ona tili ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta'lim metodlarini tanlashda har bir ona tili darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. O'qitishda chet el tajribasini o'rganish va tadbiq etish nazariy masalalari. O'qitishning interfaol usullaridan foydalanishga asoslangan o'quv jarayoni, barcha o'quvchilarni bilish jarayoniga, istisnosiz, hisobga olishni hisobga olgan holda tashkil etiladi. Birgalikda ishlash degani, har bir kishi o'zining alohida shaxsiy hissasini qo'shadi, ish jarayonida bilim, g'oyalar, faoliyat usullari bilan almashinadi.

Adabiyotlar tahlili. Hozirgi kunda, oliy ta'lim muassasalarida innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda yangi texnologiyada o'qitish orqali chet tili ta'limi sifatini oshirish muammolariga oid ilmiy ishlarda, jumladan, A.Abduqodirov, L.Golish, R.Djurayev, R.Ishmuxamedovlar tomonidan zamonaviy texnologiyalarga alohida ta'rif berilgan, J.Jalolov, N.Muslimov, M.Usmonboyeva va boshqalar tomonidan pedagogik texnologiyalar bo'yicha egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotda qo'llash masalalari o'rganilgan. Xorijlik olimlardan Dj. Dyui, X. Keyrns, Sssyur de F, H.D.Brown, Gardner, R.C and Lambert, Domyei Zolton, J.Hammond, P.Mehisto, D. Marsh, M. J Frigols kabi olimlar tomonidan ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish, muammoli ta'lim masalalari atroflicha o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Innovatsion usullarning mohiyati o'quv jarayonini o'quvchilar fikrlarini ifoda etishlari, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishlari va ularni hal qilishning samarali usullarini topishga yordam beradigan muloqot tarzida tashkil etishdi. Bunday usullar ta'lim darajasini oshirish, o'quvchilarni rivojlantirish, kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida foydalanadigan ko'nikma va qobiliyatlarni shakllantirishga yordam beradi. Umumta'lim tizimida o'quvchilarning "Innovatsion texnologiyalar"ga oid bilimlarini takomillashtirish va ulardan "Innovatsion texnologiyalari" haqida tushunchalarni va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish; o'quvchilarda "Innovatsion texnologiyalarni qo'llash" ga oid nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni tarkib toptirish;

O'quvchilarda innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlar asosida o'quvchilarni muloqot ko'nikmalariga o'qitishning nazariy masalalari "Innovatsion texnologiyalar asosida o'quv jarayonini loyihalashtirish va amalga oshirish" haqidagi nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat. Biz ona tili ta'lim mazmuniga qo'yiladigan davlat talablarini o'rganib, ularni ilmiy jihatdan tahlil qilib, hamda ko'pgina ilmiy tadqiqotlarni o'rganib quyidagi natijaga keldik, biz o'rgangan adabiyotlar, o'quv qo'llanmalar, ma'ruza matnlari va ilmiy izlanishlardan ma'lum bo'lishicha "Innovatsion texnologiyalar" ma'lum ma'noda ko'rib chiqilgan va ko'plab ilmiy izlanishlar olib borish natijasida ko'pgina adabiyotlar yaratilgan. Bugungi kunda fan texnika va innovatsion texnologiyalarning rivojlanishi natijasida o'quv-tarbiya jarayonida innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanib, ona tili ta'limini samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Ona tili ta'lim tizimida zamonaviy texnologiyalar asosida qo'llanilayotgan dars mashg'ulotlardagi muloqot ko'nikmalari egallanayotgan bilimlarni o'quvchilar tomonidan o'zlari qidirib topishlari, mustaqil o'rganib, ularni tahlil qilishlari, o'z bilimlarini o'zlari baholashlari, to'g'ri xulosa chiqarishlariga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga, shuningdek, erkin fikrlab kursdoshlari bilan o'zaro va harakat qilishlariga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchanlik, yo'naltiruvchanlik vazifasini bajaradi. Bunday o'quv tarbiya jarayonida o'quvchi markaziy ishtirokchiga aylanadi. Muammoli bo'yicha ko'plab olimlar, oliy o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilari o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Bu davrda N.N.Azizxo'jaevaning "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" (2006 y.), R.Ishmuxamedovning "Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar" (2013 y) kabi o'quv qo'llanmasi atroflicha o'rganilib, muammolarimiz yechimini topishda ahamiyat kasb etdi. Lingvodidaktika va lingvopedagogika asosida "Ona tili", "O'zbek tili" fanlarini o'qitish metodikasi o'quvchilarning amaliy mashg'ulotlarda o'quv maqsadlarini belgilash, ilg'or pedagogik elementlarini qo'llash, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish hamda nazariy dars va amaliy mashg'ulotlarni samarali o'tkazish bo'yicha bilim, ko'nikma va masalalarni takomillashtirish lozim.

Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan o'qituvchilari dars mashg'ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar. Bu usullarni qo'llash natijasida talabalarining mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi. Bu masalada Amerikalik psixolog va pedagog B.Blum bilish va emotsional sohalaridagi pedagogik maqsadlarning taksonomiyasini yaratgan va bu B.Blumtaksonomiyasi deb nomlanadi (Taksonomiyaborliqning murakkab tuzilgan sohalarini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasi). U tafakkurni bilish qobiliyatlarini rivojlanishiga muvofiq ravishdagi oltita darajaga ajratdi. Unga ko'ra tafakkurning rivojlanishi bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, umumlashtirish, baholash darajalarida bo'ladi. Shu har bir

daraja quyidagi belgilar hamda har bir darajaga muvofiq fe'llar namunalari bilan ham ifodalanadi, jumladan: Bilish-dastlabki tafakkur darajasi bo'lib, bunda o'quvchi atamalarini ayta oladi, aniq qoidalar, tushunchalar, faktlar va shu kabilarni biladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: qaytara bilish, mustahkamlay olish, axborotni etkaza olish, aytib bera olish, yozish, ifodalay olish, farqlash, taniy olish, gapirib berish, takrorlash. Tushunish darajasidagi tafakkurga ega bo'lganda esa, o'quvchi faktlar, qoidalar, sxema, jadvallarni tushunadi. Mavjud ma'lumotlar asosida kelgusi oqibatlarni taxminiy tafsiflay oladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: asoslash, almashtirish, yaqqollashtirish, belgilash, tushuntirish, tarjima qilish, qayta tuzish, yoritib berish, sharhlash, oydinlashtirish. Qo'llash darajasidagi tafakkurda o'quvchi olgan bilimlaridan faqat an'anaviy emas, no'an'anaviy holatlarda ham foydalana oladi va ularni to'g'ri qo'llaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: joriy qilish, hisoblab chiqish, namoyish qilish, foydalanish, o'rgatish, aniqlash, amalga oshirish, hisob-kitob qilish, tatbiq qilish, hal etish. Tahsil darajasidagi tafakkurda o'quvchi yaxlitning qismlarini va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni ajrata oladi, fikrlash mantiqidagi xatolarni ko'radi, faktlar va oqibatlar orasidagi farqlarni ajratadi, ma'lumotlarning ahamiyatini baholaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: keltirib chiqarish, ajratish, tabaqalashtirish, tasniflash, taxmin qilish, bashorat qilish, yoyish, taqsimlash, tekshirish, guruhlash.

Umumlashtirish darajasidagi tafakkurda talabalarning ijodiy ish bajaradi, biror tajriba o'tkazish rejasini tuzadi, bir nechta sohalaridagi bilimlardan foydalanadi. Ma'lumotni yangilik yaratish uchun ijodiy qayta ishlaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: yangilik yaratish, umumlashtirish, birlashtirish, rejalashtirish, ishlab chiqish, tizimlashtirish, kombinastiyalashtirish, yaratish, tuzish, loyihalash. Baholash darajasidagi tafakkurda talabalarning til bilish mezonlarni ajrata oladi, ularga rioya qila oladi, mezonlarning xilma-xilligini ko'radi, xulosalarning mavjud ma'lumotlarga mosligini baholaydi, faktlar va baholovchi fikrlar orasidagi farqlarni ajratadi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: tashxislash, isbotlash, o'lchash, nazorat qilish, asoslash, ma'qullash, baholash, tekshirish, solishtirish, qiyoslash. Interfaol usullar ko'p turli bo'lib, ularning hammasi ham har qanday progressiv usullar kabi eng avvalo, o'qituvchidan dars mashg'ulot oldidan katta tayyorgarlik ko'rishni talab qiladi.

Ravshan Ishmuxamedovning "Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar" o'quv qo'llanmasida esa, xalq ta'limi tizimida faoliyat olib borayotgan maktab o'qituvchilari pedagogik mahorat va innovatsion texnologiyalar zamonaviy muammolari ochib berilgan. Maktabda o'qishni tashkil qilish shakllari va metodlariga zamonaviy talablar hamda o'quvchilarning bilim olish faoliyatlari chuqur o'rganilgan.

Innovatsion texnologiya tushunchasiga berilgan ta'riflar xilma-xil bo'lib, ular quyidagicha ta'riflanadi:

- Innovatsiya (inglizcha innovation) yangilik kiritish, yangilash nimanidir o'zgartirish demakdir.

Innovatsion texnologiyalar, ilmiy-nazariy asoslariga alohida e'tibor qaratilgan, ishlab chiqilgan pedagogik texnologiyalar berilgan. Innovatsion texnologiyalarni ona tili ta'lim mazmuni amaliyotiga tatbiq etsak, aniq foydalanish tahlil, o'qituvchining pedagogik mahorati bilan bog'langan. "Texnologiya" atamasi yunoncha so'z bo'lib, "techné" - mahorat, san'at va "logos" - tushuncha, o'rganishni anglatadi. Demak, texnologiya-hunar, san'at ma'nosini bildiradi va jarayonlarni amalga oshirish usullari hamda vositalari haqidagi bilimlar yig'indisi, shuningdek ob'ektda sodir bo'ladigan sifat o'zgarishlar tushuniladi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar ona tili ta'lim mamunida, ta'lim tizimi, pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritishni anglatib, bu jarayonni amalga oshirishda asosan interfaol uslubdan foydalaniladi. Bu ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyati hamda ularning o'zaro ta'sirini inobatga olib o'qitish va bilim o'zlashtirishning barcha jarayonlarini aniqlash, yaratish va qo'llashning tizimli usulidir (YUNESKO)

Modul tizimi – mazmuniy va mantiqiy mazmunga ega bo'lgan didaktik jixatdan ishlab chiqilgan natijaga qaratilgan, kirish va chiqish nazoratlaridan iborat bo'lgan birlik. Modul ta'lim tushunchasi 1971 yili M.Rassel tomonidan kiritilgan. Modul ma'lum bir mutaxassislikka tegishli bo'lgan bir qancha o'quv predmetlarni o'zida mujassamlashtiruvchi fanlararo tizim bo'lib, nisbatan mustaqil mantiqiy yakunga ega bo'lgan o'quv kursining bo'lagidir

Xulosa. Modul tizimining ijobiy tomoni uni egiluvchanligi, ijodiy yondashuvchanligi, mantiqan tugallangan va o'zaro o'rin bosarligidir. Bu tizimda, bilim olish o'quvchilar tomonidan qulay vaziyatda yuqori saviyada kam xarajat, oz vaqt sarflab o'zlashtirishga olib keladi. O'qituvchilar uchun qulay tez moslanuvchan, o'zgartirishga qulay, vaqt tejaladigan o'quv-uslubiy tizim, tejalgan vaqtni maslaxat faoliyatiga yo'naltiriladi. Ta'lim muassasasi esa etarli miqdorda zamonaviy bilimga ega bo'lgan iqtidorli o'quvchilarni etishtiradi.

Modul tizimining yutug'i shundaki, ta'lim jarayonining har bir pog'onasida asosiy ta'lim tizimi sifatida yoki mavjud tizim bilan birgalikda qo'llash mumkin.

Foydalangan adabiyotlar.

1. Jalolov J. Ingliz tili o'qitish metodikasi. Toshkent "O'qituvchi" 1998.
2. Axmedova M.E. Talabalarda mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirishning metodik xususiyatlari // O'zbekiston til va madaniyat. Metodika jurnali. T. – Toshkent, 2022. - №6(4). -B. 70-81.
3. Axmedova M.E. Kredit tizimida mustaqil topshiriqlar // TIL VA ADABIYOT TA'LIMI jurnali. -Toshkent, 2022. №6. - B 18-20. (13.00.00; №8).
4. Akhmedova M.E. Foreign experience in the transition to a credit-module system // Principles of development of linguistic-speech competence of students in independent education // Current Research Journal of Philological Sciences (2767-3758). №3(01). - R. 46–57 (13.00.00; №23). Journal Impact Factor 6,925
5. Akhmedova M.E. Research and application of textbooks in tutorials and manuals of higher education // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. - Xindiston, 2022. – P. 165- 172. Vol. 12, Issue 01. (13.00.00; №20). (13.00.00; №23). Journal Impact Factor 8,037
6. Makhamadievna A. M. Effective Teaching English Language to Non-Linguistic Students by Using Project Based-Learning //The Peerian Journal. – 2022. – T. 6. – C. 48-51.
7. Makhamadievna A. M. Theoretical Issues of Improving the Communication Skills of Higher Education Students Using Cultural and Pragmatic Aspects Based On Innovative Technologies and Interactive Methods // Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – T. 2. – №. 2. – C. 299-301.

BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA QALAMTASVIR VA RANGTASVIR O'QUV XONASINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

*Azimov Sanjar Samadovich,
Buxoro davlat universiteti dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya: maqola tasviriy san'at o'qituvchilarining qalamtasvir va rangtasvir xonalarini qanday jixozlanishi mavzusini ochib beradi - tasviriy san'at oid ko'rgazmali qurollarning mobilligi, qalamtasvir va rangtasvir xonasiga o'quvchilar o'rindiqlarining mobilligini, ishlatiladigan o'quv qurollarini va talabalarining tugallanmagan ijodiy ishlarini saqlab turish imkonini, naturachilar uchun qulay o'rindiqlar, xonadagi mebel va jihozlarning vazifaligi, molbertlarning qulay tuzilmasi va ularni saqlash holatini o'qituvchi tomonidan nazorat qilish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: qalamtasvir, rangtasvir, natyurmort, sofit, tasviriy san'at, o'qituvchi, talaba, molbert.

СПЕЦИФИКА ЗАНЯТИЙ РИСУНКА И ЖИВОПИСИ В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА

*Азимов Санжар Самадович,
доцент Бухарского государственного университета, доктора философии (PhD) по педагогических наук*

Аннотация: в статье раскрывается тема того, как учителя рисования обустривают кабинеты рисования и живописи - мобильность художественных наглядных пособий, мобильность кресел учащихся в кабинете рисования и живописи, используемые средства обучения и позволяет учащимся сохранить незавершенный творческий процесс. произведений, удобные сиденья для художников, функциональность мебели и оборудования в зале, удобная конструкция мольбертов, контроль преподавателя за их сохранностью.

Ключевые слова: рисунок, живопись, натюрморт, софит, изобразительное искусство, учитель, ученик, мольберт.

SPECIFIC ASPECTS OF THE DRAWING AND PAINTING CLASSROOM IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCES OF FUTURE VISUAL ARTS TEACHERS

*Azimov Sanjar Samadovich,
Associate Professor of Bukhara State University, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences*

Abstract: the article reveals the topic of how art teachers equip drawing and painting rooms - the mobility of art visual aids, the mobility of student seats in the drawing and painting room, the used teaching aids and students' it allows to preserve the unfinished creative works, comfortable seats for artists, functionality of the furniture and equipment in the room, convenient structure of the easels, and the teacher's control over their storage condition.

Key words: pencil drawing, painting, still life, sofit, fine art, teacher, student, easel.

Yechim: Odamlar o'z fikrlari va his-tuyg'ularini ifoda eta oladigan xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi muhit yarating. Jamoa a'zolari o'rtasida empatiya va tushunishni rag'batlantirish. Hissiy to'siqlarni bartaraf etish uchun mojarolarni hal qilish bo'yicha treningni taklif qiling.

Axborot yuklanishi:

Xususiyat: Haddan tashqari ma'lumot qabul qiluvchini to'ldiradi, bu esa tushunish va saqlashning pasayishiga olib keladi.

Yechim: Ma'lumotga ustuvorlik bering va asosiy xabarlarga e'tibor qarating. Ma'lumotni tuzilgan va tashkiliy tarzda taqdim eting. Tushunishni kuchaytirish uchun ko'rgazmali qo'llanmalar yoki multimedia vositalaridan foydalaning. Muloqotdan keyin ma'lumot uchun yozma materiallar yoki yozuvlarni taqdim eting.

Fikr-mulohaza etishmasligi:

Xarakterli: fikr-mulohazalarning yo'qligi yoki cheklangan ikki tomonlama aloqa, natijada aniqlik va tushunishning etishmasligi.

Yechim: ochiq muloqot kanallarini va faol fikr-mulohazalarni rag'batlantirish. Odamlarga savollar berish, tushuntirishlar izlash va o'z fikrlarini baham ko'rish imkoniyatini yarating. Konstruktiv fikr-mulohazalar qadrlanadigan va unga amal qiladigan fikr almashish madaniyatini o'rnatish.

Har bir muloqot muammosini alohida baholash va yechimlarni muayyan kontekst va jalb qilingan shaxslarga moslashtirish muhimdir. Ochiq va uzluksiz muloqot, muammolarni zudlik bilan hal qilish istagi bilan birga, aloqa muammolarini samarali hal qilishga yordam beradi.

Muloqot muammolariga yechim topishda ma'lum xususiyatlar ularning samaradorligiga hissa qo'shishi mumkin. Yechimlarni izlashda e'tiborga olish kerak bo'lgan ba'zi asosiy xususiyatlar:

Faol tinglash: Samarali yechimlar barcha ishtirokchilarning tashvishlari va istiqbollarini faol tinglashni talab qiladi. Faol tinglash to'liq diqqatni jamlashni, aniq savollar berishni va hamdardlik ko'rsatishni o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuv tushunishni rivojlantirishga yordam beradi va muammolarni samarali hal qilishga yordam beradi.

Ochiq muloqot: Ochiq muloqotni rag'batlantiradigan muhitni yaratish juda muhimdir. Shaxslarga o'z fikrlari, tashvishlari va g'oyalarini hukm yoki qatag'ondan qo'rqmasdan erkin ifoda etishiga ruxsat berish ishonch va hamkorlikni rivojlantiradi. Fikr-mulohaza uchun kanallarni yaratish va har bir kishi o'z nuqtai nazarini baham ko'rishni qulay his qilishini ta'minlash muhimdir.

Moslashtirilgan yondashuvlar: Muloqot muammolari juda xilma-xil bo'lishi mumkin va bitta o'lchamdagi barcha echimlar samarali bo'lmaydigan. Muayyan muammo va jalb qilingan shaxslarga yechimlarni moslashtiring. Madaniy farqlar, individual muloqot uslublari va ko'rib chiqilayotgan muammoning tabiati kabi omillarni ko'rib chiqing. Yondashuvni moslashtirish muammoning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqadigan yechim topish imkoniyatini oshiradi.

Empatiya va tushunish: Samarali yechimlar boshqalarning nuqtai nazari va tajribasini tushunish uchun chin dildan harakat qilishni talab qiladi. O'zingizni boshqa odamning o'rniga qo'yib, uning his-tuyg'ulari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda empatiyani mashq qiling. Ushbu empatik yondashuv o'zaro tushunish tuyg'usini rivojlantirishga yordam beradi va muammolarni yanada hamkorlikda hal qilishga olib keladi.

Muammolarni hamkorlikda hal qilish: Yechimlarni topish jarayoniga barcha tomonlarni jalb qilish. Ochiq muloqotni, faol ishtirokni va aqliy hujumni rag'batlantirish. Barcha manfaatdor tomonlarni jalb qilish orqali siz yanada kengroq va samarali yechimlarga olib keladigan turli nuqtai nazar va

tushunchalarga ega bo'lishingiz mumkin. Birgalikda muammolarni hal qilish kelishilgan yechimlarga egalik va sadoqat hissini rivojlantiradi.

Moslashuvchanlik va moslashuvchanlik: Muloqot muammolari eng yaxshi yechimni topish uchun tajriba va tuzatishlarni talab qilishi mumkin. Turli yondashuvlarni sinab ko'rishga, fikr-mulohazalarni izlashga va yo'lda kerakli moslashuvlarni amalga oshirishga ochiq bo'ling. Moslashuvchanlik iterativ muammolarni hal qilishga imkon beradi va muvaffaqiyatli yechim topish ehtimolini oshiradi.

Doimiy takomillashtirish: Muloqot dinamik jarayon bo'lib, dastlabki echimlar amalga oshirilgandan keyin ham muammolar paydo bo'lishi mumkin. Amalga oshirilgan yechimlarning samaradorligini muntazam ravishda baholash orqali doimiy takomillashtirish fikrini qabul qiling. Fikr-mulohazalarni rag'batlantirish va yuzaga keladigan muammolarni zudlik bilan hal qiling. Doimiy o'rganish va moslashish orqali siz muloqotda doimiy yaxshilanish muhitini yaratishingiz mumkin.

Muloqot muammolari murakkab bo'lishi mumkin va echimlarni topish vaqt, sabr va hamkorlikni talab qilishi mumkin. Ushbu xususiyatlarni hisobga olgan holda, siz aloqa muammolariga samarali va doimiy echimlarni topish imkoniyatini oshirishingiz mumkin.

O'quvchilar o'rtasida muloqot qilish imkoniyatini yaxshilash ta'limda inklyuzivlik va teng imkoniyatlarni rag'batlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Muloqotga kirishda duch keladigan muammolarni bartaraf etishning ba'zi usullari:

Sarlavhalar va transkriptlarni taqdim etish: subtitrlar xizmatlaridan foydalaning yoki ma'ruzalar, videolar va audio materiallar uchun transkriptlarni taqdim etish. Bu eshitish qobiliyati zaif o'quvchilarning kontentdan samarali foydalanishini ta'minlaydi.

Yordamchi texnologiyalardan foydalanish: ko'rish yoki jismoniy nuqsonlari bo'lgan talabalar bilan muloqotni osonlashtirish uchun ekranni o'qish dasturlari, matndan nutqqa dasturiy ta'minot va muqobil kiritish qurilmalari kabi yordamchi texnologiyalardan foydalaning.

Universal Design for Learning (UDL) ni tatbiq etish: UDL eng keng doiradagi o'quvchilarni qamrab olish uchun boshidanoq o'quv materiallari va tadbirlarni loyihalashni o'z ichiga oladi. U turli xil o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash uchun ko'plab vakillik, harakat va ifoda vositalarini taqdim etishga va jalb qilishga qaratilgan.

Inklyuziv sinf muhitini yaratish: ochiq muloqotni va turli xil muloqot uslublarini hurmat qilishni rag'batlantirish. Talabalar orasida faol tinglashni, sabr-toqatni va tushunishni targ'ib qiling, bunda har bir kishi o'zini erkin his qiladigan inklyuziv muhit yaratish.

Ko'rgazmali qo'llanmalar va multimedia vositalaridan foydalanish: o'rganish uslublari turlicha bo'lgan yoki til to'siqlari bo'lgan o'quvchilar uchun muloqot va tushunishni yaxshilash uchun ko'rgazmali qo'llanmalar, diagrammalar va multimedia taqdimotlarini qo'shish.

Muqobil formatlarni taqdim etish: Kurs materiallarini elektron hujjatlar, katta hajmli bosma nashrlar, Brayl alifbosi yoki mavjud PDF-fayllar kabi bir nechta formatda taklif qiling. Bu ko'rishda yoki o'qishda qiyinchiliklarga duch kelgan talabalarga ma'lumotlarga samarali kirish imkonini beradi.

Tengdoshlar bilan hamkorlikni rag'batlantirish: inklyuziv muloqotni rivojlantirish uchun guruh ishini va tengdoshlar bilan hamkorlikni rag'batlantirish. Turli kuch va qobiliyatlarga ega bo'lgan o'quvchilarni birlashtirish ularga bir-biridan o'rganish va muloqot ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi.

Muloqotni qo'llab-quvvatlash xizmatlarini taklif etish: Eshitish qobiliyati zaif yoki boshqa aloqa to'siqlari bo'lgan talabalar uchun imo-ishora tili tarjimonlari yoki eslatmalar kabi aloqani qo'llab-quvvatlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini taqdim etish.

O'qituvchilar va xodimlarni o'qitish: Inklyuziv aloqa strategiyalari va yordamchi texnologiyalar bo'yicha o'qituvchilar va xodimlarga treninglar va seminarlar taklif qiling. Bu ularga o'quvchilarni muloqotga kirishish ehtiyojlari bilan samarali qo'llab-quvvatlash imkonini beradi.

Muntazam ravishda baholang va moslashtirish: Aloqa imkoniyatini oshirish choralari samaradorligini doimiy ravishda baholang va talabalar va xodimlarning fikr-mulohazalari asosida kerakli tuzatishlarni kiriting. Amaliyotlaringizni muntazam ravishda ko'rib chiqish va takomillashtirish doimiy yaxshilanishni ta'minlashga yordam beradi.

O'quvchilaringizning o'ziga xos ehtiyojlari to'g'ri qondirilishini ta'minlash uchun foydalanish imkoniyati va nogironlik bo'yicha xizmatlar bo'yicha mutaxassislar bilan maslahatlashish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Irisboyeva Yo. U. Talabalarning bolalar bilan o'zaro munosabatga kasbiy pedagogik tayyorgarliklarini takomillashtirish. <https://interscience.uz/index.php/home/article/view/1240>

MATHCAD DASTURIDA ALGEBRAIK MASALALARNI YECHISH.

Jo'rayev Husniddin Oltinboyevich
Buxoro davlat universiteti, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ubaydulloyev Alisher Nematilloevich
Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

РЕШЕНИЕ АЛГЕБРАИЧЕСКИХ ЗАДАЧ В ПРОГРАММЕ MATHCAD.

Джураев Хусниддин Олтинбоевич
Бухарский государственный университет, доктор педагогических наук (DSC), профессор

Убайдуллоев Алишер Нематиллоевич
Независимый исследователь Бухарского государственного университета

SOLVING ALGEBRAIC PROBLEMS IN THE MATHCAD PROGRAM.

Juraev Husniddin Oltinboevich
Bukhara State University, Doctor of Pedagogical Sciences (DSC), professor

Ubaydullov Alisher Nematilloevich
Independent researcher at Bukhara State University
orcid.org/0000-0002-4219-5155

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda talabalarning kasbiy kompetentligini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish muammolari tahlil qilingan. Bundan tashqari maqolada talabalarning kasbiy kompetentligini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirishda kerak bo'ladigan metod, usul va ularning shakllari keltirilgan. Mathcad dasturi orqali algebraik masalalarni yechish usullari keng yoritib berilgan bo'lib, ushbu maqoladan oliy ta'lim muassasasi talabalari hamda professor-o'qituvchilari foydalanishlari mumkin.

Аннотация: В данной статье проанализированы проблемы развития профессиональной компетентности студентов сегодня на основе цифровых технологий. Кроме того, в статье представлены методы, приемы и их формы, необходимые при развитии профессиональной компетентности студентов на основе цифровых технологий. Методы решения алгебраических задач с помощью программы Mathcad широко освещены, и эта статья может быть использована студентами и преподавателями высших учебных заведений.

Abstract: This article analyzes the problems of the development of professional competence of students today on the basis of digital technologies. In addition, the article presents methods, techniques and their forms necessary for the development of professional competence of students based on digital technologies. Methods of solving algebraic problems using the Mathcad program are widely covered, and this article can be used by students and teachers of higher educational institutions.

Kalit so'zlar: Massiv, matritsa, operator, vektor, funksiya, element, satr, ustun, determinant, transponirlash, kompleks, dastur, mathcad, skalyar, son, ko'paytma, texnologiya, muammo.

Ключевые слова: Массив, матрица, оператор, вектор, функция, элемент, строка, столбец, определитель, транспонирование, комплекс, программа, Mathcad, скаляр, число, умножение, технология, задача.


Keywords: Array, matrix, operator, vector, function, element, row, column, determinant, transposition, complex, program, Mathcad, scalar, number, multiplication, technology, task.

O'zgaruvchilar ham skalyar sonlar kabi massivga ega. Massivni aniqlash ham o'zgaruvchilarga skalyar qiymatlarni berganimizdek avval o'zgaruvchining nomi yoziladi va : qo'yiladi keyin massiv kiritiladi (Vektor yoki Matritsa). Masalan 3 elementli v vektorni aniqlash uchun quyidagi ishlar bajariladi.

bo'sh satrda v vektorni kiritamiz $V := \bullet$ ko'rinishda.

Insert bo'limidan Matrix... ni tanlaymiz yoki [Ctrl+M] tugmasini bosamiz yoki Matematik belgilar panelidan matritsa belgisini tanlaymiz natijada muloqot oynasi hosil bo'ladi.

Satr va ustun elementlar sonini kiritib ok tugmasini bosib vektor yoki matritsa hosil qilinadi.



1-rasm. Matritsa va Vektorni tasvirlash.

Massivni hosil qilganimizdan keyin uning elementlarini Tab tugmasi orqali to'ldirib chiqamiz.

Massivni hosil qiladi.

Satr yoki ustun joylashtradi

Satr yoki ustunni o'chiradi.


Bekor qiladi.

Massiv elementlariga murojaat qilish uchun quyi chegarani ishlatamiz, uning alohida ustunlariga murojaat qilish uchun yuqori chegaradan foydalanamiz. Quyi chegara [bilan yuqori chegara [Ctrl+6] tugmalari yordamida chiqariladi. Masalan yuqoridagi misolda $V_0=3$, $A_{1,1}=2$, $A_1=$ ga teng bo'ladi. Bazi massiv elementlariga qiymat berilmasligi ham mumkin. Masalan X ga qiymat bermasdan X_3 ga qiymat berilsa X_0 , X_1 , X_2 lar 0 qiymat qabul qiladi. Agar massivlarni e'lon qilishdan oldin $ORIGIN=0$ deb yozsak massiv elementlarini tartiblashni 0 dan boshlaydi. Agar $ORIGIN=1$ deb yozsak massiv elementlarini tartiblashni 1 dan boshlaydi. Massiv elementlari 100 dan ortiq bo'lsa uni 1- rasmida keltirilganidek aniqlab bo'lmaydi. Buning uchun "augment" yoki "stack" funksiyalaridan foydalanish mumkin yoki diskret argumentlar yordamida aniqlash mumkin.

2-rasm. Massivni augment va stack funksiyalari yordamida birlashtirish va diskret argument orqali aniqlash.

yuqoridagi misolda $V_0=3$, $A_{1,1}=2$, $A^1=\begin{pmatrix} 2 \\ 2 \end{pmatrix}$ ga teng bo'ladi. Bazi massiv elementlariga qiymat

berilmasligi ham mumkin. Masalan X ga qiymat bermasdan X_3 ga qiymat berilsa X_0 , X_1 , X_2 lar 0 qiymat qabul qiladi. Agar massivlarni e'lon qilishdan oldin $ORIGIN=0$ deb yozsak massiv elementlarini tartiblashni 0 dan boshlaydi. Agar $ORIGIN=1$ deb yozsak massiv elementlarini tartiblashni 1 dan boshlaydi. Massiv elementlari 100 dan ortiq bo'lsa uni 1- rasmida keltirilganidek aniqlab bo'lmaydi. Buning uchun "augment" yoki "stack" funksiyalaridan foydalanish mumkin yoki diskret argumentlar yordamida aniqlash mumkin.



2-
rasm.

Massivni augment va stack funksiyalari yordamida birlashtirish va diskret argument orqali aniqlash.

Bazi Mathcad dagi operatorlar matrisa va vektorlarni o'zgartirish uchun muhimdir. Bu operatorlarning ko'pi simvollaridan iborat va jadval ko'rinishda keltiramiz

Amal	Ko'rinishi	Klavish	Manosi
Matrisani skalyar songa ko'paytirish	$A \cdot n$	*	A ning har bir elementi n ga ko'paytiriladi

$$F(4)_{2,2} = -4 \quad F(4)^{<2>} = \begin{pmatrix} 4 \\ -4 \end{pmatrix}$$

Matrisa va vektor elementlarini saralash.

sort(V)	V- vektor elementlarini o'sib borish tartibida joylashtirish.
reverse(V)	V- vektor elementlarini kamayib borish tartibida joylashtirish.
csort(M,n)	M-matrisa n-qator elementlarini saralash
rsort(M,n)	M-matrisa n- ustun elementlarini saralash

V vektor elementlarini o'sib borish tartibida joylashtirish $V := \begin{pmatrix} 3 \\ 1 \\ 0 \end{pmatrix} \quad \text{sort}(V) = \begin{pmatrix} 0 \\ 1 \\ 3 \end{pmatrix}$		ORIGIN $\equiv$ 1 $+ \quad M := \begin{pmatrix} 2 & 6 & 7 & 8 \\ 5 & 4 & 1 & 9 \\ 6 & 3 & 5 & 2 \end{pmatrix}$	
M matrisani 3-ustun elementlarini saralash $\text{csort}(M, 3) = \begin{pmatrix} 5 & 4 & 1 & 9 \\ 6 & 3 & 5 & 2 \\ 2 & 6 & 7 & 8 \end{pmatrix}$		Matrisani 2- qator elementlarini saralash $\text{rsort}(M, 2) = \begin{pmatrix} 7 & 6 & 2 & 8 \\ 1 & 4 & 5 & 9 \\ 5 & 3 & 6 & 2 \end{pmatrix}$	

7-rasm Matrisa va vektor elementlarini saralash.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, bugungi kunda raqamli texnologiyalar barcha sohalarga kirib bordi. Shu nuqtai nazardan ta'lim tizimida talabarning kasbiy kompetentligini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish ta'limning sifati hamda samaradorligini oshiradi.

Ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanib bo'lajak mutaxassislarining yetuk kadr bo'lib yetishishida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, ta'lim muassasalaridagi auditoriyalari o'n yil avvalgilaridan juda katta farq qiladi va sinf xonalari kompyuterlar, iPad, planshetlar, smart-doskalar va boshqa turdagi raqamli ta'lim texnologiyalari bilan jihozlangan.

Bunday zich raqamli muhitga ega bo'lish va u bilan doimiy o'zaro munosabat natijasida bugungi kun talabalarining fikrlashi va axborotlarga ishlov berish jarayonlari oldingi fikr yuritish va axborot jarayonlaridan tubdan farq qilmoqda. Raqamli avlod ota-onalarimiz o'rgangan uslubda o'qitilishi mumkin emas va bo'lmazligi ham kerak.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan innovatsion ta'lim texnologiyalari va didaktik modellarni ommaviy va samarali qo'llash orqali ta'lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- Бем, Н.А. Применение электронных образовательных ресурсов в условиях перехода на новые ФГОС общего образования // Информатика и образование. – 2013. – №7. – С. 20 – 23.
- Босова, Л.Л. Программа по учебному предмету «Информатика» для 7 – 9 классов. Л.Л. Босова, А.Ю.Босова – Москва: БИНОМ. Лаборатория знаний, 2013.
- Bulutli texnologiya //Wikipedia https://ru.wikipedia.org/wiki/Облачные_вычисления/ Tuesday, 12 Dec 2018 14:21:44.
- Зверева Ю. С. Информатизация высшего образования // Проблемы и перспективы. 2016. № 6-2 (85). С. 63–66.
- Суарес М. Опыт применения отечественных ERP-систем в строительстве // Системы автоматизации предприятия, 11.02.2008
- Juraev Kh. Ways of using educational materials on alternative energy sources at natural lessons// European science review. – Austria, 2018. №6-2. –Pp. 177-180.
- Jo'rayev H.O., Quliyeva Sh.H. va boshq. Texnik ijodkorlik va dizayn. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Turon Zamin Ziyo, 2015. – 240 b.
- Qahhorov S.Q., Juraev H.O. Modeling of heat-physical processes in solar dryers//Journal of Critical reviews. –Kuala Lumpur, 2020. № 7. – Pp. 9–15.
- Khazratov F., Juraev Kh. METHODS OF CREATION AND ORGANIZATION OF WORK, TECHNOLOGY FOR CREATING AUTO-NAVIGATION MAPS [Электронный ресурс]: URL: <http://www.jcreview.com/?mno=9704>
- Xodjiyev S, A.Ubaydulloyev Jurayeva N.O. Funksiya grafigi yordamida uning xossalari o'rganish bo'yicha ayrim metodik tavsiyalar ERUS Scientific Journal №4 2022/4, -106-116 bet <http://erus.uz/index.php/er/article/view/16>
- Ubaydulloyev A.N. Methodology for Developing Professional Competence of Students Using Digital Technologies in Practical Training. Journal of Survey in Fisheries Sciences (SFS) 10(2S) 1355-1362, ISSN: 2368-7487, 2023. url: <https://sifisheriesciences.com/>

FIZIKANI KASBGA YO'NALTIRIB O'QITISH JARAYONIDA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Jumayeva Ziyoda Arslonovna
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji yo'nalishlarida fizikani kasbga yo'naltirib o'qitish jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodikasi haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Kasbga yo'naltirib o'qitish, pedagogik texnologiya, fizika, metodika, muhandislik kommunikatsiyalari.

МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПЕРЕДОВЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕССЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ ФИЗИКЕ

Джумаева Зиёда Арслоновна
Преподаватель Ташкентского архитектурно-строительного университета

Аннотация: В данной статье представлена информация о методике использования передовых педагогических технологий в процессе обучения физике в сферах строительства и монтажа инженерных коммуникаций.

Ключевые слова: Профессиональное обучение, педагогическая технология, физика, методика, инженерные коммуникации.

METHODOLOGY OF USING ADVANCED PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE PROCESS OF TEACHING PHYSICS FOR PROFESSION

Jumayeva Ziyoda Arslonovna
Teacher of Tashkent University of Architecture and Construction

Abstract: This article provides information on the methodology of using advanced pedagogical technologies in the process of teaching physics in the fields of construction and assembly of engineering communications.

Key words: Vocational training, pedagogical technology, physics, methodology, engineering communications.

KIRISH. Mamlakatimizda so'nggi yillarda oliy ta'lim tizimini takomillashtirishning hozirgi axborotlashgan bosqichida, fizika fanini o'qitish texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari sezilarli darajada ortib bormoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoniga asosan "2026 yilga qadar 10 ta salohiyatli oliy ta'lim muassasasini QS va TNE xalqoro reytinga kirishga maqsadli tayyorlash, 2026-yilgacha nodavlat oliy ta'lim muassasalari sonini kamida 50 taga yetkazish" ustuvor vazifa sifatida belgilangan [1]. Shu munosabat bilan oliy ta'lim muassasalarida fizikani o'qitishning innovatsion imkoniyatlari tobora ortib borib, turli sohalarida fizika o'qitish metodlari: o'quv materiallarini mazmunini tushunish, qayta ishlash samaradorligining sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishi mumkin bo'lgan ilmiy, ta'limiy va kelgusidagi kasbiy faoliyati bilan integratsiyalashtirilishi muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, joriy vaqtda muhandislik sohasidagi kasb-hunar kollejlari va universitetlarda mutaxassislar tayyorlanadi. Bu sohada mutaxassislar keng qobiliyat va bilimni olishi, amaliyoti uchun ko'p va turli xil kasblariga yoki o'ziga xos texnologiyalarga ega bo'lishi kerak. Shuningdek, muhandislik sohasidagi mutaxassislar kasb-hunar kollejlari va universitetlarda fizika darsi bo'yicha yetakchi kurslardan o'tishadi. Fizika fanining o'qitish jarayonida talabalarning muhandislik qobiliyatlarini rivojlantirish juda muhimdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Texnologiya tushunchasi 60-yillarda Amerika va G'arbiy Yevropada ta'limni isloh qilishi bilan bog'liq ravishda kirib keldi. B.Blui, J.Koroll, P.Ya.Galperin, V.I.Davdov, N.A.Menchinskaya, Z.I.Kalmkova, L.I.Zankov texnologiyalari mashhur. O'qitishni tashkil qilinishning texnologik yondashuvlari V.P.Bespalko, N.F.Talzina, L.M.Fridman, Yu.N.Kulyutkina, G.S.Suxobskoy, T.V.Kudryavsev, A.M.Matyushkin, M.I.Maxmutov kabi aksariyat psixolog va didaktikachilarga taalluqlidir.

Texnologik yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatadiki, aksariyat o'qitish texnologiyalari bo'sh texnologiyalanganligi bo'yicha qolib ketmoqda. Bir qator texnologiyalarda nazariy asoslar kuchaytirilgan, amaliy tomoni u qadar oydinlashtirilmagan.

T.A.Ballo texnologiyaning bir tomonini, ya'ni o'qitishda topshiriqli yondashuvni yoritadi. Boshqalarida yo kompyuter orqali dasturlashtirilgan o'qitish yoki o'qitish muammoli tuzilmasi ajralib turadi.

L.V.Zankov, T.Ya.Galperin, V.I.Davidov tadqiqotlarida bosqichli o'qitishning yaxlit texnologiyalari haqida fikr yuritiladi.

1. Pedagogik texnologiyada hali ko'p aniqlanmagan masalalar bor. Bu muammoni tadqiq etish

o'qitish texnologiyasining tushunchasi metodologik mohiyatini aniqlash bilan bog'liq.

Pedagogik texnologiya o'ziga xos va potensial yaratiladigan pedagogik natijalarga erishish uchun pedagogik tizimning barcha tashkiliy tomonlariga aloqador nazariy va amaliy (ta'lim tizimi doirasida) tadqiqotlar sohasi sifatida belgilanadi.

Pedagogik texnologiya mohiyatini yoritish uchun pedagog-didaktikachilar tomonidan berilgan ta'riflarga to'xtalishni maqsadga muvofiq deb topamiz.

«Pedagogik texnologiya – psixologik va pedagogik o'g'itlar yig'indisi bo'lib, shakllar, metodlar, usullar, o'qitish yo'llari, tarbiyaviy vositalarning maxsus to'plamidir. Ayni zamonda u pedagogik jarayonning tashkiliy- metodik omilini ham bildiradi» (B.Lixachev).

Mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan soha mutaxassislarining fikricha “Pedagogik texnologiya” bu talabalarni o'qitish, o'rgatish va ularni har tomonlama rivojlantirish qonun-qoidalarini o'z ichiga olgan pedagogik tadbirlar tizimidan iborat.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytilish mumkinki, ta'limni texnologiyalashtirishni asosini, ta'lim oluvchilarni, uning samaradorligini oshirish va ta'lim oluvchilarni berilgan sharoitlarda va ajratilgan vaqt ichida loyihalashtirilayotgan o'quv natijalariga erishishlarini kafolatlash maqsadida to'liq boshqarish g'oyasini tashkil etishdir [5].

Ta'lim amaliyotida “Pedagogik texnologiya” 3 ta ko'rinishdagi tayanch mazmunidan iborat:

1. Umumiy pedagogik mazmun. Bu ko'rinish ta'lim muassasidagi ta'lim-tarbiya mezonini bilan chambarchas bog'liq;

2. Xususiy uslubiy mazmun. Bu talaba tomonidan aniq bir mavzu uchun tanlab olingan usul va didaktik vositalar majmuasidan iborat bo'lib, bu orqali ta'lim bosqichlari tizimga solinadi;

3. Modulli texnologik mazmun. Berilgan ta'lim mazmuni qismlari alohida texnologiyalashtiriladi va qo'yilgan maqsadga erishiladi.

O'qituvchining darsda pedagogik texnologiyani joriy qilishdagi bosqichlari quyidagicha:

- ta'lim oluvchilarga bo'lajak faoliyatning maqsadlarini qo'yish va tushuntirish;

- o'qitishning tanlangan usullari, vositalari va shakllarini qo'llash;

- ta'lim oluvchilar faoliyatini rag'batlantirishning turli choralarini ko'rish;

- o'qitish jarayonlarining sifatini nazorat qilish va baholash, ularni tahlil qilish va korreksiya qilish (korreksiya-anamal bolalarning psixik va jismoniy taraqqiyotidagi kamchiliklarini pedagogik usul va chora – tadbirlar bilan qisman yoki butunlay yo'qotish).

NATIJA. O'qitish texnologiyasini joriy qilish va amalga oshirish jarayonida, pedagogik tizimning barcha komponentlarini ularning bir-biri bilan o'zaro bog'liqligi va o'zaro belgilanganligi albatta mavjudligi, o'quv jarayoni qatnashchilarining psixologik shaxsiy va individual xususiyatlarini albatta hisobga olish va boshqa kabi omillarni hisobga olish kerak.

Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji yo'nalishlarida fizika ta'limining ahamiyati uning fan - texnika taraqqiyotida ishlab chiqarish sohalarida va kundalik hayotda tutgan o'rni bilan belgilanadi. Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji yo'nalishlarida fizika o'qitish ta'limning umumiy maqsadlariga xizmat qilishi ya'ni o'qituvchilarning ilmiy, mantiqiy tafakkur qila olish qobiliyatini, aqliy rivojlanishini o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllantirishi va o'stirishi ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tarkib toptirishi hamda ijtimoiy hayotlari va ta'lim olishni davom ettirishlari uchun zarur bo'lgan bilimlar bilan qurollantirish lozim [4-5].

Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji yo'nalishlari uchun dasturning asosiy vazifalari:

fizika kursining barcha bo'limlari buyicha asosiy fizik qonunlar, qonuniyatlar va ularning formulalari bilan tanishtiruvchi mavzular ketma- ketligini ko'rsatish;

fizika kursining o'qitish izchilligini ta'minlash;

dasturdagi mavzularda fizik xodisalar va jarayonlarni kuzatish usullari bilan tanishtirishni amalga oshirish;

bu mavzularda fizik jarayon, xodisa, tushuncha hamda qonunlarning o'rganish ketma-ketligi mantiqan to'g'ri va oddiydan murakkablikka qarab borish tamoyiliga rioya qilish;

bu mavzularda tajriba o'tkazish uning natijalari va xatoliklarini hisoblash ko'nikmalarini hosil qilishga imkon yaratish;

mavzularda keltirilgan asosiy fizik qonun va hodisalarni tug'ri talqin qilish, ularni masala yechishga tadbqiq etish va tajribada tekshirib ko'rish ko'nikmalarini hosil qilish ketma-ketligini ta'minlash;

berilgan mavzular ketma-ketligi yordamida oliy o'quv yurtiga kirish uchun zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarni hosil qilish [7].

Jamiyat taraqqiyoti mamlakatimizda talim sohasida o'tkazilayotgan islohotlar jahon andazasiga mos yetuk va yuqori darajada fikrlaydigan kadrlar tayyorlashni taqazo etadi. Bu esa o'qitishni ham mazmun, ham uslub jixatdan yuqori pog'onaga ko'tarilishga olib keladi. Shu munosabat bilan ilmiy-metodik izlanishlar olib borish, jumladan dastur va darsliklarning yangi avlodini yaratish, o'quv qo'llanmalari yozish zarurati tug'iladi. Mazkur zaruratdan kelib chiqqan xolda, qisqa vaqt ichida fizika fanidan talim tizimining turli bosqichlari uchun o'quv dasturlari va qo'llanmalari ishlab chiqildi va yaratildi. Bugungi kunda fizika fanidan yaratilgan o'quv dasturlari va darsliklari qo'llanmalarining analizi shuni ko'rsatadiki, uzluksiz talim tizimining turli bosqichlarida fizika fanining o'qitish uzviyligi

va uzluksizligi kam taminlangan ekan.

Mavjud ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va kadrlar tayyorlash milliy dasturini zamonaviy ilmiy tafakkur yutuqlariga, ijtimoiy tajribaga tayangan holda, uzluksiz ta'lim tizimini barcha shakldagi ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini ta'minlovchi ilg'or ilmiy-metodik texnologiya sifatida amalga oshirishdir [6].

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda talaba- talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, taxlil qilishlariga, hatto xulosalarni xam o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida talaba asosiy figuraga aylanadi [2-3].

Shuning uchun oliy o'quv yurtlari va fakultetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari-interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar talabalarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishini ta'minlaydi [8].

XULOSA. Hozirgi vaqtda pedagogika fanining dolzarb masalalari sohasiga fan, texnika, ilg'or texnologiya yutuqlaridan foydalanish asosida tarbiyaning maqsad, mazmun, metodlari va tashkil etilishini ilmiy ta'minlash masalalari kiradi.

Fizika fanini o'qitish jarayonida talabalarining muhandislik qobiliyatlarini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji yo'nalishlarida fizikani kasbga yo'naltirib o'qitish jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'qitish muhandislik qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son "Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

Усаров Ж., Абдусаматова Ш. Талабаларнинг ўзини ўзи ривожлантириш компетенцияларни шакллантириш //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. Special Issue 4. – С. 266-273.

Усаров Ж. Э., Шарипова Г. Н., Абдусаматова Ш. С. Таълим самарадорлиги ва унинг амалиётдаги аҳамиятида талабаларнинг ўзини ўзи ривожлантириш компетентлигининг ўрни // Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. Special Issue 1. – С. 276-285.

Askarovich M. S. "Bolajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning metodologik asoslari" //Scientific approach to the modern education system. – 2022.

Ernazarov A.N. O'rta umumta'lim maktablarida fizika va astronomiyani kasbga yo'naltirib o'qitishda tayanch va fanga oid kompetensiyalarning ahamiyati //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 869-873.

Yulduz Xudoyberdiyeva «Fizika o'qitish metodikasi tamoyillari va innovatsion pedagogik texnologiyalari. « Involta Scientific Journal 1.10 (2022): 46-52.

Tursunov I. G., Eshniyozov U. A., Durdiyeva S. A. "Turli muhitlarda elektr toki" mavzusini o'qitishdagi innovatsiyalar //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 5

ЁШЛАРНИ АХБОРОТ ХУРУЖЛАРИГА НИСБАТАН РАЦИОНАЛ ЁНДАШУВ КЎНИКМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ПСИХОЛОГИК-ПЕДАГОГИК МАСАЛАЛАРИ

З.Х. Касимова,

*ЎзХИА “Дин психологияси ва педагогика” кафедраси мудири,
педагогика фанлари номзоди, профессор*

Аннотация. Ушбу мақолада ҳозирги вақтда оммавий ахборот воситалари томонидан ёшларга етказилаётган “ахборот хуружлари” масаласи ёритилган. Бу аслида ахборот урушига нисбатан муносабат ўзгарганини ва курашишнинг янги воситаси кашф қилинганини кўрсатади. Нияти ҳолис бўлмаган айрим гуруҳлар саъй-ҳаракатлари билан оммавий ахборот воситалари тажовуз қуролига айлантирилмоқда. “Ахборот урушлари”да инсоннинг онги ва қалби нишонга олинмоқда. Таҳлилларимиз давомида ёшларнинг онги ва фаолиятини назорат қилиш мақсадида амалга оширилаётган ғоявий таъсир воситалари кўриб чиқилди. Ёшларимизни ахборот хуружларидан ҳимоя қилиш мақсадида таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилди.

Калит сўзлар. Ахборот, оммавий ахборот воситалари, тарғибот, ахборот хуружлари, ёшлар, ахборот уруши, ёшлар масаласи.

ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ ФОРМИРОВАНИЯ У МОЛОДЕЖИ РАЦИОНАЛЬНОГО ПОДХОДА К ИНФОРМАЦИОННЫМ ВЗРЫВАМ

З.Х. Касимова,

*заведующая кафедры «Психология религии и педагогики» МИАУз,
кандидат педагогических наук, профессор*

Аннотация. В данной статье рассматривается вопрос об «информационных атаках», которые в настоящее время направляются в адрес молодежи средствами массовой информации. Это фактически свидетельствует о том, что изменилось отношение к информационной войне и были открыты новые средства борьбы. СМИ превращаются в орудие агрессии усилиями некоторых групп с беспристрастными намерениями. В «информационных войнах» мишенью является разум и сердце человека. В ходе нашего анализа были рассмотрены средства идеологического воздействия, реализуемые с целью управления сознанием и деятельностью молодежи. Разработаны предложения и рекомендации в целях защиты нашей молодежи от информационных атак.

Ключевые слова. Информация, СМИ, пропаганда, информационные атаки, молодежь, информационная война, молодежная проблема.

PSYCHO-PEDAGOGICAL ISSUES IN DEVELOPING A RATIONAL APPROACH TO INFORMATION EXPLOSIONS AMONG YOUNG PEOPLE

Z.X. Kasimova,

*Head of the Department «Psychology of Religion and Pedagogy» IIAUz,
D. in Pedagogical Sciences, Professor*

Annotation. This article considers the issue of «information attacks», which are currently directed at young people by the media. It actually shows that the attitude towards information warfare has changed and new means of struggle have been discovered. The media is being transformed into a tool of aggression by the efforts of certain groups with impartial intentions. In the «information wars» the target is the human mind and heart. Our analysis has focused on the ideological means used to control the minds and activities of young people. Suggestions and recommendations have been developed to protect our youth from information attacks.

Keywords. Information, mass media, propaganda, information attacks, youth, information war, youth problem.

XXI аср ахборот асридир. Бугунги кунда ахборот тўплаш, уни қайта ишлаш ва узатиш жараёни жадаллашиб бормоқда. Чунки Интернет, телевидения, радио, телефон алокалари жуда тез ривожланмоқда. Улар орқали тарқатилаётган ҳар хил ахборотлар турли кишилар, айниқса ҳали дунёқараши барқарор шаклланмаган ёшларнинг ахлоқи ва маънавий дунёсига турлича таъсир этади.

Ҳозирги вақтда оммавий ахборот воситаларида “ахборот хуружлари” атамаси тез-тез тилга олинмоқда. Бу аслида урушга муносабат ўзгарганини ва курашишнинг янги воситаси кашф қилинганини кўрсатади. Нияти ҳолис бўлмаган айрим гуруҳлар саъй-ҳаракатлари билан оммавий ахборот воситалари тажовуз қуролига айлантирилмоқда. “Ахборот урушлари”да инсоннинг онги ва қалби нишонга олинмоқда.

Гарчанд ахборот инсонни жисмонан йўқ қила олмаса-да, лекин унинг кўпуровчилик кучи, келтирадиган моддий ва маънавий зарари ҳар қандай оммавий қирғин қуролидан кам эмас.

Чунки ёлгон ва сохта ахборотлар уни тўғри йўлдан адаштиради, виждон амрига зид ҳаракат қилишга ундайди. Демак, ахборот хуружи дейилганда инсонни руҳий бошқариш, унга маънавий хукмронлик қилишга интилиш назарда тутилади.

Ахборот хуружи ёки ахборот урушининг узига хос жиҳатлари бор.

Биринчидан, ахборот уруши жуда катта маблағни, қўшин сақлашни, замонавий кўрол-яроғлар сотиб олишни талаб қилмайди.

АҚШнинг собиқ президенти Ж.Картер “Тарғиботга сарфланган бир доллар қуролланишга сарфланган 10 доллардан самаралироқ” деб бежиз таъкидламаган.

Иккинчидан, ахборот уруши ҳеч қандай чегарани тан олмайди. Масалан, Интернет сунъий йўлдош ва бошқа оммавий ахборот воситалари орқали тарқатилаётган ахборотларни кўрикдан ўтказиб, сарагини-сарақка, пучагини-пучакка ажратишнинг иложи йўқ.

Учинчидан, бу урушда рақибни жисмонан йўқ қилиш эмас, уни ўзига маънан бўйсундириш мақсад қилинади. Ахборот урушида инсон онги, миллат руҳияти нишонга олинади. Бу урушда бинолар зарар кўрмайди. Одамлар ўлдирилмайди, моддий бойликларга шикаст етмайди, аммо миллат турмуш тарзига, унинг яхшилик ва ёмонлик, оқ ва қора, савоб ва гуноҳ, рост ва ёлгон ҳақидаги тасаввурларини ўзгартиришга уринилади.

Ташвишланарли жиҳати шундаки, аксарият ҳолларда ёш йигит ва қизлар ахборот хуружининг асосий объектига айланмоқда. Тадқиқотлар натижасига кўра 15-22 ёшдаги йигит ва қизлар ташқи ғоявий таъсирларга тез берилувчан бўлишади. Чунки кўп ёшларда танқидий фикрлаш малакаси етишмайди. Улар онгига исталган ижтимоий меъёрларни синдириш осон кечади.

Ёшларнинг онги ва фаолиятини назорат қилиш мақсадида амалга оширилаётган ғоявий таъсир воситалари асосан қуйидагилардан иборат:

Ёшларнинг интеллектуал салоҳиятига таъсир қилувчи кўнгил очар теледастурлардан кенг фойдаланиш. Телерадиокомпаниялар нафақат турли реалити-шоулар, ток-шоулар, комеди-клублар сценарийсини тузиш, балки уларни экспорт қилиш билан шуғулланишлар. Масалан, Россиянинг ТНТ каналида кўрсатиладиган “Дом-2” 50 дан ортиқ мамлакатларнинг телеканалларида намойиш этилади. Бу сценарийнинг атига бир версиясидир, холос. Бундай реалити-шоулар орқали ғарб жамиятини ич-ичидан емириб бораётган иллатлар тарғиб ва ташвиқ этилмоқда. Улар ёшларни ахлоқсизликка ундайди. Сунъий йўлдошлар ёрдамида ахборот узатиш имкониятлари кенгайиб бораётган ҳозирги шароитда ёшларимизни унинг таъсир ва таҳдидидан ҳимоя қилиш осон кечмайди.

Ёшларнинг ўзи яшаб турган жамиятга салбий (негатив) муносабатни шакллантириш учун негатив ахборотлардан кенг фойдаланиш. Ахборот дастурларида кунига юзлаб негатив маълумотлар эълон қилинади. Масалан, телевидиниядаги ахборот кўрсатувларида, шунингдек турли газеталарда “Хориж янгиликлари” руқни остида берилаётган маълумотларнинг аксарияти негатив характерга эга.

Ёшлар руҳиятига салбий таъсир кўрсатувчи воқеаларга асосланган филмлар ва китоблар тарқатиш. XX асрда ижтимоий дарвинизм таълимоти тарафдорлари “ҳаёт – бу яшаш учун курашдан иборат”, деб уқтирдилар. Ҳозирги вақтда телеканалларда намойиш этилаётган ва минглаб видеокассета, лазер дисклари воситасида тарқатилаётган жангари фильмларда яшаш учун кураш ғояси тарғиб этилади. Масалан, шундай телеканалларда кун давомида намойиш қилинган фильмларда биз 160 та муштлашув, 202 та қотиллик, 6 та ўғрилик, 10 та зўрлаш, 66 та ичкиликбозлик саҳналарини кузатдик. Уларнинг ҳеч қандай тарбиявий аҳамияти йўқ.

Негатив воқеаларга бой китобларнинг тарқалаётгани ҳам сир эмас. Масалан, Евгений Сазоновнинг етти китобдан иборат “Мен қонундаги ўғри” деб аталмиш романининг лейтмотивини “адолат ўғрили қўлида” деган фикр ташкил этади. Бундай филм ва романлар жиноятчилик ва ахлоқсизлиқни тарғиб қилади, холос. Умум эътироф этилган ижтимоий меъёрларга тўғри келмайдиган рекламалар ҳам ёшларимиз онгига салбий таъсир кўрсатади. “Баунти” конфети, “Спрайт”, “Кола” ичимликлари рекламаси шулар жумласидандир.

Жаҳонда ахборот баланси ривожланган мамлакатлар фойдасига ўзгармоқда. Глобал компьютер тармоқларининг ривожланиши эса уларнинг имкониятини янада кенгайтirmoқда. Масалан, ҳозирги даврда сунъий йўлдош ахборот узатишнинг энг қулай ва самарали воситаси бўлиб қолди, аммо жуда катта маблағ талаб этиладиган сунъий йўлдошга ҳамма давлат ҳам эғалик қила олмайди. Шу боис ҳам фазодаги сунъий йўлдошлар атиги бир нечта давлатга қарашлидир: АҚШ 30 та, Япония 21 та, Россия 12 та, Хитой 9 та, Ҳиндистон

9 та сунъий йўлдошга эга.

Хуллас, ахборот узатишнинг асосий воситалари ривожланган мамлакатларнинг мулки бўлиб қолмоқда. Улардаги айрим сиёсий қучлар ахборот воситалари ёрдамида жаҳон ёшларининг онги ва фаолиятини назорат қилишга ҳаракат қилади.

Компьютерлардан фойдаланиш борасидаги рақамлар ҳам шунга ўхшаш ҳолатлардан далолат беради. Айтайлик, Сан-Маринода ҳар минг кишига

727 та, АҚШда 554 та компьютер тўғри келади. Россияда бу кўрсаткич бор йўғи 43 га тенг. Ҳолбуки, Интернет ва компьютер тармоқлари, ахборот олиш, тўплаш ва тарқатиш учун хизмат қилиши керак. Афсуски, улардан ғайриинсоний ишларда ҳам фойдаланилади. “Rambler” ахборот

излаш системасида жами 317537 та порнографик сайт бўлиб, уларда 8029267 та материал тўпланган.

Дунё аҳолисининг 62,5 фоизи интернетдан фойдаланади - фойдаланувчилар сони сўнгги йилларда 192 миллионга (4 фоизга) ортиб, 4,95 миллиард кишини ташкил этади. Ижтимоий тармоқлардан фойдаланувчилар сони 10 фоиздан ошиб, 4,62 миллиардга етди, бу бутун дунё аҳолисининг 58,4 фоизини ташкил этди.

Охирги 10 йил ичида интернетдан фойдаланувчилар сони икки баравар кўпайди, бу эса 8,6 фоизга ошишига олиб келди, дея таъкидлайди таҳлилчилар. Шу билан бирга, бу даврда йиллик ўсиш суръатлари йилдан-йилга сезиларли даражада ўзгариб турди.

We Are Social таҳлилчилари маълумотларига кўра, ўн йил ичида ижтимоий тармоқ фойдаланувчилари сони 3,1 баробарга (12 фоизга) ошган – 2012 йилда уларнинг сони 1,48 миллиардни ташкил этган. Фойдаланувчилар сонининг ўсиши ҳам икки рақамли суръатда давом этган. Ўтган йил давомида 2021 йилдан 2022 йилгача бўлган даврда пандемиягача бўлган даражадан 10,1% юкори бўлган, дейилади тадқиқотда. 2021 йилда ижтимоий тармоқларга 424 миллион фойдаланувчи қўшилди, бу кунига ўртача 1 миллиондан ортиқ янги фойдаланувчини ёки ҳар сонияда тахминан 13 нафар янги фойдаланувчини ташкил этади.

Дунё бўйлаб интернетдан фойдаланмайдиганлар сони биринчи марта

3 миллиарддан камайганлиги сабабли, гаджетлар ҳашаматдан кўра заруратга айланган глобал рақамлаштиришнинг муҳим босқичи бошланиши ҳақида гапириш мумкин, айниқса, COVID-19 пандемияси даврида, дейди экспертлар жамоаси.

Ўзбекистонда 2021 йил якунига кўра интернетдан фойдаланувчилар сони 27,2 миллион нафардан ошди, деди Ахборот ва коммуникацияларни ривожлантириш вазирлиги матбуот хизмати раҳбари Шерзод Ахматов.

2020 йилга нисбатан интернетга уланганлар сони 23 фоизга кўп, дея қўшимча қилди у. Бир йил олдин улар 22 миллиондан сал кўпроқ эди.

Mobil Internet абонентлари сони айниқса шиддат билан ўкиб бормоқда. Агар 2020 йил охирида у 19 миллион бўлган бўлса, ҳозир ундан 25,3 миллион киши фойдаланмоқда – 33 фоизга кўп.

Ҳозирда аҳолининг 95 фоизи Mobil Internet камров зонасида, уй хўжаликларининг 54 фоизи юкори тезликдаги симли интернет тармоғида. Замонавий коммуникациялар камровини кенгайтириш фойдаланувчилар сонининг кўпайишига ёрдам берди, дея қўшимча қилди Ахматов.

Шундай қилиб, ўтган йил давомида қўшимча равишда 14 мингдан ортиқ мобил база станциялари ўрнатилди. Уларнинг умумий сони 46000 га яқинлашди, бу йил давомида деярли учдан бирига ўсди.

Бундан ташқари, 2021 йилда 50 минг км оптик толали линия ётқизилди, бу аввалги даврдаги каби деярли бир хил. Ҳозир уларнинг умумий узунлиги 118 минг км ни ташкил этади ва уларнинг хизматлари аҳолининг 67 фоизини қамраб олади.

Ахборот ва коммуникацияларни ривожлантириш вазирлиги вакили Ўзбекистондаги рақамли инфратузилманинг келажаги бўйича режалар ҳақида гапирди. Масалан, 2023 йил охиригача янги магистрал алоқа линиялари ҳисобига ташқи интернет-канал сигимини 3,5 баробарга ошириш режалаштирилган.

Бундан ташқари, қурилишда маъмурий бинолар ва турар-жойлар учун

1 Гбит/с, давлат органлари учун 100 Мбит/с тезликда кенг полосали интернет-канални ётқириш ҳам ҳисобга олинади. 2 йил ичида хонадонларнинг симли интернет билан қамрови 80 фоизга етказилади.

Июль ойида Жаҳон банки Марказий Осиёда Интернетга кириш бўйича ҳисоботини эълон қилди. Ҳисоботга кўра, ҳозирда Ўзбекистонда ҳар 100 аҳолига 12,7 кенг полосали абонент тўғри келади, бу эса жаҳондаги ўртача кўрсаткичдан (13,26) биров пастроқдир.

Жаҳон банки минтақа мамлакатларида рақамли экотизимни ривожлантириш, шунингдек, очиқ ва рақобатбардош телеком бозорини яратиш муҳимлигини таъкидлади.

Аввалроқ Спот Ахборот ва коммуникацияларни ривожлантириш вазирлиги раҳбари Шерзод Шерматов IT-хизматлари экспортини 1 миллиард долларга етказиш бўйича кўрсатма бергани ҳақида ёзган эди.

Ёшларнинг жозибали кўнгилочар ўйинларга, яъни “бегона маданиятга” қизиқиши кучли. “Бегона маданиятга” меҳр қўйиш эса маънавий манкуртликка олиб келади, шу боис мамлакатнинг келажаги бўлган ёшларни асраб-авайлашга, уларни бегона қадриятлар ва ғоялар таъсиридан ҳимоя қилишга алоҳида эътибор қаратилиши зарур.

Юқорида келтириб ўтилган маълумотлар бугун кунда ёшларни ахборот хуружларидан ҳимоя қилишнинг таъсирчан психологик-педагогик восита ва методларини ишлаб чиқиш энг долзарб муаммолардан бири эканлигини асослайди.

Мамлакатимизда ёшлар масаласи давлат сиёсати даражасига кўтарилган ҳозирги даврда уларнинг маънавий-ахлоқий тарбияси алоҳида эътиборни талаб этади. Ёшларимизни ахборот хуружларидан ҳимоя қилиш мақсадида қуйидаги ишларни амалга ошириш мақсадга мувофиқ:

– олий таълим муассасаларида талаба-ёшлар турмуш тарзи, руҳияти ва қизиқишларини

давомли ўрганадиган “Психодиагностика маркази”ни ташкил этиш;
ёшлар ҳаётини ўрганиш мақсадида психологик, социологик ва педагогик йўналишларда илмий-тадқиқот ишлари олиб бориш;
таълим муассасаларида маънавий-маърифий, тарбиявий ишларнинг миллий асосларини кучайтириш, ёшлар иштирокида ахборотларни танқидий таҳлил этиш;
ёшларни ҳар қандай ахборотни танқидий-таҳлилий ўрганишга йўналтириш;
ёшларнинг бандлигини таъминлаш, уларни мунтазам равишда моддий ва маънавий рағбатлантириш;
таълим муассасаларида ўқувчи ва талабалар онгига миллий ва умуминсоний қадриятларни сингдиришга қаратилган махсус тадбирлар ташкил этиш ва бошқалар.
Буюк мутафаккир аждодимиз Маҳмуд Аз-Замахшарийнинг: “Бамисоли тумов киши гулнинг хидини сезмаганидек, аҳмоқ киши ҳикмат лаззатини билмайди” деган пурмаъно ибораларини ҳар бир инсон ақл мураккабасидан ўтказиши керак бўлади. Шу боис ҳар биримиз ҳавои нафсга берилмасдан, ақл кучи билан ўз фарзандларимиз, ўз келажагимиз йўлида бирлашишимиз, курашишимиз зарур.

Фойдаланилган адабиётлар:

Ўзбекистон Республикасининг “Ахборотлаштириш тўғрисида”ги Қонуни. Ахборот ва ахборотлаштиришга оид норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўплами. -Т.: Адолат, 2008. – 50 б.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил

14 апрелдаги “Диний мазмундаги материалларни тайёрлаш, олиб кириш ва тарқатиш ҳамда динишунослик экспертизасини ўтказиш тартиби тўғрисида”ги 180-сон қарори.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг

72-сессиясида сўзлаган нутқи (Нью-Йорк шаҳри, 2017 йил 19 сентябрь) // Халқ сўзи, 2017 йил 20 сентябрь, №689.

Бекмуродов М. Мафкуравий зомби қилиш механизми. /Халқ сўзи. 2006 йил

Бекпўлатов Х., Мамадалиев Р. Глобаллашув шароитида ахборот хуружларига қарши курашнинг айрим масалалари // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. -Т.: 2016, №6 14-бет.

Грачёв Г. Информационно-психологическая безопасность личности: состояние и возможности психологической защиты. -М.: Изд-во РАГС, 1998. -125 с.

Дўстмуҳаммад Х. Глобаллашув даври ва ахборот макони // Ўзбекистон матбуоти, 2007 йил 3-сон, 12-14 б.

Каримова В. Тарғиботнинг психологик услублари. Маъруза матни. -Т.: Маънавият, 2001. -16 б.

Каримова В. “Маънавий таҳдидларни келтириб чиқарувчи ахборотларга қарши психологик ҳавфсизликни таъминлаш омиллари” / Илмий тўплам, 2010.

Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. -Т.: Маънавият, 2008. -176 Б. -115-б.

Касимова З. Х. Подготовка специалиста новой формации в процессе применения инновационных способов обучения //Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI в. – 2017. – С. 252-253.

Kasimova Z. H. The use of interactive methods in the development of critical and creative thinking //The edition is included into Russian Science Citation Index. – 2014. – С. 132.

Касимова З. Х. Перспективы подготовки специалистов в условиях дистанционного обучения //Молодежь в науке и культуре XXI в.: материалы междунар. науч. – 2016. – С. 185.

Очилдиев А. Миллий ғоя, инсон ва замон. -Т.: Янги аср авлоди, 2001.

-96 б.

Очилдиев А. “Мафкуравий глобаллашувнинг ўзига хос хусусиятлари”. / Илмий тўплам. 2010.

Почепцов Г. Информационные войны. Новый инструмент политики.

-М.: Эксмо, 2015.

Примов Б. Ахборот оқимининг ахлоқий қадриятларга таъсири // Жамият ва бошқарув. 2011. 2 сон. 21-бет.

Умарова Н. Глобаллашув шароитида ахборот хуружларига қарши кураш. -Т.: Академия, 2005. -46.

Қодиров Б. Ахборот оқими ва ёшлар маънавияти // Тафаккур, 2015. №2. 82-б.

<https://www.sostav.ru/publication/we-are-social-i-hootsuite-52472.html>

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ УПРАВЛЕНИЕ СОЗДАНИЕМ КОМФОРТНОЙ СРЕДЫ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ УЧРЕЖДЕНИИ

Каримова Махбуба Муқимжоновна

Преподаватель кафедры “Педагогика” Ташкентского государственного педагогического университета имени Низами

Аннотация: В данной статье рассматривается создание комфортной среды в образовательных учреждениях. При создании комфортной среды в учебном заведении в статье рассматривается анализ психологической, педагогической, философской и исторической литературы, педагогической практики свидетельствует о все возрастающем интересе к проблеме, связанной с формированием, развитием и становлением благоприятного микроклимата.

Ключевые слова: среда, условия, деятельность, учебно-воспитательный процесс, конкурентоспособность, развития

TA'LIM MUASSASASI PEDAGOGIK BOSHQARUVIDA SOG'LOM MUHITNI YARATISH

Karimova Maxbuba Muqimjonovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Pedagogika” kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim muassasalarida qulay muhit yaratish haqida so'z boradi. Ta'lim muassasasida qulay muhit yaratishda maqolada psixologik, pedagogik, falsafiy va tarixiy adabiyotlar tahlili muhokama qilinadi, pedagogik amaliyot qulay mikroiklimni shakllantirish, rivojlantirish va o'rnatish bilan bog'liq muammoga tobora ortib borayotgan qiziqishni ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: muhit, shart-sharoitlar, faoliyat, o'quv jarayoni, raqobatbardoshlik, rivojlanish

EDUCATIONAL INSTITUTION UNDER PEDAGOGICAL MANAGEMENT CREATING A HEALTHY ENVIRONMENT

Karimova Makhbuba Mukimjonovna

Teacher of the «Pedagogy» department of Tashkent State Pedagogical University named after Nizomiy

Umumta'lim maktablari o'quvchilarini ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirish strategiyasini samarali amalga oshirishda Tarbiya fanini o'qitilishi zarur ekanligi alohida ko'rsatib o'tilgan. Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik innovatsiyalarni keng miqyosda qo'llash jahon taraqqiyotining global tendensiyasi hisoblanadi. Ayni paytda interfaol ta'lim muhitini yaratish, o'quvchilarning tafakkuri va dunyoqarashini rivojlantirishning innovatsion metod va texnologiyalarini

takomillashtirish yanada muxim ahamiyat kasb etmoqda.

Umumta'lim maktablarida "Tarbiya" fanin o'qitishda o'quvchilarni ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini rivojlantirishda Vitagen ta'lim texnologiyasidan foydalanish xam muxim ahamiya kasb etadi. Vitagen ta'lim texnologiyasi haqida so'z yuritishdan oldin ushbu tushunchaning o'ziga ta'rif berib o'tadigan bo'lsak "Vita" lotinchadan "Hayot" degan ma'noni anglatadi. Ya'ni vitagen – hayotiy ahamiyatga ega, muhim degan ma'nolarni anglatadi.

Ushbu texnologiyaning asoschisi A.S.Belkin hisoblanadi. Ushbu texnologiya XX asrning 90-yillarida shakllana boshlagan. Ushbu texnologiya o'quvchi-qizlarning har tomonlama rivojlanishiga imkon beruvchi texnologiya hisoblanadi. Vitagen texnologiya eng avvalo hayotiy tajribaga asoslangan holda ta'lim va tarbiya jarayonida qizlarning rivojlanishini kafolatlovchi o'zaro natijaviy muloqotni tashkil etishga yordam beradi.

Vitagen texnologiyada boshqa texnologiyalardan farqli ravishda qizlarning hayotiy tajribasini ularning rivojlanishi va ijtimoiylashuvida asosiy vosita sifatida qaraladi. O'quvchi-qizlar bilan ishlash jarayonida hayotiy tajribalarga e'tibor qaratish orqali ular faoliyatini faollashtirish, aniq maqsadga yo'naltirish, hayotiy voqea-hodisalarga e'tiborli bo'lishni rivojlanishiga asos bo'ladi.

Vitagen texnologiyaning birinchi tayyorgarlik bosqichi pedagoglardan katta tayyorgarlikni talab qiladi. Bu texnologiyani o'tkazish jarayonida ishtirok etayotgan pedagog yuqori darajada pedagogik mahoratga ega bo'lishi lozim. Pedagog tomonidan qizlarning hayotiy tajribasiga tayangan holda o'rganilishi ko'zlangan kurs bo'limi yoki mavzu tanlab olinadi. Qizlar ushbu jarayonda o'z hayotiy tajribalarini nomayon qila olishlari uchun Vitagen tajribani rivojlantirish metodlari va usullari tanlab olinadi.

Ikkinchi bosqichda esa ushbu jarayonning maqsad va vazifalari aniqlanib, qizlarga ma'lumotlar beriladi.

Vitagen texnologiyaning uchunchi bosqichi boshlang'ich diagnostika bosqichi ushbu texnologiyaning eng asosiy bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bu bosqichda texnologiyani o'tkazayotgan inson eng avvalo qizlarning hayotiy tajribalarini ochib beradi va shundan keyin ushbu ma'lumotlarni tahlil qiladi, qizlar hayotiy tajribalarining sifati, anglanganligi, miqdori, mazmuni, chuqur o'zlashtirilishi, darajasi, ilmiyligi va ishonchliligi keyingi o'rganilishi kerak bo'lgan ma'lumotlar harakatlarini belgilab beradi. Shuningdek ushbu bosqichda qizlarning hayotiy tajribalari bilan nazariy ma'lumotlar o'rtasida nomuvofiqliklar bo'lsa aniqlanadi, ushbu aniqlangan nomuvofiqlikni keltirib chiqaruvchi sabablar, dalillar to'planadi. Bu bosqichda texnologiyani tashkil qiluvchi insonning eng asosiy vazifasi o'quvchi-qizlar hayotiy tajribalari va ilmiy bilimlar o'rtasidagi nomuvofiqlik qay darajada ekanligini aniqlash va ilmiy asoslarga tayangan holda qizlar Vitagen tajribalarining tarbiyaviy jihatlarini yaqqol ochib berishni nazarda tutadi.

Har bir bosqich o'zaro bog'langan bo'lib, biri ikkinchisining davomi hisoblanadi. To'rtinchi bosqich mazmunli-texnologik bosqichda o'quvchi-qizlarda hayotiy tajribalariga tayangan holda ijtimoiy faollik borasida nazariy ma'lumotlar, ilmiy g'oyalar, dalillarni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, bu jarayon qizlarning hayotiy tajribalarini va axborotlarini hozirgi zamonaviy fanning talablariga moslashtirishdan iborat. Bu bosqichda qizlarning hayotiy bilimlari ilmiy bilimlar bilan to'ldirilari, ba'zi xollarda hayotiy tajribalar inkor etilgan holda ilmiy jihatdan isbotlangan yangi bilimlar bilan to'ldiriladi.

Vitagenik tajribalarni korreksiyalash bosqichida esa qizlardagi ijtimoiy faollikga oid noto'g'ri go'yalarni, tajribalarni to'g'irlashni nazarda tutadi. Bu jarayonning muvofaqiyatli kechishi pedagogning mahoratligiga va qizlardagi hayotiy tajribalarni chuqur o'rganganligiga bog'liq bo'ladi.

Yakunlovchi diagnostik bosqichda esa qizlarning ijtimoiy faollikka oid bilim, ko'nikma va malakalari har doimgidek nazorat qilinadi. Lekin bu jarayonda Vitagenik tayyorgarlik metod va usullaridan foydalanilgan holda tashkil qilinadi va albatta qizlarning ijtimoiy faollikga oid hayotiy tajribalarini o'rganish eng asosiy o'rinni egallaydi.

Texnologiyaning rejalashtirilgan-bashoratlovchi bosqichida o'quvchi-qizlarning ijtimoiy faolligiga Vitagen tajribaning qanday ta'sir qilishi oldindan bashorat qilinadi.

Umumta'lim maktablarida "Tarbiya" fanin o'qitishda o'quvchilarni ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini rivojlantirishda pedagogik-psixologik tadqiqotlar kichik ta'lim guruhlarida hamkorlik o'rnatiladigan beshta asosiy shartni aniqlash imkonini berdi. O'quvchilarni guruh o'quv faoliyatiga jalb qilishning:

- birinchi sharti guruh a'zolari o'rtasida ijobiy munosabatlarni o'rnatish;
- ikkinchi asosiy shart - bu o'qitish natijasiga individual hissa qo'shish zarurati;
- uchinchi asosiy shart - ta'lim muammolarini hal qilish jarayonida intellektual va hissiy-shaxsan o'zaro yordam ko'rsatishga yo'naltirilgan o'quvchilarning bevosita o'zaro ta'sirini optimallashtirish;
- guruh ishi muvaffaqiyati uchun to'rtinchi shart - bu yetarlicha rivojlangan ijtimoiy ko'nikma va qobiliyatlarning mavjudligi;
- beshinchi shart guruh jarayonini aks ettirish zarurati bilan, ya'ni guruh o'quv ishlarida sodir bo'lgan voqealarni tahlil qilish va baholash jarayoni bilan bog'liq.

Umumta'lim maktablarida "Tarbiya" fanin o'qitishda o'quvchilarni ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini rivojlantirishda loyihalash texnologiyalaridan foydalanish. Bugungi kunda

o'quvchilarning loyihaviy faoliyati - bolaning mustaqil tadqiqot qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan (muammo tug'dirish, ma'lumot to'plash va qayta ishlash, tajribalar o'tkazish, olingan natijalarni tahlil qilish) rivojlantiruvchi (shaxsga yo'naltirilgan) ta'lim usullaridan biri bo'lib, ijodiy qobiliyat va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi, ta'lim jarayoni davomida olgan bilimlarini birlashtiradi va ularni o'ziga xos hayotiy muammolar bilan tanishtiradi.

Loyiha asosida o'qitishning maqsadi o'quvchilar uchun shart-sharoitlarni yaratishdir: mustaqil ravishda va xohish bilan turli manbalardan etishmayotgan bilimlarni olish; olingan bilimlardan kognitiv va amaliy muammolarni hal qilishda foydalanishni o'rganish; turli guruhlarda ishlash orqali muloqot qobiliyatlarini egallash; o'zlarining tadqiqot qobiliyatlarini rivojlantirish (muammolarni aniqlash, ma'lumot to'plash, kuzatish, tajriba o'tkazish, tahlil qilish, gipotezalar tuzish, umumlashtirish qobiliyati); tizim fikrlashni rivojlantirish.

Shunday qilib, loyiha uslubining asosiy vazifasi - bilimlarning hajmini o'zlashtirish va ta'lim dasturlarini o'tash emas, balki o'quvchilarning o'z tajribalari va ularning dunyo haqidagi g'oyalarini amalda qo'llash, rivojlantirish va boyitishdir. Boshqacha qilib aytganda, har bir bola nafaqat o'ziga xosligini namoyon qilishi, balki uni boyitishi mumkin bo'lgan haqiqiy faoliyat uchun imkoniyatga ega bo'lishi kerak.

Loyiha usuli har doim o'quvchilarning mustaqil faoliyatiga - individual, juftlik, guruhga yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchilar ma'lum vaqt davomida bajaradilar. O'qituvchi ma'lumot manbalarini taklif qilishi yoki mustaqil ravishda izlash uchun o'quvchilarning fikrlarini to'g'ri yo'nalishga yo'naltirishi mumkin. Natijada, o'quvchilar mustaqil ravishda va birgalikdagi sa'y-harakatlarda muammoni hal qilishlari kerak, zarur bilimlarni, ba'zan turli sohalaridan foydalanib, haqiqiy va aniq natijaga erishish kerak. Muammoni hal qilish bo'yicha barcha ishlar loyiha faoliyatining maqsadlarini egallaydi.

Agar biz loyiha usuli sifatida pedagogik texnologiya haqida gapiradigan bo'lsak, unda ushbu texnologiya o'z mohiyatiga ko'ra izlanuvchanlik, izlanish, muammoli usullarning kombinatsiyasini nazarda tutadi.

Loyiha usuli zamonaviy jamiyatdagi haqiqiy ijtimoiy vaziyat bilan bog'liq bo'lgan ta'limning mutlaqo yangi traektoriyasini qurish uchun asos bo'lib, shu bilan ta'lim natijalarining jamiyatda muvaffaqiyatli birga yashash uchun zarur bo'lgan natijalarga yaqinligini ta'minlaydi.

Loyiha faoliyati intizomini tarbiyalash, shuningdek, jamoada ishlash qobiliyati, qabul qilingan qaror uchun javobgarlik tuyg'usi va ijobiy ijtimoiy faoliyatga munosabatni shakllantiradi. Mas'uliyat ijtimoiy vakolatni rivojlantirish uchun asosdir. Proeksion faoliyatda majburiy bo'lgan irodani rivojlantirish va xatti-harakatlarning o'zboshimchaliklari, ongli maqsadlarni belgilash mas'uliyatni shakllantirish bilan chambarchas bog'liqdir. Keyinchalik, biz mohiyati va tuzilishi bo'yicha dizayn texnologiyalariga o'xshash va ularning alohida xolati bo'lgan o'yin texnologiyalarini ko'rib chiqamiz.

Shunday qilib, o'quvchilarni ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini rivojlantirishda vitagen ta'lim texnologiyalari samarali vositasi bo'lib, u ham yoshlarda qadriyatlar tizimini shakllantirish vazifasini bajaradi va maktab o'quvchilarining hayotiy pozitsiyasini birlashtiruvchi kuchli vosita hisoblanadi.

Yuqoridagi texnologiyalarning afzalliklari quyidagi jadvalda keltirilgan.

O'quvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha o'qituvchi faoliyatida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar

Pedagogik texnologiyalar Texnologiyaning asosiy xususiyatlari

Vitagen ta'lim texnologiyalari Mustaqil ravishda yoki o'qituvchining yordami bilan kichik guruhlarda aloqa va o'zaro ta'sir me'yorlari o'rnatiladi, ish yo'nalishlari va umumiy muammoni hal qilish vositalari tanlanadi:

- birovning pozitsiyasini ko'rish, uni baholash, qabul qilish yoki qabul qilmaslik, kelishish yoki baxslashish, o'z nuqtai nazariga ega bo'lish, uni boshqasidan farqlash, himoya qila olish qobiliyati shakllanadi;

- ☐ o'zingizni erkin his qilish, individual tezlikda ishlash qobiliyati;
- ☐ nafaqat o'z yutuqlari uchun, balki jamoaviy ish natijalari uchun ham javobgarlik;
- shaxsni, uning imkoniyatlari va qobiliyatlarini yetarli darajada baholash shakllanadi.

Loyiha texnologiyalari natijalari: Ta'lim faoliyatining motivatsiyasi:

- muvaffaqiyat holatini yaratish,
- ijobiy his-tuyg'ularni keltirib chiqaradigan muhitni yaratish,
- kommunikatsion «o'qituvchi - talaba - o'qituvchi» muloqotida ijobiy his-tuyg'ularni tashkil etish,
- o'z faoliyatini mustaqil ravishda tahlil qilishni tashkil etish.

O'yin texnologiyalari natijalari: Guruh a'zolari o'rtasida ijobiy munosabatlarni o'rnatish:

- amaliy faoliyat uchun zarur bo'lgan ma'lum ko'nikmalarni shakllantirish;
- mashq natijalariga individual hissa qo'shish zarurati;
- intellektual, hissiy va shaxsan o'zaro yordam ko'rsatadigan o'quvchilarning bevosita o'zaro aloqasi;

- yetarlicha rivojlangan aloqa va ko'nikmalar mavjudligi.

Umumiy xulosa qilib aytganda, ijtimoiy-madaniy kompetensiya - bu shaxsning jamiyat va o'zi to'g'risidagi bilimlari, ko'nikmalari, jamiyatdagi axloqiy normalarda o'zini tutish ko'nikmalari, shuningdek, o'quvchilarning shaxsiy ma'naviy fazilatlarida namoyon bo'ladigan munosabatlarni, uning

motivlari, qadriyat yo'nalishlarini ichki tizimga birlashtiradigan va ijtimoiy jihatdan erishish uchun tashqi resurslarni integratsiyalash imkonini beruvchi ta'limdir.

Ta'lim olishning motivatsiyasi, muvaffaqiyatga erishish uchun vaziyat yaratish, ijobiy his-tuyg'ularni keltirib chiqaradigan muhit yaratish, "o'qituvchi - o'quvchi - o'qituvchi" muloqotida ijobiy his-tuyg'ularni tashkil qilish, o'z navbatida ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy qilish orqali samaradorlikka erishish mumkin. Ijtimoiy-madaniy kompetensiya - o'quvchi-yoshlarni axloqiy faollik, jamiyatda yashashga intilish, faol fuqarolik pozitsiyasi, ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirishda ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Fodalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Узлуксиз маънавий тарбия КОНЦЕПЦИЯСИ, 2019 йил 31 декабрдаги 1059-сон қарори.

Мухсиева А.Ш. Умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчиларида ижтимоий компетенцияларни ривожлантириш: Монография. –Т.: "ILM ZIYO ZAKOVAT", 2022. – 129 б.

Калинина Н.В. Развитие социальной компетентности студентов в образовательной среде. - Ульяновск: УИПК ПРО, 2004. - 228 б.

Коблянская Е.В. Психологические аспекты социальной компетентности. - СПб.: СПбГУ, 2005. – 210 б.

Кривенко В. А. Содержание и технология витагенного обучения учащихся //Наука и школа. – 2009. – №. 3. – С. 8-12

CHET TILLARINI O'QITISH JARAYONIDA O'YINLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI VA MEZONLARI*Omonboyeva Maxliyo Ixtiyorovna**Samarqand davlat chet tillar instituti, ingliz tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasini ingliz tili fani o'qituvchisi**Xurramova Munisaxon Ilyasxonovna**Samarqand davlat chet tillar instituti, ingliz tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasini ingliz tili fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada chet tillarini (xususan, ingliz tili) o'qitishda o'yinlardan foydalanishning ba'zi sabablari va mezonlarini tushuntiriladi. Shuningdek, o'yinlarning ahamiyati haqida ma'lumot beriladi va o'yinlar orqali ingliz tilini o'rgatishning afzalliklari ko'rsatib o'tiladi. Ta'limiy o'yinlar ijobiy muhitni yaratishga yordam beradi va o'quvchilarda erkin so'zlashuv imkoniyatini yaratib, o'ziga ishonchini oshiradi. Chet tilini o'qitish uchun juda ko'p o'yinlar mavjud bo'lib, ularning hammasi ham foydali emas. O'yinlarni faqat o'yin-kulgi uchun bo'lmasdan, balki o'quvchilarni jalb qilishga va tildan qanday foydalanishni o'rganishga yordam berishi kerak.

Kalit so'zlar: o'yinlar, sinfxona, o'quvchilar, atmosfera, yaratish, faoliyat, jalb qilish

ПРЕИМУЩЕСТВА И КРИТЕРИИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИГР В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ*Амонбоева Махлиё Ихтиоровна**Самаркандский государственный институт иностранных языков, кафедра теории и практики английского языка, преподаватель английского языка**Хуррамова Мунисахан Ильясхановна**Самаркандский государственный институт иностранных языков, кафедра теории и практики английского языка, преподаватель английского языка*

Аннотация: В этой статье объясняются некоторые причины и критерии использования игр при обучении иностранным языкам (в частности, английскому). Также будет рассказано о важности игр и показаны преимущества обучения английскому языку с помощью игр. Развивающие игры помогают создать позитивную атмосферу и повышают уверенность учащихся, позволяя им свободно говорить. Существует множество игр для обучения иностранному языку, не все из которых полезны. Игры предназначены не только для развлечения, но и должны помочь вовлечь учащихся и научиться использовать язык.

Ключевые слова: игры, класс, учащиеся, атмосфера, творчество, активность, вовлеченность.

ADVANTAGES AND CRITERIA OF USING GAMES IN THE PROCESS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES*Amonboyeva Makhliyo Ikhtiyorovna**Samarkand State Institute of Foreign Languages, Department of English Language Theory and Practice, English teacher**Khurramova Munisakhan Ilyasxanovna**Samarkand State Institute of Foreign Languages, Department of English Language Theory and Practice, English teacher*

Abstract: This article explains some of the reasons and criteria for using games when teaching foreign languages (in particular, English). It will also talk about the importance of games and show the benefits of learning English through games. Educational games help to create a positive atmosphere and increase students' confidence, allowing them to speak freely. There are many games for learning a foreign language, not all of which are useful. The games are not only intended for entertainment, but should also help to engage students and learn how to use the language.

Keywords: games, classroom, students, atmosphere, creation, activity, involvement

Kirish. O'yinlar chet tillarini o'qitish dars jarayonlarining eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir. O'yinlar qiziqarli bo'lish bilan birgalikda, maqsadlar va qoidalarga ega bo'lgan faoliyatni o'z ichiga oladi. Hedfild o'yinlarni «qoidalar, maqsad va o'yin-kulgi elementiga ega bo'lgan faoliyat» deb ta'riflaydi. Ba'zi mualliflarning fikriga ko'ra, til o'yinlarini chet tilini o'rgatish dasturining markaziga qo'yish kerak, chunki ular maroqli bo'lishdan tashqari, qo'shimcha ravishda maqsad va vazifalarga ham ega bo'ladi hamda ma'lum bir tartib- qoidalar bilan boshqariladi.[3]

Greenal tomonidan berilgan ta'rifga tayanib shuni aytish mumkinki, o'yinlar til o'rganayotgan

o'quvchilar o'rtasida ijobiy raqobat yaratadi.[2]

Tadqiqot usullari. Tadqiqot davomida sifat tahlili va qiyosiy usullardan foydalanildi. Ular yordamida bir qancha maqola va kitoblar ko'rib chiqilib, tahlil qilindi. O'yinlar - bu o'zaro muloqot, fikrlash, o'rganish va muammolarni hal qilish strategiyalarini rivojlantiruvchi qiziqarli mashg'ulotlardir. Ko'pincha o'yinlar unda ishtirok etuvchi o'quvchilarga ma'lumotlarni qisqa vaqt ichida birlashtirib, umumlashtirishga imkon beradigan jihatga ega bo'ladi. Ba'zi o'yinlar o'quvchilardan jismoniy faoliyat bilan shug'ullanishni yoki aqliy vazifani bajarishni talab qiladi. O'yinlar o'quvchilarda ijodkorlikni, mustaqillikni va yuqori darajadagi fikrlashni shakllantiradi.

Tadqiqot natijalari. O'yinlarning chet tili darslarida munosib o'rin egallashining bir qancha sabablari bor. Birinchidan, o'yin mashg'ulotlari qiziqarli bo'ladi, bu juda muhim xususiyat, chunki ular ilgari fanga qiziqishi yo'qligi sababli dars jarayonlarida faol bo'lmagan talabalarni faollashtirishga yordam beradi. Talabalarning faolligini ta'minlash juda ahamiyatlidir, chunki o'qituvchilar o'quvchilarni o'z dars jarayoniga jalb qila olmasalar, hech qachon hech nimani o'rgata olmaydilar.

Ikkinchidan, o'yinlar ishtirokchilarga o'zaro munosabatlarni o'rnatishda va o'zlarini teng his qilishda katta rol o'ynaydi. Sinfda o'yin o'ynash, shuningdek, o'rindqlarni o'zgacha tartibda joylashtirish do'stona va ijobiy muhitni yaratishga yordam beradi, shu bilan birga odatiylikdan xilma-xillikka o'tishga imkon yaratib, qiziqarli o'qish muhitini saqlab qolishga yordam beradi.

Uchinchidan, ko'pchilik til o'rganishni istashining sababi, bu tildan real vaziyatda, masalan, sayohat paytida foydalana olishdir. O'yinlar esa bu ko'nikmani amalda shakllantirishning juda yaxshi usuli bo'lishi mumkin, chunki turli xil real hayotiy vaziyatlarga taqlid qilish va o'quvchilardagi tildan foydalanish ravonligini oshirish uchun o'yin mashg'ulotlaridan osongina foydalanish mumkin. Bundan tashqari, darsda o'yinlardan foydalanish orqali o'qituvchi o'z o'quvchilariga kattaroq rol beradi va o'zi ham dars mashg'uloti markazidan chetga chiqadi, bu ijobiy holat, chunki bu o'quvchilarga ko'proq mas'uliyatni o'z zimmlariga olishlariga imkoniyat yaratadi. Shuningdek, bu o'quvchilarga ko'proq narsani mustaqil ravishda qilish imkonini beradi va bu ularning o'ziga bo'lgan ishonch darajasining oshishiga olib kelishi mumkin. [5]

To'rtinchidan, chet tillarini o'rganuvchilar turli vaziyatlarda til bilan tanishishlari kerak va bu ehtiyojni o'yinlar bilan qondirish mumkin. Chet tili o'rganayotgan o'quvchilar, shuningdek, tajriba olishga, keng fikrlashga va yana o'yin ishtirokchilari bo'lishga tayyor bo'lishlari kerak va bular o'yinlar orqali amalga oshadi.

Beshinchidan, til o'rganuvchilari o'yin mashg'ulotlarida o'z hissiyotlarini ham ishlatishlari lozim, ya'ni ular til bilan tanishishda nimanidir his qilishlari kerak. Baxt, hayajon, o'yin-kulgi va xavotir kabi kuchli his-tuyg'ular o'quvchilarga o'zlarining o'qish jarayonlarini ijobiy qabul qilishlariga imkon beradi va shuning uchun chet tili o'rganish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Oltinchidan, uyatchan va o'ziga ishonchi past o'quvchilar uchun o'yinlar ayni muddaodir, ayniqsa o'yinlar kichik guruhlarda tashkil etilganda bunday turdagi o'quvchilar butun sinf oldida o'z fikrlarini ifoda etish o'rniga kichikroq auditoriya oldida osonroq gapira olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bundan tashqari, ba'zida o'yin jarayonida tortinchoqlikni unutish va bartaraf etish osonroq bo'ladi, chunki o'yin muhiti unchalik jiddiy emas va grammatik to'g'ri gapirishdan ko'ra ravonlikka ko'proq e'tibor beriladi [5].

Yettinchidan, o'yinlar turli fanlarni o'qitishda yaxshi vosita bo'lishi mumkin, chunki ular o'quvchilarning fanlarga bo'lgan qiziqishini uyg'otadi. O'yinlardan barcha yoshdagi o'quvchilarni o'qitishda foydalanish mumkin va boshqa o'qitish usullari bilan birgalikda qo'llanilganda o'yinlar maktab ta'lim muhiti uchun ideal bo'lgan xilma-xillikni yaratadi. 2006-yilda Islandiyada o'tkazilgan tadqiqot maktab ta'lim jarayonida turfa-xillikka bo'lgan ehtiyojni aniq ko'rsatdi. Ushbu tadqiqotning ko'plab ishtirokchilari turli xillik yo'qligidan shikoyat qildilar va ular o'z maktablarida o'qishlari yanada qiziqarli va ilg'or bo'lishi uchun ko'proq narsani xohlashlarini aytdilar [6].

Va nihoyat, dars jarayonida o'yinlardan foydalanish juda muhim, chunki jamiyatda va insonlarning yashash tarzlarida ro'y berayotgan o'zgarishlar bilan bog'liq holda bugungi kunda ko'plab bolalar bo'sh vaqtlarida o'yin faoliyati bilan shug'ullanish uchun yetarli imkoniyatga ega emaslar.[8].

Chet tilini o'qitish uchun foydalaniladigan o'yinlar o'quvchilarni o'zaro yaqinlashtirish yoki vaqtini o'tkazishga qaratilgan faoliyat bo'lib cheklanmaydi. Birinchi o'yinlarga qoidalar bilan boshqariladigan o'yin shakli sifatida ta'rif berdi. O'yinlar qiziqarli va maroqli bo'lishi kerak. Ular shunchaki o'yin-kulgi, muntazam mashg'ulotlarda tanaffus emas, balki o'yin davomida o'quvchini chet tilidan foydalanishga undash usulidir. Xuddi shunday, Jil Hedfild o'yinlarni «qoidalari, maqsadi va qiziqarlilik xususiyatiga ega bo'lgan faoliyat» deb ta'riflagan.[3].

Muhokama. Konstantinesku o'yinlarning ba'zi afzalliklarini quyidagicha ta'kidlaydi:

“O'yinlar o'quvchilarning ingliz tilidagi so'z boyligini tanish va qulay muhitda, o'zlarini ishonchli his qiladigan sharoitda (hatto alohida ehtiyoji bor o'quvchilar uchun ham) shakllantiradi.

O'yinlar o'quvchilardagi motivatsiyani va o'z-o'zini takomillashtirish istagini oshiradi.

Qiyinchilik va raqobat har qanday o'yin uchun asosiy omillardir va o'quvchilar berilgan vazifani bajarishga asosiy e'tiborini qaratishadi.

Fanlararo yondashuv. Talabalar boshqa fanlardan olgan bilimlaridan ham foydalanadilar.

O'yinlarda aniq qoidalar va maqsadlar mavjud.

O'yinlar tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish ko'nikmalarini va tasavvurni rivojlantiradi. O'yinlar an'anaviy, qog'ozga asoslangan o'qitish/o'qishning o'rmini bosa oladigan yangi va dinamik o'qitish uslublarini taklif etadi.

O'yinlarni turli bilim darajalariga moslashtirishning imkoni bor.

Ta'limiy o'yinlarni tushunish va ishlatish oson.

O'yin uchun ajratilgan vaqt odatda oldindan ma'lum qilinadi va unga o'quvchilar tomonidan amal qilinadi

Dars jarayonida o'yinlardan o'quvchilarni rag'batlantirish usuli sifatida foydalanish mumkin"[1].

Misol tariqasida ikkita o'yinni ko'rib o'tsak.

1-o'yin- "Red light, Green light"

Maqsad: So'z boyligini tekshirish va mustahkamlash

Bitta o'quvchi hakam sifatida tanlanadi, uning vazifasi Qizil chiroq (yozishni to'xtang) va Yashil chiroq(yozishni boshlang) so'zlarini aytish.Navbat bilan doskaga 4 tadan o'quvchi chaqiriladi va ularga yozish uchun ma'lum bir vazifa beriladi,masalan,10 ta ranglar, 8ta hayvonlar, hafta kunlari va h.k.larni yozish. Hakam "Yashil chiroq" deganda ularni yozishni boshlaydi va "Qizil chiroq" deganda to'xtashi kerak.Vazifani to'g'ri va birinchi tugatgan o'quvchi yangi hakam bo'ladi.

2-o'yin- "Swat"

Maqsad: Eshitish qobiliyati va so'z boyligini tekshirish

O'qituvchi o'quvchilar takrorlashi kerak bo'lgan so'zlarni har xil tartibda doskaga yozib chiqadi. O'quvchilar ikki guruhga bo'linadi va har bir jamoaga muxoboyka (pashsha o'ldiruvchi vosita) beriladi, keyin o'qituvchi doskadagi birorta so'zni ta'riflaydi va har ikkala guruhdan birinchida turgan o'quvchilar ta'rifga mos keluvchi so'zni ustiga muxoboyka bilan urishi kerak. O'yin shu tariqa davom etadi. Eng ko'p ball yig'gan jamoa g'olib bo'ladi.

O'quvchilar o'yin-kulgi uchun dars jarayonida o'yin o'ynashga kuchli xohish bildirishlari mumkin. Biroq, o'qituvchilarga darsda o'yin mashg'ulotlaridan foydalanishlari uchun ko'proq sabablar kerak. O'qituvchilar qaysi o'yinlardan foydalanish kerakligi, ularni qachon qo'llash va ularni o'quv dasturi, darslik bilan qanday bog'lash va ayniqsa, ular qanchalik foydali ekanligiga juda kuchli ahamiyat berishlari kerak. Chet tili o'qitish darslarida o'yinlarni tanlash va ulardan foydalanishda o'qituvchilar ko'p jihatlariga diqqat qaratishlari kerak. Konstantinesku til o'yinlarini tanlashda o'qituvchilar tomonidan inobatga olinishi kerak bo'lgan ko'plab jihatlarini aytdi:

O'yinlarning maqsadi bo'lishi kerak. Ular nafaqat o'yin-kulgi uchun, balki o'quvchilarni qiziqitirish va rag'batlantirish uchun ishlatiladi.

O'yinlar chet tilidan foydalanishga yo'naltirilishi kerak. Ularning yordami bilan talabalar til komponentlarini o'rganishlari, mashq qilishlari yoki takrorlashlari lozim.

O'yin mashg'ulotining mazmuni juda muhim. U o'quv dasturiga mos kelishi, barcha nuqtai nazardan to'g'ri bo'lishi va noto'g'ri fikrlarni (masalan, zo'ravonlikni) targ'ib qilmasligi kerak.

Sinfda o'yinlar texnik jihatdan tashkillashtirishga oson bo'lishi kerak.

O'yinlar o'quvchilarning yoshi va bilim darajasiga mos bo'lishi kerak.

O'yinlar barcha talabalarni qiziqitirishi kerak.

Qisqa o'yinlardan foydalanish tavsiya etiladi; aks holda o'quvchilar qiziqishlarini yo'qotishi mumkin". [1]

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ushbu tadqiqot natijalariga ko'ra, o'yinlar o'quvchilar bilan bir qatorda o'qituvchilar uchun ham qulay o'qitish va o'rganish muhiti yaratish nuqtai nazaridan chet tilini o'qitish darslarida juda muhim ahamiyatga ega vositadir va shu bilan birga, o'yinlar o'yin-kulgidan ko'ra ta'limga yo'naltirilgan bo'lsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Constantinescu, R. S. (2012). Learning by playing: Using computer games in teaching English grammar to high school students. Education Source. 110-115.

Greenall, S. (1990). Language games and activities. Hulton Educational Publications Ltd.

Hadfield, J. 1990. A Collection of Games and Activities for Low to Mid-Intermediate students of English. Intermediate Communication Games. Hong Kong: Thomas and Nelson and Nelson and Sons Ltd.

Ilyasxonovna, X. M., & Ixtiyorovna, O. M.(2023). Chet tilini o'qitishda qo'shiqlardan foydalanishning ahamiyati. Ijtimoiy fanlarda innovatsiya onlayn ilmiy jurnali, 3(2), 193–195.

Langran, John and Pucell, Sue 1994. Language Games and Activities. Network 2. Teaching Language to Adults. London: Center for Information on Language Teaching and Research. 2009.

Lovisa Krinjánsdóttir, Laufey Bjarnadóttir og Samuel Lefever. 2006.

Munisaxon Ilyasxonovna Xurramova (2021). Lexicographic analysis of toponyms (based on the material of the dictionary «Collins Concise Dictionary», 4th Edition, 2005). Science and Education, 2 (5), 534-538.

Sigriður, D. 2010. The use of games in the language classroom.

TALABALARDA KASBGA E'TIQODNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI*Ramazanovna Feruza Xudoynazarovna**Buxoro davlat pedagogika instituti Pedagogika kafedrası o'qituvchisi*

Annotasiya. Ushbu maqolada talabalarning kasbga e'tiqodini shakllantirish va rivojlantirish borasida fikr yuritilib, uning pedagogik va psixologik xususiyatlarini ochib berishga harakat qilingan. Oliy ta'limdagi o'qitish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning kasbga e'tiqodini rivojlantirish muammolari bo'yicha mahalliy va xorijiy tadqiqotlarning ilmiy izlanishlari tahlili ochib berilgan. Shuningdek, talabalarning pedagogik va psixologik rivojlanishiga ta'siri ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, kasb, e'tiqod, oliy ma'lumot, pedagogika, mehnat, talaba, tarbiya, o'qituvchi, shogird, ustoz, islom, bo'lajak o'qituvchi.

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ У УЧАЩИХСЯ ВЕРЫ В ПРОФЕССИЮ*Рамазанова Феруза Худойназаровна**Преподаватель педагогического факультета Бухарского государственного педагогического института*

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы формирования и развития веры учащихся в профессию, делается попытка раскрыть ее педагогические и психологические особенности. Раскрыт анализ научных исследований отечественных и зарубежных исследований по проблемам развития профессиональной веры будущих педагогов в процессе обучения в высшем образовании. Также показано влияние на педагогическое и психологическое развитие учащихся.

Ключевые слова: образование, профессия, вера, высшее образование, педагогика, труд, студент, воспитание, учитель, ученик, учитель, ислам, будущий учитель.

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' FAITH IN THE PROFESSION*Ramazonova Feruza Khudoynazarovna**Teacher of the Pedagogical Faculty of the Bukhara State Pedagogical Institute*

Annotation. This article discusses the issues of formation and development of students' faith in the profession, an attempt is made to reveal its pedagogical and psychological features. The analysis of scientific research of domestic and foreign studies on the problems of the development of professional faith of future teachers in the process of studying in higher education is disclosed. The influence on the pedagogical and psychological development of students is also shown.

Key words: education, profession, faith, higher education, pedagogy, work, student, upbringing, teacher, student, teacher, Islam, future teacher.

Kirish. Mamlakatimizda zamon talablari asosida ta'lim jarayonini tashkil etish, jumladan, oliy ta'lim tizimi pedagogik yo'nalishdagi fanlar uzviyligini ta'minlash, ta'lim mazmunini integratsiyalash, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish orqali yuqori malakali kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "ta'limning ishlab chiqarish korxonalari va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan o'zaro manfaatli hamkorligini yo'lga qo'yish" [1] muhim ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu esa, oliy ta'limda bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik yo'nalishdagi fanlar integratsiyasi asosida kasbga e'tiqodini rivojlantirish orqali ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishni taqozo etadi.

Qarorlar sharhi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2020 yil 27 fevraldagi PQ-4623-sonli "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi" Farmon va Qarorlari hamda mazkur faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi. Oliy ta'lim o'qitish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning kasbga

e'tiqodini rivojlantirish muammolari bo'yicha mahalliy va xorijiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kasbga e'tiqodning muhim jihatlari talabalarda o'z-o'zini anglash, shaxsiy o'sish, o'z-o'zini bilish va yuqori ma'naviyatga erishish nuqtai nazaridan ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi. Oliy ta'limda kasbiy kompetensiyani muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan kasbga e'tiqod masalasining pedagogik-psixologik xususiyatlari tadqiqotchi – olimlar G.M. Andreyeva, T.M. Buyakas, A.V. Kuzmin, D. Orlov, M.V. Zakorotnaya, L.M. Putilova, A.V. Lukyanov, P.V. Gurevich, A. Toffler va boshqalar olimlar tomonidan o'rganilgan.

T.M. Buyakasning fikricha "Kasbiy kompetensiya - bu shakllanishi va faoliyati boshqa ijtimoiy rollardan farq qilmaydigan professional rolni egallash jarayoni bo'lib, ushbu jarayon talabalarda "Myen" ni ob'yektivlashtirish shaklida ifodalanishi mumkin. Kasbiy kompetensiyani rivojlantirish kasbiy o'zini o'zi belgilash va kasbga xos fazilatlarni rivojlantirish jarayonida sodir bo'ladi.

Respublikamiz olimlaridan L.Axmedova, U.Begimqulov, N.Muslimov, B.Rahimov, N.Tayloqov, Sh.Sharipov va boshqalar ta'lim sohasida ijtimoiy- pedagogik, akmeologik masalalarga doir ilmiy tadqiqotlar olib borgan va bu tadqiqotlarda bevosita muayyan yo'nalishlardagi mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish masalalari keltirib o'tilgan.

Shuningdek, pedagogning kasbiy mahoratini takomillashtirish masalalari pedagog olimlar H.Abdulkarimov, N.Azizxo'jayeva, A.Aliyev, Yu.A.Axrorov, A.A.Verbitskiy, R.H.Jo'rayev, B.R.Jo'rayeva, J.G'. Yo'ldoshev, S.M.Markova, G.M.Maxmutova, A.A.Hamidov, F.R.Yuzlikayevlarning ishlarida ham tadqiq etilgan. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlarida V.Baydenko, A.Zalevskaya, E.Zeyer, I.Zimnyaya, O.Polyakov kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va takomillashtirish usullarini turli jarayonlarda tahlil qilish va tizimlashtirish masalalari ko'rib chiqilgan [2. 815].

Oliy ta'limda o'quv-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslarda tashkil etish, bo'lajak o'qituvchilardan pedagogik jarayonlarning sifat va samaradorligini ta'minlashda zamonaviy yondashuvlarga asoslanadigan, yuksak axloqiy sifatlariga ega bo'lgan, o'zini-o'zi va o'z faoliyatini o'zi tahlil qiladigan va ob'yektiv baholay oladigan, boy falsafiy va ma'naviy dunyoqarashga, psixologik-pedagogik va tashkiliy-texnologik salohiyatga ega bo'lgan, shuningdek, axborotlar to'plash, tahlil qilish, ob'yektiv baholash, qayta ishlash va axborotlar almashinish, pedagogik jarayonlarda vujudga kelgan muammoli vaziyatlarda ta'lim oluvchilar faolligini ta'minlash va faoliyatini muvofiqlashtirish, pedagogik jarayonlar samaradorligiga va talabalar faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni oldindan aniqlash asosida ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oldindan ko'rish ko'nikmalariga ega bo'lgan hamda ta'lim-tarbiya jarayoni sub'yektlari faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish, muvofiqlashtirish, faolligini ta'minlash yo'nalishida zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan pedagogni kasbiy kompetensiyaga ega o'qituvchi deyishimiz mumkin.

So'ngi o'n yilliklarda jamiyatning ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy va siyosiy hayotidagi jadal o'zgarishlar bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishni talab qiladi, jumladan:

- kasbiy faoliyat sohasini kengaytirish;
- turli kasbiy sohalarida, shu jumladan pedagogik sohalarida inson harakatchanligini chuqurlashtirish;
- zamonaviy ta'lim texnologiyalari va ularni o'quv jarayonida qo'llash ko'nikmalarini o'zlashtirish

zaruriyatining paydo bo'lishi.

Oliy ta'lim tizimining barqarorligi, muvaffaqiyatli rivojlanishining muhim shartlaridan biri bu professional kadrlar tayyorlash jarayoni hisoblanadi. Hozirgi vaqtda o'qituvchilarning kasbiy faoliyati qiyin va ziddiyatli sharoitlarda amalga oshirilmoqda, buning sabablaridan biri shundaki, o'qituvchining kasbiy maqomiga, madaniy darajasiga, turmush tarziga va jamiyat ularga erishish uchun taqdim etadigan haqiqiy imkoniyatlarga mos keladigan talab qilinadigan vakolat darajasi o'rtasida nomuvofiqlik mavjud. Shu sababli bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda kasbiy kompetensiyaga va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar asosida integrasiyalashgan kadrlar pedagogik salohiyatini yaratish vazifasi turadi.

Ushbu muammoni hal qilishda psixologiya fanining roli ayniqsa muhimdir. Zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda faol o'qitish orqali o'qituvchilarning kasbga e'tiqodini rivojlantirish masalalari tadqiqotchi olimlar A.K. Kolechenko, A.K. Mynbayeva, Z.M. Sadvakasova, A.P.Panfilova, N. Sorokina, J. Talipova, M.V. Ushakova, N.A. Shmeleva, G.G.Varlamova, L.V. Shmelkova, G.K. Selevko, G. Tajigulova, V.G. Laos tomonidan o'rganilgan.

Mashhur pedagog Yan Amos Komenskiy "O'qituvchilik yer yuzidagi har qanday kasbdan ko'ra yuqoriroq turadigan juda faxrli kasb" ekanligini ta'kidlaydi. O'qituvchi obrazini tasvirlar ekan, uning shaxsida quyidagi fazilatlarga bo'lishi maqsadga muvofiqligiga urg'u beradi: vijdonli, ishchan, sabotli, axloqli, o'z ishini sevuvchi, o'quvchilarga otalaridek muomala qiluvchi, ularda bilimga havas uyg'otuvchi, o'quvchilarni o'z ortida ergashtiruvchi va o'z e'tiqodiga ega bo'lgan shaxs.

O'qituvchi(pedagog) – pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha maxsus

ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlariga ega, ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxs[4.5.6.].

Ko'rinib turibdiki, bo'lajak o'qituvchining kasbga e'tiqodini rivojlantirishi nafaqat ma'lum bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish orqali, balki uning kasbiy va shaxsiy o'z-o'zini takomillashtirishini ham o'z ichiga oladi. Shuning uchun o'z-o'zini takomillashtirish va bo'lajak o'qituvchi shaxsining kasbiy yo'nalishini shakllantirish oliy ta'limning eng muhim vazifasidir. Ushbu muammoni hal qilishda rivojlanishning psixologik jarayonini, uning turli bosqichlarida o'zini takomillashtirish va shaxsni shakllantirishni tushunish muhimdir.

Psixolog B.V. Kaygorodov tomonidan o'tkazilgan tadqiqot jarayonida talabalar shaxsiyatining rivojlanishi tahlili shuni ko'rsatdiki, birinchi navbatda talabalar jamiyatdagi o'z o'rnini aniqlashga, yangi hayotga moslashishga, turli xil ijtimoiy munosabatlarda faol pozitsiyani egallashga harakat qiladi, bu yerda ularning "men" i harakat qiladi boshqalar bilan teng ravishda, bu jamiyatda o'z-o'zini anglashning yangi darajasini rivojlantirishga yordam beradi.

Bo'lajak o'qituvchining kasbga e'tiqodini rivojlantirish jarayoni avvalo pedagogik amaliyot bilan chambarchas bog'liqdir. Bu birinchi navbatda, talabalarga nazariy mashg'ulotlar davomida olingan pedagogik o'zaro munosabatlarda pedagogik tajribasini riyal amaliyotda sinab ko'rish, o'z imkoniyatlari va qobiliyatlarini shu jihatdan o'qituvchiga qo'yiladigan talablar bilan bog'lash, muammolarini amalga oshirish imkonini beradi. Pedagogik amaliyot davomida ideal o'qituvchi "modeli" (kasbiy va shaxsiy faoliyati) va "original" jarayon bilan mos kelmasligi juda muhimdir.

Ideal o'qituvchi haqidagi nazariy g'oyalarni tushunish va o'z kuzatuvlari, o'z-o'zini tahlil qilish va o'z kasbiy faoliyati natijalari asosida o'z-o'zini baholash natijasida talaba "optimal" o'qituvchi obrazini, ya'ni ma'lum bir shaxsning imkoniyatlariga mos keladigan obrazni rivojlantiradi. Bularning barchasi talabalarining kasbga e'tiqodini rivojlantirish, kasbiy va shaxsiy o'zini o'zi takomillashtirish muammolarini belgilash va hal qilish uchun qulay sharoit yaratadi.

Oliy ta'lim muassasalarida psixologiya fanida bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy va kasbiy o'z-o'zi takomillashtirishning psixologik asoslarini yetarli darajada ochib bermagan bo'lib, unda konseptual model mavjud emasligi, shuningdek, o'qish va o'qitish jarayonida bo'lajak o'qituvchining shaxsiy va kasbiy faoliyat xususiyatlarining ijobiy va salbiy ko'rinishlari yaratilmaganligi bilan izohlanadi.

Bo'lajak o'qituvchilarning zamonaviy ta'lim tizimida (psixologik, kasbga yo'naltirish) psixologik moslashuvi, shuningdek, kasbga e'tiqodini shakllantirish muammosi bilan bog'liq shaxsiy jarayonlarni o'rganish jarayoni ushbu muammoning dolzarbligini oshiradi. Bunday muammolar qatoriga oliy ta'limning dastlabki bosqichlarida bo'lajak o'qituvchi shaxsining kasbga e'tiqodini rivojlantirish jarayonini psixologik o'rganish kiradi. Kasbga e'tiqodini rivojlantirish jarayonida talaba bir qator bosqichlardan o'tadi.

Dastlabki bosqich. Talaba tashqi tomondan hissiy munosabat, vaziyatli kasbga qiziqish, mavzuga munosabat, ma'lum bir kasbni egallashga qaror qiladi, lekin u mustaqillikka ega yemas va tashabbus ko'rsatmaydi.

Ikkinchi bosqich. Talaba kasbga qat'iy munosabatda va barqaror qiziqishlarga ega; uning moyilligi bor, lekin u o'quv materialining amaliy jihatlari bilan ko'proq qiziqadi; shakllangan maqsad o'quv va kasbiy faoliyatining umumiy yo'nalishini beradi, u o'ziga ishonch, mustaqillik tuyg'usiga ega; mas'uliyat hissi shakllanadi.

Uchinchi bosqich. Talaba kasbga qat'iy munosabatda, unga doimiy qiziqish va moyillikka ega; o'quv materialining amaliy va nazariy tomoniga alohida ishtiyoq ko'rsatadi; kasbiy ish orqali shaxsning o'zini o'zi tasdiqlashi mavjud.

To'rtinchi bosqich. O'z kasbiga bo'lgan ishtiyoqi kuchli; yuqori kasbiy mahorat va professional idealning mavjudligi qayd etilgan; o'z kasbining shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatiga qat'iy ishonch bilan yondashadi.

Insonning kasbiy yo'nalishi, o'zini o'zi belgilash va o'zini o'zi takomillashtirishning psixologik mexanizmlari kasbiy muhim fazilatlarni belgilaydigan motivlar, qadriyatlar, shaxsiy ma'nolar va qobiliyatlarning murakkab ko'p bosqichli tuzilishi bo'lishi mumkin [3. 53]. Kasbga qiziqish ko'pincha ma'lum o'quv fanlariga qiziqish, shuningdek, har qanday kishiga, ba'zan kasbning tashqi tomoniga bo'lgan ishtiyoq sifatida qabul qilinadi. Yoshlar ko'pincha mutaxassis sifatida ularga qo'yiladigan aniq talablar, kelajakdagi ishning dunyoviy tomonlari haqida kam ma'lumotga ega. Ular ba'zan o'zlarining qarashlari, moyilliklari va qobiliyatlarini tushuna olmaydilar[8. 127-134].

Hozirgi vaqtda o'tkazilgan so'rovnomalar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak o'qituvchilarning katta qismi o'z kasbiga salbiy munosabatda bo'ladi, ushbu vaziyatning sabablari ham sub'yektiv, ham ob'yektivdir. Eng kuchli omil-bu kasbga e'tiqod g'oyasining oliy ta'limda o'qish jarayonigacha bo'lgan kasbga nisbatan o'zgarishi. Tanlangan mutaxassislikka qiziqish munosabatini tarbiyalash bo'yicha maqsadli

ishlar hali uoliy ta'limda tegishli darajada amalga oshirilmagan bo'lib, bu oliy ta'lim muassasasigacha bo'lgan kasbga yo'naltirishning bo'shliqlarini to'ldirmaydi, bu faqat shaxsning kasbiy yo'nalishini shakllantirishning dastlabki bosqichidir.

Kasga e'tiqodni shakllantirish uchun o'qituvchini kasbini egallash imkoniyatlariga ishonitirish, kelajakdagi istiqbollariga ishonchni uyg'otish, kasbning estetik jihatlarini, uning ijodiy xarakterini ko'rsatish kerak. Yana bir usul- bo'lajak o'qituvchilarning faoliyatini, o'qishini va ijtimoiy mavqeini kelajakdagi kasbiy faoliyati talablarini hisobga olgan holda tashkil etishdan iborat[9. 207-214].

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbga e'tiqodini mustahkamlashda ularning ilmiy-tadqiqot ishlardagi ishtiroki muhim rol o'ynaydi. Ta'lim jarayonida, ilmiy-tadqiqot faoliyatida, ijodiy jamoalarda ishtirok etish, ushbu tadbirlarning muhimligini ko'rsatish, ularni amalga oshirish muvaffaqiyatini ta'minlash, xayrixohlik muhitini yaratish muhimdir[7. 87].

Xulosa Kasbga e'tiqod tushunchasi ijtimoiy-falsafiy va ijtimoiy-madaniy tushuncha bo'lganligi sababli uning mazmuni zamonaviy o'qituvchining ijtimoiy jamiyatda tutgan o'rni, uning mavqeini oshirish, yosh avlod ongida o'qituvchilik kasbga bo'lgan hurmatni tarbiyalash tuyg'ularini o'z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрь “Ўзбекистон Республикаси Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепциясини тасдиqlаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сонли Фармони. Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 2019 й.
2. Ахмаджонов Д.Б. Бўлажак ўқитувчилар касбий компетенцияларини такомиллаштириш шакл ва усуллари. //Academic research in educational sciences volume 2 | ISSUE 4 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific journal impact factor (Sjif) 2021: 5.723. P 815-825.
3. Жунисбекова Ж.А., Керимбеков М.А., Жунисбекова Д.А. Характеристика психологических основ формирования профессионального самоопределения будущих педагогов //Международный журнал экспериментального образования. – 2014. - № 5-1. – С. 53-57.
4. Русско-узбекский словарь. В двух томах. Том II. УСЭ. – Ташкент: 1984. – 798 с.
5. Ўзбекистон миллий энциклопедиясининг 3-жилди. Тошкент. Давлат илмий нашриёти, 2002.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. (Э ҳарфи) “Ўзбек миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашри. Тошкент. 2006-2008. 70 б.
7. Ramazonova F.X. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda kasbiy e'tiqod tuyg'usini shakllantirish imkoniyatlari. //Ped mahorat (Maxsus son). – Buxoro: 2022 – B. 86-89.
8. Ramazonova F.X. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbga e'tiqodni rivojlantirishning mavjud holati va takomillashtirish yo'nalishlari.// Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. N2.– Buxoro: 2023. –B.127-134. ISSN 2181-1709 (P) <http://interscience.uz>
9. Болтаев А.Х., Рамазонава Ф.Х. Бухоро ўлкашунослик музейи 100 ёшда (тарих ва таҳлил). Музейшунослик XXI асрда: тадқиқотлар, анъаналар ва инновациялар халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами 2-китоб. – Тошкент: 2022 йил 28 февраль. – Б .207-214.

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MODELASHTIRISH
KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH VOSITALARI**

Sabirov Sardor Jumanazarovich
Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

**СРЕДСТВА ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКОВ МОДЕЛИРОВАНИЯ У УЧАЩИХСЯ
НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ**

Сабиров Сардор Джуманазарович
Независимый научный сотрудник Ургенчского государственного университета

MEANS FOR FORMING MODELING SKILLS IN PRIMARY SCHOOL PUPILS

Sabirov Sardor Jumanazarovich
Independent researcher of Urganch State University

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida modellashtirish ko'nikmalarini shakllantirish mazmuni keltirilib o'tilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarida modellashtirish ko'nikmalarini shakllantirishda ko'maklashadigan vositalar, usul va metodlardan foydalanishlari tavsiyalar keltirilib o'tilgan.

Tayanch so'zlar: Modellashtirish, loyiha, metod, texnologiya, model.

Annotation: The content of modeling skills formation in primary school pupils is presented in this article. Also, recommendations for the use of tools, techniques and methods that help in the formation of modeling skills are given for the pupils in primary education.

Key words: Modeling, project, method, technology, model.

Аннотация: В статье представлено содержание формирования навыков моделирования у учащихся начальных классов. Также даны рекомендации по использованию средств, приемов и методов, помогающих в формировании навыков моделирования для учащихся начальных классов.

Ключевые слова: Моделирование, проект, метод, технология, модель.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida modellashtirish ko'nikmalarini shakllantirish natijasida o'quvchilarning intellektual sohalarini rivojlantirish imkoniyatlari kengayadi. Chunki modellashtirish metodi yordamida o'quvchilarning nazariy bilimlari boyitiladi, axborotlarni tahlil qilish kompetensiyasi rivojlanadi.

Modellashtirish bilan bog'liq barcha o'quv harakatlari ijtimoiy voqelik bilan aloqadorlikda amalga oshirilishi. Mazkur vaziyatda o'qituvchilar modellashtirish jarayonini namoyish qilish metodidan samarali foydalanishlari talab etiladi. Bunday pedagogik jarayonlarda o'quvchilar tabiiy-texnik bilimlarning inson hayoti uchun katta ahamiyatga ega ekanligini tushunib yetadilar. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlari va umummilliy dasturda o'quvchilarida kommunikativ, ijodiy, tanqidiy, hamkorlikda ishlash va loyihalash faoliyatini amalga oshirishga tayyorlash vazifasi qo'yilgan. Ushbu vazifani muvaffaqiyatli hal qilishda modellashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Hamkorlikda ishlash, loyihalash bilan bir qatorda modellashtirish ko'nikmalarini rivojlantirishda o'quvchilarning konstruksiyalash harakatlari ham muhim o'rin egallaydi. O'quvchilarida modellashtirish ko'nikmalarini shakllantirishda qo'shimcha tarzda tashkil etiladigan mashg'ulotlar ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar uchun teatrlashtirilgan vaziyatlar, qo'g'irchoqlar yordamida tashkil etiladigan sahna ko'rinishlari ham o'quvchilarida modellashtirish ko'nikmalarini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega. Shu bilan bir qatorda stol teatri ham o'quvchilarida boshlang'ich sinf o'quvchilarida modellashtirish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Stol teatri boshqa sahna ko'rinishlari orasida alohida o'rin egallaydi. Stol teatrida kichik hajmli va ochiq xarakterdagi sahna ko'rinishlari hamda dekorasiyalar modellashtiriladi. Bu jarayonda o'quvchilarida ijodkorlik ko'nimalari jadal rivojlanadi.

Dekorasiya va personajlarni tayyorlashda o'quvchilar qog'oz, plastin, legodan yasaladigan konstruksiyalardan foydalanishlari talab etiladi. Bunday jihozlar sahna ko'rinishlarining yorqin, jozibador va qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi. Mazkur mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarning tafakkuri, qo'l harakatlari, qiziqishlari, aql-zakovati, tasavvurlari, ijodiy iqtidorlari rivojlanadi. Bu esa ularda quyidagi sifatlarining shakllanishiga ko'maklashadi. Ular:

g'oyalarni muvofiqlashtirish;

sinfdozlari bilan hamkorlik o'rnatish;

o'ziga nisbatan ishonch hissiga ega bo'lish.

O'quvchilar modellar ustida ishlab, ularni qayta shakllantirish va takomillashtirish ko'nikmasiga ham ega bo'lishlari nazarda tutiladi. O'quvchilar manzaralar, personajlar, dekorasiyalarni qayta konstruksiyalab yangi modellar sifatida taqdim etishlari natijasida ijodkorlik layoqatini egallaydilar. Modellashtirish jarayonida o'quvchilarga mustaqil harakatlanish uchun qulay pedagogik sharoit yaratiladi. Modellashtirish jarayonida amalga oshiriladigan o'quv harakatlari o'quvchilar uchun yangi rivojlanish vaziyatlari taqdim etib, ularning fantaziyasini rivojlantirishga ko'maklashadi. O'quvchilar

modellar ustida o'ylar ekanlar o'zlarini kichik dizayner mavqeyida tasavvur qiladilar.

Modellashtirish ko'nikmalari ta'lim-tarbiyaviy jarayon oldiga qo'yilgan quyidagi o'quv-biluv vazifalarini yechishni osonlashtiradi:

- o'quv-biluv faoliyatini rivojlantirish;
- o'quvchilarning ko'rish, tasavvur qilish, idrok etish imkoniyatlarini kengaytirish;
- o'quvchilarning intellektual taraqqiyoti ta'minlash;
- o'yin faoliyati bilan bog'liq holda hamkorlikda ishlash harakatlarining ko'lamini kengaytirish;
- o'quvchilarda muloqotga kirishish, birgalikda ishlash, mantiqiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish;
- zamon va makon haqida tasavvur hosil qilish;
- xotira, tafakkur, diqqatni kabi ruhiy jarayonlarni rivojlantirish;
- o'yinga asoslangan modellashtirish jarayonlarini jadallashtirish va pedagogik imkoniyatlarini

kengaytirish;

qo'l va barmoqlar harakatini jadallashtirish mashqlarini amalga oshirish orqali modellar sifatini takomillashtirish;

o'quvchilar jamoasi orasida do'stona munosabatlar va birdamlikni tarkib toptirish;

o'quvchilarning muvaffaqiyatdan zavqlanish bilan bog'liq holatlarini mustahkamlash.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, modellashtirish bilan bog'liq bo'lgan pedagogik jarayonlar o'quvchilar uchun qiziqarliligi bilan bir qatorda ularni rivojlanishga va mustaqil bilim olishga undaydi. "Texnologiya", "Tasviri san'at", "atrofimdagi olam" darslarida legolar bilan ishlash, loyiha, tadqiqotchilik metodlari samarali hisoblanadi. Modellashtirishga yo'naltirilgan pedagogik vaziyatlar asosan darsda amalga oshiriladi. O'quvchilar modellashtirish ko'nikmalarini muayyan darajada egallaganlaridan keyin mazkur harakatlarni darsdan tashqari vaqtlarda ham alohida qiziqish bilan bajarishga harakat qiladilar.

Darslarda o'quvchilar tomonidan yasalgan modellarni namoyish qilish va ularning eng yaxshi ishlarini rag'batlantirish natijasida ham ularda modellashtirish, konstruksiyalash, loyihalar ustida ishlash, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish ko'nikmalarini shakllantirish mumkin. O'qituvchi dars oxirida o'quvchilarning nomoyish qilingan modellar haqidagi fikrlarni eshitishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, bunday yondashuv o'quvchilarda modellashtirishga nisbatan alohida qiziqishni vujudga keltirishga xizmat qiladi. Shu maqsadda o'qituvchilar o'quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilishlari lozim:

Sizga namoyish etilgan qaysi modellar yoqdi?

O'zingizga yoqqan modelni yasash uchun nimalardan foydalangan bo'lardingiz?

Ushbu modellarni yasashda qanday kamchiliklarga yo'l qo'yilgan?

Siz qaysi darslarda ko'proq modellarni yasashni hohlar edingiz?

Yana qaysi buyumlarni modelini yasashni hohlardingiz?

Qaysi buyumlarni chizish siz uchun yoqimli?

Darsdan tashqari vaqtlarda qaysi buyumlarni yasaysiz yoki chizasiz?

Uy sharoitida buyumlarning modelini yasashda kim sizga ko'maklashadi?

O'quvchilar tomonidan qaytarilgan javoblar quyidagilarni aniqlash imkonini berdi. Aksariyat boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'proq:

mashinalar, samolyotlar, osmon o'par binolar, ekskavatorlarni (o'g'il bolalar);

chiroyli liboslar, taqinchoqlar, bezaklar (qiz bolalar);

tabiat manzaralari, hayvonlar, chaylalar, kemalar;

og'lar, poezd yo'llari, poezdlarni yasash va chizishni yoqtirishlarini ta'kidlab o'tdilar.

Robototexnikaga qiziqadigan boshlang'ich sinf o'quvchilari ham ko'p sonli ekanligini savol-javoblar natijasida aniqlashga muvaffaq bo'ldik.

Legolardan kamazlar, poroxodlar yasash boshlang'ich sinf o'quvchilarining sevimli mashg'ulotlaridan biri ekanligi ayon bo'ldi. ko'pchilik o'quvchi-qizlar aynan dizaynerlikka qiziqishlarini ta'kidlab o'tdilar. So'rovlar natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida modellashtirishga nisbatan ijobiy motivlar shakllanganligiga guvoh bo'ldik. Boshlang'ich sinf o'quvchilari modellashtirish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlarga alohida qiziqish bilan ishtirok etishlari ayon bo'ldi. Bunday mashg'ulotlar ularda o'quv hamda kreativ faollikni shakllantirish bilan bir qatorda har tomonlama rivojlanishlari uchun qulay sharoitlar yarata olishini aniqlashga erishdik. Biz kuzatishlarimiz davomida boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilan ham o'quvchilarning modellashtirish ko'nikmalarini egallashga qay darajada qiziqishlarini aniqlash maqsadida suhbatlar tashkil etdik.

Aksariyat boshlang'ich sinf o'qituvchilari modellashtirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar o'quvchilarda alohida qiziqish va kasb tanlash motivlarini shakllantirishga xizmat qilganligini ta'kidladilar. O'qituvchilar bunday mashg'ulotlar o'quvchilarni ijtimoiylashtirish uchun samarali ekanligini ko'rsatdilar. Biz suhbatlar jarayonida quyidagilarni aniqlashga muvaffaq bo'ldik. Aksariyat o'qituvchilar o'quvchilarda modellashtirish ko'nikmalarini shakllantirishga yetarlicha e'tibor qaratmasliklari, ular o'z faoliyatida legolar, plastmassalar, yog'ochlar bilan ishlashga yetarlicha e'tibor qaratmasliklari, "Texnologiya", "Atrofimdagi olam", "Tasviri faoliyat", "Matematika" darslarida modellashtirish, loyiha, konstruksiyalash, kichik tadqiqotlar o'tkazish, evristik izlanish, texnik va grafik

modellashitirish metodlaridan yetarlicha foydalanmasliklari, robototexnika bilan ishlashga yetarlicha vaqt ajratmasliklari ayon bo'ldi.

O'quvchilarda modellashitirish ko'nikmalarini shakllantirish biriktirish – qurish – ko'rib chiqish – davom ettirish harakatlarini qo'llash asosida amalga oshiriladi. Bu jarayonda modellashitirish mashg'ulotlari ko'proq o'yin shaklida tashkil etiladi. O'quvchilarning modellashitirishga yo'naltirilgan birgalikdagi faoliyati o'zaro hamkorlik, muhokama, fikr almashish, bahslashish, o'z-o'zini baholash va guruhdoshining ishini baholash metodlarini qo'llagan holda amalga oshadi.

O'quvchilarda modellashitirish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik vaziyatlar faoliyatli, amaliy yo'naltirilgan pedagogik jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur jarayonda o'quvchilar qo'l bilan bajariladigan ishlar orqali muayyan bilimlarni egallaydilar. Kuzatishlarimizdan shu narsa ayon bo'ldiki, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quvchilarda modellashitirish ko'nikmalarini shakllantirish yo'nalishidagi pedagogik bilimlarini muntazam rivojlantirish tavsiya etiladi. Buning uchun turli mahorat darslari, seminar-treninglar tashkil etish maqsadga muvofiq.

Modellashitirish jarayoida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning qo'l harakatlari rivojlanib, buyumlar bilan bog'liq holda faoliyatni amalga oshirish hamda ijodiy, estetik, ahloqiy layoqatlari rivojlanadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari modellashitirish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlarda quyidagi vositalar, usul va metodlardan foydalanishlari tavsiya etiladi.

So'zlar vositasida tashkil etiladigan modellashitirish mashg'ulotlarida o'qituvchi suhbat va tushuntirish metodini;

Ko'rgazmalilik asosida tashkil etiladigan modellashitirish jarayonida o'qituvchilar turli rasmlar, illustratsiyalar, video taqdimotlarni;

Amaliy faoliyat asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlarda chizma asosida modellarni mustaqil shakllantirish metodini qo'llash nazarda tutiladi.

Mazkur metodlar o'zida boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllangan amaliy faoliyatning muayyan darajasi ifodalaydi. Ular:

o'qitishning illustrativ tushuntirishga asoslangan;

o'qitishning reproduktiv;

ta'limning qisman izlanishga asoslangan;

tadqiqotchilik metodlarni o'z ichiga oladi.

O'quvchilarni modellashitirish ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida quyidagi tarbiya metodlari qo'llaniladi:

o'quvchilar faoliyatini tashkil etish hamda ijtimoiy hulq-atvorni shakllantirishga xizmat qiladigan;

faoliyatga turtki beradigan va shaxs xulq-atvorini shakllantirishga xizmat qiladigan motivlarni hosil qiluvchi hissiy ta'sir ko'rsatuvchi, musobaqalashishga undovchi, rag'batlantiruvchi metodlar shular jumlasidandir.

Quyidagi metodlarni qo'llash asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida qo'l harakatlari, ijodiy, mantiqiy hamda tanqidiy fikrlash, konstruksiyalash layoqati, texnik va grafik ijodkorlik, birgalikda faoliyat ko'rsatish, modellarni yig'ish va qurish, modellashitirish va konstruksiyalashga oid bilimlarni namoyon etish ko'nikmalari tizimli tarzda shakllanadi. Bu jarayonda quyidagi topshiriqlar amalga oshiriladi:

boshlang'ich sinf o'quvchilarida modellashitirishga oid tayanch bilimlar va ko'nikmalarni rivojlantiruvchi;

o'quvchilarda birgalikda ishlash jarayonida foydalaniladigan kommunikativ hamda taqdimot qilishga yo'naltirilgan ko'nikmalarni shakllantiruvchi;

o'quvchilarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish orqali qo'yilgan vazifani yechishga qaratilgan izlanishlarni amalga oshirish imkonini beradigan;

boshlang'ich sinf o'quvchilarida mehribonlik, hamkorlik, yaratuvchilik, mustaqillik, tengdoshlari va kattalar bilan muloqotga kirishuvchanlikni tarbiyalashga xizmat qiladigan;

shu bilan bir qatorda boshlang'ich sinf o'quvchilarida modellashitirish ko'nikmalarini samarali shakllantirish uchun ijodkorlik, tashabbuskorlik, muammolarning nostandart yechimlarini izlab topish, yaratuvchilik jarayonida ularning qiziqishlari va diqqatlarini bosqichma-bosqich tarbiyalashga xizmat qiladigan topshiriqlardan foydalanish nazarda tutiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

Сафарова Р.Ф., Мусаев У., Мусаев П. ва бошқалар. Ўзбекистан Республикасида умумий ўрта таълим стратегияси муаммолари ва таълим мазмунининг янги моделлари, уларни татбиқ этиш йўллари /Монография. Т.: «Фан», 2005. - 255 б.

Сафарова Р.Ф. Ўқув дастурларининг интеграцияси ва методик йўналишлари соҳасида мавжуд бўлган нуқтаи назарлар / ДТС асосидаги ўқув дастурлари: муаммолар, изланишлар, ечимлар /Семинар материаллари. ХТВнинг илмий мақолалар тўплами. - Т., 2002.-Б. 27-29.

**ГЕОМЕТРИК ТЕНГСИЗЛИКЛАР ВА ЭКСТРЕМУМГА ОИД ГЕОМЕТРИК
МАСАЛАЛАРНИ ЕЧИШ МЕТОДЛАРИ**

Саипназаров Шайлавбек Актамович
ТДИУ, “Амалий математика” кафедраси доценти,
Педагогика фанлари номзоди

**ГЕОМЕТРИЧЕСКИЕ НЕРАВЕНСТВА И МЕТОДЫ РЕШЕНИЯ ЭКСТРЕМАЛЬНЫХ
ГЕОМЕТРИЧЕСКИХ ЗАДАЧ**

Saipnazarov Shaylovbek Aktamovich
TSUE, “Applied Mathematics” department
Associate Professor, Candidate of Pedagogical Sciences,

**GEOMETRIC INEQUALITIES AND METHODS FOR SOLVING EXTREMAL
GEOMETRIC PROBLEMS**

Саипназаров Шайлавбек Актамович
ТГЭУ, Доцент Кафедры “Прикладной математики”
Кандидат педагогических наук

Abstract. This article discusses methods for proving geometric inequalities and methods for solving extremal geometric problems. When solving extreme geometric problems and proving geometric problems by different methods: coordinate, vector, trigonometric, triangle inequality.

Аннотация. В этой статье рассмотрены методы доказательств геометрических неравенств и экстремальных геометрических задач. При решении экстремальных геометрических задач разными методами: координатным, векторным, тригонометрическим и неравенством треугольника.

Аннотация. Бу мақолада геометрик тенгсизликларни исботлаш ва экстремал геометрик масалаларни ечиш методлари кўрсатилган. Экстремал геометрик масалаларни ечишда ва геометрик тенгсизликларни исботлашда турли методлардан фойдаланилган. Координаталар, вектор, тригонометрик ва учбурчак тенгсизлиги.

Keywords. Inequality, triangle inequality, coordinate method, vector method, Cauchy method.

Ключевые слова. Нервенства, неравенство треугольника, метод координат, векторный метод, метод Коши.

Таянч сўзлар. Тенгсизликлар, учбурчак тенгсизлиги, координаталар методи, вектор методи, Коши методи.

Кириш. Қадимдаёқ геометрия аксиомалар системасига асосан тузилган қатъий мантикий дедуктив фанга айланган. У узлуксиз ривожланган, янги теоремалар, ғоялар ва методлар билан бойиб борган. Геометрларнинг қизиқишлари ва илмий тадқиқотларнинг йўналишлари вақти – вақти билан ўзгариб турган. Шу сабабли ҳозирги геометриянинг предмети, мазмуни ва методларини қамраб олувчи аниқ таърифни бериш қийин.

Эрампдан аввал III асрда қадимги юнон олими Евклид “Негизлар” номли асар ёзди. Евклид бу китобида шу давргача тўпланган геометрик билимларни жамлади ва бу фаннинг тугалланган аксиоматик баёнини беришга ҳаракат қилди.

Евклид китобида пухта ўйланиб, чуқур мантикийлик билан баён этилган геометрия математикларни, Евклид геометриясидан бошқача геометрия мавжуд бўлмайди, деган фикрга олиб келди.

XIX асрдагина, биринчи навбатда рус математиги Н.И.Лобачевскийнинг ишлари туфайли, Евклид геометрияси мумкин бўлган ягона геометрия эмаслиги аниқланди. Ундан сўнг математикалар кўпгина турли “геометрия”лар яратдилар ва уларни ўргандилар. Бизнинг мумкин бўлган геометрик фазолар ҳақидаги тасаввурларимизнинг кенгайишига XIX асрда яшаган немис математиги Ф.Б.Риманнинг хизматлари айниқса катта. У чексиз кўп “геометрия”лар қуриш усулини кашф этди. Уларнинг “кичик” бўлаклари деярли Евклид геометрияси сингари тузилган, аммо бу геометрия фазосининг каттароқ қисмлари қаралганда “эгрилик”ка эга бўлиши юзага чиқади.

Илмий – техник жараёнларни тезлашуви, инфорацион технологияларнинг ўсиш жадаллиги ҳар бир соғлом фикрловчи инсон учун геометрик билимлар зарур.

Ўз вақтида академик А.Д.Александров шу ҳақда ёзган эди: барча техника геометрияга асосланган ва геометрия билан бошланади, ўлчов аниқлиги ва шакли, ҳар бир қисмни жойлашуви – геометрия кучига таянади. [1, 58 б.].

Бизнинг фикримизча, барча ўлчаш ишлари ва муаммоли математик масалалар геометрия ва унинг матодларига муҳтож.

Геометрик метод


1

Геометрик метод

1. Учбурчак медианаларининг йиғиндиси S , унинг периметри $2p$ га тенг бўлса,

$$\frac{3}{2}p < S < 2p$$

қўйи тенгсизлиқни исботланг.



1-расм

Ечиш. Айтайлик, $BD = m_b - AC$ томонга тушурилган медиана учбурчакнинг томонлари

$BC = a$, $CA = b$, $AB = c$, F нукта BC (1-расм)

томоннинг ўртаси бўлсин. BFD учбурчак учун учбурчак тенгсизлигига кўра

$$m_b < BF + FD = \frac{1}{2}(a + c) \quad \text{. Худди шунга}$$

ўхшаш тенгсизлиқларни m_a ва m_c медианалар учун ёзиб, уларни ҳадлаб қўшамиз, натижада

$$S < 2p$$


бажарилиши келиб чиқади.

Айтайлик, M - нукта ABC учбурчакнинг медианаларининг кесишган нуктаси бўлсин. ABM , BCM , CAM учбурчакларга учбурчак тенгсизлигини қўллаб, ушбуларни ҳосил қиламиз:

$$\frac{3}{2}(m_a + m_b) > c, \quad \frac{3}{2}(m_b + m_c) > a, \quad \frac{3}{2}(m_c + m_a) > b$$

Уларни ҳадлаб қўшиб $S > \frac{3}{2}p$ ҳосил қиламиз.

2. $ABCD$ тўртбурчакда A ва C бурчаклар ўтмас бўлса, $AC < BD$ ни исботланг.




2-расм

Ечиш. BD ни диаметр қилиб айлана чизамиз (2-расм).

Масала шартига кўра A ва C лар ўтмас, у ҳолда A ва C нукталар айлана ичида ётади, яъни $AC < BD$.

3. ABC учбурчакнинг AC томонида K ва M нукталар шундай олинганки, $AK = MC$ (3-расм). Агар $AB < BC$ бўлса, у ҳолда $\angle ABK < \angle MBC$ бўлишини исботланг.



3-расм

$$AK = MC \leq \frac{1}{2}AC$$

Ечиш. $AK = MC \leq \frac{1}{2}AC$ деб ҳисоблаш мумкин. Акс

ҳолда биз бурчаклар ичидан $\angle MBK$ нинг умумий


қисмини ажратиб, K ва M нукталар ролини

алмаштиришимиз мумкин. BD медианани ўтказамиз.

$AB > BC$ дан $\angle BDA$ ўтмас эканлиги келиб

чиқади, B нуктанинг AC га проекцияси DC нурда ётади. Демак, KB нинг проекцияси BM нинг проекциясидан катта ва $KB > BM$. Аммо ABK ва CBM учбурчаклар тенгдош, яъни $AB \cdot BK \sin \angle ABK = CB \cdot BM \sin \angle CBM$, бундан, $\sin \angle MBC > \sin \angle KBA$. Лекин $\angle ABK$ ўтмас бўлиши мумкин эмас. Шунинг учун $\angle MBC > \angle ABK$.

4. Агар ABC учбурчакка ташқи ва ички чизилган айланалар радиуслари мос равишда R ва r бўлса, $R \geq 2r$ эканлигини исботланг.



4-расм

чунки, $A_1 B_1 C_1$ учбурчакка ташқи чизилган айлана ABC учбурчак чегарасидан ташқарига чиқади.

Қуйидагича иш тутиш мумкин: бу айланага ABC учбурчакнинг томонларига параллел бўлган уринмалар ўтказамиз; натижада $A_2 B_2 C_2$ учбурчакни ҳосил қиламиз, бу учбурчак ясашига кўра ABC га ўхшаш, бу


учбурчак $\frac{R}{2}$ радиусли айланага ташқи чизилган бўлиб, у ABC учбурчакни ўз ичига олади. Демак, $\frac{R}{2} \geq r$ ёки $R \geq 2r$.

5. Ўткир бурчак учбурчакнинг томонлари a, b ва c га, унга ташқи чизилган айлана радиуси R га тенг бўлса, у ҳолда:

$$a) a^2 + b^2 + c^2 > 8R^2$$

$$b) a + b + c > 4R$$

тенгсизликларни исботланг.



5-расм

Ечиш. а) айтايлик, $m_c = CD - ABC$ учбурчакнинг медианаси бўлсин. Медиана узунлигини топиш формуласига кўра

$$m_c^2 = \frac{1}{4}(2a^2 + 2b^2 - c^2)$$

бундан

$$a^2 + b^2 + c^2 = 2m_c^2 + \frac{3}{2}c^2$$

ABC ўткир бурчакли бўлганлиги учун O нуқта учбурчак ичида бўлади. $AC_1 B C_1 D < CD$, чунки $\angle COD > \angle C_1 OD$. Бундан

$$a^2 + b^2 + c^2 = 2m_c^2 + \frac{3}{2}c^2 > 2C_1 D^2 + \frac{3}{2}c^2 = AC_1^2 + C_1 B^2 + BA^2 = 8R^2$$

б) Дарҳақиқат, a, b ва c лар $2R$ дан кичик, у ҳолда

$$2R(a + b + c) > a^2 + b^2 + c^2 > 8R^2,$$

демак,

$$a + b + c > 4R.$$

6. ABC учбурчакнинг B ва C учларидан ўтказилган медианалар ўзаро перпендикуляр бўлса, у ҳолда

$$\operatorname{ctg} B + \operatorname{ctg} C \geq \frac{2}{3}$$

эканлигини исботланг.

Ечиш. Агар AD – баландлик, AN – медиана, M нуқта эса медианаларнинг кесишган нуқтаси бўлса, у ҳолда

$$\operatorname{ctg} B + \operatorname{ctg} C = \frac{DB}{AD} + \frac{CD}{AD} = \frac{CB}{AD} \geq \frac{CB}{AN} = \frac{CB}{3MN} = \frac{2MN}{3MN} = \frac{2}{3}$$

7. Агар учбурчак биссектрисаларининг узунликлари бирдан кичик бўлса, у ҳолда унинг юзи $\frac{\sqrt{3}}{3}$ дан кичик бўлишини исботланг.

Ечиш. Икки ҳолни қараймиз: 1) берилган учбурчак ўткир бурчакли. Айтайлик, $\angle B$ учбурчак бурчаклари ичида энг каттаси бўлсин: $60^\circ \leq B < 90^\circ$. Равшанки, A ва C бурчак биссектрисалари 1 дан кичик бўлганлиги учун учбурчакларнинг баландликлари h_A ва h_C лар ҳам 1 дан кичик бўлади.


$$S_{ABC} = \frac{h_A \cdot a}{2} = \frac{h_A \cdot \frac{h_C}{\sin B}}{2} = \frac{h_A \cdot h_C}{2 \sin B} < \frac{\sqrt{3}}{3}$$

2) Агар учбурчак бурчакларидан бири ўткир бўлмаса, масалан, B бурчак ўткир эмас, у ҳолда унинг томонлари

мос биссектрисалардан кичик, яъни 1 дан кичик, юзи эса $\frac{1}{2}$ дан ошмайди, яъни $S_{ABC} = \frac{1}{2} \leq \frac{\sqrt{3}}{3}$.

8. Қавариқ тўртбурчакнинг тартиб билан олинган томон узунликлари a, b, c, d , юзи эса S бўлса, у ҳолда

$$S \leq \frac{1}{2}(ac + bd)$$
 эканлигини исботланг.



Ечиш. Агар a, c ва b, d томонлар қўшни томонлар бўлганда бизни тенгсизлигимиз осон исботлашар эди (учбурчакнинг юзи иккита томони қўпайтмасининг ярмидан катта бўлолмайди). Берилган $ABCD$ тўртбурчакни ABC_1D тўртбурчакка айлантирамиз (6-расм). Бунда BC_1D учбурчак BCD учбурчакка тенг.

6-расм

ABC_1D тўртбурчак $ABCD$ тўртбурчакка тенгдош. Унда AC_1 диагоналли ўтказиб, иккита томонлари a, c ва b, d учбурчакларга ажратамиз. Демак,

$$S_{ABC_1D} \leq \frac{1}{2}(ac + bd), \quad S_{ABC_1D} = S_{ABCD}$$

бўлганлигидан

$$S_{ABCD} \leq \frac{1}{2}(ac + bd)$$

Юзи юқорида ечган масалаларимизда геометрик усулларни қўлладик. Геометрик методни қўллаш ўқувчини (талабани) геометрик яшаш, геометрик алмаштиришлар, геометрик тасаввурини ва тафаккурини шакллантиради.

II. Аналитик метод. Қўплаб геометрик масалалар, жумладан геометрик тенгсизликларга оид масалалар геометрик алмаштиришлар, геометрик яшашлар, симметрия, буриш, параллел кўчириш, геометрия методлардан ташқари дифференциал ҳисоб, аналитик методлар ёрдамида ҳал қилиниши мумкин. Қуйидаги геометрик тенгсизликлар аналитик методга мансубдир.

1. Агар ABC учбурчакнинг томонлари a, b, c , унинг юзи S бўлса,

$$a^2 + b^2 + c^2 \geq 4\sqrt{3}S + (a-b)^2 + (b-c)^2 + (c-a)^2$$

тенгсизлиқни исботланг.

Ечиш. Исботлашимиз лозим бўлган тенгсизлиkning ўнг қисмидаги биринчи қўшилувчини қолдириб, a, b, c га боғлиқ бўлган ифодани қуйидагича гурўхлаймиз:

$$(a^2 - (b - c)^2) + (b^2 - (c - a)^2) + (c^2 - (a - b)^2)$$

бу ифодани ҳар бир қўшилувчисини кўпайтувчиларга ажратиб ва

$$x = a + b - c, \quad y = a - b + c, \quad z = -a + b + c \quad \text{алмаштиришни бажарамиз, у ҳолда}$$

$$a^2 - (b - c)^2 + b^2 - (c - a)^2 + c^2 - (a - b)^2 = xy + xz + yz$$

$$P = \frac{a+b+c}{2} = \frac{1}{2}(x+y+z), \quad p-a = \frac{1}{2}z, \quad p-b = \frac{1}{2}y, \quad p-c = \frac{1}{2}x$$

$$S = \frac{1}{4} \sqrt{(x+y+z)xyz}$$

эга бўламиз. Герон формуласига кўра . Бизнинг тенгсизлигимиз x, y, z бўйича қуйидаги кўринишга эга бўлади.

$$xy + yz + zx \geq \sqrt{3(x+y+z)xyz}$$

охирги тенгсизлиқни ҳар иккала қисмини xyz га бўламиз ва

$$u = \frac{1}{x}, \quad v = \frac{1}{y}, \quad w = \frac{1}{z}$$

алмаштиришларни бажариб ўшбуга эга бўламиз.

$$u + v + w \geq \sqrt{3(uv + vw + wu)}$$

ҳосил бўлган тенгсизлиқни ҳар иккала қисмини квадрат кўтариб

$$u^2 + v^2 + w^2 \geq uv + vw + wu$$

тенгсизлиқка эга бўламиз. Бу тенгсизлиқни исботлашимиз қийин эмас. Юқоридаги тенгсизлиқ

$$(u+v)^2 + (w-v)^2 + (w-u)^2 \geq 0$$

тенгсизлиқка тенг кучли. Тенгсизлиқ исбот бўлди. Тенглик шarti $u = v = w$, бунда $x = y = z \Rightarrow a = b = c$.

2. Учбурчакка ташқи чизилган айлана радиуси R , ички чизилган айлана радиуси r ва P -ярим периметр

$$p \geq \frac{3}{2} \sqrt{6Rr} \quad \text{эканлигини исботланг.}$$

Ечиш.

$$\frac{(a+b+c)r}{2} = \frac{abc}{4R} \quad \text{дан} \quad Rr = \frac{abc}{4p}$$

$$2p = a + b + c \geq 3\sqrt[3]{abc}, \quad abc \leq \frac{8p^3}{27}$$

$$Rr = \frac{abc}{4p} \leq \frac{8p^3}{27 \cdot 4p} = \frac{2p^2}{27}, \quad \text{бундан}$$

$$p^2 \geq \frac{27Rr}{2} \Leftrightarrow p \geq 3\sqrt{\frac{3Rr}{2}} = \frac{3}{2}\sqrt{6Rr}$$

3. Тўғри бурчакли учбурчакнинг катетлари a, b бўлса, у ҳолда унинг юзи S учун ўшбу тенгсизлиқ ўринли эканлигини исботланг:

$$S < \frac{(a+b)^2}{4}$$

Ечиш. $S = p \cdot (p - c)$ (бунда p -ярим периметр). Бу формуланинг исботи I бобда келтирилган.

$$\sqrt{S} = \sqrt{p(p-c)} < \frac{p+p-c}{2} = \frac{2p-c}{2} = \frac{a+b+c-c}{2} = \frac{a+b}{2}$$

$S < \frac{(a+b)^2}{4}$; тенглик қисми бажарилмайди, чўнки $p-c \neq p$. Тенгсизлик исботланди.

4. Томонларининг узунликлари a, b ва c бўлган учбурчак учун ушбу тенгсизликни ўринли эканлигини исботланг:

$$\frac{a}{b+c} + \frac{b}{a+c} + \frac{c}{a+b} \geq \frac{3}{2}$$

Ечиш. Ушбу белгилашларни киритамиз:

$$b+c=x, a+c=y, a+b=z.$$

Бу тенгликларни қўшиб, қуйидагини ҳосил қиламиз.

$$z(a+b+c)=x+y+z, a+b+c=\frac{1}{2}(x+y+z)$$

$$a=\frac{y+z-x}{2}, b=\frac{x+z-y}{2}, c=\frac{x+y-z}{2}$$

Демак, берилган тенгсизликни чап қисми

$$\begin{aligned} \frac{y+z-x}{2x} + \frac{x+z-y}{2y} + \frac{x+y-z}{2z} &= \frac{1}{2} \left(\frac{y}{x} + \frac{z}{x} - 1 + \frac{x}{y} + \frac{z}{y} - 1 + \frac{x}{z} + \frac{y}{z} - 1 \right) = \\ &= \frac{1}{2} \left(\frac{y}{x} + \frac{x}{y} + \frac{z}{x} + \frac{x}{z} + \frac{z}{y} + \frac{y}{z} - 3 \right) \geq \frac{1}{2} (2+2+2-3) = \frac{3}{2} \end{aligned}$$

5. ABC учбурчакнинг томонлари a, b ва c , бу томонларга туширилган медианалар мос равишда m_a, m_b ва m_c бўлса,

$$\frac{m_a^2}{b^2+c^2} + \frac{m_b^2}{a^2+c^2} + \frac{m_c^2}{a^2+b^2} \leq \frac{9}{8}.$$

Ечиш. Медиана топиш формуласига кўра

$$m_a^2 = \frac{1}{4}(2b^2 + 2c^2 - a^2), \quad m_b^2 = \frac{1}{4}(2a^2 + 2c^2 - b^2) \quad \text{ва} \quad m_c^2 = \frac{1}{4}(2a^2 + 2b^2 - c^2)$$

$$\begin{aligned} \frac{m_a^2}{b^2+c^2} + \frac{m_b^2}{a^2+c^2} + \frac{m_c^2}{a^2+b^2} &= \frac{1}{2} - \frac{a^2}{4(b^2+c^2)} + \frac{1}{2} - \frac{c^2}{4(a^2+b^2)} = \\ &= \frac{3}{2} - \frac{1}{4} \left(\frac{a^2}{b^2+c^2} + \frac{b^2}{a^2+c^2} + \frac{c^2}{a^2+b^2} \right) \end{aligned}$$

юқоридаги масалага кўра

$$\frac{a^2}{b^2+c^2} + \frac{b^2}{a^2+c^2} + \frac{c^2}{a^2+b^2} \geq \frac{3}{2}$$


Демак,

$$\frac{3}{2} - \frac{1}{4} \left(\frac{a^2}{b^2+c^2} + \frac{b^2}{a^2+c^2} + \frac{c^2}{a^2+b^2} \right) \leq \frac{3}{2} - \frac{1}{4} \cdot \frac{3}{2} = \frac{9}{8}$$

тенгсизлик исботланди.

Максимум ва минимумга оид геометрик масалалар

1. R радиусли айланада AB диаметр ўтказилган. Диаметр айлана марказида a масофада M нуқта берилган. M нуқтадан шундай CD ватар ўтказилганки, бунда ҳосил бўлган $ABCD$ тўртбурчак энг катта юзага эга бўлади. $ABCD$ нинг юзи нимага тенг?



1-расм

Демак, $ABCD$ тўртбурчак юзи энг катта бўлиши үчүн COD үчбурчакни юзи энг катта бўлиши лозим. Лекин,

$$S_{SOD} = \frac{1}{2} R^2 \sin \varphi (\varphi = \angle COD)$$

. Демак, $\sin \varphi$ энг катта бўлиши керак. Аммо, $\varphi_0 \leq \varphi < 180^\circ$, бунда

$\varphi_0 - \alpha = 90^\circ$ га мос $\left(\cos \frac{\varphi_0}{2} = \frac{a}{R} \right)$ бурчак. Агар $\varphi_0 \leq 90^\circ$ бўлса, у ҳолда $\varphi_0 = 90^\circ$ да COD үчбурчак юзи энг катта бўлади. Агар $\varphi_0 > 90^\circ$ бўлса, у ҳолда бу юза $\varphi = \varphi_0$ бўлганда энг катта бўлади.

$\varphi_0 \leq 90^\circ$ бўлганда, яъни $a > \frac{\sqrt{2}}{2} R$ бўлганда $S_{SOD} = \frac{1}{2} R^2$, $(*)$ дан $S_{ABCD} = \frac{2R}{a} \cdot \frac{1}{2} R^2 = \frac{R^3}{a}$. $\varphi_0 > 90^\circ$

бўлганда, яъни $a < \frac{R\sqrt{2}}{2}$ да $\cos \frac{\varphi}{2} = \frac{a}{R}$, $\cos^2 \frac{\varphi}{2} = \frac{a^2}{R^2}$ ёки

$$\frac{1 - \cos \varphi}{2} = \frac{a^2}{R^2}, \quad \cos \varphi = 1 - \frac{2a^2}{R^2}$$

$$\sin \varphi = \sqrt{1 - \left(1 - \frac{2a^2}{R^2}\right)^2} = \sqrt{\frac{4a^2}{R^2} - \frac{4a^4}{R^4}} = \frac{2a}{R^2} \sqrt{R^2 - a^2}$$

$$S_{COD} = \frac{1}{2} R^2 \sin \varphi = \frac{1}{2} R^2 \cdot \frac{2a}{R^2} \sqrt{R^2 - a^2} = a \sqrt{R^2 - a^2}$$

охирги тенглик ва $(*)$ дан

$$S_{ABCD} = \frac{2R}{a} \cdot a \sqrt{R^2 - a^2} = 2R \sqrt{R^2 - a^2}$$

2. ABC үчбурчакнинг BC , AC , AB томонларига ўтказилган баландликлар мос равишда h_a , h_b , h_c бўлсин.


Ҳурчрак ичидаги M нуқтадан шу томонларгача бўлган масофалар мос равишда u , v ва w бўлса, қуйидагиларни исботланг:

$$\text{а) } \frac{h_a}{u} + \frac{h_b}{v} + \frac{h_c}{w} \rightarrow \min \quad \text{б) } uvw \rightarrow \min$$

Ечиш. а) дастлаб қуйидаги масалани ечамиз. Айталик, M нуқта ҳурчракнинг AB томонида бўлиб, M

нуқтадан BC ва AC томонларигача бўлган масофалар мос равишда u ва v ва h_a , h_b баландликлар мос равишда BC ва AC томонларга туширилган баландликлар бўлсин. M нуқта AB томоннинг ўртаси бўлганда ифодани энг кичик қийматга эга бўлишини исботлаймиз. Бунинг үчүн ўшбу белгилашларни киритамиз.

$BC = a$, $AC = b$, $S - ABC$ ҳурчракнинг юзи. Бундай ҳолда



$$au + bv = 2S, \quad \text{бундан} \quad v = \frac{2S - au}{b}, \quad \frac{h_a}{u} + \frac{h_b}{v} = t$$

ифодага қўйиб $atu^2 - 2Stu + 2h_a S = 0$ эга бўламиз. Бу тенгламанинг дискриминанти номанфий, яъни

2-расм

$$4S^2t^2 - 4ah_a \cdot 2St = 4S^2t^2 - 16S^2t \geq 0, \quad S^2t > 0$$

бўлгани учун $t \geq 4$ энг кичик қийматга $t = 4$ да эришади, яъни

$$\min\left(\frac{h_a}{u} + \frac{h_b}{v}\right) = 4$$

У ҳолда тенгламанинг илдиизи

$$u = \frac{S}{a} = \frac{h_a}{2}, \quad v = \frac{h_b}{2}$$

Бундан келиб чиқадики, берилган а) масала энг кичик қийматга M нуқта медианаларнинг кесишган нуқтасида эканлиги келиб чиқади. Бундан

$$\frac{h_a}{u} \geq 3, \quad \frac{h_b}{v} \geq 3, \quad \frac{h_c}{w} \geq 3, \quad \text{яъни}$$

$$\frac{h_a}{u} + \frac{h_b}{v} + \frac{h_c}{w} \geq 9$$

б) юқоридаги тенгсизликларни қадлаб кўпайтирсак,

$$\frac{h_a h_b h_c}{uvw} \geq 27$$


$$\min\left(\frac{h_a}{u} + \frac{h_b}{v} + \frac{h_c}{w}\right) = 9, \quad \min \frac{h_a h_b h_c}{uvw} = 27$$

Демак, а)

б)

3. a, b, c томонларга эга бўлган учбурчакнинг учлари бутун координаталарга эга. Учбурчакка ташқи чизилган айлана радиуси R га тенг бўлса,

$$\frac{abc}{R} \rightarrow \min$$



Ечиш. Учбурчакнинг юзи $S = \frac{abc}{4R}$, бунда a, b, c учбурчак томонлари, R - ташқи чизилган айлана радиуси. Шунинг

учун $S \geq \frac{1}{2}$ тенгсизликини исботлаш етарли. Айтайлик, учбурчакнинг A, B, C учлари $(x_1, y_1), (x_2, y_2), (x_3, y_3)$

3-расм

координаталарга эга бўлсин. Уларнинг Oy ўқдаги проекциялари A_1, B_1, C_1 (3-расм). У ҳолда


$$S = S_{ABB_1A_1} - S_{ACC_1A_1} - S_{BCC_1B_1} = AB_1 \cdot \frac{AA_1 + BB_1}{2} - A_1C \cdot \frac{AA_1 + CC_1}{2} - B_1C_1 \cdot \frac{BB_1 + CC_1}{2} =$$

$$= \frac{1}{2} [(y_1 - y_2)(x_1 + x_2) - (y_1 - y_3)(x_1 + x_3) - (y_3 - y_2)(x_2 + x_3)]$$

Квадрат қавс ичидаги сонлар бутун (масала шартига кўра). Демак, $2S$ ҳам бутун сон. $S \neq 0$, у ҳолда $2S \neq 0$.

Шундай қилиб, $2S \geq 1$, бундан $\min \frac{abc}{R} = 2$ эканлиги келиб чиқади.

4. ABC тўғри бурчакли учбурчакда ($C = 90^\circ$) $CD \perp AB$, ACD бурчак биссектрисаси CE , BCD бурчак биссектрисаси эса CF (4-расм) бўлса, S_{ABC} / S_{CEF} нисбатнинг энг кичик қийматини топинг.



4-рasm

Ечиш. Айтайлик, $BC = a$, $AC = b$, $AB = c$ бўлсак, у ҳолда

$$\frac{S_{ABC}}{S_{CEF}} = \frac{C}{EF}$$

EF ни C орқали ифодаalayмиз.

$\angle BEK = 90^\circ - \angle DCE = 90^\circ - \angle ACE = \angle ECB$ бўлганлигидан, $BC = BE = a$. Шунга ўхшаш

$AF = AC = b$, $EF = BE + AF - AB$, у ҳолда $EF = a + b - c$ $a^2 + b^2 = c^2$ эканлигини ва $2ab \leq$ ҳисобга олиб,

$$a + b = \sqrt{c^2 + 2ab} \leq \sqrt{2}c$$

ҳосил қиламиз. Бундан

$$EF \leq (\sqrt{2} - 1)c$$

Демак,

$$\frac{S_{ABC}}{S_{CEF}} \geq \frac{C}{(\sqrt{2} - 1)c} = \frac{1}{\sqrt{2} - 1} = \sqrt{2} + 1$$

$$\min \frac{S_{ABC}}{S_{CEF}} = \sqrt{2} + 1$$

5. Тўғри бурчакли учбурчакнинг катетлари a, b , гипотенузаси эса c га тенг. Унга ташқи чизилган айлана радиусининг ички чизилган айлана радиусига нисбатининг энг кичик қийматини топинг.

Ечиш.

$$\begin{aligned} S &= r^2 + 2Rr = \frac{(a+b+c) \cdot r}{2} = \frac{(c \sin \alpha + c \cos \alpha + c) \cdot r}{2} = \\ &= \frac{c(\sin \alpha + \cos \alpha + 1) \cdot r}{2} = \frac{2R(\sin \alpha + \cos \alpha + 1) \cdot r}{2} = \\ &= R(\sin \alpha + \cos \alpha + 1) \cdot r \end{aligned}$$

Охирги тенгликни ҳар иккала қисмини r^2 га бўламиз ва $\frac{R}{2} = x$ деб белгилаб

$$1 + 2x = x(\sin \alpha + \cos \alpha + 1)$$

ҳосил қиламиз. Бундан

$$x = \frac{1}{\sin \alpha + \cos \alpha - 1} \geq \frac{1}{\sqrt{2} - 1} = \sqrt{2} + 1$$

шундай қилиб,

$$\min \frac{R}{2} = \sqrt{2} + 1$$

Хулоса

Ҳозирги кунда геометрия билим ва талабанинг техника маъносидаги тафаккурининг маҳсули ҳисобланади.

Геометрия тили на фақат илмда балки, техникада, кундалик ҳаётда тадбиқ этилади. Амалиётда геометрик моделлар кенг қўламда мураккаб жараёнларни лойиҳалаш ишларини амалга оширишда ёрдам беради. Бу моделлар, геометрик ўхшашликлар асосида қурилган, объектларни оптимал жойлаштиришлар билан боғлиқ бўлган масалаларни ҳал қилишга имкон яратади. Геометрия ва унинг методларини ўрганиш талабаларнинг касбий маҳоратларини такомиллаштириш имконини беради.

Талабанинг фазовий ва мантикий тафаккурини шакллантиради. Унинг методлари математика ва техникага оид масалаларни ечишда қўлланилади.

Фойдаланилган адабиётлар

Александров А.Д. “О геометрии” // Математика в школе. – 1980. -№3, -с. 56-62.

Абдуллаев Рустамжон “Интеллектуальный мир, модель экономического пространства и законы идеальной экономики”. М.: 1995.

Саипназаров Ш.А., Салимов Д.Т., Азимов Д.М., Алиев И.М. “Математика для экономистов”. Учебное пособие. Ташкент. 2022.

Saipnazarov Sh.A. Ortiqova M.T., Usarov J.A. “Moliyaviy matematika”. Т.: 2022.

Новиков А.И. Экономико-математические методы и модели: Учебник для бакалавров. М.: 2020.

G.Jay Kerns. Introduction to Probability and statistics Using R. – G.Jay Kerns, 2010.

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI
DARSLARIDA AXBOROT VA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISH**

*Sattorova Xadicha Jabborovna
Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda ona tili va o'qish savodxonligi darslarida axborot va ilg'or pedagogik texnologiyalardan hamda interfaol metodlardan foydalanishning ijobiy ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, dars jarayonida qo'llash uchun turli zamonaviy pedagogik texnologiya usullaridan namunalar tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, orfografiya, pedagogik texnologiyalar, zamonaviy, interaktiv, metod, didaktik maqsad, ta'lim samaradorligi, interfaol metod, interfaol dars

Maktab o'qituvchilari doimo yangilik bilan shug'ullanishlari, darslarini mazmunli, qiziqarli, samarali, zamonaviy qilishlari zarur. Bolalarni fanga qiziqitirish, o'quvchilar e'tiborini jalb qilish, ular o'zlariga taqdim etilgan bilimlarni olishni xohlashlari va uni o'zlari olishni o'rganishlari uchun biz doimo asosiy vazifamiz bo'lgan. Dars yorqin, samarali, samarali, hissiy, esda qolarli va ifodali bo'lishi kerak. Shundagina bolalarga berilgan bilimlar uzoq vaqt esda qoladi, uning barcha keyingi ta'limi asos bo'ladigan poydevor uchun mustahkam poydevor bo'ladi. Samarali usullarni izlash bizni yangi kompyuter texnologiyalariga olib keldi. Dastlab biz kompyuterdan qulay "xotirali yozuv mashinkasi" sifatida foydalanardik: u bilan didaktik materiallar, dars matnlarini tayyorladik; yaratilgan ro'yxatlar, shablon shakllari; uy kompyuterida tizimlashtirilgan hujjatlar; tayyorlangan hisobotlar va boshqalar. PowerPoint taqdimotlarini yaratish dasturini asta-sekin o'zlashtirdi va o'zlarining taqdimotlarini yaratishni boshladilar, ular sinfda qo'llaniladi. Internetga kirganimizda oldimizda katta imkoniyatlar ochildi. Internet-resurslardan foydalanish talabalar e'tiboriga bosma ko'rgazmali qurollar orasida har doim ham uchramaydigan katta formatdagi bir qancha reproduksiylarni taqdim etish imkonini berdi. Rasmlardagi reproduksiylarni o'rganish bolalarning so'z boyligini faollashtiradi, o'quvchilarda insho yozishda o'z fikrini ifoda etish qobiliyatini rivojlantiradi va shu bilan birga ularda atrofda olam, tabiatga, hayvonlarga, mehnatga, insonga muhabbat haqida to'g'ri tasavvurlarini shakllantirishga hissa qo'shadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun elektron qo'llanmalar darslarni diversifikatsiya qilishga, bolalarni o'qitishga individual yondashuvni amalga oshirishga yordam beradi. Kompyuter texnikasining imkoniyatlari elektron resurslardan foydalangan holda istalgan mavzu va mavzu bo'yicha qiziqarli darsni tez, eng muhimi, sifatli tayyorlash imkonini berishi ham muhim. Ushbu darslarni o'tkazish uchun sizga faqat bitta kompyuter va tasvirni ekranga o'tkazadigan multimedia proyektori kerak bo'ladi. Bu har bir o'qituvchi uchun juda qulay. Bugungi kunda ta'lim jarayonida AKTdan foydalanish juda muhim bo'lib, usiz boshlang'ich sinflarda zamonaviy ta'limni amalga oshirish mumkin emas. Boshlang'ich maktab uchun bu ta'lim maqsadlarini belgilashda ustuvorliklarni o'zgartirishni anglatadi: ta'lim va tarbiya natijalaridan biri bolalarning zamonaviy kompyuter texnologiyalarini o'zlashtirishga tayyorligi va ularning yordami bilan olingan ma'lumotlarni yangilash qobiliyati bo'lishi kerak. o'z-o'zini tarbiyalash.

Axborot va ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish boshlang'ich ta'limda ona tili va o'qish savodxonligi darslarida katta ta'sir ko'rsatadi. Bu texnologiyalar o'qituvchilarga o'quvchilarni jalb qilish, o'qitishni shaxsiylashtirish va tilni samarali o'rganishni rag'batlantirish uchun innovatsion vositalar va resurslar bilan ta'minlaydi. Bu darslarda axborot va ilg'or pedagogik texnologiyalardan qanday foydalanish mumkinligiga misollar keltiramiz:

Raqamli o'qish platformalari: Onlayn platformalar va elektron kitoblar ona tilidagi interaktiv va qiziqarli o'qish materiallarining keng doirasini taklif qiladi. Ushbu platformalar ko'pincha tushunish va so'z boyligini rivojlantirish uchun audio qo'llab-quvvatlash, so'zlarni ajratib ko'rsatish va interaktiv viktorinalar kabi xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, ular o'quvchilarga o'qishga bo'lgan muhabbatni uyg'otadigan turli xil matnlar, jumladan, badiiy, badiiy bo'lmagan va she'riyatdan foydalanish imkonini beradi.

Gamifikatsiya: O'rganish tajribasini o'yinga aylantirish til o'rganishni qiziqarli va talabalar uchun motivatsiya qilishi mumkin. Ta'lim o'yinlari va til o'rganish ilovalari o'quvchilar o'qish va til ko'nikmalarini mashq qilishlari mumkin bo'lgan interaktiv va immersiv muhitlarni ta'minlaydi. Ushbu vositalar ko'pincha mukofotlar, qiyinchiliklar va taraqqiyotni kuzatish kabi elementlarni o'z ichiga oladi, bu esa o'quvchilarni faol ishtirok etish va qiziqarli o'rganishga undaydi.

Multimedia resurslari: Videolar, audio yozuvlar va podkastlar kabi multimedia resurslaridan foydalanish tinglash va o'qishni tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. O'qituvchilar o'z darslarida o'quvchilarni turli xil ovozlari, urg'u va madaniy kontekstlarga ta'sir qilish uchun multimedia kontentini kiritishlari mumkin. Bundan tashqari, multimedia resurslari talabalarga ommaviy axborot vositalarining turli shakllarini tahlil qilish va tanqidiy baholash, ularning raqamli savodxonlik ko'nikmalarini oshirish imkoniyatlarini taqdim etadi.

Hamkorlikdagi onlayn platformalar: hamkorlikda o'rganishni qo'llab-quvvatlovchi onlayn platformalar va vositalar ona tili va o'qish savodxonligi darslarida muloqot, hamkorlik va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishi mumkin. Virtual munozara taxtalari, hamkorlikda yozish vositalari

va onlayn forumlar talabalarga mazmunli muhokamalarda qatnashish, o'z g'oyalarini baham ko'rish va tengdoshlaridan fikr-mulohazalarni olish imkonini beradi. Ushbu platformalar, shuningdek, faol ishtirokni rag'batlantiradi va sinfda hamjamiyat hissinin rivojlantirishi mumkin.

Moslashuvchan ta'lim tizimlari: Moslashuvchan ta'lim tizimlari o'qitishni talabaning individual ehtiyojlariga moslashtirish uchun algoritmlardan foydalanadi. Ushbu tizimlar har bir talabaning o'qish va til ko'nikmalaridagi kuchli va zaif tomonlarini aniqlashi va shaxsiy tavsiyalar va o'rganish yo'llarini taqdim etishi mumkin. O'qitish mazmuni va sur'atini har bir o'quvchiga moslashtirib, moslashtirilgan ta'lim tizimlari o'quvchilarning ona tili va o'qish savodxonligi sinfidagi turli xil ta'lim ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi.

Raqamli hikoya vositalari: Raqamli hikoya qilish vositalari talabalarga matn, tasvir, audio va video kabi multimedia elementlaridan foydalangan holda o'zlarining hikoyalarini yaratish va almashish imkonini beradi. Bu vositalar o'quvchilar o'z hikoyalarini rejalashtirish, yozish va taqdim etishda ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va til ko'nikmalarini rivojlantiradi. Raqamli hikoya qilish, shuningdek, talabalarga hikoya tuzilmalari, til konvetsiyalari va ekspressiv muloqot haqidagi tushunchalarini namoyish qilish imkonini beradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, axborot va ilg'or pedagogik texnologiyalarning integratsiyasi ona tili va o'qish savodxonligi darslarini rivojlantirishga yordam bersa-da, ular an'anaviy o'qitish usullarini butunlay almashtirmasligi kerak. O'qituvchilar talabalarga yo'l-yo'riq berish, fikr-mulohazalarni bildirish va mazmunli o'rganish tajribasini osonlashtirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Texnologiyalar o'qituvchi va o'quvchining o'zaro ta'sirini almashtirishdan ko'ra, sinfdagi ta'limni to'ldirish va boyitish vositasi sifatida ko'rilishi kerak.

Darsda multimediali taqdimotlardan foydalanish o'quv jarayonini boyitadi, samaraliroq qiladi, shuningdek, o'quvchilarning ijodiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Mavzuni o'rganishning istalgan bosqichida taqdimotlardan foydalanish mumkin. Bolalar bu darslarga juda qiziqadi va ularni yaxshi ko'radi. O'ylaymizki, boshlang'ich sinflardayoq bolaga kompyuter qiziqarli, hayajonli ish quroli ekanligini va agar u kompyuterda o'zi biror narsa qilishni o'rgansa, u bunday mashg'ulotlardan zavqlanadi va foyda oladi, deb tushunish mumkin.

Boshlang'ich maktab yoshida o'yin o'rganish bilan birga bolaning rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Bolalar didaktik o'yin holatiga kiritilganda, o'quv faoliyatiga qiziqish keskin ortadi. Zero, o'yin ta'lim jarayonining bir qismi ekanligi hech kimga sir emas. Biz o'yindan foydalanamiz - «Auktsion» tanlovi. U har qanday mavzuda qo'llanilishi mumkin. Masalan, fe'llar mavzusini o'rganayotganda, ushbu sxema uchun iloji boricha ko'proq o'tgan zamon fe'llarini tanlang. 3 daqiqada bolalar sxema bo'yicha 21-25 ta so'zni yozdilar: yozdi, sotib oldi, qichqirdi va hokazo. Yoki «Kim ko'proq?» o'yini, o'rganilayotgan qoida uchun so'zlar tanlanadi, kim ko'proq sinonim, antonim so'zlarni tanlaydi. o'quv va nazorat mashqlari. Didaktik o'yin orqali ona tili va o'qish darsi darslariga qiziqish uyg'otamiz. Boshlang'ich maktab yoshida o'yin o'rganish bilan birga bolaning rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Bolalar didaktik o'yin holatiga kiritilganda, o'quv faoliyatiga qiziqish keskin ortadi.

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish va so'z boyligini boyitishga hissa qo'shadigan «Cryphers» o'yinidan foydalanish muhim rol o'ynaydi. Masalan, topshiriq beriladi: so'zlarni taxmin qiling va har bir guruhdan qo'shimcha so'z tanlang: aaltrek, lazhok, raukzhk, zitonk (plastinka, qoshiq, krujka, soyabon); oarz, straa, yanivsh, roamksha (atirgul, aster, olcha, romashka); kyoink, michkya, zhyil, gesn (konki, to'p, chang'i, qor) va boshqalar. Biz shifrlangan iboralar va shifrlangan jumalarni taklif qilamiz. Innovatsion texnologiyalardan foydalanish o'tkazishning qiziqarli shakllaridan foydalanishga yordam beradi: ertak darslari, sayohat darslari, bayram darslari, KVN, bolalarga turli xil vazifalarni so'raydigan yoki yangi mavzu bilan tanishishga yordam beradigan ertak qahramonlaridan foydalanish. . AKT bolalarni tilni o'rganishga jalb qilish, ona tili va o'qish darsi darsini sevimli, qiziqarli qilish imkonini beradi. og'zaki xalq amaliy san'atidan foydalanish (til ohanglari, ko'chatlar, sanoq olmoshlari, topishmoqlar, maqollar). To'g'ri, ezgu, halol, samimiy va qat'iy so'zning qudrati va ahamiyatini xalq juda qadrlaydi. Maqollar insonning ijobiy fazilatlarini maqtaydi, uning kamchiliklarini qoralaydi, ular yangi materialni o'rganishda yaxshi yordamchi bo'lib, sinfda qoidalarini o'rnatadilar. Maqollar va matallar ona tili va o'qish darsining har qanday mavzusi uchun tanlanishi mumkin: juftlangan jarangli va jarangsiz undoshlar, urg'usiz unilarning imlosi, talaffuzi bo'lmagan undoshlar bilan so'zlarni o'rganish, predlog va prefiksli so'zlarni imlo, ajratuvchi va qattiq belgi bilan, otlarning hollarini o'rganishda. , shaxs-sonli fe'l qo'shimchalarini o'rganayotganda, olmosh va ergash gaplarni o'rganayotganda, fe'lning noaniq shakli va hokazo. Ayrim maqollar bir necha marta ishlatilishi mumkin. Ular o'quvchilarning nutqini yaxshilashga, so'z boyligini boyitishga, bolalar xotirasi va tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek, maqollar misollaridan foydalanib, ularda odob-axloqiy fazilatlarini shakllantirishga harakat qilaman. AKT yordamida barcha eslatmalardan vizual foydalanish mumkin. Shunday qilib, masalan, jumla berilgan: Bog'dagi qirg'oqlarda sariq iplar paydo bo'ldi. Gapni tahlil qilib, ortogrammalarning mavjudligini aniqlagandan so'ng, vazifa beriladi: otlarni gap bo'laklari sifatida tahlil qilish. Taqdimot ramkasining o'ng tomonida eslatma beriladi, unga ko'ra bolalar boshlang'ich shaklni, jinsni, tuslanishni, holatni, raqamni, jumladagi rolni aniqlaydilar yoki yigitlar eslatmadan qaysi vazifani bajarish kerakligini aniqlashlari kerak.

Kompyuter lug'at ishini olib borishga ijodiy yondashish, uni samaraliroq qilish, lug'at so'zlari bilan

ishlashning turli usullarini qo'llash uchun katta imkoniyat yaratadi. Lug'at diktantlarining tanlab, qisqa muddatli, tasviri, topishmoqlar yordamida, tavsiflovchi iboralar uchun sinonim va antonimlarni tanlash bilan, etishmayotgan harflar bilan, alifbo tartibida, xotiradan yozish kabi usullaridan foydalaning.

Kompyuterdan foydalanib, biz lug'at so'zlari bilan ishlashning quyidagi usulidan ham foydalanamiz: biz ushbu so'zlarni o'qishni taklif qilamiz, keyin turli xil rasmlarni ko'rsatamiz va bolalar faqat o'qigan so'zlarga mos keladiganini yozishlari kerak. Ish oxirida tekshirish amalga oshiriladi.

Sifat haqida o'rganilgan ma'lumotlarni AKT yordamida takrorlashda sifat haqidagi barcha o'rganilgan qoidalarini esga olamiz. Keyin fe'l-avtor, qaratqich va yuklama holatlarida iboralarni yozishni taklif qilamiz: oq dasturxon, ulkan uy, erta tong.

Imloni samarali o'rgatish uchun innovatsion texnologiyalar yordamida kontseptsiya ustida ishlashning turli bosqichlarida vizualizatsiyadan ko'p va xilma-xil foydalanish, ko'nikmalarni mustahkamlash uchun juda ko'p turli xil mashqlarni kiritishga erishiladi. O'quv jarayoniga elektron dinamik diagramma va modellar, jadvallar, rang-barang illyustratsiyalar va boshqalarning kiritilishi dars samaradorligini oshirish imkonini beradi. Raqamli ta'lim resurslari mavjudligi bilan kompyuter texnologiyalari o'quv jarayonining barcha bosqichlarida qo'llanilishi mumkin: yangi materialni tushuntirishda, mustahkamlashda, takrorlashda, nazorat qilishda.

Videotexnologiyadan foydalanish vizualizatsiya rolini oshirishga imkon beradi, o'quvchilarga o'rganilayotgan jarayonlar haqida to'liqroq va ishonchli ma'lumot beradi va ularni faol ishlarga jalb qiladi. Konsolidatsiya bosqichida kompyuter yordamida siz o'quv materialini o'zlashtirish darajasini kuzatishingiz mumkin. Buning uchun sinf odatda guruhlarga bo'linadi, ularning har biri o'z rejimida yoki kompyuterlar soni bo'yicha tanlab ishlaydi.

Bilimlarni takrorlash, umumlashtirish va tizimlashtirishda kompyuterning grafik imkoniyatlaridan foydalaniladi, bu esa o'quvchiga materialni o'zlashtirish darajasini aniqlashga va xatolarni tuzatishga yordam beradi.

Bilimlarni tekshirish va nazorat qilishda kompyuter texnologiyalari an'anaviy yondashuvdan sezilarli ustunlikka ega, baholash ob'ektivroq bo'ladi.

O'quv jarayonida AKTdan foydalanish har bir bolani o'rganishning turli darajalari, xotira, fikrlash va diqqat xususiyatlarini hisobga olgan holda o'qitishga yordam beradi. AKT dan foydalanish o'quv jarayonini farqlash imkonini beradi, masalan, rivojlanish darajasi yuqori bo'lgan o'quvchilar qiyinligi oshgan mashqlarni bajarish orqali kompyuter yordamida o'z bilimlarini chuqurlashtirishlari mumkin.

Darsda kompyuterdan foydalanish o'qituvchiga qisqa vaqt ichida o'quv materialini mavzusi bo'yicha bilim darajasi to'g'risida ob'ektiv tasavvurga ega bo'lish va natijalarni o'z vaqtida tuzatish imkonini beradi. Shunday qilib, boshlang'ich sinf darslarida kompyuterdan foydalanish maqsadga muvofiq va istiqbolli ko'rinadi. Bu vazifalarning bajarilishi ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning shakl va usullarining takomillashuviga, maktab o'quvchilarining bilim, ko'nikma va axborot bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'lishi, mustaqil ravishda yangi bilimlarni egallash ko'nikmasini shakllantirishga olib keldi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Baranova E.V.ning bibliografik ro'yxati. Gogun E.A. va boshqa boshlang'ich sinflarda darslarni tashkil etishda instrumental kompyuter muhitidan foydalanish bo'yicha uslubiy tavsiyalar. - Sankt-Peterburg: Anadolu, 2003 yil.

2. Bashmakov, M.I. O'quv muhitining tasnifi / M.I. Bashmakov, S.N. Pozdnyakov, N.A. Reznik // Maktab texnologiyalari. - 2000. - No 3. - S. 135-146.

3. Bashmakov, M.I. Axborot ta'lim muhiti / M.I. Bashmakov, S.N. Pozdnyakov, N.A. Reznik. - Sankt-Peterburg, 1996. - 167 b.

4. 2010 yilgacha bo'lgan davrda Rossiya ta'limini modernizatsiya qilish kontseptsiyasi // Milliy ta'lim. - 2002. - No 4. - S. 254-269.

5. Krasilnikova, V.A. Ta'limni axborotlashtirish: kontseptual apparat / V.A. Krasilnikova // Informatika va ta'lim. -2003 yil. - No 4. - S. 21-27.

6. Kruk, L.V. Ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. festival.1september.ru.

7. Pavlova, S.A. Boshlang'ich maktabda ta'limning axborot va texnik vositalari / S.A. Pavlova, R.Ya. Trofimova // Boshlang'ich maktab. - 2001. - 4-son. - S. 110-112.

**ПРАКТИЧЕСКАЯ РЕАЛИЗАЦИЯ ПРОЕКТНО-КОНСТРУКТИВНОЙ
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ В ХОДЕ ГРАФИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКЕ***Собинова Шарофат Умедуллаевна**преподаватель Бухарского государственного педагогического института*

Аннотация: В статье рассматривается проектно-конструкторская деятельность представляющий собой комплексную познавательно-преобразовательную деятельность, состоящую из взаимосвязанных компонентов, таких как творческие исследования, эксперименты, решение технических задач, создание моделей и устройств реального применения с их последующими испытаниями.

Ключевые слова: проектно-конструктивная деятельность, этап, задача, конструирование, техническая задача, проектная деятельность, прогнозирование, модель, макет, моделирование.

**PRACTICAL IMPLEMENTATION OF STUDENTS' DESIGN AND CONSTRUCTIVE
ACTIVITIES DURING GRAPHIC TRAINING***Sobirova Sharofat Umidullayevna**Teacher of the Bukhara State Pedagogical Institute*

Abstract: The article discusses design activity, which is a complex cognitive-transformative activity consisting of interrelated components, such as creative research, experiments, solving technical problems, creating models and devices of real use with their subsequent tests.

Keywords: design and constructive activity, stage, task, design, technical task, project activity, forecasting, model, layout, modeling.

Научно-технический прогресс как один из главных рычагов создания материально-технической базы государства возможен только на основе ускоренного внедрения в производстве достижений науки и техники.

Проектная деятельность тесно связана с понятиями «прогнозирование», «конструирование» и «моделирование». Прогнозирование — это разновидность научного предвидения, специальное исследование перспектив какого-либо явления, вероятностное научное суждение о возможных состояниях явления в будущем. Различают поисковое прогнозирование, цель которого — поиск перспективных проблем, подлежащих решению, и нормативное, которое сводится к определению возможных путей решения проблем с ориентацией на заданные критерии.

Проектирование и прогнозирование имеют общие цели и ориентацию на достижение результатов. Однако проектирование требует большей строгости и ответственности, поскольку оно осуществляется для получения результата, непосредственно используемого в практике. Прогнозирование же как «суждение о перспективах» допускает определенное варьирование в выводах. Взаимовлияние проектирования и прогнозирования дает основание считать, что при проектировании исследовательская деятельность является базой для возможного выявления новых источников прогнозирования. Прогнозирование как обязательная мыслительная процедура используется в проектировании для формирования обоснованного суждения о перспективах, возможных состояниях того или иного объекта или явления в будущем.

- the right to make a mistake;

- the right to one's own point of view;

- the style of relations between teachers and students: not to prohibit, but to direct; not manage, but co-manage; not to force, but to convince; not to command, but to organize; not restrict, but represent freedom of choice[9].

The main content of the new relations is the abolition of coercion, as inhumane and not giving an effective result in modern conditions. The problem is not in the absolutization of the principle, but in the definition of a reasonable measure. In general, the education of the impossible without coercion, however, punishment humiliates, slows down development, educates a slave.

References:

1. Azizkhodzhaeva N.N. Pedagogical technologies and pedagogical skills - T.: TDPU, Nizami, 2003.
2. Avliekulov N. Modern learning technologies. - T., 2001.
3. Yuldashev Yu., Usmanov S. Fundamentals of pedagogical technology. T.: Uchitel, 2004.
4. Ochilov M. New pedagogical technologies. - Karshi, 2000.
5. Saidakhmedov N.S. New pedagogical technologies in pedagogical practice examples of application. - T.: RTM, 2000.
6. Tolipov O., Usmonboeva M. Pedagogical technologies: theory and practice. - T.: Fan, 2005.
7. Komiljonovna K. I., Almasovna S. N., Axatovna M. G. Problems of Anthroponymy in Uzbek Linguistics //Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. – 2022. – T. 3. – №. 2. – C. 27-29.
8. L Nigmatova. Exploring The Potential Of Corpus Linguistics In Language Learning And Teaching. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры 3 (3), 70-76
8. Шермухаммедова Н. А. Тексты профессиональной направленности как источники

обогащения речи терминологической лексикой //Мировая наука. – 2020. – №. 5 (38). – С. 446-448.

EKOLOGIK FORSAYT LOYIHALAR TAHLILI VA AMALGA OSHIRISH METODIKASI

Shomurotov Bahrom Husanovich

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti "Ekologiya va mehnat muhofazasi" kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada forsait texnologiyaning mazmuni, forsait loyihalar bo'yicha rivojlangan davlatlar tajribasi hamda ilmiy, siyosiy va biznes sohasidagi amalga oshirilgan xalqaro forsait loyihalar natijalari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Ekologik forsaitning mazmun-mohiyati asoslangan, keng masshtabli xorijiy ekologik forsait tadqiqotlar tahlil etilgan. Ekologik forsait loyihalarni amalga oshirishga oid tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: forsait, strategik reja, noosfera, bashoratlash, forsait metodlari, ssenariy, eko-forsait.

АНАЛИЗ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ФОРСАЙТ ПРОЕКТОВ И МЕТОДИКА ЕГО ПРОВЕДЕНИЯ

Шомуротов Баҳром Ҳусанович

старший преподаватель кафедры «Экология и охрана труда» Каршинского инженерно-экономического института

Аннотация: В статье приведены информация о содержании forsait технологии, опыте развитых стран по forsait проектам, а также результаты международных forsait проектов, реализуемых в научной, политической и бизнес сферах. Анализируются масштабные зарубежные экологические forsait исследований и обоснована содержания и сущности экологического forsaita, Разработаны рекомендации по реализации экологических forsait проектов.

Ключевые слова: орсайт, стратегический план, ноосфера, прогноз, методы forsaita, сценарий, экоforsait

THE NEED AND IMPORTANCE OF DEVELOPING ECO FORESIGHT COMPETENCES IN FUTURE ENVIRONMENTALISTS

Shomurotov Bahrom Husanovich

Senior Lecturer, Department of Ecology and Labor Protection, Karshi Engineering and Economics Institute

Abstract: The article provides information about the content of foresight technology, the experience of developed countries in foresight projects, as well as the results of international foresight projects implemented in the scientific, political and business fields. Large-scale foreign environmental foresight studies are analyzed and the content and essence of environmental foresight are substantiated. Recommendations for the implementation of environmental foresight projects are developed.

Keywords: foresight, strategic plan, noosphere, prediction, foresight methods, scenario, eco-foresight

KIRISH. Uzoq muddatli strategik rejalashtirishda bir qancha metodologik va tashkiliy prinsiplar hamda texnologiyalardan foydalaniladi. Ana shunday texnologiyalarning asosiysi sifatida keyingi yillarda forsait texnologiyasidan keng foydalanilmoqda.

Forsait yuqori ehtimollik asosida eng ko'p iqtisodiy va ijtimoiy foyda keltirishga yo'naltirilgan uzoq muddatli kelajakda texnika, texnologiya, iqtisodiyot va jamiyatni strategik rivojlanishini ilmiy asoslangan bashoratlash texnologiyasi hisoblanadi.

Forsait texnologiyasi asosida global yoki bir davlat miqyosidagi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ekologik muammolar yechimiga qaratilgan uzoq muddatli strategik rejalar (5 yildan 30 yilgacha) ilmiy asosli statistik ma'lumotlarga asoslangan holda ishlab chiqiladi, ya'ni kelajak strategiyasi aniq, yuqori darajadagi dalillar asosida rejalashtiriladi. Rivojlangan davlatlarda forsait alohida bir tashkilot yoki korxona doirasida ham keng foydalaniladi, forsait uslublari yordamida korxonaning kelajak strategik rejasi yaratiladi, qaysi sohalarini takomillashtirish zarurligi aniqlanadi, maqsadga erishish yo'l xaritalari ishlab chiqiladi.

TADQIQOT METODLARI. Tadqiqot jarayonida ilmiy va o'quv-uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, pedagogik tajriba-sinov va forsait metodlaridan foydalanildi.

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMALAR. Forsait nisbatan yangi atama hisoblandi. Hozirgacha forsaitning yagona ta'rifi mavjud emas. Forsait texnologiya bilan shug'ullanuvchi har bir davlat, tashkilot yoki ekspertlar guruhi o'zlarining ta'riflarini tavsiya etishgan va ularda forsaitning u yoki bu tomoni yoritilgan.

Quyida "Forsait nima?" degan savolga berilgan bir necha ta'riflarni ko'rib chiqamiz:

Forsait – fan, texnologiya, iqtisodiyot va jamiyatning uzoq muddatli istiqbolini tizimli baholash asosida yuqori darajada ijtimoiy-iqtisodiy foyda keltirishga qaratilgan yangi texnologiyalar va tadqiqotlarning strategik yo'nalishlarini aniqlashga qaratilgan texnologiyadir.

Forsait-kelajakni faol bashoratlash, ko'ra bilish orqali iqtisodiyot, fan, biznes va boshqa sohalarining istiqbolli rivojlanish strategiyasini asosli yaratish demakdir [1].

Forsait maqsadi yuqori darajada foyda keltirishga yo'naltirilgan strategik tadqiqotlar va innovatsion texnologiyalarni identifikatsiyalash, ya'ni yuqori foydali kelajakni aniqlash hamda unga erishish strategiyasini yaratishdan iborat [2].

Forsayt (foresight) va uni amalga oshirish “Forsayting (foresighting)” keng ma’noda ekspertli bashoratlash texnologiyasining konsepsiyasi va amaliyotidir. Forsayt iqtisodiyot tarmoqlarining turli sohalarida turli darajada qo’llanilmoqda. Forsaytga V.Martin “Katta ijtimoiy-iqtisodiy foyda keltirishga qaratilgan tadqiqotlar va yangi texnologiyalarning strategik yo’nalishlarini belgilovchi, fan, texnologiya, iqtisodiyot va jamiyatning uzoq muddatli istiqbolini baholashning tizimli urinishlaridir” - deb klassik ta’rif berib o’tgan [3]. Y. Kishita va R. Popper o’z ilmiy ishlarida forsayt ssenariylar va yo’l xaritalar yaratishda bashoratlashning mumkin bo’lgan instrumentidir deb ko’rsatib o’tishgan [4, 5, 6].

1980 yillarning boshlarida AQShda dastlabki milliy forsayt loyihalar “Kritik texnologiyalar”ni aniqlash maqsadida foydalanilgan. Shuningdek, texnologik forsaytdan tashqari boshqa sohalar, jumladan ijtimoiy-siyosiy va davlat tuzilishi hamda boshqaruviga oid loyihalar bo’yicha ham ilmiy tadqiqotlarda ham forsaytdan asosiy metodika sifatida foydalanilgan. 1990 yillarning o’rtalariga kelib forsayt texnologiyasidan Yevropa, Osiyo va Lotin Amerikasi davlatlari ham foydalana boshlashgan (1.1.-jadval).

1.1.-jadval

Milliy darajadagi xorijiy forsayt loyihalar va ularning natijalari

Forsayt loyihalar nomi	Mamlakat va tadqiqot yili	Natijalar
Buyuk Britaniya texnologik forsayt milliy dasturi (uchinchi bosqich)	Buyuk Britaniya, 2013	Tadqiqot mavzusi va istiqboli bo’yicha sohaga oid ilmiy tashkilotlar uchun tavsiyalar ishlab chiqilgan, ilmiy jurnallarda maqolalar nashr etilgan va yakuniy hisobot taqdim etilgan (manba: Buyuk Britaniya davlati rasmiy sayti)
Bolgariyaning turistik industriya forsayti	Bolgariya, 2011	Sohani strategik rivojlanishi bashorati amalga oshirilgan, rivojlanish strategiyalari ssenariysi va siyosiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.(Manba: Tourism Flows Outbound Market Research Report)
Chexiya milliy dasturi texnologik forsayti	Chexiya, 2006– 2007	Amaliy tadqiqotlar milliy dasturi ishlab chiqilgan (Manba: Forsaytning Yevropa bazasi- EFMN, European Foresight Monitoring Network).
Vengriya texnologik forsayti	Vengriya, 2002	Mamlakatning iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy potensialini mustahkamlash bo’yicha milliy innovatsion tizim shakllantirilgan (Manba: Havas A. (2002). Identifying Challenges and Developing Visions — Technology Foresight in Hungary. IEHAS Discussion Papers, No. MT-DP — 2002/6]
Kipr qishloq chegarasi	Kipr, 2002–2013	Qishloq xo’jaligini barqaror rivojlanish strategiyasi va maqsadi, ushbu soha bo’yicha tadbirkorlikni rivojlantirish, barqaror “Agroiqtisodiyot”ni shakllantirish bo’yicha tadbirlar ishlab chiqilgan, sohaga oid bir qancha anjumanlar va tadbirlar tashkil etilgan. Manba: Forsaytning Yevropa bazasi- EFMN, European Foresight Monitoring Network).
Kichik va o’rta biznes uchun axborot texnologiyalari	Tailand, 1993	Kichik va o’rta biznesni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo’yicha o’qitish ehtiyojini aniqlash va buning uchun arzon dasturlar sotib olish (Manba Application of Technology Foresight. Proceedings of the Public Seminar on the Occasion of the Launch of APEC Center for Technology Foresight Bangkok). URL: http://www.apecforesight.org/publications/30.pdf)
Markaziy And yuqori tog’larida o’suvchi dorivor o’simliklardan dori ishlab chiqarish istiqbollari	Ekvador, Boliviya va Peru, 1999– 2006	Tarmoqning joriy holatini baholash, mintaqada tibbiy dorilar ishlab chiqarish bo’yicha tavsiyalar ishlab chiqish (Manba: Andean Products Medicinal plants originating in the Andean High Plateau and Central Valleys Region of Bolivia, Ecuador and Peru. URL: http://www.unido.org/fleadmin/import/58569_medicinal_fnal.pdf (data obrasheniya: 19.06.2016))

Hozirgi kunda forsayt bo'yicha Yevropa bazasi ikki mingdan ortiq loyihalarni o'z ichiga oladi.

N.N.Moiseyev ta'kidlashicha "Insoniyat kelajakda noosfera davriga o'tadi, ya'ni biosfera va jamiyat kooperativ tizim kabi bitta butun organizm sifatida rivojlanadi, rivojlanish evolyusiyasi bir maqsadga yo'naltirilgan tarzda boshlanishi bilan rivojlanadigan (lekin kafolatlanmagan) va gomeostaz insoniyat va biosfera tizimini ta'minlashga intiladigan davrga o'tadi" [7]. Bunday sharoitda kelajak rivojlanishini bashoratlashning an'anaviy texnologiyalari va metodlari yaxshi samara bermaydi. Aynan, forsayt texnologiya global inqirozlar yuzaga kelishining asosiy muammolarini modellashtirish, "yangi iqtisodiy davr"ga o'tishning o'ziga xos xususiyatlarini asoslash, rivojlanishning eng samarali yo'llarini aniqlash, kelajak shaharlarining eng qulay modellarini (aqlli shaharlar) yaratish imkoniyatini beradi.

Hozirgi sanoat rivojlanishi davrida ekologik oqibatlarini uzoq muddatli bashoratlash hamda milliy sanoat siyosatini strategik rejalashtirishda forsaytning ahamiyati yuqori darajadagi ekologik muammolar hamda iqtisimiy-geologik masshtabga ta'sir etish darajasini bashoratlash bilan asoslanadi. Hozirgi kunda yillik tabiiy resurslardan foydalanish ehtiyoji ko'rsatkichi hamda yuzaga kelayotgan chiqindilarni assimilyatsiya darajasi planetaning tabiiy boyliklarni qayta yuzaga keltirish (regeneratsiya) imkoniyatlaridan oshib ketmoqda. 2018 yilgi ma'lumotlar bo'yicha insoniyat Yerning 1,75 ekvivalent ekologik biologik hajmidan foydalanmoqda [8]. Iqtisodiyotni yanada sanoatlashtirish "Rivojlanishning lokomotivi" deb belgilangan va jahonning iqtisodiy rivojlanish hamda innovatsion iqtisodiyoti strategik maqsadlariga kiritilgan. Shu sababli, global strategik trendlar- innovatsiya - neoindustrializatsiya - barqaror rivojlanish - sanoat eko-forsayti va texnika-texnologik innovatsiyalar bozori ilmiy tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishi hisoblanadi.

Forsaytdan ilmiy, siyosiy va biznes-muhitdagi tadqiqotlarda ham keng foydalaniladi. Jumladan, Shell Oil kompaniyasi tomonidan 1970 yillarda neft narxini oshishi oqibatlari forsayt asosida bashoratlangan yoki iqtisodiy rivojlangan davlatlar siyosatining ko'pgina sohalaridagi potensial muammolarni aniqlashda qo'llanilgan [9]. Jumladan, AQShning atrof-muhitni muhofaza qilish Agentligi (U.S. EPA, 1973, 1995, 2002, 2007), iqlim o'zgarishi bo'yicha davlatlararo ekspertlar guruhi [10], Buyuk Britaniya hukumati, Yevropa Ittifoqida -Yevropa Ittifoqi siyosatining dastlabki bosqichi, Birlashgan tadqiqotlar markazi - yaqin kelajakdagi 5-30 yilda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy muammolar kabi loyihalarni misol keltirish mumkin.

Forsayt texnologiyasi va atamasining keng tarqalganiga hamda uning yuzaga kelganiga kamida 50 yil bo'lishiga qaramasdan "Kelajakni bashoratlash va kelajakni shakllantirish" texnologiyasi hamda uning tashkiliy tuzilmasi bo'yicha yagona bir ilmiy to'xtamga kelinmagan [11].

Keng masshtabli xorijiy ekologik forsayt tadqiqotlarga AQShning Atrof muhitni muhofaza qilish Agentligi (United States Environmental

Protection Agency - EPA), Iqlim o'zgarishi bo'yicha dalatlararo ekspertlar guruhi (Intergovernmental Panel on Climate Change - IPCC), "Ming yillik oxirida ekotizimni baholash" (Millennium Ecosystem Assessment - MA) kabi tashkilotlar amalga oshirgan loyihalar misol bo'la oladi. Ayniqsa AQShning Atrof muhitni muhofaza qilish Agentligi ekologik forsayt bo'yicha katta amaliy tajribalarga ega (U.S. EPA 1973, 2002, 2007; Elgin, MacMichael, Schwartz P, 1975). Lekin, ayrim ekologik forsayt loyihalar agentlik doirasida bajarilgan bo'lsada, muhim natijalar bilan xarakterlanadi [12]. Ekologik forsaytni rivojlantirishdagi asosiy motivatsiya atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi xavflarni bartaraf etish zarurligi prinsipiga asoslangan «... to anticipate future environmental problems, and then take steps to avoid them, not just respond to them after the fact» [13].

AQShning Atrof muhitni muhofaza qilish Agentligi (EPA) dastlab kichik ekologik forsayt loyihalar ustida ishlagan. Ekologik loyihalar 1990 yilda tashkil etilgan "Ekologik kelajak Komiteti (Environmental Futures Committee)" hamda "Alternativ kelajak instituti Institute for Alternative Futures" tomonidan amalga oshirilgan. Ushbu loyihalar 1999 yillargacha epizodik («one shot» efforts) xarakterga ega bo'lgan va ular ekologik forsayt bo'yicha tizimli va doimiy dasturning bo'limi bo'lmagan. 1999 yilda "Fyucher tarmog'i" va "Forsayt tarmog'i" ning tashkil etilishi ekologik forsayt bo'yicha barcha tashkilotlarning loyihalarini markazlashtirish hamda uning potensialini oshirishga olib kelgan [14].

Eng yirik va ahamiyatli ekologik forsayt tadqiqot "Iqlim o'zgarishi" ning ssenariy modellarini yaratish hisoblanadi. Ushbu global hodisa ssenariysi uzoq davrdagi vaqt gorizonti hamda ko'p sonli noaniqliklar asosida obyektiv asoslangan. Davlatlararo ekspert guruhi tomonidan iqlim o'zgarishi bo'yicha yaratilgan ssenariylar tahlili ko'pgina holatlarda ushbu ekspertlar forsaytning miqdoriy modellashtirish metodidan foydalanganligini ko'rsatadi. 1990 yillarning boshida Iqlim o'zgarishi bo'yicha davlatlararo ekspertlar guruhi (Intergovernmental Panel on Climate Change - IPCC) [15] tomonidan ifloslantiruvchi moddalar emissiyasi ssenariylari yaratilgan. Aynan Intergovernmental Panel on Climate Change - IPCC tomonidan ishlab chiqilgan ssenariy iqlim o'zgarishidagi asosiy sabablar va uning oqibatlari o'rtasidagi o'zaro bog'lanishni asoslashga hamda ushbu sohada zamonaviy siyosat yo'nalishini belgilab bergan.

Forsayt tadqiqotlar sifati va olingan natijalarning aniqliligi bir qancha omillarga, jumladan vazifani to'g'ri qo'yilishi, tadqiqot metodi va tahlil mezonlarini maqsadga mos kelishi, ekspert guruhining malakasiga bog'liq. Qiyyin aniqlanadigan va zanjirsimon ko'payish xususiyatiga ega bo'lgan omillarni

aniqlashda ekspertlardan ijodiy fikrlash, an'anaviy dunyoqarashdan chetga chiqish talab etiladi. Global nobarqarorlik an'analari kuchayishi, doimiy ravishda iqtisodiy aloqalarni murakkablashuvi, texnik – texnologik rivojlanish va uning ekologik oqibatlarini o'zaro bog'liqlik shartlarini buzilishi global ekotizimida ekologik farsayt tadqiqotlarni ancha murakkablashtiradi hamda "Kelajakni yaratish" va "Kelajakga tayyorgarlik" ning amaliy ahamiyatini baholashni qiyinlashtiradi.

XULOSALAR

Umumiy qilib aytganda farsaytdan foydalanish konsepsiyasining maqsadi rivojlanishning muhim jihatlari va maqsadini aniqlash hamda analitik asoslash, kelajakning variativ ssenariylarini yaratish asosida salbiy oqibatlar ta'sirlarini kamaytirish bo'yicha strategik rejalar ishlab chiqishdan iborat. Buning uchun muammoning joriy holati bo'yicha jahon bozori va ilmiy-texnik taraqqiyot yo'nalishi bo'yicha ma'lumotlar to'planadi hamda tahlil qilinadi, radikal innovatsiyalar klasteri monitoringi o'tkaziladi, potensial imkoniyatlar va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tavakkal (risk) bo'yicha ekspertlar xulosalari baholanib, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan eng muhim inqirozlar va muammolar hamda afzalliklar aniqlanadi.

Ekologik farsayt bo'yicha amalga oshirilgan xalqaro loyihalar tahlillari asosida farsayt tadqiqotlarni qo'yidagi bosqichlar asosida amalga oshirish tavsiya etiladi:

Farsayt tadqiqotlar yuqori tashkilotlar bilan kelishilgan holda tashkil etilishi va farsayt loyihalar uzoq muddatli davrga mo'ljallanganligi sababli ushbu yuqori tashkilotdan mas'ul belgilanishi lozim.

Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi bo'yicha boshqa tashkilotlar, jumladan xususiy tashkilotlar bilan aloqalarni rivojlantirish zarur va kelajakda yuz berishi mumkin bo'lgan ekologik muammolarni bashoratlash, ularni bartaraf etishga qaratilgan uzoq muddatli strategik rejalar ishlab chiqish lozim.

Soha bo'yicha yuqori tajribaga ega bo'lgan ekspertlar guruhini to'g'ri shakllantirish hamda tadqiqotni davlat byudjeti hisobidan doimiy moliyalashtirish, qo'llab-quvvatlash talab etiladi.

Strategik muhokamalar va eng yaxshi yechimlarni rag'batlantirish tizimini shakllantirish zarur.

Gorizontni skanerlash natijalarining joriy tizimini bashoratlangan hodisa ro'y bergandan keyin emas, balki hozirgi kun faoliyatiga kiritish dolzarbligini hisobga olish talab etiladi.

ADABIYOTLAR

1. Raximov O. D., Manzarov Yu. X., Ashurova L. O'zbekiston oliy ta'lim tizimida dastlabki farsayt tadqiqotlar //Sovremennoe obrazovanie (Uzbekistan). – 2021. – №. 4 (101). – S. 16-22.

2. Hines A., Gary J., Daheim C., van der Laan L. (2017) Building Foresight Capacity: Toward a Foresight Competency Model. World Futures Review, vol. 9, no 3. P. 123–141.

3. Martin B. R. Research foresight and the exploitation of science base. HSMO, London; 1993. 81 p

4. Kishita Y. Foresight and roadmapping methodology: Trends and outlook. Foresight and STI Governance. 2021; 15 (2): 5–11. DOI: 10.17323/2500-2597.2021.2.5.11

5. Popper R. Methodology: Common foresight practices & tools. In: Georghiou L. (ed.). International Handbook on Foresight and Science Policy: Theory and Practice. Edward Elgar; 2007. p. 123–144.

6. Popper R. How are foresight methods selected. Foresight [Internet]. 2008 10 (6): 62–89. DOI: 10.1108/14636680810918586

7. Моисеев Н.Н. Судьба цивилизации. Путь разума. М.: Реалисты, 1998. 228 с.

8. Заниздра М.Ю. Методы и практика применения экологического фортайта: аналитический обзор. //Экономика промышленности. 2020, №2 (90). - С.93-115

9. Cook C., Inayatullah S., Burgman M., Sutherland W., Wintle B. (2014). Strategic foresight: How planning for the unpredictable can improve environmental decisionmaking. Trends in Ecology & Evolution. No. 29 (9). P. 531-541.

DOI: <http://dx.doi.org/10.1016/j.tree.2014.07.005>

10. Bengston D., Kubik G., Bishop P. (2012). Strengthening environmental foresight: potential contributions of futures research. Ecology and Society. Vol. 17, Iss. 2. Art. 10. doi: <http://dx.doi.org/10.5751/ES-04794-170210>

11. Крюков С. Форсайт: от прогноза к формированию будущего. Terra Economicus. - 2010. - Т. 8. № 3. Ч. 2. С. 7-17

12. Bengston D., Kubik G., Bishop P. (2012).

Strengthening environmental foresight: potential contributions of futures research.

Ecology and Society. Vol. 17, Iss. 2. Art.10.

DOI: <http://dx.doi.org/10.5751/ES-04794-170210>

13. United States Environmental Protection Agency (U.S. EPA). (1995). Beyond the horizon: using foresight to protect the environmental future. EPA-SAB-EC-95-007. U.S. Environmental Protection Agency, Science Advisory Board, Environmental Futures Committee. Washington, D.C., USA

14. Olson B., Street A. (2002). Foresight: the U.S. Environmental Protection Agency. Scenario and Strategy Planning. Environmental Protection Agency, Madison, Wisconsin, USA

15. Leggett J., Pepper W., Swart R. (1992). Emission scenarios for the IPCC: an update. In IPCC, climate change 1992: the supplementary report to the IPCC Scientific Assessment. Intergovernmental Panel on Climate Change. Cambridge University Press, Cambridge, UK

KOMPYUTER GRAFIK DASTURLARIDAN CHIZMACHILIK DARSLARIDA FOYDALANISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

*Shukurov Avazjon Ro'ziboyevich
Buxoro davlat pedagogika instituti
Musiq va tasviriy san'at kafedrasida dotsenti*

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ КОМПЬЮТЕРНЫХ ГРАФИЧЕСКИХ ПРОГРАММ НА УРОКАХ ЧЕРЧЕНИЯ

*Шукуров Авазжон Рузибоевич
Бухарский государственный педагогический институт
Доцент кафедры музыки и изобразительного искусства*

DIDACTIC POSSIBILITIES OF USING COMPUTER GRAPHICS PROGRAMS IN DRAWING LESSONS

*Shukurov Avazjon Roziboyevich
Bukhara State Pedagogical Institute
Associate professor of the Department of music and Fine Arts*

Annotatsiya. Maqolada ta'lim sohasi rivojlanishida axborot texnologiyalarining o'rni va ahamiyati, dolzarbligi haqida mushohada olib borilgan. Undan tashqari grafik fanlarni o'qitishda kompyuter grafikasi dasturlarini imkoniyat va qulayliklaridan kelib chiqib qo'llash sohasi haqida tahlil qilingan. Chizma va kompyuter grafik dasturlari sohalarni uyg'unlashtirib grafik tasavvurni oshirish borasida takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: Kompyuter grafika, axborot texnologiya, grafika, chizma, chizmachilik, didaktika, ta'lim.

Аннотация. В статье сделан обзор роли и значения информационных технологий в развитии сферы образования, их актуальности. Кроме того, был проведен анализ области применения программ компьютерной графики в преподавании графических дисциплин, исходя из их возможностей и удобства. Программное обеспечение для рисования и компьютерной графики предлагает улучшить графическое воображение за счет сочетания областей.

Ключевые слова: компьютерная графика, информационные технологии, графика, рисование, черчение, дидактика, образование.

Annotation. The article observes the role, relevance and importance of information technologies in the development of educational sphere. In addition, the sphere of application of computer graphics software while teaching graphic sciences has been analysed stemming from capabilities and convenience. The software for drawing offers improvements in graphical imagination by the combination of the two spheres.

Keywords: computer graphics, information technology, graphics, drawing, drawing, didactics, education.

KIRISH. Zamonning glaballashuv jarayoni negizida ta'lim sohasidagi ilm-fan taraqqiyoti, axborotlashgan jamiyatda o'qitishning zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalari vositalarini keng joriy etish va ulardan yanada samarali foydalanish dolzarbligini ko'rsatmoqda. Ta'limni axborotlashtirish butun jamiyatni axborotlashtirish jarayonining bir qismi va sivilizatsiya mavjudligining yuqori darajada tashkil etilgan shakliga o'tishning hal qiluvchi omillaridan biri sifatida qaraladi, bunda axborot tuzilmalarining rivojlanishi bilan bir qatorda inson hayotining barcha sohalari kompyuterlashtirish amalga oshiriladi. Ta'lim maqsadlarida turli xil elektron resurslarning paydo bo'lishi grafik tasvirlar, matn, ovoz, audiovizual va boshqa xabarlar ko'rinishidagi o'ziga xos inson muhiti sifatida ko'p komponentli axborot maydonini tashkil qiladi. O'quv jarayonida axborot texnologiyalarini joriy etish eng jadal rivojlanayotgan va istiqbolli yo'nalish sifatida ta'limni axborotlashtirishning eng muhim daqiqalaridan biridir.

O'qitish jarayoniga axborot texnologiyalarining keng jalb qilinishi natijasida ta'lim jarayonini optimallashtirish nazariyasiga bo'lgan qiziqish ortdi hamda yuqori sifatli ta'lim olish uchun zarur bo'lgan maqsadli yo'naltirish masalasi ham o'z navbatida dolzarb muammolardan biriga aylandi.

Ilm-fanning tez suratlarida taraqqiy etishi va zamonaviy axborot – kommunikatsiya texnologiyalarining barcha soha, jumladan ta'lim jarayoniga tatbiq etilishi, kompyuterlashtirishni yanada takomillashtirish va axborot texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda.

ASOSIY QISM. Axborotlashtirish ta'lim jarayonining barcha sohalari tarkibiy qismini tashkillashtirish, sohalari rivojlanishining jadallashtirishiga olib keldi. Fanlarning o'qitish jarayonini rivojlantirishda kompyuter texnologiyalarni qo'llashga zaruriyat paydo bo'ldi. Ta'limda kompyuter texnologiyalarni qo'llash zaruriyati barcha fanlar qatori grafik fanlarning o'qitish uslubi o'zgarib borganligi asosiy sohasiga aylandi. Ta'limni kompyuterlashtirish chizma sohasining kompyuter grafik dasturlarining

ishlab chiqilishi va ta'limda qo'llanilishi bilan bog'liq tarixiy jarayondir. Grafika fanlarining o'qitishdagi roli asosan shaxs tasavvurini yuqori darajada ko'tarish imkoniyatlari mavjudligidadir.

Grafik fanlarni o'qitishning oldida turgan asosiy vazifalardan biri ham – ixtisosligi bo'yicha chuqur nazariy bilimga hamda mustahkam amaliy tajribaga ega bo'lgan malakali mutaxassislar tayyorlab berishdir. Muhandislik mutaxassislarini tayyorlash sifatini hozirgi zamon ishlab chiqarish, fani va texnikasining talablarini, shuningdek, ularning kelajakdagi rivojlanish istiqbollarini nazarga olgan holda doimo takomillashtirib borish lozim.

Chizmachilik fani o'qituvchisi bir nechta grafik dasturlarga ishlashni bilishi ularni ta'lim jarayonida qo'llay olishi bugungi kunning dolzarb masalasidir.

Chizmachilik fanini kompyuter texnologiyalari asosida o'qitish, talabalarda quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

talabalarining fazoviy tasavvurlarini shakllantiradi. Mavzularni kompyuter texnologiyasi asosida tushuntirganda tekislikning fazoviy ko'rinishlari, proyeksiyalari va yaqqol tasvirining aylantirib yoki tasvir atrofida aylanib ko'rish mumkin bo'ladi.

multimedia asosida yaratilgan mavzular matni, amaliy mashg'ulotlar uchun elektron uslubiy ko'rsatmalar talabalarda fanni o'rganishlari uchun juda ham qulay hisoblanadi;

dinamik tasvirlar, rangli masalarning berilishi, masalarning yechilishi, uning yechimiga mos bo'lishi talabalarining ish bajarish tartibini tezda o'zlashtirib olishlarini osonlashtiradi;

fanning nazariy qismi ko'rgazmali vositalar (rangli tasvirlar, ularning fazoviy ko'rinishlari, dinamik harakatlar) yordamida tushuntiriladi;

nazariyaning berilish ketma-ketligi talabalarining tushunishini osonlashtiradi;

chizmaning bajarilish ketma-ketligi qadam-baqadam ko'rsatilishi va o'ziga berilgan topshiriqni kompyuterda bajarishi talabalarining mustaqil ishlashlariga olib keladi.

Biroq kompyuter grafika dasturlari ko'pligi va imkoniyatlari jihatidan sohada qo'llash malakalaridan kelib chiqib ommalashganlarini ta'limda qo'llash o'zlashtirishning birinchi bosqichi hisoblanadi.

Jumladan, muhandislik grafikasi fanlarini o'qitishda axborot texnologiyalardan samarali foydalanish, uning mazmuni, strukturasi, o'qitish uslublarini uzluksiz takomillashtirib borish, elektron ta'lim resurslarini yaratish muhandislik grafikasi fanlarini isloh qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Grafik fanlarda axborot texnologiyalarini qo'llash o'zgaruvchan atrof-muhit sharoitida murakkab fazoviy jarayonni ob'ektiv faoliyatini namoyish qilish samarali boshqarish va texnologik samarali boshqarish tushunchalari kelib chiqadi.

Chizmachilik kursini axborot texnologiyalar asosida o'qitish ayni paytda dolzarb muammolardan biri bo'lib hisoblanadi. Ayni paytda bu borada ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Ammo, ilmiy-metodik tadqiqot ishlar keng qamrovli bo'lishiga qaramasdan, oliy ta'limda chizmachilik fanlarini axborot texnologiyalar asosida o'qitishning nazariy va metodik asoslari doimiy tadqiq qilinib kelinmoqda.

Ushbu muammolarni hal etishda bugungi kunda juda ko'plab kompyuter grafik dasturlari mavjud. Ammo ularni qaysi sohada qo'llanilishi bilan bir biridan farqlanadi. Har bir soha mutaxassislari o'z faoliyatlari uchun qulay bo'lgan grafik dasturni tanlaydilar.

Demak, grafik dasturni tanlashda avvalambor uning imkoniyatlarini inobatga olish lozim. Aksariyat hollarda grafik dasturni qo'llashdan oldin boshqa bir qator dasturlarni yoki fanlarni o'zlashtirishga ehtiyoj seziladi. Shunisi bilan ham grafik dasturlar murakkablashib boradi.

Autodesk firmasi tomonidan ishlab chiqilgan (AutoCAD, ArchiCAD, AutoCAD Electrical, 3ds Max, Design Review...) dasturlar grafikaviy dasturlardir. Autodesk firmasining juda ko'plab dastur mahsulotlari mavjud bo'lib AutoCAD va 3ds Max, butun jahonda keng ommalashib ketgan dasturlardir. Firmaning dastur mahsulotlari ichida 3ds Max grafikaviy dastur-turli xil uch o'lchamli (3D) loyiha yaratish va animasion kadrlar yaratish bo'yicha juda ommabob dastur sanaladi.

Chizmachilik fanlarini o'qitishda chizma chizish ishlarini bajarishda AutoCAD grafik dasturi bo'lsa, animasion kadrlar yaratish bo'yicha 3ds Max dasturida yaratib bo'ladi. Ularning yordamida o'quv jarayoni borishini jadallashtirish, nazorat qilish, o'quv materiallarini ancha sodda va yaqqol tasvirlar yordamida bayon qilish kabi afzalliklarga ega imkoniyatlar paydo bo'ladi.

Ta'lim jarayoni strukturasi dasturlar asosida tashkil etish darsga qo'yiladigan didaktik, jumladan, yangi metodlarni qo'llab o'qitishni, chizmachilik kursida fazoviy jarayonlarning animatsiyali modellarini yaratish, shu bilan birga talabalarga o'qish hissini faollashtiradi. Axborot kommunikasion dasturlar asosida o'quv jarayonini tashkil etish va o'quv materiallarini kompyuter animatsiyali modeli asosida o'qitish borasida olib borilgan ishlar hozirga qadar shu asosda chizmachilik kursini o'qitishning yangi metodikasi yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Chizmachilik fanlarida grafik dasturlarni qo'llash mavzuning mazmun va mohiyatini talabalarga yetkazishning metodik yo'l-yo'riqlarini ishlab chiqish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Oliy ta'limda yangi axborot texnologiyalarini joriy etishda animatsiyali modellar asosida ishlab chiqish dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu vazifalarning muvaffaqiyatli hal qilinishi oliy ta'limda muhandislik grafikasi kursini axborot texnologiyalar asosida o'qitishning nazariy asoslarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Chizmachilik shunday fanki, unda talabalar ko'plab texnik tushunchalar bilan tanishadilar.

Chizmachilik fanining ahamiyati shundaki, boshqa ko'plab umumiy texnika fanlarini o'rganishni osonlashtiradi. Texnikaviy bilimlarni mukammal o'zlashtirishning asosiy shartlaridan biri – grafik ishlar bo'yicha savodxon, ya'ni chizmalarni o'qiy bilish va ularni chiza olishdir.

Chizma – bu texnik tasviriy hujjatdir, shuning uchun ham u aniq va ko'rgazmali bo'lishi, muhandislar, arxitektor va dizaynerning g'oyasini amaliyotga tadbiq etish uchun asos bo'lib xizmat qilishi kerak. Chizma o'z masshtabiga, o'lchamiga va shartli belgilariga ega bo'lishi kerak.

Texnik bilimlarni muvaffaqiyatli egallash shartlari chizmalarni o'qish va chizmalarni bajarish hamda loyihalash qoidalarini bilish qobiliyatidir. Chizma-texnika ma'lumotlarning asosiy tashuvchilaridan biri bo'lib, unda hech qanday ishlab chiqarish amalga oshirilmaydi.

Sanoatda har bir ishlab chiqariladigan detal, buyum va boshqalar chizmalar vositasida nazorat qilinadi. Detalning zagotovka holatidan tayyor mahsulot bo'lgunga qadar davrida "chizma-detal" yonma-yon boradi.

Har qanday zamonaviy binolarning qurilishi, oddiy ruchkadan tortib zamonaviy samolyotlarni ishlab chiqarishni oldindan texnik hujjatlarni tayyorlamasdan amalga oshirish mumkin emas. Ko'pincha oldindan tayyorlanadigan texnik hujjatlarning salmog'i ular asosida tayyorlanadigan mahsulot salmog'iga teng, ba'zi hollarda esa undan ham ortiq bo'ladi. Hozirgi kunda xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida minglab chizmalardan foydalaniladi.

Chizmalar bizga mahsulotning tashqi va ichki tuzilishi, qo'llanilish sohalari hamda o'lchamlari haqida to'liq ma'lumotlarni beradi. Bir kishi (loyihalovchi) tomonidan o'ylangan texnik fikr (buyum yoki mahsulot g'oyasi)ni ikkinchi kishi (bajaruvchi)ga uzatish zaruriyati paydo bo'lganda, chizmalar texnik g'oyalarni uzatish vositasi sifatida paydo bo'lgan deb aytishimiz mumkin. Shuning uchun ham "chizma - texnika tili" deb aytiladi va uni o'qishda qaysi millat vakili chizmani bajarganligi har qanday shaxs uchun ahamiyatga ega emas.

Chizmachilik fanining o'ziga xos xususiyatlari shundaki bu fanning o'qitilishida turlicha yondoshuvning imkoni ko'pligidir. O'quvchilarning fazoviy tasavvurini ya'ni, xotira va tasavvur hayolini va grafik tafakkurini rivojlantirish butun kursning asosiy o'zagini tashkil qiladi.

Chizmachilik o'quvchilarning fazoviy tasavvurlarini shakllantirishda juda katta imkoniyatlarga ega. Fazoviy tasavvur va uni rivojlanishsiz chizmachilik dasturining asosiy mavzularini o'zlashtirish mumkin emas.

Fazoviy tasavvur – chizmachilik o'qitish metodikasida fazoviy tasavvur deganda ko'pincha tasvirlanayotgan ob'yektning tasviri (chizmasi) bo'yicha geometrik shaklini, kattaligini va fazoda joylashishini fikran tasavvur qila olish qobiliyati ko'zda tutiladi. Umuman tasavvur – oldin inson sezgi organlariga ta'sir ko'rsatgan buyumlar va hodisalarning sezish obrazidir. Tasavvur xotira obrazlari va fikran idrok qilishga bo'linadi.

Fazoning idrok qilinishi kishining o'zini o'rab turgan muhitni chamalashining muqarrar shartlaridan biri bo'lib, uning ushbu muhit bilan o'zaro birgalikdagi harakatida katta ahamiyat kasb etadi. U ob'yektiv ravishda mavjud bo'lgan fazoning aksini ifoda etadi va obektlarning shakli, hajmi va o'zaro birgalikda joylashuvining idrok etilishini o'z ichiga oladi. Narsalarning shaklini, o'lchamini narsalarga nisbatan holatini tahlil qilish kishining faoliyati jarayonida yuz beradi va fazodagi tahlil deb ataluvchi analitik-sintetik faoliyatining alohida yuksak darajada namoyon bo'lishdan iborat bo'ladi.

Fazoviy tasavvurni yuksak darajada rivojlantirishda ko'maklashuvchi vositalardan biri chizmachilikda detallarni vuzual ko'rish imkoniyatlarini tashkil qilish demakdir.

Chizmachilik odatda geometrik, proyeksion, mashinasozlik, arxitektura-qurilish va topografik chizmachilik bo'limlariga bo'lib o'qitiladi.

Proyeksion chizmachilik asosan shaxsni fazoviy tasavvurini shakllantirish, rivojlantirish va tasvir yasash usullarining nazariy hamda amaliy asosi hisoblanadi. Biroq kompyuter texnologiyalarning rivojlanishi qo'lda bajarish texnikasi imkoniyatlarini cheklashga olib keldi, lekin vaqt tejashga erishilmoqda. Har qanday grafik dasturda ishlash uchun avvalo tasvirlash qoidalarini bilan tanishish bosqichini amalga oshirish talab qilinadi. Kompyuter grafik dasturlarni rivojlanishi bilan bir qatorda chizmachilikning nazariy asoslarini o'rganmay turib chizma chizish amaliyotini bajarish imkoniyati qiyin jarayondir.

Masalan: chizmani joylashtirish, chiziq turlaridan foydalanish, masshtabni qo'llay olish, o'lcham qo'yish qoidalarini va hokazo, shular jumlasidandi. Endi bir o'ylasak, detailni o'qish uchun chiziq turlarini vazifasini bilmasdan turib ko'rinadigan va ko'rinmas kontur chiziqlarini ajratib bilmasa?

Lekin ko'p yillik amaliyotdan ma'lumki, chizmani tasavvur qilishda ko'pgina qiyinchiliklarga duch keladigan aksariyat talaba yoshlar kompyuterda chizma chizishda chiniqish seziladi. Bu birinchidan talabada kompyuter texnologiyasiga qiziqish uyg'otsa, ikkinchidan dasturlarda ishlash osonligida.

Kompyuter grafikasi, (англ. Computer graphics) so'zidan olingan bo'lib, kompyuterda grafik tasvirlarni yaratish va qayta ishlash texnologiyasi.

Kompyuter grafikasini chizmachilikda qo'llashga nimalarga erishish mumkin:

1. Vaqt tejaladi.
2. Chizma sifati oshadi.
3. Standartlar to'g'ri qo'llaniladi.
4. Chizma chizish malakasini oshiradi.

5. Dinamik vizuallikka erishiladi.

1. Vaqt tejiladi. Kompyuter grafik dasturlar (AutoCAD, 3ds max) piktogrammali dastrut bo'lib, dasturni o'rganuvchilar ko'p hollarda nomi bilan emas, balki chamalab qo'llashga odatlanadi. Bu xususiyat qo'lda chizilgan chizmadan bir muncha osonlashadi. Masalan: parallel chiziqlarni qo'lda chizishga ikki uchburchakliklar o'rniga, bir amal bilan xatosiz kompyuterda vazifani bajaradi.

2. Chizma sifati oshadi. Qo'lda chizilgan chizmalarda ortiqcha chiqiq chiziqlari o'chirgichda o'chirilganda izlar ma'lum bir darajada saqlanib qoladi. Bu dasturlarda umuman chizilmagan singari o'chirish imkoniyati mavjud. Bundan tashqari kompyuterda bajarilgan chizmani xoxlagan paytda komponovkasini o'zgartib bo'lishligidir.

3. Stantardlar to'g'ri qo'llaniladi. Bir chizmada chiziqlarning qalinligi, shtrix va shtrix-punkter chiziqlar orasidagi masofalar, o'lcham sonlarining qiyaligi va balandligining va hokazolarning bir xil qo'llash imkoniyatlari avzalligidir.

4. Chizma chizish malakasini oshiradi. talabalar chizmachilikda yaratilgan tasvirlarni ko'rib, ularga qarash va ularga moslikni qidirish yordamida chizmachilikni osonlashtirishadi.

5. Dinamik vizuallikka erishiladi. Har bir chizgan 3D modelini aylantirib visual ko'rishi mumkin. Bu jarayon detal haqida to'g'ri va aniq ma'lumot olishga erishiladi.

XULOSA. Lekin ongda fazoviy tasavvur qilish dinamik tasvirlar vositasi orqali tezroq singdiriladi. Chunki fazoviy tasavvur qilish jarayonida inson ongida shakllangan fazoviy geometrik 3D model obrazini ko'z oldiga keltirish orqali tahlil qilish yoki u bilan muloqatda bo'lish hamda tasavvur qilish imkoniyatiga ega bo'lishga olib keladi. Insonda fazoviy tasavvur qilish fazilatlarini ro'yobga chiqarishda ko'plab loyihalashga oid turli mashqlarni bajarishga to'g'ri keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Ботвинников А.Д., Ломов Б.Ф. Научные основы формирования графических знаний, умений и навыков школьников. – М.: Педагогика, 1979. - 255 с.

Shukurov A.R. "Chizmachilik (geometrik chizmachilik)". – Buxoro. "Buxoro Hamd Print", 2022.-B-11

RAHMONOV I, VALIYEV A va boshqalar. "CHIZMACHILIKNI O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR". O'quv metodik qo'llanma -T. 2012.-32 b

Ro'ziev E.I., Ashirboev A. "Muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi". – T. «Yangi asr avlodi», 2010.-B.211.

I.Rahmonov, N.Qirg'izboyeva, A.Ashirboyev, A.Valiyev, B. Nigmanov. Chizmachilik. -T.: «VORIS-NASHRIYOT», 2016. -424 b.

СУЩНОСТЬ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ КОНЦЕПЦИИ «Я – ВРАЧ-ПЕДАГОГ»

Шойимова Шохиста Санакуловна

Кандидат психологических наук, доцент. Ташкентский педиатрический медицинский институт Узбекистан, г. Ташкент.

Аннотация. В статье рассматривается сущность социально-психологической концепции «Я – врач педагог», которая предполагает наличие определенных социально-психологических качеств и навыков у врачей-педагогов, работающих в медицинских вузах. Были проведены исследования, подтверждающие важность изучения социально-психологических аспектов профессиональной деятельности врачей-педагогов и разработки специальных программ обучения для их развития. В статье также описывается экспериментальная программа первичного психолого-педагогического и методического обучения врачей-педагогов, которая определяет соответствующие модули содержания образования для формирования положительной концепции «Я – врач-педагог». В статье подчеркивается, что специальные знания, которыми должен обладать врач-педагог, строятся в соответствии с логикой наук, которыми должен овладеть будущий педагог, и являются инструментом для регулирования мышления и деятельности. Также врач-педагог использует психолого-педагогические знания для регулирования своей собственной деятельности в зависимости от оценки всех компонентов организации учебного процесса. Важно также иметь знания о различных диагностических системах и экспертных подходах.

Ключевые слова: врач-педагог, социально-психологические аспекты, медицинское образование, профессиональная деятельность, педагогическая подготовка, методологические требования, экспертные подходы, образовательный процесс.

«MEN SHIFOKOR-PEDAGOG» IJTIMOIIY- PSIXOLOGIK KONTSEPSIYA MOHIYATI

Shoyimova Shoxista Sanakulovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent. Toshkent pediatriya tibbiyot instituti. O'zbekiston, Toshkent.

Annotatsiya. Maqolada tibbiyot oliy o'quv yurtlari pedagoglarining ijtimoiy-psixologik fazilatlarini va malakalari mavjudligini nazarda tutuvchi «Men shifokor- pedagog» ijtimoiy-psixologik kontsepsiyasining mohiyati muhokama qilinadi. Tibbiyot OTM pedagoglari kasbiy faoliyatining ijtimoiy-psixologik jihatlarini o'rganish va ularni rivojlantirish uchun maxsus o'quv dasturlarini ishlab chiqish muhimligiga qaratilgan tadqiqotlar tahlili bayon etilib, ularning boshlang'ich psixologik-pedagogik va uslubiy tayyorgarligining eksperimental dasturi tasvirlangan. «Men shifokor-pedagog» ijobiy kontsepsiyasini shakllantirish uchun ta'lim mazmunining tegishli modullari belgilangan. Maqolada shifokor-pedagog ega bo'lishi kerak bo'lgan maxsus bilim bo'lajak o'qituvchi o'zlashtirishi lozim bo'lgan fanlar mantig'iga mos ravishda qurilishi, faoliyatini tartibga soluvchi vosita ekanligi ta'kidlanadi. Shuningdek, shifokor-pedagog o'quv jarayonini tashkil etishning barcha tarkibiy qismlarini baholashga qarab, o'z faoliyatini tartibga solish uchun psixologik-pedagogik bilimlardan foydalanadi.

Kalit so'zlar: shifokor-pedagog, ijtimoiy-psixologik jihatlar, tibbiy ta'lim, kasbiy faoliyat, pedagogik tayyorgarlik, uslubiy talablar, ekspert yondashuvlari, o'quv jarayoni.

THE ESSENCE OF THE SOCIO-PSYCHOLOGICAL CONCEPT «I AM A DOCTOR-TEACHER»

Shoyimova Shokhista Sanakulovna

Candidate of psychological sciences, associate professor. Tashkent Pediatric Medical Institute Uzbekistan, Tashkent.

Annotation. The article discusses the essence of the socio-psychological concept «I am a doctor teacher», which implies the presence of certain socio-psychological qualities and skills of medical teachers working in medical universities. Studies have been conducted confirming the importance of studying the socio-psychological aspects of the professional activities of medical teachers and the development of special training programs for their development. The article also describes an experimental program of primary psychological-pedagogical and methodological training of medical teachers, which determines the appropriate modules of the content of education for the formation of a positive concept «I am a doctor-teacher». The article emphasizes that the special knowledge that a doctor-teacher should have is built in accordance with the logic of the sciences that a future teacher should master, and is a tool for regulating thinking and activity. Also, the doctor-teacher uses psychological and pedagogical knowledge to regulate his own activities, depending on the assessment of all components of the organization of the educational process. It is also important to have knowledge of various diagnostic systems and expert approaches.

Key words: doctor-teacher, socio-psychological aspects, medical education, professional activity, pedagogical training, methodological requirements, expert approaches, educational process.

Введение. Современное общество сталкивается с рядом сложных проблем в области медицинского образования и здравоохранения. Одной из основных проблем является нехватка квалифицированных врачей и педагогов, способных обучать будущих специалистов и оказывать профессиональную медицинскую помощь. В этой связи особенно важно изучение социально-психологических аспектов

профессиональной деятельности врачей-педагогов. Социально-психологическая концепция «Я - врач-педагог» помогает понимать важность личностных особенностей и социальной роли врача-педагога в процессе обучения и оказания медицинской помощи. Изучение этой концепции может помочь врачам-педагогам научиться эффективно управлять своими эмоциями и стрессом, что является важным условием для успешной работы. Таким образом, актуальность данной темы заключается в необходимости изучения социально-психологических аспектов профессиональной деятельности врачей-педагогов и развития необходимых качеств для успешной работы в этой области.

Цель данной научной статьи заключается в изучении социально-психологической концепции «Я – врач-педагог» и ее влияния на профессиональную деятельность врачей-педагогов. В рамках данной статьи будет рассмотрено значение понимания личностных особенностей и социальной роли врача-педагога в процессе обучения и оказания медицинской помощи. Будут рассмотрены основные проблемы, с которыми сталкиваются врачи-педагоги в своей профессиональной деятельности, а также предложены пути повышения эффективности работы врачей-педагогов. Кроме того, статья будет посвящена изучению возможных способов развития личностных качеств, необходимых для успешной работы в области медицинского образования и здравоохранения.

Методы: для достижения цели исследования были использованы методы, такие как изучение и обзор литературы, теоретический анализ данных.

Обсуждение результатов. Концепция «Я – врач-педагог» предполагает, что врачи-педагоги, работающие в медицинских университетах, должны обладать определенными социально-психологическими качествами и навыками, чтобы успешно выполнять свои профессиональные обязанности. Принципы этой концепции включают учет социально-психологических аспектов профессиональной деятельности врачей-педагогов в медицинских университетах и разработку специальных программ обучения, которые помогут им развивать необходимые социально-психологические качества и навыки.

Исследовательская группа кафедры педагогики и психологии и профильных клинических кафедр разработала экспериментальную программу первичной психолого-педагогической и методической подготовки врачей-педагогов, которая определяет соответствующие модули содержания образования для формирования положительной концепции «Я – врач-педагог». Эта программа уже была внедрена в МГМСУ и получила положительный резонанс в педагогическом коллективе [3].

Важно отметить, что специальные знания, которыми должен овладеть врач-педагог, строятся в соответствии с логикой тех наук, которыми должен владеть будущий преподаватель, и являются инструментом регуляции мышления и деятельности. Кроме того, психолого-педагогические знания используются врачом-педагогом для регуляции собственной деятельности в зависимости от оценки состояния всех компонентов организации процесса обучения. Важен также блок знаний о различных диагностических системах и экспертных подходах [2], [3], [9].

Социально-психологическая концепция «Я – врач-педагог» – это концепция, которая предполагает, что врач-педагог, работающий в медицинском вузе, должен обладать определенными социально-психологическими качествами и навыками, которые позволяют ему эффективно выполнять свою профессиональную деятельность.

Эта концепция предполагает, что для успешной работы врача-педагога важно не только обладать знаниями в области медицины, но и уметь эффективно общаться с коллегами и студентами, управлять своими эмоциями и стрессом, работать в коллективе и принимать решения в сложных ситуациях.

Основные принципы этой концепции включают в себя учет социально-психологических аспектов профессиональной деятельности врачей-педагогов в медицинских вузах, а также разработку специальных программ подготовки и повышения квалификации, которые помогут врачам-педагогам развивать необходимые социально-психологические качества и навыки.

В настоящее время социально-психологическая концепция «Я – врач-педагог» является актуальным направлением исследований в области профессиональной деятельности докторов-педагогов в медицинских вузах, и ее изучение может привести к разработке более эффективных стратегий и методов обучения и подготовки врачей-педагогов в медицинских вузах.

Социально-психологическая концепция «Я – врач-педагог» относится к области профессиональной деятельности врачей-педагогов в медицинских вузах. Эта концепция пока не получила широкого распространения в научной среде, но проводились исследования, направленные на изучение социально-психологических аспектов профессиональной деятельности врачей-педагогов.

Например, в 2017 году было проведено исследование, в котором были выделены основные социально-психологические качества, необходимые для эффективной педагогической деятельности в медицинских вузах. В рамках этого исследования было установлено, что для успешной работы врача-педагога важно обладать навыками эффективного общения, умением работать в коллективе, управлять своими эмоциями и стрессом.

Также были проведены исследования, направленные на выявление проблем, с которыми сталкиваются врачи-педагоги в процессе своей профессиональной деятельности. Например, в 2018 году было проведено исследование, в котором были выявлены основные проблемы, с которыми сталкиваются врачи-педагоги в медицинских вузах, такие как конфликты с коллегами и студентами, проблемы с организацией учебного процесса и т.д.

Таким образом, хотя данная концепция еще не получила широкого распространения в научной среде, проводятся исследования, направленные на изучение социально-психологических аспектов профессиональной деятельности врачей-педагогов в медицинских вузах, что позволяет углублять и

расширять знания в данной области [1], [2], [3], [5], [9], [13].

Shu o'rinda savol tug'iladi, ta'lim jarayonida virtual ta'lim texnologiyani qo'llash zarurmi? Ko'pchilik hollarni e'tiborga olmagan holda «ha» deb javob berishimiz mumkin. Bu javobni xorijiy mamlakatlarning ta'lim tizimida o'z samarasini ko'rsatayotganligi tufayli samarali o'qitish vositasi hisoblanishini aytishimiz mumkin.

Oliy ta'lim muassalarining o'z oldiga qo'ygan eng muhim ko'rib chiqiladigan masalalari ham kompyuter texnologiyalarining imkoniyatlarini inobatga olgan holda, fanlarni o'qitishning usul va shakllarini takomillashtirishdan iborat. Bu borada soha olimlari tomonidan taklif va tavsiyalar berib o'tilgan. Jumladan, J.Rittinghouse va J.Ransomelarning fikriga ko'ra, virtual ta'lim texnologiyalarini o'quv jarayoniga samarali tatbiq etish uchun Internet tarmog'ida bulutli xizmatli o'quv muhitini yaratish va ularidan foydalanish metodikasini ishlab chiqish lozim.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagilarni inobatga olib, interfaol dasturiy vositalarni informatika ta'limi amaliyotida samarali qo'llash uchun quyidagilarga e'tibor qaratish zarurligi haqida xulosa qilamiz:

☐ bo'lajak axborot texnologiyalari o'qituvchilarini kasbiy fanlardan interfaol pedagogik dasturiy vositalar tayyorlashga oid bilim, ko'nikma va malakalarini bosqichma-bosqich shakllantirib borish;

☐ avvalo, tayyor kompyuterning pedagogik dasturiy vositalaridan foydalanish, so'ngra ularni yaratishni o'rgatish;

☐ murakkab tuzilmaga ega bo'lgan pedagogik dasturiy vositalar (elektron darsliklar, elektron-o'quv uslubiy majmualar, virtual laboratoriyalar) bilan ishlash ko'nikma va malakalarini shakllantirish;

☐ kompyuterning pedagogik dasturiy vositalariga asoslangan dars (ma'ruza, amaliy va laboratoriya) ishlanmalarini loyihalashga oid ko'nikma va malakasiga ega bo'lish;

☐ pedagogik dasturiy vositalardan ijodiy yondashuv asosida samarali foydalanish.

ADABIYOTLAR

Baxodirova U.B. Mikrobiologiya fanini o'qitishda virtual ta'lim texnologiyalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish.// Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Qarshi – 2020

Голышева М. Д., Диденко А. В., Власова М. В., Асадуллина Л. И. ELearning и дистанционное образование в России и за рубежом: проблемы и пути решения // Филологические науки. – Вопросы теории и практики. – № 4

Господарик Ю.П. Дистанционное обучение и средняя школа // Дистанционное образование. 2014. – № 5

Xamrayev N.Z. Ta'limda virtual reallikdan foydalanish sabab, kamchilik va usullari "Elektron ta'lim" – December-2021, volume 5, №4 ISSN2-181-1199. <http://www.ej.nspi.uz/portfolio/talimda-vr-dan-foydalanish-sabab-kamchilik-va-usullari/>.

Xamrayev N.Z. Advantages and disadvantages of technologies for creating electronic tutorials in teaching the topic of virtual reality in higher educational institutions. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences International scientific - online conference. London – 2023 February <https://zenodo.org/record/7643127#.ZC6IPnP1nI>

Xamrayev N.Z. The theoretical aspect of increasing the readiness of higher education teachers to use the virtual environment as an example of credit education // International Conference on Research in Humanities, Applied Sciences and Education-2022. <https://conferencea.org/index.php/conferences/article/view/351/327>

Khamrayev Nodir Zokir ugli. Theoretical Analysis of Enhancing the Readiness of Teachers to use Virtual Environment in Credit Education. Eurasian Scientific Herald. In volume 8, of Eurasian Scientific Herald (ESH) May 2022. <https://geniusjournals.org/index.php/esh/article/view/1380/1219>.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA AXLOQIY TARBIYA

Xashimova Masuda Kamiljanovna
Toshkent amaliy fanlar universiteti, "Pedagogika" kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari
nomzodi

Yusupova Xabiba Iriskulovna
O'zDJTU, "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Axmetova Klara Irismatovna
O'zDJTU, "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada globallashuv sharoitida vujudga kelayotgan muammolar, axloqiy tarbiyaning tarkibiy qismlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari mavjudligi hamda har biri uchun alohida yondashuv talab etilishi, axloqiylik nafaqat ijtimoiy balki shaxsiy ehtiyoj ekanligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: axloqiy ong, axloqiy amaliyot, axloqiy hissiyotlar, axloqiy munosabatlar, axloq, jamiyat, xulq-odob, globalizatsiya, axloq madaniyati.

ПРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Хашимова Масуда Камилжановна
Ташкентский университет прикладных наук,
доцент кафедры «Педагогика», кандидат педагогических наук,

Юсупова Хабиба Ирискуловна
УзГУМЯ, доцент кафедры «Педагогика и психология»,
доктор философии в педагогических науках (PhD),

Ахметова Клара Ирисматовна
УзГУМЯ, старший преподаватель кафедры «Педагогика и психология»

Аннотация. В статье рассматриваются проблемы, возникающие в условиях глобализации, наличие компонентов нравственного воспитания и их специфические особенности, а также необходимость отдельного подхода к каждому, что мораль является не только социальной, но и личной потребностью.

Ключевые слова: нравственное сознание, нравственная практика, нравственные чувства, нравственные отношения, нравственность, общество, поведение, глобализация, нравственная культура.

MORAL EDUCATION IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION

Khashimova Masuda Kamiljanovna
Tashkent University of Applied Sciences, Associate Professor of the Department of Pedagogy,
Sandidate of Pedagogical Sciences

Yusupova Khabiba Iriskulovna
UzSWLU, Associate Professor of the Department of Pedagogy and Psychology, Doctor of
Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)

Akhmetova Klara Irismatovna
UzSWLU, Senior lecturer of the Department of Pedagogy and Psychology

Abstract. The article discusses the problems that arise in the context of globalization, the presence of components of moral education and their specific features, as well as the need for a separate approach to each, that morality is not only a social, but also a personal need.

Key words: moral consciousness, moral practice, moral feelings, moral attitudes, morality, society, behavior, globalization, moral culture.

Kirish. Globallashuv avvalo, hayot sur'atlarining mislsiz darajada tezlashuvi axborot, telekommunikatsiya vositalarining jamiyat hayotidagi mavqiyening oshib borishi va boshqa bir qator omillar bilan bog'liq holda kechadi. Globallashuvning eng nozik tomoni shundaki, u ham ijobiy ham salbiy ta'sir ko'rsatish imkoniyatlariga ega bo'lgan holda, mafkuraviy ta'sir o'tkazishning nihoyatda kuchli qurollaridan biriga aylanib qoladi. Madaniylashgan globallashuv jarayoni tarmoq otib, keng miqyosda rivojlanib borayotganligi bois uning murakkab jihatlari bugungi avlod zimmasiga katta-katta vazifalarni yuklamogda. Yoshlarimiz ana shu mas'uliyatlar qarshisida o'zlarini yo'qotib qo'yimasligi,

har qanday sharoitda ham el-yurt manfaatini himoya qilishga qodir bo'lishi kerak. Hozirgi zamon yoshlarining turli ommaviy axborot vositalari, ayniqsa internet orqali qator kerakli hamda keraksiz ma'lumotlarga ega bo'lishi, ularning ayrimlariga qiziqishi, o'zlaricha tahlil qilishi, salbiy oqibatlarini ko'p ham anglab yetmasligi natijasida, o'zga bir g'oyalarga bog'lanib qolib, axloqiy madaniyati susayib, milliy qadriyatlarimizdan yiroqlashayotganligi sezilmoqda. Hayotiy tajribalarga asoslanadigan bo'lsak, axloqiy me'yorlarga tayanmaslik, unga bepisandlik bilan qarash ijtimoiy adolat mezonlarining buzilishiga, turli zo'ravonliklarning ildiz otishiga, inson haq-huquqlarining poymol bo'lishiga, milliy qadriyatlarining toptalishiga olib keladi. Bunday sharoitda jamiyatda demokratiya tamoyillariga zid bo'lgan axloqsiz munosabatlar ustuvorlik qila boshlaydi. Globallashuv natijasida madaniyat sohasida ham barcha madaniyatlarning bir xilligi va birlashishi tendensiyasi hukmronlik qila boshlaydi. Bundan tashqari, aslida rivojlangan davlatlar va birinchi navbatda AQSH o'zlarining madaniy qadriyatlarini butun dunyoga yuklamoqda. Amerikaning saviyasi past darajadagi filmlari barcha mamlakatlarning ekranlarini to'ldirdi. Amerika estrada musiqasi barcha radio oqimlari va tranzistorlardan eshitiladi. Rivojlanmagan davlatlar, ayniqsa, o'zlarining milliy madaniyatini rivojlantirish imkoniyatidan mahrum bo'lgan Amerika ma'naviy mahsulotlarining ustunligidan aziyat chekmoqda. Mashhur tadqiqotchi L.V.Kudryavsevnin ta'kidlashicha, ijtimoiy jihatdan kuchli va farovon davlat o'z fuqarolarining yetarlicha axloqiy darajasiz mavjud bo'lmaydi, unda axloqiy harakatlar qadrlanadi, axloqsiz va hatto shunchaki insofsizlik - qoralanadi. Davlatning barqarorligi va hayotiyliigi birinchi navbatda, aholisining axloqiy va ma'naviy darajalari bilan belgilanadi. Jamiyatni birlashtiradigan kuch bu - imon va axloqdir. Agar mamlakatda axloq yo'q bo'lib ketsa, qonunlar bajarilmasa, unda kuch va shafqatizlik birinchi o'rinda chiqadi. Natijada, eng kuchli klan g'alaba qozonadi, boshqalarni yo'q qiladi va butun jamiyatni qul qiladi yoki boshqa davlatlar tartibni tiklash va tinchlik o'rnatish niqobi ostida mamlakat hududini egallab oladi. Shuni ta'kidlash kerakki, bugungi kunda dunyo ijtimoiy-iqtisodiy g'alayonlar bilan qamrab olingan, bu ko'p jihatdan bizning zamonamizning misli ko'rilmagan axloqiy inqirozining natijasidir. Shubhasiz, XX asrda butun dunyoda axloqning keskin pasayishi yuz berdi va bu pasayish XXI asrda davom etmoqda. Aksariyat zamonaviy siyosatchilar inqiroz hodisalarini yengish uchun iqtisodiy vositalardan foydalanish muhimligini ta'kidlaydilar, ammo bizning fikrimizcha, eng ilg'or iqtisodiy usullar, agar ular faqat egoistik va pragmatik qadriyatlar tizimiga asoslangan bo'lsa, kerakli natijani bermaydi. Sog'lom jamiyat - bu vijdon bilan harakat qilish asosiy va zaruriy sifat deb hisoblanadigan va opportunizm va vijdonsizlik asotsial fazilatlar deb hisoblanadigan jamiyatdir. Bundan tashqari, sog'lom jamiyat bu-inson birdamligini qo'llab-quvvatlaydigan va nafaqat o'z a'zolarining bir-biriga mehr bilan munosabatda bo'lishiga imkon beradigan, balki bunday munosabatni targ'ib qiladigan jamiyatdir.

Bugungi kunda yoshlarni milliy qadriyatlarimiz asosida mustaqil fikrlay oladigan, sog'lom dunyoqarashga ega bo'lgan, har qanday mafkuraviy tahdidlarga qarshi turishga qodir bo'lgan, mustahkam irodali yuksak ma'naviyatli qilib tarbiyalash, ustuvor ahamiyat kasb etayotganligini hayotning o'zi taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida ta'lim-tarbiya sohasini yanada isloh etish va tanqidiy baholash, uni takomillashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2019-yil 3-aprel kuni yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish, xotin-qizlar bandligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga joriy etish masalasini ilgari surdi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish jarayonida biz birinchi navbatda yoshlarimizni axloqiy jihatdan yuksaltirish masalasiga e'tiborimizni qaratishimiz lozim. Chunki, axloq ijtimoiy ong shakli sifatida muayyan xalq, elat yoki uyushmaning asrlar davomida shakllangan xulq-atvor, xatti-harakatlar, his-tuyg'u hamda kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimini ifoda etadi.

Axloq mahalliy-milliy va millatning umumjamiyat talablariga uyg'un, muvofiqligini ta'minlovchi umuminsoniy xususiyatga ega.

Asosiy qism. "Globalashuv", uning mohiyati, globallashuvni ma'naviy mafkuraviy ta'siri masalalarida A.Xviliya-Olinter, L.Grinin, A.Ochilidiyev, A.Erkayev, S.Otamuradov, A.G'aniyev, I.Islomov, Sh.Ro'ziyev kabi olimlar va tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida muammoning turli jihatlari o'ziga xos tarzda o'rganilgan. Axloqiy tarbiyani rivojlantirishda milliy qadriyatlardan foydalanish va milliy tarbiyani rivojlantirish masalalarini M.Qurbonov, Safo Ochil, M.Inomova, O.Musurmonova, S.Nishonova, S.Annamuratova, O.Hasanboyeva kabi yetuk olimlarimiz ishlab chiqishgan. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning axloqiy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslarini ishlab chiqish masalalariga - U.I.Mahkamov, T.Qurbonov, X.N.Hamrayeva, I.Ahmedov, M.I.Aslanov, I.K.Ten, S.Orinboyev, O.T.To'rayeva, T.A.Stefanovskaya, M.R.Isayeva, S.Mirsagatova, D.I.Abdullayev, Yu.U.Ismoilov, S.M.Yo'ldosheva kabi olimlar o'z e'tiborini qaratganlar. Oliy ta'lim tizimida axloqiy tarbiyani shakllantirish bo'yicha K.K.Qurbonboyeva, B.Gapirov, R.Mamatqulova, O.Ashurov kabi olimlar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Axloq - kishilar orasidagi munosabatni tartibga solishning o'ziga xos tartib-qoidalari yig'indisi.

Axloqdagi “yaxshilik”, “yaxshi odatlar” insonning o‘z manfaatini jamiyat manfaatiga moslashga, ayrim o‘rinlarda jamiyat manfaatlari yo‘lida o‘z hayotiy maqsadlari, manfaatlarini o‘zgartirishga imkon beradi [3, 35]. Kishilar xatti-harakatini tartibga solishning belgilangan hamda ijtimoiy-tashkiliy tuzilmalar faoliyatiga asoslangan (huquqiy, diniy) shakllaridan farqli o‘laroq, axloq kishilar xulq-atvorlari, muloqotlari, munosabatlarining yozilmagan, lekin jamiyat tomonidan qabul qilingan hamda qo‘llab-quvvatlanadigan “oltin qoidalar”ni ifodalaydi. Axloq birinchidan, umumijtimoiy ahamiyatga molik bo‘lgan qadriyatlarni (boshqa kishilar huquqlarini tan olish, adolat, halollik, ishonch, sadoqat, muloyimlik, boshqalar bilan kelisha olish, til topishish, jamoada o‘zini tuta bilish kabi) qamrab oladi. Ikkinchidan, axloq kishilarga xos sifatlar (xislatlar)ning muhim tomonini ifodalaydi.

Axloqning ildizlari urf-odatlariga borib taqaladi. Axloqiy mas’uliyat tufayli inson o‘z xatti-harakatlarini jamiyat va muayyan ijtimoiy guruh manfaatlariga moslashtirishga, “yaxshilik” sari yo‘naltirishga intiladi. Axloq inson hayotining barcha tomonlari (shaxsiy va ijtimoiy, moddiy va ma’naviy kabilarga) bevosita taalluqlidir. Axloq mezonlari va namunalari jamiyat bag‘rida yetiladi, ularda ilgari surilgan talablar universal va barcha uchun rioya qilinishi zaruriydir. Axloq shaxs erkinligi va ijodkorligi bilan bevosita bog‘liq. Shaxs jamiyatda mavjud bo‘lgan axloqiy qadriyatlarni tanlab oladi, o‘zlashtiradi, mavjud vaziyatga tatbiq etadi va takomillashtiradi. Axloqiy baholash jamoatchilik fikriga tayanadi.

Axloqiy madaniyatning qamrovi keng bo‘lib, u ideal hamda real normalar, qadriyatlar, fikr va g‘oyalarni o‘z ichiga oladi. Binobarin, jamiyatda axloqiy madaniyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy munosabatlarning o‘zaro muvozanatlashuviga va jamiyat taraqqiyotiga ta’sir etuvchi omildir. Axloqiy tarbiya jarayoni inson hayotining barcha bosqichlarini qamrab oladi. Bolalik, o‘smirlik, yoshlik davrlarida axloqiy fazilatlar kasb etilsa, keyingi hayot bosqichlarida kasb etilgan axloqiy fazilatlar mukammallashtiriladi. Globallashtirish sharoitida yoshlarning, xususan talaba yoshlarning axloqiy tarbiyalanganlik darajasini o‘rganish, kamchiliklarni aniqlash va yo‘qotish, ushbu jarayonning samaradorligini oshirish yo‘larni belgilash bo‘lg‘usi mutaxassislarning ijtimoiy hayotda sitqidildan mehnat qilishga va jamiyat hayotida faol qatnashishiga, taraqqiyotni ta’minlashga xizmat qiladi hamda ma’naviy taxdidlardan bizni himoya qiladi. Globallashtirish jarayonida yanada dolzarb tus olayotgan axloqiy tarbiya masalasini chuqurroq tahlil qilish bugungi kunning muhim masalalaridan biridir.

Axloqiy tarbiyaning kategoriyalari quyidagilardan iborat:

Axloqiy tarbiya - axloqiy onglikni shakllantirishga maqsadli yo‘naltirilgan bo‘lib, axloqiy hislarni rivojlantirish, axloqiy xulq-atvoriga odatlantirish va malaka hosil qilishni o‘z ichiga oladi. Axloqiy tarbiya jarayonida uch element ishtirok etadi: axloqiy tushunchalar, axloqiy ong va axloqiy hissiyotlar [4, 29].

Axloqiy tushunchalar - axloqiy munosabatni o‘zida aks ettirar ekan, axloqiy ongda o‘z aksini topadi va axloqiy kategoriyalar sifatida qabul qilinadi. Axloqiy tushunchalarga - ezigulik, burch, haqqo‘ylik, vijdon, saxiylik, shafqat, minnatdorlik, mehr-oqibat, hurmat kabilari kiradi. Axloqiy tushunchalarni shunchaki yod olish emas, balki anglab o‘zlashtirish, o‘z xatti-harakatlariga dasturi-amal sifatida qabul qilish va axloqiy e’tiqodni shakllantirish lozim.

Axloqiy ong - inson ongida axloqiy tamoyillarning aks etishi bo‘lib, axloqiy qarashlar, tushunchalar, axloqiy e’tiqod, axloqiy xulq-atvor me’yorlari, axloqiy tasavvur kabilardan tashkil topadi.

Axloqiy hissiyotlar - axloqiy tushuncha va axloqiy me’yorlarga asoslangan holda insonda ma’lum xatti-harakat yoki holatga nisbatan vujudga keluvchi munosabatdir. Axloqiy hissiyotlar mazmunan boy va murakkab tuzilishga ega bo‘lib, ijtimoiy mahsul sifatidagi inson rivojining eng yuqori bosqichida vujudga kelgan [5, 108].

Axloqiy munosabat – ijtimoiy munosabatlarning tarkibiy qismidir.

Axloqiy munosabat shaxsning jamiyatdagi asosiy axloq me’yorlarini egallash va o‘zgalar bilan shu asosda munosabatda bo‘lishi, o‘zini axloqiy tomondan muntazam takomillashtirib borishi singari jihatlarni o‘z ichiga oladi. Axloqiy munosabatning eng muhim omillaridan biri-muomala odobi. Insonlar bir-biri bilan hamkorlik qilmasdan, o‘zaro tajriba almashmasdan, o‘zaro ta’sir ko‘rsatmasdan yashashi mumkin emas. Axloqiy munosabat odobi o‘zgalar qadr-qimmatini, hurmatini joyiga qo‘yishni, an’anaviy axloqiy-me’yoriy talablarni bajarishni taqozo etadi. Ma’noli va ravon so‘zlash, suhbatdoshni tinglay bilish, nutq madaniyati muomalaning muhim jihatlari tashkil etadi. Muomala odobida muloqotning asosiy vositasi til katta ahamiyatga ega. Xalqimizda “siz” ham “sen” ham bir og‘izdan chiqadi degan dono naql bor. Shu bois muloqot paytida suhbatdoshga hurmat ifodasi sifatida har bir so‘zni suhbatdoshining ko‘ngliga, qiziqishi va kayfiyatiga qarab, yoshini, kasbu kori, ijtimoiy hamda oilaviy ahvolini e’tiborga olib, hurmatni joyiga qo‘yib gapirish, muloqot jarayonida o‘rinsiz harakatlarga yo‘l qo‘ymaslik lozim. Axloqiy munosabatlar – bu faqat aloqalar, bog‘lanishlardangina iborat bo‘lmay, ayni paytda normativ asosga ega bo‘lgan o‘zaro ta’sirini, kishining boshqa odamlar jamiyat oldidagi burchlarini ham o‘z ichiga oladi [6, 130].

Axloqiy munosabatlar, odatda dastlab stixiyali, moddiy munosabatlar asosida shakllana boshlaydi. So‘ng taraqqiylashib moddiy munosabatlardan ajralib chiqib, mafkuraviy, g‘oyaviy, ma’naviy munosabatlar sohasiga kira boradi. Axloqiy munosabatlar kishilarning irodasidan tashqari paydo bo‘lib, axloq normalarining qaror topishi, jamoatchilik tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi jarayonida, albatta, kishilar ongi orqali o‘tadi.

Faqat odamlar va ijtimoiy hodisalargina emas, balki tabiat va uning elementlari ham axloqiy munosabatlarning ob'ekti bo'la oladi.

Axloqiy munosabatlar ijtimoiy munosabatlarning boshqa turlaridan farq qilib, hamisha va hamma joyda axloqiy normalar, baholar ta'siri ko'rinib turadi. Ular axloqiy faoliyat, xulq, xatti-harakatlarda, atrofda ijtimoiy borliqqa nisbatan axloqiy ta'sir ko'rsatishda yuzaga keladi. Axloqiy munosabatlarning baholovchi xarakteri bilan birga imperativ, yo'naltiruvchi xarakterga egaligi ham uning o'ziga xos belgisidir. Axloqiy munosabatlarda, kishilarning faoliyati va xatti-harakatlari, ular munosabatlarining axloqiy-amaliy ifodasi sifatida asosiy o'rin tutadi. Ayni paytda axloqiy munosabatlar boshqa hamma ijtimoiy munosabatlar singari mustaqildir.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, axloqiy ong, axloqiy mugnosabatlar va axloqiy hissiyotlarning uyg'un rivojini ta'minlash lozim. Chunki ular bir-biri bilan mustahkam bog'liqlikda rivojlanadi va biri-birini to'ldiradi. Lekin ular orasidagi uyg'unlikni ta'minlashda qiyinchiliklar mavjud. Bugungi kunda biz yoshlarimizda axloqiy tushunchalar, axloqiy ongga tegishli tasavvurlarni shakllantirish va axloqiy bilimlarni egallaganlik darajasini o'rganish imkoniyatlari keng deb ayta olamiz. Axloqiy ongning markaziy elementi hayot sharoitlari va tarbiya ta'sirida qaror topgan, qat'iy bilimlar va axloqiy tartib-qoidalarga emotsional munosabatdan iborat bo'lgan ishonchdir [7, 348].

Ishonch - xulq normasini sub'ektiv qabul qilish bo'lib, kishi namuna oladigan axloq tamoyillarining to'g'riligi va adolatli ekanligiga amin bo'lishligidir, axloqiy zaruriyatni aqlan tushuntirishdir. Axloqiy ishonch bora-bora axloqiy e'tiqodga aylanadi va axloqiy tarbiyaning yuqori nuqtasi deyish mumkin.

Axloqiy ong aksiologik xususiyatga ega, chunki har bir hodisaga muayyan axloqiy norma, tamoyil, an'ana, qadriyat, ideallar nuqtai nazaridan yondashadi. Axloqiy ong boshqa ijtimoiy ong shakllariga nisbatan kishilarning kundalik hayotidagi xulq-atvoriga faolroq ta'sir ko'rsatadi. Axloqiy qarashlar, prinsiplar, ideallar inson faoliyatiga bevosita singib ketgan bo'lib, xatti-harakatga undovchi motivlar hisoblanadi va biz uni bevosita shaxsning xulq atvorida, muomalasida ko'rishimiz hamda baho berishimiz mumkin. Lekin axloqiy hissiyotlarni shakllanganlik darajasini aniqlash va kerakli yo'nalishda yanada rivojlantirish masalasi ancha murakkab, chunki ular bevosita bizga ko'rinmaydi [8, 29].

Ushbu yo'nalish talabdan ko'proq mustaqil faoliyat yuritishni va o'z axloqiy hissiyotlarini rivojlantirishni talab etadi.

Axloqiy hissiyotlarning murakkabligi va o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi ma'lum. Ularning asosida boshqa odamlarga nisbatan hosil bo'lgan munosabatlar va idrok bilan bog'liq bo'lgan kechinmalar yotadi. Atrof-muhit ta'siriga o'ziga xos reaksiya sifatida hosil bo'luvchi axloqiy hissiyotlar ma'lum harakatga undovchi sifatida yoki ma'lum harakatni baholovchi sifatida maydonga kelishi mumkin. Bunday hissiyotlar miyada ishlov berilgach yana yurakka qaytgan (ratsional) aqli hissiyotlardir. Adolat, burch, vijdon, nomus, qadr-qimmat, mehr-muxabbat kabilar axloqiy hissiyotlar qatoriga kiradi. Ammo har qanday boshqa insoniy hissiyot, agar unda axloqiy munosabat yoki axloqiy baho hamda axloqiy sabab mavjud bo'lsa axloqiy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Axloqiy hissiyotlarni his qilish, atrofda ijtimoiy hodisalar va munosabatlarga hayajonli javob qaytarish, yaxshilik hamda yomonlik haqida fikr yuritish, axloqsizlik va buzqlikning sabablarini qidirish adolatsizlik va insoniy fazilatlarining kamsitilishidan g'azablanish, birga xursand bo'lish, birga azob chekish qobiliyatining o'ziyoq ma'lum darajada shaxsning axloqiy madaniyatini ko'rsatkichi bo'la oladi. Minnatdorchilik hissining rivojlanish darajasi ham axloqiylikning ko'rsatkichlaridan biridir. Minnatdorchilik, shukronalik hissi qadim-qadimlardan e'zozlanib kelingan. Axloqiy tarbiya jarayonida biz aynan ana shu xissiyotlarni shakllantirishimiz lozim. Axloqiy xissiyotlar yoshlarda axloqiy munosabatlarni ham shakllantirishga asos bo'ladi.

Xulosa. Globallashuv axloqiy tarbiya jarayonida yangi muammolar tizimini shakllanishiga sabab bo'lmoqda. Globallashuv sharoitda demokratiya tamoyillariga zid bo'lgan axloqsiz munosabatlarni kirib kelish ehtimoli ham kuchayadi. Axloqiy me'yorlarga tayanmaslik, unga bepisandlik bilan qarash ijtimoiy adolat mezonlarining buzilishiga, turli zo'ravonliklarning ildiz otishiga, inson haq-huquqlarining poymol bo'lishiga, milliy qadriyatlarning toptalishiga yo'l ochib berilishi mumkin.

Bunday sharoitda yoshlarimiz o'zlarini yo'qotib qo'ymasligi, el-yurt manfaatini, milliy qadriyatlarni himoya qilishga qodir bo'lgan mutaxassislarni yetishirish uchun yuzaga kelayotgan muammolarni chuqur o'rganish, milliy qadriyatlarimizga zid bo'lgan g'oyalarga qarshi kurashish va yoshlarimizda yanada kuchliroq axloqiy e'tiqodni shakllantirish chora-tadbirlarini ko'rish maqsadga muvofiq.

Axloqiy tarbiya jarayonida samaradorlikni oshirish uchun esa avvalom bor, talaba-yoshlarni axloqan tarbiyalanganlik darajasini o'rganish, yutuq va kamchiliklarni aniqlash, globalizatsiyaning ta'sir kuchini o'rganish talab etiladi.

Ushbu muammoni hal etish uchun:

- axloqiy tarbiya konsepsiyasini integrativ yondashuv asosida mazmunan boyitish zarur, bunda axloqiy ongni shakllantirishda yangi imkoniyatlar tug'iladi. Axloqiy tarbiya konsepsiyasining zamonaviy bilimlar asosida mazmunan boyitilishi ushbu jarayonga nisbatan talabalarda yangicha munosabat va motivlarni uyg'otadi. Bunday yondashuv o'z navbatida axloqiy tarbiya jarayonini samaradoligini oshirishga zamin yaratadi;

- axloqiy tarbiya jarayonida yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarni aniqlash va sabablarini tahlil etish hamda ulardan kelib chiqqan holda, axloqiy tarbiya jarayonini tashkil etishga kirishish maqsadga muvofiq;

- axloqiy tarbiya jarayonini samaradorligini oshirish strategiyasini va taktikasini belgilab olish;
- axloqiy tarbiya jarayonini samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan metodik bazani yaratish, talaba-yoshlarning axloqiy tarbiyalanganlik darajasini aniqlashga imkon beradigan diagnostika usullarini ishlab chiqish;

Globalizatsiya sharoitida talaba-yoshlarni ahloqiy tarbiyalanganlik darajasini o'rganish, axloqiy tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishda psixodiagnostika, psixokorreksiya o'ld zamonaviy bilimlardan foydalanish xamda talabalarning axloqan rivojlanishiga turtki bo'luvchi motivlarni shakllantirishga e'tibor qaratish lozim va buning uchun:

- talaba-yoshlarning ahloqiy tarbiyasini shakillanganlik darajasini aniqlashga yo'naltirilgan samarali psixodiagnostika usullarni belgilash, aniqlash va takomillashtirish

- talabalarning ahloqiy tarbiyasida mavjud bo'lgan kamchiliklarni aniqlash va ularni korreksiyalash metodikasini ishlab chiqish;

- talabalarda mustaqil ravishda o'z-o'zini axloqan tarbiyalashga oid ko'nikma va malalkalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish;

- globallashtuv sharoitida ma'naviy-ahloqiy tahdidlarning namoyon bo'lish xususiyatlarini hamda ulardan talaba-yoshlarimizni himoya qilish yo'llari va mexanizmlarini aniqlash, ma'naviy tahdidlardan himoya qilishning usul va vositalarini ta'sirchanligini oshirish;

- globalizatsiya sharoitida talaba-yoshlar ruhiyatiga tobora kuchli singib borayotgan salbiy tashqi ta'siriga nisbatan ularda immunitetni shakllantirish;

- globallashtuv jarayonlarida milliy va ma'naviy qadriyatlarimiz, milliy o'zligimizni saqlab qolish masalarini chuqurroq tahlil qilish.

Talaba-yoshlarning axloqiylik darajasining yuksalib borishi jamiyatning turli sohalarda (ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy) katta yutuqlarga erisha olishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham ma'naviyatning o'zagini tashkil etuvchi axloqiy tarbiya jarayonini o'rganish, mavjud kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish, axloqan barkamol mutaxassislarni yetishtirish bugungi kunning dolzarb masalasidir. Axloqan barkamol, axloqiy ongga ega bo'lgan mutaxassis o'z vazifalariga mas'uliyat bilan yondashadi, sidqidildan mehnat qiladi, sohani rivojlantirishga, innovatsiyalarni kiritishga katta hissasa qo'shadi va korruptsiyaga, el-yurt boyligini sovrulishiga yo'l qo'ymaydi. Bunday mutaxassislar nafaqat o'z sohasini rivojlantirishga, balki jamiyatning iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi va kelajak avlod uchun namuna ko'rsata oladi.

Globalallashtuv sharoitida axloqiy tarbiya jarayonini umuminsoniy va milliy qadriyatlarga asoslangan holda axloqiylikka oid qadriyatlarini har bir shaxsning ichki axloqiy tamoyiliga, ehtiyojiga aylantirish, axloqiy ong va axloqiy hissiyotlarni tarbiyalash masalasi dolzarb muammolardan biriga aylandi. Biz bu masalaga jiddiy qarashimiz va yoshlarimizda mustahkam axloqiy e'tiqodni shakllantirish yo'lida faollikni oshirishimiz maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. -Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2019. -488 b.

2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. -Toshkent, "Ma'naviyat", 2008.-174 b.

3. Falsafa: Ensiklopedik lug'at/UzR FA, I.Muminov nomidagi falsafa va huquq in-ti.- T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2010.- 35 b.

4. Hasanboyev J., Turopova M., Hasanboyeva O. Ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari./ G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. - Toshkent, -2000. - 28-31 b.

5. Xoshimova M.K. Axloqiy tarbiyaning biologik asoslari (Monografiya). - T.: O'qituvchi, 2004. -108 b.

6. Etikaning oltin kitobi. - T.: Yangi asr avlodi, 2010. - 124-137 b.

7. Добровольский Ю.А. Основные принципы организации духовно-нравственного развития и воспитания/Ю.А.Добровольский, А.А.Токарев.- Текст: непосредственный //Молодой ученый. - 2017. -№49 (183). - С.348-350

8. Кадырова Е.П. Программа формирования нравственности функционально грамотной личности младшего школьника / Е.П. Кадырова // Начальная школа: Плюс до и после. - 2010. - N 9. - с. 26-30.

JISMONIY-AQLIY RIVOJLANISHNING MOHIYATI VA O'ZIGA XOS HUSUSIYATLARI

Xudoyberdiyev Baxtiyor Raxmatullayevich
Jismoniy tarbiya va sport turlari kafedrası o'qituvchisi
Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya: Odam bolasining rivojlanishi – bu muhim jarayon hisoblanadi. Ma'lumki, hayot davomida inson jismoniy va ruhiy jihatdan o'zgarib boradi. Lekin bolalik, o'smirlik va o'spirinlik davrida rivojlanish nihoyatda kuchli bo'ladi. Bola mana shu yillarda ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan o'sishi, o'zgarishi tufayli shaxs sifatida kamolga yetadi. Tarbiya, irsiyat (nasl) va muhit bolaning rivojlanishida asosiy o'rin tutadi. Agar ana shu uchta omil bolaga ijobiy ta'sir qilsa, u kelajakda barkamol inson bo'lishi va salbiy tomondan ta'sir qilsa, badaxloq kimsaga aylanishi mumkin. Bolaning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar haqida Islom dini va ulamolarning asarlarida yetarlicha fikr va mulohazalar bildirilgan. Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim tizimidagi o'quvchilarining jismoniy-aqliy rivojlanishi mohiyatini keng ma'noda ochib berilgan holda, jismoniy-aqliy rivojlanishning xususiyatlari haqida o'rganishlar olib borilib, masala nazariy asoslangan holda tadqiqotlar va tajribalar asosida ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Jismoniy-aqliy rivojlanish, o'quv-bilish faolligi, intellektual va ma'naviy rivojlanish, jismoniy madaniyat.

СУЩНОСТЬ И ОСОБЕННОСТИ ФИЗИЧЕСКОГО И ПСИХИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ

Худойбердиев Бахтиёр Рахматуллаевич
Преподаватель кафедры физического воспитания и спорта
Каришинский государственный университет

Аннотация: Развитие человеческого ребенка – важный процесс. Известно, что в течение жизни человек меняется физически и психически. Но в детстве, отрочестве и подростковом возрасте развитие чрезвычайно сильное. В эти годы ребенок взрослеет как личность за счет физического и психического роста и изменений. Воспитание, наследственность (поколение) и окружающая среда играют ключевую роль в развитии ребенка. Если эти три фактора повлияют на ребенка положительно, то он может стать в будущем хорошим человеком, а если воздействуют на него отрицательно, то он может стать плохим человеком. В работах исламских религиоведов и ученых высказывается достаточно мнений и комментариев о факторах, влияющих на формирование ребенка. В данной статье в широком смысле раскрывается сущность физического и психического развития учащихся в системе общего среднего образования, изучаются особенности физического и психического развития, рассматривается вопрос на основе теоретических исследований и опыта.

Ключевые слова: физическое и психическое развитие, учебная деятельность, интеллектуальное и духовное развитие, физическая культура.

THE ESSENCE AND CHARACTERISTICS OF PHYSICAL AND MENTAL DEVELOPMENT

Khudoyberdiyev Bakhtiyor Raxmatullaevich
Teacher of the department of physical education and sports
Karshi State University

Abstract: The development of a human child is an important process. It is known that during life, a person changes physically and mentally. But during childhood, adolescence and adolescence, development is extremely strong. During these years, the child matures as a person due to physical and mental growth and changes. Upbringing, heredity (generation) and environment play a key role in a child's development. If these three factors have a positive effect on a child, he can become a good person in the future, and if they affect him negatively, he can become a bad person. Sufficient opinions and comments are expressed in the works of Islamic religion and scholars about the factors influencing the formation of a child. In this article, the essence of the physical and mental development of students in the general secondary education system is revealed in a broad sense, the characteristics of physical and mental development are studied, and the issue is considered based on theoretical research and experience.

Keywords: Physical and mental development, educational activity, intellectual and spiritual development, physical culture.

KIRISH. Umumiy ta'lim bo'yicha DTSda o'quvchilarning ta'limning boshlang'ich bosqichlaridan boshlab jismoniy tarbiya o'quv fani bo'yicha mustahkam bilim olib, ko'nikma va mahorat egallashlari bilan bir qatorda, jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish davomida o'z organizmlarini ongli ravishda

nazorat qilib borish, shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish, sog'lom turmush tarzi yo'riqnomalariga itoat qilish kabi fazilatlarga ham ega bo'la borishlari ko'zda tutilgan. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilar oldiga o'z-o'zini jismoniy rivojlantirish bo'yicha bilimlar tizimini o'zlashtirish, tizimli jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish faoliyatini mustaqil ravishda tashkil etish tajribasiga ega bo'lish, o'z organizmining jismoniy rivojlanish va jismoniy chiniqqanlik holatini monitoring qilib borish layoqatini egallash kabi asosiy maqsadlar qo'yiladi.

Zamonaviy pedagogik amaliyotda o'quvchilarning ta'lim jarayonlaridagi faolligi bilimning ma'lumot, axborot, tushunchalar ta'rifi, atamalar izohi kabi tarkibiy qismlarini shunchaki eslab qolish yoki harakat faoliyatini namoyon qiluvchi har xil jismoniy mashqlarni bajarishga emas, o'z jismoniy kamolotiga samarali ta'sir etuvchi jismoniy harakatlarga va mashqlar majmuasini shakllantirishga yordam beradigan bilimni mustaqil ravishda axtarib topishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

METODLAR. Mazkur masalalarni hal etish uchun muayyan maqsadga qaratilgan, yetarlicha miqdordagi ish hajmiga ega bo'lgan samarali faoliyat tashkil etish talab etiladi. Jismoniy-aqliy rivojlanish uyg'unligidagi o'quv-bilish faolligini shakllantirish sohasida umumiy ta'lim jarayonlarida o'quvchilar mustaqil holda bilish va harakat faoliyatlarini amalga oshirishlari uchun ularni bu darajaga yetkazishning maxsus va samarali choralarini ko'rish kerak. Bu jarayon esa o'quvchilarning harakatli jismoniy mashqlarni intensiv ravishda bajarish (tushunchalarni mufassal tushuntirish, u yoki bu jismoniy mashqning bajarilishini o'rgatish, jismoniy mashqlarning natijadorligini aniqlash usullarini o'rgatish, jismoniy mashq oldidan va undan keyin organizm holatini kuzatish va shu kabilari) orqali jismoniy tayyorgarlikka erishish-lariga ketadigan vaqtdan ancha ko'p vaqt talab qiladi.

NATIJALAR VA MUNOZARA. Jismoniy tarbiya o'quv fanining asosiy umumiy o'rta ta'lim fani sifatidagi mundarijasi garchi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lsa ham, aniq maqsadga yo'naltirilganligi va ahamiyati bo'yicha boshqa asosiy umumiy o'rta ta'lim fanlaridan farq qilmasligi kerak. Ya'ni boshqa asosiy umumiy o'rta ta'lim fanlari qatorida o'quvchining ta'lim olganlik, shaxs sifatida shakllanganlik darajasini belgilovchi omillardan biri sifatida qaralmog'i lozim.

Bu vaziyat keltirib chiqaruvchi asosiy omillar sifatida quyidagi faktorlarni qayd etamiz:

umumiy o'rta ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya fanini o'qitishda maxsus bilimlarni tizimli ravishda o'rgatishning an'analari mavjud emasligi;

jismoniy tarbiya darslariga o'quvchida harakat faolligini oshirish vositasi sifatida qarash psixologik-pedagogik tasavvur sifatida shakllanib qolganligi;

jismoniy tarbiya o'quv fani bo'yicha an'anaviy darslar jarayonlarida harakat faolligi zichligini yetmish foizdan kamaytirishni ta'minlaydigan asosiy bilimlar, amaliy-uslubiy mahoratni namoyon qilish uchun shart-sharoitlarning mavjud emasligi;

jismoniy-aqliy rivojlanish uyg'unligidagi o'quv-bilish faolligini shakllantirish sohasida zamonaviy umumiy ta'lim tizimining, xuddi avvalgi davrlardagi kabi faqat pragmatik, amaliy natijalarni hisobga olishga qaratilganligi jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorlanganlik, o'quvchilarning sport musobaqalaridagi yutuqlari va shu kabilari;

jismoniy tarbiya nazariyasi va amaliyotida jismoniy tarbiya o'quv fani bo'yicha darslarning samaradorligini aniqlashga asoslangan yondashuv, eng avvalo, harakat zichligi bo'yicha dars samaradorligini aniqlash an'anasining mavjudligi;

jismoniy tarbiya o'quv fani o'qituvchilarining g'ayriixtiyoriy, instuktiv, ammo yetarlicha ilmiylikka asoslanmagan odatlariga ko'ra, o'quvchining harakat faolligini maksimal darajada oshirishga asosiy e'tiborni qaratishlari;

aksariyat jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining tasavvurida dars jarayonida mazkur fan bo'yicha tizimli nazariy bilimlarni berish zarurligi xususida yetarlicha tushunchaning yo'qligi;


Jismoniy-aqliy rivojlanish uyg'unligidagi o'quv-bilish faolligini shakllantirish sohasida umumiy ta'limning sifatiga qo'yilgan davlat ta'lim standartlari talablarini yetarlicha his qilmaslik va ularning qanchalik muhimligini zarur darajada tushunmaslik.

Masalaning yana bir muammoli jihati shundan iboratki, maktablarda jismoniy tarbiya o'quv fani o'qituvchisining kasbiy faoliyatini muassasa yoki yuqori tashkilot miqyosida baholashda hamda tegishli tarzda malaka uchun attestatsiyadan o'tkazishda o'quvchilarning mazkur o'quv fani bo'yicha tizimli nazariy bilim darajalari yoki soha bo'yicha umumiy dunyoqarashlari emas, ularning jismoniy tayyorlanganlik darajalari, sport musobaqalarida ko'rsatgan natijalari asosiy baholash mezonlari sifatida qaraladi.

Qayd etish shart bo'lgan yana bir holat mavjudki, umumiy o'rta ta'lim maktablarida kuzatilgan natijalarga ko'ra, har bir sinfda jismoniy jihatdan yuqori darajada rivojlangan o'quvchilar mutloq kamchilikni tashkil qiladi (o'rta 1-5 nafar). Aksariyat o'quvchilar o'rta va past darajadagi jismoniy tayyorgarlikka ega. E'tiborga olish lozimki, maktab o'quvchilarning harakat faolliklari testlash orqali o'rganilganda, jismoniy tayyorlanganlik darajasiga ko'plab tibbiy-biologik omillarning ta'siri etishi aniqlandi. Bu omillarga yoshga doir rivojlanish bosqichining har bir bola uchun o'ziga xosliklari, jismoniy faollikka irsiy tarafdin moyillik, zararli odatlar, ekologik faktorlar va shu kabilarni kiritish mumkin. Shu jihatdan qaraydigan bo'lsak, jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy mahorati, faoliyatining samaradorligini o'quvchilarning harakat faolligi va jismoniy tayyorlanganlik darajasidan kelib chiqib baholash amaliyoti deyarli ilmiy asosga ega emas, deya olamiz.

Jismoniy tarbiya o'quv fani o'qituvchilarining o'quvchilarda harakat faolligi hajmini oshirishga e'tibor qaratishlariga sabab shuki, kasb sohasida o'tkazilgan ko'rik-tanlovlarda o'quvchilarning jismoniy-aqliy rivojlanish sohasidagi nazariy bilimlarini oshirish, mazkur fan bo'yicha sifatli, izchil bilim berishga intilgan o'qituvchilar emas, o'quvchilari sport musobaqalari yoki sport tadbirlarida yuqori natijalarga erishgan o'qituvchilar g'olib bo'ladilar. Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisining kasbiy faoliyati natijalarini sarhisob qilishda nazariy tizimli bilimga ega bo'lgan, jismoniy mashqlar bilan maromida shug'ullangan, jismoniy mashg'ulotlarni mustaqil ravishda uslubiy asoslarda tashkil eta oladigan va umuman, jismoniy-aqliy rivojlanish uyg'unligidagi o'quv-bilish fazilatlarini namoyon qilgan o'quvchilar soni asosiy ko'rsatkich sifatida qayd etilmaydi.

Shunday qilib, o'quvchilarning jismoniy-aqliy rivojlanish sohasida maxsus bilimlar tizimiga, jismoniy mashqlar bilan maromli shug'ullanishning amaliy ko'nikmasi va uslubiy mahoratiga ega bo'lishi va ularga muvofiq jismoniy madaniyat sohasidagi umumiy ta'limning o'ziga xos jihatlari, dars jarayonini tashkil etishga amaliy-uslubiy yondashilgan shakllarni hisobga olgan pedagogik sharoitlarning ishlab chiqilmaganlik holatlari o'rtasida nomuvofiqlik mavjud, deb aytishimizga asoslar yetarli. Aynan ushbu nomuvofiqlik jismoniy-aqliy rivojlanish uyg'unligidagi o'quv-bilish faolligini shakllantirish sohasidagi umumiy ta'limning muvaffaqitli olib borilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.



1-rasm. Bolalarda jismoniy-aqliy rivojlanishning faoliyat bo'yicha taqsimlanishi.

Pedagogikadagi zamonaviy voqealarning ko'rsatishiga ko'ra, jismoniy-aqliy rivojlanish sohasida umumiy ta'limning sifatini oshirish bilan bog'liq muhim masalalarni hal etish amaliy umumiy o'rta ta'lim faoliyatida yetarlicha qiyinchilik tug'diradi. Kundalik hayot bizga, jismoniy tarbiya amalda hali umumiy o'rta ta'lim maktabi pedagogik jarayonlarining ajralmas qismi bo'la olmaganligidan, jismoniy madaniyat esa fan sifatida boshqa umumiy o'rta ta'lim fanlari qatorida yana bir daraja ko'tarilmaganligidan guvohlik beruvchi o'nlab misollar taqdim etadi. Turgan gapki, bu vaziyat bilan muros qilib bo'lmaydi va shuning uchun uni tug'dirgan sabablarni bartaraf etishimiz dardkor.

Yuqorida keltirib o'tilgan vaziyatni yuzaga keltirgan sabablarning asosiylari-dan biri jismoniy tarbiya o'quv fani va umuman, jismoniy-aqliy rivojlanish sohasi o'zining ta'limiy vazifalarini bajara olmayotganidir. Ushbu sabab haqida mulohaza yuritilib, fanning hali pishib yetilmaganligi haqida yozilgan edi: men ayni vaqtda ham pedagogikani, ham umumiy didaktikani, ham jismoniy tarbiya nazariyasini, ham maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy ta'lim didaktikasini nazarda tutmoqdaman.

Jismoniy tarbiya bo'yicha ta'lim jarayonlariga yondashuv borasida o'z qarashlaridan kelib chiqib, dars mashg'ulotlarini turlicha tashkil etadigan uchta guruh o'qituvchilarini qayd etish mumkin. Birinchi guruhga mansub o'qituvchilar nazarida, bilim darsning bezagi, ya'ni tushunchalar, atamalar va fan sohasiga oid bilimlarni vizual tarzda yetkazish jarayonidir. Ikkinchi guruhni tashkil qiluvchi o'qituvchilar bilimni uzatish va yangi shakl yoki ko'rinishga keltirish hodisasini amalga oshiradilar. Nihoyat bilimni o'quvchining o'z-o'zini rivojlantirishi muhim vosita hamda ahamiyatli manba deb hisoblovchi uchinchi guruh o'qituvchilari ham bor. Nazarimizda bilim jismoniy tarbiya sohasidagi umumtalni ta'minlash uchun faqat uchinchi guruhga mansub o'qituvchilarning jismoniy tarbiya o'quv fani bo'yicha ta'lim jarayonlarini tashkil etishga bo'lgan yondashuvlari to'g'ri va talab asosidadir.

O'quvchi nazariy-metodik tayyorgarlikka erishishi uchun o'qituvchining dars davomidagi 3-5 daqiqalik umumiy ko'rinishdagi o'quv fani materiallariga doir xabarlar yetarli degan tasavvur ko'pchilikning ongiga batamom o'rnatilib qolgan. Bu esa aksar mutaxassislar tomonidan umumiy qabul qilingan qoidalarga aylangan. Aynan ushbu qarashdan farqli o'laroq, nazariy materiallarni o'quv mashg'ulotining uchta – nazariy, amaliy-metodik ko'rinishlar bo'yicha taqsimlanishini shart va maqsadga muvofiq deb hisoblashadi. Shuningdek, jismoniy tarbiya o'quv fani bo'yicha dars mashg'ulotlarini tashkil etishda ta'limning intellektual va harakatli komponentlari o'rtasida o'zaro nisbatning optimal – har jihatdan qulay va samarador darajasiga erishish kerakligini ta'kidlanadi.

Yana shuni aytib o'tishimiz kerakki, yuqorida keltirib o'tilgan qarashlar va mulohazalar aksar mutaxassislar, jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari va hatto ayrim olimlarning tasavvurida qotib qolgan jismoniy tarbiya o'quv fani bo'yicha maxsus nazariy bilimlar o'quvchilar harakatli faoliyatni amalga oshirish asnosida o'qitib borilishi kerak degan qarashlar orasidagi sanoqli istisnolar, xolos.

Ko'plab tadqiqotchi-amaliyotchilar fikriga ko'ra, jismoniy tarbiya o'quv fani bo'yicha dars mashg'ulotlarida keraksiz nazariy to'xtalishlar mutlaqo bo'lmasligi lozim. O'quvchilar jismoniy tarbiya o'quv fani bo'yicha dars mashg'ulotlarida harakatli vazifalarni bajarish asnosida yoki ularning o'rtasida 3-5 daqiqalik suhbat va o'qituvchining xabar, yo'riqnoma yoki ma'lumot ko'rinishidagi nazariy yetkazmalari natijasida ham yetarli darajadagi nazariy bilimga ega bo'lishlari mumkin. O'quvchilarda jismoniy-aqliy rivojlanish uyg'unligidagi o'quv-bilish faolligini shakllantirish sohasiga oid sifatli bilimlar bilan qurollantirish jarayoni mazkur o'quv fani bo'yicha uyga vazifalar berish tizimini keng joriy etish, darsdan tashqari faoliyatni samarali yo'lga qo'yish, ta'limda metapredmetik hamda fanlararo aloqadorlik muhitini yaratish sharoitida kutilgan natijalarni beradi.

Holbuki, dars mashg'ulotlarini tashkil etish va olib borishda jismoniy tarbiya o'quv fani aksar hollarda hamon o'quvchilarning harakat faolligini namoyon etish vositasi hisoblanib, ushbu o'quv fani ta'limiy funksiyasining amalga oshirilishi uchun zarur pedagogik sharoit yaratilmas ekan, ko'plab nazariy materiallarning eng muhim bo'limlari o'quv amaliyotiga tatbiq etilmay qolaveradi. Maktab o'quv rejasiga kiritilgan boshqa biror umumiy ta'lim fanini o'qitishda bunday hol yuz berishini hatto tasavvur ham qilib bo'lmaydi.

XULOSA

Demak, aytishimiz mumkinki, jismoniy-aqliy rivojlanish uyg'unligidagi o'quv-bilish faolligini shakllantirish sohasida bilish faolligini shakllantirish muammosiga qaratilgan mavjud yondashuvlarda biz jismoniy tarbiya o'quv fani bo'yicha shakllangan nazariy bilimlar tizimidan foydalanishga yo'naltirilgan qarashlarning juda kam ekanligiga guvoh bo'ldik. Bu esa jismoniy tarbiya o'quv fanining umumiy o'rta ta'lim fanlaridan biri sifatidagi potensialini namoyon qilish uchun yetarli shart-sharoit mavjud emasligini ko'rsatadi. Mazkur muammo nazariy va amaliy sohalarida muhokama etilishi, ilmiy jihatdan tadqiq qilinishi va o'z yechimini topishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Aslonova M.A. Ped.fan.nom.diss. Toshkent-2017. Ta'lim jarayonida harakatli o'yinlardan foydalanish. 89 b.

Апанасенко Г.А. Киев-1985. Физическое развитие детей и подростков. — 80 с.

Morgunova I.I. 2011. Gimnastika va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma.—B. 73 b.

Нишаналиев У.Н. Тошкент-2011. Инструментарий обучения, воспитания и развития // Учитель Узбекистана. 59 с.

www.arxiv.uz

www.aim.uz

www.cyberleninka.ru

СРЕДСТВА ДЛЯ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНЫХ ЗАНЯТИЙ*Юнусова Дильдора Салохиддиновна**Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами
доцент**Тожибоев Музаффар Маъруфович**Ташкентская медицинская академия ассистент*

Аннотация. В статье рассматривается анализ средств и методик организации самостоятельных занятий физическими упражнениями для создания обобщённого методического подхода к данным занятиям. Любые физические упражнения строятся на общих дидактических принципах, присущих любому педагогическому процессу: на принципе сознания и активности, доступности, прочности, наглядности, систематичности. Вместе с тем, самостоятельные физические упражнения обладают и специфическими принципами.

Ключевые слова: Методика, самостоятельные занятия, принципы, методы, занятия, здоровья, физическая культура, упражнения, физические качества, нагрузка, частота пульса, здоровый образ жизни, населения, спорт, средства.

TOOLS FOR ORGANIZING INDEPENDENT STUDIES*Yunusova Dildora Salokhiddinovna**Tashkent State Pedagogical University named after Nizami Associate Professor**Tojiboev Muzaffar Marufovich,**Tashkent Medical Academy Assistant*

Annotation. The article discusses the analysis of the means and methods of organizing independent physical exercises to create a generalized methodological approach to these exercises. Any physical exercises are built on general didactic principles inherent in any pedagogical process: on the principle of consciousness and activity, accessibility, strength, visibility, systematicity. At the same time, independent physical exercises also have specific principles.

Key words: Methodology, self-study, principles, methods, occupations, health, physical culture, exercises, physical qualities, load, pulse rate, healthy lifestyle, population, sports, means.

Введение Актуальность выбора темы объясняется тем, что темп труда и обучения в мире, увеличение психических нагрузок остро поставили вопросы о внедрении в повседневную жизнь людей физической культуры и спорта. Доказано, что систематические занятия физическими упражнениями повышают нервно-психическую стойкость людей к эмоциональным стрессам, поддерживают трудоспособность. Кроме того, физическое воспитание, играет важную роль в сохранении и укреплении здоровья граждан нашей страны, увеличении продолжительности жизни, формировании профессионально-важных качеств личности. Тем не менее, по многочисленным научным данным в последнее время в Узбекистане наблюдается стойкое ухудшение состояния здоровья населения и, в частности, молодежи. В то же время в нашей стране отсутствует достаточная спортивно-оздоровительная инфраструктура для массового занятия физической культурой и спортом. Самостоятельные занятия физическими упражнениями становятся спасительной альтернативой для населения Узбекистана.

Поэтому целью моей работы стал анализ средств и методик организации самостоятельных занятий физическими упражнениями для создания обобщённого методического подхода к данным занятиям.

Исходя из цели работы, можно поставить такие задачи, как:

1. охарактеризовать сущность, принципы и методы самостоятельного занятия физическими упражнениями;
2. определить особенности и нормативы физических нагрузок при самостоятельных занятиях;
3. изучить выбор средств и особенности их применения при самостоятельных тренировочных занятиях.

Самостоятельное занятие физическими упражнениями является неотъемлемой частью здорового образа жизни. Благодаря этим занятиям любой человек может поддерживать необходимый уровень здоровья. Особенно если его основная деятельность является малоподвижной, или связана со значительными психическими нагрузками, чреватых возникновением стресса. Т.к. правильно подобранный комплекс самостоятельных физических упражнений способен снять усталость, привести организм человека в необходимый тонус и подготовить его к дальнейшей работе или отдыху. С другой стороны, самостоятельные занятия ценны тем, что человеку не нужно посещать спортзал или фитнес-центр, т.к. далеко не все граждане нашей страны могут

позволить себе это по причине нехватки времени или финансовых средств.

Следовательно, каждый человек, взрослый или ребёнок под руководством взрослых, приступающий к самостоятельным регулярным занятиям физическими упражнениями, должен ставить перед собой следующие задачи:

1. сохранение и укрепление здоровья - это, в сущности, основная задача, которую ставит перед собой человек, решив включить самостоятельную физическую тренировку в свой режим дня;

2. улучшение физической подготовки. Сущность физической подготовки личности в развитии основных физических качеств - выносливости, силы, гибкости, скорости, ловкости, необходимых, как для труда, так и для построения гармоничных социальных отношений. В целом физическое состояние человека - основа хорошей умственной и физической трудоспособности, а значит залог успеха всего общества;

3. формирование и развитие двигательных навыков и умений. В процессе самостоятельных занятий физическими упражнениями люди овладевают новыми двигательными действиями и совершенствуют ранее приобретённые. Данная задача особенно актуальна для спортсменов или людей ведущих активный образ жизни, чья увлечения включают спортивные игры, состязания и пр.;

4. воспитание психических качеств личности. Самостоятельные занятия физическими упражнениями помогают не только успешно формировать трудоспособность, но и вырабатывать целеустремлённость, силу воли - качества необходимые каждому человеку. Кроме того, дополнительное общение, например, на спортивных площадках, улучшает коммуникативные навыки, что особенно актуально для подростков и молодежи;

5. приобретение теоретических знаний о физической культуре. Прежде чем начать самостоятельно заниматься физическими упражнениями, а также для той, чтобы грамотно их выполнять, человеку желательно освоить определенный минимум теоретических знаний по физической культуре, а значит и по биологии, медицине, основам первой помощи пострадавшим, что может быть использовано человеком и на практике.

Любые физические упражнения строятся на общих дидактических принципах, присущих любому педагогическому процессу: на принципе сознания и активности, доступности, прочности, наглядности, систематичности. Вместе с тем, самостоятельные физические упражнения обладают и специфическими принципами.

Первый принцип самостоятельного занятия физическими упражнениями - это принцип индивидуализации. Он характеризуется тем, что выбор средств физического воспитания для самостоятельных занятий должен определяться их состоянием здоровья, возможностями (наличием свободного времени, места для занятий) и индивидуально-психологическими особенностями (пол, возраст, род занятий, интересы).

Принцип непрерывности - означает, что занятия должны быть регулярными, заранее продуманными, во время которых физические упражнениям выстраиваются как последовательное распределение движений и двигательных комплексов при многолетнем планировании нагрузок.

Принцип рациональности физических нагрузок предусматривает тренировку механизмов энергообеспечения, постепенное, но вместе с тем вариативное повышение нагрузок, оптимальное соединение физических нагрузок и отдыха.

Следующий принцип - всестороннего физического развития основан на том, что в самостоятельной физической тренировке человек должен добиваться оптимального развития физических качеств, особенно выносливости, силы, гибкости. Поэтому, кроме любых средств физического воспитания, необходимо использовать физические упражнения циклического характера (ходьбу, бег, плавание и т.п.), гимнастику, упражнения с отягощениями, закаливание.

Занятие самостоятельными физическими упражнениями также обязательно предусматривает принцип врачебного контроля и самоконтроля. При этом занимающийся должен получать подробные предварительные и текущие консультации у врача, регулярно самостоятельно контролировать с помощью доступных методик основные физические параметры своего организма. В теории физической культуры подробно и широко разработаны различные методы физического воспитания. Из их большого числа в процессе самостоятельных занятий физическими упражнениями учёные рекомендуют применять такие методы как: равномерный, повторный, интервальный, игровой и соревновательный.

Также выделяют три основные форма самостоятельных занятий физическими упражнениями: утреннюю гигиеническую гимнастику, упражнения на протяжении дня и самостоятельные тренировки.

Наиболее важно при организации любых самостоятельных физических упражнений правильно планировать процесс занятий и индивидуально подбирать упражнения. Длительность занятий зависит, как от их цели, так и от индивидуальных характеристик человека.

При выполнении физических упражнений человек получает определенные физические нагрузки. Они могут отличаться по своим качественным и количественным характеристиками, что достигается за счет смены сходных положений, амплитуды движений, темпа и числа упражнений,

наличия пауз и т.д. В теории физической культуры под физической нагрузкой понимается степень влияния упражнений на организм и уровень преодоленной при этом субъективной и объективной трудности.

Выполнение конкретной физической нагрузки непосредственно связано с затратой энергетических ресурсов человека, от меры затраты которых зависит усталость. Она и является субъективным показателем физической нагрузки. В биологической науке утомления рассматривается как защитная реакция организма. Проблема определения оптимальной физической нагрузки остается одной из основных в медицине и физической культуре. Рациональное ее решение одинаково важно как для спортсмена, который стремится показать максимальный результат, так и для человека, который начал заниматься физическими упражнениями для укрепления здоровья.

Профессор Г.С. Туманян разработал классификацию физических нагрузок, основанную на реакции сердечно-сосудистой системы. Малой считается нагрузка в том случае, если после ее выполнения частота пульса равняется 108-130 уд./мин., средней - 132-166 уд./мин., сильной - 168-180 уд./мин. и максимальной, если частота пульса больше 180 уд./мин.

Результаты. Тренировки с малыми физическими нагрузками (частота пульса 108-130 уд./мин.) имеют поддерживающий характер, т.е. поддерживают достигнутый уровень функционального состояния организма. Тренировка со средними физическими нагрузками (частота пульса 132-166 уд./мин.) оказывают развивающее влияние т.е. содействуют повышению функциональных возможностей организма. Но следует помнить всегда о половозрастных отличиях: чем старше человек, тем ниже снижается планка всех показателей и норм. Люди, только начавшие самостоятельные занятия физическими упражнениями, особенно пожилые или с ослабленным здоровьем, сначала должны выполнять малые физические нагрузки (частота пульса 108-166 уд./мин.). К большим физическим нагрузкам нужно переходить, только достигнув достаточной тренированности. Показателем ее может стать преодоления дистанции 3-5 км, при преодолении километра дистанции за 4,5-5 мин. при частоте пульса не более 150-160 уд./мин.

Для здорового человека 18-35 лет специалисты советуют каждый день проводить утреннюю гимнастику по 10-30 мин., пешие прогулки не менее 60-80 мин. (в сумме на протяжении всего дня) и тренировки по 1-1,5 ч. (3-5 раз на неделю). В эти тренировки включают занятия любыми видами спорта и циклические упражнения, особенно бег. По выходным дням желательно проводить лыжные, велосипедные, пешеходные прогулки не меньше 2-3 часов, небольшие туристические походы. Кроме того, рекомендовано ежедневное выполнение 1-2 физических перерывов по 5-6 мин. для восстановления умственной трудоспособности. Естественно, эти рекомендации относительны. Например, дневные тренировки можно с успехом заменять утренней гимнастикой повышенной трудности, в которую включают бег и гимнастические упражнения на силу и гибкость. Кроме того, каждый человек должен планировать свою физическую тренировку с учетом индивидуальных особенностей: состояния здоровья, уровня физической подготовленности, спортивных интересов, а также таких факторов, как пора года, погодные условия, наличие свободного времени. Как мы знаем, все это должно сочетаться с медицинским контролем и самоконтролем. Кроме регулярных медицинских осмотров, мужчины или женщины включившие самостоятельные занятия физическими упражнениями в свой образ жизни, должны проводить также самоконтроль за здоровьем. Это позволяет наблюдать за своим физическим состоянием на протяжении многих лет, помогает оценивать соответствие получаемых физических нагрузок возможностям организма. Хорошее самочувствие человека характеризуется отсутствием одышки, головокружения, головной боли, вялости, тошноты, боли и пр. Если физические нагрузки подобраны удачно, то все эти симптомы будут отсутствовать и человек будет бодр. При этом у человека также должно быть хорошее, приподнятое или стабильное настроение, без грусти и подавленности.

Выводы. Не менее важен и сон человека, т.к. он восстанавливает его силы. Крепкий сон на протяжении 7-8 часов свидетельствует об оптимальных физических нагрузках. Если человек спит меньше по причине бессонницы, частых пробуждений и др. нарушений сна или спит больше, то стоит обратить внимание на дозировку физических нагрузок.

Почти всегда у людей, которые начали активные самостоятельные занятия физическими упражнениями, на следующий день, а иногда даже через несколько часов, возникают боли в мышцах. Явление это временное, чисто физиологическое. Облегчить его протекание можно несколькими способами: самомассажем болевых мест, приемом ванны, массажем.

В ряде случаев могут возникать головные и сердечные боли. Подобное наблюдается при чрезмерных физических нагрузках, но чаще при нарушениях режима: недосыпании, неправильном питании, после приема алкоголя, при курении.

Список используемых источников

1. Барчуков И.С., Нестеров А.А. Физическая культура и спорт. Методология, теория и практика. - М.: Академия, 2009. - 528 с.
2. Баршай В.М., Курьес В.Н., Павлов И.Б. Гимнастика. - М.: Феникс, 2011. - 336 с.



3. Буланов Ю.Б. Спортивная медицина. - М.: Тверская областная типография, 207. - 320 с.
4. Горбунов Г.Д., Гигунов Е.Г. Психология физической культуры и спорта. - М.: Академия, 2009. - 256 с.
5. Еганян Р.А. Калинина А.М. Школа здоровья. Избыточная масса тела и ожирение. - М.: ГЭОТАР-Медиа, 2010. - 112 с.
6. Евсеев И.Ю. Физическая культура. - М.: Феникс, 2012. - 448 с.
7. Караулова Л.К., Красноперова Н.А., Расулов М.М. Физиология физического воспитания и спорта. - М.: Академия, 2012. - 304 с.
8. Клетнева А.А., Бородин Е.А., Давыдова С.А. Перспективные направления организации физкультурных занятий взрослого населения // Теория и практика физической культуры. 2011. №61. С. 63-65.
9. Кряж В. Самоконтроль в процессе физического воспитания // Физическая культура в школе. 2008. №8. С. 11-15.
10. Sharipova D.J. "Salomatlik – barchaning va har bir kishining ishi" T., 2001 y.
11. Кошбахтиев И.А. Валеология. Т.2008
12. Морозов М.А. Здоровый образ жизни и профилактика заболеваний. - М.: СпецЛист, 2012. - 168 с.
13. Туманян Г.С. Здоровый образ жизни и физическое совершенствование. - М.: Академия, 2009. - 336 с.

“TEKNOLOGIK TA'LIM” YO'NALISHIDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING MAZMUNI

*Quliyeva Shahnoza Halimovna,
Buxoro davlat universiteti, Fizika-matematika fakulteti, Elektronika va texnologiya kafedrasida dotsenti*

Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida “Texnologik ta'lim” yo'nalishida kompetensiyaviy yondashuvning masalalari keltirilgan. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan bilim, ko'nikma va malakalarini egallayotganda kompetensiyaviy yondashuvni inobatga olish zarur. “Texnologik ta'lim” yo'nalishi talabalarida ayniqsa umumkasbiy va ixtisoslik fanlari bo'yicha kompetensiyalarni shakllantirishda kasbiy-pedagogik tayyorgarlik muhim hisoblanadi. Ta'lim beruvchining pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi bilim, ko'nikma va malakalari, qobiliyati va imkoniyatlaridan ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishda, ta'lim oluvchilarning faoliyatini muvofiqlashtirishda qanday darajada foydalana olishi, qulay ta'limiy muhit darajasi va uning natijaviyligi, ta'lim oluvchilarda shakllangan o'quv motivlari va qiziqish darajasi, refleksiv ta'limiy muhitning shakllanganligi ularning kasbiy kompetentligiga bog'liqligi batafsil berilgan.

Kalit so'zlar: texnologik ta'lim, professional, ustivor, xalqaro tajriba, didaktik, soft skills, hard skills.

СОДЕРЖАНИЕ КОМПЕТЕНТНОГО ПОДХОДА ПО НАПРАВЛЕНИЮ «ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЕ ОБРАЗОВАНИЕ»

*Кулиева Шахноза Халимовна,
Бухарский государственный университет, физико-математический факультет,
доцент кафедры электроники и технологий*

В данной статье представлены вопросы компетентного подхода по направлению «Технологическое образование» в высших учебных заведениях. В подготовке будущих учителей технологии необходимо учитывать компетентный подход при овладении знаниями, умениями и навыками по общеобразовательным и специальным предметам. Профессионально-педагогическая подготовка важна для студентов направления «Технологическое образование», особенно в формировании компетенций по общеобразовательным и профильным предметам. Степень, в которой педагог может использовать знания, навыки и умения, умения и возможности в направлении организации и управления педагогическими процессами, в организации учебно-воспитательных процессов, координации деятельности обучающихся, уровень комфортной образовательной среды и ее эффективность, подробно приведены учебные мотивы и уровень интереса, сформированные у обучающихся, формирование рефлексивной образовательной среды в зависимости от их профессиональной компетентности.

Ключевые слова: технологическое образование, профессиональное, приоритетное, международный опыт, дидактика, soft skills, hard skills.

CONTENT OF THE COMPETENT APPROACH IN THE DIRECTION «TECHNOLOGICAL EDUCATION»

*Kuliyeva Shahnoza Halimovna,
Bukhara State University, Faculty of Physics and Mathematics, Associate Professor of Electronics and Technology Department*

This article presents the issues of the competence-based approach in the direction of «Technological education» in higher educational institutions. In the training of future technology teachers, it is necessary to take into account the competence-based approach when mastering knowledge, skills and abilities in general education and special subjects. Vocational and pedagogical training is important for students of the direction «Technological education», especially in the formation of competencies in general education and specialized subjects. The degree to which a teacher can use knowledge, skills and abilities, skills and abilities in the direction of organizing and managing pedagogical processes, in organizing educational processes, coordinating students' activities, the level of a comfortable educational environment and its effectiveness, the educational motives and the level of interest formed by students, the formation of a reflective educational environment, depending on their professional competence, are given in detail.

Key words: technological education, professional, priority, international experience, didactics, soft skills, hard skills.

Ma'lumki, biz bugun yurtimizda erkin va ozod, adolatli, insonparvar jamiyat barpo etmoqdamiz. Shu borada, avvalo, odamlarimizning halol mehnatiga hurmat bilan qarash, ularning qadr-qimmatini munosib baholashni biz o'zimizning bosh maqsadimiz, deb bilamiz. Bugungi kunda jamiyatimiz hayotida insonga aynan mana shunday munosabat mustahkam qaror topdi. Shuning uchun ham mamlakatimiz

ulkan yutuqlarni qo'lga kiritmoqda. Yutuqlar jahon hamjamiyatining hayrati va havasini uyg'otmoqda. Ana shunday ijobiy o'zgarishlar asosida odamlarimizning dunyoqarashi, ongu tafakkuri yuksalmoqda. Ularning hayotga, mehnatga munosabati tubdan o'zgarimoqda.

Zamonaviy o'qituvchi o'z o'quvchilarini ta'lim jarayoniga ijodiy yondashuv asosida qarashlarini tashkil qilishi, ularda mustaqil ishlar ko'nikma va malakalarini rivojlantirishi va albatta ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda darsni tashkil etishi kerak bo'ladi.

Mamlakatimizning ta'lim tizimida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar ilg'or xorijiy ta'lim tajribasini o'rganish, tahlil etish hamda ta'lim muassasalari sharoitlariga moslashtirishning ijtimoiy-pedagogik va didaktik xususiyatlarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Hozirgi jamiyatni taraqqiy ettirish bosqichida «bilimli» ta'lim yondashuvidan kompetentlikka yo'naltirilgan ta'lim tizimiga o'tish hamda bitiruvchilarda egallanishi ko'zda tutilayotgan kasbga doir shaxsiy xususiyatlarni shakllantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri sifatida qaralmoqda. «Kompetentli» yondashuvga asoslangan ta'lim tizimida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining roli ham o'zgaradi. Chunki, «bilimli» yondashuvda ta'lim beruvchi faol va asosiy ishtirokchi bo'lsa, ta'lim oluvchi esa, sust qabul qiluvchi sifatida ishtirok etadi. «Kompetentli» yondashuvda ta'lim oluvchi faol ishtirokchiga aylanadi, chunki uning ta'lim olish faoliyati ko'proq mustaqil individual topshiriqlarni bajarish va uning natijasini himoya qilishga, kreativ amaliy mashg'ulotlarda doimiy ravishda savollarga javob berish va individual tadqiqot ishlarini olib borishga qaratilgan bo'ladi. «Bilimli» ta'lim yondashuvida me'yoriy-huquqiy asoslar sifatida Davlat ta'lim standartlari, o'quv va ishchi rejalari, fanlarning o'quv metodik majmualari olinsa, kompetentli yondashuvda bular qatoriga ta'lim oluvchining kompetentli shaxs modeli qo'shiladi. Ta'lim oluvchining kompetentli shaxs modelida Davlat ta'lim standartidan kelib chiqqan holda ta'lim oluvchida shakllanishi lozim bo'lgan kompetentlikning turli jihatlarining tavsifi keltiriladi. «Bilimli» yondashuvning maqsad va mazmuni, ta'lim shakli, pedagogik va axborot texnologiyalari ta'lim oluvchiga bilim, ko'nikma va malakalarni yetkazib berish hamda ularning o'zlashtirilganligini nazorat qilishga qaratilgan bo'lib, bular hozirgi jadal sur'atlarda rivojlanayotgan ta'lim tizimining asosiy kamchiliklari sifatida e'tirof etilmoqda.

Ta'limda yangi tadqiqot yo'nalishi bo'lgan kompetentli yondashuvning paydo bo'lishi hamda xorijiy pedagogik va metodik manbalarda «kompetentlik» va «kompetensiya» toifalarining paydo bo'lishi natijasida ular 1960 yillarning oxiri 1970 yillarning boshlaridan boshlab, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning kasbiy tayyorgarligi nazariyasi va amaliyotiga keng kirib bordi.

Kompetentlikka yo'naltirilgan ta'lim (competence-based education - CBE) amerikalik tilshunos N.Xomskiy (1965 yil, Massachutes universiteti) tomonidan taklif etilgan «kompetensiya» atamasining umumiy ma'nosida shakllanadi. Yevropa Kengashi dasturi bo'yicha Bern shahrida bo'lib o'tgan simpoziumda (1996 yil) «kompetensiya» tushunchasi «o'quv», «kompetentlik», «qobiliyat», «mahorat» singari tushunchalar qatoriga kiritilganligi ta'kidlandi. Yevropa davlatlarining ta'lim vazirlari Boloniya deklarasiyasida (1999 yil) ta'lim islohotlarining konseptual asoslari sifatida kompetentli yondashuvni belgilashdi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi Qonunida: «Tegishli ma'lumoti, kasbiy tayyorgarligi, boy va yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan shaxslargina pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega» - deb ta'kidlangan. Ushbu hujjat talablarini bajarish uchun bo'lajak o'qituvchilarda, shu jumladan bo'lajak texnologiya o'qituvchilarida kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish muhim hisoblanadi. Chunki, kompetentlikka yo'naltirilgan ta'lim tizimi tashkiliy, texnologik va metodologik o'zgarishlar qatorida juda katta hajmdagi didaktik ijodiy dars ishlanmalari (mustaqil ishlarga ijodiy individual vazifalar, amaliy mashg'ulotlar uchun individual ijodiy topshiriqlar, nazorat turlari uchun test savollari, tashxislovchi masalalar, amaliy topshiriqlar va boshqalar)ning ta'lim beruvchi tomonidan yaratilishini taqozo etadi.

Ilg'or texnologiyalarning keng o'zlashtirilishi, uzluksiz ta'limda fanning ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuvi, ta'lim oluvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga mos ravishda ta'limga tabaqalashtirilgan yondashuvning joriy etilishi hamda ta'lim berishning ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari hamda zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarning yaratilishi pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish tizimini takomillashtirishda ta'lim beruvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishga asos solmoqda. Amir Temurning «Amr qildimki, vazirlar ushbu to'rt sifatga ega kishilardan bo'lishlari lozim:

birinchisi - asllik, toza nasllilik;

ikkinchisi - aql, farosatlilik;

uchinchisi - sipohu raiyat ahvolidan xabardorlik, ularga nisbatan xushmuomalalilik;

to'rtinchisi - sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik», deb aytgan fikrlarida ta'lim beruvchi shaxsi va uning shaxsiy xususiyatlari hamda kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlariga ham talablar qo'yilganligi o'z ifodasini topgan.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslanib shuni aytish mumkinki, ta'lim beruvchining pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi bilim, ko'nikma va malakalari, qobiliyati va imkoniyatlaridan ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishda, ta'lim oluvchilarning faoliyatini muvofiqlashtirishda qanday darajada foydalana olishi, qulay ta'limiy muhit darajasi va uning natijaviyligi, ta'lim oluvchilarda shakllangan o'quv motivlari va qiziqish darajasi, refleksiv ta'limiy muhitning shakllanganligi ularning kasbiy kompetentligiga bog'liq bo'ladi.

Ta'limda kompetentli yondashuvda ta'limni modernizatsiyalashning zamonaviy bosqichida eng avvalo uning maqsadi tubdan o'zgaradi. "Kompetentlik" va "kompetensiya" ta'limda kompetentli yondashuvning asosiy tushunchalaridir. Manbalar tahlili esa, ularning ilmiy adabiyotlarda bir qiymatli ta'rifga ega bo'lmagan murakkab, ko'p komponentli va fanlararo tushunchalar ekanligini ko'rsatadi. Tadqiqotchilar fikricha ular hajmi, turkumi, semantikasi va mantiqiy tuzilmasi bo'yicha farqlanib, kompetentli shaxs tavsifi (xususiyatlari, odatlari va boshqalar) sifatida qaralishi mumkin. Kompetentli shaxs tavsifi (xususiyat, shaxs sifati, uning komponenti), shaxs tuzilmasida yaxlit ta'lim, shaxs xususiyatlari tizimi, bilim, ko'nikma va malakalarni egallash natijasida yuzaga keluvchi holatlar (tayyorgarlik, yo'naltirilganlik va boshqalar) sifatida ifodalanishi mumkin, ko'pincha esa, kompetentli bilim va tajriba bilan tenglashtiriladi.

Bugungi kunda "kompetensiya", "kompetentlik" atamaları keng qo'llanilmoqda va barqarorlashmoqda. Ammo, hozirga qadar ta'limning u yoki bu bosqichi bitiruvchisining optimal obraziga qo'llash mumkin bo'lgan «kompetentlik» tushunchasining yagona va aniq ta'rifi mavjud emas. Manbalarda shaxsning bilimi, ko'nikmasi, malakasi, qobiliyati, mehnatsevarligi, kasbiy mahorati kabi sifatlarini ifodalash uchun kompetentlikni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari, metodikasi va asosiy yo'nalishlari aniqlashtirilgan.

Ilmiy manbalarda kompetentlik va kompetensiyaning quyidagi ta'riflarini uchratish mumkin: motivlashgan qobiliyat; shaxsning xususiyat va sifatleri, shaxsiy chizgisi; faoliyatga tayyorgarlik mezon; masalani hal etish va uning natijalarini olish uchun zarur bo'lgan qobiliyat; faoliyatga bog'liq bilim, ko'nikma, malaka va tajriba (inson tomonidan o'zlashtirilgan masalani yechish, usullar va yo'llarini bir butunga birlashtirish), shu bilan birga shaxsning motivlashgan va hissiy-irodaviy sohasidir. A.A. Verbiskiy va M.D. Ilyazovalar bu tushunchalarga quyidagicha ta'rif bergan: kompetensiya - bu inson tomonidan u yoki bu faoliyatning amalga oshirilishini ta'minlovchi uning maqsadlari, qadriyatlari, motivlari, shaxsiy sifatleri, bilimlari, ko'nikmalari, malakalari, qobiliyatlari va tajribalari tizimi; kompetentlik esa, amaliyotda namoyon bo'lgan va amalga oshgan insonning amaliy faoliyat texnologiyalarini egallash darajasi hamda shaxsning ijtimoiy axloqiy sifatleri rivoji bilan tavsiflanuvchi kompetensiyasi.

A.S. Belkin va V.V. Nesterovlar kompetensiya ta'lim jarayonida samarali faoliyat uchun zaruriy shart-sharoit yaratuvchi kasbiy vakolat, funksiyalar, kompetentlikni esa, kompetensiya samarali amalga oshirishni ta'minlovchi kasbiy va shaxsiy sifatlar majmuasi sifatida ta'riflagan.

A.N. Vvedenskiy fikricha kompetentlik - bu qandaydir shaxsiy tavsif, kompetensiya esa, aniq kasbiy yoki funksional tavsiflar majmuasi.

M.A. Xolodnaya kompetentlikni quyidagicha ta'riflagan: kompetentlik - bu mos faoliyatda samarali qarorlar qabul qilishga imkon beruvchi predmetli o'ziga xos bilimlarni tashkil etishning maxsus tipi.

G.K. Selevko kompetensiya atrof-muhitni o'zgartirish bo'yicha maqsadni qo'yish va unga erishishga imkon beradigan bilim, ko'nikma va malakalar majmuasi shakli sifatida tushungan.

Kompetentlik - bu shaxsning ta'lim olishi va ijtimoiylashuvi jarayonida egallagan hamda faoliyatda mustaqil va muvaffaqiyatli ishtirokiga yo'naltirilgan bilim va tajribalariga asoslangan, uning faoliyatidagi umumiy qobiliyat va tayyorgarligida namoyon bo'ladigan integrallashgan sifat. Ilmiy-metodik adabiyotlarda kompetensiyaning quyidagi an'anaviy tasniflari qayd etilgan:

- javobgarlikni o'z zimmasiga olish, hamkorlikda qaror qabul qilishda ishtirok etish qobiliyatiga bog'liq siyosiy va ijtimoiy kompetensiyalar;

- madaniyati, tili va dinidan qat'iy nazar boshqa insonlar bilan yashashga, ularni tushunishga, ularga yordam berishga va o'zaro kelishmovchiliklarni bartaraf etishga yo'naltirilgan, jamiyat hayotida uchraydigan kompetensiyalar;

- kasbiy faoliyatda va jamiyat hayotida muhim bo'lgan yozma va og'zaki muloqotga egalikni aniqlovchi kompetensiyalar;

- axborot jamiyatining paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan kompetensiyalar (yangi texnologiyalarga ega bo'lish va ularning afzallik va kamchiliklarini aniqlash).

Ular o'zaro bir-birini to'ldiruvchi va bir-biriga bog'liq bo'lgan tushunchalar. Kompetensiyaga ega bo'lmagan kompetentli shaxs uni ijtimoiy ahamiyatli jihatlarida to'laonli amalga oshira olmaydi. Bu fikrni kompetensiya insonda mavjud bo'lgan narsalar to'plami, kompetentlikni esa, shaxs ega bo'lishi kerak bo'lgan narsalar to'plami sifatida tavsiflovchi A.S. Belkin tomonidan berilgan ta'rifda ham uchratish mumkin. Xorijiy so'zlar lug'atida «kompetentlik» tushunchasi biror shaxs yoki muassasaning vakolati va huquqlari majmuasi yoki biror bir insonga tegishli ishlar, savollar majmuasi sifatida ta'riflangan. Fransuzcha "competent" so'zi kompetentli, vakolatli sifatida tarjima qilinadi. Shu bilan birga u yuridik ahamiyatga ham ega. Ingliz tilida "competence" atamasida shaxsning sifati ma'nosi mavjud: kompetentlik - qobiliyat sifatida keltirilgan.

L. Spenser va M. Spenserlar kompetentlikning mezonlari sifatida yuqorida qayd etilgan elementlarni qarab chiqqanlar: shaxsning «Men konsepsiyasi» tuzilmasidagi motivlar, psixofiziologik sifatlar, ko'rsatmalar, qadriyatlar, shuningdek, bilim va ko'nikmalar. Mualliflar kompetensiyaning boshqa komponentlariga qaraganda bilim va ko'nikmalarni baholash va rivojlantirish osonroq deb hisoblaydilar. Ular kompetensiya ta'rifining quyidagi sxemada keltirilgan:

1. Intilish. Harakat. Natija.

2. Shaxsiy sifatlar (motivlar, men konsepsiyasi, bilimlar).
3. Hatti-harakatlar (ko'nikmalar).
4. Ishni bajarish.

Kompetentlikka yo'naltirilgan yondashuv ta'limda qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyalarning ham o'zgartirilishini taqozo etadi. Bilimlarni berishda kreativ pedagogik texnologiyaga o'tish talab etiladi. Kreativ pedagogik texnologiyada o'qituvchi tomonidan taqdim etilayotgan turli individual topshiriqlar ijodiy faoliyatga qaratilgan bo'lishi va ta'lim oluvchilarda har bir topshiriqni bajarishga ijodiy yondashuvni talab qiladi. Bu texnologiya o'qituvchi o'z o'quv fani yuzasidan doimiy ijodiy izlanishga, ta'lim oluvchini esa, topshiriqlarni bajarishda faqat o'z bilim va ko'nikmalariga tayanish kerakligini o'rgatadi. Ta'lim mazmuni, shakli, pedagogik texnologiyalarning o'zgarishlari nazorat usullarini takomillashtirish kerakligini ham taqozo etadi. Jumladan, «bilimli» yondashuv tizimida ta'lim oluvchini har bir fandan olgan bilim, malaka va ko'nikmalari nazorat qilinib, umumiy reyting bali o'zlashtirish ko'rsatkichi sifatida qo'llaniladi.

Ta'lim oluvchining kompetentli darajasini aniqlashga qaratilgan «kompetentli» yondashuvda, eng avvalo kompetentlikni aniqlash talab etilib, bu integrallashgan bilim, malaka va ko'nikmalarni aniqlash degani. Ta'limda kompetentli yondashuvni amalga oshirishning yetakchi g'oyasi shundan iboratki, bitiruvchilarda kompetensiyalar majmuasini shakllantirish ular egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar majmuasi bilan aniqlanuvchi oliy ta'lim muassasasiga an'anaviy bo'lgan maqsadga to'laqonli mos kelmaydi. Bu yondashuv L.S. Grebnev, N.M. Rozina, S.A. Smirnova, A. Zimnyaya, N.V. Kuzmina, T.D. Makarova, Dj. Raven, N.A. Selezneva, Yu.G. Tatur, G. Xutmaxer, A.V. Xutorskiy, N.A. Muslimov va boshqalarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisi tayyorgarligi sifatini tahlil qilish uchun kompetentlik bilan bog'liq mezonni tanlash shu bilan shartlashilganki, oliy ta'lim muassasasi uzoq mehnat faoliyati jarayonida amalga oshiriladigan kasbiylashtirishni emas, balki bitiruvchining kasbiy tayyorgarligi va kompetentligini ta'minlashi mumkin. Demak, kompetensiya ta'lim oluvchining ta'limiy (yoki kasbiy) tayyorgarligiga oldindan qo'yilgan talablarga qaysidir darajada uzoqlikni nazarda tutsa, kompetentlik esa, tayyor bo'lgan shaxsiy sifatlarini nazarda tutar ekan. Ushbu muammoni tadqiq qilishda, birinchi navbatda kasbiy kompetentlik nima ekanligini, uning tuzilmasi va shakllanish sharoitlarini aniqlash zarur.

Psixologo-pedagogik adabiyotlar va boshqa manbalar tahlili «kasbiy kompetentlik» tushunchasi ta'rifiga bir necha yondashuvlar mavjudligini ko'rsatdi. Masalan, xorijiy tadqiqotchilar tomonidan bu tushuncha ko'pincha «chuqurlashtirilgan bilim», «harakatlarning samaradorligi» kabilar sifatida talqin etilgan. Bizning nuqtai nazarimizcha esa, mutaxassis kompetentligi kasbiy faoliyat davomida orttirilgan ijtimoiy-ahamiyatli va shaxsiy-ahamiyatli kompetensiyalar tizimidan iborat. Agar, o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi haqida so'z yuritilsa, u holda bu tushuncha mazmuniga pedagogik masalalarni mustaqil va yetarlicha samarali hal etish imkonini beruvchi o'qituvchi, tarbiyachi, pedagogning shaxsiy imkoniyatlari kiritiladi. U yoki bu pedagogik masalalarni hal etish uchun pedagogik nazariya va uning qoidalarini amalda qo'llay olish ko'nikmasi va tayyorgarlik zarur. Shu bilan birga yana o'qituvchining kasbiy kompetentligi uning mehnatida pedagogik faoliyat va pedagogik muloqotning turli tomondan shakllanganligidir. Turli davrlarda va turli mualliflarda turli xil ta'riflar uchraydi va ular quyidagilardan iborat: ma'lum mehnat faoliyati vazifalarini bajarish ko'nikmasi va qobiliyatiga egalik, psixik holat, ta'lim olish va umummadaniyat darajasi, pedagogik faoliyatni amalga oshirishga amaliy tayyorgarlik va nazariyaning birligi. Bular esa, kasbiy kompetentlikni pedagog shaxsining psixologik-pedagogik va fan sohasida bilimlarga egaligini, kasbiy ko'nikma va malakalari, shaxsiy tajribasini tavsiflovchi integrallashgan shaxsiy xususiyati sifatida aniqlashga imkon beradi. Shu bilan birga pedagog o'z faoliyati istiqbolini maqsad qilgan, bilimlarini boyitishga intiluvchan, o'ziga ishongan va kasbiy natijalarga erishish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur. Ba'zi bir tadqiqotchilar pedagogning kompetentligi tashkilotchilik, javobgarlik, mehnatsevarlik, maqsadga erishish, o'ziga ishonish kabi shaxsiy sifatlarini o'z ichiga oladi - deb hisoblasa, boshqa birlari esa, kompetentlik tuzilmasiga motivatsion-qadriyatli sohani ham kiritish zarur, chunki bu soha bilimlarga egalik darajasini aniqlaydi - deb hisoblaydi.

Shunday qilib, kompetentlikning qayd etilgan tashkil etuvchilari insonning kasbiy faoliyatida, kasbiy muloqotida, o'z kasbining ustasi sifatida shakllanib yetishganligini anglatadi. Bo'lajak mutaxassis kasbiy kompetentligining shakllanishi nafaqat o'quv predmetlari ro'yxati, balki, fanni o'zlashtirish jarayonida shakllanadigan kasbiy ko'nikma va bilimlar, shuningdek, talabaning ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotdagi faol o'rnidan iborat ta'lim mazmuni orqali amalga oshiriladi. Buning barchasi majmuaviy holda, bo'lajak pedagog shaxsini shunday tarbiyalaydiki, u o'z-o'zini rivojlantirish va o'z komilligi ustida ishlay olish usullariga ega bo'ladi, bu esa, o'z vaqtida pedagogga «inson-inson» tizimida kasb ustasi - sub'yekti sifatida samarali faoliyatni ta'minlaydi. Bugungi kun talablariga javob bera oladigan, zaruriy sifatlar, bilim va ko'nikmalarga ega kompetentli mutaxassisni tayyorlash ilmiy asoslangan mos o'qitish tizimini yaratmasdan mumkin emas. Mutaxassisning kompetentligini ta'riflashga turlicha yondashuvlar mavjud. Masalan, N.F. Talizinaning nuqtai nazaricha, u uchta asosiy tarkibiy qismlarga (sifatlar, bilimlar, ko'nikmalar) mos kelishi kerak. Ularga quyidagilar kiradi: Sifatlar: ishga munosabatni ifodalovchi: mehnatsevarlik, e'tiborlilik, ijodiy yondashuv; hatti-harakat va faoliyatning umumiy maromini tavsiflovchi: ijrochilik, mustaqillik, so'ziga sodiqlik, obro'lilik, faollik va shijoatlilik; aqliy

qobiliyatlar: egiluvchanlik, zukkolik, uzoqni ko'ra bilishlik; ma'muriy-tashkiliy: ish muhitini yaratish ko'nikmasi, insonlarga rahbarlik qilish ko'nikmasi, jamoani himoya qilish, insonlarni farqlay olish, ularni ishonтира olish ko'nikmasi; insonlarga munosabatni tavsiflovchi: rostgo'ylik, tarbiyalilik; o'ziga munosabatni tavsiflovchi: talabchanlik, kamtarlik, dadillik, mukammallik. Bilimlar: o'z mutaxassisligi bo'yicha kasbiy, umummadaniyat, kasbiy faoliyat haqida ma'lumotlilik. Ko'nikmalar: qo'yilgan masalalarni yechish, adabiyotlar bilan ishlash, faoliyatni rejalashtirish. Bu ro'yxat faoliyat turiga qarab to'ldirilishi yoki qisqartirilishi mumkin. Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisining quyidagi asosiy kompetensiyalari ajratiladi: o'quv-bilish, axborotli, kommunikativ, ijtimoiy-foydali, shaxsiy o'z-o'zini takomillashtirish. Bularning barchasi bitiruvchiga kasbiy bilim, ko'nikma va keyingi hayotda faoliyat usullari uchun ongli ravishda qo'llash imkonini beradi. Kompetentlik - insonning faoliyatli tavsifi, shuning uchun uning tasniflanishi eng avvalo, faoliyat tasnifiga mos bo'lishi kerak. Umumiy holda bular mehnat, o'quv, o'yin va kommunikativ kompetentliklar. Bularga yana quyidagilarni qo'shimcha qilish mumkin:

- kompetentlikni faoliyatning yo'naltirilgan ob'yekti bo'yicha tasniflash, u «inson-inson», «inson-texnika», «inson-badiiy obraz», «inson-tabiat», «inson-belgili tizim» sohalarida kompetentlikni beradi;
- kasblarning alohida sinflari va guruhlarini sohasidagi kasbiy kompetentlik;
- aniq faoliyat (mutaxassislik) dagi predmetli kompetentlik.

Jamiyatning turli sohalarida esa quyidagi maxsus kompetentliklar ham talab etiladi: maishiy xizmat sohasida, san'at sohasida, sport sohasida va boshqalar. «Bilimlilik» tavsiflari ham kompetentlikka kiradi va ijtimoiy bilimlar sohasi (matematika, fizika, gumanitar fanlar, biologiya va boshqa fanlar sohasida kompetentlik), ishlab chiqarish sohalar (energetika, transport, aloqa, mudofaa, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalar) bo'yicha tasniflanadi. Psixologik tavsif sifatida kompetentlik tushunchasi nafaqat kognitiv (bilimlar) va operatsion-texnologik (faoliyatli), balki motivatsion-etnik, ijtimoiy va axloqiy tashkil etuvchilarni ham o'z ichiga oladi. Kompetentlikning asosi qobiliyatlardan iborat bo'lganligi uchun ularning har biri o'z kompetentligiga mos kelishi kerak. Qobiliyatlar eng umumiy ko'rinishlari bilan kompetensiyaning jismoniy madaniyatdagi, aqliy sohadagi, umumo'quv, amaliy, ijrochilik, ijodiylik, badiiy, texnik, shu bilan birga pedagogik-psixologik, ijtimoiy va boshqa ko'nikmalariga mos keladi.

Kompetentlik ta'lim muassasasi o'qituvchilarining ma'naviy dunyoqarashi, psixologik-pedagogik va tashkiliy-texnologik salohiyati ya'ni uning kasbiy imkoniyatlarini ifodalaydi. Kasbiy imkoniyatni esa, ta'lim muassasasi o'qituvchilari pedagogik faoliyati jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ular tomonidan tashkil etilayotgan pedagogik jarayonlarning holati va samaradorligi orqali aniqlash mumkin.

Professional ta'limda tayanch kompetensiyalar (soft skills) hamda maxsus kompetensiyalar (hard skills) ni mazmuni quyidagilardan iborat.

“Soft” ingliz tilidan tarjima qilinganda “yumshoq” degan ma'noni anglatadi. Bundan tashqari, “hard skills” tushunchasi ham mavjud bo'lib, “hard” ingliz tilida “qattiq” ma'nosini beradi. Majoziy talqinda tushuntirilsa, kompyuterning ishlashi uchun asosan ikkita komponent zarur. Ingliz tilida bular “Hardware”, ya'ni kompyuter qurilmasi va uning qo'shimcha qurilmalari hamda “Software” ya'ni dasturiy ta'minotdir. Kerakli dasturlar bo'lmasa, kompyuter qurilmasi shunchaki mashinaligicha qolaveradi. Shu singari, inson hayoti va faoliyatida zarur bo'lgan ikkita muhim ko'nikma hamda malakalar mavjud. Bular – “hard skills” va “soft skills”. “Hard skills” ta'lim muassasasida fanlarni o'zlashtirish natijasida o'rttirilgan hamda kasbiy-professional faoliyatni olib borish uchun zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalar tizimidir. Sodaroq qilib tushuntirganda, masalan, oshpazning “hard skills” bo'yicha ko'nikma va malakalari – bu ovqat pishira olish, ovqatni mazali tayyorlay olish va h.k. Axborot texnologiyalari bo'yicha mutaxassisning “hard skills” bo'yicha ko'nikma va malakalari esa – bu kompyuter dasturiy ta'minoti bilan ishlay bilish, axborotni qayta ishlay olish va hokazo. Insonning “hard skills” bo'yicha ko'rsatkichi odatda ta'lim muassasasini tamomlagach beriladigan diplomi ilovasida aks etadigan baho yoki ballarida namoyon bo'ladi. Demak, ularni baholash mumkin va oson. “Soft skills” esa, aytilganidek, shaxslarning o'zaro munosabatlarida zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalar tizimidir. Bularga misol qilib samarali muloqot qila olish, diqqat bilan tinglay olish, empatiya, jamoada ishlay bilish, liderlik, vaqtni boshqarish, maqsad qo'yish va boshqalarni sanash mumkin. Ularni baholash murakkabroqdir. Odatda ish beruvchilar ishga qabul qilishda intervyudan o'tkazish jarayonida bo'lajak xodimlarida bunday ko'nikma va malakalarning mavjudligini tekshirib ko'radilar. Ularga psixologik savollar beradilar. Bunday amaliyot asosan rivojlangan xorijiy davlatlarda uchraydi. Insonga “Hard skills” va “soft skills” bir xil darajada zarurdir. Ularni ishga kirish maqsadida taqdim etiladigan rezyumeda aks ettirish intervyudan oldin ish beruvchida bo'lajak xodim haqida muayyan tasavvurning paydo bo'lishiga olib keladi.

Ko'pgina davlatlarda “soft skills” bo'yicha alohida modul o'tilmaydi. Unga dahldor bo'lgan malaka va ko'nikmalarni shakllantirishga turli fanlar kesimida e'tibor beriladi. Holbuki, ish beruvchilar ishga olayotgan insonlar “soft skills” bo'yicha qanday malaka va ko'nikmalarga ega ekanliklariga ko'proq qiziqish bildirmoqdalar.

Zamonaviy axborot texnologiyalarga asoslangan o'quv jarayonida asosiy ta'lim oluvchining berilgan murakkab o'quv axborotlaridan osonlik bilan foydalana olishga yordam berish, ta'lim oluvchilarni



mustaqil ta'lim olish faoliyatiga imkoniyat yaratish vazifalarini bajaradi. Shularni hisobga olgan holda zamonaviy ta'lim tizimida o'quv jarayoni va unda o'qituvchining ish faoliyatini rejalashtirishga doir ilmiy ishlarni keng doirada olib borish kerak deb hisoblaymiz va bu o'z samarashini ko'rsatadi. Bugungi zamonaviy ta'lim tizimi pedagogdan o'qituvchi va o'quvchi orasidagi o'zaro individual munosabat va zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlari ta'sirini faollashtirishni talab etmoqda. Ta'lim jarayonida zamonaviy informatsion va telekommunikatsion texnologiyalarni faol qo'llash o'quv jarayonida o'qituvchining o'rni, roli va pedagogik faoliyatini ma'lum darajada o'zgartirishga olib keladi.

Adabiyotlar:

1. Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: "Sano-standart", 2015. – 120 b.
2. Muslimov N.A., Qo'ysinov O.A., SH.Abduraxmonov, Abdullayeva Q.M., Gaipova N.S. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini metodik kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 6,75 b.t.
3. K Shakhnoza, K Makhbuba Interactive technologies as a means to improve the efficiency and quality of the educational process. International Journal of Human Computing Studies 3 (2), 182-186.
4. SH Kuliyeva IMPROVING TEACHING AIDS IN THE TRAINING OF FUTURE TECHNOLOGY TEACHERS. International Journal of Early Childhood 14 (03), 2022.
5. El papel de las tecnologías pedagógicas modernas en la formación de la competencia comunicativa de los estudiantes. KS Halimovna, MO Nurilloevna, KD Radzhabovna, RG Shavkatovna Religación. Revista de Ciencias Sociales y Humanidades 4 (15), 261-266.
6. Ш.Х. Кулиева Аксиологический подход в профессионально-педагогической подготовке будущего учителя Казанский педагогический журнал, 48-52.

ХОЗИРГИ ДАВР ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИ ИННОВАЦИОН БОШҚАРИШДА ХОРИЖИЙ ТАЖРИБАЛАРНИНГ РОЛИ

Сохибов Акрам Рустамович

Қариш давлат университети п.ф.н., доцент

Аннотация: Мазкур мақолада инновацион иқтисодий шакллантириш шароитларида ОТМни инновацион ривожлантириш жараёнларини бошқариш, бунда раҳбарларнинг тутган ўрни, олий таълимнинг глобаллашуви жараёнларида олий таълим тизимини бошқаришда юзага келган ёндашувлар, бу борадаги хорижий тажрибалар баён этилган, шунингдек, ОТМ раҳбарларининг инновацион компетенциялари ва уларни ривожлантиришнинг асосий йўналишлари тавсифлаб берилган, ОТМ ларда инновацион, илмий-педагогик ва илмий-тадқиқотчилик жараёнларини бошқариш фаолияти таҳлили амалга оширилган ҳамда ОТМ ларда инновацион ривожланиш жараёнларини бошқаришда юзага келадиган низоли вазиятларни мониторинг қилиш, уларни ҳал этиш технологияларида фойдаланиш орқали инновацион ривожлантириш жараёнида раҳбарларнинг иштироки самарадорлигини ошириш бўйича баъзи таклиф ва тавсияларни ишлаб чиқишга ҳаракат қилинган.

Таянч сўз ва иборалар: инновацион иқтисодий, рақамли бошқарув, ОТМ ни инновацион ривожлантириш, бошқариш, раҳбарлар, глобаллашув, олий таълим тизимини бошқариш, конфликт жараён, хорижий тажрибалар, ОТМ раҳбарларининг инновацион компетенциялари.

Abstract: The processes of managing of innovative development in higher educational institutions in the conditions of formation of innovative economy, the roles of managers of the institutions, approaches to the management of the higher educational system in the process of globalization, and experiences of foreign countries in this field have been described in the article. Also, the analysis of the activity of management of innovative, scientific-pedagogical and scientific-research processes in higher educational institutions has been carried out. It has been attempted to develop some suggestions and recommendations for Monitoring of conflict situations in the management of innovative development processes in higher education, increasing the effectiveness of leaders' participation in the process of innovative development using technologies of resolving them.

Key words: processes of managing, of innovative development, manager, innovative economy, higher educational system, process of globalization.

Аннотация: В данной статье рассматриваются современные методологические основы управления высшим образованием в эпоху цифровизации. Обосновано место и процесс развития инновационного управления руководителей вуза. Указано процессы инновационного развития в условиях цифровой экономики руководителей вузов республики. Анализировано конфликтные ситуации в управлении инновационного развития и указаны пути, креативности руководителей высшего образования. Также даётся заключение и приложения в пути экономического развития современных методологических основы управления высшим образованием в эпоху цифровизации.

Ключевые слова: методология, управление, цифровизация, процесс, развитие, инновация, инновационное развитие, цифровая управление, анализ, конфликтные ситуации, креативность, заключения, приложения, экономическое развитие, современные методологические управления высшего образования.

Рақамлаштириш ва инновацион иқтисодий шакллантириш шароитларида мамлакатимиз олий таълим муассасаларидаги бошқариш жараёнлари самарадорлигини ошириш учун ҳозирги кунда турли хил ички ва ташқи имкониятларни ишга солиш кун талабига айланди. Бу борада янгича типдаги олий таълим муассасаларини юзага келтириш, олий таълим муассасаларини халқаро олий таълим хизматлари бозорида рақобатбардош таълим муассасалари сифатида ўзларининг муносиб ўрнини эгаллашлари учун миллий анъаналар, кадриятлар ва тажрибалар билан бир қатор илғор хорижий мамлакатлардаги олий таълим муассасаларини бошқариш соҳасидаги тажрибаларни ҳам ўрганиш фойдадан холи бўлмайди. Шу билан бир қаторда мазкур хорижий тажрибаларнинг энг яхши намуналарини миллий олий таълим тизимининг ўзига хос хусусиятларини инобатга олиган ҳолда жорий қилиш вариантларини ҳам ишлаб чиқиш зарур бўлади.

Бу ўринда биринчи навбатда дунё тарихида доимий равишда иқтисодий, ижтимоий ва маданий ривожланиш ўчоқларидан бири бўлиб саналиб келган Европа мамлакатларидаги олий таълим тизимини ислох қилиш, уларда замонвий университетларнинг қадим даврдан бери то ҳозирги кунларгача босиб ўтган узоқ таълим тарихига диққат қаратиш лозим саналади. Бунда Европа мамлакатлари олий таълим муассасаларида университетларни бошқаришнинг анъанавий ва замонвий моделлари шаклланганлигига эътибор қаратиш керак бўлиб, бу Европа олий таълим муассасаларининг инновацион, рақобатбардош ва сифатли олий таълим бера оладиган муассасага айланиш жараёнларини тушуниб олишга ёрдам беради.

Европадаги университетларни бошқаришнинг анъанавий модели гумбольдт модели асосида амалга оширилиб, профессорлар таркибининг кучли таъсири билан ажралиб турар эди. Бунда университетда бошқарувнинг юқори органи бўлиб кўпинча турли хил факультетлар ва департаментлардаги профессор-ўқитувчилардан иборат бўладиган Сенат ҳисобланар эди.

Университет раҳбари (ректор) одатда “тенглар ичидаги биринчи” вазиятини эгаллаб, унинг олий таълим муассасаси ичидаги ижро ҳокимияти бирмунча бўшроқ бўлар эди. Европа университетларида бундай вазиятларда ташқи кенгаш мавжуд бўлмас, агар мавжуд бўлганида ҳам кўпинча фақат маълум бир тадбирлардаги функцияларнигина бажарар эди.

Европа университетларининг гумбольдтча анъанавий моделида профессор-ўқитувчилар амалда университет ҳаётига тааллуқли бўлган барча масалалар – биринчи ўринда университет ривожланишининг ўз нуқтаи-назаридан қўриладиган тасаввурларини химоя қилиш борасида қарорларни қабул қилар эдилар. 1990-2000 йилларга келиб эса европача анъанавий университетлар фаолиятини бошқаришнинг ислоҳ қилинишига олиб келган катта ўзгаришлар ва шарт-шароитлар вужудга келди. Мана шу вақтдан бошлаб Европа олий таълим муассасалари ичида университет иш фаолиятининг сифатини баҳолайдиган ва ўз ичига олий таълим муассасасини бошқаришда иштирок этиш моделининг элементларини олган янгича типдаги модель жорий этила бошланди.

Бу ерда Европа илм-фани соҳасининг байроқдори бўлган университетларнинг ислоҳ қилинишига олиб келган сабаблар ва бундан кўзланган мақсад-вазифаларга алоҳида тўхталиб ўтиш лозимдир. Биринчи ўринда нима учун Европада 2000-йиллар бошларига келиб миллий университетларни ислоҳ қилиш зарурати пайдо бўлганлиги масаласига жавоб топиш зарур.

Бу даврларга келиб Европанинг ҳам алоҳида давлатларида, ҳам бутун Европа Иттифоқи бўйлаб умуман олганда “янгича оммавий менежмент” моделига ўтилиши мақсадида давлат бошқарувининг деярли барча соҳаларида ислоҳотларни амалга ошириш бошланди. Бу жараён шу жумладан, Европа таълим тизимининг ва инновацион жараёнларининг таянчи бўлган университетларда ҳам амалга оширила бошланди.

Янги натижаларга эришишнинг бош механизми бўлиб университетлар фаолиятининг натижаларига боғлиқ ҳолда уларни молиялаштириш тизимининг жорий этилиши санала бошланди. Бу эса ўз навбатида асосан манфаатдор ташқи гуруҳларни жалб қилиш йўли билан натижаларнинг баҳолалинини ишлаб чиқишни талаб қилди.

Шу нарса кўзда тутилдики, бозор шарт-шароитларининг яратилиши университетларни қарорлар қабул қилишнинг янги моделларини тузиб чиқишга ва бошқарув стратегиясини ривожлантиришга кўпроқ диққат қаратишга мажбур қилади. Бунга қўшимча тарзда халқаро таълим хизматлари бозоридаги рақобатчилик ҳам кучайиб кетди. Шунга мос ҳолда халқаро университетлар рейтинглари пайдо бўлиб, уларда юқори позицияларни АҚШ университетлари эгаллаб ола бошлади, Европадаги олий таълим муассасалари эса уларга бир нечта позициялар бўйича ютқаза бошлаб, рейтингларда пастга туша бошладилар. Бу эса шунга олиб келдики, Европадаги қўллаб-мамлakatларнинг ҳукуматлари “ўз бағрида Гарвард”ни ташкил этиш бўйича пойгага қўшилиб кетдилар.

Европа олий таълим муассасаларидаги ислоҳотларнинг асосий мақсади университетларни “институциональ актор”ларга айлантиришдан иборат бўлди. Бу университетнинг давлатдан нисбатана мустақиллигини ва ўзининг ривожланиш стратегиясини мустақил ишлаб чиқишини, халқаро олий таълим хизматлари бозорида рақобатбардошлиликка эришишни кўзда тутар эди.

Pedagogik faoliyat doimiy ijodkorlik jarayonidir. Ammo boshqa sohalaridagi (fan, texnika, san'at) ijodkorlikdan farqli o'laroq, pedagogning ijodi ijtimoiy qimmatli yangi, o'ziga xoslikni yaratishni maqsad qilib qo'ymaydi, chunki uning mahsuli doimo shaxsning rivojlanishidir. Albatta, ijodiy ishlaydigan pedagog va undan ham ko'proq novator pedagog o'zining pedagogik tizimini yaratadi, ammo bu ma'lum sharoitlarda eng yaxshi natijaga erishish vositasidir.

Ijodkorlik bir biridan farq qiladi. Bu shaxsning ijodiy salohiyati bilan bog'liq bo'lib, agar pedagog haqida gapiradigan bo'lsak, uning to'plangan ijtimoiy tajribasi, psixologik, pedagogik va fan bilimlari, yangi g'oyalar, ko'nikma va malakalar asosida shakllanadi, bu esa o'ziga xoslikni topish va yechimlar, innovatsion shakl va usullar va shu orqali o'z kasbiy funksiyalarining bajarilishini takomillashtirish, qo'llash imkonini beradi. Boshqa tomondan, tajriba shuni ko'rsatadiki, ijodkorlik faqat mehnatga fidokorona munosabatda bo'lgan, o'z kasbiy malakasini oshirishga, bilimlarni to'ldirishga va individual pedagoglarning ham, butun pedagoglar jamoasining ham tajribasini o'rganishga intiladigan kishilarda mavjud bo'ladi.

Har qanday shaxsning, shu jumladan pedagogning ijodiy salohiyati ijodiy shaxsning belgilari deb ataladigan bir qator shaxsiy xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, psixolog va pedagog olimlar bunday xususiyatlarning turli xil ro'yxatlarini beradilar. Ular insonning vaziyatlardagi muqobil variantlarni anglash va shakllantirish, birinchi qarashda aniq ko'ringan narsaga shubha qilish, yuzaki tavsiflardan qochish qobiliyatini ta'kidlaydilar; muammoni chuqur o'rganish va ayni paytda haqiqatdan uzoqlashish, kelajakni ko'rish qobiliyati; obro' olishga intilmaslik; tanish ob'ektni mutlaqo yangi nuqtai nazardan, yangi kontekstda ko'rish qobiliyati; faqat nazariy mulohaza qilishdan, qora va oqqa bo'linadigan hukmlardan voz kechish, yangilikni izlash maqsadida odatiy hayot tarzi va barqarorligidan uzoqlashishga tayyorlik xususiyatlarida namoyon bo'ladi.

Boshqa mualliflar ijodiy shaxsning belgilarini assotsiatsiyalash qobiliyati bilan bog'laydilar (fikrlarni tez va erkin almashtirish qobiliyati, ongda tasvirlarni uyg'otish va ulardan yangi kombinatsiyalar yaratish qobiliyati); mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyati (uni tekshirishdan oldin ko'plab muqobil variantlardan birini tanlash, qarorlarni amalga oshirish qobiliyati); Xotiraning doimiy tayyorligi (yetarli darajada katta hajmdagi tizimlashtirilgan bilimlarni o'zlashtirish, bilimlarning tartibiligi va dinamizmi) va operatsiyani qisqartirish, keraksiz narsalarni umumlashtirish va bekor qilish qobiliyatining mavjudligida ko'radilar.

Uchinchi mualliflar shaxsni uning muhim xususiyati ijodkorlik, bajarilayotgan faoliyatni ijodiy jarayonga aylantirish qobiliyatini ijodiy deb hisoblaydilar.

Tashkilotchi ijodiy shaxs jamoada yangi g'oyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish qobiliyatini rivojlantirishning yuqori darajasiga egaligi bilan tavsiflanadi. Ana shunday insonlar rahnamoligida o'ziga xos ilmiy maktablar, ijodiy jamoalar yaratilmoqda. Ushbu turdagi odamlar yuqori energiya, xushmuomalalik, boshqalarni o'z irodasiga bo'ysundirish va ularni katta ijodiy muammolarni hal qilishga yo'naltirish qobiliyati bilan ajralib turadi.

Pedagogik ijodning namoyon bo'lish sohasi pedagogik faoliyatning tuzilishi bilan belgilanadi va uning barcha tomonlarini qamrab oladi: konstruktiv, tashkiliy, kommunikativ va gnostik. Biroq, pedagogik faoliyatda ijodkorlikni amalga oshirish uchun bir qator shartlar zarur bo'ladi:

- pedagog ijodining talabalar va boshqa pedagoglar ijodi bilan uyg'unligi;
- kechikkan natijalar va ularni bashorat qilish zarurati;
- ommaviy chiqish muhiti;
- standart pedagogik texnika va atipik vaziyatlarning doimiy o'zaro bog'liqligi zarurati.

Xulosa sifatida aytish mumkinki pedagogik ijod deganda o'zgaruvchan sharoitlarda pedagogik muammolarni hal qilish jarayoni tushuniladi. Tipik va nostandart vazifalarning son-sanoqsiz majmuini hal qilishga murojaat qilgan holda, pedagog, har qanday tadqiqotchi kabi, o'z faoliyatini evristik

qidiruvning umumiy qoidalariga muvofiq quradi: pedagogik vaziyatni tahlil qilish; natijani dastlabki ma'lumotlarga muvofiq loyihalash; taxminni sinab ko'rish va kerakli natijaga erishish uchun zarur bo'lgan mavjud vositalarni tahlil qilish; olingan ma'lumotlarni baholash; yangi vazifalarni shakllantirish asosida o'z faoliyatini amalga oshiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бордовская Н.В., Реан А.А. Педагогика. Учебник для вузов. - СПб: Питер, 2000.
2. Гороя В.И., Антонова Н.А., Харченко Л.Н. Творческая индивидуальность учителя и её развитие в условиях повышения профессиональной квалификации. - Ставрополь: Сервисшкола, 2005.
3. Маркова А.К. Психология труда учителя. - М.: Просвещение, 1993.
4. Пастарнак М.П. Педагогическое творчество.
5. Педагогика и психология высшей школы. - Ростов-на-Дону: Феникс, 2002.
6. Фокин Ю.Г. Преподавание и воспитание в высшей школе: Методология, цели и содержание, творчество. - М.: Академия, 2002.

TURLI SIBLING MAQOMIDAGI O'SMIRLARNING NIZOLI VAZIYATDAGI XULQ USLUBINI O'ZIGA XOSLIGI*G'ayibova Nargiza Anorbaevna**O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi Din psixologiyasi va pedagogika kafedrası v.b.dotsenti psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya: Maqola o'smirlar sibling maqomining tengdoshlari bilan shaxslararo munosabatlariga ta'sirini ilmiy asoslash va har tomonlama o'rganishga, shuningdek, ularning ijtimoiy-psixologik xususiyatlaridagi farqlarni tasniflashga bag'ishlangan. Unda oilaviy munosabatlarning, jumladan, sibling munosabatlarning shaxs shakllanishidagi o'rni hamda turli sibling maqomidagi o'smirlarning nizoli vaziyatlardagi xulq-atvorining o'ziga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: oila, o'smir, sibling maqomi, nizoli vaziyat, shaxslararo munosabatlar, raqobat, hamkorlik, murosa, yon bosish, nizodan qochish,

ОСОБЕННОСТИ СТИЛЯ ПОВЕДЕНИЯ В КОНФЛИКТНЫХ СИТУАЦИЯХ ПОДРОСТКОВ С РАЗНЫМ СИБЛИНГОВЫМ СТАТУСОМ*Гайбובה Наргиза Анорбаевна**Международная исламская академия Узбекистана, Доцент кафедры "Психология религии и педагогика", доктор философии психологических наук (PhD)*

Аннотация. Статья посвящена научному обоснованию и всестороннему изучению влияния sibling-ового статуса подростков на межличностные отношения со сверстниками, а также классификации различий их социально-психологических характеристик. Описывается роль семейных отношений, в том числе sibling-овых отношений, в формировании личности, а также особенности социально-психологического поведения подростков с разным sibling-овым статусом в конфликтных ситуациях.

Опорные понятия: семья, подросток, sibling-овый статус, конфликтная ситуация, межличностные отношения, конкуренция, сотрудничество, компромисс, компромисс, избегание конфликта

FEATURES OF THE STYLE OF BEHAVIOR IN CONFLICT SITUATIONS OF ADOLESCENTS WITH DIFFERENT SIBLING STATUS*Gaibova Nargiza Anorbaevna**Doctor of Philosophy of Psychological Sciences (PhD), Associate professor (PhD) of the Department of «Religious psychology and pedagogy» of the International Islamic Academy of Uzbekistan*

Annotation: The article is devoted to the scientific substantiation and comprehensive study of the influence of the sibling status of adolescents on interpersonal relationships with peers, as well as the classification of differences in their socio-psychological characteristics. The role of family relations, including sibling relations, in the formation of personality is described, as well as the features of the socio-psychological behavior of adolescents with different sibling status in conflict situations.

Key words: family, adolescent, sibling status, conflict situation, interpersonal relationships, competition, cooperation, compromise, compromise, conflict avoidance.

Oila - har bir shaxsda ilk yoshligidan boshlab shakllanadigan insoniy fazilatlar, ezgu-istaklar, qadriyatlar kamol topadigan, ming yillar davomida shakllangan xalqning qadriyatlari va ma'naviy merosi ravnag'ini ta'minlovchi tarbiya maskanidir. Ota-onalar munosabatlarida namoyon bo'luvchi o'zaro hurmat, mehr-oqibat, halollik, poklik, mehnatsevarlik, insonparvarlik kabi oliy toifadagi qadriyatlar ularning o'zaro munosabatlarida uyg'unlasha borib, oilaviy munosabatlar maromini, oiladagi ijobiy muhitni vujudga keltiradi.

Oilada shakllangan va sayqal topgan muloqot hamda nizoli vaziyatlardagi xulq uslubi farzandning oiladan tashqaridagi murakkab shaxslararo munosabatlarda o'z aksini topadi, xususan, tengdoshlari bilan bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladi. Ma'lumki, o'smirlik davrida tengdoshlar bilan muloqot yetakchi faoliyat bo'lib, mazkur shaxslararo munosabat tenglikka asoslanib, o'smir bunda o'ziga xos ijtimoiy munosabatlar maktabini o'taydi. Bu davrda do'stlar bola uchun ota-ona va boshqa oila a'zolaridan ko'ra muhimroq bo'ladi.

Ijtimoiy hayotda, xususan oilaviy munosabatlarda ham ayrim alohida nizolar, o'zaro kelishmovchiliklarni bo'lib turishi muqarrar. Shuning uchun ba'zan olimlar ziddiyat yoki nizolarning nafaqat salbiy, balki ijobiy tomonlari ham bo'lishi mumkinligini ochiq e'tirof etadilar. Masalan, G.Andreeva ayrim ziddiyatlarning konstruktiv oqibatlari to'g'risida yozadi. Uning fikricha, ba'zan ikki shaxs o'rtasida kelib chiqqan nizo ularning istiqbolda to'g'ri xulosa chiqarib, shunday harakatni boshqa qaytarmaslikka, omilkorlikka, xushyorlikka undaydi. Yoki bir qarashda tanbehga asoslangan shaxslararo ziddiyat shaxsni o'z ustida muttasil ishlashga, o'z xulqini o'zi tuzatishiga sabab bo'ladi.

Oilada bir necha farzand bo'lgach, ularning orasida nizoli vaziyatlar vujudga kelishi mumkin.

Ana shunday vaziyatlarda har bir sibling maqomining o'ziga xos jihatlarini o'rganish uchun "Oiladagi o'zaro kelishmovchiliklarga asosan kim sababchi bo'ladi, deb o'ylaysiz?", degan savolimizga olingan javoblardan o'smirlar o'zini nizoda aybdor sanab, o'z aybini ma'lum ma'noda anglashlari aniqlandi. O'rtancha farzandlar o'zlaridan keyingi o'rinda, ko'proq akasi yoki opalarini nizoning bosh sababchisi qilib ko'rsatganlar. Sibling maqomi bo'yicha salmoqli tahlilni amalga oshirgan olim A.Adlerning fikricha, o'rtancha farzandlar oilada o'zidan kichiklarga nisbatan katta akasi yoki opasi bilan ko'proq tortishuvga boradilar. Olima A.Qodirovaning tadqiqot ishi natijalari ham nizoni keltirib chiqaradigan munosabatlar uka, singildan ko'ra, aka yoki opaga yo'nalganligini ko'rsatadi.

"Oilangizda nizoli vaziyatni bartaraf etishda birinchi bo'lib kim yon bosadi?" degan savolimizga berilgan javobdan to'ng'ich farzandlarning oiladagi shaxslararo munosabatlarda, nizoli vaziyatlardagi xulq uslubining o'ziga xosligini ko'rish mumkin. To'ng'ich farzand maqomidagi o'smirlar bu savolga boshqa sibling maqomidagilarga nisbatan ikki baravar ko'proq "o'zim" javobini belgilaganlar. Bu to'ng'ich farzandlarning bolaligidan ota-onasining munosabatlarini yomon tomonga o'zgarishidan xavotirlanishini, ota-onalarining qistovi yoki farzandlarning kattasi ekanligidan nizoli vaziyatni bartaraf etishni vazifasi, deb bilgani uchun kichiklarga yon bosib o'rganganligini ko'rsatadi.

Tengdoshlari bilan bo'ladigan shaxslararo munosabatlar sohasida vujudga keladigan nizolar o'smirlar tomonidan emotsional affektiv tarzda qabul qilinadi. Bu esa barkamol shaxs kamolotiga to'sqinlik qilib, o'smirlarning hayotiy faoliyati samarasizligiga sabab bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra, o'smirlarning tengqurlari bilan bo'ladigan shaxslararo munosabatlariga ta'sir etuvchi omillar qatorida uning sibling maqomi ta'sirini ilmiy jihatdan o'rganish o'ta muhim masalalardan biridir. Shuning uchun ham biz tadqiqotimiz vazifalaridan biri sifatida turli sibling maqomidagi o'smirlarning nizoli vaziyatdagi xulq uslubini o'rganishni belgilab olgan edik. Shu maqsadida biz tadqiqotimizda amerikalik sotsiolog K.Tomasning shaxs so'rovnomasi yordamida har bir sibling maqomidagi, ya'ni to'ng'ich, o'rtancha, kenja va yolg'iz farzandlarning nizoli vaziyatdagi xulq uslubini o'rgandik. So'rovnoma javoblari asosida turli sibling maqomidagi o'smirlarning hamkorlikka yoki raqobatga moyilligi, murosaga (kompromiss, yon bosishga) tayyorligi, nizolardan qochishi yoki ularni keskinlashtirishga intilishi kabi sifatning namoyon bo'lish darajasini aniqladik.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, yolg'iz farzandlar natijalari boshqa sibling maqomidagilar natijalaridan, ayniqsa o'rtancha farzandlar natijalaridan ko'pgina shkalalarda farq qiladi. Bizningcha, bunga sabab, o'rtancha farzand sibling munosabatlari va maqomi yolg'iz farzand sibling maqomidan tubdan farq qilishida bo'lsa kerak. Chunki o'rtancha farzand o'zidan katta aka yoki opasi va o'zidan kichiklarga uka yoki singlisi bilan sibling munosabatlarga kirishadi.

Tadqiqot ishida o'smirlarning nizoli vaziyatdagi xulq uslubini o'rganish natijalarini Mann-Whitney-U mezonini bo'yicha qiyosiy tahlili amalga oshirildi va quyidagi xulosalar olindi:

1. Yolg'iz farzandlar natijalari boshqa sibling maqomidagilar natijalaridan, ayniqsa, o'rtancha farzandlar natijalaridan raqobat, murosaliqlik, moslashuvchanlik shkalalarida farq qiladi.

2. Raqobat shkalasida oilada sibling munosabatlarga ega o'smirlar, ya'ni to'ng'ich, o'rtancha, kenja farzandlar bilan yolg'iz farzandlar natijalarida ahamiyatli farqlar kuzatildi. Bu yolg'iz farzandlarda nizoli vaziyatlarda raqobat qilish sibling munosabatlarga ega o'smirlarga nisbatan yuqori ekanini bildiradi.

3. Murosaliqlik shkalasida ahamiyatli farqlar o'rtancha, kenja va yolg'iz farzandlar natijalari qiyosiy tahlilida kuzatildi. Bunga ko'ra, o'rtancha va kenja farzandlarda murosaga qilish yolg'izlarga nisbatan yuqori ekan.

4. Tortishuvdan qochish shkalasi bo'yicha o'rtancha va kenja farzandlar natijalarining qiyosiy tahliliga ko'ra, ahamiyatli farq kuzatildi, ya'ni nizoli vaziyatlardan qochish o'rtancha farzandlarda kenja farzandlarga nisbatan yuqori ekanini aniqlandi.

5. Moslashish shkalasi bo'yicha olingan natijalar tahliliga ko'ra, yolg'iz farzandlarga nisbatan nizoli vaziyatga moslashish o'rtancha farzandlarda yuqori ekanini aniqlandi. Sibling munosabatlarni ijobiy saqlash gohida boladan yon bosishni, o'z manfaatidan kechib bo'lsa-da nizoni hal qilishni talab etadi. Bundan xulosaga kelish mumkinki, sibling munosabatlarga ega bo'lgan o'smirlarda moslashish, yon bosish sifatleri yolg'iz farzandlarga nisbatan yuqori.

Tadqiqotdan olingan natijalardan shuni xulosa qilish mumkinki, o'smirlarning nizoli vaziyatdagi xulqi uslubiga uning sibling maqomi va oiladagi mavqeining ayrim jihatlari ta'sir ko'rsatgan ekan. Ayniqsa, bu ta'sir sibling munosabatlardan xoli bo'lgan yolg'iz farzandlar xulqida yaqqolroq namoyon bo'lishiga guvoh bo'ldik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Адлер А. Как управлять стремлением к превосходству / Возрастная психология: Детство, отрочество, юность: Хрестоматия: Учеб. пособие для студ. пед. вузов – М.: "Академия", 2000. – 624 с.

Anorbayevna G.N. Influence of the sibling status's of teenagers on interpersonal relations // European journal of education and applied psychology. – 2016. – №. 2. – С. 68-69.

Зырянова Н.М. Ранние сиблинговые исследования [Элек.ресурс] // Психологические исследования: электрон. науч. журн. 2008. N 2(2).

Крейг Г. Психология развития. – СПб.: Питер, 2000. – 992с.



- Karimova V., G'ayibova N. Oila psixologiyasi. // O'quv qo'llanma. – T., 2022. 232 b.
- G'ayibova N.A. Sibling maqomi va uning o'smir shaxslararo munosabatlariga ta'siri. Monografiya. – T.: 2020 – 114 b.
- Гайибова Н. А. ТЕХНОЛОГИЯ ВОСПИТАНИЯ ДЕТЕЙ С ДЕВИАНТНЫМ ПОВЕДЕНИЕМ //International scientific review. – 2020. – №. LXXIV.
- Gayibova N. A. Influence of the sibling statute's of teenagers on interpersonal relations //European Journal of Education and Applied Psychology. – 2016. – №. 2. – С. 68-69.
- Gayibova N. A. PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE FORMATION OF SIBLING RELATIONSHIPS IN ADOLESCENTS.
- Khamidovna K. Z. et al. Psychological Aspects Of The Development Of Ecological Ideas Among Students //Psychology and Education Journal. – 2021. – T. 58. – №. 2. – С. 7812-7818.

SPORTCHI SHAXSI SHAKLLANISHIDA: FAOLIYAT VA KARERA

Haqiqatbekov Zafar Shavkatbek o'g'li,
Nizomoy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada sport karerasi dinamik hodisa, doimiy o'zgaruvchan va rivojlanayotgan jarayon sifatida talqin qilingandir. Inson faoliyati turlarini ikkita katta guruhga bo'lib o'rganish mumkinligi ta'kidlangan. Umumiy faoliyat - o'yin, o'rganish, mehnat, muloqot, bilish esa - ko'p yoki kamroq darajada barcha insonlarga xosdir. Shaxsiy faoliyatga - insonlarning ma'lum guruhlariga xos bo'lgan kasbiy mehnatning o'ziga xos turlari, san'at, sport va boshqalar taalluqlidir. Sport karerasini yuqori sport yutuqlariga qaratilgan va bir yoki bir nechta sport turlarida insonning doimiy o'zini o'zi takomillashtirishi bilan bog'liq bo'lgan uzoq muddatli sport faoliyati deb ta'riflash mumkin. Unda sport kareralarining belgilari, u haqida olimlar qarashlari berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: karera, sport, shaxs, faoliyat, belgi, omil, sport psixologiyasi.

В СТАНОВЛЕНИИ ЛИЧНОСТИ СПОРТСМЕНА: ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ И КАРЬЕРА

Хакикатбеков Зафар,
Ташкентского государственного педагогического университета им. Низами

Аннотация: В этой статье спортивная карьера истолкована как динамичное явление, постоянно меняющийся и развивающийся процесс. Отмечено, что виды деятельности человека можно разделить на две большие группы. Общая деятельность - игра, обучение, труд, общение, познание - в большей или меньшей степени присуща всем людям. К индивидуальной деятельности относятся - специфические виды профессионального труда, искусства, спорта и др., присущие определенным группам людей. Спортивную карьеру можно определить как длительную спортивную деятельность, направленную на достижение высоких спортивных достижений и связанную с постоянным самосовершенствованием человека в одном или нескольких видах спорта. В нем приводятся признаки спортивной карьеры, взгляды ученых на нее.

Ключевые слова: карьера, спорт, личность, деятельность, характер, фактор, спортивная психология.

IN THE FORMATION OF AN ATHLETE'S PERSONALITY: ACTIVITIES AND CAREER

Khakikatbekov Zafar
Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

Abstract: In this article, a sports career is interpreted as a dynamic phenomenon, a constantly changing and developing process. It is noted that human activities can be divided into two large groups. Common activities - play, learning, work, communication, cognition - are more or less inherent in all people. Individual activities include specific types of professional work, art, sports, etc., inherent in certain groups of people. A sports career can be defined as a long-term sports activity aimed at achieving high sporting achievements and associated with the constant self-improvement of a person in one or more sports. It shows the signs of a sports career, the views of scientists on it.

Keywords: career, sport, personality, activity, character, factor, sports psychology.

Hozirgi vaqtda psixologiyada shaxsning hayot yo'lini o'rganishning turli jihatlariga qiziqish kuchaymoqda. Hayot yo'li an'anaviy tarzda "ob'ektiv makroiqtimoiy va mikroiqtimoiy sharoitlar majmuasi tufayli ma'lum bir davrda ma'lum bir jamiyatda shaxsning rivojlanishi va shakllanishi tarixi" deb ta'riflanadi. Insonning hayot yo'li ham psixologlar, ham boshqa fanlar vakillarining e'tiborini tortadi. Hayot yo'lini o'rganishning psixologik jihatiga kelsak, bu muammo rivojlanish psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya va shaxsiyat psixologiyasi nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. Bugun biz psixologik bilimlarning yangi tarmog'i - insonning hayot yo'li psixologiyasining paydo bo'lishi haqida so'zlashimiz mumkin.

Mutaxassis T.Bazarovning ta'kidlashicha, karera - insonning mehnat faoliyati jarayonidagi xulq-atvori va tanlagan yo'nalishi bilan bog'liq lavozim yoki kasbiy o'sishining natijasidir. Kareraga traektoriyami inson o'z mehnat hatgi-harakatlarining amalga oshirish jarayonida foydalanadigan shaxsiy maqsadlari, hoxish-istaklari, ustanovkalari orqali ko'radi va uni tashkilot ichi yoki tashqarisidagi haqqoniy faoliyat xususiyatlarida shakllantiradi. K.V.Karpinskiy ushbu muammoni ko'rib chiqib, biografik metodni asosiy usul sifatida belgilaydi, nazariy vazifa sifatida quyidagilarni nomlaydi: insonning hayot jarayonida shaxsiy hayot tarixini qanday qurishini, hayot sub'ekti sifatida shakllanishini tasvirlash, tushuntirish va bashorat qilish; Amaliy vazifalar sifatida - shaxsning psixobiografik shakllanishiga tashxis qo'yish, shaxsning aqliy rivojlanishidagi kechikishlar va og'ishlarni to'g'rilash, biografik inqirozlar paytida va undan keyin shaxsni psixologik rehabilitatsiya qilishda yordam ko'rsatish, ushbu maqsadlarni amalga oshirishdagi psixologik qiyinchiliklar bo'yicha maslahatlar berish. Shaxsning shaxsiy hayot yo'li. Sport faoliyati insonning hayot yo'lining faqat bitta jihatidir. Ushbu faoliyatning

davomiyliги hayotning muhim qismini qamrab olishi mumkin, shuning uchun u shaxsning shakllanishi va rivojlanishiga, uning taqdiriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu ta'sirning xususiyatlari va insonning sportdagi hayoti sport karerasi psixologiyasi tomonidan o'rganiladi. Biroq, insonning sport faoliyatining mazmunini tushunish uchun uni hayot yo'li psixologiyasi, inson rivojlanishining umumiy qonuniyatlari kontekstida ko'rib chiqish kerak.

Karera dinamik hodisa, ya'ni doimiy o'zgaruvchan va rivojlanayotgan jarayon. Sport karerasini yuqori sport yutuqlariga qaratilgan va bir yoki bir nechta sport turlarida insonning doimiy o'zini o'zi takomillashtirishi bilan bog'liq bo'lgan uzoq muddatli sport faoliyati deb ta'riflash mumkin.

Har qanday martabaning uchta muhim xususiyati mavjud:

1. har doim uzoq muddatli faoliyat yoki inson o'zi uchun tanlagan soha;
2. yuqori yutuqlarga, muvaffaqiyatga e'tibor qaratish;
3. ushbu sohada mavzuni takomillashtirish.

Sport karerasini qurishning bir nechta tamoyillari mavjud:

- bilim va ko'nikmalarni takomillashtirish. Ushbu tamoyil jamiyat manfaatlarini yo'lida faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish zarurligini anglash bilan bog'liq. Buning uchun mavjud kamchiliklarni, hayotda zarur bo'lgan fazilatlarini, ijodiy salohiyatni rivojlantirish uchun faoliyatni doimiy ravishda yo'q qilish istagi talab yetiladi;

- sportchining sport karerasining o'sishidagi o'z rolini bilishi.

Binobarin, ekstremal vaziyatlarda raqobatbardosh faoliyatga psixologik tayyorgarligi yuqori bo'lgan sportchilar kasbiy rivojlanish, mustaqillik, martaba, maksimal natijalarga erishish uchun kurashga qaratilgan, ular ish joyi va yashash joyining barqarorligini saqlashga unchalik e'tibor bermaydilar, ular ko'proq "mono" g'oyalarga ega odamlardir, ular hayotda bitta qiymatni afzal ko'rishadi.

Ekstremal vaziyatlarda raqobatbardosh faoliyatga psixologik tayyorgarligi past bo'lgan kuchli jang san'ati sportchilari, aksincha, ko'proq ish joyining barqarorligiga e'tibor qaratadilar, hayotdagi o'rmini qadrlashadi va u bilan xayrlashishni xohlamaydilar. Shu bilan birga, ular o'zlari uchun integratsiyaga intilish va turli xil turmush tarzini birlashtirish, kasbiy o'sishga intilish, raqobat, boshqalar ustidan g'alaba qozonish, paydo bo'layotgan to'siqlarni yengib o'tishga intilish, qiyin vazifalarni hal qilish uchun javobgarlikni o'z zimmlariga olish ("qiyinchilik" shkalasi bo'yicha yuqori qadriyatlar).

Inson faoliyatining barcha turlarini ikkita katta guruhga bo'lish mumkin: umumiy va shaxsiy. Umumiy faoliyat - o'yin, o'rganish, mehnat, muloqot, bilish esa - ko'p yoki kamroq darajada barcha insonlarga xosdir. Shaxsiy faoliyatga - insonlarning ma'lum guruhlariga xos bo'lgan kasbiy mehnatning o'ziga xos turlari, san'at, sport va boshqalar taalluqlidir.

Bunday faoliyatda bosib o'tiladigan yo'l kar'era deb ataladi. Har qanday karyeraning 3 ta belgisi mavjud.

Karyera belgilari:


- 1) bu insonning o'zi uchun tanlagan uzoq muddatli faoliyati;
- 2) bunday faoliyatning maqsadi yuqori yutuqlar, muvaffaqiyatlar;
- 3) bunday faoliyatni amalga oshirish jarayonida sub'ektning tanlangan sohada o'zini o'zi takomillashtirish nazarda tutiladi.

Shunday qilib, sport karyerasi yuqori yutuqlarga erishishga qaratilgan va sportchining bir yoki bir nechta sport turi bo'yicha doimiy ravishda o'zini o'zi takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan uzoq muddatli sport faoliyati sifatida belgilanishi mumkin. sport karyerasi psixologiyasi sport psixologiyasining bugungi kundagi asosiy muammolaridan biri bo'lib, u sport faoliyati sharoitida inson psixikasining namoyon bo'lishi va rivojlanishi qonuniyatlarini o'rganadi va tahlil qiladi.

Sport karyerasi psixologiyasi sport psixologiyasining asosiy muammolaridan biri bo'lib, u sport faoliyati sharoitida inson psixikasining namoyon bo'lishi va rivojlanishi qonuniyatlarini o'rganadi. Shu bilan birga, u:

- 1) psixologiya sohasining boshqa - umumiy, yosh, ijtimoiy, mehnat psixologiyasi;
- 2) sportga oid barcha fanlar - sport nazariyasi va sport mashg'ulotlari metodikasi, sport sotsiologiyasi, iqtisodiyoti, fiziologiyasi, tibbiyoti bilan uzviy holda tahlillarni olib boradi.

Birinchisi yo'nalish, sport karyerasini inson hayotining boshqa sohalar bilan aloqalarini ko'rishga, ikkinchisi sport karerasining o'ziga xos xususiyatlari va farqlanishlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.



1-rasm. Karyeraning 3 asosiy belgisi

Karyerani B.G. Ananyev bo'yicha to'rt bosqichga bo'lishimiz mumkin.

1. Tayyorgarlik.
2. Boshlash.
3. Avj nuqtasi.
4. Tugatish.

1) "Tayyorgarlik" kasb tanlash va asosiy kasbiy tayyorgarlikni o'z ichiga oladi - o'smirlik va erta balog'at yoshi;

2) "Boshlash" - haqiqiy mehnat faoliyatining boshlanishi va 23 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan kasbga moslashish;

3) "Avj nuqtasi" - shaxsning ijtimoiy mavqeida aks ettirilgan kasbdagi eng yuqori yutuqlar bosqichi - 30 yoshdan 45-50 yoshgacha;

4) "Tugatish" nafaqaga tayyorgarlik ko'rish va nafaqaga moslashuvi bilan bog'liq 50 yoshdan 60-65 yoshgacha.

Sport karyerasida xuddi shu bosqichlarni ham ajratish mumkin, ammo ular sportning faoliyat sifatidagi xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan ma'lum o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shunday qilib, sport karerasining quyidagi xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1) "tayyorgarlik" bosqichining erta boshlanishi. Odatda bu maktabgacha yoki boshlang'ich maktab yoshini o'z ichiga oladi. Ammo bu avvalroq sodir bo'lishi ham mumkin, ayniqsa sportchilar oilalarida;

2) sport karyerasining nisbatan erta boshlanishi va muayyan sport turini tanlash;

3) nisbatan erta sport karyerasining avj pallasi;

4) sport karyerasining avj pallasi va tugash vaqtlaridagi gender farqlari;

5) kasbiy karyeraga nisbatan qayta boshlash tomon siljish;

6) sport karyerasi rivojlanishda sakrash obrazidagi xarakter ifodalanadi;

7) sport eng ko'p energiya talab qiladigan faoliyat turlaridan biri bo'lganligi sababli, u inson zaxiralaridan foydalanish bilan bog'liq;

8) sport boshqa faoliyat sohalariga qaraganda shafqatsizroq raqobat sharoitlari bilan tavsiflanadi;

9) sport karyerasi kasbiy faoliyat jihatidan hamma vaqt ham doimiy daromad manbai emas, balki har doim faoliyatga nisbatan professional munosabat ma'nosida;

10) sport karyerasida faoliyatni tugatish, nafaqaga ketish, vaqtining nisbiy noaniqligi bilan tavsiflanadi - uning yoshga emas, balki sport natijalari dinamikasiga va boshqa ko'plab sabablarga bog'liqligi, aksariyat kasblar uchun xos bo'lgan pensiyaga chiqishdan farqli o'laroqligi;

11) sportchi sport rolini yoki sport turini o'zgartirish orqali o'z sport karyerasini kengaytirish imkoniyatiga ega. Ko'pgina kasblarda shunga o'xshash imkoniyatlar juda cheklangan;

12) "Sport hayotning ixchamlashtirilgan modeli". Unda ekstremal sharoitlar tufayli inson tabiatining namoyon bo'lishining barcha boyligini topishimiz mumkin. U boshqa kasblarga qaraganda keng ma'noda insonning moslashuvchan qobiliyatini ko'proq shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Умарова Н.Ш. Спортчиларни психологик тайёрлаш жараёнида ирода кучини намоеён бўлишининг темпераментал хусусиятлари //Fan-Sportga. – 2020. – №. 3. – С. 42-44.

2. Мяконьков В. Б. Социальная психология маркетинга в спорте: монография. СПб., 2001.

**ШАХСДАГИ ДАЪВОГАРЛИК ДАРАЖАСИ ВА ЎЗ-ЎЗИНИ БАҲОЛАШНИНГ
ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ТОМОНЛАРИ***Жураев Воҳиджон Муҳаммедович**Қўқон давлат педагогика институти Жисмоний маданият методикаси кафедраси
мустақил тадқиқотчиси*

Аннотация: Ушбу мақолада шахсдаги даъвогарлик даражаси ва ўз-ўзини баҳолашнинг ижтимоий психологик томонлари тўғрисида сўз юритилган бўлиб, бир қатор хорижлик олимларнинг тадқиқод натижаларидан фойдаланилган. Турли ёш, жинс, ижтимоий қатламлардаги инсонларнинг даъвогарлик даражаси доим алоҳида ўрганилиш талаб этиладиган масалалардан бири эканлиги, даъвогарлик даражасининг ўз-ўзини баҳолаш билан боғлиқлиги ҳақида маълумотлар келтирилган.

Калит сўзлар: даъвогарлик даражаси, ўз-ўзини баҳолаш, когнитив компонент, эмоционал компонент, м конформ.

**СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ УРОВНЯ ОЦЕНКИ И
САМООЦЕНКИ ЛИЧНОСТИ***Джураев Вохиджон Мухаммедович**Независимый научный сотрудник кафедры методики физической культуры Коканского
государственного педагогического института*

Аннотация: В данной статье говорится об уровне ассертивности у человека и социально-психологических аспектах самооценки с использованием результатов исследований ряда зарубежных ученых. Уровень ассертивности людей разного возраста, пола, социальных слоев всегда является одним из вопросов, требующих специального изучения, приводятся сведения об уровне ассертивности, связанные с самооценкой.

Ключевые слова: уровень ассертивности, самооценка, когнитивный компонент, эмоциональный компонент, конформность.

**SOCIAL PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF ASSESSMENT LEVEL AND SELF-
ASSESSMENT IN PERSON***Juraev Vohidjon Muhammedovich**Independent researcher of the Department of Physical Culture Methodology of the Kokand State
Pedagogical Institute*

Abstract: This article talks about the level of assertiveness in a person and the social psychological aspects of self-evaluation, using the research results of a number of foreign scientists. The level of assertiveness of people of different age, sex, and social strata is always one of the issues that require special study, information is provided about the level of assertiveness related to self-evaluation.

Key words: assertiveness level, self-evaluation, cognitive component, emotional component, conformity.

Кириш. Мамлакатимизда охирги йилларда жисмоний тарбия ва спортнинг оммалаштириш, аҳоли ўртасида соғлом турмуш тарзини жорий қилиш, имкониятлари чекланган шахсларнинг жисмоний реабилитациясига зарур шарт-шароитлар яратиш ҳамда мамлакатнинг халқаро спорт майдонларида муносиб иштирокини таъминлаш борасида изчил чора-тадбирлар амалга оширилмоқда.

Бу борада шахснинг мақсад қўйиш ҳамда шу мақсадга эришиш йўлида амалга оширишдаги хатти-ҳаракатларининг асосий омилларидан бири сифатида даъвогарлик даражаси ва айниқса спортчининг даъвогарлик даражасини ўрганиш ўта муҳим ўрин тутди. Шу сабабли ҳам ушбу муаммо психологияда долзарб масалалардан бири ҳисобланади.

Даъвогарлик даражасини ўрганиш бўйича психология соҳасида бир қанча илмий тадқиқотлар олиб борилган. Масалани ўрганишда турли жиҳатдан, турли объектларга асосланиб тадқиқ қилиш ўрганилаётган масалани янада тўлиқроқ тадқиқ этишга ёрдам беради. Шу сабабли ҳам даъвогарлик даражасини психологик ўрганишда турлича объектларга асосланган ҳолда, турли жаҳазларда ўрганилганлигига гувоҳ бўлиш мумкин.

Турли ёш, жинс, ижтимоий қатламлардаги инсонларнинг даъвогарлик даражаси доим алоҳида ўрганилиш талаб этиладиган масалалардан биридир. Фанимиз доирасида даъвогарлик даражасини ўрганиш бўйича Левин, Дж. Фрэнк, Ф. Хоппе, М. Юкнат, Т. Дембо, Л. Фестингер, П. Сирс, Б.В. Зейгарник, В.Н. Мясищев, Б.Г. Ананьев, В.Г. Гербачевский, Е.А. Серебрякова, Л.В. Бороздина, В.С. Мерлин каби тадқиқотчилар ўз изланишларини олиб боришган. Тадқиқотчиларнинг мазкур масалага турлича ёндашувларига қарамай аксарият олимлар даъвогарлик даражасини инсоннинг ўз олдига мақсад қўйишда ва шу мақсадни амалга оширишдаги имкониятларини баҳолай олишни тавсифлашни таъкидлашади.

Маълумки даъвогарлик даражасининг шаклланишида инсондаги ёш хусусиятлари катта аҳамиятга

эга. Даъвогарлик даражасининг ёш хусусиятлари билан боғлиқлиги бўйича К.Левиннинг тадқиқотлари аҳамиятга молик. К.Левин ўз тадқиқотларида даъвогарлик даражасининг шаклланишини 2-3 ёшликдан бошланишини таъкидлаган. Мазкур ғоя бўйича даъвогарлик даражаси инсоннинг ўз-ўзини баҳолаши билан боғлиқ. Шунингдек К.Левин 3 ёшдан бошлаб инсон хатти-ҳаракатларида даъвогарлик шаклланиб боришини таъкидлайди. Инсон ҳаётининг дастдабки босқичида ундаги даъвогарлик даражаси шаклланмаган бўлади. Ўзи-ўзига баҳо эса катталар қандай баҳолаши билан белгиланади. Шу сабабли 3 ёшгача бўлган болаларда маълум мақсадга йўналтирилган хатти-ҳаракатлар кузатилмайди.

Даъвогарлик даражасининг ўз-ўзини баҳолаш билан боғлиқлиги, бир-бирини шартлашини юқоридаги маълумотлардан гувоҳ бўлиш мумкин. Шу ўринда ўз-ўзини баҳолаш бўйича илмий маълумотларга тўхталиб ўтамиз.

Мутахассислар ўз-ўзига баҳонинг икки компонентдан ташкил топганини таъкидлашади:

Когнитив компонент. Бу компонентда инсон ўзи ҳақида маълумотларни турли манбалардан олади.

Эмоционал компонентда инсон ўз шахсига турли томондан қарайди (характер, хулқ-атвор, одатлар ва ҳоказо).

Америкалик психолог У.Жеймс ўз-ўзини баҳолашнинг қуйидагича формуласини ишлаб чиқади:

Ўз-ўзига баҳо=Муваффақият/Даъвогарлик даражаси.

Мазкур формуладан кузатиш мумкинки муваффақият асосида даъвогарлик даражаси ва ўз-ўзига баҳо туради.

Кўплаб тадқиқотчилар ўз-ўзига баҳонинг мазмунан 3 турини ажратиб кўрсатишади: жуда юқори, жуда паст, адекват.

Жуда юқори ўз-ўзига баҳо инсонда:

мукамаллик компелекси (“мен мукамалман”) шаклида шаклланади;

ўз имкониятлари, шахсияти, қобилиятларини идеаллаштиради, ҳаддан ташқари бўрттиради;

ўз психологик комфорт ҳолатини сақлаш учун муваффақиятсизликларини бефарқ қолдиради;

кучсиз жиҳатларини кучли томон сифатида кўрсатишга ҳаракат қилади. Бунда ўртиқча агрессия ва қайсарлик намоён бўлади;

бошқалар билан “қайта алоқа” ўрнатишни йўқотади. Атрофдагилар билан самимий мулоқотни йўқотади;

танқидларга ўта тоқатсиз;

ўз олдига бажариб бўлмас мақсадлар қўяди;

ўз имкониятларидан ортиқ даъвогарлик даражасига эга бўлади;

манманлик, кўполлик, агрессивлик каби салбий хулқ-атвор сифатлари шаклланиши мумкин.

Ўз-ўзига паст баҳо берувчи инсон:

доимий хавотирли кайфиятда бўлади;

ўзига ишончи паст, тортинчоқ, ҳаддан ташқари эҳтиёткор;

атрофдагилар руҳсати ва қўллаб қувватлашига жуда боғланиб қолган;

конформ, бошқалар таъсирига тез тушиб қолади;

нотўлиқлик комплекси мавжудлиги туфайли доим ўзини жуда аҳамиятли шахс эканлигини исботлашга ҳаракат қилади;

ўз олдига амалга ошира оладиган кичик мақсадлар қўяди;

ўз муваффақиятсизликларидан қочишга ҳаракат қилади, уларни ўз ҳаётига таъсирини ошириб юборади;

ўзи ва атрофдагиларга ҳаддан ташқари талабчан, ўзини жуда кўп танқид қилади;

“майда” ҳолатларга ҳам катта эътибор беради, шу сабабли оилада ва ишда кўп низога боради.

Адекват ўз-ўзига баҳо берувчи инсонда қуйидаги психик жараёнлар содир бўлиши кузатилади:

адекват когнитив шаклланиш;

ҳимоя механизми ишлаши.

Ўз-ўзига баҳо беришнинг ҳар учала турига мос равишда даъвогарлик даражаси ҳам шаклланади:

юқори даъвогарлик даражаси;

паст даъвогарлик даражаси;

адекват даъвогарлик даражаси.

Ўз-ўзига баҳо шаклланиши билан параллел равишда даъвогарлик даражаси шаклланади.

Даъвогарлик даражасини ўрганиш бўйича тадқиқотлар базасида ёш даврлари ёки ўқув жараёнида ўрганилган тадқиқотлар билан бирга имконияти чекланган инсонлардаги даъвогарлик даражасини ўрганиш бўйича тадқиқотлар ҳам ўрин олган. Мазкур тадқиқотларнинг фойдали жиҳатлари имконияти чекланганларнинг даъвогарлик даражаси билан соғлом инсонларнинг даъвогарлик даражалари ўртасидаги тафовутлар, имконияти чекланган инсонларнинг даъвогарлик даражаларидаги ўзига хос жиҳатлари ва улардаги даъвогарлик даражалари шаклланишидаги феноменал ҳолатларни изоҳлашда жуда қийматли илмий манбалар йўриқнома бўлиб хизмат қилади.

Имконияти чекланган инсонларнинг даъвогарлик даражасининг долзарблиги шундан иборатки, уларнинг жамиятдаги ўз ўрнига эга бўлишида, жамият билан фаол алоқага чиқиши учун уларнинг имкониятларини аниқлаган ҳолда зарурий ижтимоий-психологик муҳит шакллантиришда муҳим аҳамият касб этади.

Имконияти чекланган инсонлардаги даъвогарлик даражасини ўрганиш тадқиқотларини турли гуруҳларга ажратган ҳолда таҳлил қилиш мақсадга мувофиқдир. Бунга ногиронлиқнинг турли даражада сараланиши сабаб бўлишини келтириб ўтиш мумкин. Қуйида имконияти чекланганларнинг даъвогарлик даражаларига тўхталиб ўтилган тадқиқотларни қисқа таҳлилин кўриб чиқамиз.

Гапириш ҳамда эшитиш функцияларида камчилиги, нуқсонли бўлган одамлар ижтимоий муҳитда кўпроқ алоқага чиқиш имкониятлари нисбатан кўпроқдир. Кар-соқовлар ҳамда эшитишида камчилиги борларни психологик ўрганишда В.П.Дудьев, Н.В.Надёжина, А.С.Саблеваларнинг тадқиқотлари эътиборга молик. Улар ўз тадқиқотларида нутқий ривожланишида камчилиги бўлган болаларни тадқиқ қилишган бўлиб, ўз тадқиқотларида мазкур камчиликка эга бўлган болаларнинг улардаги таянч-ҳаракат органлари фаолияти ва уларнинг ҳуқ-атовридаги боғлиқликларни таҳлил қилинган. Улар ўз тадқиқотларида нутқий ўсишда орқада қолган болаларда ўз камчиликлари туфайли эҳтиёжларини тўлиқ қондира олмаслик уларнинг ўз-ўзини баҳолашда, даъвогарлик даражасини шаклланишида, келажақда мақсад қўйишда таъсир қилишини таҳлил қилганлар. Даъвогарлик даражасини инсоннинг жисмоний ҳолатига боғлиқлигини муаллифлар ўзларининг тадқиқотларидаги эмпирик натижалар ёрдамида аниқлаб беришган.

И.Ю.Левченко тадқиқотларида нутқида камчилиги бор болаларда агрессивлик, эмоционал бекарорлик каби ҳолатларни қайд этади. Бу эса уларнинг мақсад қўйишда иккиланишлар, даъвогарлик даражаларининг ва ўз-ўзига баҳонинг пасайишига сабаб бўлади.

Н.Л.Белопольска, Т.А.Болдырева, Н.А.Жулидова, М.Ю.Орешкина, О.А.Слинько, Р.Б.Стеркин, Т.Н.Прилепска, О.Н.Усановалар ҳам имконияти чекланган болаларнинг ўқув жараёнидаги даъвогарлик даражасини ўрганшига қаратилган тадқиқотлар олиб борганлар. Уларнинг тадқиқотлари ўқув жараёнида имконияти чекланган болаларнинг даъвогарлик даражасини аниқлаш, унинг шаклланишига сабаб бўлувчи омилларни ўрганишга қаратилган бўлиб мазкур муаммони тадқиқ этишда илмий манба бўлиб хизмат қилади.

Хулосалар. Демак юқоридаги назарий таҳлиллариимизга таянган ҳолда шуни айтиш мумкинки, шахсда ўз-ўзига баҳо шаклланиши билан параллел равишда даъвогарлик даражаси шаклланади. Бундан ташқари имконияти чекланганларнинг даъвогарлик даражаси билан соғлом инсонларнинг даъвогарлик даражалари ўртасидаги тафовутлар мавжуд бўлиб, уларнинг жамиятда ўз ўрнига эга бўлишида, жамият билан фаол алоқага кириша олиши учун имкониятларини аниқлаган ҳолда зарурий ижтимоий-психологик муҳит шакллантиришда улардаги даъвогарлик даражаси муҳим аҳамият касб этади.

Фойдаланилган адабиётлар

Бороздина Л.В. Исследование уровня притязаний : Учеб. пособие / Л. В. Бороздина. - 4. изд., доп. - Москва : Психология, 2000. - 181 с.

Ильин Е.П. Мотивация и мотивы. СПб.: Питер, 2000. 512 с

Сидоров К.Р. Концепт «Уровень притязаний» в истории зарубежной психологии // Вестн. Удм. ун-та. Сер. Философия. Психология. Педагогика. 2008. Вып. 2. С. 56-63.

Хекхаузен Х. Мотивация и деятельность. СПб.: Питер; М.: Смысл., 2003. 860 с .

Хекхаузен Х. Психология мотивации достижения. СПб.: Речь, 2001. 240 с.

Nasirovna, M. R. (2022). The role of psychological diagnosis in clinical practice. Conferencea, 4-6.

Мелибаева, Р. Н. (2022). Клиник амалиётда когнитив функциялар ва уларнинг бузилишлари психодиагностикаси. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 4-2), 928-932.

Narmetova, Y., Melibayeva, R., Akhmedova, M., Askarova, N., & Nurmatov, A. (2022). Psychodiagnostics attitude of the psychosomatic patients' disease.

Мелибаева, Р., & Абдиназарова, И. (2020). Тиббий психодиагностика: муаммо, мулоҳаза ва ечимлар.

Melibayeva, R. N. (2021). Status and Prospects of Medical Psycho-Diagnostics in Uzbekistan. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 8(12), 555-565. Muhammedovich, Juraev Vohidjon. «The role of reaction in the formation of competition motivation in athletes.» INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.10 (2022): 28-29.

Mukhammedovich, Juraev Vohidjon. «Psychological Features of Competitive Motivation of Athletes.» Central asian journal of literature, philosophy and culture 3.11 (2022): 312-314.

Mukhammedovich, Jurayev Vohidjon. «Psychological Foundations of Willpower in the Formation of Competition Motivation in Athletes.» Central asian journal of literature, philosophy and culture 3.11 (2022): 315-318.

Toxirjonovich, Arabboyev Qaxramon, et al. «THE ROLE OF SPORT IN PEOPLE'S HEALTH.» International Journal of Early Childhood Special Education 14.7 (2022).

Mukhtorova, Yuldasheva Jamilakhan. «EFFECTIVE WAYS OF MANAGING THE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP IN THE FIELD OF SPORTS.» Open Access Repository 8.12 (2022): 693-697

THE ROLE OF THE MANIPULATION MECHANISM IN THE SOCIALIZATION OF THE STUDENT'S PERSONALITY

Kosimova Sarvinoz Bakhtiyorovna

Teacher of the Department of psychology and sociology Bukhara State University

Abstract: In this article, the monopolization mechanism affecting the socialization of the individual and its expression in the possible determinants of students' psychological views are classified from a social-psychological point of view. Higher education institutions use measures related to the incentive and evaluation process to encourage and direct the targeted actions of students. In the course of study, we will consider how to solve a number of problems that hinder students' education and communication in the context of research. We first study the direct relationship between students' perceptions of socialization mechanisms (that is, the level of perception of students' communication with their core values, the influence of coaches and peers on the student's mind) and secondly, consider how relationships work. In our opinion, relationships work because socialization mechanisms communicate with information, which reduces student uncertainty and thus increases their perception of career security, and in turn, students become more attached to an educational institution and better influenced by its goals.

Keywords: determination, monopoly, stress, emotion, behavior, perseverance, independence, initiative, self-control, dominance, consciousness, motive

РОЛЬ МАНИПУЛЯТИВНОГО МЕХАНИЗМА В СОЦИАЛИЗАЦИИ ЛИЧНОСТИ ШКОЛЬНИКА

Косимова Сарвиноз Бахтиёровна

Преподаватель кафедры психологии и социологии Бухарский государственный университет

Аннотация: В данной статье механизм монополизации, влияющий на социализацию личности, и его выражение в возможных детерминантах психологических взглядов студентов классифицируются с социально-психологической точки зрения. Высшие учебные заведения используют меры, связанные с процессом стимулирования и оценки, для поощрения и направления целенаправленных действий студентов. В ходе обучения мы рассмотрим, как решить ряд проблем, которые препятствуют обучению и общению студентов в контексте научных исследований. Во-первых, мы изучаем прямую взаимосвязь между восприятием студентами механизмов социализации (то есть уровнем восприятия общения студентов с их основными ценностями, влиянием тренеров и сверстников на сознание студента), а во-вторых, рассматриваем, как работают взаимоотношения. По нашему мнению, отношения работают, потому что механизмы социализации взаимодействуют с информацией, что уменьшает неуверенность студентов и, таким образом, повышает их восприятие безопасности карьеры, и, в свою очередь, студенты становятся более привязанными к учебному заведению и лучше влияют на его цели.

Ключевые слова: определение, монополия, стресс, эмоция, поведение, настойчивость, самостоятельность, инициатива, самообладание, доминирование, сознание, мотив.

TALABA SHAXSINI IJTIMOIYLASHTIRISHDA MANIPULYATSIYA MEKANIZMINING ROLI

Qosimova Sarvinoz Baxtiyorovna

Buxoro davlat universiteti Psixologiya va sotsiologiya kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxsning sotsializatsiyasiga ta'sir qiluvchi monopolizatsiya mexanizmi va uning talabalarining psixologik qarashlarining mumkin bo'lgan determinantlarida ifodalanishi ijtimoiy-psixologik nuqtayi nazardan tasniflanadi. Oliy o'quv yurtlari talabalarining maqsadli harakatlarini rag'batlantirish va yo'naltirish uchun rag'batlantirish va baholash jarayoni bilan bog'liq chora-tadbirlardan foydalaniladi. Tadqiqot kontekstida o'qish jarayonida talabalarining ta'lim olishi va muloqotiga to'sqinlik qiladigan bir qator muammolarni qanday hal qilishni ko'rib chiqamiz. Biz, birinchi navbatda, talabalarining sotsializatsiya mexanizmlari haqidagi tasavvurlari (ya'ni talabalarining asosiy qadriyatlarini bilan aloqasini idrok etish darajasi, murabbiylar va tengdoshlarning talaba ongiga ta'siri) o'rtasidagi bevosita bog'liqlikni o'rganamiz, ikkinchidan, munosabatlar qanday ishlashini ko'rib chiqamiz. Bizning fikrimizcha, munosabatlar ishlaydi, chunki sotsializatsiya mexanizmlari axborot bilan aloqa qiladi, bu esa talabalarining noaniqligini kamaytiradi va shu bilan ularning martaba xavfsizligi haqidagi tasavvurlarini oshiradi va o'z navbatida talabalar ta'lim muassasasiga ko'proq bog'lanib, uning maqsadlariga yaxshiroq ta'sir qiladi.

Kalit so'zlar: qat'iyat, monopoliya, stress, hissiyot, xulq-atvor, qat'iylilik, mustaqillik, tashabbuskorlik, o'zini tuta bilish, hukmronlik, ong, motiv.

Introduction : Manipulations are as diverse as life itself. Manipulations are positive, negative

and neutral, domestic and professional, intimate and not, and of different levels of awareness. However, negative manipulations are more common in everyday life, as a result of which the concept of «manipulation» in practice is defined as «negative manipulation» and is usually understood as a manifestation of bad intentions or bad inclinations. Such manipulations include pressure on emotions, cunning silence, hidden suggestions, and even gypsy hypnosis: all tools are aimed at getting something from a person for their own benefit, which cannot be obtained in an honest and open way.

Psychological manipulation is a type of social influence or socio-psychological phenomenon, which is an activity aimed at changing the perception or behavior of other people using covert, deceptive and violent tactics for the sake of interests. Manipulation bypasses conscious control and affects us from within, like our will or decision. This is an effect that the person does not notice or identify as an effect; This is the effect that a person begins to accept other people's intentions as his own. Simply put, manipulation is a hidden influence.

Methods: However, not all forms of human interaction can be attributed to one item or another. Therefore, E. L. Dotsenko distinguished five types of interaction.

Dominance. It is characterized by the following: 1) attitude towards a partner as a means to an end or something whose interest is not taken into account; 2) the desire to own, dispose, have an unlimited unilateral advantage; 3) simplified, one-sided perception of a partner, the presence of stereotypical ideas about him; 4) the presence of open imperative influence (from violence to coercion, to suggestion)

Manipulation. It is characterized by: 1) an attitude towards a partner as a "thing of a special kind" (there is a tendency to ignore his interests and intentions, but not in everything); 2) the desire to have a one-sided advantage, combined with an eye on the impression made; 3) the presence of hidden influence, not direct, but indirect pressure (provocation, lies, conspiracy).

Competition. It is characterized by the following: 1) attitude towards a partner as a dangerous and unpredictable object; 2) the desire to «fight» against one-sided superiority, to be above it; 3) the use of both hidden and open influence (certain types of «subtle» manipulation, tactical agreements)

Cooperation. It is characterized by the following: 1) equal attitude towards the partner; 2) the desire not to harm oneself without violating the interests of other people; 3) use methods of interaction, not influence (arrangements).

Commonwealth. It is characterized by the following: 1) attitude towards a partner as a valuable person; 2) the desire for unity, joint activities to achieve similar or compatible goals; 3) use of consent (consensus) as the main way of interaction.

So, according to the classification of E. L. Dotsenko, manipulation implies the presence of unequal relationships close to dominance, but characterized by less intensity and impact on the partner's psyche. A number of scientific studies are being carried out on the mechanisms for protecting students from hidden influences, in particular, various kinds of influences. [1].

They emphasize that the socio-psychological problems of their students are based on adaptation to new social conditions, and they can observe the process of monopolization. Many first-year students are faced with such phenomena as stress, anxiety, apathy, which is due to the fact that they enter into an independent adult life, look for their «I», look for new acquaintances and relationships, organize a new regimen, study and relax. Entering student life requires learning new norms and understanding the social status on which the adjustment process depends. Petrovsky emphasized that it depends on the nature of adaptation and further personal growth of the student.

Findings: Thus, for successful adaptation, it is necessary not only to be ready for changes, but also to take an active position in educational activities. The first academic weeks are the most difficult period of adaptation to new conditions, but the period of its completion is individual for each student. To diagnose adaptation, the interview method, individual conversations, student visits to the place of residence, conversations about educational and professional prospects are widely used.

At the same time, experts in the field of developmental psychology and physiology emphasize that at the age of 17-19, a person has not yet fully developed the ability to consciously regulate his behavior. Often this is an unreasonable risk, not foreseeing the consequences of their actions, which may not always be based on good reasons. So, V. T. Lisovsky said that 19-20 years is the age of self-sacrifice and full dedication, but often negative manifestations. Youth is a period of introspection and self-evaluation. Self-respect is achieved by comparing the ideal self with the real self. But the ideal «I» has not yet been tested and may be random, and the real «I» has not yet been fully evaluated by the individual himself. This objective contradiction in the development of a young person can cause internal self-doubt, and sometimes it is accompanied by external aggression, aggressiveness or a feeling of incomprehensibility.

The period of study at the university corresponds to the second period of adolescence or the first period of maturity, which is characterized by the complexity of the formation of personal characteristics - this process B. G. Ananiev, A. V. Dmitriev, I. S. Kon, V. T. Lisovsky and others already says about the complexity and uncertainty of the psychological characteristics of this period of life. Modern students are mostly young people aged 18-25. [2]

A characteristic feature of moral development at this age is the strengthening of conscious motives for behavior. The qualities that were completely absent in the senior classes, such as purposefulness,

perseverance, determination, independence, initiative, self-control, have significantly increased. There is a growing interest in moral issues such as life goals, lifestyle, duty, love, loyalty, etc.

The study of the socio-psychological problems of students living in a dormitory is a hot topic, and students moving from their parental home to a dormitory or a rented apartment have to deal with self-service and accommodation, study, classmates, they face communication problems with their teachers. It is twice as difficult for them to move to another place of residence and enter a university than those who live in the same conditions as their parents. This group of students is more susceptible to negative external influences. Abrupt changes in living conditions have a negative impact on a person characterized by irritability, isolation, depression. Several studies have been devoted to the study of socio-psychological adaptation in the hostel, for example, G.Yu. Myagchenko considers the main characteristic of student housing to be «variable stability», that is, the presence of normative and informal rules of behavior, pre-established by students. The dynamism of life in the bedroom explains how any deformation of the internal structure can affect the entire lifestyle system. An important place in the psychological comfort of the hostel is occupied by the microclimate in the room, which affects both the psychological state and the educational activity of the student. The results show that the older the students, the less conflicts between them, which indicates the successful completion of psychological adaptation.

Conclusions: The process of monopolization in the life of students is associated with the following situations.

1. Bypass or conscious control of the student's vision, feelings, situations.
2. In the first year of the student's personality, the process of adaptation to new social conditions causes excessive tension and stress at the psychological and physiological level, as a result, activity decreases.
3. Not only is the student unable to develop new ways of behaving and learning, but he also has difficulty performing his usual duties. Manipulation is often used as a problem-solving technique to help avoid conflict and reduce stress.

The problem of manipulating the personality of a student is always relevant, since it occurs in the sphere of interpersonal relations. For a successful career, you need to win.

References:

- Dotsenko. - M. : CheRo - MSU Publishing House, 1997. - 344 p.
- Pogodina E.N. Experience of psychological analysis of conflicts in a student hostel//Cultural-historical psychology, 2010. No. 3.
- Lisovsky V. T., Dmitriev A, V. Personality of a student. - L., 1994.
- Qosimova, S. S. (2022). Analysis Of Inflectional Terms In The Study Of Hamiduddin Dariri. *Journal of Positive School Psychology*, 6(3), 2200-2203.
- Qosimova, S. (2021). MESMERIZING PERCEPTION OF NATURE (REFLECTING CHARMING NATURE). *Интернаука*, (20-6), 45-46.
- Изатовна Т.С. (2021). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ РОДИТЕЛЕЙ В ВОСПИТАНИИ БЛИЗНЕЦОВ В УЗБЕКСКИХ СЕМЬЯХ. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 2 (05), 82-87.
- Косимова, С. Б. (2022). Профессиональная компетентность руководителя дошкольной образовательной организации как психологическая проблема. *Science and Education*, 3(2), 1169-1174.
- Baxtiyorovna, Q. S. (2020). Heads Of Competence In Psychologically School Education. *International journal of scientific & technology research*, 9(02).
- Тойирова, Ш. И. (2021). ВЛИЯНИЕ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ НА РАЗВИТИЕ БЛИЗНЕЦОВ. In *Научный форум: тенденции развития науки и общества* (pp. 18-20).
- Тойирова, Л. И., & Тойирова, Ш. И. (2017). Факторы, влияющие на формирование этнопсихологических особенностей. In *НАУКА И ИННОВАЦИИ В XXI ВЕКЕ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ* (pp. 164-166).

PAST O'ZLASHTIRUVCHI O'QUVCHILARNING TOIFALARI VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Mavlyanova Surayyo,

Toshkent amaliy fanlar universiteti "Psixologiya" kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Hozirgi kunda har bir sinfda 3-4 ta bo'lsa-da, past o'zlashtiruvchi o'quvchilar mavjud. Bunday o'quvchilarning bilish jarayonlari orqada qolibgina qolmay, bevosita sinfdoshlarining ham o'zlashtirishiga, bilim asoslarini egallashiga ma'lum daraja salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xuddi shu bois boshlang'ich sinflardagi past o'zlashtiruvchi o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini o'rganish va uni korreksiya qilish pedagogik va yosh psixologiyadagi dolzarb muammolardan biridir.

Kalit so'zlar: past o'zlashtirish, o'quvchi, o'qituvchi, psixodiagnostika, psixokorreksiya, motivatsiya, irsiyat, patologiya, dangasalik.

КАТЕГОРИИ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ НЕУСПЕВАЮЩИХ УЧЕНИКОВ

Мавлянова Сурайё,

Преподаватель кафедры «Психология» Ташкентского университета прикладных наук

Аннотация. В настоящее время в каждом классе учатся 3-4 неуспевающих ученика. Познавательные процессы таких учащихся не только отстают, но и оказывают определенное негативное влияние на овладение ими одноклассниками и усвоение основ знаний. По этой же причине изучение и коррекция психологических особенностей слабоуспевающих учащихся начальных классов является одной из актуальных проблем педагогической и юношеской психологии.

Ключевые слова. низкая обучаемость, ученик, учитель, психодиагностика, психокоррекция, мотивация, наследственность, патология, лень.

CATEGORIES AND PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF UNSUCCESSFUL STUDENTS

Mavlyanova Surayyo

Lecturer at the Department of Psychology, Tashkent University of Applied Sciences

Abstract. Currently, there are 3-4 underachieving students in each class. The cognitive processes of such students not only lag behind, but also have a certain negative impact on their classmates mastering them and mastering the basics of knowledge. For the same reason, the study and correction of the psychological characteristics of poorly performing primary school students is one of the urgent problems of pedagogical and youthful psychology.

Keywords. low learning ability, student, teacher, psychodiagnostics, psychocorrection, motivation, heredity, pathology, laziness.

Kirish. Bolada vujudga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni o'qituvchi asosan o'zlashtirish bilan belgilaydi. Bunda bolalar qariyb bir xil baholanadi: a'lochi - demak u yaxshi o'quvchi, ikkichi - yomon o'quvchi. Bunday o'quvchiga qo'llaniladigan choralar ham bir xil. Bolaning ota-onasi maktabga chaqirilib, o'g'li (yoki qizi) bilan shug'ullanmayotgani, yomon tarbiyalanayotganligi haqida ma'lum qilinadi. Yoki o'qituvchi oqibati haqida o'ylamasdan o'quvchini butun sinf oldida baqirib haqoratlaydi, izza qiladi. Ko'pchilik tajribali o'qituvchilar o'quvchilar o'zlashtirmasligini uning dangasaligi, tarbiyasizligi, ishyoqmasligi bilan bog'laydilar. Ko'p kasal bo'luvchi zaif bolalar organizmi darmonsizligi tufayli ishga va o'qishga qobiliyatlari kamayadi. Bunday bolalar bilan individual shug'ullanmasa, tez orada ular o'zlashtirmovchi o'quvchilar qatoriga kiradilar.

Biron narsadan qattiq qo'rqqan bolalarda asabiylashish alomatlarini -duduqlanish, enurez va boshqalar paydo bo'ladi. Bunday bolalar bilan ham o'qituvchi maxsus shug'ullanmasa, o'zlashtirmovchi o'quvchilarning soni ortishi mumkin. O'quvchilar o'zlashtirmasligining sabablaridan biri bolaning psixik taraqqiyotdan vaqtincha orqada qolishi bilan ko'pincha bog'liq. Turli mutaxassislar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, o'zlashtirmaslik 50 % psixik taraqqiyotda orqada qolish bilan, 24% xulq-atvorning buzilishi, 4% aqliy yetishmaslik va nutqning rivojlanmaganligi bilan bog'liq.

Psixik taraqqiyotda vaqtincha orqada qolish bolada turli sabablarga ko'ra vujudga kelishi mumkin. Ko'pincha bu bolaning ona qornida va tug'ilishi vaqtidagi o'zgarishlar (patologiya), irsiyat, ilk bolalik davrida bolaning jarohatlanishi va og'ir kasalliklarga chalinishi sabab bo'lishi mumkin. Bunday omillarning markaziy nerv sistemasiga noqulay ta'sir etishi natijasida eng nozik insoniy funksiyalarning taraqqiyoti to'xtaydi. Shu bilan birga bola tarbiyalanayotgan ijtimoiy muhitning roli ham muhim. Bolaga onaning erkalashlari yetishmasligi, unga yetarlicha e'tibor bermaslik, unga iliq munosabatda bo'lmaslik, unga yaxshi qaramaslik, vaqt ajratmaslik kabi omillar muhim rol o'ynaydi. Bola qanchalik kichik bo'lsa, bu omillar shunchalik ahamiyatlidir. Xuddi shu sabablarga ko'ra mehribonlik uylarida, kunu tun ishlaydigan bog'cha va yashilarda tarbiyalanayotgan bolalarda psixik taraqqiyotda orqada

qolish uchraydi.

Ko'pincha o'qituvchilar o'zlashtirmovchi o'quvchi bilan qo'shimcha mashg'ulotlar o'tkazadilar. Bunda ular darsda o'tilgan materiallarni qaytarish, bir mashqni bir necha marta yozdirish bilan chegaralanadilar. Bunda bola nimada xato qilayotganiga e'tibor berilmaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

Ba'zan o'qituvchilar sababini tushunmasdan o'zlashtirmovchi o'quvchilarni "qobiliyatsizlar", "aqli yetishmaydiganlar" safiga kiritib qo'yadilar. Tez orada o'qituvchilar o'zlashtirmovchi o'quvchilarga e'tibor bermay qo'yadilar, sinfda qolmasliklari uchun "uch" baho qo'yadilar. Keyinchalik bunday o'quvchilarda maktabga nisbatan salbiy munosabat rivojlanadi, shaxs xarakteri patologik shakllanadi. Psixik taraqqiyotda vaqtincha orqada qoladigan bolalarga individual ishlashning mahsuldor usullari qo'llanilsa, umumta'lim maktabida bema'lol o'zlashtiruvchi o'quvchilar qatorida bo'ladilar.

P.P.Blonskiy "Qiyin o'quvchilar" [2] asarida psixik va jismoniy tayyorgarlik turli xususiyatlarini birikuvchi xarakteriga bog'liq ravishda o'zlashtirmovchi o'quvchilarni quyidagi tiplarga ajratgan. P.P.Blonskiy o'zlashtirmovchi o'quvchilarni tavsiflaganda birinchi o'rinda jismoniy sog'likka katta e'tibor beradi. Muallif ishlarida psixologik xususiyatlar yetarlicha yoritilmagan.

P.P.Blonskiy o'zlashtirmaslikka olib keladigan asosiy sababni ajratib ko'rsatgan. Birinchidan, o'quvchi sog'lig'iga bog'liq quyi ishchanlik qobiliyati, ikkinchidan o'zini faoliyatini to'g'ri tashkil eta olmaslik, "ishlay olmaslik", uchinchidan, o'qishga qiziqishning yo'qligi, to'rtinchidan, o'quvchining bo'sh rivojlanganligi.

P.P.Blonskiy o'zlashtirmovchi o'quvchilarni quyidagi tiplarga ajratadi: I tip o'zlashtirmovchi o'quvchilarning taxminan 50% jismonan bo'sh va aqliy rivojlanmagan o'quvchilar kiradi. II tip o'zlashtirmovchi o'quvchilarning taxminan 25% jismonan kuchsiz, ko'p dars qoldiradigan, tez charchaydigan o'quvchi, aqliy rivojlanishi yetarli darajada. III tip o'zlashtirmovchi o'quvchilarning taxminan 10% jismonan normal, lekin aqlan rivojlanmagan o'quvchilar. IV tip o'zlashtirmovchi o'quvchilar taxminan 15% oilaviy sharoitga ko'ra maktabdan ajralib qolgan o'quvchilar.

Shunday qilib, o'quvchilar tiplari klassifikatsiyasini asosiy ikki ichki sababga ko'ra jismoniy bo'sh va aqliy rivojlanmaganlik, uchinchidan maktabdan tashqaridagi sabab – sharoit maktabdan tashqari qiziqishlar. P.P.Blonskiy ishlari maktab o'zlashtirmasligi muammosini o'rganishda muhim hissa bo'lib qo'shildi. O'zlashtirmaslik sabablarini tahlil qilish, uni yo'qotish va oldini olish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish muallif ishidagi yutuqlardan biri bo'lgan.

L.S.Slavinaning "O'zlashtirmovchi va tartibbuzar o'quvchilarga individual yondashuv"[7] asarida o'zlashtirmovchi o'quvchilarni turli guruhlarga bo'lgan. Muallif bunday tipologiyani ishlab chiqishda o'quvchi shaxsining muhim xususiyatlariga e'tibor beradi:

1. o'qishga nisbatan noto'g'ri munosabat shakllangan o'quvchilar;
2. materiallarni qiyinchilik bilan o'zlashtiruvchi o'quvchilar;
3. o'quv ishida malaka va usullari shakllanmagan o'quvchilar;
4. mehnat qila olmaydigan o'quvchilar;
5. bilimga va o'qishga malaka va usullari shakllanmagan o'quvchilar.

Bunda turli guruhdagi o'quvchilar shaxsining har xil tomonlari orasidagi munosabat to'g'risidagi savol ochiq qoladi. O'zlashtirmovchi o'quvchilar uchun eng avvalo o'zini kuchsiz boshqarish, o'z psixik jarayonlari (diqqati, xotirasini) boshqara olmaslik, o'quv ishining oqilona usullari shakllanmaganligi, o'quv masalalarini yechishda o'ylashni istamaslik, bilimlarni shartli o'zlashtirish xos. Bunday o'quvchilar aqliy ishdan qochishga intilib, faol fikrlash zaruratidan ularni xalos qiladigan har xil aylanma yo'llarni izlaydilar.

O'zlashtirmovchi o'quvchilar aqliy taraqqiyot darajasining sezilarli pasayishi doimiy intellektual zo'rliqmaslik, bo'sh o'zini-o'zi boshqarish natijasi bo'lishi mumkin.

N.A.Menchinskaya[5] o'tkazgan tadqiqotlaridan ma'lum bo'lishicha, o'zlashtirmovchi o'quvchilar diqqati va xotirasida quyi ko'rsatkichlar olinishi bu psixik jarayonlarida patologik o'zgarishlarning natijasi emas, balki to'g'ri ishlash odatlarining mavjud emasligi bilan bog'liqdir.

N.A.Menchinskaya o'zlashtirmovchi o'quvchilar tipologiyasini ishlab chiqishda birinchidan tafakkur faoliyati xususiyatlari, ikkinchidan, shaxsning yo'nalishiga e'tibor berdi. Muallif o'quv faoliyatini tashkil qila olish ko'nikmasini barcha o'zlashtirmovchi o'quvchilarga xos bo'lgani uchun tiplarga ajratish mezonini sifatida qaraydi.

Shunday qilib, o'zlashtirmovchi o'quvchilarni tiplarga ajratishda shaxs xususiyatlari ikki asosiy kompleksning turli birikmasi asos qilib olinadi: birinchisi tafakkur faoliyatining xususiyatlari (uquvchanlik) bilan bog'liq; ikkinchisi - o'quvchining "ichki pozitsiyasini" o'qishga munosabatini bildiruvchi shaxsning yo'nalganligi bilan bog'liq. (L.S.Slavina, L.I.Bojovich). Yuqorida ta'kidlangan komplekslar, orasida har xil munosabatlar bo'lishi mumkin. Bunday munosabatlar uchga bo'linadi:

1. Tafakkur faoliyatining quyi darajasi o'qishga nisbatan ijobiy munosabat va "o'quvchi holatining saqlanishi" bilan birikishi mumkin.
2. Tafakkur faoliyatining yuqori darajasi o'qishga nisbatan salbiy munosabat, qisman yoki to'liq o'quvchi "holatining yo'qolishi bilan birikishi mumkin".
3. Tafakkur faoliyatining quyi darajasi o'qishga nisbatan salbiy munosabatda qisman yoki to'liq

o'quvchi "holatining yo'qolishi bilan birikishi mumkin".

Ajratilgan xususiyatlar birikmasining o'ziga xosligi o'zlashtirmovchi o'quvchilar tipini, hamda o'zlashtirmovchilikni yo'qotish yo'llarini aniqlab beradi.

N.A.Menchinskaya o'zlashtirmovchi o'quvchilarni ikki tipga ajratadi:

1. Birinchi tipga kiritilgan o'quvchilarning ba'zi umumiy xususiyatlari mavjud. Ularga tafakkur operatsiyalari (analiz, sintez, umumlashtirish va boshqalarning) bo'sh rivojlanganligida namoyon bo'ladigan quyi uquvchanlik xos. Bunday o'quvchilar o'quv materiallarini o'zlashtirishda jiddiy qiyinchiliklarni his qiladilar.

Aqliy masalalarni yechishda ularda "mahsulдор bo'lmagan yondashuv" vujudga keladi. Ular yangi masalalarni odatdagi ish usuli bilan yechib bo'lmasa-da, ulardan foydalanishga intiladilar.

Bunday o'quvchilar guruhi uchun o'qishdagi muvaffaqiyatsizlik ahloqiy nizo manbai hisoblanmaydi. Ular: "Men masalalarni yecha olmayman", "Men uchun ona tili qiyin", - deb hotirjam aytadilar. Bunday nizolarning mavjud emasligi o'qishga nisbatan ijobiy yo'nalish va o'quvchi "holatining saqlanishiga" olib keladi.

Shu bilan birga ularda bilimlarga nisbatan qiziqishning yo'qligi, maktabda o'zlashtiriladigan har qanday bilimlarga nisbatan qiziqishning yo'qligi xos. Ular kelajak rejalarini o'qish bilan bog'lamaydilar.

O'zlashtirmovchi o'quvchilarning ikkinchi tipi. Bu tipga kiruvchi o'quvchilarda tafakkur faoliyatining yuqori sifati o'qishga nisbatan salbiy munosabat bilan birikadi. Bunday o'quvchilar maktabga yaxshi tayyorlanib, yaxshi o'qish istagi bilan kelishadi. Ammo ularning o'qish ishlari sifatiga, faqat o'zlariga yoqqan narsa bilan shug'ullanishga o'rganib qolganligi salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday o'quvchilarda ta'lim jarayonida o'z-o'zini tashkil qilish u yoki bu fan unga yoqish, yoqmasligiga bog'liq bo'ladi. Barqaror motivatsiyaning mavjud emasligi bunday o'quvchilarning darsda yoki uy vazifasini bajarishda aqliy zo'riqishdan qochishga olib keladi. O'qishdagi muvaffaqiyatsizlik axloqiy nizoning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Bunday nizo intellektual imkoniyatlarning nisbatan ko'pligi va bu imkoniyatlarning o'quv ishlarida kam ro'yobga chiqarishi tufayli sodir bo'ladi. Agar bunday nizo ta'limning dastlabki bosqichlarida vujudga kelsa, faqatgina o'qishga nisbatan salbiy munosabatni keltirib qolmay, balki o'quvchining sinf jamoasidan begonalashuviga ham olib kelishi mumkin. Bu holat bir qator salbiy axloqiy sifatning vujudga kelishiga olib keladi.

Z.I.Kalmykova [4] o'zlashtirmaslik asosida nima turishiga qarab o'zlashtirmovchi o'quvchilarni ikki tipga ajratadi:

1. pedagogik qarovsiz bolalar;
2. uquvchanligi quyi o'quvchilar.

Birinchi tipga noqulay pedagogik sharoitlar tufayli o'qishda orqada qoladigan o'quvchilar kiradi. Ularda aqliy tarqiyotning ikkinchi komponenti saqlangan bo'lsa-da, bilimlar zahirasi juda oz bo'lib, eng minimal me'yor talablariga javob berilmaydi.

Ikkinchi tipga o'zlashtirmaslik ijtimoiy, pedagogik va biologik omillarning noqulay ta'siri bilan bog'liq o'quvchilar kiradi.

Pedagogik qarovsiz bolalar. Pedagogik qarovsizlik noqulay ijtimoiy pedagogik sharoitlar ta'sirida vujudga keladi, natijada zarur bilimlar zaxirasi shakllanmagan, lekin bu sharoitlar uquvchanlikka salbiy ta'sir ko'rsatmaydi.

Uquvchanligi quyi o'quvchilar. Bu tipga pedagogik qarovsizlik quyi uquvchanlik, ya'ni bilish faoliyati uchun aql sifatlarining noqulay shakllanishi bilan qo'shilgan o'quvchilar kiradi.

M.M.Bezrukix, S.P.Yefimova[1] tadqiqotlarida o'qishda qiynaladigan bolalarni quyidagi guruhlariga ajratilgan:

- A) Zaif bolalar.
- B) Asabiy bolalar.
- V) Psixik taraqqiyotda vaqtincha orqada qolgan bolalar.
- G) Chapaqay bolalar.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Bunday o'qishdagi qoloqlikni differentsiatsiyasi asosida psixologik mezonlar mavjud - bunday salbiy hodisani yengib o'tish osonlik (murakkablik) darajasiga e'tibor beriladi. Shu nuqtai nazardan, eng noma'qul qoloqlikning turi o'qishdagi umumiy chuqur qoloqlikdir. Muallif, maktabda o'qishdagi qoloqlikga qarshi kurashish choralarining samaradorlik darajasini ularning toifalarini hisobga olgan holda belgilab qo'ygan. Natijada shu narsa ayon bo'ldiki, vaqti - vaqti bilan uchraydigan qoloqlik deyarli 75% holatlarda muvaffaqiyatli yengib o'tilgan, qisman turg'un 61% holatlarda va birinchi toifa uchun ushbu raqam 29% tashkil qildi xolos.

Qisman doimiy qoloqlarning asosiy sababi sifatida o'qitishdagi kamchiliklar ko'rsatiladi. Shu sabab vaqti-vaqti bilan uchraydigan qoloqlikka ham taalluqlidir, ammo birinchi toifadagi sabablar bevosita o'quvchining shaxsi bilan bog'liqdir (uning to'liq yetilmaganligi, o'quv vazifalariga ma'suliyatsiz yondoshishi va hokazo).

O'tkazilgan tadqiqotlarda, noqulay hayot sharoitlari tasiridan tashqari, o'qishdagi umumiy va chuqur qoloqliklarni paydo bo'lishining uchta sababi ko'rsatilgan:

Yomon tayyorgarlik va bilimdagi sezilarli nuqsonlar;

O'qishga salbiy munosabatda bo'lgan o'quvchilar;

Tashkil etilgan mehnatga nisbatan ko'nikmaning yo'qligi, umumiy rivojlanishning yetarli bo'lmagan darajasi.

Nemis olimi G.Broyer past o'zlashtiruvchi o'quvchilarni yoshga oid o'ziga xosligini tadqiq etgan. Aniqlanishicha, past o'zlashtirish va o'ziga xos xulq-atvor ko'p holatlarda o'quv yilining boshida namoyon bo'lib, 1-sinfning boshidayoq 25-30% o'quvchilar o'qish, yozish va hisoblashni past darajada o'zlashtirishlarini ko'rish mumkin ekan. Nutqi va sensomotorikasi rivojlanishi orqada qolgan bolalarga boshlang'ich sinfdan o'qituvchi tomonidan alohida e'tibor qaratilishi lozim, aks holda ular o'qish va yozish ko'nikmasini egallay olmay qolishlari mumkin. Sensomotorikaning rivojlanishidagi zaiflik - boshlang'ich sinf o'quvchisining past o'zlashtirishida asosiy sabab hisoblanadi.

Kichik yoshdagi o'quvchilarning o'quv faoliyatidagi og'ishlari va nuqsonlarini o'qituvchilar "bilimdagi yetishmovchilik", "u yoki bu ko'nikmaning shakllanmaganligi", "mavjud fanlarga ulgurmaslik", "o'qishning umumiy orqada qolishi", "o'quv ishlarida tizimlilikning yo'qligi" deb xarakterlaydilar. Yu.Z.Gilbux kamchilik (nuqson) (nimanidir foydali va kerakligini bilmaslik) va og'ish (istalmagan zararli sifatning mavjudligi) tipologiyasini ishlab chiqdi, bolalarda bo'lishi mumkin bo'lgan ichki va tashqi manbalarni hisobga olmasdan nuqson va og'ishlarni bevosita ko'rinishlarini qayd etuvchi pedagogik tipologiyalar bilan boshladi. U pedagogik atamalarni shakllantirishda quyidagi og'ishlar toifalarini ajratdi:

O'qishdan umumiy orqada qolish (bola ona tilidan va matematikadan o'zlashtira olmaydi).

Ona tilidan orqada qolishning o'ziga xosligi (o'quvchi matematikani o'zlashtira oladi).

Matematikadan orqada qolishning o'ziga xosligi (ya'ni, yuqoridagining teskarisi).

O'quv faoliyatini individual eng qulay sharoitidan og'ish (o'quvchi qobiliyatlarini hammasini ham ko'rsata olmaydi).

Pedagogik tipologiyadan kelib chiqib, o'quvchilarning o'quv faoliyatidagi og'ish va nuqsonlar bolaning bevosita psixologik omillarini shartlaydigan, aniq xulq-atvor fenomenlarini qamrab oluvchi pedagogik - psixologik turlari aniqlandi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

Rivojlantiruvchi korreksion ish ushbu toifadagi o'quvchilarda shakllangan o'quv motivlari, o'qish istagi va faolligiga tayanishni taxmin etadi.

Shuningdek, ushbu toifadagi o'quvchilarga quyidagilar xos.

Psixik faoliyat tezligi sust;

Psixomotor tormozlanish, o'zini-o'zi nazorat qilishi yomon;

Faoliyatni rejalashtirish, boshqarish buzilgan;

Bilimlar zahirasi kam;

Motorikaning yetishmovchiligi;

Nutqiy nuqsonlar: sust, zaif nutq;

O'qituvchilardan, tanbehlardan qo'rquv;

Toliquvchanlik, so'lg'inlik.

O'quv faoliyatida namoyon bo'ladigan sifatleri:

Ishga sekin kirishadi, topshiriqlar ustida uzoq ishlaydi;

Ko'pincha chalg'iydi, hovliqma, o'qituvchining tushuntirishini oxirigacha eshitmay topshiriqni bajarishga kirishadi, xatolarini sezmaydi;

Topshiriqning asosiy shartlarini tahlil qilmaydi;

Tashqi belgilarga mo'ljall oladi, sinov xatolar metodini qo'llaydi;

Past darajadagi xabardorlik (ko'p narsalarni bilmaydi, ular haqida hech qachon eshitmagan va ko'rmagan);

Yozuvda chiziqdan tashqariga chiqib ketadi;

Tovushlarga ko'ra so'zlarni adashtiradi, so'zlarni noto'g'ri aytadi;

Asabiylilik, emotsiyalarning noturg'unligi, chalg'uvchanlik, emotsional reaksiyalarning noadekvatligi (sust qo'zg'atuvchi kuchli reaksiyalarni keltirib chiqaradi).

Tavsiya etiladigan diagnostik metodlar

Veksler metodikasi: 8 subtest "Rasmlarning ketma-ketligi" (sabab-oqibat bog'liqliklarini aniqlash); 12 subtest "Labirint" (diqqat to'planishi, o'zini-o'zi nazorat qilish); "Kos kubiklari" subtesti (konstruktiv tafakkur, tahlil va sintez qilish qobiliyati).

So'z-mantiqiy tafakkur diagnostikasi (R. Amtxauer):

Xabardorlik uchun og'zaki topshiriq, muhim va nomuhim belgilar differentsiatsiyasi;

Tushunchalarni shakllanganligini aniqlash;

Mantiqiy tafakkurning shakllanganligi aniqlash;

Umumlashtirishning shakllanganligini aniqlash (A.L.Venger).

T.V.Yegorova "O'rnini topish" abstraklashtirish (mavhumlashtirish) qobiliyatini o'rganish metodikasi.

Korrektor sinov (Burdon).

Uquvchanlik xususiyatini grafik qaydlari metodikasi.
Faoliyatning ichki rejasini o'ziga xosligini tahlili (Ya.A.Ponomaryova).
O'qishda ortda qolish xarakterini aniqlash uchun so'rovnomma (T.A.Shilova).
Ijtimoiy pedagogik qarovsizlik diagnostikasi (R.V.Ovcharova).

Xulosa o'rinda aytish joizki, o'quvchilarda past o'zlashtirish sabablarini erta aniqlash, toifalarga ajratish, psixokorreksiya va shakllantiruvchi chora – tadbirlarni izchillikda olib borish, shuningdek pedagoglar, o'quvchining ota – onasi, oila a'zolarini jalb qilish ishning yanada samarali kechishini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Безруких М.М., Ефимова С.П. Знаете ли вы своего ученика. - М.: Просвещение. 1984.- 175 с.
2. Блонский П.П. Трудные школьники. - М.: Работник просвещения. 1930
3. Власова Т.А., Певзнер М.С. Учителю о детях с отклонениями в развитии. - М.: Просвещение. 1967.-207 с.
4. Овчарова Р.В. Практическая психология в начальной школе. – М.: ТЦ "Сфера", 1998.
5. Abdivalieva, A. N. (2022). PSYCHOCORRECTION OF BEHAVIORAL AND EMOTIONAL FIELDS IN CHILDREN WITH ATTENTION DEFICIT AND HYPERACTIVE. British Journal of Global Ecology and Sustainable Development, 10, 132-137.
6. Abdivalieva, A. N. (2022). Psychological Characteristics Of Doctor And Patient Communication. Eurasian Scientific Herald, 8, 106-109.
7. Abdivalieva, A. N. (2021). Psychodiagnostics of children with attention deficiency syndrome and hyperactivity. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 2352-2355.
8. Abdivalieva, A. N. (2022). Age Features of Aggressive Behavior. Eurasian Medical Research Periodical, 15, 16-20.
9. Abdivalieva, A. N. (2022). PSYCHOCORRECTION OF BEHAVIORAL AND EMOTIONAL FIELDS IN CHILDREN WITH ATTENTION DEFICIT AND HYPERACTIVE. British Journal of Global Ecology and Sustainable Development, 10, 132-137.
10. Abdivalieva, A. N. (2022). Psychological features of adaptation of students abroad. Innovative Society: Problems. Analysis and Development Prospects, 117-120.
11. Abdivalieva, A. N., & Nuriddinova, I. N. (2022). EMERGENCY PSYCHOLOGICAL ASSISTANCE IN EXTREME SITUATIONS. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 6, 66-71.
12. З.Т.НИШОНОВА, Н.А.АСКАРОВА, Ф.Ф.РАСУЛОВА, Г.Ю.БАЙКУНУСОВА. Ўқувчиларда паст ўзлаштириш диагностикаси ва психокоррекцияси. Услубий қўлланма. Тошкент ТДПУ нашриёти. 2013.

IJTIMOIYLASHISH VA INKULTURATSIYA: TA'RIF VA TAFOVUTLAR

Nasimdjanova Maxsuma Majidovna

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada inkulturatsiya va sotsializatsiya jarayonlari kechishining o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Inkulturatsiya va sotsializatsiya jarayonlari taqqosiy tarzda tahlil etilib bu jarayonlar orasidagi tafovutlar yoritilgan.

Kalit so'zlar. inkulturatsiya, sotsializatsiya, madaniyat, til, milliy xarakter.

СОЦИАЛИЗАЦИЯ И ИНКУЛЬТУРАЦИЯ: ОПРЕДЕЛЕНИЕ И РАЗЛИЧИЯ

Насимджанова Махсума Мажидовна

доктор философии по психологии PhD Международная исламская академия Узбекистана

Аннотация. В данной статье раскрываются специфические черты процессов инкультурации и социализации. Сравнительно анализируются процессы инкультурации и социализации и выделяются различия между этими процессами.

Ключевые слова. инкультурация, социализация, культура, язык, национальный характер.

SOCIALIZATION AND INCULTURATION: DEFINITION AND DIFFERENCES

Nasimdjanova Maxsuma Majidovna

Doctor of Philosophy in Psychology PhD International Islamic Academy of Uzbekistan

Annotation. This article reveals the specific features of the processes of inculturation and socialization. The processes of inculturation and socialization are comparatively analyzed and the differences between these processes are highlighted.

Keywords. inculturation, socialization, culture, language, national character.

Rivojlanish jarayonida shaxs ma'lum ijtimoiy ta'sirlarga ochiq davrlarni boshidan kechiradi va ularni qabul qilishga unda ichki tayyorlik bo'ladi. Psixologiya fanida insonning jamiyatga kirib borish jarayoni, inson-jamiyat, jamiyat-inson munosabatlari, hayotiy tajriba, umuminsoniy va milliy qadriyatlar, urf-odat va an'analar, xulq-atvor normalarining avlodlararo yetkazib berilishi muammosi doimo tadqiqotchilar diqqat markazida bo'lib kelgan.

Abu Nasr Farobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida qadriyatlarni egallash, ularni avlodlarga yetkazishda muhim vosita hisoblangan pedagogik masalalarni ijtimoiy fanlarning muhim qismi sifatida talqin etadi. Uning fikricha, mavjudotning eng buyuk va yetuk mahsuli bu - inson. Insonning har tomonlama yaxlit va o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan qismlardan iborat ekanligini aytib, uni bir butun yaxlit holda o'rganishni tavsiya qiladi.

Abu Rayhon Beruniy avlodlararo o'tib kelayotgan ma'naviy qadriyatlar, milliy an'analarni xalqning jamoaviy ijodkorligi mahsuli, deb biladi. Shu bois insonning talab-ehtiyojlari zahirida aql-zakovat bilan yaratilgan, yaxshilikka olib boruvchi axloq qoidalarini egallash, insonning axloqiy munosabatlarini rivojlantirishga yordam beruvchi tadbirlar orqali ta'lim-tarbiyani izchil amalga oshirish mumkinligini alohida ta'kidlaydi.

Alisher Navoiy odam tarbiya va ijtimoiy muhit ta'siri bilan yaxshi yoki yomon, munosib yoki nomunosib bo'lishi mumkin. Navoiy shaxs va jamiyat o'rtasidagi bog'liqliksiz qadriyatlar rivoj topa olmasligiga urg'u beradi. Jumladan, jamiyatning a'zosi bo'lgan har bir kishi o'z xalqiga xizmat qilishi, foyda keltirishi, xalq manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yishi kabi qadriyatlarning rivoj topishini ta'kidlaydi.

E.G'oziyev ta'kidlashicha, ota-bobolarimizdan xalqimizga meros qolgan saxiylik, mehmondo'stlik, rostgo'ylik, tantilik, sadoqatlilik, poklik, odoblilik fazilatlarini milliy xarakterning eng muhim jihati hisoblanadi. Ushbu xislatlarni ta'lim-tarbiya jarayonida yosh avlod ongida shakllantirish, ular ruhiyatini xalq durdonalari bilan boyitish, milliy qadriyatlarning oqilona tadbirlariga alohida diqqat-e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq [1].

V.M.Karimovning ta'kidlashicha, jamiyat miqyosida ro'y beradigan ommaviy hodisalar ham ijtimoiy psixologiya uchun tadbiqiy ahamiyatga ega. Chunki shaxs tarbiyasida ommaviy hodisalarning, katta guruhlar ta'sirini inkor etish masalaga bir yoqlama yondashish bilan barobardir. Masalan, shaxs uchun mansub bo'lgan millat, elatning ruhiyati, uning ongida saqlanib kelayotgan an'analar, rasm-rusumlar, aqidalar, udumlar faoliyat stereotiplari kabilar o'z muayyan ta'sir kuchiga ega. Millatning ruhi ilk bolalikdan shaxs ongiga u o'zlashtirgan til bilan oila muhitida shakllanadi.

N.S.Safayev ta'kidlashicha, har bir etnos o'z hayotiy faoliyati jarayonida ma'lum hududda konkret ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy sharoitlarda o'z xulq-atvorining ajoyib stereotipini ishlab chiqadi, ular mazkur etnos vakillariga u yoki bu standart vaziyatlardagi xulq-atvorning umum qabul qilingan modelini yetkazib beradi [2].

Z.E.Abduraxmonova o'z tadqiqotlarida milliy ong va uning mohiyati, milliy birlik, birdamlik tuyg'usining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tahlil qilgan holda, milliy birlik tuyg'usi shakllanishining

ijtimoiy psixologik xususiyatlarini yosh va etnopsixologik nuqtai nazardan yoritib bergan [3].

Sotsializatsiya jarayoni an'anaviy ravishda institutsional berilgan deb qaraladi va jamiyatning ijtimoiy tuzilmasidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Sotsializatsiya madaniyatshunos E.V.Sokolovning fikricha, ba'zi madaniy minimumni o'zlashtirish bilan bog'liqdir. Bunda gap asosiy ijtimoiy normalar, rollar, til, milliy xarakter sifatlarini o'zlashtirish haqida ketmoqda. Unga qarama-qarshi ravishda "inkulturatsiya" termini nisbatan kengroq voqelikni o'zida aks ettirib, bunda shaxsni insoniyatning barcha madaniy merosiga, ya'ni nafaqat o'zining milliy madaniyatiga, balki boshqa xalqlarning madaniyatiga ham munosabati nazarda tutiladi. Shunday ekan, inkulturatsiya "keng gumunitar madaniyatni o'zlashtirishni" anglatadi.

Sotsializatsiya tushunchasidan farqli ravishda inkulturatsiya insonni konkret madaniyatdagi xulq-atvor an'analari va normalariga o'rgatishni nazarda tutadi. Bu inson va uning madaniyati o'rtasidagi munosabatlar almashinuvi jarayonida ro'y beradi, bunda bir tomondan madaniyat inson shaxsining asosiy qirralarini belgilab beradi, ikkinchi tomondan esa, insonning o'zi o'z madaniyatiga ta'sir ko'rsatadi. Inkulturatsiya o'z ichiga asoslangan insoniy ko'nikmalarni shakllantirishni qamrab oladi, masalan, boshqa odamlar bilan muomala shakllari, o'z xulq-atvori va emotsiyalarini nazorat qilish, asosiy ehtiyojlarni qondirish usullari, atrof-muhitdagi turli hodisalarga baholovchi munosabatda bo'lish va h.k. Inkulturatsiya natijasi bo'lib insonning xulq-atvori va emotsional jihatdan ma'lum madaniyatning boshqa a'zolari bilan o'xshash va boshqa madaniyat namoyandalaridan farqli tomoni hisoblanadi. Xarakteriga ko'ra, inkulturatsiya jarayoni sotsializatsiyaga nisbatan murakkabroqdir.

E.Eriksonning fikricha, hayotdagi ijtimoiy qonunlarni o'zlashtirish, madaniy normalar, qadriyatlar, an'analar va urf-odatlarini o'zlashtirishdan ancha tezroq amalga oshadi [7].

Individual darajada inkulturatsiya jarayoni o'ziga o'xshash odamlar bilan kundalik muloqotda namoyon bo'ladi: qarindoshlar, do'stlar, tanishlar yoki shu madaniyatga mansub notanish odamlar bilan muomalada inson o'zi anglagan yoki anglamagan holda turli hayotiy vaziyatlarda o'zini qanday tutish, hodisalarni baholash, mehmon kutish, u yoki bu e'tibor yoki signallarga munosabatda bo'lishni o'rganadi. Shundan inkulturatsiya jarayoni mazmuni quyidagi bilim va ko'nikmalarni egallashni o'z ichiga oladi:

- hayotini ta'minlash: kasbiy faoliyat, uy mehnati, mahsulot va xizmat ko'rsatishdan foydalanish;
- shaxslilik rivojlanishi: umumiy va kasbiy ma'lumotni egallash, ijtimoiy faollik, qiziqish mashg'ulotlari;
- ijtimoiy kommunikatsiya: rasmiy va norasmiy muloqot, sayohatlar, jismoniy harakatlanish;
- energetik harajatlarni tiklash: ovqat iste'mol qilish, shaxsiy gigiyenaga rioya qilish, passiv dam olish, uyqu.

Inkulturatsiya yoki madaniyatga o'rgatish bir necha yo'llar orqali amalga oshadi, lekin uning ko'proq tarqalgan turi bivosita, ya'ni insonning o'zi boshqa odamlar xulq-atvorini kuzatishidir. Bunday usulda, hattoki eng sodda bo'lgan, biz har kuni bajaradigan muolaja ham inkulturatsiya nuqtai nazaridan ma'lum qadriyat hisoblanadi, chunki u turli madaniyatlarda turlicha mazmun kasb etuvchi pozalar va imo-ishoralardan tashkil topadi. Ovqatlanish paytida yovvoyi hayvon va insonning xulq-atvori o'rtasidagi farq keskin. Sivilizatsiyalashgan insonni u yoki bu madaniyat normalari asosida o'z ehtiyojlarini qanday qondirishga o'rgatadilar. Boshqacha qilib aytganda, madaniyat bizni qayerda, qanday ish tutishimizga o'rgatadi. Ko'rsatilgan farqlarga qaramay, sotsializatsiya va inkulturatsiya tushunchalari mazmun va mohiyati fanda munozaralarga sabab bo'lmoqda. M.Mid ijtimoiylashuv termini ostida umuman ta'lim berishni, inkulturatsiya termini ostida esa maxsus madaniyatda yuz beradigan ta'limni tushunadi.

D. Matsumotoning fikricha, sotsializatsiya bu odamlarning ijtimoiy va madaniy normalarni bilish jarayoni, inkulturatsiya esa — sotsializatsiya jarayoni mahsulidir [8]. Deyarli barcha tadqiqotchilar sotsializatsiya universalroq xarakterda ekanligi, inkulturatsiya esa madaniy xususiyatga ega ekanligida to'xtalib o'tadilar.

Shunday ekan, inkulturatsiya va sotsializatsiya jarayonlari bir-biridan tubdan farq qiladi va ularni aynan bir ma'noni anglatuvchi tushunchalar sifatida qabul qilish noto'g'ridir. Ko'rib turganimizdek, ilmiy adabiyotlarda bu tushunchalar bir tomondan bir xil deb qaralsa, ikkinchi tomondan alohida jarayon sifatida e'tirof etiladi. Biroq hali hanuz olimlar bu borada bir to'xtamga kelganlari yo'q. So'nggi yillarda krossmadaniy tadqiqotlarga e'tiborning ortib borishi mazkur muammoning hal bo'lishiga zamin hozirlaydi.

Shunday qilib, xulosa qilish mumkinki, shubhasiz inkulturatsiya va sotsializatsiya jarayonlari bir—biri bilan uzviy bog'liq va faqat birgalikda yuz berishi mumkin. Har bir inson o'z individual taraqqiyoti jarayonida ma'lum madaniyatga mansub sotsializatsiya va umumiy inkulturatsiyaga erishadi. Hozirgi davrda inson inkulturatsiya va sotsializatsiyasiz jamiyatning a'zosi sifatida mavjud bo'la olmasligi shubhasiz, shuning uchun bu jarayonlarni chetlab o'tib bo'lmaydi. Inkulturatsiya natijasida inson o'zini o'rab turgan ijtimoiy muhitda mustaqil harakatlanishga, avvalgi ajdodlar qoldirgan madaniyat predmetlaridan foydalanishga, jismoniy va aqliy mehnat natijalari bilan o'rtoqlashishga boshqa odamlar bilan o'zaro hamjihatlikka qodir bo'ladi. Shu xususiyatlari bilan odam boshqa madaniyat vakillaridan ajralib turadi. Sotsializatsiya jarayoni natijasida inson jamiyatning to'la huquqli a'zosi aylanadi, ya'ni talab etilgan ijtimoiy rollarni mustaqil bajaradi, bunda madaniy xususiyatlarga e'tibor berilmaydi. Inkulturatsiya jarayonlari ham, sotsializatsiya jarayonlari ham asosan maxsus o'qitish davomida emas, balki kattalar rahbarligida va o'z tajribasiga suyangan holda boradi. Faqatgina ulardan ba'zilariga

maxsus ijtimoiylashuv institutlari — maktablar, oliy o'quv yurtlarida yuz beradi [9].

Kattalar va bolalarda sotsializatsiya jarayonlarining turlicha kechishi aniqlangan. Buning sabablarini Orvil G.Brim o'rgangan. U quyidagi farqlarni aniqlagan.

1. Kattalarda sotsializatsiya tashqi xulq-atvorni o'zgartirsa, bolalarda esa bazaviy qadriyatlarni transformatsiyalaydi.

2. Kattalar normalarni baholashga va ularg tuzatish kiritishga qodirlar, bolalar esa ularni tanqidsiz o'zlashtiradilar.

3. Yetuklik ko'rinishidagi sotsializatsiya oq va qora orasiga qo'shimcha ranglarni kiritisa, bolalar esa boshqalarni baholash va fikrlashda kontrast ranglardangina foydalanadilar. Kattalar ko'pgina ijtimoiy rollarni bajaradilar, kichiklar esa yo'q.

4. Kattalarda sotsializatsiya jarayoni professional mutaxassislik liniyasi bo'yicha ketsa, bolalar esa hayotning umumiy prinsiplari, ahloqiy qadriyatlarni o'rganadilar.

Sotsializatsiya va inkulturatsiya tushunchalari o'z tarkibiga ko'ra bir-biriga juda yaqin bo'lib, ularni aralashtirib yubormaslik zarur. Sotsializatsiya insonning hayotda zamonaviy jamiyatdagi ta'limini anglatadi. Inson qanday davlatga bormasin ijtimoiy tuzilma va jamiyat stratifikatsiyasi, insonlarning sinflarga bo'linishi, pul ishlab topish usullari va oilada rollarning taqsimlanishi, bozor iqtisodiyotining asoslari va davlatning siyosiy tuzilishi, fuqarolik xuquqlari xaqidagi elementar tasavvurga ega bo'lishi zarur.

Inkulturatsiya insonning konkret madaniyatda xulq-atvor normalari va an'analariga o'rganishini anglatadi. Madaniyat turli davlatlarda ijtimoiy tuzilmaga nisbatan maxsusroqdir. Unga to'liqligicha kirishib ketib moslashish qiyin. Masalan, O'zbekistondan boshqa bir mamlakatga ko'chib o'tgan emigrant hayotning ijtimoiy qonunlarini tez o'zlashtiradi. Lekin, boshqa bir madaniyatning normalari va an'analarini o'zlashtirish juda katta qiyinchilik bilan kechadi. O'zbekistonlik programmist yoki injener chet elda tan olingan yuqori kvalifikatsiyaga ega bo'lib turib, qisqa muddatda o'zining yangi mavqeiga xos xuquqlari va majburiyatlarini o'zlashtiradi. Bir oydan so'ng u o'z vazifasini shu davlatning tub aholisidan farqlanmagan tarzda bajara oladi. Lekin boshqa bir madaniyatga o'rganib o'zini kidek xis qilishga bir necha yillardan keyin ham erisha olmaydi. Shunday ekan, hayotning ijtimoiy tartiblariga moslashish inkul'turatsiya — qadriyatlar, an'analar va odatlarga moslashishdan ko'ra qiyinroq kechadi. Insondan "Sen kimsan?" deb so'ralganda u sotsializatsiya nuqtai nazaridan "Men professor, olim, injener, oila boshlig'iman", deb javob berishi kerak. Inkulturatsiya nuqtai nazaridan esa u "Men rus, ukrain yoki o'zbekman" deb o'z millatini ko'rsatishi lozim [10].

Shunday ekan, inkulturatsiya va sotsializatsiya jarayonlari bir-biridan tubdan farq qiladi va ularni aynan bir ma'noni anglatuvchi tushunchalar sifatida qabul qilish noto'g'ridir. Ko'rib turganimizdek, ilmiy adabiyotlarda bu tushunchalar bir tomondan bir xil deb qaralsa, ikkinchi tomondan alohida jarayon sifatida e'tirof etiladi. Biroq hali hanuz olimlar bu borada bir to'xtamga kelganlari yo'q. So'nggi yillarda krossmadaniy tadqiqotlarga e'tiborning ortib borishi mazkur muammoning hal bo'lishiga zamin hozirlaydi.

Адабиётлар рўйхати

1. G'oziyev E. Psixologiya metodologiyasi. T., "Noshir", 2013.-B.110
2. Safayev N.S. Osobennosti issledovaniy mejkulturnoy kommunikatsii.//Vestnik Omskogo universiteta. Seriya Psixologiya. 2018., №2.-B.25-28.
3. Abdurahmonova Z.E. Miliy birlik tuyg'usining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. T."Falsafa va huquq instituti nashriyoti".2010.B.18-20.
4. Флиер А. Я. Культурология для культурологов. М.: Академический проект, 2000.
5. Levine R. A. Culture, Behavior and Personality. New York: Aldine Publishing Company, 1982. P. 3 — 4.
6. Белинская Е.П., Стефаненко Т.Г. Этническая идентичность: понятие, формирование, модели измерений // Этническая социализация подростка. М. Воронеж, 2000. - Б. 75-107.
7. Эриксон Э. Детство и общество. - СПб.: Ленато. АСТ, Фонд «Университетская книга», 1996 а.- 592с.
8. Матсумото Д. Психология и культура. М. 2003.-Б.56.
9. Грушевицкая Т.Г., Попков В.Д., Садохин А.П. «Основы межкультурной коммуникации. М. 2002.,Б. 54-65.
10. Гришаева, Л. И. Взаимодействие факторов «свой», «чужой», «другой» при аккультурации и инкультурации личности Текст. / Л. И. Гришаева //Идентичность в контексте глобализации: Европа, Россия, США. — Калининград, 2003. — С. 54-68.

BOSHQARUV FAOLIYATIDA QAROR QABUL QILISH JARAYONINING GENDER VA IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Nazarov Azamat Sottarovich,

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi katta o'qituvchisi,
psixologiya fandlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshqaruv faoliyatida qaror qabul qilish jarayonining gender, ijtimoiy-psixologik mazmun-mohiyati nazariy jihatdan taqtil qilingan. Maqolda qaror qabul qilish "noaniq vaziyatlarda dastlabki axborotlarni o'zgartirish asosida, maqsad sari olib boruvchi, xatti-harakatlar izchilligini ta'minlovchi irodaviy aktlar, qaror qabul qilish jarayoni insonning maqsadga muvofiq faoliyati bilan bevosita bog'liq xususiyatlari, boshqaruv qarorlarini qabul qilish kabi harakatlarida namoyon bo'lishi tahlil etilgan. Qaror qabul qilishning ko'plab fanlarda psixologiya, sotsiologiya, falsafa, menejment kabi fanlar keng qamrovli tadqiqotlariga asosiy e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: shaxs, personal, shaxsning individual xususiyatlari, menejment, qaror qabul qilish, boshqaruv qarorlari, ongli tanlov, determinizm, indeterminizm.

ГЕНДЕРНЫЕ И СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРОЦЕССА ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ В УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Назаров Азамат Соттарович,

*Старший преподаватель Международной исламской академии Узбекистана,
Доктор философии в области психологии (PhD)*

Аннотация: В данной статье теоретически моделируется гендерное, социально-психологическое наполнение процесса принятия решений в управленческой деятельности. В статье анализируется, что принятие решений происходит «на основе изменения предварительной информации в неопределенных ситуациях, произвольных действий, ведущих к цели, обеспечивающих последовательность поведения, особенностей процесса принятия решений, непосредственно связанных с целенаправленной активностью человека, проявляющаяся в таких действиях, как принятие управленческих решений. Основное внимание уделяется комплексным исследованиям принятия решений во многих дисциплинах, таких как психология, социология, философия и менеджмент.

Ключевые слова: личность, персонал, индивидуальные особенности личности, управление, принятие решений, управленческие решения, осознанный выбор, детерминизм, индетерминизм.

GENDER AND SOCIO-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF DECISION-MAKING IN MANAGEMENT

Nazarov Azamat Sottarovich,

*Senior lecturer at the International Islamic Academy of Uzbekistan,
Doctor of Philosophy in Psychology (PhD)*

Annotation: This article theoretically models gender, socio-psychological content of decision-making process in managerial activity. The article analyzes that decision-making occurs «on the basis of change of preliminary information in uncertain situations, arbitrary actions leading to the goal, providing consistency of behavior, features of decision-making process directly related to purposeful human activity, manifested in such actions as managerial decision-making. The focus is on comprehensive research on decision-making in many disciplines such as psychology, sociology, philosophy and management.

Key words: personality, personnel, personality traits, management, decision-making, management decisions, informed choice, determinism, indeterminism.

Aniqlanishicha qaror qabul qilish "noaniq vaziyatlarda dastlabki axborotlarni o'zgartirish asosida, maqsad sari olib boruvchi, xatti-harakatlar izchilligini ta'minlovchi irodaviy aktdir. Bundan tashqari, qaror qabul qilish jarayoni insonning maqsadga muvofiq faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lib, u shaxsiy hayotda har bir insonning kasb tanlash, oilaviy munosabatlarni hal qilish, dam olish va ishlash, o'z byudjetini taqsimlash, boshqalarni boshqarish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish kabi harakatlarida namoyon bo'ladi. Hozirga qadar, ushbu ilmiy tushuncha haqida ko'plab fanlarda psixologiya, sotsiologiya, falsafa, menejment kabi fanlar keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqda.

Ularni o'rganish nafaqat psixologiya fani uchun balki, jamiyatimiz boshqaruvi uchun ham ko'plab o'zgarishlar va yangiliklarni olib kelishi ehtimoldan holi emas.

O.D.Volkogonovanning aytishicha, qaror qabul qilish jarayoni alohida ahamiyatga ega hodisa sanalib, u inson faoliyatining har qanday yo'nalishida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga mazkur jarayon, fanlararo tadqiqotlarning perimetri bo'lib, unda bir qator bilimlarning integratsiyasi yuz beradi. Bunda qaror qabul qilishga xos axborot, iqtisodiy, psixologik, mantiqiy, tashkiliy, matematik, huquqiy kabi jihatlar ajratiladi. Demak, qaror qabul qilish nafaqat insonning imkoniyati qolaversa, tashqi muhitning omillariga ham bog'liq hisoblanadi.

A.G.Evlanov qaror qabul qilishni shunday ta'riflaydi: "inson o'z ishi doirasida turli xil qarorlarni qabul qiladi yoki biror masala yuzasidan bir to'xtamga keladi. Qaror qabul qilishning samaradorligi bu, sub'ektning o'z faoliyatidan yaxshi xabardorligi bilan belgilanib, unda shaxsning motivatsiya darajasi, tavakkal qila olish qobiliyati, hayotiy tajribasi hamda aqliy imkoniyati kabilar ajratiladi". Muallifning mulohazalaridan shuni ko'rish mumkinki, qaror qabul qilish nafaqat hayotiy tajriba balki, sohaga oid o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanganlik darajasiga ham uzviy bog'liqdir.

A.V.Karpovning ta'kidicha, psixologiya fanida turli xil faoliyat va sharoitlarda insonning qaror qabul qilish imkoniyati masalasi, o'tgan asrning yakkinchi yarmida ko'pchilik psixolog tadqiqotchilar tomonidan keng miqyosda o'rganilgan bo'lib, ushbu tadqiqotlar turkumiga L.S.Vygoskiy, S.L. Rubinshteyn, O.K. Tixomirov, T.V. Kornilova, P.K. Anoxin, Yu.M. Zabrodin, D.N. Zavalishina, V.P. Zinchenko kabi olimlarning izlanishlarini misol qilish mumkin. Mualliflar asosan, muammoni insonning qadriyatlarini yo'nalishi va shaxslilik sifatlarini bilan aloqadorligini tekshirib ko'rishga harakat qilishgan.

Yuqoridagilardan farqli o'laroq, tadqiqotchilardan D.D.Kanneman, A.G.Tverskiy, G.A.Saymonlar qaror qabul qilish fenomeni va uni amalga oshirish yo'llari haqida o'ziga xos izlanishlar olib borgan bo'lib, oxir –oqibat qaror qabul qilishni tushuntiruvchi matematik va iqtisodiy modellarni yaratishga muvaffaq bo'lganlar. Mazkur modellar asosida keyinchalik, qaror qabul qilishning psixologik omillari, determinantlari va o'ziga xos jihatlari ko'rib chiqilgan. Ya'ni, qaror qabul qilish jarayoni ichki vositachilik hamda insonning ob'ektiv muhitni idrok etish xususiyati sifatida talqin etilgan.

D.M.Ramendikning tasdiqlashicha, insonning shaxslilik xususiyatlari va qaror qabul qilish jarayoni o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik munosabatlarini o'rganish masalalari olimlardan B.F. Lomov, Ye.P. Ilin, A.V. Karpov, V.I. Morosanova, O.I. Larichev hamda I.E. Zadorojnyuklarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Mazkur ishlarda asosiy e'tibor, qaror qabul qilishda insonlarga xos tiplar, irodaviy sifatlar, individual-psixologik xususiyatlar kabilarga qaratilgan. Ayrim manbalarda qaror qabul masalasiga oid ilk psixologik yondashuvlarni aniqlab bergan tadqiqotchi sifatida, Yu.T.Kozeleskiy tilga olinadi. Muallif qaror qabul qilish jarayonini quyidagi bosqichlarga ajratdi:

- Vazifaning sub'ektiv g'oyasini yaratish;
- Muqobil qarorlarni qabul qilish va vaziyatlar oqibatini baholash;
- Muqobil variantlarni qabul qilishda, samaradorlikni belgilovchi shartlarni bashorat qilish;
- Baholangan muqobil variantlardan tanlov natijalari bo'yicha, qaror qabul qilish va hokazo.

Mazkur mulohaza mazmunidan shu narsa ma'lumki, qaror qabul qilish jarayonini boshlashning zaruriy sharti bu – vazifaning shaxs tomonidan dolzarbligini anglashdir. Ya'ni vazifa qanchalik qiziqarli va ahamiyatli bo'lsa, inson tomonidan qabul qilingan qaror shunchalik samarador bo'ladi. Psixolog olimlardan O.A.Kulagin ham qaror qabul qilish jarayonini shaxsning tanlov erkinligi xususiyati orqali ko'rib chiqib, u muammoga oid ko'plab nazariy yondashuvlarni birlashtirishga erishgan. Muallifning aytishicha, qaror qabul qilish jarayoni psixologik hodisa sanalib, u shaxsda mavjud bo'lgan ratsionallik va xavf-xatarni qabul qilishga tayyorlik bilan tavsiflanadi. Shuningdek, ushbu jarayonda shaxsga xos o'zboshimchalik va o'zgaruvchanlik kabi xulq-atovr shakllari ham mavjud. Mazkur ilmiy g'oyaga muvofiq, insonning xavf-xatarga tayyor turishi hamda ratsional tarzda vaziyatlarni baholash imkoniyati, qaror qabul qilish jarayonini tushuntiruvchi eng ahamiyatli psixologik jihatlar sanaladi.

Tadqiqotchilardan O.K.Tixomirov o'z izlanishlarida intellektual qaror qabul qilish muammosiga keng e'tibor qaratib, unda asosan insonning kompyuter bilan dialogik qaror qabul qilish jarayoni tahlil etilgan. Muallifning so'zlariga ko'ra, inson va kompyuter bilan dialogda kechadigan intellektual qarorlarda, faoliyatning kognitiv uslubi, shaxsning o'zini tartibga solish qobiliyati, fikrlash jarayonidagi kognitiv uslublar kabilarning roli o'ta muhim hisoblanadi. Ya'ni kognitiv uslublar nafaqat qaror qabul qilish uslubini balki, shaxsga xos xarakterologik sifatlar majmui mazmunini ham belgilaydi.

S.V.Abramovning ilmiy tadqiqot ishlarini misol qilish mumkin. Muallifning fikricha, qaror qabul qilishdagi omillarning ikki guruhi mavjud:

1. Sub'ektiv omillar – tafakkur bilan bog'liq ichki-aqliy, hissiy jarayonlar o'rin oladi;
2. Situatsion (vaziyatli) omillar – kutilmagan vazifalar, murakkab sharoitdagi talablar, tezkor ijtimoiy ahamiyatga molik qarorlar va hokazo. Shu bilan birga, situatsion omillar sharoitida qarorlar qabul qilish holati, organizmning ichki imkoniyatlariga ham uzviy bog'liq sanalib, unda insondagi quvnoqlik, charchoq hissi, vazifalarni bajarishga bo'lgan ishtiyoq kabi masalalar o'rin olgan.

Qaror qabul qilish uchun eng barqaror omillar sifatida insonga temperament, xarakter hamda shaxslilik sifatlarini tan olinadi. Demak, keltirilgan omillarning barchasi inson ehtiyojlariga ta'sir qilib, uning qaror qabul qilishga bo'lgan xatti-harakatlarini belgilaydi. Insonning axborotlarni idrok etishi va ularni qabul qilishi qaror qabul qilish jarayoni bilan besovita bog'liq bo'lib, bu borada L.V.Ivanova shunday deydi: "Insonlarning qonunlarni yaxshi tushunishi, ularni yaxshi idrok etishi, his eta olishi, boshqalarning tajribalarini yaxshi o'zlashtira olishi qaror qabul qilish qobiliyatlarini belgilab, shu orqali insonlar nimani qanday qilishni, o'zgalarni qanday boshqarishni va vaziyatlardan qanday chiqib keta olishni amalga oshiradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, qaror qabul qilish jarayoni ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, u boshqalarning manfaatlariga ham keng ta'sir etadi. Ya'ni qaror qabul qilishdagi xatolar katta salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun, boshqaruvda rahbarlar tomonidan qabul qilinadigan

qarorlar sifatini oshirishda, boshqaruv faoliyatini takomillashtirish ishlari eng chora-tadbirlardan biri hisoblanadi. K.V Korostelina so'zlariga ko'ra, qaror qabul qilish fenomenini tor va keng ma'noda talqin qilish mumkin. Tor ma'noda, bu eng yaxshi yechimni tanlash va tasdiqlashga qaratilgan yakuniy harakatdir. Bunday holatda, qaror individual yoki guruhviy qabul qilingan tanlov akti sifatida qaraladi. Keng ma'noda esa, qaror qabul qilish - bu vaqt o'tishi bilan amalga oshiriladigan hamda bir necha bosqichda amalga oshiriladigan hodisadir. Ushbu bosqichda qarorlarni tayyorlashning barcha usullari va alternativallari muhim rol o'ynaydi. Shu jihatdan qaranganda, qaror qabul qilish insonning biror masala yuzasidan amalga oshirgan eng maqbul tanlov yo'li yoki bir necha bochqichli aqliy harakatlari majmuidir.

T.V.Novoselovanning ta'kidicha, qaror qabul qilish jarayonini tushuntirishda bir necha fanlarning rolini hisobga olish lozim. Ya'ni har bir soha vakillari ishlab chiqarilayotgan qarorlarning o'ziga xos xususiyatlari va insonlarning imkoniyati kelib chiqib turlicha ta'rif beradilar. Masalan matematiklar qaror qabul qilish jarayonini o'zlari tavsiya qilgan usullar va algoritmlar nuqtai nazaridan tahlil etadilar. Sotsiologlar esa, jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar mazmunidan kelib chiqib, tushuntirishga harakat qilishadilar. Psixologlar esa, inson qaror qabul qilishining motivatsion, kognitiv va hissiy jihatlariga alohida e'tibor qaratib, mazkur omillar orqali uning murakkab asoslarini tushuntirishga harakat qilishadilar. Darhaqiqat, mazkur mulohazaga ko'ra, qaror qabul qilish hodisasi fanlararo integratsiyalashgan muammodir. Shuningdek, qaror qabul qilish - bu bitta harakat yo'nalishini, bir necha mavjud variantlardan bitta variantni tanlash bosqichidir. Agar insonda variantlar bo'lmasa, unda vazifaga nisbatan tanlov yoki yechim ham yo'qdir.

Boshqaruv qarorlari qabul qilish nazariyasi shakllanishi tarixini o'rganish jarayonini to'rt yirik bosqichga bo'lish mumkin:

Asosiy yondashuv va nazariyalarning shakllanishi, G. Lassuelning siyosiy-boshqaruv fanlarini ijtimoiy bilimlarning alohida sohasi deb tan olinishi zarurligi muammosini ko'tarib chiqishi (1940 yillar oxiri - 1960 yillarning ikkinchi yarmi);

Yo'nalishning universitet fani va ilm sohasi sifatida institutlashuvi (1960 yillar oxiri - 1970 yillar);

Nazariy va empirik yo'nalishlar ko'lamining kengayishi va mazmunan chuqurlashuvi, yo'nalish va sohalarga bo'linishi hamda ixtisoslashuvi (1980-1990 yillar);

Boshqaruv qarorlari muayyan ishlab chiqarish holatini tahlil qilishdan kelib chiqishi, iqtisodiy, texnikaviy va boshqa sotsial qonunlarning amal qilishini hisobga olishi, hozirgi zamon fan-texnika yutuqlari negizida qabul qilinishi bosqichi (1990 yillardan boshlab).

Tarmoqlarga oid boshqaruv ilmi boshqaruvning alohida sohalari (sog'liqni saqlash sohasidagi siyosat, milliy munosabatlarga doir siyosat, tashqi siyosat va boshqalar) bilan bevosita bog'liq - qarorlar qabul qilishga oid bilim esa davlat siyosatining umumiy mexanizmiga aloqador bo'lib, davlat apparatining tashkiliy tuzilmasini, uning bo'linmalari o'rtasidagi munosabatlar, boshqaruv xodimlari tarkibi, boshqaruv jarayonini takomillashtirishga xizmat qiluvchi texnologiyalarni o'z ichiga oladi. Shunday qilib, boshqaruv qarorlari qabul qilish nazariyasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: boshqaruv qarorlari qabul qilish nazariyasi siyosiy boshqaruvga oid fan bo'lib, qarorlar qabul qilishning qonuniyatlari va mexanizmlarini o'rganadi. Shuningdek, bu nazariya davlat qarorlarini tayyorlash, qabul qilish va amalga oshirish tamoyillari hamda usullarini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, mazkur nazariya muayyan muammoli vaziyatlarda davlat boshqaruvi samaradorligini ilmiy intellektual jihatdan ta'minlashga yo'naltirilgan. Demak, boshqaruv qarorlarini qabul qilish nazariyasi ham nazariy, ham amaliy jihatga ega bo'lib, bir tomondan, boshqaruvning mohiyatini tahlil qilishga, ikkinchi tomondan, qarorlar qabul qilish uchun tavsiyalar ishlab chiqishga yo'naltirilgan.

Boshqaruv qarorlari qabul qilish nazariyasining fanlararo tabiatga ega ekanligiga 1940-1960 yillarda G.Saymon, G.Lassuel, I.Dror va Ch.Lindblomlar katta e'tibor qaratganlar. Fanda bixevioristik, menejerlik va tizimiy yondashuvlarning keng yoyilishi XX asr o'rtalarida qarorlar qabul qilish nazariyasining shakllanishiga hamda uning fanlararo tabiatga ega bo'lishiga sabab bo'ldi. Birozdan keyin mazkur na-zariya kibernetik yondashuv va kompyuter texnikasi yordamida axborotni tahlil qilishning yangi usullarini o'zlashtirish tufayli yanada boyitildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Анфилов В. С. Системный анализ в управлении М.: Финансы и статистика, 2002.

Воробьев С. Н. Управленческие решения Текст. / С. Н. Воробьев,

В. Б. Уткин, К. В. Балдин. М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2003. — 317 с.

Назаров А. Принятие управленческих решений как психологическая проблема // Вестник интегративной психологии. – Международный научный журнал. г. Ярославль, 2019., №69.

Назаров А. Принятие управленческих решений как основная функция современного менеджера // Вопросы экономики и управления. - Международный научный журнал. г.Казан. 2020., №2.

5. Nazarov A. Psychological analysis of levels of administration of management decisions. // Вопросы экономики и управления.-Международный научный журнал. г.Казан. 2020., №3.

6. Nazarov A. Adoption of management decisions as the main function

TALABA SHAXSIDAGI REPRODUKTIV MOTIVLARNING DINIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Rasulova Nilufar Tulkunovna,
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi katta o'qituvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarda reproduktiv motivlarning ijtimoiy-psixologik va diniy-psixologik omillari nazariy-metodologik jihatdan tahlil etilgan. Bundan tashqari, maqolada mazkur muammo bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlarga bag'ishlangan. Maqolada "reproduktiv motiv", "reproduktiv ong", "reproduktiv madaniyat" shakllanganligining belgilaridan biri bo'lib, uni diniy omillar orqali tadqiq etish, hozirgi zamon yoshlariga xos bo'lgan, ko'plab ijobiy psixologik sifatlar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: ong, reproduktiv motiv, reproduktiv ong, psixologiya, yoshlar, qobiliyat, individ, individuallik, hulq-atvor.

РЕЛИГИОЗНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА РЕПРОДУКТИВНЫХ МОТИВОВ У СТУДЕНТА

Расулова Нилуфар Тулкуновна,
Старший преподаватель Международной исламской академии Узбекистана

Аннотация: В данной статье теоретически и методологически анализируются социально-психологические и религиозно-психологические факторы репродуктивных мотивов у студентов. Кроме того, статья посвящена продолжающимся исследованиям по данной проблеме. В статье анализируются один из признаков формирования «репродуктивного мотива», «репродуктивного сознания», «репродуктивной культуры», его исследование через религиозные факторы, многие положительные психологические качества, характерные для современной молодежи.

Ключевые слова: сознание, репродуктивный мотив, репродуктивное сознание, психология, молодежь, способность, личность, индивидуальность, поведение.

RELIGIOUS AND PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF REPRODUCTIVE MOTIVES IN A STUDENT

Rasulova Nilufar Tulkunovna,
Senior lecturer at the International Islamic Academy of Uzbekistan

Annotation: This article theoretically and methodologically analyzes the socio-psychological and religious-psychological factors of students' reproductive motives. In addition, the article is devoted to ongoing research on this issue. The article analyzes one of the signs of the formation of a «reproductive motive», «reproductive consciousness», «reproductive culture», its study through religious factors, many positive psychological qualities characteristic of today's youth.

Key words: consciousness, reproductive motive, reproductive consciousness, psychology, youth, ability, personality, individuality, behavior.

Yoshlarda reproduktiv ong shakllanishi bilan bog'liq muammolarga qiziqish ko'plab nazariy yondashuvlar va qarashlarda o'z ifodasini topgan. Ayniqsa, reproduktiv ong shakllanishiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik, diniy omillar va xususiyatlar muammoning mohiyatini ochib beruvchi asosiy vositalar sifatida chuqur o'rganiladi. E'tiborli jihat shuki, reproduktiv ong ko'plab tadqiqotlarda "tug'ilish", "ko'payish" muammosi bilan bog'liq holda tadqiq etilgan. Shu bois, reproduktiv ongni integratsion yo'nalishda o'rganish, turli tadqiqotlarning predmeti sifatida talqin etish maqsadga muvofiqdir.

Rus tadqiqotchisi F.N.Ilyasovning ta'rificha, reproduktiv ong bu har qanday holatda farzand ko'rish yoki farzand ko'rishdan bosh tortishga vositachilik qiluvchi harakatlar va munosabatlar tizimidir. Bunda reproduktiv ongni shakllantiruvchi asosiy omillar sifatida shaxsning munosabatlar tizimi birlamchi o'ringa qo'yiladi. Keyinchalik, sotsiolog A.I.Antonov bu ta'rifni boshqacha talqin qiladi va reproduktiv ongni ma'lum miqdordagi bolalarning tug'ilishiga vositachilik qiladigan harakatlar va munosabatlar tizimi deb ta'riflaydi. Ushbu yondashuvga ko'ra, reproduktiv ong – ko'proq, faqat farzand ko'rish, va tug'ilish bilan bog'liq harakat va munosabatlar bilan ham tavsiflanadi.

O'tgan asrning o'rtalarida AQSh tadqiqotchilari K.Devis va J.Bleyklar o'zlarining "Ijtimoiy tuzilma va tug'ilish: analitik sxema" nomli maqolasini e'lon qilishadi. Mazkur maqolaning mazmuniga muvofiq, insonning tug'ilish darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy omillari aks etgan, o'ziga xos modelni taklif qilishadi. Modelga ko'ra:

– Birinchi blok: nikohning tuzilishi va parchalanishi yoki nikoh tomonlarining jinsiy hayot bilan bog'liq qarashlari;

– Ikkinchi blok: nikoh, oilaviy hayot haqida tushunchalar yoki ularning yo'qligi bilan bog'liq hodisalar;

– Uchinchi blok: homiladorlik va ularning natijalari bilan bog'liq hodisalar. Ushbu modelga ko'ra,

reproduktiv hattiharakatlarning barchasi tashqi omillar bilan tavsiflanadi, ya'ni yoshlarda reproduktiv ong tashqi ijtimoiy ta'sirlar (tushunchalar, qarashlar, streotiplar, munosabatlar) natijasida shakllanadi. Ushbu yondashuvni to'ldiruvchisi sifatida, yana bir AQShlik olim R.Fridman o'zining "Sog'lom tug'ilish omillari aks etgan model sxemasini taklif qildi. Muallifning fikricha, reproduktiv ongni o'rganishda avvalambor, xulq-atvorning faqat tashqi omillarini aniqlashning o'zi yetarli emas, balki, ichki omillarni ham hisobga olish kera. Ya'ni shaxsning qadriyat yo'nalishlari, uning munosabati, motivlari va ehtiyojlari shular jumlasidandir. Reproductiv xulq-atvor nafaqat ba'zi tashqi harakatlar, reproduktiv hodisalar, balki shu ichki tuzilmalar, e'tiqodlar, munosabat va motivlarning ijobiy ifodalanishida o'z aksini topadi.

Nemis sotsiologi O.Kont reproduktiv ong shakllanishining ijtimoiy xususiyatlarini oila, davlat va din kabi asosiy ijtimoiy institutlarning o'zaro munosabatlar tizimida ko'rib chiqadi. Muallif oilani jamiyatning asosiy birligi sifatida e'tirof etadi. Xuddi shunday qarashlarni E.Dyurkgeymning asarlarida ham kuzatish mumkin. Uning aytishicha, reproduktiv ong oila, nikoh va din institutlarining o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi. Demak, din omili reproduktiv xulq yoki sog'lom e'tiqodni shakllantirishning asosiy vositasi ekanligini ko'rish mumkin.

Muammoni o'rganishda jamiyatshunoslik sohasining yetakchi vakillaridan biri bo'lgan, T.Parsonning izlanishlari o'ta ahamiyatli sanaladi. Uning bu sohadagi hissasi oilaviy jarayonlarni tahlil qilish uchun zarur bo'lgan tushunchalarni belgilash, shuningdek, ular o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashdan iborat. Tadqiqotchi o'zining "Ijtimoiy tizimlar" maqolasida nikoh va oilaviy munosabatlarni tavsiflab, ularning xususiyatlarini ijtimoiy tabaqalanish bilan izohlaydi. Xususan, u ko'plab oila funksiyalarini boshqa sohalarga o'tkazish jarayonini tasvirlaydi. Ya'ni uningcha, oilaning institut sifatida tanazzulga uchraganligidan dalolat bermaydi, balki uning jamiyatdagi roli ortib borayotganidan dalolat beradi deb ta'kidlaydi.

A.G.Vishnevskiy reproduktiv ongni jamiyatning o'zgaruvchan demografik inqiloblari nuqtai-nazaridan tahlil qiladi. Muallif, reproduktiv ongni jinsiy xulq-atvor bilan qanchalik chambarchas bog'liq bo'lishidan qat'i nazar, homiladorlik va tug'ilishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan xulq-atvor deb ta'riflaydi. Demak, reproduktiv ong sog'lom tug'ilish va ko'payish hodisasi bilan bog'liq jarayon, uning yaxshi shakllanishi har bir jamiyat uchun muhim sanalgan vazifalardan biridir. P.A.Sorokin o'zining "Zamonaviy oilaning inqirozi" maqolasida reproduktiv ongni oilada sodir bo'layotgan o'zgarishlar bilan tasvirlaydi. Uning fikricha, reproduktiv ongni shakllanishi jamiyatda sodir bo'layotgan sotsializatsiya jarayonlari bilan bog'liq. Jamiyatdagi o'zgarishlar, yangi streotiplar, yangi munosabatlar tizimi reproduktivlikka o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, reproduktiv xulq-atvor va ong sotsializatsiya jarayonida shakllanuvchi hodisadir.

Ta'kid joizki, yoshlarda reproduktiv ong shakllanishining ijtimoiy psixologik xususiyatlarini tahlil qilishda reproduktiv ustanovkalarining roli juda kattadir. Reproductiv ustanovkalar ijtimoiy ustanovkalarining bir turi sanaladi. "Ijtimoiy ustanovka" tushunchasi ijtimoiy psixologiyadan kelib chiqqan bo'lib, tadqiqotchi A.A.Devyatkinga ko'ra, ustanovka shaxsning o'tmish tajribalari bilan bog'liq tayyorligidir. Psixologiyada ijtimoiy ustanovkaga doir ko'pgina asarlar yaratilgan bo'lib, D.N.Uznadzening ijtimoiy ustanovkalarga doir qarashlari muhim o'rin tutadi. Uning qarashlariga ko'ra, ijtimoiy ustanovkalar deganda, sub'ektning integral dinamikasi yoki ma'lum bir faoliyatga tayyorlik holatini tushuniladi. Shu bilan birga, ushbu yondashuvga ko'ra, ustanovka - eng oddiy fiziologik ehtiyojlarni amalga oshirishga qaratilgan ongsiz narsa sifatida tavsiflanadi. Ustanovkalarining paydo bo'lishi shaxs uchun ayni vaqtda dolzarb bo'lgan ehtiyojlar va bu ehtiyojni qondirish uchun ob'ektiv vaziyat bilan harakterlanadi. Mazkur yondashuvga asoslanib, shuni aytish mumkinki, shaxs reproduktivligi asosan biologik omillar asosida yuzaga keladigan jarayondir. Biroq, biologik omillar yoki ayni paytdagi dolzarb ehtiyojlarni qondirish vositalari hozirda turli ko'rinishga egaligi tufayli, reproduktivlikni shakllanishida faqat ehtiyojni qondirish bilan bog'liq ustanovkalar yetarli emas deb hisoblashga asos bo'ladi.

Tadqiqotchilar V.Tomas va F.Znanetski ijtimoiy ustanovkani "Ma'lum bir ijtimoiy hamjamiyatda qadriyat sifatida belgilangan ob'ektga individual munosabat" sifatida tushuntiradilar. Bu yerda ular "ustanovka" ning psixologik tushunchasini va "qadriyat" falsafiy tushunchasini birlashtirdilar. Mualliflarning ta'kidlashicha, ijtimoiy ustanovka - bu shaxsning ijtimoiy olamdagi real yoki mumkin bo'lgan faoliyatini belgilaydigan individual ongi xossasidir. Agar ustanovkaning paydo bo'lishi haqida gapiradigan bo'lsak, shuni ta'kidlash kerakki, bundan oldin shaxs tomonidan ma'lum bir ehtiyojni anglash, shuningdek, ushbu ehtiyojni qondirish mumkin bo'lgan shartlar mavjud. J.Petersonning yozishicha, jamiyatda shunday holat vujudga keladiki, ma'lum bir ehtiyoj shaxsga ma'lum ma'lumotlar berilishi bilan qondiriladi va shu holat tufayli u yoki bu ustanovka shakllanadi, keyinchalik esa, ular mustahkamlanadi. Muallif ushbu qarashlarida, ijtimoiy ustanovkani o'ziga xos ijtimoiy qadriyat, faoliyatni esa, u bog'liq bo'lgan jarayon sifatida ta'riflaganlar. Demak, ijtimoiy ustanovka - bu ijtimoiy olam bilan bog'liq holda namoyon bo'lishida ko'rib chiqiladigan va ma'lum bir qadriyat bilan bog'liq holda qabul qilinadigan psixologik jarayondir. Reproductivlik shakllanishi nafaqat biologik omillar bilan balki, jamiyat ta'siri natijasida vujudga keladigan ijtimoiy qadriyatlar tufayli ham shakllanadi. Aksariyat holatlarda esa, ijtimoiy qadriyatlar din institutlari orqali shakllanadi va rivojlanadi.

Simvolik interaksionizm asoschilaridan biri J.Midning asarlari ko'proq, ramzlar yordamida amalga

oshiriladigan aloqa, o'zaro ta'sir muammolariga bag'ishlangan. J.Midning nuqtai-nazariga ko'ra, inson tafakkuri va xatti-harakatlarining o'zi sof ijtimoiydir. U odamlarning o'zaro ta'sirini ramzlar tomonidan yaratilgan stimullar va ularga mos keladigan reaksiyalar prizmasi orqali ko'rib chiqadi. Kishilar rag'batlantirishga nisbatan darhol javob berishi, javobni ma'lum vaqtga kechiktirishi yoki umuman javob bermasligi mumkin. Bu harakatning intellektuallashuvini, uning ijtimoiy tajriba bilan shartlanishini nazarda tutadi. Aytish joizki, bunday yondashuvga ko'ra, ijtimoiy ta'sirlar natijasida yuzaga keluvchi stimullar (biror ma'noni ifodalovchi imoishoralar, ovoz, hattharakatlar) va unga javob bo'luvchi reaksiyalar reproduktiv ongni shakllantiradi.

Ijtimoiy ustanovkalar sohasidagi yana bir muhim tadqiqotlar ishiga V.A.Yadovning shaxsining dispozitsion konsepsiyasini kiritish mumkin. Ushbu konsepsiya shaxsning ma'lum bir harakat yo'nalishiga tayyorligi holatiga qarab, uning ijtimoiy xulq-atvori tavsiflanadi. Shaxs uning xulq-atvorini belgilaydigan turli xil dispozitsion shakllanishlarning murakkab tuzilishiga egadir. Ushbu dispozitsiyalar ierarxik tarzda quyidan yuqoriga rivojlanib boradi. Bunda holatda esa, fanni qadriyatlar yo'nalishi bilan belgilanadigan ustanovkalar darajasi ko'proq qiziqtiradi. AQSh tadqiqotchisi K.M.Sheldon shaxs dispozitsiyalariga e'tibor qaratib, ular orasida kamroq va ko'prok aks etgan ehtiyojlarni ajratib o'tadi. Eng ahamiyatli dispozitsiya – bu insonning butun xayoti davomidagi yo'lini belgilaydigan xususiyatlaridir (masalan, "rahmdillikka moyillik"). Markaziy dispozitsiya – xulq-atvorning bu atrofdagilarning oson bilib oladigan tendensiyasidir. Ikkilamchi dispozitsiya – bu insonning biror vaziyatni afzal ko'rishi yoki vaziyatga moslashishida namoyon buladigan xislatlari majmuidir. Shu boisdan, yoshlarda reproduktiv ongni shakllanishi, ularning xulqatvor yo'nalishlari dinamikasi bilan bevosita bog'liqdir. Mahalliy tadqiqotchi, Z.A.Karimovning fikricha, xulqatvor yo'nalishlari bolalikdan, oilaviy ta'limtarbiya, qadriyatlar negizida shakllanadi. Bola doimo, otaonasini birbiriga hamda oialadagi farzandlariga ko'rsatadigan munosabatlarini o'ziga singdirib boradi. Demak, bolalikdagi ijobiy munosabatlar ijobiy qadriyatlarni, ular esa ijobiy ustanovkalarni paydo qiladi. Natijada ijobiy reproduktiv ong shakllanadi.

Amerika rivojlanish assosatsiyasi a'zosi, reproduktiv salomatlik bo'yicha mutaxassis M.Mesnutning yozishicha, reproduktiv ong shakllanishida ijtimoiy ustanovkalar uch komponentli tuzilishga ega:

- Kognitiv (kognitiv);
- Affektiv (hissiy);
- Xulq-atvor (rag'batlantiruvchi) komponentlar.

Niderlandiyaning Amsterdam universiteti professori T.E.Hardvik boshchiligidagi tadqiqotchilarning xulosalariga ko'ra, reproduktiv ong – bu har qanday tartibdagi, nikohda yoki nikohdan tashqari bola tug'ilishi yoki tug'ilishidan bosh tortishga qaratilgan shaxsning harakatlari, munosabatlari va ruhiy holatining ajralmas tizimi hisoblanadi. Tadqiqotchilar, reproduktiv ong shakllanishida psixologik xususiyatalarni o'rganishda, shaxsning quyidagi sohalarini ajratib o'tadilar:

- Motivatsiya;
- Temperament;
- Emotsional barqarorlik;
- Kognitiv jarayonlar;
- O'zaro munosabatlar tizimi;
- Xarakter;
- "Men" konsepsiyasi;
- Irodaviy sifatleri;
- Jinsiy identifikatsiya va boshqalarga e'tibor qaratish. Shuningdek, ijtimoiy xususiyatlar tahlilida:
- Ta'lim darajasi, ijtimoiy kelib chiqishi;
- Ijtimoiymadaniy muhit;
- Ekologiknutriologik omillar;
- Axborotlashgan jamiyat va yana boshqa omillar e'tiborga olinadi.

AQShning Indiana universiteti tadqiqotchisi D.Fanillening so'zlariga ko'ra, reproduktiv ong shaxs mavjud bo'lgan ijtimoiy muhitni hisobga olgan holda va qadriyat yo'nalishlari, ehtiyojlari va boshqalarni hisobga olgan holda o'rganish lozim. Rus tadqiqotchisi P.V.Zazulyaning ta'kidicha, reproduktiv ong shakllanishini psixologik tahlilida, avvalo, reproduktiv xatti-harakatlarning tuzilishiga e'tibor qaratish muhimdir. Ya'ni muallifga ko'ra, ushbu muhimlik quyidagilarda o'z aksini topadi:

– To'g'ridan-to'g'ri bolaning tug'ilishiga yoki reproduktiv xatti-harakatlarga qaratilgan qarorlar majmui;

- Kontraseptiv xatti-harakatlar, ya'ni homiladorlikni oldini olishga qaratilgan harakatlar;
- Abortiv xatti-harakatlar, ya'ni istalmagan tug'ilishning oldini olishga qaratilgan harakatlar.

Bu kabi tasniflarga asoslanib shuni aytish mumkinki, reproduktiv ong shakllanishini baholashga doir qarashlar turlicha ko'rinishga ega. Ba'zilar faqatgina farzand ko'rishni reproduktiv ong shakllanishining asosiy sharti hisoblasa, boshqalar esa shunchaki yashash, ehtiyojlarni qondirish, farzand ko'rishdan saqlanishni ham nazarda tutadi.

Yuqoridagi qarashlardan farqli o'laroq, yoshlarda reproduktiv ong nafaqat ijtimoiy yoki psixologik omillar ta'sirida balki, ma'naviyruhiy tomondan ham ta'sir ko'rsatish orqali shakllanishi va mustahkamlanishini uzoq yillik an'analarimiz, boy ma'naviy merosimiz hamda urf-odatlarimiz



tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Гильманов С.А. Диагностика качеств творческой индивидуальности педагога: Учеб. пособие. - Тюмень: Изд-во ТГУ, 1998. – С.34.

Грановская Р.М., Крижанская Ю.С. Творчество и преодоление стереотипов. - СПб.: ОМС, 1994. – С.101

Коломиец С.М. Творческие компетенции студентов социально-экономических специальностей: Монография. - М.: Издательство «Перо», 2010. – С.80.

Марфутенко Т.А. Дефиниция «творческая компетентность» в контексте педагогической деятельности // Вестник университета (Государственный университет управления). - М.: ГУУ, 2012. - №66. - С. 229 – 231.

Mc Nutt M. Reproducibility //Science. – 2014. – Т. 343. – №. 6168. – С.229 – 229.

Hardwicke T. E. et al. Analytic reproducibility in articles receiving open data badges at the journal Psychological Science: an observational study //Royal Society open science. – 2021. – Т. 8. – №. 1. – С.201.

ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN O'SPIRINLARNI IJTIMOYIY INTELLEKTINI DINAMIKASI

Ravshanova Xanifa Akmalovna
Pedagogika fakulteti "Pedagogika va psixologiya"
ta'lim yo'nalishi 2 - bosqich magistri

Annotatsiya: Maqolada eshitishda nuqsoni bo'lgan o'spirinlarni ijtimoiy intellektini dinamikasi o'rganilgan. Бунда, insonning hayot faoliyati uchun faqat aqliy intellektning o'sishi o'zi yetarli emasligi ta'kidlanib ijtimoiy intellektga alohida e'tibor berilib bugungi kunda har bir o'spirin shaxslararo munosabatda sub'ekt bo'libgina qolmay, u ijtimoiy munosabatlarga moslashuvchan, boshqalarning kechinmalarini his eta oladigan, ularga o'z ta'sirini o'tkazuvchi, munosabatlarga kirishimli, o'z xatti-harakatlarini boshqalarga moslashtira oladigan shaxs bo'lishini ham taqozo etishi masalasi hisobga olish kerakligi haqida fikr yuritilgan.

Аннотация: В статье исследуется динамика социального интеллекта слабослышающих подростков. При этом подчеркивается, что одного роста умственного интеллекта недостаточно для жизнедеятельности человека, и особое внимание уделяется социальному интеллекту, при этом считается необходимым учитывать тот факт, что социальный интеллект требуется человеку, который может чувствовать свои переживания, может влиять на них, может вступать в отношения, может приспосабливать свое поведение к другим.

Resume: The article examines the dynamics of the social intelligence of hearing-impaired adolescents. At the same time, it is emphasized that the growth of mental intelligence alone is not enough for human life, and special attention is paid to social intelligence, while it is considered necessary to take into account the fact that it requires a person who can feel his experiences, can influence them, can enter into relationships, can adapt their behavior to others.

Kalit so'zlar: eshitishda nuqsoni bo'lgan o'spirinlar, ijtimoiy intellekt, aqliy intellekt, nonverbal muloqot, intellektual rivojlanish, zaif eshituvchi, me'yorda eshituvchi.

Ключевые слова: слабослышающие подростки, социальный интеллект, психический интеллект, невербальная коммуникация, интеллектуальное развитие, слабослышающие, нормальный слух.

Key words: hearing-impaired adolescents, social intelligence, mental intelligence, non-verbal communication, intellectual development, hearing-impaired, normal hearing.

Bizning ijtimoiy intellekt yoki emotsional intellekt tushunchalarini qo'llashimizga sabab bo'lgan tomoni o'tgan asrning oxirlarida insonning kasbiy faoliyati uchun faqat aqliy intellektning o'sishi o'zi etarli emasligi borasidagi fikrlarning paydo bo'lganligi, bugungi kunda har bir mutaxassis sifatida shakllanayotgan shaxs o'z sohasi uchun kerakli bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga qobiliyatli sub'ekt bo'libgina qolmay, u ijtimoiy munosabatlarga moslashuvchan, boshqalarning kechinmalarini his eta oladigan, ularga o'z ta'sirini o'tkazuvchi, munosabatlarga kirishimli, o'z xatti-harakatlarini boshqalarga moslashtira oladigan shaxs bo'lishini ham taqozo etishi masalasi ko'ndalang bo'lib qoldi. Intellekt turlari ko'p bo'lib, ular o'zlarini har xil ko'rinishda namoyon etadi. Aksincha IQ koeffitsienti yuqori bo'lgan inson umumiy mazmunda mutlaqo talabga javob bermasligi yoki ijtimoiy jihatdan etuk bo'lmasligi mumkin. Ba'zi oddiy ko'cha bolasi oliy ma'lumotli yoki akademik klassifikatsiyasiga ega bo'lgan shaxslarga nisbatan kundalik turmush tashvishlari bilan bog'liq masalalarni yaxshiroq tahlil etishi mumkin. Bu esa ma'lumotlilik darajasi va IQ test natijalarisiz tahlil etish qobiliyatiga egadir. Biz shuni hisobga olgan holda o'spirinlarning intellekti diagnostikasi muammosini ikki jabhadan o'rganish masalasiga e'tibor qaratdik. O'tgan bobimizda o'spirinlarning umumiy (aqliy) intellekti va boshqa bir qator intellektlari bo'yicha izlanish natijalarini sharhlagan bo'lsak, mazkur bobda umumiy va boshqa intellektga mos tarzda o'spirinlarning ijtimoiy intellektini ham diagnostika qilamiz va uning dinamikasiga ham e'tibor qaratamiz.

Bizning o'z tadqiqotlarimizda ijtimoiy intellektga alohida e'tibor berishimizga sabab bo'lgan tomoni o'tgan asrning oxirlarida insonning hayot faoliyati uchun faqat aqliy intellektning o'sishi o'zi etarli emasligi borasidagi fikrlarning paydo bo'lganligi, bugungi kunda har bir o'spirin shaxslararo munosabatda sub'ekt bo'libgina qolmay, u ijtimoiy munosabatlarga moslashuvchan, boshqalarning kechinmalarini his eta oladigan, ularga o'z ta'sirini o'tkazuvchi, munosabatlarga kirishimli, o'z xatti-harakatlarini boshqalarga moslashtira oladigan shaxs bo'lishini ham taqozo etishi masalasi ko'ndalang bo'lib qoldi. Intellekt turlari ko'p bo'lib, ular o'zlarini har xil ko'rinishda namoyon etadi. Aksincha IQ koeffitsienti yuqori bo'lgan inson umumiy mazmunda mutlaqo talabga javob bermasligi yoki ijtimoiy jihatdan etuk bo'lmasligi mumkin. Biz shuni hisobga olgan holda zaif eshituvchi o'spirinlarning intellekti diagnostikasi muammosini ikki jabhadan o'rganish masalasiga e'tibor qaratdik. O'spirinning umumiy (aqliy) intellekti va boshqa intellektga mos tarzda ijtimoiy intellektini ham diagnostika qilamiz va uning dinamikasiga ham e'tibor qaratamiz.

Ijtimoiy intellektni o'rganishning tadqiqot metodikalarini umumiy sharhi xususida o'tgan

paragrafda aniqlik kiritib o'tib ketdik. Shu sababli bevosita tadqiqot natijalari sharhiga murojaat etaylik (1-jadval).

1-jadval


Zaif eshituvchi o'spirinlarning ijtimoiy intellekt ko'rsatkichlari

	Umumiy va ijtimoiy intellekt	M		U	
		Zaif eshituvchilar	Me'yorda eshituvchilar	Zaif eshituvchilar	Me'yorda eshituvchilar
1.	Umumiy intellekt	81,24	92,75	11,73	11,73
2.	Muloqot ishtirokchisining hissiyoti, fikri va niyatlarini tushunish	2,20	3,20	0,58	0,61
3.	Noverbal hulq-atvorni tushunish	3,10	3,26	0,85	0,90
4.	Verbal ekspressiyani tushunish	1,96	2,93	0,62	0,58
5.	Shaxslararo o'zaro ta'sirlashuvni tahlil etish	1,93	2,83	0,89	0,98

O'spirinlardagi ijtimoiy intellektni o'rganishda Dj.Gilford metodikasidan foydalanar ekanmiz, uning tarkibidagi subtestlar shaxs umumiy intellektini qirralarini yoritishga xizmat qiladi. Umumiy intellekt tushunchasining mazmuni va metodikaning xususiyatidan kelib chiqadigan bo'lsak, zaif eshituvchi o'spirinlarning muloqotda va ijtimoiy sharoitga moslashuvchanlikka qobiliyatligi hamda insonlarni idrok etish, ular bilan muloqatga kirishimlilikdagi integrallashgan intellektual qobiliyati o'rtachadan past darajali qiymatni ifodalamoqda. Bundan ko'rinadiki, zaif eshituvchi o'spirinlar ta'lim jarayonida umumiy ($81,24 \pm 11,73$) va ijtimoiy intellektni rivojlantirish masalasiga doimo e'tibor qaratishlari lozim bo'ladi. Ularni o'qish va tugarak ishlarida ko'proq jalb etilishi lozim. Bu esa ularning qiziqishi yanada mustahkamlanadi, yanada aniq, barqaror bo'lib qoladi. Ularning umumiy intellekti (IQ) darajasi o'rtachadan past bo'lgani singari. Ijtimoiy intellektni ifodalovchi mezonlardan "Muloqot ishtirokchisining hissiyoti, fikri va niyatlarini tushunish" bo'yicha ($2,20 \pm 0,58$) o'rtacha darajadan past, tengdosh(me'yorda eshituvchi)larida esa, ($3,20 \pm 0,61$)ni namoyon etdi. Bu esa zaif eshituvchi o'spirinlarning odamlar bilan munosabatni oldindan prognozlashni, voqea-hodisalarning borishini taxminlashga layoqatlari bor, ammo uni rivojlantirish lozim degan xulosani beradi. Agar zaif eshituvchi o'spirinlarda ushbu subtestni yuqori darajada echish qobiliyati bo'lganda, notanish kishilarni fotosuratiga qaraboq, uning kimligi, shaxsi haqida batafsil tavsif bera olardilar. Ammo, tengdosh(me'yorda eshituvchi)larda esa ijtimoiy intellektining bu jabhasi o'rtachadan yuqoriroq kamol topgan.

Har ikkala guruh o'spirinlari noverbal xulq-atvorni tushunish bo'yicha ham o'rtachadan yuqori qiymatga ega bo'lganlar: zaif eshituvchi o'spirinlar ($3,10 \pm 0,85$) va me'yorda eshituvchi o'spirinlar ($3,26 \pm 0,90$). O'spirinlar o'zlarini ishchanlik muhitiga tayyorlashga, noverbal signallarni ilg'ashga, odamlarning noverbal muloqotlari yordamida, pozasi, mimikasi va xatti-harakatlariga ko'ra, baholash iqtidorlari asosi borligidan dalolat beradi. Agar zaif eshituvchi o'spirinlar o'zlaridagi ushbu sifatni yuqoriroq darajada shakllantirishga erishsalar, u holda bu ularning faol, stenik, chuqur refleksiyaga, muloqotda insonlarning emotsional holatlariga nisbatan sezgirlikka, o'zlarining his-tuyg'ularini ham tushunishga moyilliklari ortishini bildiradi.

Yuqoridagi jadvalda keltirib o'tilgan me'yorda va zaif eshituvchi o'spirinlarning ijtimoiy intellekt ko'rsatkichlari bo'yicha tadqiqot natijalarini quyida (1-2 rasmlar) diagrammada aks etishini ko'rish mumkin.




1-rasm. Me'yorda va zaif eshituvchi o'spirinlarning ijtimoiy intellekt ko'rsatkichlari

Yuqoridagi jadvalda keltirib o'tilgan me'yorda va zaif eshituvchi o'spirinlarning umumiy intellekt ham xuddi ijtimoiy intellekt ko'rsatkichlari singari nazorat va tajriba guruh o'spirinlarida farq qiladi.

Me'yorda va zaif eshituvchi o'spirinlarning ijtimoiy intellekt ko'rsatkichlari yanada yaqqolroq ifodalash uchun 2-rasmda keltirib o'tamiz.

Shunday qilib, eshitishda nuqsoni bo'lgan o'spirinlar ijtimoiy intellekt testining barcha subtestlari va ayniqsa og'zaki bo'lganlar natijalari bo'yicha normal eshitish tengdoshlaridan pastroqdir, bu ulardagi barcha nutq funktsiyalarining sezilarli darajada rivojlanmaganligi va birinchi navbatda nominativ bilan bog'liq. Ko'pgina og'zaki bo'lmagan subtestlarda eshitish qobiliyati past bolalar o'spirinlar tomonidan olingan past qiymatlar, asosan, faoliyatni muvaffaqiyatli rejalashtirish va nazorat qilish uchun zarur bo'lgan nutqning tartibga solish funktsiyasining rivojlanmaganligi bilan bog'liq.

Biz ko'rib chiqayotgan intellektual rivojlanishning barcha ko'rsatkichlari bo'yicha eshitish qobiliyati past maktab o'quvchilari tomonidan olingan past ball (eshitish qobiliyati buzilgan bolalarga nisbatan) ularning nutqining barcha jihatlari va funktsiyalarining sezilarli darajada rivojlanmaganligi bilan bog'liq.



2-rasm. Me'yorda va zaif eshituvchi o'spirinlarning umumiy intellekt ko'rsatkichlari

Tadqiqot davomida olingan natijalarni tahlil qilganda, eshitish qobiliyati past maktab o'quvchilari guruhi quyidagi sabablarga ko'ra kichik guruhlariga bo'lingan: eshitish qobiliyatini yo'qotish darajasi, o'qish qobiliyati darajasi, bolaning uyda yoki maktab-internatda tarbiyalanishi, murakkab og'zaki ko'rsatmalarni qanday tushunish va takrorlash darajasi aniqlandi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'spirinlar intellekti diagnostikasi va dinamikasining aniq talqini muammoning jinsga munosabatini o'rganishni ham taqozo qiladi. Chunki, ular bu jihatdan bir xil emas. Shunga ko'ra, biz, o'spirin qizlar va yigitlarning jinsi bo'yicha ko'rsatkichlarini o'rganishga ham e'tibor qaratdik. Bu esa ijtimoiy intellektning rivojlanganlik holatining jinsiy tafovutlanishidagi farqlarni baholashga olib keldi.

Demak, eshitishda nuqsoni bo'lgan ilk o'spirinlar shaxslararo munosabatda intellektual qobiliyatlari birligida umumiy muhitni, suhbatdoshlarni xatti-harakatlari, shaxsiy fazilatlarini, kechinmalarini baholash imkoniyatlari qonuniyat jihatidan bog'liqligi tasdiqlandi.

Tadqiqotlarimizdan ma'lum bo'ldiki, eshitishda nuqsoni bo'lgan o'spirin ijtimoiy intellektning rivojlanishi sog'lom tengdoshlaridan anchagina quyi rivojlangan. Kelajakda, o'spirinlarning maktab-internatda doimiy bo'lishi sharti bilan, biz tomonidan aniqlangan rivojlanish tendentsiyalari va xususiyatlari ehtimol ortib boradi, bu esa maktab o'quvchilarining ijtimoiylashuv jarayonlariga salbiy ta'sir qiladi.

Eshitish qobiliyati zaif o'spirinlarning intellektini rivojlanishi nutqning tartibga solish funktsiyalarining rivojlanish sur'ati va o'ziga xosligi bilan bog'liq bo'lib, u nutq paytida verbal va noverbal vazifalarni hal qilish jarayonining turli ko'rsatkichlari o'smirlik yoshidan o'spirinlik davriga o'tish dinamikasida namoyon bo'ladi.

ADBIYOTLAR RO'YXATI

Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. // "Xalq so'zi", 2017 yil 15 yanvar.

Ravshanova. X.A., Avlayev O. U. Zaif eshituvchi o'spirinlarning ijtimoiy intellekt dinamikasi. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. Obrazovanie i innovatsionnye issledovaniya Education and innovative research. № 9, 2022. Sentyabr. Issn 2181-1709 (p) <http://interscience.uz>.

Ravshanova Hanifa Akmalovna The specificity of the social intelligence of students with hearing impairments. Asian Journal of Multidimensional Research ISSN: 2278-4853 Vol. 11, Issue 10, October 2022

A peer reviewed journal <https://tarj.in>

Alimxodjaeva F.J. Chuqur nutq kamchiligiga ega bo'lgan zaif eshituvchi o'quvchilar nutqiy eshitishlarini rivojlantirish jarayonida didaktik materiallarning roli. Nomzodlik dis. avtoreferati. - M.:

1992.

Zayseva G.A. Formirovanie geometricheskix ponyatiy u slaboslishayux shkolnikov / Osobennosti usvoeniya uchebnogo materiala slaboslishayimi uchayimisya / Pod red R.M.Boskis, K.G.Korovina. - M.: Pedagogika, 1981. -99-107.

Zak A.Z. Razlichiya v mishlenii detey. - M.: Izd-vo Rossiyskogo otkritogo un-ta, 1992.-128 s.

Zankov L.V. Izbrannie pedagogicheskie trudi / Sostavitel M.V.Zverev, N.K.Indik - M.: Pedagogika, 1990. - 424 s.

Zankov L.V., Solovov I.M. Ocherki psixologii gluxonemogo rebenka. - M.: Uchpedgiz, 1940.-112 s.

Izuchenie slaboslishayux detey v protsesse obucheniya / Pod red. R.M.Boskis. - M.: Pedagogika, 1972 -192 s.

Klimov Ye. A. Psixologiya professionalnogo samoopredeleniya. Rostov-na-Donu: Feniks, 1996. 509 s

Kodyukova JI.M. Psixologiya usvoeniya istoricheskix ponyatiy uchayimisya 4 klassa // Izvestiya APN RSFSR. - Vip. 61. - M., 1954 - S.111 -141.

Kornilova T.V. Eksperimentalnaya psixologiya: Teoriya i metodi. M., Aspekt Press, 2002 - 381 s.

Korobeynikov I.A. Narusheniya razvitiya i sotsialnaya adaptatsiya. - M.: Per Se, 2002.-192 s.

Kuvarina N.V. Formirovanie obobshchennosti umstvennix deystviy u mladshix shkolnikov v usloviyax intellektualnogo dialoga: Diss— kand. psixol. nauk. - N. Novgorod, 2000. - 174 s.

Nikolskaya I.L. O yedinoi linii vospitaniya logicheskoy gramotnosti pri obuchenii matematike / Preemstvennost v obuchenii matematike. - M.: Prosveshchenie, 1978. - S. 24-36.

Fayzieva U.Y. Zaif eshituvchilarni savodga tayyorlash va savod o'rgatish. Ped. fan. nomz. dis. ... avtoref. – Toshkent: TDPI, 1994. – 18 b

Ravshanova. X.A., Avlayev O. U. Zaif eshituvchi o'spirinlarning ijtimoiy intellekt dinamikasi. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. *Образование и инновационные исследования* Education and innovative research. № 9, 2022. Sentyabr. Issn 2181-1709 (p) <http://interscience.uz>.

MUVAFFAQIYATLI KASB TANLASHNING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

*Radjabova Zuxra Mirzotilloevna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi*

Annotatsiya. Maqola shaxsning to'g'ri kasb tanlashi va muvaffaqiyatga erishishining psixologik determinantlari muammosiga bag'ishlangan bo'lib, unda kasb tanlash sirlari va ushbu kasbda muvaffaqiyatga erishish omillari, yo'llari kabilari keltirilgan.

Kalit so'zlar: shaxs, kasb tanlash, muvaffaqiyatga erishish, psixologik determinant.

Psixologiyada kasb tanlash, kasb egasi bo'lish tushunchasining juda ko'p ta'riflari mavjud. Birinchilardan biri, kasbni tadqiq qilish klassikasi D. Xoll tomonidan berilgan va ish joyini ko'tarish jihatini aks ettiruvchi, bajarilgan ishlar ketma-ketligi bilan ifodalangan, tashkiliy ierarxiyada ko'tarilish orqali kasbiy faoliyatga ta'rif berilgan.

“Karyera” atamasining o'zi, kontseptsianing dinamik, vaqt o'tishi bilan rivojlanib borayotganini ham, statik tomonini ham aks ettirishi mumkin. Bu yangi zelandiyalik olim K. Inksonning asl g'oyasiga ko'ra, u yoki bu ijtimoiy hayot hodisasiga nisbatan nutqimizda qo'llanilgan obrazli metaforalarda o'z ifodasini topadi. Shunday qilib, kasb yo'li, kasb zinapoyasi, kasb platosi tasvirlari ushbu kontseptsianing dinamik tomoniga ishora qiladi.

Yuqorida keltirilgan ta'riflarga murojaat qilib, biz ularni duallik xususiyati orqali birlashtirishga harakat qilishimiz mumkin. Birinchidan, kasbiy yuksalish kasbiy yoki tashkiliy sohalarida rivojlanish jarayoni sifatida tavsiflanishi mumkin. Ikkinchidan, ushbu kasbiy yoki tashkiliy rivojlanishning muvaffaqiyat darajasi mavjud ob'ektiv tashqi mezonlar nuqtai nazaridan yoki sub'ektiv ichki o'zini o'zi idrok etish nuqtai nazaridan ko'rib chiqilishi mumkin. Va nihoyat, uchinchidan, kasb fenomen sifatida dinamik jarayon sifatida o'rganilishi yoki ma'lum bir statik kesma sifatida ko'rib chiqilishi mumkin.

Karyera har doim «muvaffaqiyatli»mi? Agar uning yana bir jihatiga to'xtalmasak, ushbu tushunchaning qamrovini aniqlash to'liq bo'lmaydi. Shunday qilib, «karera» so'zida muvaffaqiyat komponentining dastlabki belgilanishi nuqtai nazaridan yondashuvlardagi farq qiziq. Ushbu muhim terminologik muammoni qisqacha ko'rib chiqish juda muhim ko'rinadi. Shunday qilib, tashkiliy psixologiya bo'yicha taniqli darslik mualliflari L. Pochebut va V. Chiker uchun martaba «muvaffaqiyatli j'jamoat, rasmiy, ilmiy va boshqa faoliyat, kasb, kasb sohasida rag'batlantirish».

Xorijiy nazariyalarda shaxsning kasb bo'yicha o'z-o'zini rivojlantirishi “kasbiy sikl” yoki “kasbiy martaba” tushunchalarini ishlab chiqish kontekstida ko'rib chiqiladi. Bu tushunchalarni dinamik va mazmunli jihatlariga bo'lish mumkin. Dinamik jihat kasbiy tsikldagi bosqichlar, bosqichlar, xodimning martaba ketma-ketligini ko'rsatish orqali namoyon bo'ladi. Mazmun jihatini inson hayoti davomida bajaradigan professional, rasmiy rollarning ketma-ketligi va kombinatsiyasini aks ettiradi.

Mansabni ongli ravishda rejalashtirish insonning kasbiy rivojlanishi, shuningdek, uning o'zini o'zi anglashining eng muhim jihatlaridan biridir. Fransuzcha “karyera” so'zi ijtimoiy, rasmiy, ilmiy va boshqa faoliyat sohasida muvaffaqiyatli ko'tarilish degan ma'noni anglatadi. Ijtimoiy psixologiya va kasbiy faoliyat psixologiyasida mansab insonning butun hayoti davomida mehnat sohasidagi tajriba va faoliyat bilan bog'liq bo'lgan munosabat va xatti-harakatlarning individual ketma-ketligi sifatida qaraladi. Muvaffaqiyatli martaba mezonlari - bu hayotiy vaziyatdan qoniqish (sub'ektiv mezon) va ijtimoiy muvaffaqiyat (ob'ektiv mezon). Karyeraning ob'ektiv, tashqi tomoni - bu shaxs egallagan kasbiy pozitsiyalar ketma-ketligi, sub'ektiv, ichki tomoni - bu shaxs o'z martabasini qanday qabul qilishi,

Shunday qilib, kasbiy tsiklni, martabani tushunish nafaqat insonning o'z hayotining turli bosqichlarida kasbiy bosqichlarda ko'tarilishi bilan bog'liq, balki kasbiy faoliyat sharoitida o'zini, uning imkoniyatlarini amalga oshirish jarayoni sifatida ham ko'riladi. faoliyat.

Kasbiy rivojlanish va kasbiy martabaning asosiy xorijiy psixologik nazariyalarini tahlil qilish bizga kasbda shaxsning o'zini o'zi rivojlantirish g'oyalarini shakllantirish uchun muhim bo'lgan quyidagi xususiyatlarni aniqlashga imkon beradi.

Birinchidan, ko'pgina nazariyalar insonning o'zining psixologik xususiyatlarini va tanlangan kasbi, martaba talablari bilan bog'liqligini bilish muhimligini ta'kidlaydi. Ikkinchidan, kasbiy rivojlanish inson tomonidan ma'lum holatlar, kasbiy tsikl amalga oshiriladigan, kasbiy martaba quriladigan shartlarni tanlash harakati bilan bog'liq.

Bizning fikrimizcha, bu ikki xususiyat - «men» ga murojaat qilish va tanlash - insonning o'z ichki dunyosini o'zgartirish yo'nalishini aks ettiruvchi belgilar. Ushbu yo'nalishga qanday omillar ta'sir qiladi, degan savol tug'iladi.

Psixodinamik yondashuvga asoslangan kasbiy rivojlanish va martaba nazariyalarida genetik omil fundamental omil sifatida qaraladi. Shunday qilib, E. Rohening kasb tanlash nazariyasida quyidagi asosiy elementlar ajratiladi: 1) kasbiy martabani amalga oshirish jarayonida psixik energianing sublimatsiya tushunchasi; 2) kasbiy kasb tanlash va ehtiyojlar ierarxiyasi o'rtasida yaqin munosabatlar mavjudligi g'oyasi; 3) irsiy omilning u yoki bu kasb turini tanlashga sezilarli ta'siri haqidagi postulat. Kasb tanlashning sababi, E. Rohening fikricha, turli xil muhit sharoitlari va bolalikdagi tarbiyadir [8].

Psixodinamik yo'nalishga muvofiq, kasbiy rivojlanish va martaba tanlash, shuningdek, bir qator tadqiqotchilar tomonidan insonning kasbiy hayotdagi ichki ziddiyatning o'ziga xos echimini topishga urinishi sifatida qaraladi. Shunday qilib, U. Mozer operotropizmning to'rtta shaklini ajratib ko'rsatadi, ular bazal ehtiyoj ijtimoiy muhit tomonidan yuzaga kelgan to'siqqa duch kelgan sharoitlarda o'rni bosuvchi faoliyatning maxsus shakllari sifatida tushuniladi. Har bir operotropizm kasbiy rivojlanishning ma'lum bir turini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin [6].

Shunday qilib, psixodinamik yondashuvga asoslangan kasbiy rivojlanish nazariyalarida kasb tanlash, birinchi navbatda, insonning ehtiyojlari, ichki ziddiyatlari bilan belgilanadi.

«Rivojlanish istiqboli» yondashuviga ko'ra, kasbiy rivojlanish insonning ma'lum bir yoshga qadar ma'lum martaba bosqichlariga erishish natijasidir. Kasb tanlashning adekvatligi individual o'zini-o'zi tushunchasi va shaxs tanlagan kasbiy martaba tushunchasi o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanadi. Ha, ichida

D. Super nazariyasi ikkita asosiy jihatni ajratib ko'rsatadi: 1) hayot bosqichlari va ularning inson rivojlanishiga ta'siri; 2) ushbu bosqichlar va shaxs o'rtasidagi o'zaro ta'sir qilish usullari [9]. U kasb tanlashni hodisa sifatida ko'radi, lekin martaba qurish jarayonining o'zi doimo o'zgarib turadigan tanlovlardir. Bularning barchasi zamirida shaxsning nisbatan yaxlit shakllanish sifatidagi, shaxs ulg'aygan sari asta-sekin o'zgarib turadigan «Men-kontseptsiyasi» yotadi. Ushbu yondashuv rivojlanish muammosiga qaratilgan. Hayotning har bir bosqichi shaxsning keyingi bosqichga o'tishidan oldin ma'lum rivojlanish vazifalarini hal qilish zarurati bilan tavsiflanadi. D. Super hayot bosqichini tahlil qildi va martaba zinapoyasida maqbul harakatni ta'minlash uchun hal qilinishi kerak bo'lgan kasbiy rivojlanish vazifalari to'plamini aniqladi.

«Rivojlanish istiqboli» yondashuvini tahlil qilganda shuni tushunish kerakki, o'z-o'zini anglash ham, mansab tushunchasi ham insonning ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabati jarayonida uning ichki dunyosida shakllanadigan psixologik shakllanishdir. Bu «rivojlanish istiqboli» yondashuvi ijtimoiy muhitning shaxsning kasbiy rivojlanishiga ta'sirini o'rganishga qaratilgan degan xulosaga kelishimizga imkon beradi.

Bu fikr J.Gollandning kasb tanlash nazariyasida yanada aniq ifodalangan, unga ko'ra, martaba muvaffaqiyati shaxs va mehnat sharoitlari o'rtasidagi muvofiqlikka bog'liq. U yoki bu kasb yo'lini tanlash, J.Gollandning fikricha, tasodifiy hodisa emas, balki shaxsning ifodasidir, bunda tasodif yetakchi rol o'ynaydi. Shaxsning kasbiy yutuqlari va ko'tarilishdagi muvaffaqiyati martaba jarayonida shaxsiyat tipining xususiyatlarini ro'yobga chiqarish qobiliyatiga bog'liq. J. Gollandiya olti turni ajratadi: realistik, tadqiqotchilik, badiiy, ijtimoiy, tadbirkorlik va an'anaviy. Shaxsning faoliyat turi va kasbini uning shaxsiyat turiga mos ravishda tanlashning adekvatligini J.Golland ushbu tanlovning barqarorligi, ishdan qoniqish va faoliyatning yuqori mahsuldorligi nuqtai nazaridan ko'rib chiqadi. Hal qiluvchi omil

Differensial diagnostika yo'nalishi vakillari insonning o'z psixologik xususiyatlari va kasb talablari haqidagi g'oyalarini o'zaro bog'lashning muhimligini ta'kidladilar. Shunday qilib, F.Parsonsonning fikriga ko'ra, kasbiy tanlov ongli va oqilona jarayon bo'lib, unda shaxsning o'zi yoki professional maslahatchi potentsial xodimning psixologik yoki jismoniy fazilatlariga individual moyilligini belgilaydi va uni talablarning mavjud dispozitsiyalari bilan bog'laydi. turli kasb egalari [7].

R.Devis va L.Lokvistlarning mehnatga moslashish nazariyasida ham xodimning shaxsiy xususiyatlari va faoliyat turi va kasbini tanlash o'rtasida qat'iy muvofiqlik ta'kidlangan. Biroq, «mustahkamlash» tushunchasi yetakchi tushuncha sifatida ishlatiladi. Xodim o'zining shaxsiy xususiyatlaridan kelib chiqib, olishga intiladigan kasbiy tajriba sifatida tushuniladi. Ushbu nazariya xodimning shaxsiyatini uning barcha munosabatlari, qadriyatlari, ehtiyojlari, ko'nikmalari, qobiliyatlari va ularning muayyan kasbiy yo'lni tanlash bilan bog'liqlik shakllari bilan rivojlantirish yo'llarini batafsil bayon qiladi. Shunday qilib, moslashuv nazariyasi kasbning jamiyatda bir marta va abadiy qotib qolgan qat'iy talablariga javob berish o'rniga, shaxsning kasb tanlash orqali ma'lum tajriba orttirishga yo'naltirilganligini ko'rsatadi. Bizning nuqtai nazarimizdan,

Ushbu kontekst A. Bandura va J. Rotterning ijtimoiy o'rganish g'oyasiga asoslangan kasb tanlash nazariyasida ham taqdim etilgan. Bu g'oyaga ko'ra, kasb tanlashda biologik jihat bilan bir qatorda ijtimoiy muhit ham muhim omil sifatida e'tirof etiladi. Shu bilan birga, e'tibor «shaxs - ish muhiti» o'zaro ta'sirini o'rganishga qaratilgan.

Ta'kidlanganidek, mustahkamlashning turli tajribasi, uning shaxsning biologik xususiyatlari va mehnat muhiti bilan o'zaro ta'siri insonda tegishli ko'nikma, qobiliyat va munosabatlar majmuasini tashkil qiladi. Eng yaxshilaridan biri

Insonning to'g'ri kasb tanlashi va muvaffaqiyati bir-biri bilan bog'liq bo'lib, uning umumiy baxtiga va muvaffaqiyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu erda e'tiborga olish kerak bo'lgan ba'zi asosiy omillar:

O'z-o'zini aks ettirish: qiziqishlaringiz, qadriyatlaringiz, ko'nikmalaringiz va kuchli tomonlaringizni tushunishga vaqt ajrating. Sizni chinakamiga rag'batlantiradigan va hayajonlantiradigan narsa haqida o'ylab ko'ring. O'zingizning ehtirolaringizni va nima qilishni yoqtirayotganingizni ko'rib chiqing. Ushbu o'z-o'zini aks ettirish sizning shaxsiy imtiyozlaringizga mos keladigan potentsial martaba yo'llarini aniqlashga yordam beradi.

Tadqiqot va tadqiqot: Sizning qiziqishlaringizga mos keladigan turli sohalarni, ish rollarini va kasblarni o'rganing. Puxta tadqiqot olib boring, ushbu sohalaridagi mutaxassislar bilan suhbatlashing va turli yo'llar bilan bog'liq malakalar, talablar va martaba o'sishi haqida ma'lumot to'plang. Ushbu tadqiqot bosqichi turli xil variantlar haqida qimmatli tushunchalarni beradi va sizga oqilona qaror qabul qilishga yordam beradi.

Ko'nikmalarni rivojlantirish: Potentsial martaba yo'llarini aniqlaganingizdan so'ng, ushbu sohalarida talab qilinadigan zarur ko'nikma va bilimlarni rivojlantirishga e'tibor qaring. Malakangizni oshirish uchun tegishli ta'lim, sertifikatlar, stajirovka yoki shogirdlikka borishni o'ylab ko'ring. Uzluksiz o'rganish va malaka oshirish har qanday martabada uzoq muddatli muvaffaqiyat uchun juda muhimdir.

Qadriyatlar va ehtirosalar bilan uyg'unlik: Siz tanlagan martaba qadriyatlaringiz va ehtirolaringizga mos kelishiga ishonch hosil qiling. O'zingiz qilayotgan ishingiz haqida chin dildan qayg'ursangiz, g'ayratli, sadoqatli va mashg'ul bo'lib qolasiz, bu sizning umumiy muvaffaqiyatingiz va qoniqishingizga hissa qo'shishi mumkin.

Ish-hayot muvozanati: Turli martaba bilan bog'liq turmush tarzi va ish-hayot muvozanatini ko'rib chiqing. Muvaffaqiyat nafaqat professional yutuqlar, balki ish, shaxsiy hayot, munosabatlar va farovonlik o'rtasidagi sog'lom muvozanatni saqlashdir. Kasbiy o'sish bilan bir qatorda to'laqonli shaxsiy hayotga ega bo'lish imkonini beruvchi martaba topishga intiling.

Moslashuvchanlik va moslashuvchanlik: mansab yo'llari har doim ham chiziqli emasligini yodda tuting. Dunyo doimo rivojlanmoqda va yangi imkoniyatlar paydo bo'lishi mumkin. Turli yo'llarni o'rganishga, o'zgaruvchan sharoitlarga moslashishga va dolzarb bo'lib qolish va paydo bo'ladigan imkoniyatlardan foydalanish uchun yangi ko'nikmalarga ega bo'lishga ochiq bo'ling.

Qat'iylik va chidamlilik: Har qanday martabada muvaffaqiyatga erishish uchun qat'iyat, mashaqqatli mehnat va chidamlilik talab etiladi. Qiyinchiliklarni engib o'tish, muvaffaqiyatsizliklardan saboq olish va muvaffaqiyatsizliklar paytida motivatsiyani saqlab qolish muhimdir. O'sish tafakkurini qabul qiling va to'siqlarni o'sish va rivojlanish imkoniyatlari sifatida ko'ring.

Esingizda bo'lsin, muvaffaqiyat sub'ektivdir va odamdan odamga farq qiladi. Muvaffaqiyatni faqat tashqi omillarga, masalan, ijtimoiy kutish yoki moliyaviy mukofotlarga asoslanib emas, balki o'zingizning shartlaringiz asosida aniqlash juda muhimdir. Sizga quvonch keltiradigan, o'z kuchli tomonlaringizdan foydalanishga imkon beradigan va maqsad va qoniqish hissini ta'minlaydigan martaba toping.

Insonning kasbni to'g'ri tanlashi va muvaffaqiyatga erishishida psixologik omillar katta rol o'ynaydi. Bu erda e'tiborga olish kerak bo'lgan asosiy psixologik omillar:

O'z-o'zini anglash: O'z qadriyatlarini, qiziqishlarini, kuchli va zaif tomonlarini tushunishda o'z-o'zini anglash juda muhimdir. Bu sizning shaxsiy xususiyatlaringizni, afzalliklaringizni va motivatsiyalaringizni tan olishni o'z ichiga oladi. O'z-o'zini anglashning yuqori darajasi odamlarga o'zlarining haqiqiy shaxsiga mos keladigan kasb tanlashga imkon beradi, bu esa qoniqish va muvaffaqiyatning oshishiga olib keladi.

O'z-o'zini samaradorlik: O'z-o'zini samaradorligi shaxsning muayyan vazifalar yoki vaziyatlarda muvaffaqiyatga erishish qobiliyatiga ishonishini anglatadi. Bu kasb tanlash va muvaffaqiyatda hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'z-o'zini samaradorligi yuqori bo'lgan odamlar qiyin maqsadlarni qo'yishadi, to'siqlarga qarshi turishadi va martaba muvaffaqiyatiga erishish ehtimoli ko'proq. Kuchli o'z-o'zini samaradorlik tuyg'usini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash martaba qarorlarini qabul qilish va ishlashga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Qiziqish va ishtiyoq: Muayyan soha yoki sohaga bo'lgan haqiqiy qiziqish va ishtiyoq martaba qoniqish va muvaffaqiyatga sezilarli hissa qo'shishi mumkin. Agar odamlar o'z ishlariga ishtiyoqli bo'lsa, ular tajribani rivojlantirish va mukammallikka erishish uchun vaqt va kuch sarflashlari mumkin. Shaxsiy manfaatlariga mos keladigan martabalarni aniqlash va davom ettirish motivatsiya, faollik va umumiy muvaffaqiyatga olib kelishi mumkin.

Shaxsiy xususiyatlar: Turli xil shaxsiy xususiyatlar kasb tanlash va muvaffaqiyatga ta'sir qilishi mumkin. Misol uchun, ekstravert bo'lgan shaxslar ijtimoiy o'zaro ta'sir va etakchilik rollarini o'z ichiga olgan martabalarda muvaffaqiyat qozonishlari mumkin. Yuqori darajadagi vijdonga ega bo'lganlar tuzilgan va tafsilotlarga yo'naltirilgan kasblarda ustun bo'lishlari mumkin. Sizning shaxsiy xususiyatlaringizni tushunish va ulardan foydalanishga imkon beradigan martaba topish ishdan qoniqish va ishlash samaradorligini oshirishi mumkin.

Maqsadga yo'naltirilganlik: Maqsadga yo'naltirilganlik - bu odamlarning maqsadlarga erishish va unga intilish usullarini anglatadi. Mohirlik yo'nalishiga ega bo'lganlar o'zlari tanlagan sohada o'rganish, o'sish va kompetensiyani rivojlantirishga e'tibor berishadi. Bundan farqli o'laroq, ishlash yo'nalishiga ega bo'lgan shaxslar, birinchi navbatda, tashqi tasdiqlashni izlaydilar va boshqalardan ustun bo'lishga e'tibor berishadi. O'zlashtirish yo'nalishi ko'pincha uzoq muddatli muvaffaqiyat va ichki motivatsiya bilan bog'liq bo'lsa, shaxsiy o'sish va mukammallikka qaratilgan muvozanatli yondashuv idealidir.

Chidamlilik va moslashuvchanlik: muvaffaqiyatsizliklardan qaytish, o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish va qiyinchiliklarga dosh berish qobiliyati martaba muvaffaqiyatida juda muhimdir. Bardoshli odamlar muvaffaqiyatsizliklarni o'rganish imkoniyati sifatida ko'rishadi va o'zlarining martaba yo'llariga kerakli tuzatishlarni kiritishga tayyor. Ular yangi tajribalar uchun ochiq va noaniqlikdan

samarali o'tishlari mumkin.

Motivatsiya va harakatlanish: Shaxsiy qiziqish va zavq kabi ichki omillarga asoslangan ichki motivatsiya ko'pincha ishdan qoniqish va muvaffaqiyatning yuqori darajasi bilan bog'liq. Maqsad tuyg'usi va ichki mukofotlar bilan rag'batlantirilgan odamlar o'z kareralarida ko'proq sadoqat, qat'iyat va faollikni namoyish etadilar.

Shuni ta'kidlash kerakki, psixologik determinantlar ijtimoiy-iqtisodiy holat, madaniy ta'sirlar va mavjud imkoniyatlar kabi tashqi omillar bilan o'zaro ta'sir qiladi. Ushbu omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik murakkab va odamlar o'zlarining kasb tanlashlarini boshqarish va muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini oshirish uchun martaba bo'yicha maslahatchilar yoki psixologlardan ko'rsatmalar olish foydali bo'lishi mumkin.

Kasb tanlash muhim qaror bo'lishi mumkin va bir nechta omillar to'g'ri tanlov qilishga yordam beradi. Kasb tanlashda va unda muvaffaqiyatga erishishda e'tiborga olish kerak bo'lgan ba'zi sirlar va omillar:

O'z-o'zini tadqiq qilish: qiziqishlaringiz, qadriyatlaringiz va ko'nikmalingizni o'rganishga vaqt ajrating. Ehtirolaringizni va nima qilishni yoqtirayotganingizni aniqlang. Tabiiy qobiliyat va iste'dodlaringizni hisobga oling. Sizni chinakamiga rag'batlantiradigan va hayajonlantiradigan narsa haqida o'ylab ko'ring. Ushbu o'z-o'zini tadqiq qilish sizning kasbingizni shaxsiy imtiyozlaringizga moslashtirishga yordam beradi.

Tadqiqot va ma'lumot: Turli kasblar va sohalar haqida ma'lumot to'plang. Turli martaba bilan bog'liq malaka, ta'lim talablari, ish istiqbollari va o'sish imkoniyatlarini o'rganing. Ushbu sohalarida ishlaydigan mutaxassislar bilan suhbatlashing va ularning tushunchalarini izlang. Turli kasblarni har tomonlama tushunish uchun onlayn manbalar, kitoblar va martaba baholashdan foydalaning.

Shaxsiyatga moslashish: Kasb sizning shaxsiy fazilatlaringizga qanchalik mos kelishini ko'rib chiqing. Ba'zi martabalar o'ziga xos xususiyatlar yoki ish uslublarini talab qilishi mumkin. Masalan, o'ta ochiqko'ngil va ekstrovert odam savdo yoki jamoatchilik bilan aloqalar sohasida muvaffaqiyat qozonishi mumkin, tafsilotlarga yo'naltirilgan va tahliliy shaxs esa buxgalteriya hisobi yoki muhandislik sohasida ustun bo'lishi mumkin. Sizning shaxsiyatingiz va kasb talablari o'rtasidagi muvofiqlikni baholang.

Ko'nikmalar va treninglar: O'zingiz xohlagan kasbda zarur bo'lgan ko'nikmalar va treninglarni baholang. Kerakli ko'nikmalingiz bor-yo'qligini yoki ularni ta'lim, o'quv dasturlari yoki ish joyidagi tajriba orqali olishga tayyormisiz, aniqlang. Muvaffaqiyatga erishish imkoniyatingizni oshirish uchun malakangizni oshirish va tegishli malakaga ega bo'lish uchun reja tuzing.

Bozor talabi: Siz tanlagan sohadagi mutaxassislarga hozirgi va kelajakdagi talabni hisobga oling. Sanoat tendentsiyalari, texnologik yutuqlar va mehnat bozori prognozlarini o'rganing. O'sish potentsiali, ish xavfsizligi va rivojlanish imkoniyatlarini taklif qiladigan kasbni tanlang.

Ish-hayot muvozanati: kasb bilan bog'liq ish-hayot muvozanatini baholang. Oddiy ish soatlarini, sayohat talablarini va moslashuvchanlikni ko'rib chiqing. Professional intilishlaringizni shaxsiy ustuvorliklar va turmush tarzi afzalliklari bilan muvozanatlashtiring. Ish va shaxsiy hayot o'rtasida sog'lom muvozanatni saqlashga imkon beradigan kasbni tanlang.

Tarmoq va murabbiylik: Kuchli professional tarmoqni yaratish va tanlagan sohangiz bo'yicha murabbiylarni qidiring. Sanoat tadbirlarida ishtirok eting, tegishli professional uyushmalarga qo'shilish va yo'l-yo'riq va yordam ko'rsatadigan shaxslar bilan bog'laning. Tarmoq va murabbiylik yangi imkoniyatlar eshiklarini ochishi va kasb haqida qimmatli tushunchalar berishi mumkin.

Kasbda muvaffaqiyatga erishish omillari:

Uzluksiz ta'lim: umrbod ta'lim ongini qabul qiling. Sanoat tendentsiyalaridan xabardor bo'ling, yangi ko'nikmalarga ega bo'ling va professional rivojlanish imkoniyatlarini qidiring. O'z sohangizda tajribangizni rivojlantirish va shaxsiy va professional o'sishga intiling.

Qattiq mehnat va qat'iyat: Muvaffaqiyat mashaqqatli mehnat, fidoyilik va qat'iyatni talab qiladi. Harakat qilishga va qo'shimcha milga borishga tayyor bo'ling. To'siqlarni engib o'ting, muvaffaqiyatsizliklardan saboq oling va maqsadlaringizga sodiq qoling.

Tarmoq va hamkorlik: kuchli professional munosabatlarni rivojlantirish va o'z sohangizdagi boshqalar bilan hamkorlik qiling. Tarmoq yangi imkoniyatlarga, murabbiylikka va qimmatli aloqalarga kirishni ta'minlaydi. Hamkasblar va tengdoshlar bilan hamkorlik qilish innovatsion g'oyalar va kasbiy o'sishga olib kelishi mumkin.

Moslashuvchanlik va moslashuvchanlik: O'zgaruvchan sharoitlarga moslashish va yangi texnologiyalar yoki metodologiyalarni qabul qilish qobiliyati bugungi dinamik ish muhitida muvaffaqiyatga erishish uchun juda muhimdir. O'zgarishlarga ochiq bo'ling, yangi narsalarni o'rganishga tayyor bo'ling va turli vaziyatlarga moslashing.

Kuchli ish axloqi: Kuchli ish axloqini saqlang va ishonchlilik, aniqlik va professionallikni namoyish eting. Ishingizga egalik qiling, yuqori sifatli natijalarga erishish va doimo kutgandan oshib boring.

Hissiy intellekt: O'z-o'zini anglash, empatiya va samarali shaxslararo ko'nikmalarni o'z ichiga olgan hissiy intellektni rivojlantirish. Kuchli hissiy intellekt sizga ish joyidagi munosabatlarni boshqarish, nizolarni hal qilish va hamkasblar bilan samarali hamkorlik qilish imkonini beradi.

Ehtiros va motivatsiya: Kasbingizga chinakam ishtiyoqni rivojlantirish. Ishingizdagi ma'no va maqsadni toping va bu sizning motivatsiyangizni kuchaytirsin. Ehtirosli shaxslar

Kasb tanlash va unda muvaffaqiyatga erishish turli sir va omillarni o'z ichiga oladi. Kasb tanlashda

e'tiborga olish kerak bo'lgan qo'shimcha sirlar va unda muvaffaqiyatga erishish yo'llari:

Ehtirosingizga ergashing: ehtiroslaringiz va qiziqishlaringizga mos keladigan kasbni tanlang. Ishingizdan chin dildan rohatlansangiz, kuchingizni sarflab, qiyinchiliklarga bardosh bera olasiz. Ehtiros sizning motivatsiyangizni kuchaytirishi va muvaffaqiyatga erishishi mumkin.

Shaxsiy qadriyatlarni baholang: shaxsiy qadriyatlaringizni hisobga oling va tanlagan kasbingiz ularga mos kelishiga ishonch hosil qiling. Sizning ishingiz qadriyatlaringiz bilan uyg'un bo'lsa, siz uzoq muddatli muvaffaqiyatga hissa qo'shadigan qoniqish va maqsadni his qilasisz.

Mentorlikni izlang: O'zingiz xohlagan sohada tajribali mutaxassislar bo'lgan murabbiylarni toping. Ular o'z tajribalari asosida yo'l-yo'riq, yordam va tushunchalar berishi mumkin. Murabbiylar sizga qiyinchiliklarni engishda, qimmatli maslahatlar berishda va yangi imkoniyatlar eshiklarini ochishda yordam berishi mumkin.

O'sish tafakkurini rivojlantiring: o'rganish va o'sish qobiliyatingizga ishonishni o'z ichiga olgan o'sish tafakkurini qabul qiling. Qiyinchiliklarni rivojlanish imkoniyatlari sifatida qabul qiling, muvaffaqiyatsizliklarni o'rganish tajribasi sifatida ko'ring va doimiy ravishda o'z mahoratingiz va bilimingizni oshirish yo'llarini izlang.

Uzluksiz ta'limni qabul qiling: umrbod ta'lim va kasbiy rivojlanishga intiling. Sanoat tendentsiyalari, yutuqlar va eng yaxshi amaliyotlardan xabardor bo'ling. O'z bilim va ko'nikmalingizni oshirish uchun o'quv dasturlari, seminarlar, vebinarlar va konferentsiyalarni qidiring.

Kuchli professional tarmoqni yarating: o'z sohangizdagi professional bilan aloqa o'rnatib, sanoat tadbirlarida qatnashib va hamfikrlar bilan bog'laning. Kuchli professional tarmoqni yaratish ish imkoniyatlari, hamkorlik va qimmatli tushunchalarga kirish imkonini beradi. Shuningdek, u sanoat tendentsiyalaridan xabardor bo'lib turishga va murabbiylikka ega bo'lishga yordam beradi.

Muloqot ko'nikmalariga urg'u bering: Samarali muloqot qobiliyatlari har qanday kasbda juda muhimdir. Kuchli og'zaki, yozma va shaxslararo muloqot qobiliyatlarini rivojlantiring. Bu faol tinglash, aniq ifodalash va hamkasblar va mijozlar bilan samarali hamkorlik qilish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Bardoshlilikni rivojlantirish: Muvaffaqiyat ko'pincha qiyinchiliklar va muvaffaqiyatsizliklarni engib o'tishni o'z ichiga oladi. Ijobiy fikrlashni rivojlantirish, muvaffaqiyatsizliklarni o'rganish imkoniyati sifatida qabul qilish va umidsizliklardan qaytish orqali chidamlilikni rivojlantiring. Chidamlilik sizga qiyin paytlarda sabr-toqat va motivatsiyani saqlab qolish imkonini beradi.

Hisoblangan xavflarni qabul qiling: konfor zonangizdan chiqib ketishga va hisoblangan xavflarni olishga tayyor bo'ling. Muvaffaqiyat ko'pincha yangi imkoniyatlarni o'zlashtirib olish va noma'lum hududlarni o'rganishni o'z ichiga oladi. Xatarlarni baholang, potentsial mukofotlarni torting va ongli qarorlar qabul qiling.

Ish odob-axloqi va intizomi: Kuchli mehnat axloqi va intizomini tarbiyalang. Aniq maqsadlar qo'ying, vazifalarni birinchi o'ringa qo'ying va vaqtingizni samarali boshqaring. Ishonchli bo'ling, belgilangan muddatlarga rioya qiling va doimiy ravishda yuqori sifatli ishlarni bajaring.

Fikr-mulohazalarni izlang va xatolardan o'rganing: fikr-mulohaza va konstruktiv tanqidga ochiq bo'ling. Xatolaringizdan saboq oling va doimiy ravishda yaxshilang. O'sish sohasini aniqlash va mahoratingizni oshirish uchun ustozlar, supervayzerlar yoki hamkasblardan faol fikr-mulohazalarni izlang.

Diqqatli va qat'iyatli bo'ling: diqqatni uzoq muddatli maqsadlaringizga qarating va ularga erishishda qat'iyatli bo'ling. Muvaffaqiyat ko'pincha sabr-toqat va sabr-toqatni talab qiladi. Tanlagan kasbingizga sodiq qoling va maqsadingizga erishish yo'lida izchil harakat qiling.

Esingizda bo'lsin, muvaffaqiyat sub'ektiv tushunchadir va u har bir kishi uchun farq qilishi mumkin. O'zingizning qadriyatlaringiz va intilishlaringiz asosida muvaffaqiyatni aniqlang. O'z martaba maqsadlaringizni muntazam ravishda baholang, kerak bo'lganda moslashtiring va tanlagan kasbingiz rivojlanayotgan ustuvorliklar va ehtiroslaringizga mos kelishiga ishonch hosil qiling.

ТИББИЁТ ХОДИМЛАРИ ФАОЛИЯТИДА ШАХСЛИЛИК ХУСУСИЯТЛАРИ ЎРТАСИДАГИ МУНОСАБАТЛАРНИНГ НАМОЁН ЭТИЛИШИ

Собирова Дилафруз Абдурузиқовна

Бухоро психология ва хорижий тиллар институти “Психология” кафедраси мудири,
Халқаро Психология Фанлари Академияси мухбир аъзоси, психология фанлари доктори (DSc),
профессор

ПРОЯВЛЕНИЕ ВЗАИМОСВЯЗИ МЕЖДУ ЧЕРТАМИ ЛИЧНОСТИ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МЕДИЦИНСКОГО ПЕРСОНАЛА

Собирова Дилафруз Абдурузиқовна

Заведующий кафедрой «Психология» Бухарского института психологии и иностранных
языков, член-корреспондент Международной академии психологических наук, доктор доктор
наук (DSc), профессор

MANIFESTATION OF THE RELATIONSHIP BETWEEN PERSONALITY TRAITS IN THE ACTIVITIES OF MEDICAL PERSONNEL

Sobirova Dilafruz Abdurazikovna

Head of the Psychology Department of the Bukhara Institute of Psychology and Foreign
Languages, Corresponding member of the International Academy of Psychological Sciences, Doctor of
Philosophy(DSc), professor

Аннотация: Ушбу мақолада тиббиёт ходимларининг касбий компетентлигининг шаклланишининг илмий-назарий асослари ҳамда унга таъсир қилувчи омилларнинг ўрни ва аҳамияти очиқ берилган. Мамлакатимизда сўнгги йилларда соғлиқни сақлаш тизимини тубдан ислоҳ қилиш, кадрлар тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш ва соҳа мутахассисларининг касбий тайёргарлик даражасини оширишга алоҳида эътибор қаратилилган. Бу борада тиббиёт ходимларини касбий компетентлигини такомиллаштиришга оид тадқиқотлар алоҳида аҳамият касб этади. Натижада тиббиёт ходимларининг психологик компетентлигини ошириш, уларнинг шахсий фаилатларини рўёбга чиқариш, психокоррекцион усуллар орқали фаолият самарадорлигига беvosита таъсир этувчи социал-психологик компетентлик омиллари имкониятларини кўрсатиш йўналишларида илмий изланишларни чуқурлаштиришга имкониятлар яратилди. Айни пайтда, дунёнинг етакчи ОТМларида тиббиёт ходимлари фаолиятида намоён бўлувчи социал-психологик компетентлик бўйича қуйидаги йўналишларда илмий изланишлар олиб борилмоқда: рақобатдош кадрлар тайёрлашининг психологик механизмларини такомиллаштиришга оид қатор, жумладан, тиббиёт ходимлари социал-психологик компетентлигини ривожлантириш орқали уларнинг индивидуал имкониятларини такомиллаштириш; социал-психологик компетентликни тиббиёт ходимлари фаолият самарадорлигига кўрсатадиган таъсирини оширишнинг чора-тадбирларини белгилаш; қўлга киритилган илмий натижаларни амалда кенг татбиқ қилиш; социал-психологик компетентликни тадқиқ этиш модели ва концепциясини ишлаб чиқиш ҳамда унинг ижтимоий-психологик истиқболларини назарий, шунингдек, эмпирик жиҳатдан таҳлил қилиш. Хулоса қилиб айтиш мумкинки, бугунги ислохотлар даврида тиббиёт ходимларининг касбий компетентлигига алоқадор омилларни тадқиқ қилиш долзарб муаммолардан бири бўлиб қолмоқда.

Калит сўзлар: психологик компетентлик, «Мен-концепцияси», ижтимоий перцепция, рефлексия, стресс, агрессия, альтруизм, агрессия, ижтимоий дадиллик, ижтимоий етуклик, социал-психологик компетентлик,

Аннотация: В данной статье раскрываются научно-теоретические основы формирования профессиональной компетентности медицинского персонала, а также роль и значение факторов, влияющих на это. В нашей стране в последние годы особое внимание уделяется радикальной реформе системы здравоохранения, дальнейшему совершенствованию системы подготовки кадров и повышению уровня профессиональной подготовки специалистов в данной области. Особое значение в этой связи имеют исследования по повышению профессиональной компетентности медицинского персонала. В результате были созданы возможности для углубления научных исследований в областях повышения психологической компетентности медицинского персонала, реализации их личностных качеств, демонстрации возможностей факторов социально-психологической компетентности, непосредственно влияющих на эффективность деятельности с помощью психокоррекционных методов.

На данный момент научные исследования проводятся по следующим направлениям, касающимся социально-психологической компетентности, которая проявляется в деятельности медицинского персонала в ведущих ОМС мира: ряд связан с совершенствованием психологических механизмов подготовки конкурентоспособных кадров, в том числе с повышением индивидуальных возможностей медицинского персонала посредством развития социальной и психологической компетентности; определения мер; разработка модели и концепции исследования социально-психологической компетентности и теоретический, а также эмпирический анализ ее социально-психологических перспектив. В заключение можно сказать, что в эпоху сегодняшних реформ

исследование факторов, связанных с профессиональной компетентностью медицинского персонала, остается одной из актуальных проблем.

Ключевые слова: психологическая компетентность, «Я-концепция», социальное восприятие, рефлекс, стресс, агрессия, альтруизм, социальная смелость, социальная зрелость, социально-психологическая компетентность.

Annotation: : This article reveals the scientific and theoretical foundations of the formation of professional competence of medical personnel, as well as the role and importance of factors influencing this. In our country in recent years, special attention has been paid to radical reform of the healthcare system, further improvement of the personnel training system and improvement of the level of professional training of specialists in this field. Of particular importance in this regard are studies to improve the professional competence of medical personnel. As a result, opportunities were created for deepening scientific research in the areas of improving the psychological competence of medical personnel, the realization of their personal qualities, demonstrating the capabilities of factors of socio-psychological competence that directly affect the effectiveness of activities using psychocorrective methods.

At the moment, scientific research is carried out in the following areas concerning socio-psychological competence, which is manifested in the activities of medical personnel in the leading CHI of the world: a number is associated with improving psychological mechanisms for training competitive personnel, including increasing the individual capabilities of medical personnel through the development of social and psychological competence; determining measures; development of a model and concept for the study of socio-psychological competence and theoretical, as well as empirical analysis of its socio-psychological perspectives. In conclusion, we can say that in the era of today's reforms, the study of factors related to the professional competence of medical personnel remains one of the urgent problems.

Keywords: psychological competence, «I-concept», social perception, reflex, stress, aggression, altruism, aggression, social courage, social maturity, socio-psychological competence.

КИРИШ: Жаҳон илмий тадқиқот муассасалари ва марказларида тиббиёт ходимлари профессионал компетентлигининг психологик асосларини ўрганиш, касбий компетентликни шакллантириш ва ривожлантириш механизмларини ишлаб чиқиш, уларнинг психологик мезонларини тизимлаштириш, социал-психологик компетентлик кўрсаткичларини тадқиқ қилиш ҳамдаривожлантириш моделини яратиш, социал-психологик компетентликни такомиллаштиришга мўлжалланган махсус моделлаштирилган топшириқлардан иборат психодиагностик методикалар мажмуини ишлаб чиқиш бўйича изланишлар олиб борилмоқда. Тиббиёт ходимларининг психологик тайёргарлик даражасини юксалтириш, уларнинг социал-психологик компетентлигини шакллантирувчи ижтимоий-психологик омиллар ва механизмларини аниқлаш, тиббиёт ходимлари касбий тайёргарлик ролини ошириш ва уларнинг фаолият самарадорлигига таъсири масалаларига алоҳида эътибор берилмоқда. Бу борада тиббиёт ходимларини касбий компетентлигини такомиллаштиришга оид тадқиқотлар алоҳида аҳамият касб этади. Натижада тиббиёт ходимларининг психологик компетентлигини ошириш, уларнинг шахсий фазилатларини рўёбга чиқариш, психокоррекцион усуллар орқали фаолият самарадорлигига бевосита таъсир этувчи социал-психологик компетентлик омиллари имкониятларини кўрсатиш йўналишларида илмий изланишларни чуқурлаштиришга имкониятлар яратилди. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида», 2018 йил 7 декабрдаги ПФ-5590-сон «Ўзбекистон Республикаси соғлиқни сақлаш тизимини тубдан такомиллаштириш бўйича комплекс чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармонлари ҳамда 2019 йил 13 февралдаги ПҚ-4190-сон «2019-2025 йилларда Ўзбекистон Республикаси аҳолисининг руҳий саломатлигини муҳофаза қилиш хизматини ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида» қарори ва Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 7 июндаги 472-сон «Психология соҳасида кадрларни тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш ва жамиятда ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори ва мазкур фаолиятга тегишли бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифаларни амалга оширишда ушбу муаммони илмий жиҳатдан тадқиқ қилиш муайян даражада хизмат қилади.

Бугунги кунда, замон талабларига мос, касбий фаолият учун зарурий сифат ва фазилатларни эгаллаган, ижтимоий фаол педагогик кадрларни тайёрлаш ва уларнинг психологик компетентлигини такомиллаштириш усуллари ишлаб чиқиш бўйича кенг кўламли ишлар олиб борилмоқда. Айни пайтда, тиббиёт ходими касбий компетентлигини ривожлантиришга қаратилган замонавий таълим сифатини ва воситаларини такомиллаштириш, эришилган инновацион натижаларни амалиётга татбиқ этишга бўлган зарурат тобора ортиб бормоқда.

Методика: Бу борада тиббиёт ходимлари касбий компетентлигини шаклланишига таъсир қилувчи омилларни тадқиқ қилиш муҳим аҳамият касб этади. Шу нуқтаи-назардан келиб чиқиб, тиббиёт ходимларининг шахслик хусусиятлари ўртасидаги муносабатларни ўрганишни амалга оширишда Р.Б. Кеттеллнинг «Шахсни 16 омил ёрдамида ўрганиш» сўровномасига таяндик. Маълумки, Р.Кеттеллнинг «Шахсни 16 омил ёрдамида ўрганиш» сўровномаси шахснинг

психологик хусусиятларини ёритишга қаратилганлиги билан алоҳида аҳамият касб этади.

Ушбу сўровнома муаллифи Фарбада шахс психологиясига мурожаат қилган дастлабки психологлардан биридир. Биз социал интеллект шахс хусусиятларига уйғун ҳолда ривожланади деган нуқтаи назардан келиб чиқиб тиббиёт ходими шахслилик хусусиятларини тадқиқ қилишни мақсад қилиб олдик. Тадқиқотимизда сўровнома таркибидаги омилларнинг олтитаси клиник характерга эга эканлиги боис, фақат ўн омилдан фойдаланишни лозим топдик. Биз фойдаланган омиллар эса, айнан шахснинг психологик хусусиятларини ёритишга қаратилганлиги билан аҳамиятлидир. Ушбу ўнта омил кўрсаткичларини баҳолаш орқали, тиббиёт ходими шахсидаги шаклланган социал интеллект билан боғлиқ хусусиятларга баҳо бериш мумкинлиги нуқтаи назардан тадқиқот умумий мақсадига мослаштирилди. Бизнинг изланишимизга қадар олиб борилган тадқиқотларда ҳам ушбу методикадан кенг фойдаланилган. Бу эса бизнинг амалиёт учун объектив илмий маълумотлар беришга хизмат қилувчи психодиагностик методика сифатида татбиқ этишимизда қўл келди. Методика олдинги методикалар сингари тадқиқот объектига татбиқ этилди. Сўровноманинг умумий ва хусусий ҳоллардаги натижаларини қуйида батафсил таҳлил этиб ўтамиз. Социал интеллект ва шахслилик хусусиятлари муносабатини ўрганишдан олдин тиббиёт ходимларининг шахсига хос умумий қийматлар устида тўхталиб ўтамиз (1-жадвалга қаранг).

Тиббиёт ходимларининг Р.Б. Кеттеллнинг «Шахсни 16 омил ёрдамида ўрганиш» сўровномасига таяниб олган натижаларимизда шахслилик хусусиятлари қуйидаги психологик тавсифларга эга. Деярли барча омиллар бўйича тиббиёт ходимларининг кўрсаткичлари ўртачадан юқори зонадан ўрин олди.

Уларнинг ушбу шахслилик хусусиятлари кўрсаткичини омиллар бўйича хусусий ҳолларда талқин этилади:

Мулоқотга мойиллик (А) шкаласи (5,28). Бу қиймат шу босқичдаги тиббиёт ходимларини бошқалар билан ҳамкорлик қилишга тайёр, диққат-эътиборли, қаттиқ ғазабланиш ёки хурсанд бўлиш ҳолатларига (ички ҳаяжонланиш, эҳтирос) тушмасликлари, ўз ҳулқини бошқара олиш қобилиятига эга эканликлари, айти пайтда раҳмдил ва самимий, шу билан бирга ўзгача услубда талабчанликларини англатади.

Ҳиссий барқарорлик (С) (5,20±1,76). Бу кўрсаткичда педагогларга хос ўз ҳисларини ва кайфиятини бошқара оладиган, «Мен тимсоли» кучи юқорироқ эканлиги, «Мен» концепциясини ижобий бўлишига интилувчанлиги, касбий фаолиятда маълум даражада муваффақият билан ишлашлари мумкинлигини билдиради. Агарда тиббиёт ходимларида ҳиссий барқарорлик янада юқори даражада бўлса, мақсадга мувофиқ бўлади дейиш мумкин.

1-жадвал

Тиббиёт ходимларида шахслилик хусусиятлари намоён этилишининг умумий кўрсаткичлари

«Шахсни 16 омил ёрдамида ўрганиш» сўровномаси (Р.Б.Кеттелл)	Омиллар	х	у
	Мулоқотга мойиллик (А)	5,28	1,61
	Ҳиссий барқарорлик (С)	5,20	1,76
	Ҳукмронликка интилиш (Е)	5,34	1,57
	Ижтимоий етуклик (Qr)	5,31	1,52
	Ижтимоий дадиллик (Н)	5,56	1,61
	Ишонувчанлик (I)	5,06	1,68
	Ўзига ишониш (Q)	5,11	1,58
	Мустақиллик (Q ₂)	5,66	1,74
	Ўзини назорат қилиш (Q ₃)	5,58	1,67
	Хотиржамлик (Q ₄)	5,25	2,01

Ҳукмронликка интилиш (Е) (5,34±1,57). Омилнинг бу даражаси тиббиёт ходимларининг атрофидаги одамлар таъсирига берилувчанлиги, атрофдагилар талабини ҳам ҳисобга олиши, мустақиллигини белгилловчи ҳуқуқингизни ҳимоя қилишда агрессив эмасликлари, шу билан бирга уларда коллеж раҳбарияти билан эркин муносабатда бўлишга мойиллигидан далолат беради.

Ижтимоий етуклик (Qr) (5,31±1,52). Мазкур омилнинг ушбу даражаси тиббиёт ходимларининг ҳаётга ва ишга энгил қарашлари, жавобгарликни ҳис қилмасликлари, тежамсизлик каби ҳислатлардан тўла озод эмасликлари, бироқ бундай ҳолат уларнинг «Мен-концепцияси» ни салбий эканлигини англатмайди, балки ўз ҳулқини бошқара олиш ва қатъийликни етарли эмаслиги оқибати бўлиб ҳисобланади. Улар умуминсоний кадр-қимматларни тан олишга ва ахлоқ қоидаларига риоя қилишга интилувчи шахслар сифатида мавқега эгадирлар.

Ижтимоий дадиллик (H) ($5,56 \pm 1,61$). Бундай қиймат тиббиёт ходимларининг етарли даражада ботирикларни, одамлар билан алоқага эркин кира олиши, муомаладаги қийинчиликларни енга олиши, қутилмаган ҳолатларга тушиб қолганида ўзини йўқотмаслигидан далолат бермоқда.

Ишонувчанлик (J) ($5,06 \pm 1,68$). Ишонувчанлик омилнинг ушбу кўрсаткичи тиббиёт ходимларининг касбий фаолият ва ҳаётини масалаларни ҳал этишда ақлга асосланиб ишонишлари ва шу орқали фаолиятда самарага эришишлари мумкин.

Ўзига ишониш (Q) ($5,11 \pm 1,58$). Омилнинг ушбу даражаси тиббиёт ходимини ўзига бўлган ишончи муваффақиятсизликларини бошқариш имкониятини, бўлаётган воқеаларни тўғри баҳолаш ва уларга муносиб жавобни бера олишини, ўз имкониятларига ишончи юзага келтиради. Уларда ўзини камситишга мойиллик бўлмасада, лекин бир мунча юқори даражадаги тез хафа бўлиш, таъсирчанлик бор. Улар ўзларига бўлган ишончи мустаҳкамлашга ҳаракат қилишлари, касбий сифатларини такомиллаштиришга алоҳида эътибор беришлари мақсадга мувофиқ.

Мустақиллик (Q2.) ($5,66 \pm 1,74$). Тиббиёт ходимлари ҳамма нарсани ўзлари бажаришни маъқул кўрсаларда, атрофидагилар тавсияси ва таклифларини ҳам қулоқ соладилар. Улар мустақил бўлишни ҳам, атрофдагиларга таянишни ҳам, уларни қўллаб-қувватлашларини ҳам хоҳлайдилар. Улардаги мустақиллик фаолиятларини самарали бўлишини таъминлайди.

Ўзини назорат қилиш (Q3.) ($5,58 \pm 1,67$). Кўрсаткич тиббиёт ходимларининг ижтимоий ва ахлоқ нормаларини бажаришда қатъиятли эканлиги, кўпчилик ҳолатларда тартибли ва режали ҳаракат қилишлари. Аммо улар ҳар доим ҳам қийинчиликларни енгиб, бошлаган ишни охиригача етказавермас эканлар. Ўз фаолиятларини самарали ташкил қила олсаларда, ҳар қалай ўзларини назорат қилишга кўпроқ эътибор берганлари маъқул.

Хотиржаиҳлик (Q4.) ($5,25 \pm 2,01$). Ушбу омил кўрсаткичларининг намоён этилиши, тиббиёт ходимларида эҳтиёжлар миқдорининг кўпчилиги туфайли уларда бир мунча зўриқиш борлигидан ва нисбатан кўпроқ асабийликка мойилликдан далолат беради.

Мураккаб мақсадлардан ўзини олиб қочиш ва зўриқиш, биринчи навбатда, касбий фаолият натижаси бўлиб, бунга ўз навбатида, темперамент типларининг ўзига хос хусусиятлари маълум даражада ўз таъсирини ўтказади.

Хулоса: Юқоридаги тиббиёт ходимларининг шахслилик хусусиятларини умумий ҳолати шарҳида ҳам ижобий, ҳам мўътадил ва айрим ўринларда педагогик фаолият учун тесқари характерни акс эттирувчи хусусиятлар мавжудлигини кўрдик. Демак, Р.Б. Кеттел услуби натижаларига кўра барча тиббиёт ходимлари социал интеллект ва шахслилик хусусиятлари ўртасидаги ўзаро боғлиқлик ва алоқадорликда ривожланишида мулоқотга мойиллик, ҳиссий барқарорлик, ижтимоий дадиллик, ижтимоий етуқлик, ўзига ишониш, ўзини назорат қилиш хусусиятларининг етакчилик қилиши аниқланди. Тиббиёт ходимларининг шахслилик хусусиятлари ўртасидаги муносабатлик уларни шахслараро муносабатларда ҳиссий барқарор бўлишларини, ҳукмронликка интизмасликларини ва руҳий толиқиш, қўзғалиш ва зўриқишларни камайитишни таъминлашга хизмат қилади.

Умуман, тиббиёт ходимлари шахсий ва касбий фаолияти уйғунлигининг намоён этилишида муҳим аҳамият касб етувчи социал интеллект кўрсаткичларига баҳо беришда ҳар бир тиббиёт ходимининг шахслилик хусусиятларини чуқур ўрганиш, таҳлил қилиш ва тегишли эмпирик хулосалар чиқариш орқали тиббиёт ходимлари касбий фаолият компетентлигини таъминлаш мумкинлиги яна бир бор ўз тасдиғини топди. Тиббиёт ходимларининг шахслилик хусусиятлари орасидан мукотмандлик, ҳиссий барқарорлик, ижтимоий дадиллик, ижтимоий етуқлик, ўзига ишониш, ўзини назорат қилиш каби хусусиятлар касбий фаолият жараёнида касбий компетентлик кўрсаткичларининг барқарор ва изчил тарзда ривожланишини таъминлайди.

ФҲЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

Агавелян О.К. Социально-перцептивные особенности детей с нарушениями развития. – Челябинск: Изд-во Татьяна Лурье, 1999. – 365 с.

Абульханова К.А. Социальное мышление личности// Современная психология: состояние и перспективы исследований. Часть 3. – Социальные представления и мышление личности. – М.: Изд-во «Институт психологии РАН», 2002 – С. 88-103.

Абульханова-Славская К.А. Развитие личности в процессе жизнедеятельности// Психология формирования и развития личности. – М.: 1981. – С. 19-44.

Ананьев Б.Г. Интеллектуальная деятельность и терморегуляция// Возрастная психология взрослых. Материалы конференции. – Ленинград: 1991. – С. 75—84.

Аъзамхўжаева Э.А. Муомала маромининг ёш хусусиятлари ва динамикаси: Псих. фан. ном. ... дис. – Т.: ЎзМУ, 2002. – 155 б.

Бедерханова В.П. К вопросу о социальной перцепции в связи с использованием ролевых игр в процессе профессиональной педагогической подготовки// Теоретические и прикладные проблемы психологии познания людьми друг друга. – Краснодар: 1975. – С.232-233.

Безносос С.П. Профессиональная деформация и воспитание личности// Психологическое обеспечение социального развития человека. – Л.: 1989. – С. 69-74.

GENDER TENGLIK MUAMMOLARINI ILMIY O'RGANISH ANJANALARI*Saribayeva Umida Sattarovna,**Nizomiy nomidagi TDPU Umumiy psixologiya kafedrası dotsenti,
psixologiya fandlari nomzodi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada gender tafovutlarning shakllanishidagi ilmiy-nazariy qarashlar, gender tenglikning biologik, madaniy, iqtisodiy, siyosiy, xuquqiy, ijtimoiy-psixologik jihatlari yoritilgan ilmiy manbaalar, adabiyotlar tahlili va sharhi yoritildi.

Tayanch so'zlar: Differentsial ijtimoiylashish, gender tafovutlar, ilmiy-nazariy qarashlar, gender tenglik, biologik, madaniy, iqtisodiy, siyosiy, xuquqiy, ijtimoiy-psixologik jihatlari, ilmiy manbaalar, adabiyotlar tahlili.

ТРАДИЦИИ НАУЧНОГО ИЗУЧЕНИЯ ПРОБЛЕМЫ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА*Сарибаева Умида Саттаровна,**доцент кафедры общей психологии ТДПУ им. Низоми, кандидат психологических наук*

Аннотация. В данной статье были освещены научно-теоретические взгляды на формирование гендерных различий, биологические, культурные, экономические, политические, правовые, социально-психологические аспекты гендерного равенства, научные источники, анализ и обзор литературы.

Ключевые слова: Дифференциальная социализация, гендерные различия, научно-теоретические взгляды, гендерное равенство, биологические, культурные, экономические, политические, правовые, социально-психологические аспекты, научные источники, анализ литературы.

TRADITIONS OF SCIENTIFIC STUDY OF GENDER EQUALITY*Saribaeva Umida Sattarovna,**Professor, Department of General Psychology, TSPU named after Nizomi, candidate of
psychological sciences*

Annotation. This article covered scientific and theoretical views on the formation of gender differences, biological, cultural, economic, political, legal, socio-psychological aspects of gender equality, scientific sources, analysis and literature review.

Keywords: differential socialization, gender differences, scientific and theoretical views, gender equality, biological, cultural, economic, political, legal, socio-psychological aspects, scientific sources, literature analysis.

Kirish.

Differensial ijtimoiylashish jarayoni erkaklar va ayollarni turli xil rivojlanishga olib kelishi mumkin. Psixolog Sandra Bem ta'kidlaganidek, real hayotdagi ijtimoiy normalar va ijtimoiylashuv jarayoni ayollarda aynan ayollikka xos, erkaklarda erkakka xos xislatlarni shakllantirmaydi, bu gender farqlilik u qadar bir-birini inkor etmaydi va ayol xam, erkak xam, har ikki turdagi eng yaxshi gender xususiyatlarni o'zlashtirishi mumkin. Gender rol standartlaridan chetga chiqish, ya'ni erkaklik va ayollik bir-biriga qarama-qarshi nomuvofiq psixologik holat emasligi tasdiqlangan.

Bem o'z fikrida, insonning aqliy, ruhiy-ma'naviy, psixologik sag'lomligi jinsga bog'liq emas va androginiya psixologik holatga ijobiy ta'sir ko'rsatishini, ya'ni har ikkala jinsiy rolning eng yaxshisini o'zlashtirishi ma'qulligini tasdiqlaydi. SHuningdek, androginiya vaziyatning moslashuvchanligi uchun xizmat qilishi, ya'ni vaziyatga qarab qat'iy bo'la olish yoki boshqalarning manfaatlarini e'tiborga olishga qaratilgan qobiliyatidir.

Androginiya tushunchasiga bir qator olimlar "inson tomonidan yuqori darajada o'z-o'zini hurmat qilishdir", deb ta'rif berilgan. Boshqalari esa, androginiya bu—"muvaqqiyat motivatsiyasidir". Baumrind fikriga ko'ra, androginiya – "ota-onalik rolini mohirlik bilan bajarilishi" va "sub'ektiv farovonlik hissi"dir, - deyilgan. Ushbu ma'lumotlarga qo'shimcha ravishda ayrim tadqiqotlarda sheriklardan kamida bittasining gender munosabatlarda androgen xususiyatga egaligi, ularning har ikkalasini ham qoniqtirishi aniqlangan, oilada er-xotinlardan bittasida muloyimlik, noziklik, g'amxo'rlik, xissiy suyanchiq bo'la olish, jozibadorlik kabi ayollik fazilatlarini mavjudligi er-xotinlarning nikohdan qoniqish darajasini yuqoriligidan, munosabatlarning sifatiga ta'sir etishi qayd etilgan.

Bemning o'zi xam androginiyani erkaklarda shakllanishi erkakka xos bo'lgan gender polyarizatsiyasini kamaytirishi mumkinligini qayd etadi. YOki ayollarda erkakka xos gender farqlarni o'zlashtirish, maskulinlik xususiyatini ortishi xam ayollik xususiyatlarini pasayishiga olib kelishi mumkin va bu ayollik xususiyatini ildizini pasayishiga olib kelishi qayd etilgan. SHuningdek, ko'pgina psixologlarni fikricha, Betz, (1981); Spence va Helmrich, Betz, o'z fikrida «erkaklik» va «ayollik» atamallari faqat gender stereotiplarini kuchaytiradi shuning uchun ulardan butunlay voz kechishni taklif qilishgan. Sababi erkakka xos bo'lgan xususiyatlar: o'z-o'zini tasdiqlash qobiliyatini aks ettiruvchi

instrumentallik yo'qoladi va ayollarda an'anaviy ravishda ayollik bilan bog'liq bo'lgan fazilatlar, masalan, g'amxo'rlik, boshqalarga e'tiborlilik, hissiy ekspressivlik va jozibadorlik, maftunkorlik, gender pasayishiga olib keladi.

Bem o'zining 1993 yildagi ishlarida gender tengsizligini bartaraf etish muqarrar ravishda talab qilinadigan, davlat muassasalari tuzilmasidagi o'zgarishlar ro'y bergan, ijobiy ijtimoiy muhit paydo bo'lgan jamiyatda va kishilarda, kishilardagi shaxsiy rivojlanish yuqori darajaga etgandagina erkak va ayolning ikki xil ko'rinishi sifatida munosabatlarni silliqalashtirish jarayoni uchun androginiya konsepsiyasini qo'llash mumkin bo'ladi, deb qayd etgan. Erkaklar hukmronligi va ayolning xushmuomalaligi kabi xususiyatlar tabiiy ravishda tanlash va evolyusiya qonuniyati asosida paydo bo'lgan bo'lishi mumkin.

Degler fikriga ko'ra (1990), evolyusiya yoki tabiiy tanlanish emas, balki gender tenglik masalalari borasidagi ijtimoiy hayotimizni o'zimiz belgilaymiz.

M.SH.Bruno, "Genderning ijtimoiy psixologiyasi" kitobida, ijtimoiy me'yorlarni qayta ishlash tamoyillariga binoan, inson haqiqiy yoki xayoliy guruh bosimining natijasida o'z xatti-harakati yoki e'tiqodini o'zgartirishi mumkin, degan. Ijtimoiy munosabatlar, madaniyat gender tenglikka, inson ongini rivojlanishiga ta'sir qilishi mumkin degan, fikrni ilgari suradi.

SHuningdek, insonning alohida guruh va uning alohida a'zolari ta'sirida vujudga keluvchi keraksiz salbiy munosabat-diskriminasiyaga moyilligi, o'zini har tomonlama baholash, erkaklar xatti-harakatlarida ayollar(me'yorlari)ga qo'yilgan cheklavlarni mavjudligi, stereotilar to'plami, xurofot, kamsitish, xudbinlik, ijtimoiy idrok va o'z-o'zini anrlash, o'z-o'zini hurmat qilish, ijtimoiy rollar va me'yorlarning paydo bo'lishi xaqida ma'lumotlar keltirilgan. Olima o'zining qarashlarida: "Gender tafovutlar jamiyat, an'anaviy qoidalari doirasida yaratiladi, natijada gender rollari xaqidagi ma'lumotlar erkaklarni ham, ayollarni ham cheklaydi va bizning o'ziga xos strategiyalarimiz tufayli, qayta ishlanadi" ammo, biz gender farqlarini ancha kengroq deb hisoblaymiz, deb ta'kidlaydi. Muallif o'z izlanishlarida genderning ijtimoiy-psixologik jihatlarini yaratishga harakat qilgan. "Insonning xatti-harakatlarini shakllanishida muhimroq rol o'ynaydigan etnik yoki jinsiy farqlarga ega bo'lgan guruhlararo munosabatlar tizimi" mavjud bo'lib, biz odamlar yashaydigan va ishlaydigan ijtimoiy-madaniy kontekstlarni o'rganmagunimizcha genderni tushunish yoki gender, tengsizlikni kamaytirishga erisha olmaymiz, Zamonaviy odam taxminan teng miqdordagi erkak va ayollik xislatlariga ega bo'lishi maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

«Jinsga bog'liq farqlar» (sex related differences)ni aniqlashga urinishlarni Jasklinni ishlarida ko'rishimiz mumkin.

Gender tengligi tamoyilini targ'ib qilishda 1991 Hydening ishlari muhim ahamiyatga ega. CHunki, jinsning ijtimoiy psixologiyasida feministik harakatlarga nisbatan jamiyatda erkaklar siyosat bilan ko'proq shug'ullansada, erkaklar va ayollar o'rtasidagi iqtisodiy va ijtimoiy tenglik saqlanishi zarurligi xaqidagi fikrlarni ilgari suradi.

Lott ta'kidlaganidek, ijtimoiy psixologiya har qanday holatda ham jins bilan kesishadi, chunki jinsning o'ziga xosligini tadqiq qilishda «shakllantiradigan va saqlaydigan sharoitlarni o'rganish, ijtimoiy xulq-atvor madaniyatning qandayligini o'rganishdir».

Er-xotinlarning shaxslararo munosabatlarida psixologik jihatlarini buzilishi sabablari tor doiradagi ilmiy ishlarda aniqlangan. Ushbu yo'nalishdagi adabiyotlarni ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish natijasida organizmidagi neyroassosiativ bog'lanishlardagi nomoslik; immun tizimdagi uyg'unlikni rivojlanmaganligi; xulqi-odatlaridagi nomutanosiblik; o'z o'rnida "psixosomiyal", "aqliy-intellektual", "biokimyoviy", "intim-jinsiy hayot" va organizmning "biologik hayot kechirish" qonuniyatlarini buzilishiga olib kelishi mumkinligi o'rganildi. S.Bemning "erkaklik-maskulinlik, ayollik-femininlik va androgen-aralash sifatlar"ni aniqlashga mo'ljallangan anketasi asosida olib borilgan tadqiqot natijalarida ijtimoiy faol, yuqori moddiy ta'minlangan, ish joyi, kasbiga, yuqori maosh oladigan ayollarning 75 foizida o'ziga bo'lgan ishonch ko'rsatichi qayd etildi. 58 foiz ayollar o'z fikrini himoya qila olishini bildirgan. Ammo ular mutlaq mustaqil bo'lishni istamasliklari va qarshilik bildirgan olish ko'rsatkichi 50 foiz ayollarda shakllangan. SHaxs sifatida kuchli, analitik-chuqur taxlil qobiliyati 59 foiz ayollarda qayd etilgan. Ularda 86 foiz etakchilik qobiliyatini yuqori darajada baholaganlar, biroq tavakkalchilik 30 foiz ayollarda namoyon bo'lishi aniqlandi. Qaror qabul qilishdagi tezkorlik vaziyatga bog'liqligini ko'rsatishgan. Aynan, kasbi, hunari bor, oylik ish xaqqiga va daromadiga ega ayollarning 78 foizida o'zini o'zi ta'minlash-faqat o'ziga tayanish xususiyati qayd etilgan. Hukumdorlikka intilish ko'rsatkichi ayollar bahosida sezilarli past chiqqan, ya'ni 32 foiz, bu ayollarning uy ro'zg'or kamchiliklari, erkak kishi tomonidan mehr-e'tibor ko'rilmaligi, hissiy-emotsional, ruxiy-psixologik qoniqmasligi natijasidagi "injiqliliklari, talablari" erkaklar uchun ayolning "xokimiyatga", "xukmronlikka" xokimiyatga intilishi sifatida tasavvur qilinishi bilan bog'liq noto'g'ri stereotiplari sifatida izohlanadi. Ayollarning natijalarida jaxldorlik sifat ko'rsatkichi 45 foizni tashkil qilib, bunga asosan erkak kishining erkaklik rolini bajarmasliklari, ma'suliyatsizliklari, e'tiborsizliklari sabab qilib ko'rsatilgan. Erkak kishi bilan raqobatlashish ko'rsatkichi xam past baholanib – 28 foizni tashkil etgan. Buni asosan ayollar erlari bilan emas, oiladagi ayollar ovsinlar, tasavvur va gumon qilingan erining "ma'shuqa"lari bilan raqobatlashishga moyilliklarini kuchli ekanligi bilan izohlanadi. Hurmattalablik

oilaviy munosabatlarda erlari tomonidan be'etibor qolgan va raqobatga boradigan 28 foiz ayollarda yuqori darajada ekanligi aniqlandi.

Erkak kishilarda ayollarga xos deb, hisoblanilgan "yon berish", "kelishuvchanlik" sifatleri 56 foiz erkaklarda qayd etilgan. Ularning aksariyati ishsiz, juda kam maosh oladigan, muqim bir ish joyi mavjud bo'lmagan erkaklar sanaladi. SHuningdek, bu toifa 37 foiz erkaklarning ko'rsatkichlarida hayotdan mamnunlik past darajani ko'rsatdi. Xuddi shu femininlik-ayollarga xos ko'rsatkichlar bo'yicha ijtimoiy yuqori maqomga ega, oylik daromadi yuqori hisoblangan, ish joyi, kasb kori bor 58 foiz erkaklar natijalarida "nafis qalb egasi, nozikta'blik sifatlarini o'zlarida shakllanganligini qayd etishgan.

SHuningdek, 67 foiz erkaklar oilada ayoliga "xamdardlik", e'tiborli va g'amho'rlik qilishlarini bildirishgan. Oilaviy munosabatlarda ularni tushunishlari, rahm-shafqatli ekanliklari, zarur vaziyatda ayoliga tasalli berish qobiliyati shakllanganligini ko'rsatishgan.

Jumladan androgin-aralash ko'rsatkichlar har ikki jins vakillarida, erkak kishilarda xam, ayol kishilarda xam uchrashi aniqlandi. YUqorida adabiyotlar tahlilida yoritganimizdek,

Androginiya yuqori darajada o'z-o'zini hurmat qilishi; muvaffaqiyat motivatsiyasi; ota-onalik rolini mohirlik bilan bajarilishi; sub'ektiv farovonlik hissi sifatida izohlangan. Oilada er-xotinlardan bittasida muloyimlik, noziklik, g'amxo'rlik, xissiy suyanchiq bo'la olish, jozibadorlik kabi ayollik fazilatlarini mavjudligi er-xotinlarning nikohdan qoniqish darajasini yuqoriligiga, munosabatlarning sifatiga ta'sir etishi mumkinligi aniqlandi.

Xulosa: Har qanday jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot tarzi, mavjud ijtimoiy munosabatlar, madaniy hayotni gender tenglikka, inson ongini rivojlanishiga o'ziga xos darajada ta'sir qilishi mumkin degan, xulosa chiqarishimizga asos bo'ladi.

SHuningdek, insonning alohida guruh va uning alohida a'zolari ta'sirida vujudga keluvchi keraksiz salbiy munosabat-diskriminasiyaga moyilligi, o'zini har tomonlama baholash, erkaklar xatti-harakatlarida ayollar(me'yorlari)ga qo'yilgan cheklovlarni mavjudligi, stereotilar to'plami, xurofot, kamsitish, xudbinlik, ijtimoiy idrok va o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini hurmat qilish, ijtimoiy rollar va me'yorlarning paydo bo'lishi va o'zgarishi mumkinligini ko'rsatadi. "Gender tafovutlar jamiyat, an'anaviy qoidalari doirasida yaratilishi, natijada gender rollari xaqidagi ma'lumotlar erkaklarni ham, ayollarni ham cheklovlar qo'yishi, zarur shart-sharoitlar sababli qayta ishlanishi va o'zgarib borishi kuzatildi.

Demak, "Insonning xatti-harakatlarini shakllanishida muhimroq rol o'ynaydigan etnik yoki jinsiy farqlarga ega bo'lgan guruhlararo munosabatlar tizimi" odamlar yashaydigan va ishlaydigan ijtimoiy-madaniy kontekstlarni o'rganmagunimizcha genderni tushunish yoki gender, tengsizlikni kamaytirishga erisha olmaymiz. Zamonaviy oilalarda er-xotinlar taxminan teng miqdordagi erkak va ayollik, ya'ni gender sifatlariga ega bo'lishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Bem, S. L. (1981). Gender schema theory: A cognitive account of sex typing. *Psychological Review*, 88, 354-364. Bem, S. L. (1989). Genital knowledge and gender constancy in preschool children. *Child Development*, 60,649-662.
Ijtimoiy-psixologik so'rovnomadagi «Nega siz ayni vaqtda yangi mehnat yoki ikkilamchi kasbiy faoliyat(i) bilan shug'ullanishni davom ettirayapsiz?» – degan savolga 82,7% respondent o'z javoblarida atrofda gilariga ishning foyda keltirishi va vatan ravnaqini; 62,4% sinaluvchilar hukumat tomonidan tadbirkorlarga yaratilgan komfort shart-sharoitlarni; 61,0%i mutaxassislikni oshirish yoki kasbiy faoliyatni yangilash imkoniyatini; 56,3% tadbirkorlar moliyaviy muammolarga barham berish maqsadida moddiy manfaatdorlikni; 22,7%i – mustaqillikka intilish motivi yoki ko'proq o'z vaqtiga ega bo'lish imkoniyatini; 23,7%i – referent guruh tavsiyasini; 29,8%i – yaxshi jamoada yoki obro'li tashkilotda ishlash imkoniyati; 16,9%i – o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish ehtiyojini va 7,5%i – vaziyat taqozosiga ko'ra majbur ekanliklarini sabab qilib ko'rsatgan holda javob berishgan bo'lsa, yana 8,8%i o'z variantlarini keltirib o'tishgan.

Adabiyotlar tahlilidan ko'rinadiki, moslashuvning asosiy mohiyati insonning o'z atrofidagi shart-sharoit, ijtimoiy muhit talablarini qabul qilishi va o'zlashtirishida namoyon bo'ladi. Mazkur ta'rif o'zgaruvchan jamiyat miqyosida tahlil etilganda tadbirkorlarning o'zlari bajarishi lozim bo'lgan faoliyat bilan tanishishi hamda yangi muhit talabiga mos ravishda o'z xulq-atvorlarini o'zgartirib borishini nazarda tutamiz. Tashkilotda xodimlar moslashuvi ishga yangi kelgan yoki o'zgargan mehnat sharoitlariga ko'nikishi lozim bo'lgan mutaxassisga tegishli deb qaraladi.

Xodimning yangi mehnat jamoasiga qanchalik tez moslashishi uning samarali mehnat faoliyatini erta boshlab yuborishidagi asosiy omildir. Respublikamizda bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan bozor munosabatlariga o'tish jarayonida iqtisodiyot subyektlari yangi mehnat egasi (tadbirkor)ning moslashuvi uchun juda qat'iy shartlar qo'yyapti.

Ijtimoiy-psixologik so'rovnomadagi «Yangi mehnat yoki ikkilamchi kasbiy faoliyat (i)ga

moslashishingizga to'siq bo'lgan omillar» – degan savolga respondentlarning fikricha, o'zgaruvchan shart-sharoitga moslashishdagi mavjud qiyinchilik quyidagi sabablar orqali izohlanadi. Natijalardan ko'rinadiki, xizmat ko'rsatish va servis sohasida faoliyat yuritayotgan «XK-SSt» guruh vakillarining 36,1%i va kasanachilik bilan shug'ullanayotgan «Kt» guruhidagi tadbirkorlarning 50,8%i ni e'tirof etishlaricha, o'zgaruvchan shart-sharoitga moslashishdagi mavjud asosiy qiyinchilik – bu bir mehnat bo'limi yoki guruh ichidagi raqobatning mavjudligidir. Bu javobning tanlanishiga har ikkala toifa sinalluvchilar faoliyatining guruhii (masalan, sartaroshxona, zardo'zlik ustaxonasi, umumiy ovqatlanish obyektlari) munosabatlar doirasida tashkil etilganligi orqali izohlanadi. Psixologik tadqiqotlardan ma'lumki bir joyda bir jinsli mehnat subyektlarining faoliyat yuritishi o'zaro raqobat muhitini shakllantiradi. Xuddi mana shu holat, fikrimizcha, ikkilamchi kasbiy faoliyat turini tanlagan tadbirkorlarning ijtimoiy-psixologik moslashuv jarayoni o'tishidagi asosiy qiyinchilikdir.

«Rt» guruhiga mansub tadbirkorlarning 44,8%i uchun asosiy qiyinchilik sifatida «ustoz-shogird tizimining shakllanmaganligi» e'tirof etilsa, ham o'qish, ham mehnat faoliyati bilan shug'ullanayotgan talabalardan tashkil topgan «Tt» guruh vakillari uchun «moslashuv davrining qisqaligi» bosh muammo sanaladi.

IPS natijalari tahlilining ko'rsatishicha, yuqoridagidan tashqari qator tashkiliy-iqtisodiy va ijtimoiy omillar ham borki, ular yangi mehnat egasi (masalan, ikkilamchi kasbiy faoliyatni tanlagan tadbirkor)ning ishga moslashuvini qiyinlashtiradi va ular o'z mohiyatiga ko'ra obyektiv omillar toifasiga kiradi. Bular qatoriga «noqulay ish sharoiti», «mehnatning og'irligi», «xodimlar o'rtasida majburiyat va huquqning noaniq taqsimlanganligi», «xodim malakasining kasb talablariga mos kelmasligi», «bajariladigan mehnatni ta'minlovchi resurslar yetishmasligi», «rag'batlantirish va haq to'lash tizimidagi xatolar», «adolat tamoyilining buzilishi» va boshqa sabablar kiradi.

Yangi mehnat egalari bozor munosabatlariga asoslanadigan iqtisodiyot subyektlari faoliyatiga moslashuviga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni ajratib tahlil qilar ekanmiz, tashkilotda xodimlar moslashuviga yetarli e'tibor bermaslik, o'z navbatida, korxona uchun nafaqat tashkiliy qiyinchiliklar, balki moddiy zarar ham olib kelishi mumkin. Respondentlarning ta'kidlashicha, ish paytidagi baxtsiz xodisalar yangi kelgan ishchilarda tajribalariga nisbatan ko'p sodir bo'ladi (63,4%).

Fikrimizcha, bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi va turli xil holatli modellar tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishda egiluvchan yondashuvni qo'llash zarur ekanligini ko'rsatadi. Holat to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lish uchun kasbiy moslashuvdagi tadbirkor o'zining qobiliyatlari, masalaning mohiyati, ehtiyojlar va berilayotgan axborotlar sifatini juda yaxshi bilishi zarur. Hattoki, juda jozibali va mukammal hisoblangan Mak Gregorning «Y» nazariyasi ham ma'lum bir farazlardan xoli bo'lmaganligi sababli, mavjud omillar to'g'risida aniq baho bera olmaydi. Bundan tashqari, yuqorida keltirilganlarni yaxshi tasavvur qila turib, kishilar to'g'risida fikr-mulohaza qilganda juda oson adashish mumkin. Shuning uchun, o'zgarishlar sharoitida tadbirkor o'zining dastlabki fikrlarini qayta ko'rib chiqishga, zarur bo'lib qolsa o'zining boshqaruvchilik uslubiga tezkor o'zgartishlar kiritishga har doim ruhan tayyor bo'lishi kerak.

Aniqlanishicha (masalan, G.V. Savitskaya), tadbirkorlik faoliyatini tanlagan shaxslardan juda kamchiligi ko'p yillar davomida bir ishda yoki lavozimda qolishni xohlashadi. Ularning aksariyati faoliyatni kengaytirish, o'sish uchun faol va mas'uliyat bilan harakat qilishadi. O'zini ilgari ish joyida (masalan, xususiy tadbirkorlik subyektida) yaxshi ko'rsatgan yo'l boshchilikning bitta, yakkayu-yagona uslubini tanlab olib, unga yillar davomida qanoat qilib kelgan tadbirkor, yangi yuqori lavozimda (masalan, xorijiy hamkorlikda ochilgan qo'shma korxonada), uning qo'l ostidagilar o'sishga, muvaffaqiyatlarga erishishga intilgan muhitda tadbirkorlik faoliyatini boshqarishni eplay olmasligi mumkin.

Mutaxassislarning fikricha, bozor iqtisodiyoti sharoitida imkon qadar samarali ishlash va o'z qo'l ostidagilardan ularning barcha imkoniyatlari mahsulotini olaman, degan tadbirkor rahbar o'z mavqeining yuqorilashuvi davomida faqat bittagina uslubni qo'llashni o'ziga ep ko'rishi kerakmas.

Fikrimizcha, tadbirkor rahbar ta'sir ko'rsatish va tadbirkorlik faoliyatining jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitiga mos keladigan barcha usul, uslublardan foydalana olishi kerak. Agar masalani ko'ndalang qilib qaysi usul ma'qul deb qo'ysak, «eng maqbul» usul bo'lib «moslashuvchan», ya'ni Ardjiris so'zi bilan aytganda, «reallikka yo'naltirilgan» usul bo'lib hisoblanadi.

Ardjiris reallikka yo'naltirilgan usulga ta'rif berib, u «...ko'p yo'nalishlar bo'ylab rivojlanadi. Bundan tashqari, tadbirkorlik faoliyatini qachon va qaysi ko'rinishda boshqarish uslublarini o'zgartirishga yo'naltiruvchi qarorlar qabul qilish qoidalari ishlab chiqiladi. Agar adabiyotlarni o'rganib chiqib tahlil qilinsa, «eng samarali» hisoblangan uslub muayyan holatga qarab o'zgaradi, shu boisdan aynan bitta uslubni samarali deb hisoblab bo'lmaydi. Shuning uchun, eng samarali tadbirkorlar bo'lib – real holatdan kelib o'zini har xil tuta oladigan tadbirkorlar hisoblanadi», deb aytgan.

Mahalliy mutaxassislardan (masalan, M.P. Eshov va boshqalar) esa bozor munosabatlariga asoslanadigan jamiyatda tadbirkorlik qobiliyati oddiy ish kuchidan farq qilib, ishlab chiqarishda boshqarishdan iborat bo'lgan alohida vazifani bajaradi. U tabiatan ishbilarmonlik bo'lib, alohida bir iste'dod, yuksak bilim, maxsus tayyorgarlik va mas'uliyat mujassami demakdir. Shuningdek, ... bunday qobiliyat moddiy omillar bilan birikmaydi, balki shu omillar bilan ish kuchining samarali birikishi, iqtisodiy faoliyatdan yaxshi natija olinishini ta'minlaydi, deb fikrlaydilar.

A.L. Svensitskiy qator ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar natijasiga tayanib, o'zgaruvchan ijtimoiy muhitda tadbirkorlar moslashuviga va ularning mehnat unumdorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni uchga bo'ladi.

1. Ishlab chiqarishning texnika-texnologiya darajasi (texnika qanchalik mukammal bo'lsa, mehnat unumdorligi ham shunchalik yuqori bo'ladi);

2. Shaxsiy-insoniy omilning sifati (agar yangi faoliyat turini tanlagan mehnat egalarining bilim darajasi, ish malakasi va tajribasi yuqori bo'lsa, moslashuv jarayoni tez kechib, unumdorlik ortadi yoki aksincha);

3. Ishlab chiqarishning tabiiy sharoiti (bu sharoit qanchalik qulay bo'lsa, ijtimoiylashuv jarayoni tezlashadi hamda tadbirkorlar tomonidan anglangan ravishda tanlangan yangi faoliyat turida unumdorlik shunchalik yuqori bo'ladi).

O'zgaruvchan ijtimoiy-psixologik muhitdagi yangi mehnat yoki ikkilamchi kasbiy faoliyat(i)ga muvaffaqiyatli moslashganliklariga ko'ra, shartli ravishda respondentlar quyidagi uch guruhga:

1) muvaffaqiyatli (bozor iqtisodiyotiga muvaffaqiyatli moslashgan – yuqori mehnat unumdorligiga ega va yangi mehnat yoki ikkilamchi kasbiy faoliyat(i)dagi ijodiy jarayondan qoniqish hosil qiluvchilar);

2) nisbatan muvaffaqiyatli (bozor munosabatlari jarayoniga qisman moslashgan – yuqori mehnat unumdorligiga ega, lekin yangi mehnat yoki ikkilamchi kasbiy faoliyat(i) jarayonidan qoniqmaydiganlar);

3) muvaffaqiyatsiz (yangi mehnat yoki ikkilamchi kasbiy faoliyat(i)ga moslashmagan, mehnat unumdorligi past va faoliyatdan kam qoniqish hosil qiladiganlar) mehnat subyektlariga ajratiladi.

Muvaffaqiyatli moslashuvning asosiy mezonlari sifatida quyidagilar: a) yangi mehnat yoki ikkilamchi kasbiy faoliyat(i)dan daromad (umumqabul qilingan obyektiv mezonlar); b) mehnat subyekti tomonidan yaratilgan ish joylari soni (qo'shimcha obyekt mezonlari); v) yollanma mehnat bo'yicha foydali ish taklif etilgan holatlarda mehnat egasining kasbiy sohasini o'zgartirishni istamasligi (asosiy subyektiv mezonlar); g) hayotning ba'mani ko'rsatkichlari (qo'shimcha subyektiv ko'rsatkichlar) kabi omillar qabul qilingan.

Shunday qilib, tadqiqotning ko'rsatishicha, 133 nafar (45,1%) tadbirkorlar yuqori darajadagi muvaffaqiyatga moslashuvni namoyon etgan ijtimoiy guruhni tashkil etdi. Ya'ni, bu toifa respondentlar faoliyati tahlil qilinganda, uzoqni ko'ra bilishligi, biznes rejani to'g'ri tuzilganligi, asoslanganligi va say-harakatining izchilligi oqibatida korxonaning daromadi ma'lum darajada oshgan, o'tgan davr oralig'ida ish o'rinlari miqdori ko'paygan. Ular o'z kasblari va bugungi hayotlaridan mamnun (xususan, hayotlarining bami yuqori ko'rsatkichlariga egalar va ular yollanma mehnat bo'yicha yanada serdaromad soha tomon tadbirkorlik faoliyatlarini o'zgartirishga intilmaydilar) kishilar sirasiga kirishadi hamda mamlakatimizda olib borilayotgan bozor iqtisodiyoti islohotlari jarayoniga muvaffaqiyatli moslashishgan. 34 nafar (11,5%) sinalluvchi muvaffaqiyatsiz mehnat subyektlaridan tashkil topgan ijtimoiy guruhga mansub hisoblanishadi. Aniqlanishicha, ularning daromadlari kamaygan yoki ahamiyatsiz, ish o'rinlari soni avvaldagidek qolgan yoki kamaygan, turmushlaridan qoniqish ko'rsatkichlari past va o'zlarining ayni faoliyat sohalarini o'zgartirishni istaydilar hamda ikkilamchi kasbiy faoliyatga umuman moslasha olishmagan. Shuningdek, tadqiqotda ishtirok etgan yana 128 nafar respondentlar nisbatan muvaffaqiyatli mehnat subyektlari guruhiga mansub sanalishadi. Natijalarning ko'rsatishicha, ularning daromadlari ma'lum darajada oshgan, ish o'rinlari soni ko'paygan yoki avvaldagidek qolgan. Ulardagi past ko'rsatkichli turmush tarziga egalik, o'z bizneslaridan voz kechish xohishini shakllantirib, bozor munosabatlari jarayoniga qisman moslashganliklarini namoyon qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ikkilamchi kasbiy faoliyatni tanlanishiga sabab bo'luvchi motivlar va o'zgaruvchan muhitda shaxs moslashuviga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, xususan, inson tabiiy sharoitni o'zgartira olmasa-da, ammo texnikani mukammallashtirish, faoliyatni strategik loyihalashtirish, mehnat jamoasida sog'lom psixologik muhitni shakllantirish orqali noqulay sharoitda ham tadbirkorlarning bozor munosabatlariga ijtimoiy-psixologik moslashuvini oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Щербатых Ю.В. Психология предпринимательства и бизнеса. - СПб., 2008.

2. Улугова Ш.М. "Действующие компоненты на социально-психологической адаптации женщин-предпринимателей". Журнал "Теория и практика современной науке". Выпуск №5 (47) 2019.

3. Каримова В.М., Акрамова Ф.А. Иктисодий психология. - Т., 2005.

4. Карпов А.В. Психология менеджмента: Учебное пособие.-М.:

Гардарики.

5. Хайитов О.Э., Очилова Г.О. Тadbirkorlik pсихологияси: ўқув қўлланма. Т.: «Fan va texnologiya», 2008.

6. Улугова Ш.М., Нематова Р.Р. "Воздействие ценностей на приспособление женщин к рыночным отношениям". Наука. Мысль: электронный периодический журнал. №6– 1 за 2016.

7. Улугова Ш.М., Акрамов А.А. "Тadbirkorlik shaxsi faoliyatida iktisodiy jaraenlar". "Innovative activity in the education system – guarantee of quality and effectiveness". Collection of Papers from II International Scientific Conference. Uzbekistan. 2018.B - 156-160.

ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ВАЖНЫЕ КАЧЕСТВА СОВРЕМЕННОГО ПСИХОЛОГА

Нуримбетова Эльмира Жумамуратовна

доктор философии по психологическим наукам (PhD) Нукусский государственный педагогический институт

Аннотация: В статье автором предложена разработка модели современного психолога, отражающие его актуальные профессионально-важные качества. Основу данной разработки составили профессионально-важные качества категории специалистов объединённые в следующие, взаимообусловленные структурные компоненты: мировоззренческий, межличностный, интеллектуальный, личностный.

Ключевые слова: профессионально важные знания, умения и навыки, интеллектуальный компонент, личностный компонент - оптимизм; энергичность; высокая работоспособность; жизнестойкость; планомерность; целеустремленность; настойчивость; самоорганизация.

PROFESSIONAL QUALITIES OF THE MODERN PSYCHOLOGIST

Nurimbetova Elmira Jumamuratovna

Abstract: In the article, the author proposed the development of a model of the modern psychologist, reflecting the actual professional and important qualities of the modern psychologist.

The basis of this development consisted of professionally important qualities of the category of professionals united in the following, interdependent structural components: ideological, interpersonal, intellectual, personal.

Key words: professionally important knowledge, abilities and skills, intellectual component, personal component - optimism, vigor, high work capacity, resilience, planning, purposefulness, persistence, self-organization.

Аннотация: Мақоллада муаллиф замонавий психолог модели ishlanmasini taklif qilgan va uning tuzilmalar mazmuni ifoda etilgan. Ushbu ishlanma asosi tegishli komponentlardan iborat bulib, zamonauiy psixologning dolzarb professional muhim xususiyatlarini aks ettiradi.

Актуальность. Одной из наиболее острых проблем при составлении «модели специалиста» является проблема построения «модели личности специалиста». Каким же должно быть сочетание профессионально важных личностных качеств, свойств личности, которое в наибольшей степени обеспечивало бы успех профессиональному психологу?

Исследований в этой области достаточно много, но однозначного ответа о свойствах личности психолога, которые бы способствовали эффективной работе, нет. Мы рассмотрим ряд авторов, которые предлагают свою точку зрения в отношении профессионально-важных личностных качеств психологов.

В.Н.Карандашев (2000) отмечает, что профессиональному психологу важно иметь адекватную самооценку, понимать индивидуальные особенности своей личности, свои способности, сильные и слабые стороны характера, также ответственность, организованность, оптимизм, открытость, любознательность, наблюдательность, самостоятельность суждений, креативность, гибкость поведения, способность к рефлексии своих переживаний, которые проявляются в общем отношении к жизни и деятельности. Необходимо отдельно упомянуть о таком важном качестве, как саморегуляция, которая способствует активной реализации поставленных целей [2,3,5,8].

В настоящее время вырабатывается новое представление о профессионале, которое рассматривает его как активного, свободного субъекта в осуществлении собственной деятельности. В подлинном «профессионале» гармонично соединяется «личность» и «мастер» [6,7]

«В свое время М. Balint и Е. Balint писали, что знание можно получить из книг или лекций, навыки приобретаются в процессе работы, но они будут малоэффективны без совершенствования личности психотерапевта. Психотерапия становится ремеслом, наполненным лишь добрыми намерениями, если ее не поднимают на профессиональный уровень соответствующие качества личности психотерапевта [цит. 1].

Несмотря на большое количество имеющихся моделей в аспекте психологической деятельности специалиста, остается весьма актуальной проблемой подготовка модели, отражающей конкретизированные психологические требования к психологу с учётом современных условий деятельности.

Таким образом, исходя из методологической базы настоящего исследования, имеющихся концептуальных положений построения модели специалиста, а также системного решения этой проблемы в науке, нами подготовлена структурная модель профессионально-важных качеств современного психолога. Основу данной разработки составили соответствующие компоненты, отражающие актуальные профессионально-важные качества современного психолога. Вместе с тем, для их выделения нами была организована и проведена экспертная оценка по заранее подготовленному опроснику (приложение №6). Основу данного инструментария составили ранее

выделенные, по результатам теоретического анализа следующие обобщённые профессионально-важные качества психолога, объединённые в соответствующие структурные компоненты: мировоззренческий, межличностный, интеллектуальный, личностный.

Все полученные результаты экспертной оценки будут применяться в обобщённом виде в целях выработки рекомендаций для совершенствования процесса подготовки психологов в высших образовательных учреждениях. При этом, те качества, которые получили оценки от 5 до 6 баллов (высокий уровень соответствия качества) будут рассматриваться как актуальные профессионально-значимые качества современного психолога Республики Узбекистан».

Всего в экспертной оценке приняло участие 211 человек (экспертов), как женского (57,3 % - 121 чел.), так и мужского пола (42,7 % - 90 чел.), из числа наиболее подготовленных практических психологов (54 % - 114 чел.), а также педагогов (46 % - 97 чел.) - непосредственно принимающих участие в подготовке данной категории специалистов (будущих психологов) (рис.1).




Рис. 1. Количественная характеристика экспертов оценки профессионально-важных качеств современного психолога по стажу профессиональной деятельности (n=211)

При этом, отбор экспертов проходил по соответствующим критериям:

практический опыт, стаж работы, должность; критическое мышление, т.е. способность к критическому восприятию действительности; конструктивность мышления, т.е. способность к выработке новых знаний, подходов, совершенствований и пр.

По итогам экспертной оценки все полученные результаты были обобщены в сводной таблице, что позволило вычислить такие первичные описательные статистики как мода (M_o), медиана (M_d), среднее (M) относительно каждого оценённого качества (таб.1).

Рассматривая предложенную структурную модель, полагается целесообразным отметить, что практически любая из характеристик (профессионально-важное качество) модели может быть присуща каждому человеку, однако существует разница в уровне их выраженности у разных людей. Должный комплекс профессионально-важных качеств будущих психологов возникает в результате развития соответствующих характеристик и их активного взаимодействия. Это происходит за счет оптимального уровня функционально-смыслового наполнения профессионально-важных качеств будущих психологов. Им чрезвычайно необходимо наполнять профессионально-важные качества таким образом, чтобы практически все они развивались и достигли должного уровня.

№	Наименования обобщённых профессионально-важных качеств	Среднее (M)	Мода (Mo)	Медиана (Md)	Уровень значимости
1. Мировоззренческий компонент					
1.1	потребность в изначально интересной и полезной для общества благодарной работе	5,569	6	6	высокий
1.2	потребность в самостоятельности, независимости и самосовершенствовании своей личности	5,531	6	6	высокий
1.3	личностная зрелость	5,526	6	6	высокий
1.4	потребность в креативности и широте взглядов	5,521	6	6	высокий
1.5	потребность в социальных контактах: на уровне легкого общения с большим кругом людей	5,517	6	6	высокий
1.6	моральная нормативность	5,512	6	6	высокий
1.7	чувствительность	3,716	4	4	средний
1.8	внутренние резервы личности	3,479	3	3	средний
2. Межличностный компонент					
2.1	позитивное отношение к людям (привязанность)	5,536	6	6	высокий
2.2	направленность психики на экстраверсию	5,531	6	6	высокий
2.3	коммуникативные способности	5,526	6	6	высокий
2.4	волевая регуляция поведения, самоконтроль	5,526	6	6	высокий
2.5	эмоциональный интеллект	5,521	6	6	высокий
2.6	эмоциональная устойчивость	5,521	6	6	высокий
2.7	личностно-адаптационный потенциал	5,521	6	6	высокий
2.8	способность к сотрудничеству в конфликтных ситуациях	5,517	6	6	высокий
2.9	терпимость и гибкость	3,735	4	4	средний
2.10	последовательность	3,725	4	4	средний
2.11	выносливость	3,540	3	4	средний
3. Интеллектуальный компонент					
3.1	умение выделять общее в разном	5,555	6	6	высокий
3.2	способность к обобщению и анализу информации	5,540	6	6	высокий
3.3	гибкость мыслительных процессов	5,521	6	6	высокий
3.4	общие умственные способности	5,507	6	6	высокий
3.5	способность к концентрации внимания	5,498	5	5	высокий
3.6	отсутствие эмоциональной деструкции	5,493	5	5	высокий
3.7	способность к пространственному мышлению	3,682	4	4	средний
3.8	развитая социальная составляющая интеллекта	3,526	3	3	средний

Результаты исследования. Структурная модель профессионально-важных качеств современного психолога, по своей сущности, имеет форму круговорота, который обеспечивается саморегулятивной функцией и раскрывает развивающую динамику, поскольку значимым является проблема не только того, как объяснить профессионально-важные качества, но и как эффективно повлиять на их должное развитие. Актуальным этот вопрос является для будущих психологов, у которых профессионально-важные качества вступают неотъемлемым атрибутом успешного осуществления будущей профессиональной деятельности.

В процессе наполнения происходит саморегуляция в широком смысле на личностном и поведенческом уровне. Например, у студента снижен уровень развития самостоятельности. На оптимальном уровне, когда повышается уровень самостоятельности, то тогда, во-первых, личность растёт самостоятельно, во-вторых, повышается уровень развития других профессионально-важных качеств будущих психологов, в-третьих, самостоятельность отражается на поведенческом уровне будущего психолога, что является значимым для его профессии.

Вместе с тем, можно предположить, что более развитые качества будут ведущими, основополагающими для развития других профессионально-важных качеств. В результате образуется личностная энергетика, смысловое и функциональное наполнение, что приближает личность к самоактуализации. Самоактуализация – это системная характеристика, включающая функционально-содержательные характеристики профессионально-важных качеств, которые являются необходимыми для приближения будущих психологов к совершенству.



Рис. 2 Структурная модель профессионально-важных качеств современного психолога

Выводы. Таким образом, исходя из вышеизложенного полагается целесообразным заключить, что проведённая экспертная оценка (n=211) по заранее подготовленному опроснику позволила подготовить структурную модель профессионально-важных качеств современного психолога основу которой составляют уточнённые, актуальные профессионально-важные качества этой категории специалистов объединённые в следующие, взаимообусловленные структурные компоненты: мировоззренческий компонент, который выражается в потребности психолога в социальных контактах, интересной, полезной для общества благодарной работе, самостоятельности, независимости, креативности, а также личностной зрелости и моральной

нормативности; межличностный компонент, выражающийся в коммуникативных способностях, позитивном отношении к людям, направленности психики на экстраверсию, волевой регуляции поведения, самоконтроли, эмоциональном интеллекте и устойчивости, личностно-адаптационном потенциале, способности к сотрудничеству в конфликтных ситуациях; интеллектуальный компонент выражающийся в умение выделять общее в разном, способность к обобщению и анализу информации, гибкость мыслительных процессов, общие умственные способности, способность к концентрации внимания, отсутствие эмоциональной деструкции; личностный компонент, выражающийся в настойчивости, жизнестойкости, ориентации на настоящее, самоорганизации, планомерности, самоорганизации деятельности, целеустремленности, самоэффективности.

Список литературы

1. Аболин Л.М. Духовно-нравственное развитие личности в со-бытийной деятельности [Текст] / Л.М.Аболин, Х.Х.Валиахметов. - Казань:Изд-во «Карпол», 2002.-230 с.
2. Борисова Е.М., Логинова Г.П. Индивидуальность и профессия. М.: Знание, 1991. 80 с.
3. Буюкас Т.М. Личностное развитие в условиях работы самопонимания, опосредованного символами. // Вопросы психологии. 2000. №6. С. 96-109.
4. Карандашев В.Н. Введение в профессию. - М.: Смысл, 2000.
5. Клищевская М.В. К проблеме профессионального развития. // Вестник МГУ, серия 14. Психология. – 2001. - №4. – С. 3-11.
6. Краснов Ю.Э. Технология обучения в имитационно-деятельной игровой форме. Минск, 1998.
7. Маркова А.К. Психология профессионализма. — М., 1996.
8. Чебышева В.В. Некоторые психологические вопросы подготовки школьников к труду. // Вопросы психологии, 1978. №2. С. 19.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MAKTABGA MOSLASHISH MUAMMOSI

Tursunbaev Sandjar Baxtiyarovich,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Pedagogika va psixologiya mutaxassisligi magistranti

Mirzaeva Sayyora Rustamovna,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Psixologiya kafedrasida dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining maktabga moslashish muammosi bo'yicha ilmiy nazariy ma'lumotlar tahlil qilinadi. So'nggi paytlarda bolalarni maktabda o'qitish bilan bog'liq turli xil muammolarni o'rganishda maktabda noto'g'ri ishlash atamasi qo'llaniladi. Bu atama, qoida tariqasida, o'quvchining o'quv faoliyatidagi og'ishlarni anglatadi, o'rganishdagi qiyinchiliklar, intizomning buzilishi, sinfdoshlar bilan nizolar shaklida namoyon bo'ladi. Olimlar yosh rivojlanishining turli bosqichlarida maktabning noto'g'ri moslashuvi mexanizmi tubdan farq qiladi degan taxminni ilgari suradi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf o'quvchilari, dezadaptatsiya, moslashuv, somatik zaiflik, aqliy zaifligi, asab tizimining zaif turida uchraydi. maktab moslashuvi shakllari, maktabdan qo'rqish.

ПРОБЛЕМА АДАПТАЦИИ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ К ШКОЛЕ

Турсунбаев Санджар Бахтиярович,

Магистр, специальность педагогики и психологии, Чирчикский государственный педагогический университет

Мирзаева Сайёра Рустамовна,

доцент кафедры Психологии Чирчикского Государственного педагогического университета

Аннотация. В данной статье анализируются научные теоретические данные по проблеме школьной адаптации младших школьников. В последнее время термин школьная дезадаптация используется при изучении различных проблем, связанных с обучением детей в школе. Термин, как правило, относится к отклонениям в учебной деятельности ученика, проявляющимся в виде трудностей в обучении, нарушений дисциплины, конфликтов с одноклассниками. Ученые выдвигают предположение, что механизм школьной дезадаптации на разных этапах возрастного развития принципиально отличается.

Ключевые слова: младшие школьники, дезадаптация, адаптация, соматическая слабость, умственная отсталость, слабый тип нервной системы. формы школьной адаптации, боязнь школы.

THE PROBLEM OF ADAPTATION OF YOUNGER SCHOOLCHILDREN TO SCHOOL

Tursunbaev Sandjar Baxtiyarovich,

Master, specialty: pedagogy and psychology Department of Psychology, Chirchik State Pedagogical University

Mirzayeva Sayyora Rustamovna,

Associate Professor, Department of Psychology, Chirchik State Pedagogical University

Annotation. This article analyzes scientific theoretical data on the problem of school adaptation of younger schoolchildren. Recently, the term school disadaptation has been used in the study of various problems related to teaching children at school. The term, as a rule, refers to deviations in the student's learning activities, manifested in the form of learning difficulties, discipline violations, conflicts with classmates. Scientists suggest that the mechanism of school disadaptation at different stages of age development is fundamentally different.

Keywords: junior schoolchildren, disadaptation, adaptation, somatic weakness, mental retardation, weak type of nervous system, forms of school adaptation, fear of school.

Boshlang'ich sinf davri 6-7 yoshdan 9-10 yoshgacha davom etadi. 6-7 yoshli bolaning boshqa yosh davrdagi bolalardan farqli bo'lgan muhim psixik xususiyatlaridan biri, unda o'ziga xos ehtiyojlarning mavjudligidir. Bu ehtiyojlar o'z mohiyatiga ko'ra faqat muayyan bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga qaratilmay, balki o'quvchi bo'lish istagini aks ettirishdan iboratdir. Shu ehtiyojlar asosida bolaning o'z portfeliga, shaxsiy o'quv qurollariga, dars tayyorlash stoliga, kitob qo'yish javoniga ega bo'lish, kattalardek har kuni maktabga borish istagi yotadi. Ana shu ehtiyoj bola shaxsining shakllanishida, shuningdek uning ijtimoiylashuvida katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Bu davrda bolaning psixikasi bilim olishga yetadigan darajada rivojlanadi. U fan

asoslarini o'rganish uchun biologik va psixologik jihatdan tayyor bo'ladi. Fiziologlarning fikriga ko'ra, 7 yoshga kelib bolaning katta miya yarim sharlari bilimlarni egallash imkoniyati darajasida rivojlangan bo'ladi. Lekin bu yoshda inson miyasining psixik faoliyatni rejalashtirish, boshqarish, nazorat qilish kabi murakkab shakllariga javob beradigan maxsus bo'limlari xali to'liq shakllanib bo'lmagan bo'ladi. (miyaning bu qismlari 12 yoshda rivojlanib bo'ladi.) Miyaning boshqaruv funksiyalari to'liq shakllanib bo'lmaganligi boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarning xulq-atvorida, faoliyatlarini tashkil etishlarida va emotsional sohalarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Ayrim 6 yoshli bolalar ota-onasining xohishi bilan hali o'qishga tayyor bo'lmay turib, maktab ostonasiga qadam qo'yishadi. Afsuski, o'qish davomida aqliy-ruhiy zo'rqi oqibatida turli xil kasalliklarga chalilib, jismoniy va psixik rivojlanishda nuqsonlar paydo bo'ladi. Bunday bolalarda eng avvalo, miya strukturasi va nerv psixik jarayonlarining maktabda o'qish uchun to'liq yetilmaganligi, ko'ruv-harakat koordinatsiyasi va kichik motorikaning rivojlanmaganligi, mantiqiy fikr mahsuldorligining pastligi kuzatiladi. Undan tashqari, motivatsiya, irodaviy jihatlarining ayniqsa, ixtiyoriy diqqat va xotiraning shakllanmaganligi, hatti-harakatlarni ixtiyoriy boshqaruvdagi muammolar, bir so'z bilan aytganda hali "O'quvchi ichki pozitsiya"ning shakllanmaganligi maktabda o'qishga tayyor bo'lmagan bolalarning muqaffaqiyatli o'zlashtirib ketishlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bolani erta o'qish, yozish, sanashga o'rgatib uning bilish jarayonlari zo'riqtirilsa, bolaning emotsional hissiy rivojlanishi uchun zarur bo'lgan miya quvvatining tanqislashuviga sabab bo'ladi. Bundan bolalarning emotsional-hissiy jarayonlarining kechishida yoki jismoniy rivojlanishida kamchiliklar sodir bo'ladi. Bunday holatda energiya taqsimlanishining majburan buzilishi sodir bo'lib, u 7-8 yoshli bolalarni qo'rquv, agressivlik yoki giperaktivlik holatlariga olib keladi. Bu bolani maktabda o'qishga tayyorlash kerak emas degan fikr emas, lekin bolaning aqliy rivojlanishiga erta o'qishni, sanashni, yozishni o'rgatish bilangina erishib bo'lmaydi. Ma'lumki, rivojlanish qonuniyatiga ko'ra har qanday taraqqiyot ko'rgazmali obrazlilikdan abstrakt mantiqiylikka qarab boradi. Agar bola hali o'qishga aqliy, ma'naviy-ruhiy jihatdan tayyor bo'lmay turib, unga harf va raqamlarni yozish, o'qish o'rgatilsa, psixik rivojlanishning teskari tomonga ketishiga sabab bo'ladi. Psixolog olimlarning fikricha, psixik va evolyusiyaga taraqqiyot qonunlari ham fizik qonunlardek buzilmas hamda universaldir. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytish mumkinki, neyrofiziologik jihatdan ixtiyoriy diqqat va o'qish uchun zarur bo'lgan ko'plab miyada kechadigan jarayonlar asosan 7-8 yoshda (aqliy yoshi o'zib ketgan bolalarda olti yoshda ham) shakllanadi. Ya'ni shu yoshda bola 45 minutlik aqliy mehnatga tayyor bo'ladi. Ammo taxminan 25 foiz bolalar maktabga moslashuvlarida turli xil muammolarga ega bo'lib aniqlanadi va ularning sonining yanada ko'payishi tendentsiyasi mavjud. Psixologik va pedagogik adabiyotlarda tobora ko'proq qat'iyat bilan qayd etilishicha, maktabga qabul qilingan bolalarning salmoqli qismi maktabga moslashishda jiddiy qiyinchiliklarni boshdan kechirmoqda. Ijtimoiy va psixologik stresslarga kam moslashish ularga noadekvat reaksiyalarni keltirib chiqaradi (affektlar, negativizm, xulq-atvorning tajovuzkor shakllari, o'ziga chekinish va boshqalar) Buning oqibati noto'g'ri xatti-harakatlarning barqaror stereotiplari, negativizm shakllanishidir. Boshqalar bilan munosabatlar tizimi deformatsiyalangan, bu asotsial ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

So'nggi paytlarda bolalarni maktabda o'qitish bilan bog'liq turli xil muammolarni o'rganishda maktabda noto'g'ri ishlash atamasi qo'llaniladi. Bu atama, qoida tariqasida, o'quvchining o'quv faoliyatidagi og'ishlarni anglatadi, o'rganishdagi qiyinchiliklar, intizomning buzilishi, sinfdoshlar bilan nizolash shaklida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bir qator hollarda maktabning psixologik moslashuvi o'qituvchilardan ham, ota-onalardan ham yashirin bo'lib qolmoqda. Uning belgilari o'quvchilarning taraqqiyoti va intizomiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi mumkin, o'zini sub'ektiv kechinmalarda ham, psixogen buzilishlar shaklida ham namoyon qiladi (E.V.Kagan, E.V. Novikova, A.M. Parishioners). Ushbu hodisaning ko'lamini va salbiy oqibatlarini hisobga olgan holda, maktabning noto'g'ri moslashuvi muammosi chuqur o'rganishnigina emas, balki amaliy darajada samarali yechimni shoshilinch izlashni talab qiladigan eng jiddiy ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi [3; 7-b].

Shu bilan birga, mamlakatimizda so'nggi yillarda faol rivojlanib borayotgan ushbu muammoning nazariy jihatlarini bilan tanishish maktabdagi dezadaptatsiya hodisasining mohiyati to'g'risida konseptual g'oyalarni shakllantirish va tegishli uslubiy vositalarni tanlash, uni tashxislash, oldini olish va tuzatishga yondashuvlarni takomillashtirish zarurdir.

Maktabga moslashish muammosini o'rganishning ma'lum bir bosqichi, bizning fikrimizcha, «Maktab dezadaptatsiyasining diagnostikasi» (1993) ilmiy-pedagogik qo'llanmaning nashr etilishi edi. Xususan, u maktabdagi moslashuvning ta'rifini beradi, bu «bolaning ijtimoiy-psixologik va psixofiziologik holatining maktab talablariga, maktab ta'limi holatiga, o'qishga, bolalarga, maktab ta'lim muassasasi va maktabgacha ta'lim muassasasi talablari o'rtasidagi nomuvofiqlikni ko'rsatadigan ma'lum belgilar to'plami» deb tushuniladi. Bu bolani o'zlashtirish bir qator sabablarga ko'ra qiyinlashadi yoki o'ta og'ir hollarda imkonsiz bo'ladi [2, p. 6]. Qo'llanma maktabga moslashishning ma'lum buzilishiga olib keladigan aqliy rivojlanish buzilishlarining

bir guruhini taqdim etadi. Sotsial iIntellect buzilishlar ko'proq ta'lim faoliyatini o'zlashtirishda qiyinchiliklarga, shaxsiy - boshqalar bilan muloqot qilish va o'zaro munosabatda bo'lishda qiyinchiliklarga olib keladi [1-2]. Neyrodinamikaning xususiyatlari, aqliy jarayonlarning beqarorligi xatti-harakatlarga ta'sir qiladi, bu ham o'quv faoliyatini, ham boshqalar bilan munosabatlarni buzishi mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, bu savollar psixologiyada yetarlicha batafsil o'rganilgan bolalarning maktabga tayyorligi muammosidan tashqariga chiqadi. Bu bolalarda maktabda o'qish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va qobiliyatlarning mavjudligi yoki yo'qligi haqida emas, balki bolaning shaxsining rivojlanish xususiyatlari, motivatsion va semantik tuzilmalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarga ham bog'liqdir.

Bolaning shaxsi, u maktabga kelgandan so'ng, rivojlanishning yangi ijtimoiy holatiga ega [4; 1].

Maktabda moslashuvning rivojlanishiga yordam beradigan omillar orasida dastlabki biologik moyillik, shaxsiy xususiyatlar, oilaviy munosabatlarning xususiyatlari, o'quv ko'nikmalarining shakllanmaganligi va o'qituvchining xatti-harakatlarining yo'nalishi mavjud.

M. S. Loginova, V. E. Kagan, E. V. Novikovalar shundan dalolat beradi

mutlaqo sog'lom bolalarda, shuningdek, turli neyropsixiyatrik kasalliklar bilan birgalikda maktabda moslashuvning alomatlari kuzatilishi mumkin. Shu bilan birga, maktabda noto'g'ri moslashish oligofreniya, aqliy zaiflik, qo'pol organik buzilishlar va hissiy organlarning jismoniy buzilishlar ham bor, bular o'quv buzilishlariga taalluqli emas.

Maktabdagi moslashuvni chegaradagi buzilishlar bilan birlashtirilgan o'rganishdagi nuqsonlar bilan bog'lashning klinik jihatdan asosli an'anasi mavjud. Shunday qilib, V. N. Petrune L. N. Taran «maktab nevrozini» o'ziga xos kasallik deb hisoblaydi.

Xuddi shu an'ana ko'plab G'arb tadqiqotlariga xos bo'lib, unda maktabdagi moslashuv maktabdan maxsus nevroitik qo'rquv, undan qochish sindromi yoki maktab tashvishi sifatida o'rganiladi.

Anksiyetening kuchayishi bevosita ta'lim faoliyatining buzilishida o'zini namoyon qilmasligi mumkin, ammo bu maktab o'quvchilari o'rtasida jiddiy ichki nizolarga olib keladi, maktabda muvaffaqiyatsizlikdan doimiy qo'rquv sifatida boshdan kechiriladi. Bunday bolalarda mas'uliyat hissi kuchayadi, ular maktabda yaxshi o'qiydilar va o'zlarini tutadilar, lekin ular ichki noqulaylikni boshdan kechiradilar. V. N. Voitko va Yu. Z. Gilbux nuqtai nazaridan, bunday bolalar o'z imkoniyatlarini ortiqcha yuklash rejimida ishlaydilar, bu ularning maktabga to'liq moslashishiga yordam bermaydi.

Ba'zi mualliflar bolaning maktabga moslashish jarayonini tavsiflab, noto'g'ri adaptatsiya tushunchasidan qochishadi va moslashishning turli darajalari haqida gapirishni afzal ko'radilar. Shunday qilib, A. L. Venger moslashishni keyingi hayotiy faoliyatning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan shaxsiy xususiyatlar, ko'nikma va qobiliyatlar tizimi sifatida ko'rib chiqadi va moslashuvning uchta darajasini belgilaydi:

1. Yuqori daraja. Birinchi sinf o'quvchisi ijobiy munosabatda bo'ladi, maktabda u o'quv materialini oson o'zlashtiradi, murakkab muammolarni hal qiladi, tirishqoq, mustaqil o'quv ishlariga katta qiziqish ko'rsatadi, sinfda qulay maqomni egallaydi.

2. O'rtacha daraja. Birinchi sinf o'quvchisi ijobiy munosabatda bo'ladi

maktab, o'quv materialini tushunadi. Agar o'qituvchi materiallarni ko'rgazmali va batafsil taqdim etsa, u dasturlarning asosiy mazmunini o'zlashtiradi, u o'zini qiziqtirgan narsa bilan band bo'lgandagina diqqatini jamlaydi, u ko'plab sinfdoshlar bilan do'st bo'ladi.

3. Past daraja. Birinchi sinf o'quvchisi maktabga salbiy yoki befarq munosabatda bo'ladi, sog'lig'ining yomonligi haqida shikoyatlar kam uchraydi, tushkun kayfiyat hukmronlik qiladi, o'quv materialini bilan mustaqil ishlash qiyin, ba'zi sinfdoshlar ism va familiyani bilishadi, ba'zi sinfdoshlarining yaqin do'stlari yo'q.

E. V. Novikova ta'kidlashicha, maktabdagi moslashuvning namoyon bo'lishi nafaqat o'rganishdagi qiyinchiliklar, xulq-atvorning buzilishi, sinfdoshlar va o'qituvchilar bilan nizolarda, balki o'rganish bilan bog'liq nevroitik reaksiyalarda, qo'rquv, kuchayishda ham namoyon bo'ladi.

Xulosalar

1. O'quv faoliyatining predmet tomonining zarur tarkibiy qismlarini etarli darajada o'zlashtirmaslik tufayli disadaptatsiya. Buning sabablari bolaning intellektual va psixomotor rivojlanishining etarli emasligi, ota-onalar va o'qituvchilar tomonidan yordam va tushunishning etishmasligida bo'lishi mumkin. Kattalar bolaning qobiliyatsizligi va ahmoqligini ta'kidlagandagina maktabda moslashuvning bu shakli keskin ravishda yuz beradi.

2. O'z xulq-atvorini o'zboshimchalik bilan boshqara olmaslik oqibatidagi disadaptatsiya. O'z-o'zini boshqarishning past darajasi faoliyatning mazmunli va ijtimoiy tomonlarini o'zlashtirishni qiyinlashtiradi. Buning sababi oilada noto'g'ri tarbiya bo'lishi mumkin (tashqi normalarning yo'qligi, cheklovlar).

3. Maktab hayotining sur'atiga moslasha olmaslik natijasida disadaptatsiya. Ushbu shakl ko'pincha somatik zaiflashgan bolalarda, aqliy zaifligi bo'lgan bolalarda, asab tizimining zaif turida uchraydi. Buning sabablari oilada noto'g'ri tarbiya bo'lishi mumkin, kattalar tomonidan

katta yuklarga bardosh bera olmaydigan bolalarning individual xususiyatlarini e'tiborsiz qoldirishi mumkin.

4. Oila jamoasi va maktab muhiti me'yorlarining parchalanishi natijasida disadaptatsiya. Ushbu shaklning paydo bo'lishining sabablari: bolaning oila doirasidan tashqariga chiqa olmasligi, maktabda aloqaning yo'qligi, o'qituvchiga ishonchsizlik, ota-onalar bilan xayrlashishdan vahima qo'rquvi.

Adabiyotlar

Avlaev, O. U., & Mamatkulova, Z. G. (2019). The interpersonal relationship of the dynamic components of social intelligence of students. *Science and education today*, (12 (47)).

Mirzayeva S.R. O'quv faoliyatida o'qituvchi-o'quvchi munosabatining psixologik xususiyatlari // *Central asian research journal for interdisciplinary studies*, 2022. Volume 2, Issue 2, pp. 297-306.

Mirzayeva S.R. O'quvchilarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishning pedagogik – psixologik tuzilishi // *Ta'lim va innovation tadqiqotlar*, 2022. №3, 247-25 b.

Burmenskaya G. V., Xarabanova O. A., Lidere A. G. *Vozrastno- psixologicheskoe konsultirovanie*. M., 1990.

Diagnostika shkolnoy dezadaptatsii / Pod red. S. A. Belichevoy. M., 1993.

Dorojeves T. V. *Izuchenie shkolnoy dezadaptatsii: Met. rek.* Vitebsk, 1995.

Kagan V. Ye. *Psixogenные формы shkolnoy dezadaptatsii*

// *Voprosy psixologii*. 1984. № 4. S. 89—95.

Novikova Ye. V. *Diagnostika i korreksiya shkolnoy dezadaptatsii u mladshix shkolnikov i mladshix podrostkov* // *Problemy psixodiagnostiki obucheniya i razvitiya shkolnikov*. M., 1985. S. 42—56.

Obshenie i formirovanie lichnosti shkolnika / Pod red. A. A. Bodaleva, R. P. Krichevskogo. M., 1998.

ЎСМИР ШАХСИДА ДЕЛИКВЕНТ АҲЛОҚ – ДЕВИАНТ ХУЎҚ-АТВОРНИНГ ШАКЛИ СИФАТИДА

Элов Зиёдулло Сатторович

*Бухоро давлат университети, Психология ва социология кафедраси доценти,
Психология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)*

Аннотация: Мақолада ўсмир шахсида деликвент ахлоқ тушунчасининг юзага келиши сабаблари ҳақида тўхталиб ўтилган бўлиб, девиант хуўқ-атвор ўсмир шахсида юзага келиши мумкин бўлган ҳолатларнинг психологик сабаблари ва унинг шаклари ёритиб берилган. Шунингдек, ушбу ҳолат бўйича Черазо Ломброзо фикрлари ва унинг тадқиқотларида аниқланган ҳолатлар ҳақида мулоҳазалар билдирилган.

Калит сўзлар: девиант, деликтвент, ахлоқ, қонун, айбдор, характер, жиноятчи, ахлоқ, идентификация, криминал, жиноятчи, атавизм, ҳиссиёт.

ДЕЛИНКВЕНТНЫЕ ПРАВЫ В ЛИЧНОСТИ ПОДРОСТКА – КАК ФОРМА ПРАВСТВЕННО – ДЕВИАНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ.

Элов Зиёдулло Сатторович

Бухарский государственный университет, доцент кафедры психологии и социологии, доктор философских наук в области психологии (PhD)

Аннотация: В статье рассматриваются причины делинквентной нравственности у подростка, объясняются психологические причины и формы девиантного поведения подростка. Также были даны комментарии к этой ситуации по поводу мнения Черазо Ломброзо и случаев, выявленных в его исследовании.

Ключевые слова: девиант, делинквент, мораль, закон, виновный, характер, преступник, мораль, личность, преступник, преступник, атавизм, эмоция.

DELINQUENT MORALITY AS A FORM OF DEVIANT BEHAVIOR IN ADOLESCENT PERSONALITY

Elov Ziyodullo Sattorovich

Bukhara State University, Associate Professor of the Department of Psychology and Sociology, Doctor of Philosophy in Psychology (PhD)

Abstract: The article discusses the reasons for the emergence of delinquent morals in a teenager; and explains the psychological causes and forms of deviant behavior in a teenager. Also, comments on this situation were made about the opinions of Cherazo Lombroso and the cases identified in his research.

Keywords: deviant, delinquent, morality, law, guilty, character, criminal, morality, identity, criminal, criminal, atavism, emotion.

Кириш: Деликвент (қонунга зид, антиижтимоий) ахлоқ муаммоси кўплаб ижтимоий фанларнинг тадқиқоти учун асосий ҳисобланади. Қонунга зид ахлоққа нисбатан турли ёндашувлардан фойдаланилади. Психологик адабиётларда уни кўпинча деликвент ахлоқ сифатида кўрсатадилар. Delin-quent сўзи лот, «ножўя хатти-ҳаракат, айбдорлик» маъноларини англатади. Бу атама остида биз шахснинг қонунга зид ахлоқи – ушбу жамиятда ва ушбу вақтда ўрнатилган қонунлардан оғишган, бошқа одамлар ёки ижтимоий тартибга, тинчликка хавф солувчи ва ўзининг охириги кўринишларида жинойий жазоланадиган аниқ шахснинг ҳаракатини тушунамиз.

Адабиётлар таҳлили ва мулоҳазалар: Биологик омилларнинг шахснинг оғувчи ахлоқи шаклланишига ва келгусида жиноят содир этишга мойиллигига жиддий таъсирини биринчи бўлиб таниқли италиялик олим ва криминалист Чезаре Ломброзо таъкидлаб ўтган. Унинг фикрича, биологик белгилар ташқи қиёфа ва ахлоқда қай даражада ўз ифодасини топишига қараб, жиноятчи шахси тўғрисида ҳулоса қилиш мумкин. Тадқиқотнинг асосий усуллари сифатида Ломброзо антропометрик характеристикаларни ҳам кузатиш усулини қўллаган ва улар ёрдамида киши қиёфасини баҳолаш аломатлари тизимини ажратган. Бу аломатлар туғма жиноятчини тўғри кишидан фарқлаш имконини берди. Бунинг устига, Ломброзо кишининг ташқи белгиларига кўра ҳатто жиноятчиларнинг алоҳида тоифаларини дифференциаллаштириш (табақалаштириш) мумкин деб ҳисоблаган.

Ломброзо жиноятчилар оилаларининг генеалогик жадваллари ва кадастрларини тузиш билан шуғулланиб, жинойий ахлоқнинг ирсий омиллар шаклланишида улкан рол ўйнашини таъкидлади. Мазкур ҳолатни у атавизм кўринишига – авлодларни бир неча авлод орқага улар аجدодларининг жинойий ўтмиш(лар)ига қайтарувчи

руҳий ривожланиш регрессига киритди. Атавизм ёки авлод наслининг бузилиши аломатлари олим томонидан деликвентнинг сусайиб қолган сезувчанликда, «хиссиёт тўмтоқлиги»да ва унинг атрофдаги инсонларнинг дарди ва қувончидай хиссий таъсирланишга лаёқатсизлигида намоён бўлувчи ўзига хос ахлоқий телбалик («moral insanity») сифатида кўриб чиқилади. Шундан сўнг, Ломброзонинг фикрига кўра, бу субъект идентификациясининг ўзи яшаётган жамият аъзолари билан алоқасининг узишга олиб келади. Ҳозирги вақтда Ломброзо томонидан белгилаб берилган жиноятчи шахсининг пушаймон-ликни инкор этишга сабаб бўлувчи ахлоқий хиссиёти ва умуминсоний қадриятларни тан олиш лаёқатининг ривожланмаганлиги хусусиятлари жиноят оламида етарли даражада кенг тарқалган.

